

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Uzoqov Asliddin Mexritdinovich

**HARBIY TA‘LIM FAKULTETI
HARBIY PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA**

O‘quv qo‘llanma

**Buxoro – 2022
“KAMOLOT” NASHRIYOTI**

355.092:175(08)

N 20

Uzoqov, Asliddin Mexritdinovich Harbiy psixologiya va pedagogika [Matn] : o'quv qo'llanma / A.M. Uzoqov.- Buxoro: "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2022.-366 b.

UO'K 355.092:175(09)

KBK 23.151.4ya9

Mazkur o'quv qo'llanma "Harbiy ta'lim" fakulteti professor-o'qituvchilari hamda 5111500- "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan. O'quv qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlar "Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari" dasturiga mos keladi va ushbu dasturning barcha savollarini ochib beradi. Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlaridagi bakalavriat yo'nalishi dasturi psixologiyasi va pedagogika fanlarini qamrab oladi.

Taqrizchilar:

-Mehridin Junaydullayevich Abdullayev - Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti "Jismoniy madaniyat" kafedra mudiri: pedagogika fanlari falsafa doktori, professor

-Bahodir Baxtiyorovich Sa'dullayev - Buxoro muhandislik texnologiyalar instituti jismoniy madaniyat kafedrasini mudiri pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 25 dekabrda 538-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan

ISBN 978-9943-8092-8-4

© Uzoqov Asliddin Mexritdinovich

T/r	Modul va bo‘limlarning nomlanishi	Betlar
1.	Kirish	9
2.	1-MODUL: HARBIY PSIXOLOGIYA FANIGA KIRISH	12
3.	1-mavzu: Harbiy psixologiya faniga kirish. Psixika va ongning rivojlanish tarixi	12
4.	1.1.Harbiy psixologiya fani. Psixika va ongning rivojlanish tarixi	12
5.	1.2. Ofitserlar tarkibining psixologik – pedagogik tayyorgarligiga O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Mudofaa vazirining talablari.	17
6.	1.3. Harbiy psixologiya va pedagogika asoslarining predmeti va maqsadi, vazifalari	21
7.	1.4. Harbiy psixologiya va pedagogikaning metodologik va ilmiy nazariy asoslari	24
8.	2-MODUL: HARBIY FAOLIYATDA PSIXOLOGIK BILISH JARAYONLARINING O‘RNI	28
9.	2-mavzu: Psixologik bilish jarayonlari	28
10.	2.1.Sezgilar idrok, diqqat	28
11.	2.2.Tasavvur, xayol	40
12.	2.3.Xotira va uning turlari	44
13.	3-mavzu: Harbiy faoliyatda tafakkur va nutq	49
14.	3.1.Harbiy faoliyatda tafakkur va nutq	49
15.	3.2.Tafakkurning harbiy faoliyatdagi ahamiyati	55
16.	3.3.Harbiy xizmatchilarda nutqni rivojlantirish yo‘llari. Komandirlik (rahbarlik) nutqi	58
17.	3-MODUL: HARBIY XIZMATCHI SHAXSINING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI VA EMOTSIONAL HOLATLARI	63
18.	4-mavzu: Harbiy xizmatchilardagi emotsiya, hissiyot va iroda	63
19.	4.1.Emotsiya va hissiyotlar haqida tushuncha	63
20.	4.2.Iroda, uni harbiy xizmatchilarda tarbiyalash yo‘llari	71

T/r	Modul va bo‘limlarning nomlanishi	Betlar
21.	5-mavzu: Harbiy xizmatchi shaxsining psixologik muammolari	76
22.	5.1.Shaxs va uning belgilari	76
23.	5.2.Harbiy xizmatchilardagi temperament va xarakterlar	80
24.	5.3.Qobiliyatlar, ularni harbiy xizmatchilarda rivojlantirish	88
25.	4-MODUL: HARBIY PSIXOLOGIYANING O‘RGANISH METODLARI	94
26.	6-mavzu: Harbiy psixologiyaning o‘rganish metodlari	94
27.	6.1.Harbiy xizmatchilar psixologiyasini o‘rganish metodlari	94
28.	6.2.Harbiy xizmatchilardagi individual xususiyatlarni o‘rganish dasturi	101
29.	6.3.Harbiy xizmatchilar bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarni olib borish tartibi	103
30.	7-mavzu: Harbiy jamoaning psixologik manzarasi	124
31.	7.1.Harbiy jamoaning psixologik manzarasi	124
32.	7.2.Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar	127
33.	7.3.Ijtimoiy fikr va jamoa kayfiyati haqida tushuncha	130
34.	7.4.Harbiy jamoaning psixologik manzarasini tuzish tartibi	134
35.	7.5.Bo‘linmada ijtimoiy fikrni shakllantirish tartibi	136
36.	5-MODUL: HARBIY-KASBIY FAOLIYAT PSIXOLOGIYASI	143
37.	8-mavzu: Suitsid, uning ijtimoiy-psixologik sabablari	143
38.	8.1.Suitsid, uning ijtimoiy-psixologik sabablari	143
39.	8.2.Ruhiy bemor va sog‘lom kishilardagi suitsidal xulq-atvorlar	145
40.	8.3.Suitsidal xulq-atvorlarni aniqlash usullari	148
41.	8.4.Bo‘linmada suitsidni oldini olishda komandirning amalga oshiradigan tadbirlari	155
42.	9-Mavzu: Harbiy faoliyat psixologiyasi	158

T/r	Modul va bo‘limlarning nomlanishi	Betlar
43.	9.1.Harbiy faoliyat psixologiyasi	158
44.	9.2.Jangovar, o‘quv – jangovar faoliyat xususiyatlari	161
45.	9.3.Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish	166
46.	9.4.Bo‘linmada va harbiy xizmatchilar orasida vahima va uning oldini olish yo‘llari	168
47.	10-mavzu: Harbiy xizmatchilarni axloqiy-psixologik tayyorlash	174
48.	10.1.Harbiy xizmatchilarni axloqiy – psixologik tayyorlash	174
49.	10.2.Shaxsiy tarkibni jangovar tayyorgarlik jarayonida psixologik chiniqtirish (tayyorlash)	179
50.	10.3.Harbiy xizmatchi va bo‘linmalar psixologik xususiyatlarini o‘rganish usullari	183
51.	10.4.Motivatsiya	191
52.	11-mavzu:Harbiy xizmatchi va harbiy jamoani o‘rganish usullari	195
53.	11.1.Qaydnoma orqali harbiy xizmatchilar temperamentini aniqlash usullari	195
54.	11.2.Harbiy xizmatchilar psixologik xususiyatlarini o‘rganish usullari	204
55.	11.3.Bo‘linmada harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganish usuli	210
56.	11.4.Harbiy jamoadagi psixologik muhitni aniqlash usuli	213
57.	11.5.Harbiy bo‘linmaning jamoa sifatidagi ijtimoiy – psixologik rivojlanish darajasini aniqlash usuli	217
58.	6-MODUL: HARBIY PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI	226
59.	12-mavzu: Harbiy pedagogikaning maqsad va vazifalari. Harbiy rahbar va ofitser faoliyatida pedagogik bilimlarning o‘rni	226
60.	12.1.Harbiy pedagogikaning maqsad va vazifalari	226
61.	12.2. Harbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi	230

T/r	Modul va bo‘limlarning nomlanishi	Betlar
62.	12.3. Harbiy pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari	232
63.	12.4. Harbiy pedagogik jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari	
64.	7-MODUL:HARBIY DIDAKTIKA	238
65.	13-mavzu: Harbiy didaktika. Harbiy xizmatchilar ta’limi	238
66.	13.1.Ta’lim jarayonining mohiyati, mazmuni va umumiy tavsifi. Ta’lim jarayonining asosiy prinsiplari	238
67.	13.2. Ta’limning tashkiliy shakllari haqida tushuncha. Ta’lim metodlari va ularning tavsiflari	249
68.	14-mavzu:Shaxsiy tarkib harbiy mahoratini shakllantirishning psixologik – pedagogik asoslari.	263
69.	14.1.Shaxsiy tarkib harbiy mahoratini shakllantirishning psixologik – pedagogik asoslari	263
70.	14.2.Harbiy xizmatchilar bilimi, ko‘nikmasi va malakalarini tekshirish va baholash	267
71.	14.3.Tekshirish maqsadi va turlari. Shaxsiy tarkib tayyorgarligini tekshirish metodlari	271
72.	8-MODUL:TARBIYA NAZARIYASI VA AMALIYOTI	274
73.	15-mavzu: Tarbiya nazariyasi va amaliyoti	274
74.	15.1.Tarbiya jarayonining metodologik asoslari	274
75.	15.2.Xavfsizlik, osoyishtalik va farovonlikning inson tarbiyasiga bog‘liqligi	282
76.	15.3.Insonning nodir betakrorligi va milliy g‘oya, milliy mafkuraning pedagogik asoslari	285
77.	15.4.Tarbiyada shaxs rivojlanishini amalga oshirishda ajdodlarimiz ilmiy merosining ahamiyati	288
78.	16-mavzu: Tarbiyaning tamoyillari	291
79.	16.1.Tarbiyaning ilmiyligi va ongliligi. Tarbiyada ishontirish	291
80.	16.2.Tarbiyaning hayot va harbiy faoliyat bilan bog‘liqligi. Tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakteri	300

T/r	Modul va bo‘limlarning nomlanishi	Betlar
81.	16.3.Tarbiyada vijdon, iroda, qat’iyatlik va ishonch. Tarbiyada intizom, axloq va burch uyg‘unligi	301
82.	16.4.Tarbiyaning yakka va uzluksizligi xarakteri	307
83.	17-Mavzu: Tarbiyaning mazmuni va vazifasi	312
84.	17.1.Harbiy vatanparvarlik, axloqiy, huquqiy tarbiya	312
85.	17.2.Harbiy xizmatchilarda ma’naviy – madaniy tarbiya	325
86.	17.3.Harbiy xizmatchilarning ekologik tarbiyasi	
87.	18-Mavzu: Tarbiya metodlari	330
88.	18.1.Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Harbiy xizmatchilarning ma’naviy – intellektual sifatlarini baholash usullari	330
89.	18.2.Harbiy xizmatchilar hayotida axloq masalasi. Munozara	342
90.	18.3.Harbiy pedagogikaning ilmiy – tadqiqot metodlari	347
91.	18.4.Ofitserning o‘zini – o‘zi tarbiyalash metodlari	
92.	9-MODUL: HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY VA MA’NAVIY – AXLOQIY TAKOMILLASHUVI	353
93.	19-mavzu: Harbiy xizmatchilar mustaqil ta’limi va tarbiyasi jarayonining mazmuni va maqsadlari.	353
94.	19.1.Mustaqil ta’lim va tarbiya haqida tushuncha	353
95.	19.2.Harbiy xizmatchilarning mustaqil ta’limi va tarbiyasini tashkil etish	356
96.	20-mavzu: Ofitser pedagogik madaniyati, mahorati va mehnatini shakllantirish, takomillashtirish va tashkil etish	359
97.	20.1.Pedagogik madaniyat va mahorat haqida tushuncha. Ofitserning pedagogik qobiliyatlari	359
98.	20.2.Pedagogik takt. Ofitserning pedagogik axloqi. Pedagogik texnika va uning tarkibiy qismlari	362
99.	20.3.Pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari	367

T/r	Modul va bo‘limlarning nomlanishi	Betlar
100.	Foydalanilgan adabiyotlar	370
101.	Glossariy – izohli so‘zlar lug‘ati	372
102.	Foydalanilgan adabiyotlar	373

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilan xalqimiz hayotida yangi davr boshlandi. Butun jamiyatimizda bo‘lgani singari, Qurolli Kuchlarimiz faoliyatida ham katta o‘zgarishlar yuz berayapti. Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligining kafoloti va asosiy ramzlaridan biri bo‘lib, u 1991-yildan keyin, amalda yangidan barpo etildi. Davlatimiz mudofaasini yetarli darajada himoya qilishga qodir bo‘lgan armiyani, yetuk ofitser-komandirlarsiz tasavvur qilish qiyin. Harbiy xizmatchilarni har tomonlama yetuk shaxslar qilib tarbiyalashda “Harbiy pedagogika – psixologiya” fanining ham o‘ziga xos o‘rni bor.

Harbiy psixologiyaga oid bilimlar va qonuniyatlarni o‘zlashtirish harbiy xizmatchilarni, jumladan, ofitserlar faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlovchi mezonlardan biridir.

Harbiy psixologiya ma’lumotlaridan, harbiy pedagogika fanida keng foydalaniladi. Harbiy xizmatchilarning ruhiy xususiyatlarini bilmasdan turib, ularni o‘qitish va tarbiyalash ishlarini yaxshi yo‘lga qo‘yib bo‘lmaydi. Qisqacha qilib aytganda, harbiy psixologiyaning maqsadi, harbiy xizmatchilar mehnatini yengillashtirish va takomillashtirishdir.

Jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini risoladagidek tashkil etish hamda olib borish, harbiy xizmatchilarda axloqiy-jangovar sifatlarni shakllantirishni ta’minlaydi. Shuningdek, bunday sifatlarni shakllantirish, umuman, harbiy jamoalardagi intizomning holatiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Tajribali komandirlar ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda o‘z bo‘linmalaridagi ruhiy holatni e’tiborga olgan holda, u yoki bu harbiy xizmatchining ongiga qanday ta’sir o‘tkazishni bilishadi. Bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashning qonuniyatlarini, insonni to‘laqonli shaxs qilib kamol toptirish yo‘llarini bilmagan tarbiyachilar esa xatoliklarga yo‘l qo‘yishadi. Bunday vaziyatda olingan natijalar, qo‘yilgan maqsad bilan mos kelmaydi, komandir esa bunday nomutanosiblikning sababini bilmaydi, natijada o‘zi olib borayotgan ta’lim-tarbiya ishidagi kamchiliklarni tuzata olmaydi.

O‘qitish va tarbiyalash murakkab jarayon bo‘lib, u harbiy xizmatchilar ongiga shunday ta’sir etishni nazarda tutadiki, toki ular jangovar harakatlarni muvaffaqiyatli olib borishlari uchun zarur

bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirsinar. Shunday ta'sir ostida ularda yana siyosiy onglilik, harbiy burchga sadoqat va Vatan mudofaasi uchun mas'uliyat hissi kabi sifatlar shakllanadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev:
- "Rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir", degan edi. (2020-yil 23-avgust. Videoselektor yig'ilishidagi nutqdan)

Harbiy faoliyat, ayniqsa, ofitserlik faoliyati murakkab va qiyin faoliyatlardan biri hisoblanadi. Buning sababi ushbu faoliyat kishisiga tushadigan jismoniy va ruhiy zo'riqishgagina bog'liq bo'lmasdan, ofitserning harbiy xizmatchilar bilan, shuningdek, texnika hamda qurollar bilan faoliyat yuritishi bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, harbiy jamoa ham o'zining ijtimoiy - psixologik tabiatiga va tarkibiga ega bo'lib, ular ham o'ziga xos qonuniyatlarga asoslanib rivojlanadi. Qo'llanmada, jangovar faoliyat, shaxsiy tarkibni jangovar tayyorgarlik jarayonida psixologik chiniqtirish kabi bir qator harbiy psixologiya nuqtai nazaridan muhim bo'lgan muammolar tahliliga katta o'rin berilgan.

Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari fanini o'zlashtirish jarayonida talaba quyidagilarni o'zlashtirishi lozim:

- chaqiriqqacha, chaqiriq yoshidagi o'smirlarda va harbiy xizmatchilarda bilish jarayonlarini hisobga olish va rivojlantirish;
- harbiy faoliyat sharoitida shaxsiy tarkibning hissiyoti va irodasi;
- shaxsning psixik xususiyatlari va ularni chaqiriqqacha va chaqiriq yoshidagilar va harbiy xizmatchilar ta'lim-tarbiyasida hisobga olish;
- harbiy mahoratni shakllantirishning pedagogik asoslari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- harbiy jamoa psixologiyasi va shaxsiy tarkibni jiplashtirishda ofitserlar faoliyatini hisobga olish;
- ko'p millatli harbiy jamoani shakllantirish va jiplashtirishning psixologik asoslari;
- guruhdagi o'zaro munosabatlar xarakterini o'rganish va tahlil qilish;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishga chaqiriqqacha va chaqiriqdagi yoshlarni psixologik tayyorlash;
- chaqiriqqacha va chaqiriqdagi yoshlarni o‘qitishning mohiyati va tamoyillari;
- bo‘linmalar shaxsiy tarkibini o‘qitishning metod va shakllari;
- chaqiriqqacha va chaqiriq yoshidagi o‘smirlar bilan individual tarbiyaviy ishlar olib borishni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- guruhdagi o‘zaro munosabatlar xarakterini o‘rganish va tahlil qilish;
- kollektiv psixologiyasini mustaqil tahlil qila olish;
- chaqiriqqacha va chaqiriqdagi yoshlar shaxsiga va harbiy xizmatchilarga haqqoniy psixologik-pedagogik tavsifnoma bera olish;
- o‘z pedagogik faoliyatini rejalashtirish;
- ta’lim muassasalarida o‘qitish va tarbiyalashning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo‘llash;
- o‘quvchilar bilimini baholash;
- ota-onalar, jamoa, o‘quvchilar bilan yakka va guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Mazkur o‘quv qo‘llanma “Harbiy ta’lim” fakulteti professor-o‘qituvchilari hamda 5111500 - “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmada keltirilgan ma’lumotlar “Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari” dasturiga mos keladi va ushbu dasturning barcha savollarini ochib beradi. Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlaridagi bakalavriat yo‘nalishi dasturi psixologiyasi va pedagogika fanlarini qamrab oladi.

1-MODUL. HARBIY PSIXOLOGIYA FANIGA KIRISH

1-mavzu: Harbiy psixologiya faniga kirish. Psixika va ongning rivojlanish tarixi

Reja:

1. Harbiy psixologiya fani. Psixika va ongning rivojlanish tarixi.
2. Ofitserlar tarkibining psixologik–pedagogik tayyorgarligiga O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Mudofaa vazirining talablari.
3. Harbiy psixologiya va pedagogika asoslarining predmeti va vazifalari.
4. Harbiy psixologiya va pedagogikaning metodologik va ilmiy-nazariy asoslari.

1.1. Harbiy psixologiya fani. Psixika va ongning rivojlanish tarixi.

Harbiy psixologiya fanining mazmuni haqida gapirishdan oldin, umuman, “psixologiya”, “psixika” tushunchasining mohiyati, ya’ni uning nimani “anglatishi” to‘g‘risida to‘xtalib o‘tsak.

Psixologiya – eng qadimiy fanlardan bo‘lib, bundan 2,5 ming yil ilgari jon haqidagi ta’limot sifatida vujudga kelgan. VII-V asrlarda o‘tgan qadimgi grek faylasuflarining asarlaridayoq kishining joni va ruhiy hayoti to‘g‘risida juda ko‘p xilma-xil fikrlar bayon qilinganligini ko‘ramiz. Bu masalalar qadimgi Xitoy va qadimgi hind mutafakkirlarining muhokamalarida ham katta o‘rin tutadi.

Kishining psixikasi haqidagi muntazam ta’limotni birinchi marta Aristotel (eramizdan oldingi 384—322-yillar) “Jon haqida” degan kitobida bayon qilgan. Shu sababli Aristotel alohida fan bo‘lgan psixologiyani vujudga keltirgan kishi yoki psixologiya fanining “otasi” hisoblanadi.

Uzoq vaqtgacha psixologiya mustaqil fan bo‘lmay, falsafa tarkibiga kirib kelgan. Alohida ilmiy fan ma’nosidagi “psixologiya” termini ham yo‘q edi. Bu termin XVI asr oxirida paydo bo‘lib, XVIII asr o‘rtalaridan boshlab hamma ishlatadigan bo‘lib qoldi. Psixologiya XVIII asrning oxirida va XIX asrning boshlaridagina mustaqil fan bo‘lib shakllandi.

Qadimgi zamonlardan to bizning zamonimizgacha psixologiya sohasida idealizm bilan materializm o‘rtasida kurash bo‘lib keldi. Psixologiyadagi bu kurash hamisha sinfiy kurashning in’ikosi bo‘lib

keldi. Psixika, ong nima degan masala, shu bilan birga, odam organizmida psixik jarayonlar bilan fiziologik jarayonlar o'rtasidagi munosabat masalasi ham shu kurashda markaziy o'rinni egallab keldi.

Psixika va ong haqidagi ta'limot idealistik va vulgar materialistik qarashlar hamda nazariyalarga qarshi kurashda chiniqa bordi.

Idealistlar, odamning psixik hayotini odam tanasi bilan qandaydir noma'lum yo'l bilan qo'shib, odamda gavdalangan, jismi yo'q moddiy bo'lmagan alohida bir narsaning, ya'ni ruh yoki jonning zohir bo'lishi deb hisoblaydilar. (So'zlashganimizda va adabiyotda ham "odamning joni" va "odamning ruhi" degan termin ishlatamiz. Ammo bu terminlarni biz moddiy bo'lmagan alohida bir narsani ifodalash uchun emas, balki "psixika" so'zini qay ma'noda ishlatsak, o'sha ma'noda ishlatamiz). Idealistik psixologiya namoyandalari psixik jarayonlar bilan fiziologik jarayonlarning o'zaro munosabati haqidagi masalani talqin qilishda yo psixofizik parallelizm yoki psixofizik o'zaro ta'sir nuqtai nazarida turadilar.

Psixofizik parallelizm tarafdorlari fiziologik va psixik hodisalar bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda yonma-yon (parallel ravishda) voqe bo'ladi, deb hisoblaganlar. Bu qarashga ko'ra, odamning hayot faoliyati qo'shib ketmaydigan ikki oqim - organik hayot bilan psixik hayotning harakatlanishidan iborat emish.

Psixofizik o'zaro ta'sir tarafdorlari ta'limotiga ko'ra, psixik hodisalar bilan fiziologik hodisalar o'z tabiati, e'tibori bilan har xil bo'lsa-da, bizning o'zimiz idrok etayotgan, tasavvur qilayotgan, fikr yuritilayotgan va aytayotgan narsamizga qaratish, bir nuqtaga to'plash demakdir.

Psixologik hodisalar subyektiv kechinmalar aks etiladigan narsa va hodisalarning miyamizdagi obrazlari shaklida ro'y beradi. Ammo, barcha subyektiv psixik hodisalar sirtida, organizmimizning xilma-xil o'zgarish va harakatida: mimika, imo-ishora, nutq pantomimikasida o'z ifodasini topadi.

Odamning psixik hayoti organizm harakatlarida o'z ifodasini topadi, shu harakatlar yig'indisi esa xulq-atvor deb ataladi.

Psixika bir butun yaxlit bir narsadir. Psixikaning bu birligi va yaxlitligiga sabab avvalo shuki, bosh miya faoliyati bir butun va yaxlitdir.


Psixikaning to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun quyidagi shart – sharoit mavjud bo‘lishi kerak:		
Miyaning to‘laqonli faoliyati	Tashqi dunyo bilan doimiy ravishda chambarchaslik	Odamlar hamda madaniy meros yodgorliklari bilan hamjihatlik

Psixik hayotning hamma tomonlari: aql, his va iroda shaxsning faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shaxs olamni biladi, shaxs turli hislarni dildan kechiradi va shu shaxs ish-harakat qiladi.

Psixik faoliyatning barcha ayrim turlari yagona ong funksiyasi - shaxsning funksiyasidir.

Psixik hayot hodisalari haqidagi ilmiy bilimlarni egallash shaxs dunyoqarashining shakllanishida katta ahamiyatga egadir.

Odam psixologiyani o‘rganar ekan, o‘zidagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixikasini bila oladigan bo‘lib qoladi. Bu bilim esa boshqa kishilarni va o‘zini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.



Psixika va psixologiya farq nimada?

Psixologiyaning bilish, ma’lumot olish ahamiyati shulardan iboratdir.

Shu bilan birga, psixologiya (jumladan, psixologiya metodlari) kishilar amaliy faoliyatining har xil turlarida - ta’lim-tarbiya, ishlab chiqarish, mehnat, tibbiyot, sud-huquqshunoslik, harbiy-mudofaa, san’at va boshqa sohalarda ham katta ahamiyatga egadir.

Pedagogika ishida, ya'ni yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashda psixologiyaning ahamiyati, ayniqsa, katta.

Pedagog, talabalarga biron materialni tushuntirar ekan, shu materialni talabalar qanday o'zlashtirayotganini, ko'ruvchilar qanday idrok etayotganini, eslab qolayotganini, fikrlayotganini, ularda diqqat-e'tibor, hissiyot qanday namoyon bo'layotganini, talabalarning yosh xususiyatlariga qarab bu jarayonlar qanday ro'y berayotganini bilish lozim.

Hozirgi paytda ishlab chiqarish, ishlab chiqarish ta'limi va mehnatni tashkil etishning har xil turlarida psixologiyadan keng foydalanilmoqda. Ishning har bir turi, har bir kasb, odamdan tegishli bilim va mahorat talab qilish bilan birga, maxsus psixologik sifatlarni ham talab qiladi. Shu sababli, ixtisosga qarab murakkab va mas'uliyatli mehnat operatsiyalarini bajarishga to'g'ri keladigan kishilar, maxsus psixologik tekshirishdan o'tkaziladi. Masalan, dastlabki kosmonavtlarni tanlashda talabgorlar xotirasi juda yaxshi, fahmi o'tkir, diqqatini bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko'chira oladigan, aniq uyg'un harakatlarni tez bajara oladigan kishilarni ajratib olish maqsadida tekshirib ko'rildi.

Korxonalar va boshqa xo'jalik, madaniy va ma'muriy muassasalarining hamda tashkilotlarning rahbarlari kadrlarni tanlay bilishi, ularni joy-joyiga qo'ya bilishi, ularga rahbarlik qila olishi kerak. Buning uchun esa ularning qobiliyatlari, xarakteri, mehnatga munosabati va boshqa shu kabilarning farqiga bora bilishi kerak.

Psixologiya tibbiyot bilan qadimdan bog'lanib keladi. Kasalliklar orasida psixik kasalliklar bo'ladi. Bunday kasalliklarni ham, asosan, psixologik vositalar bilan davolashga to'g'ri keladi. Shifokor psixik kasalliklarni yaxshiroq ajrata bilmoq uchun odamning normal psixologiyasini ham bilishi kerak. Boshqa kasalliklarni, ayniqsa, asab kasalliklarini davolashda ham shifokor bemorning ruhiy holatini bila olishi va kasallikning borishiga ruhiy holatning ta'sirini nazarda tutishi lozim. Shifokor bemorga psixik ta'sir ko'rsatish vositalarini, ishontirish, maslahat berish va boshqa shu kabilarning ahamiyatini bilishi kerak.

“Psixologiya” so'zi yunoncha so'z bo'lib, “psixos” - ruh, jon; “logiya” - ta'limot degan ma'noni bildiradi. Demak psixologiya – bu ruh haqidagi ta'limot demakdir. Ruh so'zi ishlatilishda psixika so'zi bilan hamohang tarzda qo'llaniladi.

Psixika – bu miya funksiyasi bo‘lgan obyektiv haqiqat obyektlari va hodisalarining aksidir.

Psixologiya fan sifatida alohida hamda guruh psixikasi borligini, rivojlanish ta’limotini, ularning mohiyatini, rivojlanish va shakllanish shakllarini, faoliyat va xatti–harakatdagi o‘rni va rolini o‘rganadi.

Psixologiya 2000 ming yildan ilgariroq yuzaga kelgan fan sifatida o‘rganiladi. Psixologiyaning tarixi bu, insonning dunyoga va yashashning ma’nosiga bo‘lgan qarashlar hisoblanadi. Inson, umuman olganda, hayot ma’nosini qidirishga mahkum etilgan, busiz u yaratishga tayyor emas, passiv hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda psixologiya juda keng tarmoqli fanlardan biriga aylangan. Harbiy psixologiya ushbu fan tarmoqlaridan biri bo‘lib, o‘zining o‘rganish obyekti-muammolari, usullari va qonuniyatlariga ega.

Harbiy psixologiya harbiy xizmatchi va harbiy jamoalar ichki olami, ruhiy rivojlanish qonuniyatlari haqidagi fan bo‘lib, ofitser faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Shuni aytib o‘tish kerakki, harbiy psixologiya nazariyadan ko‘ra amaliyotga yaqinroq, ya’ni harbiy xizmatchi o‘z faoliyatida to‘qnash keladigan muammolarni tahlil qilishga va hal etishga yo‘naltirilgan.

Shaxsiy tarkibni o‘qitish va tarbiyalash ofitser faoliyatining asosini tashkil etadi. O‘qitish va tarbiyalash jarayonlari esa psixologik bilimlarga asoslanadi.

Harbiy psixologiya fan sifatida o‘z oldiga ma’lum maqsadlarni qo‘yadi. Ular quyidagilar:

- Shaxsiy tarkibning jangovar, ijtimoiy-siyosiy tayyogargarligi sifati hamda samaradorligini oshirishning psixologik shart-sharoitlarini o‘rganish;

- Harbiy jamoalardagi ijtimoiy-psixologik muammolarni o‘rganish;

- Harbiy intizomni psixologik tahlil qilish, jamoani uyushtirish va intizomni mustahkamlash yo‘llarini axtarish;

- Jang va harbiy xizmat sharoitlari uchun boshqaruvning psixologik asoslarini ishlab chiqish;

- O‘qitish va tarbiyalashning uslub hamda shakllarini psixologik jihatdan asoslash, ularni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish va h.k.

1.2. Ofitserlar tarkibining psixologik-pedagogik tayyorgarligiga O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Mudofaa vazirining talablari

Mamlakatimiz inson hayotining hamma soha va jabhalari bo‘yicha islohotlar davrini boshdan kechirayapti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 28 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida, jumladan, quyidagilarni ta’kidladi; **“Biz yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlash, o‘quv-tarbiya jarayonlariga ilg‘or xorijiy tajribalarni, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga bundan buyon ham birinchi darajali ahamiyat qaratamiz”**.

Davlatimiz Qurolli Kuchlarda jadal islohotlar olib borish davrida harbiy kadrlarning professionallik darajasini oshirishni yetarli darajadagi jangovar shaylikni saqlashining eng zarur shartlaridan biri deb hisoblaydi. Qurolli Kuchlar o‘quv yurti ofitseri, chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchisi kabi shaxslar, o‘quv tarbiya jarayonida asosiy shaxs hisoblanadi, ular amaliyotda asosiy didaktik prinsiplar, ta’lim berish va tarbiyalashning forma va usullarini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Mudofaa vazirligi ofitserlar tarkibining psixologik – pedagogik tayyorgarligiga quyidagi talablarni qo‘yadi:

- uzviy komponentni birligi, ishga tashabbuskorlik bilan va ijodiy yondashish;

- ijtimoiy - siyosiy, tarbiyaviy jihatlarini hisobga olishni bilish;

- insonlarga turmushda namuna bo‘lish, ularning talab va ehtiyojlarini bilish;

- sabot bilan qo‘shinlarni boshqarish san’atini egallash, oqilona tashabbuskorlik ko‘rsatish, ilmiy-nazariy saviyasini oshirish, jangovar va siyosiy tayyorgarlikni, qo‘shinlar jangovar shayligini va harbiy intizomni yuksaltirishda o‘z hissasini qo‘shish;

- bevosita o‘quv poligonlarida doimiy ravishda o‘rganish va boshqalarga o‘rgatish, zamonaviy jangovar texnika va qurollarni sabot bilan egallash;

- bo‘ysunuvchilar bilan sidqidildan ishlash, ularni o‘rgatish va tarbiyalash hamda otalarcha g‘amxo‘rlik ko‘rsatish;

- harbiy mojarolar hamda qurolli to'qnashuvlar tajribalarini o'rganib chiqish va o'z amaliy faoliyatida uni ijodiy qo'llashga intilish. Ushbu talablarni bajarish har bir harbiy xizmatchidan bilim, saviya va kuchli ruhiy tayyorgarlikni talab etadi.

Quyida biz maktab chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik harbiy rahbarining o'quv tarbiyaviy ishlarining ba'zi jihatlarini, unga harbiy fanlar o'qituvchisi va shaxs sifatida boshqa fan o'qituvchilariga nisbatan qo'yiladigan ayrim talablar bilan tanishamiz.

Ta'limning ommaviy xarakteri bilan, axborot hajmi qizg'in o'sishi, yoshlarning professional tayyorgarligiga talablarning oshishi, uyg'un shaxsni shakllantirishda tarbiyaviy vazifalar murakkablashishi sababli harbiy rahbarning o'rni, uning jamiyat oldida javobgarligi borgan sari oshmoqda.

Harbiy rahbarning muvaffaqiyati shartlaridan biri uning psixologik pedagogik funksiyasi, pedagogik mahorati hisoblanadi. Gap shundaki, harbiy rahbar o'quvchilarning ongiga, avvalambor, ofitser, Qurolli Kuchlar vakili sifatida (umumiy rivojlanishi, nutq madaniyati, ilmiy bilimdonligi) o'ziga xos ta'sir etadi. Uning natijasiga ko'ra, o'quvchilarda ofitserlarning intellektual saviyasi to'g'risida birinchi taassurotlar paydo bo'ladi va shu asosda ularda harbiy tayyorgarlik va kelgusi harbiy xizmatga munosabat shakllanadi.

Harbiy oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari uchun (ba'zi turli o'xshash vazifalarni harbiy rahbar ham bajarishi, faqat kengroq va o'ziga xos va qulayroq sharoitlarda) keng harbiy pedagogik adabiyotlar mavjud.

Bu adabiyotlarni tahlili harbiy rahbarga talablarni quyidagi ko'rinishda ifodalashga imkon beradi:

Birinchidan, ChHT programmasi hajmida harbiy professional bilimlar, malaka va ko'nikmalar.

Ikkinchidan, psixologik-pedagogik eruditsiya, pedagogik qobiliyat, pedagogik tafakkur va pedagogik tasavvur, pedagogik odob, pedagogik texnika.

Uchinchidan, g'oyaviy e'tiqod va axloqiy qiyofa, ma'naviy dunyo va ichki madaniyat, tashkilotchilik qobiliyati, sabr-toqat, matonat, talabchanlik, pedagogik layoqat.

Harbiy pedagog shaxsiga, ya'ni harbiy rahbarga o'quvchilarda jangchi sifatlarini shakllantirishdek juda muhim va yuksak talablar

qo'yiladiki, ularning mustahkamligi, armiya safida xizmat davomida tekshirilib boradi.

Harbiy tarbiya ishi uchun kerak bo'ladigan harbiy rahbar sifati bu uning o'quvchilarga talabchanligi. Talabchanlik o'quvchilarning erishgan tarbiya saviyasiga muvofiq bo'lishi, pedagogik odob bilan mos kelishi lozim.

Nihoyat, chaqiriqqa qadar harbiy tayyorgarlik rahbari shaxsining yana bir zaruriy sifati, pedagogik layoqat bo'lishi lozim.

Psixologik-pedagogik eruditsiya o'qituvchi pedagogik mahoratining nazariy bazasi hisoblanadi va o'zi bilan psixologiya va pedagogika ilmiy asoslarining tizimini taqdim etadi. Psixologik-pedagogik eruditsiya unga ongli ravishda, o'z pedagogik faoliyatiga ilmiy tomondan yondashishni, oldida turgan turli-tuman va qiyin o'quv tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ijodiy qarashni amalga oshirishda qo'l keladi.

Pedagogik takti o'qituvchi tomonidan ta'lim oluvchi bilan muloqotning maqsadga muvofiq rivojlangan pedagogik shakllarini tadbiq qilish tarbiyaviy ta'sir yo'llari, vositalari va usullarini tanlashda ehtiyotkorlik va chegarani bilishni ko'rsata olish qobiliyati sifatida aniqlash mumkin.

Maktab harbiy rahbariga pedagogik takt ahamiyati quyidagi sabablarga ko'ra yanada oshib borayapti.

Birinchi, o'quvchilar o'zlarining ta'sirchanligi, yetarli darajada hissiy iroda mustahkamligi yo'qligiga ko'ra ularga qaratilgan o'zini tuta bilmaslikka, qo'pollikka, manmanlikka, shaxsiy qadr-qimmatini haqoratlashiga, ayniqsa, sezgir bo'ladilar. Bunday ko'rinishlar to'g'ridan-to'g'ri nafaqat o'qituvchiga bo'lgan munosabatga ta'sir qiladi, balki ularning harbiy tayyorgarligiga, kelgusi xizmatiga bo'lgan munosabatiga ham o'tadi va shuning uchun, ayniqsa, bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Ikkinchi, maktab o'quvchilari bir-biridan tarbiya va shaxsiy sifatlar saviyasi (moddiy ta'minlanishi, oilaviy sharoiti, jamoat ishi) bo'yicha farq qiladilar.

Bu tarbiya ta'siriy vositalarni tanlash va ularga tadbiq qilishda individual yondashishni talab qiladi.

Uchinchi, harbiy tayyorgarlik, tarbiyaviy ta'sirining oshirilgan zichligi o'quvchilarda psixologik qarama-qarshilikni keltirib chiqarmasligi uchun o'qituvchi o'rnini tarbiya subyekti, o'quvchi

o'rnini obyekt sifatida ko'rsatmaslik, ularning o'zaro munosabatini aybsiz lektor va omadsiz o'quvchi o'zaro munosabatini bog'langan, bir xil shaklda qurish kerak emas.

To'rtinchidan, o'quvchilar uchun shaxsni qayta qurish, odat, qarashlarini, o'zini tutishini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan harbiy tayyorgarlik talablari g'ayritabiiyligi ularda bu talablarga ijobiy, hissiy munosabatni shakllantirish, ongli ravishda ularni bajarishni muhim deb biladi. Shuning uchun ChHT o'qituvchisi, ayniqsa, harbiy tayyorgarlikning boshlang'ich davrida bu talablarning cheklangan, ta'qiqlangan, majbur qiladigan tomoniga emas, balki maqsadga muvofiq, ijtimoiy kerakligi va ahamiyati, yoshlar uchun foydasi va jalb eta olishligiga e'tibor berishi lozim.

Bunday pedagogik mahorat komponentlari bo'lgan pedagogik tafakkur, pedagogik qobiliyat, pedagogik kuzatishlarni bizlar amaliy mashg'ulotlarda ko'rib chiqishimiz va o'rganishimiz mumkin. Demak, bizlar ishonch hosil qildikki, zamonaviy tarbiyachi, o'qituvchi, harbiy rahbar o'quvchi va jangchilar ta'lim-tarbiya masalalarida va harbiy pedagogika va psixologiya asoslari bo'yicha bilimsiz, doimiy ravishda o'z pedagogik mahoratini takomillashuvisiz zamon bilan birga yura olmaydi.

Qurolli Kuchlarning zamonaviy sharoitda asosiy vazifasi harbiy doktrinadan kelib chiqqan holda, yadro hamda oddiy urushning oldini olish hisoblanadi. Shu bilan birga, ular jangovar shayligini yetarli darajada saqlashi kerakki, hech kim bizning mustaqil yurtimizga to'satdan bostirib kira olmasin.

Ularning yuqori jangovar shayligining asosiysi, shaxsiy tarkibning o'z jangovar burchini bajarishdagi gumanitar jangovar, psixologik va jismoniy tayyorgarligi hisoblanadi. Shunga ko'ra, harbiylar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha ofitserlar tarkibining o'rni murakkablashmoqda. O'smirlarni Qurolli Kuchlar xizmatiga tayyorlashda maktab harbiy rahbarlarining ishi muhim ahamiyatga kasb etadi. Hozir qo'shinlarga, ilmiy bilimlarsiz rahbarlik qilish va tarbiyalash aqlga to'g'ri kelmaydi. Harbiy rahbar harbiy nazariya yutuqlarini tadbiq qilsa, o'z ustida ishlasa, qilgan ishi muvaffaqiyatiga ishonishi mumkin. Harbiylar ta'lim-tarbiya jarayonida ko'plab fanlardan, shu qatorda shaxsiy tarkibning jangovar va siyosiy tayyorgarligi, psixologik-pedagogik tomonlarini o'z ichiga oladigan harbiy psixologiya va pedagogika fanidan ham foydalanadilar.

Harbiy pedagogik jarayon qonuniyatlari aniqlangan va o'rganib chiqilgan ko'rinishlarini turli sharoitlarda ochib bergan holda, psixologiya va pedagogika o'quv tarbiya ishida prinsip, uslub va tashkiliy shakllarni hamda ulardan kelib chiqadigan qoidalar va amaliy tavsiyalarni shakllantiradi va asoslaydi. Bu fanlar nafaqat nazariy bilish funksiyalarni bajaradi, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, ofitser va kichik komandirlar pedagogik mahoratini shakllantiruvchi amaliy fanlar sifatida bo'ladi.

1.3. Harbiy psixologiya va pedagogika asoslarining predmeti va maqsadi, vazifalari.

Fanni o'qitishdan maqsad – harbiy xizmatning, avvalombor, shaxsiy tarkibning jangovar va siyosiy tayyorgarligining ruhiy-pedagogik aspektlarini o'rgatish. Jangchilar ruhiyati va harbiy jamoalar psixologiyasi asosini shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga harbiy psixologiya va pedagogika asoslari fanining asosiy prinsiplari, yo'nalishlaridan foydalanib, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Psixologiya o'zi qanday fan? U nimani o'rganadi? “Psixologiya” so'zi ikkita grek so'zidan iborat bo'lib “Psixe” - ruh, “Logos” - ta'limot, fan. Demak, psixologiya - inson ruhi va psixikasi haqidagi fandır.

Bu nimada namoyon bo'ladi? Inson psixologiyasini tushuntirish nuqtai-nazaridan ko'rib chiqamiz.

Psixika nima? Ong nima o'zi?

1. Inson psixikasi tabiatiga ko'ra yuqori shakllangan materiya, miya mahsuloti bo'lgan psixik ong materiyaning yuqori mahsuli, inson miyasi deb atalmish materiya judayam murakkab qismi vazifasidir.

2. Inson psixikasi mazmun jihatdan atrofimizdagi dunyoning aksi hisoblendi. Psixika aksi mexanik va oyna aksiga qaraganda aktiv jarayondir.

Inson psixikasi o'z kelib chiqishiga ko'ra, uning jamoat-mehnat faoliyati natijasidir. Harbiy psixologiya fan sifatida harbiy xizmatchi va harbiy jamoaga qaratilgandır. Ular uning obyekti hisoblanadi. Lekin, harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarni boshqa sohadagi

fanlar harbiy tarix, taktika va boshqalar qiziqtiradi. Bu fanlarning har biri uchun spetsifik bo'lgan tadqiqot fani, ya'ni u yoki bu fan o'rganayotgan qonuniyatlarni o'rganish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan harbiy psixologiya, birinchidan, shaxsni xizmat, o'qish va jangovor faoliyati sharoitida jangchi psixikasini shakllantirish va namoyon qilish qonuniyatlariga ega.

Ikkinchidan, harbiy psixologiya fan sifatida harbiy jamoa va uni rivojlantirish psixologiyasini namoyon qilish qonuniyatlari predmetiga ega.

Shunday qilib, harbiy psixologiya - bu psixologik fanning sohasi bo'lib, shaxs psixologiyasi shakllanishi va rivojlanishi (namoyon bo'lishi) va harbiy jamoaning xizmat sharoitida namoyon bo'ladigan psixologiyasi, ofitserga bo'ysunuvchilarni o'rgatish va tarbiyalashda kerak bo'ladigan amaliy tavsiyalar va xulosalarni chiqarish qonuniyatlarini o'rganadi.

Harbiy psixologiya kompleks vazifalarni bajarib, ulardan asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- harbiy mehnatning harbiy jamoaga ta'sirini o'rganish;
- har xil sharoitlarda jangchi va harbiy jamoalar faoliyatining psixologik tahlili;
- jangchi shaxsining psixologik tavsiyanomasini aniqlash;
- jangchini jangovor faoliyatga tayyorlashning psixologik qonuniyatlarini tekshirish;
- yuqori tayyorgarlikni ta'minlash va doimiy harbiy va siyosiy hushyorlikni saqlab turishning psixologik asoslarini ishlab chiqish;
- yangi texnikani qurishda jangchi psixologik imkoniyatlarining tavsiyanomasi.

Demak, harbiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi to'g'risida gapirganda, harbiy psixologiya va harbiy pedagogika o'rtasidagi aloqani aytib o'tish lozim. Ularda umumiy tadqiqot obyekti jangchi va harbiy jamoa; tadqiqotning umumiy yo'nalishi jangchilarni o'rgatish va tarbiyalash hamda ularga rahbarlik samarasini oshirish. Harbiy pedagogikaning vazifalari qanday, uning fan sifatida predmeti nima ekanligini aniqlash zarur. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, pedagogika bolalarni tarbiyalash to'g'risidagi fan sifatida vujudga keladi. Bu o'z ifodasini fan nomida ham topgan. Pedagogika so'zi grek so'zidan olingan bo'lib, "Pedago" – "bolani emaklat" degan ma'noni anglatadi. Pedagogikaning qo'llanilish sohasi asta-sekin

kengaydi. Pedagogik faoliyat tajribasi to'planib, umumlasha boshladi. Umumpedagogik bilimlardan ajralib chiqqan dastlabki sohalardan biri harbiy pedagogika edi. U qadimgi davrlarda jangchilarning jangovar harakatlarni olib borishga tayyorlash zaruriyati natijasida yuzaga kelgan. Ko'p asrlar davomida u rivojlanib, jangchilarga ta'lim berish va tarbiyalash tajribalari orttirilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida XX asrning boshlarida harbiy pedagogika mustaqil ilmiy sohaga aylana boshlanadi. Hozirgi kunda harbiy pedagogika tubdan yangilanmoqda.

Harbiy pedagogika nimani o'rganadi?

Harbiy pedagogika - jangchilarda yuqori jangovor shaylikda bo'lish, tinchlik davrda hamda urush sharoitlarida harbiy burchni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan yuqori axloqiy-siyosiy va jangovar sifatlar, jangovor mahoratni shakllantirish aqliy va jismoniy kuchlar, axloqiy-psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish uchun jangchi va harbiy jamoalarga bo'lgan pedagogik maqsadga muvofiq ta'sirni o'rganadi. Qo'shinlarning jangovar va taktik tayyorgarligining pedagogik tomonlarini o'rganishda harbiy pedagogika o'quv-tarbiyaviy ishning prinsip, metod va tashkiliy formalarini, unga rahbarlik qilish tavsiyalari, qoidalari, usullarini asoslab beradi.

Shuning uchun, to'g'ri ta'kidlash kerakki, harbiy pedagogika obyektini qism va bo'linmalarning shaxsiy tarkibini xizmat va jangovar vazifalarni bajarish uchun tayyorgarlik jarayoni hisoblanadi. Predmeti esa jangchilarning jangovor va siyosiy tayyorgarlik jarayoni qonuniyatlari, uning tuzilish qismlari (tarbiya, o'rganish, ta'lim, rivojlanish, psixologik tayyorgarlik, o'z-o'ziga ta'lim berish va o'z-o'zini tarbiyalash) alohida jangchi va harbiy jamoalarga tadbiiq qilishdir.

Jangovar va siyosiy tayyorgarlik jarayonining tuzilish qismi tarixan biz ko'rib chiqadigan harbiy tayyorgarlik tizimiga kiritilgan.

Tarbiya - bu jangchi ongi, tuyg'u va irodasiga maqsadga yo'naltirilgan tizimiy va tashkiliy ta'sir, ularda tarbiyaga oid sifatlarni shakllantirish maqsadidagi jarayondir.

O'rganish - jangchilarning xizmat va jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi uchun unga kerak bo'ladigan bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollanishdagi maqsadga yo'naltirilgan tizimiy jarayondir.

1.4. Harbiy psixologiya va pedagogikaning metodologik va ilmiy nazariy asoslari.

Jahon psixologiyasi fanida xulq-atvor, muomala va faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillarning eng muhimi tariqasida, insonning emotsional hayoti ketishi, aksariyat nazariyotchi psixologlar tomonidan ta'kidlab o'tiladi. Bu talqinning haqqoniyligiga hech qanday e'tirozlar bo'lishi mumkin emas. Chunki mazkur omil, eksperimental psixologiyaning mustaqil soha sifatida vujudga kelishidan e'tiboran ustuvor, dalil taqozo qilmaydigan atribut singari tadqiqot predmeti mohiyatiga singib ketgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, inson muomalasining, xulq-atvorining kechishi, faoliyatining muvaffaqiyatli, sermahsul yakunlanishi ko'p jihatdan shaxsning emotsional holatlariga "emotsional ton, kayfiyat, stress, affekt va hokazo", izohlanishi murakkab bo'lgan ruhiy kechinmalarga, yuksak his-tuyg'ularga bog'liq. O'yin, mehnat, o'qish, muomala va boshqa faoliyat turlarining muvaffaqiyatli kechishi, shaxslararo munosabatlarda xulq-atvorning namoyon bo'lishi ijobiy psixologik holat sifatida baholansa, emotsiya va hissiyotning barqaror, maqsadga yo'nalgan tarzda hukm surishi ehtimoli e'tirof etiladi. His-tuyg'ularning mustahkamligi, barqarorligi, mukammalligi sifatlarning mavjudligi ularning dinamik stereotiplar tipiga aylanganligidan dalolat beradi, faoliyat va xulqning shaxs tomonidan ongli ravishda boshqarish uslubi shakllanganligini bildiradi. Tabiatning tarkibiy qismlari va jamiyatning a'zolari bilan turli shakldagi, xar xil xususiyatli munosabatga kirishishi, ular bilan muomala qilish maromlarini davriy "muvaqqat tarzda" o'zgarishni vujudga keltiradi. Ana shu o'zgarish tufayli muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik, omad va omadsizlik, optimizm va pessimizm, romantika va realiya, simpatiya va antipatiya, progress va regress, jo'shqinlik va tushkunlik, faollik va sustlik kabi birinchisi ijobiy (pozitiv), ikkinchisi esa salbiy (negativ) ruhiy hodisa kelib chiqadi. Faoliyat va xulqning hayotda bir tekis kechishini ta'minlovchi emotsional holat barqarorligining buzilishi unga qiyos qilingan muvaffaqiyatning birlamchi omili to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlarning shubha ostida qoldiradi. Binobarin, jamiki narsaning boshlang'ich asosi, manbai emotsiya degan g'oyani, uning qiymatini, umumiy fonda birmuncha qadrsizlantiradi, lekin ikkinchi, ustuvor va yetakchi, umumiy va

xususiy obyektiv va subyektiv, muhim va nomuhim mezonlar, alomatlar, o'lchamlar yordami bilan baholanishi ushbu psixologik masala mohiyatini oqilona talqin qilish zaruriyatini vujudga keltiradi. Holbuki shunday ekan, ularning mohiyatini keltirib chiqaruvchi sabablarni, harakatlantiruvchi kuchlarini muayyan dalillarga asoslanib tahlil qilish muammosi maydonga keladi. Inson faoliyati va xulqining muayyan qonuniyatlarga asoslangan holda amalga oshishi ham obyektiv, ham subyektiv shart-sharoitlarga bog'liq. Tabiiy omillarni keltirib chiqaruvchi obyektiv (tashqi) shart-sharoitlarga bog'liq. Tabiiy omillarni keltirib chiqaruvchi obyektiv (tashqi) shart-sharoitlar, ya'ni mikro va makro muhit, moddiy borliq, yordamchi vositalarning mavjudligi, ularning yuksak talablarga javob bera olish imkoniyati, tashqi qo'zg'atuvchilarning bezararligi, vaqt va fazoviy o'lchovlarning muvofiqligi, mutanosibligi kabilardan tarkib topadi. Xulq va faoliyatning namoyon bo'lishi uchun tabiiy shart-sharoitlar tizimi yaxlit holda ishtirok etishi, ularning muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillar majmuasi tariqasida xizmat qilishi mumkin. Tabiiy shart-sharoitlardagi to'kislikdan tashqari ayrim yetishmovchiliklar va uzilishlarning sodir bo'lishi nuqsonlarni keltirib chiqaradi, buning oqibatida ruhiy kechinmalar faolligi, ildamligi, maqsadga yo'nalganligi buziladi. Tabiiy shart-sharoitlar muhit ta'sirida inson ruhiy olamida bir qator keskin, ham sifat, ham miqdor o'zgarishlari vujudga keladi. Ular yangilanishlar, yangi fazilatlar, xislatlar tug'ilishida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo'lmish geografik muhit, bu borada muhim rol o'ynaydi, ko'pincha u, birinchidan, biologik shartlangan shaxs sifatlariga ta'sir etib, fenotiplarni genotiplarga aylantiradi (hududiy muhit, relyef, stixiya kutilishi: zilzila, qor ko'chkisi, dovul, suv toshqini, oyoq yetmas qirli tog'lar va hokazo). Ikkinchidan, ontogenezda shaxs xarakterologik xususiyatlarining tabiiy ravishda shakllanishiga ta'sir o'tkazadi, shuning bilan birga, mikro muhit bilan genlar, irsiy belgilar, alomatlar o'rtasida uyg'unlikni ta'minlab turuvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Obyektiv (tabiiy) shart-sharoitlardan tashqari, inson omili bilan uzviy bog'liqligi subyektiv (shaxsga oid, uning qiyofasiga bog'liq) shart-sharoitlar muomalaning, faoliyatning, xulqning, ijtimoiy turmushda samarali amalga oshishini uzluksiz ravishda ta'minlab turadi. Subyektiv shart-sharoitlarning qatoriga shaxsning barqarorligi, xarakterning mustahkamligi, ehtiyoj,

motiv, maslak, salohiyatining puxtaligi, o'zini-o'zi boshqarish uslubining qat'iy ravishda shakllanganligi, biologik shartlangan xislatlar esa, o'zaro uyg'unlashganligi kabilar kiradi. Odatda, obyektiv (tabiiy) va subyektiv (shaxsga oid) shart-sharoitlardagi o'zgarishlar tufayli ijobiy (pozitiv) yoki salbiy (negativ) xususiyatli psixologik holatlar, hodisalar, xislatlar, kechinmalar ustuvorligi yuzaga kelib, moddiy asos funksiyasini bajaruvchi oliy nerv faoliyatini, markaziy nerv sistemasining ritmikasin, ishchanlik qobiliyatini pasaytiradi. Buning oqibatida faoliyat, xulq va muomala amalga oshirishda odatiy sa'y-harakatlar, operatsiyalar, maromlar buzila boshlaydi, favqulodda asabiylik, ruhiy nuqsoniylik, qonuniyatdan chetga og'ishlik, noxush kechinmalar hokimligi yetakchilik qiladi. Xuddi shu sababdan, faoliyat, xulq va muomalaning muvaffaqiyati shubha ostida qolishi mumkin, chunki mahsuldorlik, sobitqadamlilik, maqsadga yo'nalganlik sifatlarining dominantligi yo'qoladi, natijada ushalmagan ezgu niyatlar armon tariqasida yuksak his-tuyg'ular sifatida davriy hukm surishda davom etaveradi.

Ma'lumki, psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati va miyaning mahsulidir. Psixika borliqning sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta'sir etishi asosida vujudga kelib, bilish jarayonlarida, shaxsning xususiyati va holatlarida, diqqati, his-tuyg'ulari, xarakter xislatlarida, qiziqishi hamda ehtiyojlarida o'z ifodasini topadi. Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotadi. Tashqi dunyodan kirib keladigan qo'zg'atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlar javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarimsharlarida vujudga keladigan muvaqqat nerv bog'lanishlari, psixik hodisalarning fiziologik asoslari hisoblanadi va ular tashqi ta'sirning natijasida hosil bo'ladi.

Pedagogika metodologiyasi

Pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni yechish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalar ishonchligini ta'minlasa, boshqa tomondan, metodologik bilimlar pedagogik (yoki ixtiyoriy boshqa) tadqiqotlarni samarali tashkil etish va yetkazish mumkin emasligini uqtiradi.

Ijodiy jarayon bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqdaki, ularning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

Tayanch soʻzlar: metodologiya, ilmiy asos, ijodiy jarayon, fan, nazariya, obyekt, predmet.

Nazorat uchun savollar:

1. Harbiy psixologiyaning metodologik asoslarini tushuntirib bering.

2. Harbiy pedagogikaning metodologik asoslarini tushuntirib bering.

3. Pedagogika predmeti va uning chegarasi.

4. Pedagogika metodologiyasi deganda nimani tushunasiz?

2-MODUL. HARBIY PSIXOLOGIYADA PSIXOLOGIK BILISH JARAYONLARINING O‘RNI

2-mavzu: Psixologik bilish jarayonlari

Reja:

1. Sezgilar, idrok, diqqat.
2. Tasavvur, xayol.
3. Xotira va uning turlari.

2.1. Sezgilar idrok, diqqat.

Bilish jarayonlari askarlar uchun jangovar vaziyatni va o‘quv materiallarini bilishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham ofitser o‘z qo‘l ostidagi harbiy xizmatchilardagi bilish jarayonlarining rivojlanish darajasini bilishi lozim. Insonga uni o‘rab turgan tashqi olamni va o‘z-o‘zini bilib olishiga imkon beruvchi psixologik jarayonlarga bilish jarayonlari deyiladi. Sezgilar, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va nutq bilish jarayonlari hisoblanadi.

Bilish sezgilardan boshlanadi. Sezish tashqi qo‘zg‘atuvchining tana yuzasiga, aniqrog‘i, u joyda joylashgan asab tolalariga ta‘sir etishi natijasida paydo bo‘ladigan asab qo‘zg‘alishlaridir. Keyinchalik ushbu qo‘zg‘alish asab to‘qimasiga, u yerdan esa bosh miyaga uzatiladi. Sezgi orqali narsalarning rangi, shakli, mazasi, vazni, hidi, tovushlari va hokazolarini aks ettirish mumkin. Odamning tegishli sezgi organlariga moddiy olamdagi narsa va hodisalar ta‘sir ko‘rsatgan paytida ulardagi ayrim xossalarning aks ettirilishidan iborat bo‘lgan eng sodda ruhiy jarayonga sezgi deyiladi.

Masalan, qarshimizda turgan biron-bir narsa, chunonchi, stol bilan ish ko‘rar ekanmiz, ko‘rish yordamida biz uning rangini, shaklini, katta-kichikligini aniqlaymiz; tuyish orqali uning qattiqligini, silliqligini bilamiz; qo‘lda siljitib ko‘rish bilan uning og‘irligiga ishonch hosil qilamiz. Bularning barchasi mazkur moddiy buyumning alohida sifatlari bo‘lib, ular haqidagi ma‘lumotlarni bizga sezgilar beradi.

Atrof-muhit odamga beqiyos darajada turli-tuman ta‘sir etib turadi. Yorug‘lik hamda havo to‘lqinlari, issiqlik hamda ultrabinafsha nurlari va boshqa qo‘zg‘atuvchilar shular jumlasidandir. Ammo radioapparat qaysi to‘lqinlarga moslangan bo‘lsa, shu to‘lqinlarni

qabul qilganidek, odam organizmi ham son-sanoqsiz tashqi ta'sirlar ichidan qaysi xiliga muvofiq keluvchi "radiopriyomnigi" bo'lsa, faqat shunday xilinigina tutib oladi. Jamiki qo'zg'atuvchilarning barchasi go'yo tahlil qilinadi va ularni tegishli apparatlar qabul qiladi (ko'z yorug'likni, quloq tovushlarni qabul qilib oladi va hokazo). Bu, sezgi organlari miya katta yarimsharlari faoliyati bilan uzviy bog'langan bo'lib, asab tizimining tashqi olam bilan aloqa bog'lashidan iborat. Katta yarimsharlar qo'zg'atuvchilarni tahlil qilish organi bo'lib, sezgilarning paydo bo'lishini ta'min etuvchi barcha fiziologik apparatga analizator deyiladi.

Analizator uch qismdan iborat:

1) Tashqi ta'sirni qabul qiluvchi asbob yoki retseptor (ko'z to'rpardasining asab hujayralari yorug'likni qabul qiladi va ko'rish retseptori hisoblanadi);

2) O'tkazuvchi asab yo'llari (markazga intiluvchi asab yo'llari) retseptorda vujudga kelgan qo'zg'alish shu asab yo'llari orqali miyaga yetkazib beriladi;

3) Miya katta yarimsharlari po'stlog'idagi maxsus hujayralar (masalan, miya po'stlog'ining ko'rish markazi deb ataluvchi qismidagi hujayralar ko'rish uchun ixtisoslashgan asab hujayralaridir).


Agar analizatorlarning uchta qismidan bittasi zararlansa, sezgi vujudga kelmasligi mumkin. Masalan, agar ko'z soqqasi tagidagi retina (maxsus modda) yemirilsa, yoki miyaga boruvchi ko'z asab tolasi, yoxud katta yarimsharlar po'stlog'ining shisha qismidagi ko'rish markazi zararlansa, odam ko'rish qobiliyatini yo'qotadi.

Har qanday predmet yoki hodisa o'ziga xos sifat va xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Masalan, jangovar sharoit yorug'lik, tovush, harorat va boshqa sifatlar bilan xarakterlanadi. Demak, askarning jangovar holatni qanchalik to'g'ri baholashi ushbu barcha sifatning uning ongida qanchalik to'g'ri aks etishiga bog'liq bo'ladi.

Sezgilar insonning atrofni va o'z-o'zini bilishida eng birlamchi, yagona manba bo'lib hisoblanadi. Lekin, bundan bilish jarayonini sezgilar yig'indisidan iborat bo'lgan narsadek tasavvur qilish yaramaydi. Sezgilar faqatgina keyingi murakkab bilish jarayonlari uchun dastlabki birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi, xolos.

Masalan, gidroakustik, ma'lum bir qo'zg'alish kuchiga ega bo'lgan tovushni aniqlaydi. Lekin, u shu birgina sezgiga asoslanib suv ostida qayerda, qanday turdagi suv osti kemasi borligini, uning harakat

yoʻnalishini va boshqa koʻplab maʼlumotlarni topa oladi. Tabiiyki, bu yerda gidroakustik sezgi organi orqali sezgan sifati asosida va uni rivojlantirish (boshqa bilish jarayonlari vositasida) natijasida boshqa koʻplab maʼlumotlarni topa biladi.



Barcha jarayonlar inson bosh miya faoliyati bilan chambarchas bogʻliq. Insonning barcha fazilatlari ong (bosh miyada) faoliyatiga qarab shakllanadi.

Shubhasiz, sezgi organlarining ish faoliyati harbiy xizmat davrida katta rol oʻynaydi. Shuning uchun ham harbiy xizmatga chaqirilishi oldidan chaqiriluvchilar maxsus tibbiy koʻrikdan oʻtadilar: ulardagi sezish qobiliyatlari tekshirib koʻriladi. Harbiy xizmat davrida esa ular mashq qildirish orqali rivojlantiriladi.

Sezgi organlarining sezuvchanligini rivojlantirish askarlarni jangovor harakatlarga psixologik tayyorlashning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday tayyorgarlikni tashkil qilish uchun esa ofitser sezish jarayonining qonuniyatlarini hamda sezgi organlari ish faoliyatini bilishi lozim.

Bunday qonuniyatlarga quyidagilar kiradi:

1. Sezishning quyi va yuqori chegarasi;
2. Farqlash chegarasi;
3. Koʻnikish (adaptatsiya).

Sezishning quyi chegarasi shundan iboratki, aynan shu chegarada sezish organi tashqi taʼsirni qabul qiladi, seza boshlaydi. Sezishning quyi chegarasi qanchalik past boʻlsa, sezgi organining sezuvchanligi shuncha yuqori boʻladi yoki aksincha.



Sezgi organlarining sezuvchanligi muhit shart-sharoitlariga bogʻliq boʻladi. Masalan, sukunatda tovush yaxshi eshitiladi, kuzatuvchi yetarlicha yoritilgan buyumni yaxshi koʻradi. Shuningdek, sezuvchanlikka retseptorning holati ham taʼsir etadi. Kuchli yorugʻlik taʼsirida charchagan koʻz oʻz sezuvchanligini yoʻqotadi. Bundan tashqari, sezgi organlari sezuvchanligiga bosh miya holati ham taʼsir etadi. Bunga misol qilib quyidagilarni koʻrsatishimiz mumkin:

- Aqlan va jismonan qattiq charchash;
- Qoʻrqish;
- Hayajonlanish;
- Mast boʻlish;
- Kontuziya holati va boshqalar.

Aksincha, sezgi analizatorlarining sezuvchanligini oshiruvchi omillarga quyidagilar kiradi:

- Javobgarlikni his qilish;
- Maʼlum bir oʻrnatmaning mavjudligi;
- Vazifaning mohiyatini tushunish;
- Maʼlum faoliyat sohasidagi mustahkam bilim va koʻnikmalarga ega boʻlish;
- Diqqat;
- Kayfiyat.

Odam kerakli paytda fiziologik vositalarni qoʻllab, oʻz sezgi organlari ish faoliyatini oshirishi mumkin. Masalan, charchagan paytda sovuq suv bilan tanani artish, tez-tez hamda chuqur nafas olish, yengil jismoniy ishlarni bajarish va hokazo.

Bundan tashqari, sezgirlikni oshirishning farmakologik vositalari ham mavjud. Bu tabiiy kofe hamda kofein preparati. Bu vositalar sezuvchanlikni 1/3 martagacha oshirishga yordam beradi.



Fan tomonidan qanchalik yuqori darajalarga erishilganiga qaramasdan, inson miyasi juda murakkab fiziologik hamda psixologik jarayonlar kechadigan obyekt sifatida, hanuzgacha oxirigacha o'rganilmagan a'zo sifatida qaraladi.

Sezishning yuqori chegarasi tushunchasi. Shuni aytib o'tish kerakki, sezishning quyi chegarasi bo'lgani kabi uning yuqori chegarasi ham mavjud. Bizning sezgi organlarimiz qo'zg'atuvchining kuchi ma'lum bir yuqori darajaga yetguncha sezadi, ushbu chegaradan keyin sezish yo'qoladi. Ushbu chegara sezishning yuqori chegarasi deyiladi.

Sezishdagi farqlash chegarasi tushunchasi. Sezgi organiga birdaniga ikkita qo'zg'atuvchi ta'sir etganda, nafaqat bu ikkala qo'zg'atuvchi seziladi, balki ularning kuchi va sifati o'rtasidagi farq ham seziladi. Mana shu hodisaga sezishdagi farqlash chegarasi deyiladi.

Ko'nikish (adaptatsiya) hodisasi haqida tushuncha. Ko'nikish – bu sezgi organlarining unga ko'rsatilayotgan ta'sir kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgilarning o'zgarishidan iborat bo'lgan hodisa. Adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortish tomoniga ham, kamayish tomoniga ham o'zgarishi mumkin. Kuchli ta'sirotdan kuchsiz ta'sirotda o'tganda, sezgirlik asta-sekin ortib boradi, ta'sirot kuchayganda esa, sezgirlik, aksincha kamayib boradi. Adaptatsiya qonuniyati organik sezgilardan boshqa barcha sezgilar sohasiga xosdir. Masalan, ko'ruv adaptatsiyasi, eshituv adaptatsiyasi, hid bilish adaptatsiyasi va hokazo.

Organik sezgilar organizmning ichki muhitida sodir bo'layotgan jarayonlarni aks ettiruvchi sezgilar. Organik sezgilarning organi interoretseptorlardir. Organik sezgilarga ochlik va chanqoqlik

sezgilari, jinsiy sezgilar, nafas olish va qon aylanishi bilan bog‘liq bo‘lgan sezgilar, shuningdek, og‘riq sezgilari kiradi.

Ko‘nikish hodisasi organik sezgilarga xos emas.

Bundan tashqari, sezgilarga “ketma-ket hosil bo‘ladigan obrazlar” hodisasi ham xos. Bu narsa va hodisalarni idrok qilish to‘xtagandan keyin ham, ularning obrazlarining qisqa vaqt ichida ongimizda saqlanib qolishidan iborat qonuniyat bo‘lib, u ko‘ruv, eshituv, maza va hid bilish kabi sezgilarga xosdir. Masalan, kuchli yoritilgan elektr lampochkaga tikilib qaraylik-da, keyin nigohimizni devorga qarataylik. Shu zahoti ko‘zimizga devorda yorqin dog‘ ko‘rinadi, lekin u ko‘zdan tezda g‘oyib bo‘lmaydi. Analizatorida vujudga kelgan qo‘zg‘alish bir oz vaqt davom etib turadi va tezda so‘nib qolmaydi, shu tufayli odamda yuqorida aytib o‘tilgan hodisa yuz beradi. Sezgi jarayonining asosiy qonuniyatlari mana shulardan iborat.

Idrok.

Idrok - bu sezgi organlarimizga bevosita ta‘sir etib turgan narsa va hodisalarni ongimizda bir butun, yaxlit holda aks ettirishdan iborat bo‘lgan ruhiy jarayon.

Idrok jarayonida barcha ruhiy hayotimiz, ongimizning butun mazmuni, bilimlarimiz va tajribalarimiz ishtirok etadi. Shuning uchun ham idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor ruhiy jarayon bo‘lib hisoblanadi.

Xizmat va jangovar faoliyat juda murakkab hamda xilma-xil sharoitlarda amalga oshiriladi. Jangovar holat eshitiladigan, ko‘riladigan va hokazo sifat hamda xususiyatlardangina iborat emas. Bu, demak, joyning relyefi, o‘simliklar dunyosi, qurilishlar, jangovar texnika, shaxsiy tarkib kabi tuzilmalarni o‘z ichiga oladi. Uni to‘g‘ri tushunish va baholash uchun alohida sifatlarning o‘zi kamlik qiladi, balki, predmet va hodisalarni to‘laligicha tushunish lozim bo‘ladi.

Buning uchun esa predmetlarni, hodisalarni, vaqtni, fazoni va harakatlarni idrok qilish kerak. Chunki har qanday predmetning mohiyati undagi sifat va xususiyatlar yig‘indisida namoyon bo‘ladi.

Idrok odamning faoliyati bilan bog‘liq faol jarayondir. Agar biz biron rasmga mahliyo bo‘lib, uning qarshisida qimirlamay tursak ham, baribir biron aqliy ishni amalga oshiramiz, aks holda hech narsani anglay olmagan va nigohimiz qaratilgan joydagi narsani ko‘rmay qolgan bo‘lur edik.

Deyarli har qanday obyekt, shu obyektни qurshab olgan fon bilan birgalikda idrok etiladi. Mashg'ulot vaqtida bo'linma komandiri butun guruhga nazar tashlab turibdi, deb faraz qilaylik. Ammo shunday bir lahza yuz berdiki, komandirning nigohi kursantlar orasidan bittasini ajratib olib, uni kuzatib boradi. Bu kursant darsda bo'linma komandiri idrokining obyektiga aylanadi, qolgan butun guruh esa shu obyektни qurshab turgan fon vazifasini o'taydi.

Analizatorlarimizga keluvchi ko'pdan-ko'p qo'zg'alishlar orasidan qaysi biriga diqqatimiz qaratilsa, faqat shunisinigina biz ayni chog'da idrok qilamiz. Bu hol idrokning tanlab oluvchanlik xossasi deb ataladi. Biz uchun qimmatga ega bo'lgan, qiziqarli narsalar, odatda, diqqatimizni o'ziga tortadi, binobarin, diqqatning yo'nalishi odam ruhiy hayotining umumiy mazmuniga, jumladan, uning o'tmish tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Idrokning o'tmish tajribaga bog'liqligi appersepsiya deb ataladi. Turli kasb kishilari bitta narsaning o'zini turlicha idrok qiladilar. Chunonchi, daladan uzib olingan gulni ko'zdan kechirar ekan, rassom guldagi ranglarning uyg'unligiga ko'proq e'tibor beradi; botanik esa gulga ma'lum sinfga mansub o'simliklarning vakili sifatida qaraydi; gul agronomni yem-xashak o'tlar turkumiga kirishi nuqtai nazaridan qiziqtiradi.

Odamning hayotida idrokning ahamiyati juda katta bo'lib, bunda undagi kuzatish qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Kuzata olish qobiliyati kishining vaziyatni yaxshiroq fahmlab olishiga, narsalarni yanada aniqroq idrok etishiga, odamlarni durustroq tushunishiga imkon beradi. Bularning barchasi odamga yanada to'g'riroq ish ko'rish, tashqi ta'sirlarga oqilona javob qaytarish imkoniyatini yaratadi.

Tevarak-atrofimizni qurshab olgan moddiy olamdagi barcha narsalar fazoda joylashgan bo'lib, fazoda muayyan o'rin egallab turadi, ulardan har birining o'z katta-kichikligi, hajmi va shakli bor, ular bizga va boshqa narsalarga nisbatan ma'lum masofada turadi. Narsalarning ana shunday fazoviy holatlarini ongimizda aks ettirishimiz fazoni idrok etish deb ataladi.

Bundan tashqari, moddiy olamdagi narsalar doimo harakatda va o'zgarishdadir. Bu harakat va o'zgarishlar ma'lum bir vaqt ichida yuz beradi. Narsalar harakati va o'zgarishidagi izchillik hamda davomiylikning odam ongida aks etishi vaqtni idrok etish deb ataladi.

Olam materiyadan iborat, materiya esa hamisha fazo va vaqt ichida mavjud bo‘ladi. Faylasuflar ta’biri bilan aytganda, fazo va vaqt materiyaning yashash shakllaridir. Bir qancha sezgi organlari va miya katta yarimsharlari po‘stlog‘ining birgalikda ish bajarishi fazo va vaqtni idrok qilishning fiziologik asosi hisoblanadi. Biz narsalarning fazoviy xususiyatlarini qanday idrok qilamiz? Bu xususiyatlarni biz avvalo ko‘rib bilamiz. Ammo bu xususiyatlarni idrok qilishda yolg‘iz ko‘rishning o‘zi kifoya qilmaydi. Ko‘zimizning to‘r pardasida shar tekis doira sifatida, kub esa kvadrat shaklida aks etadi: bu yo‘sinda aks ettirish orqali mazkur buyumlarning hajmini idrok etib bo‘lmaydi. Turlicha masofadagi narsalarni idrok qilishda ham shunga o‘xshash hodisa yuz beradi, ularning ko‘z to‘r pardasiga tushuvchi aksi katta-kichikligi jihatidan teng bo‘lishi mumkin. Bu esa, ularning katta-kichikligi hamda ulargacha bo‘lgan masofa haqida aniq tasavvur bera olmaydi. Ko‘rish va muskul-harakat sezgilarining birga qo‘shilishi tufayli biz narsalarning fazoviy holatlari haqida to‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Masalan, harakat qilish sohasida ham yetarli darajada tajriba orttirmagan go‘dakning fazoni to‘g‘ri tasavvur eta olmasligining sababi ham shunda. Go‘dak o‘zidan ancha olisdagi narsaga tomon qo‘l cho‘zib, uni ushlashga harakat qiladi.

Vaqtni idrok qilish bizga voqelikdagi hodisalarning davomiyligi, tezligi va ketma-ketligi haqida tasavvur beradi. Tabiatdagi davriy harakatlar va bir maromda yuz beruvchi o‘zgarishlar (yerning aylanishi, kecha-kunduz almashinishi, yil fasllari) vaqtni aniq o‘lchash imkonini beradi. Vaqtning qisqacha bo‘laklarini (soat, daqiqa, soniya) aniqlashda biz asboblardan foydalanamiz, soatning millari ma’lum vaqt birligi ichida bir xildagi yo‘lni bosib o‘tadi. Bu yo‘sinda vaqtni o‘lchash vaqtni bilishning obyektiv usuli hisoblanadi.

Fazo va vaqtni idrok qilishda odamning faoliyati katta ahamiyatga ega. Shunday kishilar borki, ularda “vaqt sezgisi” nihoyatda rivojlangan bo‘ladi, bundaylar harbiy xizmatchilar, temir yo‘l xizmatchilari, o‘qituvchilar orasida ko‘proq uchraydi.

Odamlar tashqi olamni idrok qilish xususiyatlariga ko‘ra bir-birlaridan farq qiladilar. Ayrim kishilar yaxshi kuzata oladi, ularning bu fazilati kuzatuvchanlik deb ataladi. Boshqa kishilar bu sifatga ega bo‘lmaydi.

Odatda, bilishga qiziquvchan odamlar kuzatuvchan bo'ladi. Kuzatuvchan odam narsa va hodisalarni ancha aniq idrok qiladi, aksincha, bu qobiliyatga ega bo'lmagan kishi ko'pgina narsalarni payqamaydi, idrokda esa ko'pincha xatoga yo'l qo'yadi. Kuzatuvchanlik har qanday faoliyat, jumladan harbiy faoliyat uchun ham juda zarur fazilat hisoblanadi.

Ayrim kishilarning kuzatuvchanligi moddiy narsalar bilan ko'proq aloqador bo'ladi. Ular buyumning sifatiga, uning qanday materialdan tayyorlanganligiga ko'proq e'tibor beradi, buyumning afzal tomonlarini ko'proq ko'radi. Boshqa odamlar esa shaxsning ruhiy xususiyatlarini yaxshi payqay oladilar, odamning ichki dunyosini yaxshi biladilar. Bunday odamlarda psixologik kuzatuvchanlik yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ayrim kishilar esa bu ikkala kuzatuvchanlikka ham ega bo'ladilar. Mana shunday kuzatuvchanlikni harbiy xizmatchilarda tarbiyalash harbiy faoliyat samaradorligini oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilardagi idrok quyidagi xossalarga ega bo'ladi:

1.Idrokning predmetlilik. Inson predmetlarni qancha ko'p va chuqur bilsa, uning idroki shunchalik samarali bo'ladi. Idrok jarayoni muayyan predmetlarga asoslanadi.

2.Idrokning anglanganligi. Idrok obyektining foydaliligi yoki zararliligi, uning termin bilan ifodalanishi. Idrok qilinayotgan predmet oldin idrok qilingan, tajribada ko'rilgan, bilib olingan predmet bilan solishtiriladi.

3.Idrokning butunligi: Idrok qilinayotgan predmet yoki hodisa o'zining barcha sifat va xususiyatlari bilan to'laligicha inson ongida tiklanadi.

Shuni aytib o'tish kerakki, insonning idroki faol jarayon bo'lib, uning faoliyat xarakteriga bog'liq bo'ladi. Idrok insonning tajribasiga, bilimlariga, kayfiyatiga, kechinmalariga asoslanadi. Bundan tashqari, idrok insondagi xohish va istakka, uning yoshiga va jinsiga ham bog'liq bo'ladi.

Idrok jarayonida xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. Noto'g'ri idrokka illyuziya deyiladi. Masalan, temir yo'l ustida turib bir tomonga olislatib nazar salsak ikkala temir yo'l izi bora-bora qo'shib ketganday tuyuladi.

Diqqat.

Agar odam diqqatini o'zi idrok etayotgan narsaga yoki bajarayotgan ishiga to'play olmas ekan, unda hech bir ruhiy jarayon maqsadga yo'naltirilgan va unumli bo'la olmaydi. Biz biron-bir buyumga qarab tursak ham, uni ko'rmasligimiz mumkin. O'z fikrlari bilan band bo'lgan odam yaqin atrofdagi kishilarning gaplarini mutlaqo eshitmaydi. Agar diqqatimiz biron narsaga qaratilgan bo'lsa, biz og'riqni sezmasligimiz mumkin. Aksincha, odam biron-bir narsa yoki faoliyat butun diqqatini qaratsa, u holda o'sha buyum yoki hodisaning hamma xususiyatlarini bilib olishi va ishi juda ham unumli bo'lishi mumkin.

Diqqatning o'zi nima?

Diqqat - bu ongning biron-bir predmet yoki hodisa ustida to'planishidan iborat bo'lgan psixologik hodisa. U odamning ruhiy faoliyatini tashkil qiluvchi mexanizm hisoblanadi.

Diqqat insonning atrof-muhitda muvaffaqiyatli ish ko'rishiga imkon yaratadi va tashqi olamning inson ruhiyatida to'laroq hamda ravshanroq aks etishini ta'minlaydi. Harbiy faoliyatda diqqatning ahamiyati katta. Harbiy xizmatchilarni o'qitish va tarbiyalash ishining samaradorligi komandirning o'z qo'l ostidagilar diqqatini harbiy faoliyatga maqsadga muvofiq ravishda qanchalik jalb eta olishiga bog'liq bo'ladi.

Agar askarlar diqqati o'quv mavzusiga yetarlicha qaratilsa ular mavzuni yanada yaxshiroq tushunib oladilar, bundan tashqari, mashg'ulot vaqtida ularning diqqat-e'tibor bilan ishlashlari sinf xonasida intizomni ta'minlaydi.

Diqqat, odatda mimikada, tashqi qiyofada, xatti-harakatlarda ifodalanadi. Diqqat bilan eshitib turgan kishini diqqati, parishon odamdan farq qilishi juda oson. Ammo ba'zi paytda askar aftidan komandirning gaplarini tinglayotganga o'xshasa ham, aslida uning fikr-xayollari boshqa narsalarda bo'ladi. Diqqat ruhiy jarayonlardan ajralgan holda sodir bo'la olmaydi. Shu tufayli u mustaqil ruhiy jarayon emas. Biz diqqat yoki e'tiborsizlik bilan biron-bir ishni bajaramiz, biron narsani ko'zdan kechiramiz, eshitamiz yoki o'ylaymiz. Shunday qilib, diqqat turli ruhiy jarayonlarning faqat bir tomoni yoki xossasidir.

Zotan, tetik holatida odam biron-bir faoliyat bilan band bo‘ladi (ish qiladi yoki o‘ylaydi), binobarin, uning diqqati doimo biron narsaga qaratiladi.

Bosh miya katta yarimsharlarida yuz berib turadigan qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlari diqqatning fiziologik asoslari hisoblanadi. Agar odamning diqqati biron narsaga qaratilsa, bu uning miya po‘stlog‘ida qo‘zg‘alish o‘chog‘i maydonga kelganligidan dalolat beradi. Bu paytda miyaning boshqa qismlari tormozlangan holatda bo‘ladi. Bunday hodisa asab jarayonlarining induksiya qonuniga ko‘ra yuz beradi. Shu sababdan ham odam biron ishga qattiq berilib ketgan paytda boshqa narsani payqamasligi mumkin.

Irodaning qanchalik ishtirok etishiga qarab diqqat uch turga bo‘linadi: ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi diqqat.

Agar komandirning tushuntirishlari mazmunan qiziqarli bo‘lsa, uning hikoyasini askarlar diqqat bilan tinglaydilar va komandir namoyish qilgan materiallarni qunt bilan kuzatadilar. Bu ixtiyorsiz diqqatning ko‘rinishi. Bunday diqqat irodaviy zo‘r berishlarsiz hosil qilinadi. Ixtiyorsiz diqqatni hosil qiluvchi muayyan sabablar nimalardan iborat? Avvalo, har qanday kuchli qo‘zg‘atuvchilar, odatda ixtiyorsiz diqqatni vujudga keltiradi. Chunonchi, momaqaldiraq yoki yaqin atrofda otilgan o‘q ovozi odamni diqqatini shu tovushlarga qaratishga majbur etadi. Qo‘zg‘atuvchining nisbiy kuchi muhim ahamiyatga ega. Sokin tunda sekin shitirlash ham soqchining diqqatini darhol o‘ziga tortadi.

Hatto u qadar kuchli bo‘lmasa ham, qo‘zg‘atuvchining bexosdan (tasodifan) ta’sir ko‘rsatishi diqqatni jalb qilish ahamiyatiga ega. Harakatdagi buyumlar, yangilik, odatlanilgan sharoitda yuz beruvchi o‘zgarishlar sezilmay qolmaydi. Masalan, dala o‘quv mashg‘ulotlarida odatdan tashqari muammoli vaziyatlarni hosil qilish harbiy xizmatchilar diqqatini kuchaytiradi.

Odamning ichki holati ixtiyorsiz diqqatning paydo bo‘lishida katta ahamiyatga ega. Oshxonadan dimoqqa urilgan taom hidi qorni och odamga darrov sezilsa, qorni to‘q odam esa bunga e’tibor ham bermaydi. Bizda qiziqish uyg‘otuvchi, mayl va didimizga mos tushuvchi, his-tuyg‘ularimizga ta’sir etuvchi narsalarning barchasi diqqatimizni beixtiyor ravishda o‘ziga tortadi. Bunda odamdagi o‘tmish tajribalarning ahamiyati katta. Bunday diqqatning davomiyligi

tashqi qo'zg'atuvchining qancha vaqt ta'sir etishiga bog'liq bo'ladi. Tashqi ta'sir tugashi bilan bunday diqqat ham yo'qoladi.

Ixtiyoriy diqqat esa boshqacha xususiyatlarga ega. Bunday diqqat amalda biron narsani idrok qilish yoki biron ishni bajarish maqsadi paydo bo'lishi bilan maydonga keladi. Murakkab masalani hal qilishda askar diqqatini bir nuqtaga jamlashga qiynaladi, ammo mazkur muammoni yechishga o'zini majbur qiladi. Ko'pincha tashqi qo'zg'atuvchilar askarning diqqatini chalg'itib turadi, ammo u irodasini ishga solib, qunt bilan ishlashga o'zini majbur etadi. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan farqli ravishda irodaviy zo'r berish bilan hosil qilinadi. Diqqatning bu turi o'zining mantiqiy izchilligi va barqarorligi bilan ajralib turadi.

Harbiy faoliyatda ixtiyoriy diqqat katta rol o'ynaydi. Insondagi ixtiyoriy diqqat darajasi uning u yoki bu faoliyat ahamiyatini qanchalik anglashiga bog'liq bo'ladi.

Ixtiyoriydan keyingi diqqat, ixtiyoriy diqqatdan kelib chiqadi. Inson biron-bir hodisaga nisbatan o'z diqqatini iroda kuchi bilan yo'naltiradi. Oradan ma'lum muddat o'tgandan keyin esa uning diqqati iroda ta'sirisiz ushbu faoliyat ustida yig'ila boshlaydi. Ixtiyoriy diqqatning ixtiyoriydan keyingi diqqatga o'tish jarayonini o'rganish, harbiy xizmatchilarni o'qitish samaradorligini oshirishning yo'llaridan biri hisoblanadi.

Inson ongiga har doim, ayniqsa, jangovar vaziyatlarda juda ko'p miqdordagi qo'zg'atuvchilar ta'sir etadi. Miyamizga har daqiqa ta'sir etib turadigan ma'lumotlarning faoliyatimiz uchun eng muhimlarini ajratib olish juda katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda diqqat, inson ruhiy faoliyatining tashkil qiluvchisi - muvofiqlashtiruvchisi hisoblanadi.

Aynan diqqat ruhiy faoliyatga, ayniqsa, bilish jarayonlariga samaradorlik baxsh etib, uning bir maromda kechishini ta'minlaydi. Diqqat, ruhiy hodisa sifatida ikki xil xususiyatga ega: u ma'lum bir vaqt va makonda voqe bo'ladigan ruhiy jarayon, shuningdek, o'ziga xos ruhiy holat ham hisoblanadi. Diqqatlilik shaxsga xos bo'lgan muhim sifat bo'lib, muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning omili hisoblanadi. Inson bosh miyasida sodir bo'lib turadigan qo'zg'alishlar diqqatning fiziologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Irodani diqqatga eng yaqin va eng ko'p darajada bog'liq bo'lgan ruhiy hodisa – jarayon sifatida ko'rsatish mumkin. Chunki, diqqat,

ayniqsa, ixtiyoriy diqqat irodaviy zo‘r berishni talab qiladi. Biz yuqorida diqqatning uch turga bo‘linishini aytib o‘tgan edik. Uning uch turga bo‘linishi ham ularda irodaning qanchalik ishtirok etishiga qarab amalga oshiriladi. Har bir insonning diqqati bir qator sifatlarga ega bo‘ladi: ko‘lami, barqarorligi, ko‘chuvchanligi, taqsimlanuvchanligi, o‘zgaruvchanligi, parishonligi, to‘planishi.

Diqqatning taqsimlanuvchanligi shunday qobiliyatki, bunda diqqat bir vaqtda bir nechta obyektga yo‘naltiriladi hamda ular bir xil darajada idrok etiladi. Diqqatning taqsimlanuvchanligi, ayniqsa, jang sharoitida juda ham zarur bo‘lib, bunda bir vaqtda ko‘plab texnik moslamalarni, shuningdek, aqliy va boshqa turdagi harakatlarni nazorat qilish zarur bo‘ladi (masalan, uchuvchi, operator va hokazo).

Barqarorlik, bu uzoq vaqt davomida diqqatni tanlangan obyekt ustida ushlab turish. Diqqatning barqarorligi insondagi faoliyat uchun javobgarlik, burch hissi, mohiyatni anglash, qiziqish, irodaviy sifatlar kabilarga bog‘liq bo‘ladi. Diqqatning o‘zgaruvchanligi uning barqarorligiga nisbatan teskari sifat hisoblanadi.

Parishonxotirlik ham diqqatga xos salbiy sifat bo‘lib, u har xil sabablar hosilasi hisoblanadi. Ularning eng asosiylari quyidagilar: topshirilgan ish uchun mas’uliyat hissining pastligi, qiziqishning yo‘qligi, charchash, jismoniy va ruhiy zo‘riqish, kasallik. Parishonlikni yo‘qotish uchun uning sabablarini tahlil qilish lozim.

2.2. Tasavvur, xayol.

Inson sezgan va idrok qilgan narsalarining obrazlari izsiz yo‘qolib ketmaydi. Ular inson ongida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Ushbu obrazlar ta’sirida insonda tasavvur shakllanadi. Tasavvur - bu inson tomonidan oldin idrok qilingan narsa va hodisalarning subyektiv obrazlaridir.

Tasavvur, bilish jarayonlari ichida ularni bir-birlari bilan bog‘lab turuvchi oraliq holatni egallaydi. Tasavvur bilishning hissiy bilish bosqichida bo‘lib, narsa va hodisalarning mohiyatiga kirib borolmaydi. Ammo, tafakkurning paydo bo‘lishi, rivojlanishi uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilarning aqliy, amaliy masalalarni yechishlarida tasavvur katta yordam beradi.

Ofitserdagi oldingi tajribalarida shakllangan tasavvurlar uning jangovar sharoitlarda komandirlik faoliyatini amalga oshirishiga katta yordam beradi. U tasavvurlar (operativ, taktik, topografik, texnik va

hokazo) yordamida xayolan jangovar holat - voqelik modelini yaratadi. Tasavvur voqelikka qanchalik yaqin va mos bo'lsa, faoliyat ham shunchalik samarali bo'ladi.

Inson ongida oldin idrok qilingan narsa va hodisalarning obrazlari qanchalik qayta ishlanganligiga qarab tasavvur ikki turga ajratiladi; *xotira tasavvuri va xayol tasavvuri*. Agar oldin idrok etilgan obyektning obrazi o'zgarishsiz yoki ozgina o'zgarish bilan qayta tiklansa, bu xotira tasavvuri bo'ladi. Obrazlar inson tomonidan qayta ishlanganda esa xayol tasavvuri shakllanadi.

Jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik jarayonida tasavvurlarning rivojlanishi to'la-to'kis harbiy faoliyat xarakteriga bog'liq bo'ladi. Masalan, harbiy mashg'ulotlarning real jangovar mashg'ulot shart-sharoitlariga yaqinlashtirilishi harbiy xizmatchilarda zamonaviy urushlar ular bevosita janglarda to'qnash kelishlari mumkin bo'lgan holatlar haqidagi tasavvurlarning shakllanishiga yordam beradi. Aksincha, mashg'ulotlardagi shartliliklarning me'yordan oshib ketishi esa noto'g'ri tasavvurlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham harbiy xizmatchilardagi tasavvurlarni ularning shaxsiy tajribalariga asoslanib shakllantirish katta ahamiyatga ega. Buning uchun qurollar bilan bo'ladigan amaliy ishlar, adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, jangovar texnikani ta'mirlash va ekspluatatsiya qilish kabilar yaxshi vosita bo'lishi mumkin. Masalan, harbiy xizmatchilardagi raketa - yadro urushi va undan himoyalaniqish vositalari haqidagi tasavvurlar, ulardagi amaliy tajribaning qanchalik boyligiga hamda mazmuniga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish uchun esa ularni ijtimoiy foaliyatga jalb etishdan tashqari, ularda har xil adabiyotlarni o'qib o'rganish malakasini hosil qilish katta ahamiyatga ega. Insonning tasavvurlari ko'p jihatdan undagi ehtiyoj va qiziqishlarga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilardagi tasavvurlarni shakllantirishda so'z juda katta rol o'ynaydi. Ma'lumki, biron-bir obyektни idrok yoki tasavvur etish, avvalo, ushbu obyektни kuzatish, keyin esa uni so'zlar vositasida bayon etish bilan olib boriladi. Jangovar texnika va qurollar murakkablashgan hozirgi sharoitda narsa, hodisalarni so'z vositasida tasvirlash insonlarda texnik tasavvurni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti sharoitida inson faoliyati ko'proq shartli-mavhum belgilarga asoslanadigan bo'lib borayapti.

Masalan, chizmalar, xaritalar, sxemalar, fikrni harflar vositasida ifodalash, har xil buyumlar o'rtasidagi hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishiga olib keladi. Agar harbiy xizmatchida narsa va hodisalardagi alohida sifatlarni xayolan ajratib olish layoqati bo'lmasa, uning tasavvurlari nihoyatda cheklangan bo'ladi. Shuning uchun harbiy xizmatchilarga voqelikni shartli belgilarda o'rgatish katta ahamiyatga ega. Bu esa ularda topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq faoliyatini xayolda yaratish imkonini beradi.

Harbiy xizmat, harbiycha tartib, ofitserlar va serjantlar, ular o'rtasidagi munosabatlar hamda boshqalar haqidagi ma'lum bir tasavvurlar harbiy xizmatchilarda xizmatgacha bo'lgan davrda shakllangan bo'ladi. Ularning to'g'rilaridan ofitser o'quv mashg'ulotlari jarayonida foydalanadi, noto'g'rilarini esa to'g'rilaydi. Natijada ularda to'g'ri tasavvurlar shakllanishiga erishiladi.

Xayol.

Inson ongida har doim buyum, xatti-harakat, hodisa shaklidagi faoliyat mahsullarining obrazlari paydo bo'lib turadi. Mana shu hodisaga xayol deyiladi. U insonga faoliyat natijalarini oldindan tasavvur qilish imkonini beradi. Inson xayol vositasida o'z faoliyatining yakuniy va oraliq mahsullarining modellarini yaratish bilan kelajakni bashorat qila oladi. Yangi muammolar paydo bo'lganda, masalaning yangicha yechimlari qidirilayotganda, ayniqsa, xayol tez-tez paydo bo'lib turadi. Inson xayol yordamida narsa va hodisalarni alohida qismlarga ajratadi, keyin esa boshqa bir shaklda yana qayta birlashtira oladi. Natijada, uning ongida yangi aloqalar, obrazlar va fikrlar paydo bo'ladi.

Xayol ongning shunday faoliyatiki, bunda mavjud tasavvur, bilim va tajribalarga asoslanib, yangi obrazlar yaratiladi.

Fiziologiya nuqtai nazaridan esa xayol-bu miyaning murakkab analitik-sintetik faoliyatiga asoslangan yangi muvaqqat asab bog'lanishlari paydo bo'lish jarayonidan iborat. Xayol jarayonida go'yoki muvaqqat asab bog'lanishlari o'zaro parchalanib, yangicha shakldagi asab bog'lanishlari qaror topadi.

Orzu shaklidagi xayol harbiy xizmatchi uchun faoliyat motivi vazifasini o'tashi mumkin. Orzu - bu istakdagi kelajak obrazi. Shuning uchun ham u insonning ijodiy kuchlarini hayotga tadbiiq etish, faoliyatda qo'llashning zarur shart-sharoiti hisoblanadi. Umuman xayol har qanday faoliyatda ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, u

ofitserga pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarur. U harbiy xizmatchilarga ta'lim va tarbiya berar ekan, ularda qanday sifatlarni rivojlantirish zarurligini tasavvur eta olishi zarur. Bo'linmalar faoliyatiga rahbarlik qilishda xayol nihoyatda katta yordam beradi. Olingan topshiriqni aniqlashtirish, vaziyatni baholash va zarur qarorlar qabul qilish asosida ofitser fikran kelajakka nazar tashlaydi, o'z bo'linmasi va dushman qo'shinining ehtimoliy harakatlarini, ularning maqsadi, yo'nalishi hamda eng muhim harakatlarni qachon, qayerda amalga oshirishlarini tasavvur qiladi. Xayol, harbiy harakatlar rejasini oldindan tuzishga imkon beradi. Yaxshi rivojlangan xayol, ofitserning katta komandirlar rejalarini to'g'ri va tezda tushunib olishini tezlashtiradi, oddiy askar va serjantlarga esa jangovar vazifani yaxshiroq tushunib olishlariga, uning ijrosidagi o'zlarining o'rinlarini anglab etishlariga hamda zarur tashabbuslarni ilgari surishlariga sharoit yaratadi. Ilmiy kashfiyot va texnika taraqqiyotini xayolsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Xayolni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin; *faol va zaif*. Birinchi holatda xayol inson ijodiy faoliyati uchun sharoit vazifasini o'tasa, ikkinchi holatda esa hech bir faoliyat bilan bog'lanmaydi, aniqrog'i, o'zi faoliyat bo'lib keladi (masalan, shirin xayol).

Shuningdek, xayol *ixtiyorsiz va ixtiyoriy* bo'lishi mumkin. Inson ongida uning istaklariga bog'liq bo'lmagan obraz va fikrlarning paydo bo'lishi ixtiyorsiz xayolni bildiradi. Agar xayol faoliyat bilan bog'liq bo'lgan maqsadlar atrofida paydo bo'lsa, bunday xayolga ixtiyoriy xayol deyiladi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega yangi biron-bir narsa yaratishga yo'naltirilgan faoliyatga *ijod*, unda ishtirok etadigan xayolga esa *ijodiy xayol* deyiladi.

Xizmat jarayonida kishilarda xayolni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Ma'lumki, inson faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri undagi faoliyat natijalarini tasavvur qila olish layoqati bo'lib hisoblanadi. U faoliyat yakunida o'zi oldindan xayol qilgan natijaga ega bo'ladi. Xayol faoliyatni tashkil qilishda va amalga oshirishda ishtirok etar ekan, o'zi ham shakllanadi, rivojlanadi. U faol va ijodiy jarayon sifatida faqat faol hamda ijodiy faoliyatdagina rivojlanishi mumkin. Uning rivoji umuman harbiy xizmatchi ruhiyati (faoliyat ehtiyojlari va motivlari, xarakter, qobiliyatlar, bilimlar, ko'nikma,

malaka va odatlar, psixologik bilish jarayonlari, iroda va hissiyot)ning rivojlanishi bilan birga kechadi.

Harbiy xizmat ijodkorlikni va xayolni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Masalan, ofitser harbiy harakatlar rejasini diqqat bilan o'rganar ekan, tegishli qarorlar qabul qiladi, jang rejasini hamda tarbiyaviy tadbirlar tizimini ishlab chiqadi, jangovar texnika va qurollarni tayyorlaydi. Bularning hammasida uning xayoli ishtirok etadi hamda shunga mos ravishda rivojlanadi. Harbiy xizmatchilardagi xayolning rivojlanishi, umuman, ular shaxsining rivojlanishi bilan bog'liq. O'quv-tarbiyaviy ishlar ta'sirida ularda yuksak axloqiy-siyosiy sifatlar, shuningdek, qat'iylik, mardlik, intellekt, hissiyot, qiziqish va xarakter kabilar rivojlanadi. Ushbu sifatlar harbiy xizmatchilardagi xayolning rivojlanishini ta'minlaydi. Ularda ijodiy xayolni rivojlantirish uchun esa tashabbuskorlik va mustaqillik yaxshi manba bo'ladi. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarni jamoatchilik ishlariga jalb etish ham ularda xayolning rivojlanishini ta'minlaydi.

2.3.Xotira va uning turlari.

Odanda tasavvurlarning mavjudligi bizning idroklarimiz miya po'stlog'ida qandaydir izlar qoldirishidan, ular ma'lum vaqt davomida miyada saqlanib turishidan dalolat beradi. Fikrlarimiz va his-tuyg'ularimiz ham miyada iz qoldirib, saqlanadi. Xotira - bu inson o'zi amalga oshirgan, his qilgan, shuningdek, idrok qilgan narsa va hodisalarni esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik esga tushirishi yoki unutishidan iborat bo'lgan ruhiy jarayon.

Bosh miyada paydo bo'ladigan asab bog'lanishlari xotiraning fiziologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'zlashtirish va esga tushirish xususiyatlariga ko'ra, xotira quyidagi turlarga bo'linadi: - *obrazli, harakat, so'z-mantiq va emotsional xotira.*

Masalan, yangi joylarga uyushtirilgan sayohatni yoki yangi odamlar bilan bo'lgan uchrashuvlarni eslar ekanmiz, o'zimiz ko'rgan narsalarning obrazlarini va o'zimiz guvohi bo'lgan hodisalarni fikran ko'z oldimizda gavdalantiramiz. Bu, obrazli xotiradir. Bunda birinchi signallar tizimi katta rol o'ynaydi. Sayohat vaqtida o'tkazilgan suhbatlarni, fikr almashuvlarni eslash chog'ida biz ma'no xotirasidan yoki so'z-mantiq xotirasidan, ya'ni so'zlarda ifodalanuvchi fikrlar

bilan aloqador xotiradan foydalanamiz. Bu xotira ikkala signallar tizimlarining o‘zaro bir-biriga ta’sir ko‘rsatishiga tayanadi, bunda ikkinchi signal tizimi dominantlik (ustunlik) rolini o‘ynaydi.

Agar o‘z do‘stimizning boshiga tushgan baxtsizlikni eslasak, bunda biz yangidan g‘amginlik yoki hatto musibat hissini boshimizdan kechiramiz, bu esa emotsional xotiraning yoki his-tuyg‘ular bilan aloqador xotiraning ko‘rinishidir.

Faoliyatimizning ko‘p qismi bizga yot bo‘lib ketgan harakatlardan tashkil topadi, bu harakatlarning aksariyati (yurish, yugurish, tovushlarni talaffuz etish va hokazo)ni ilk yoshlik chog‘imizdayoq o‘rganib olganmiz. Harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan bunday xotiraga harakat xotirasi deb aytiladi.

Bundan tashqari, genetik va immunologik xotiralar ham bo‘ladi. Shuningdek, xotira qancha vaqt saqlanishiga ko‘ra: *qisqa vaqtli yoki uzoq vaqtli bo‘ladi*.

Qisqa vaqtli xotira - bu faqatgina paydo bo‘layotgan yangi obrazlar bo‘lmasdan, balki, eski - insonda oldindan mavjud bo‘lgan tasavvur va tajribalar majmui hamdir. Qisqa vaqtli xotira obrazlarning tezda eslanishiga yordam beradi. Qisqa vaqtli xotiraning izlari hozir kechayotgan idrok jarayonining natijasi hisoblanadi.

Uzoq vaqtli xotira izlari esa o‘nlab yillar, hatto bir umr saqlanib qolishi mumkin.

Shuni aytib o‘tish kerakki, idrok etiladigan narsa va hodisalarning “izlari” xotirada darrov muhrlanmaydi. Buning uchun o‘nlab soniyalar, hatto daqiqalar kerak bo‘ladi.

Xotira to‘rtta jarayonni yoki bosqichni o‘z ichiga oladi: *Esga olish; Esda saqlash; Esga tushirish; Unutish*.

Xotira sifatleri shaxsiy fazilat sifatida odam qobiliyatlarining rivojlanishiga, faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Narsalarni oson esda olib qoluvchi kishiga qaraganda xotirasi u qadar yaxshi rivojlanmagan odamning vaqti ham, kuchi ham ko‘p sarf bo‘ladi. Ko‘pgina kasb-hunarlar, jumladan, ofitserlik faoliyati uchun ham yaxshi xotira kerak.

Bosh miya qobig‘ida muvaqqat asab bog‘lanishlarining paydo bo‘lishi, saqlanishi va faollashishi, u yerda fizikaviy va kimyoviy jarayonlarning kechishi xotiraning fiziologik asosi bo‘lib hisoblanadi.

Xotira inson faoliyatining maqsadlaridan kelib chiqib ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlarga bo‘linadi. Biron-bir maqsadsiz u yoki bu narsani esga olish, esga tushirish ixtiyorsiz xotira, deb ataladi. Harbiy

xizmatchi o‘z oldiga biron narsani eslab qolish vazifasini qo‘yganda ixtiyoriy diqqat ishga to‘shadi. Ixtiyorsiz diqqat ham, ixtiyoriy diqqat ham obrazli, harakatli, so‘z-mantiqli va emotsional, shuningdek, qisqa vaqtli hamda uzoq vaqtli bo‘lishi mumkin.

Harbiy xizmatchilar xotiralarining sifatlariga ko‘ra bir- birlaridan farq qiladilar. Xotiraning u yoki bu turi yorqin namoyon bo‘ladigan kishilar uchrab turadi. Birida obrazli, boshqasida esa so‘z-mantiq xotirasi yaxshi rivojlangan bo‘ladi.

Albatta, tez, aniq va mustahkam esga olish hamma harbiy xizmatchilar uchun muhim hisoblanadi. Biroq tajribalar shundan dalolat beradiki, faoliyatning har qanday turi, har bir harbiy mutaxassislik xotiraning maxsus xususiyatlari rivojlangan bo‘lishini taqozo qiladi (masalan, operator uchun rivojlangan operativ xotiraning bo‘lishi juda muhim).

O‘z navbatida, faoliyat kechadigan o‘ziga xos shart-sharoitlar ham harbiy xizmatchilar xotirasidagi u yoki bu xususiyatlarning jadal rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Xotiraning rivojlanishi harbiy xizmatchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish bilan bir vaqtda olib boriladi. Xotirani va qobiliyatlarni tarbiyalash, intellektual va irodaviy sifatlarini shakllantirish, hissiyotlarning paydo bo‘lishi va kechishi xotiraning rivoji bilan izchil ravishda bog‘langan.

Hamma ruhiy jarayonlarni, jumladan, xotirani shakllantirish shaxs faoliyati bilan belgilanadi. Esga olish, esda saqlash va esga tushirish jarayonlarining kechishi ushbu material harbiy xizmatchi faoliyatida qanday o‘rinni egallashiga bog‘liq bo‘ladi. Xotiraga har doim tanlovchanlik xususiyati xos: esga olish va esda saqlashning tezligi hamda mustahkamligi nafaqat materialning qandayligiga (qiziqarli, zerikarli, yorqin va hokazo), balki, unga nisbatan harbiy xizmatchining ehtiyojiga va u bilan qanday ishni amalga oshirishiga bog‘liq.

Ehtiyojlarning paydo bo‘lishi va anglanishi insonni u yoki bu faoliyatga undaydi. Dunyoni, ijtimoiy hayotni bilish va o‘zgartirishga bo‘lgan ehtiyojlarning kengayishi hamda chuqurlashishi esa harbiy xizmatchi faoliyatini, uning boshqa kishilar bilan bo‘ladigan muloqotini boyitadi. Ularda bilish faolligini oshirish xotiraning rivojlanishiga olib keladi. Demak, u yoki bu materialni xotiraga olish va u yerda saqlash xususiyatlari harbiy xizmatchi faoliyatining ehtiyoj,

maqsad va usullari bilan aniqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, xotira jarayoni yuqoridan, ya'ni faoliyat xususiyatlaridan beriladigan dastur bilan tartibga solinadi, boshqariladi.

Faoliyat natijasida harbiy xizmatchilarda iroda, tafakkur va nutq rivojlanadi. Iroda, o'z navbatida, ixtiyoriy xotiraning rivojlanishi uchun zarur asos hisoblanadi. Tafakkur harbiy xizmatchi tajribasini umumlashtiradi va boyitadi. Unda aqliy ishni faollashtiradigan material yaxshiroq esga olinadi va mustahkamroq saqlanadi. Tushunish, ayniqsa, so'z-mantiq xotirasi uchun muhim ahamiyatga ega. Nutq inson tajribasini so'zlar va so'z birikmalarida mustahkamlaydi.

Xizmat va ta'lim jarayonlari o'zaro uyg'unlashganda xotiraning rivojlanishi samarali kechadi. O'qish xotiraga yuksak talablar qo'yadi. Bu talablar ta'lim jarayonining jadallashishi bilan oshib boradi: vaqtning cheklanganligi, o'quv jarayonining murakkablashishi harbiy xizmatchi xotirasiga o'ziga xos talablar qo'yadi. Demak, ofitser o'quv faoliyati jarayonida harbiy xizmatchilar xotirasining zarur sifatlarini rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratishi zarur.

Xotira unutish jarayoni bilan kurash asnosida rivojlanadi. Unutish, eslab qolishga nisbatan teskari jarayon. Eslab qolish kabi unutish ham tanlovchanlik xususiyatiga ega. Muayyan material faoliyatda qanchalik kam ishtirok etsa, uni unutish shunchalik chuqur bo'ladi va bu material harbiy xizmatchi erishmoqchi bo'lgan muhim maqsadlar uchun shunchalik kam ahamiyatga ega bo'ladi. Harbiy xizmatchi faoliyatida ishtirok etib, uning uchun qadrli va qiziqarli bo'lgan narsalar unutilmaydi. Demak, faoliyatda ishtirok etish, harbiy xizmatchi ehtiyojlarini manbalar bilan bog'lovchi ishonchli aloqa vositasi va tabiiyki, unutish bilan kurashish yo'li hisoblanadi.

Ba'zan shunday bo'ladiki, inson biron narsani, hattoki hozirgina ko'rgan yoki eshitgan narsasini ham vaqtinchalik unutib qo'yadi. Buning sababi bosh miya qobig'idagi asab hujayralarining zo'riqishi bo'lishi mumkin. Masalan, charchoq holatida eslab qolish layoqatining birdaniga yo'qolishi ushbu sabab bilan izohlanadi.

Mehnatsevarlikni, topshirilgan ishga nisbatan yuksak talabchanlikni, o'z kasbiga qiziqishni tarbiyalash, mashg'ulotlarni jonli va qiziqarli qilib olib borish, eslab qolishning samarali usullarini o'rganish, harbiy xizmatchilar xotirasini rivojlantirish uchun zarur sharoitlar hisoblanadi.

Harbiy faoliyatda bilish jarayonlarining barchasi, jumladan, xotira ham nihoyatda katta rol o'ynaydi. Xotirani mashq qildirish, uning imkoniyatlarini iloji boricha oshira borish katta ahamiyatga ega.

Puxta esda qoldirishning ayrim shart-sharoitlari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Esda olib qolinishi zarur bo'lgan manbaga nisbatan qiziqishning mavjudligi.

2. Esda olib qolishda his-tuyg'ularning ahamiyati katta. Odam befarq munosabatda bo'lgan narsaga nisbatan uni quvontirgan, xafa qilgan, g'azablantirgan narsalarni, odatda, yaxshi esida olib qoladi.

3. O'zlashtirish lozim bo'lgan materialni tushunish, uni esda olib qolishda muhim ahamiyatga ega. Agar askar esda olib qolmoqchi bo'lgan fikrlarning ma'nosini yaxshi tushunmasa, ularni mexanik ravishda so'zma-so'z yodlashga kirishadi. Bu yo'sinda esda qoldirilgan materiallar tezda unutiladi.

4. Odamning materialni puxta va uzoq muddat esda saqlab qolishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi ham uni yaxshi o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

5. Esda qoldirishni faoliyat bilan birga qo'shib olib borish, uni o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega. Odamning faoliyati undan fikr yuritishni, faollikni talab qiladi. Agar material esda olib qolish jarayonida taqqoslansa, umumlashtirilsa, xulosa chiqarilsa, o'zlashtirish jarayoni, ayniqsa, ongli bo'ladi va binobarin, muvaffaqiyatli kechadi.

6. Askarning maktabda o'qitiladigan fanlarni yaxshi bilishi ham shu fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni puxta esda qoldirish uchun qulay sharoit bo'lib xizmat qiladi. Chunki bunda yangi material askarning ilgaridan mavjud bilimlari bilan oson va mustahkam bog'lanadi.

7. Esda qoldirish mehnatdir. Ishni qunt bilan bajarish, sabrmatonatilik, ishni yarmida chala qoldirmaslik materialni o'zlashtirishning muhim shartlari hisoblanadi. Bular irodaviy sifatlar bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lmasdan turib, odam jiddiy aqliy ishning uddasidan chiqa olmaydi.

Harbiy xizmatchilarda xotirani rivojlantirish yo'llari quyidagilar:

- Bilish bilan bog'liq qiziqishlarni shakllantirish;
- Mashg'ulotlar va tarbiyaviy ishlar sifatini oshirish; Topshirilgan ish uchun mas'uliyatni va mehnatsevarlikni tarbiyalash;

- O‘tilgan mavzularni muntazam takrorlab borish;
- Olingan nazariy bilimlarni amaliyotga joriy qilish;
- O‘zining harbiy mutaxassisligiga nisbatan qiziqishlarni tarbiyalash shular sirasiga kiradi.

Tayanch so‘zlar: Xotira; fiziologik asos; obrazli xotira; harakat xotirasi; so‘z- mantiq xotirasi; emotsional xotira; uzoq vaqtli va qisqa vaqtli xotira.

Nazorat uchun savollar:

1. Xotira nima? Uni ta’riflang.
2. Puxta esda qoldirishning shart-sharoitlari haqida so‘zlab bering.
3. Harbiy xizmatchilarda xotirani rivojlantirish yo‘llari qanaqa?

3-mavzu: Harbiy faoliyatda tafakkur va nutq

Reja:

1. Harbiy faoliyatda tafakkur va nutq.
 2. Tafakkurning harbiy faoliyatdagi ahamiyati.
 3. Harbiy xizmatchilarda nutqni rivojlantirish yo‘llari.
- Komandirlik (rahbarlik) nutqi.


3.1. Harbiy faoliyatda tafakkur va nutq

Shubhasiz, tafakkur insonlar, jumladan, harbiy xizmatchilar hayotida katta rol o‘ynaydi.

Tafakkur - bu borliqdagi buyumlar va hodisalar o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishlarning inson ongida aks etishi. Yoki boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, tafakkur shaxsning obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning muhim xususiyatlari, bog‘lanish hamda munosabatlarini bevosita umumlashgan holda aks ettirishdan iborat bo‘lgan aqliy faoliyat.

Tafakkur, obyektiv voqelikni aks ettirishning eng yuksak shakli.

Tafakkur - voqelikni sezgi, idrok va tasavvurlarga qaraganda yanada chuqur, keng va to‘liq bilishga imkon beradi.



Tafakkur inson miyasining alohida funksiyasi bo‘lib, miyaning ikkinchi signallar tizimiga asoslangan reflektor analitik-sintetik faoliyatining ro‘yobga chiqish shakli hisoblanadi.

Tafakkurning asab-fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o‘zaro munosabatidir.

Obyektiv borliqdagi buyumlar va hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanish va munosabatlar moddiylashmagan, demakki, ularni sezgilar va idrok vositasida aks ettirib bo‘lmaydi. Faqat tafakkur vositasidagina ushbu munosabat va aloqalar ongda akslanadi. Lekin, ushbu akslanish sezgilar va idrokning miyaga yetkazib bergan ma’lumotlari asosida amalga oshadi.

Masalan, jangovar vaziyat nafaqat ma’lum predmetlardagi sifat, xususiyatlar bilan, balki, ushbu predmetlar o‘rtasidagi murakkab aloqa va munosabatlar bilan ham xarakterlanadi.

Bular:

- dushman kuchlarining jangovar tartibi;
- bo‘linmalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va aloqalar;
- dushmanning jangovar rejalari;
- ularning yakuniy maqsadlari va hokazo.

Ushbu aloqa va munosabatlar tafakkur jarayoni vositasidagina jangchi ongida o‘z aksini topadi. Sezgilar va idrok vositasida olingan ma’lumotlar qayta ishlanadi. Bu qayta ishlash murakkab jarayon bo‘lib, hozirgina olingan ma’lumotlar oldingilar bilan solishtiriladi.

Aynan tafakkurda voqelikni analiz va sintez qilish jarayoni amalga oshadi.

Tushuncha, uning tashuvchisi so‘z (nutq) obyektiv voqelikni sintez va analiz qilishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Til, fikrning namoyon bo‘lish shakli yoki boshqacha qilib aytganda, moddiylashgan shakli.

Tushuncha, murakkab psixik tuzilma hisoblanadi. Aynan tushunchalarda predmetlardagi eng muhim xususiyatlar, sifatlari o'z aksini topadi.

Tushuncha insonning shu paytgacha voqelikni bilish jarayonidagi analiz, sintez va solishtirish natijasi bo'lgan buyum, hodisalarning eng umumiy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

Bu esa inson ayni paytda qabul qilayotgan ma'lumotlarni tushunchalar vositasida analiz va sintez qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham o'zi idrok qilayotgan predmetni so'z- tushuncha bilan atash asnosida inson ushbu predmetni mohiyatini anglab etadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, tafakkur jarayonini tushuncha - so'zlar vositasida qilinadigan ish, deb atashimiz mumkin.

Bu jarayon inson murakkab masalalarni, muammolarni yechganda to'liq namoyon bo'ladi. Har bir odam, u nima ish bilan shug'ullanmasin, har doim amaliy va aqliy xarakterdagi vazifalarni yechadi. Aqliy (nazariy) masalalar, odatda biron hodisa va uning sabablari o'rtasidagi bog'lanishlarni topish zaruriyati tug'ilganda paydo bo'ladi. Vazifalar esa o'z mohiyatiga ko'ra oddiy, murakkab va o'ta murakkab bo'ladi.

Oddiy vazifalar shunday vazifalarki, bunda kerakli ma'lumotlarning hammasi ochiq-oydin ko'rinib turadi.

Murakkab vazifalarni hal qilish uchun esa oldindan ma'lum bilimlarni egallash zarur. Masalan, hozirgi sharoitda urush olib borish uchun bo'linmalarning jangovar tartibini ma'lum taktik qoidalar bo'yicha zarur vositalar ketma-ketligi ko'rinishida tuzish kerak bo'ladi. Bular shu paytgacha to'plangan jangovar tajribaga asoslanishi lozim. Bunday masalalarni qiyinchiliklarsiz yechish uchun bilim yurtida nazariy bilimlarni puxta egallash maqsadga muvofiq.

Va nihoyat, o'ta murakkab vazifalar ham bo'lib, ularni mavjud bilim va tajribalar ko'magida yechib bo'lmaydi, endi ijodiy tafakkur talab etiladi. Har qanday vazifa-masalalarni yechishda uni turli bosqichlarga ajratish yaxshi samara beradi. Masalani to'g'ri qo'yish, muammoni hal qilishning birinchi bosqichi hisoblanadi. Birinchi bosqichning vazifasi qo'yilgan masalani oydinlashtirishdan iborat.

Topshiriqni tushunish malakasi harbiy xizmatchiga xos bo'lgan muhim sifat hisoblanadi. Uning vazifani qanchalik to'g'ri tasavvur qilishiga qarab, undagi ishga bo'lgan munosabatni bilish mumkin. Agar harbiy xizmatchi vazifaning ijrosiga uning mohiyatiga to'liq

etmasdan kirishar ekan, u yetarlicha mas'uliyatni his qilmasligi oydinlashadi. Bu esa qo'yilgan vazifa hech qachon bajarilmasligini anglatadi.

Tug'iladigan savollarga javoblarni oldindan hozirlab qo'yish aqliy jarayonning ikkinchi bosqichini tashkil qiladi. Bu bosqich psixologiyada gipotezalarni ishlab chiqish bosqichi, deb ataladi. Masalan, komandir o'zi qo'riqlayotgan hududga dushmanning yangi kuchlari kiritilganligini bilishi bilan kuchlar nisbatidagi o'zgarishlar xarakterini taxmin qiladi, o'zining jangovar rejalarini o'zgartiradi. Bu borada faoliyatimiz ham, uning muvaffaqiyat va mag'lubiyatlari ham his-tuyg'ular uyg'otadi.

Hissiyotlar faoliyat ta'siriga ko'ra ikki xil bo'ladi: *astenik va stenik.*

Astenik hissiyot shunday hissiyotki, u kishining faoliyatini, g'ayrat-shijoatini susaytiradigan hislardan iborat bo'lib, ko'pincha kishi umidsizlanganda, ruhiy tushkunlikka tushganda ro'y beradi.

Stenik hissiyot esa, aksincha, shaxsning hayot faoliyatini jadallashtiradigan, kuch-g'ayratini oshiradigan, barcha ruhiy jarayonlarini faollashtiradigan ijobiy hissiyot turi. Masalan, xursandchilik.

Amalga oshish shakliga ko'ra hissiyotlar quyidagi uch turga bo'linadi:

- Kayfiyat;
- Affekt;
- Ishtiyoq.

Inson emotsiya va hissiyotlarining birlamchi manbai uning ehtiyojlaridir. Emotsiya va hissiyotning manba-sabablarini insonning maqsad va ehtiyojlariga mos keladigan yoki aksincha mos kelmaydigan buyumlar va hodisalardan axtarish kerak. Ko'plab ijobiy hissiyotlar (qoniqish, xursandchilik va hokazo) inson istaklari qondirilganda tug'iladi yoki aksincha, ular qondirilmaganda esa salbiy his-tuyg'ular paydo bo'ladi. Agar, bordi-yu atrofdagi buyum va hodisalar insondagi maqsad va ehtiyojlarga aloqador bo'lmasa, ular hissiy munosabatlarni yuzaga keltirmaydi, ya'ni inson ularga nisbatan befarq munosabatda bo'ladi.

Emotsiya va hissiyotlar kechinmalar sifatida qat'iy o'zaro aloqadorlikka ega bo'lsalar-da, ular o'rtasida muhim farqlar ham mavjud. Organizmning ovqatga, sovuqdan va jaziramadan

himoyalanişga, uyquga, o‘z-o‘zini saqlab qolishga nisbatan bo‘ladigan ehtiyojlari bilan bog‘liq qoniqish (yoki qoniqmaslik) hissiyotlari emotsiyalarga misol bo‘ladi. Emotsiyalar insonlarga ham, hayvonlarga ham xos. Biroq, inson emotsiyalari hayvonlarnikidan butunlay farqlanadi: ular ma‘lum darajada ijtimoiy tajriba ta‘siri ostida o‘zgargan, qayta tuzilgan bo‘ladi. Insondagi emotsiyalarning namoyon bo‘lish shakli ham (emotsional kechinmalar vaqtida o‘z xulq-atvorini boshqara olish imkoniyati), shuningdek, u yoki bu emotsiya bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish va maqsadga erishish usullari ham ijtimoiy hayot sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi.

Insonning faoliyat jarayonida tug‘iladigan vaziyatlarga, shuningdek, unga ta‘sir etadigan buyumlarning alohida xususiyatlariga nisbatan bo‘ladigan reaksiyalari vaqtida emotsiyalar paydo bo‘ladi. Masalan, musiqiy ohanglar yoqimli bo‘lgani holda, ikkita shisha bo‘lagini bir-biriga ishqalash bilan ifodalanadigan aqliy operatsiya. Masalan, “qiymat”ni “odamning qimmati”, “tovarning qiymati” deb, konkretlashtiriladi.

Yoki konkretlashtirishga yana bir misol: komandir “dushman tanklariga qarshi har xil qurollar vositasida kurashish mumkin”, - deydi:

- *tankka qarshi granatalarni qo‘llash bilan;*
- *granatamyotlar vositasida;*
- *har xil tankka qarshi minalar vositasida va hokazo.*

Keyin esa u har bir usulning mohiyatini ochib beradi.

Tafakkur jarayoni ma‘lum bir shakllarda kechadi: tushuncha, hukm, xulosa.

Tushuncha - narsa va hodisalarning muhim belgilarini, bog‘lanishlarini, mohiyatini so‘zlar orqali fikran keng va chuqur aks ettirishdan iborat tafakkur shakli. Boshqa psixologik mahsullar kabi, tushunchaning ham manbai moddiy dunyodir.

Hukm - narsa va hodisalar, ularning belgi hamda xususiyatlari haqida tasdiq yoki inkor ma‘nosini bildirgan fikr.

Xulosa - bir qancha hukmlarning mantiqiy bog‘lanishi natijasida yangi hukm hosil qilishdan iborat tafakkur shakli. Xulosada mavjud hukmlar asoslar deyiladi, ulardan hosil bo‘lgan yangi hukm esa, xulosa deyiladi. Masalan, “Barcha sayyoralar harakatlanadi, Oy sayyora, demak, Oy harakatlanadi”.

Harbiy faoliyatda nutq

Sitseron: “Insonlar bir-birlaridan o‘zishi kerak bo‘lgan soha - bu insonni hayvondan farqlovchi narsa, ya’ni nutqdir”, - degan edi.

G‘aloz odamning nutqi ham qo‘pol, qashshoq bo‘ladi, garchand har xil maqol-matallarni, ajnabiy iboralarni, begona fikrlarni so‘z ko‘rki deb ko‘p ishlatsa-da, aslida esa bular o‘zining fikri sayozligidan, nutqi qashshoqligidandir. Bu jihatdan tarbiya ko‘rgan odam esa so‘zga boy bo‘ladi, fikrini ifodalash uchun begona unsurlarga ehtiyoj sezmaydi, bir aytgan so‘zni boshqa ishlatmaydi.

1697-1773 yillarda yashab, faoliyat yuritgan mashhur ingliz davlat arbobi Chesterfild o‘zining **“Farzandga maktublar”** asarida nutqning inson hayot faoliyatidagi ahamiyati haqida shunday deb yozadi: “Kimki ko‘zga ko‘ringan inson bo‘lishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysa, faqatgina bilim olish bilangina cheklanib bo‘lmaydi. Bilimni ko‘rsata olish, unga munosib libos tanlash, jilo berish, ya’ni boshqalarga o‘z fikrini, ilmini namoyish qilish san’atini egallamoq muhim ahamiyat kasb etadi. Agar fikr qo‘pol, pala-partish ifodalangan bo‘lsa, uning mazmuniga hamma ham birdek tushunib yetavermaydi. Ko‘p yillik tajribamga asoslanib aniq aytishim mumkinki, sof til, nafis uslub, bilimdagi ancha-muncha kamchilikni sezdirmaydi. Nutq tushunarli bo‘lishi uchun yana ba’zi bir narsalar kerak bo‘ladi”.

Demosfen (eramizdan avvalgi 387-322 yillarda yashagan afinalik jamoat arbobi, ma’lumki, u tutulib gapirardi) o‘zida mavjud bo‘lgan tabiiy nuqsonni yo‘q qilish uchun nimalar qilganini eshitgansiz. Bundan tashqari, u bo‘ron paytida sohilga borib, o‘z-o‘ziga nutq so‘zlar, shu yo‘l bilan olomon oldida, uning shovqin-suronini bosgudek nutq so‘zlashni mashq qilardi, Xullas, “Nutqingda biron-bir kamchilik, nuqson bo‘lsa, astoydil o‘z ustingda ishlang, hammasi bartaraf bo‘ladi” deb ta’kidlagan edi Demosfen.

Insonning tafakkuri va nutqi o‘zaro birlikda rivojlanadi va namoyon bo‘ladi. Tafakkurning har qanday turida nutq ishtirok etadi. So‘z, tushunchalar, mulohazalarni ifodalash va tuzish, buyum hamda hodisalarni ongda aks ettirish vositasi bo‘lib hisoblanadi.

Inson nutqining mazmuni va shakli uning kasbiga, tajribasiga, temperamentiga, xarakteriga, qobiliyatlariga, qiziqishlariga bog‘liq bo‘ladi. Nutq vositasida odamlar o‘zaro bilim va axborotlar almashadilar, bir-birlariga hamda o‘z-o‘zlariga ta’sir o‘tkazadilar. Ammo, nutq va til ba’zilar o‘ylaganlaridek bir narsa emas.

3.2. Tafakkurning harbiy faoliyatdagi ahamiyati

Inson tafakkuri dastlab elementar mehnat faoliyati bilan chambarchas bogʻlangan edi. Bu aniq-amaliy tafakkur edi. Keyinchalik, tafakkur, aniq tafakkurdan abstrakt tafakkur sari, amaliy tafakkurdan nazariy tafakkur sari, taraqqiy qilib bordi. Albatta, abstrakt va nazariy tafakkur tajribadan ajralmagan holda oʻsib bordi. Mantiqiy tafakkur shakllari ham mehnat tajribasida va dunyoni bilish jarayonlarida hosil boʻldi va oʻsib bordi.

Harbiy xizmatchilar ham hodisalar oʻrtasidagi muhim aloqa va munosabatlarni, tabiat va ijtimoiy hayot qonunlarini tafakkur yordamida anglaydilar. Insonning ongni idora qiladigan faoliyati endi faqat oddiy qoʻl mehnati qurollari, ovqat, kiyim-kechak va turar joyinigina yaratib qolmay, balki fan, sanoat, murakkab texnikani ham yaratadi. Kishilar ilmga asoslangan dunyoqarash yaratishga intiladilar va shunga harakat qiladilar. Taraqqiy qilayotgan fan, texnika va sanoat esa, oʻz navbatida, kishilar ongining oʻsishiga, ularning maʼnaviy qiyofasiga, tafakkuriga taʼsir etadi.

Tafakkur, ayniqsa, komandirlarda kuchli rivojlangan boʻlishi kerak. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, harbiy xizmatchilar nostandart sharoitlarda jangovar vazifalarni bajarishlari jarayonlarida tezkor qarorlar qabul qilishlari, turli vaziyatlarda boʻlinmalarini toʻgʻri harakat qilishga undashlari, ularga yetakchilik vazifalarini oʻtashlariga toʻgʻri keladi. Oʻz navbatida, keng tafakkurli harbiy xizmatchigina, yuqorida sanab oʻtilgan xislatlarga ega boʻlishi mumkin.

Til kishining butun ongli faoliyati bilan chambarchas bogʻlangandir. Til mehnat bilan bir qatorda, inson jamiyati va ongini taraqqiy ettiradigan ikkinchi asosiy faktordir. Xizmat jarayoni va ijtimoiy munosabatlarning tarkib topish jarayonida tafakkur va til bilan birga, harbiy xizmatchi irodasi ham paydo boʻladi hamda oʻsib boradi. Harbiy xizmatchi, xizmat faoliyatini boshlashdan oldin oʻz harakatlarini tasavvur qiladi, shu harakatlarni oldin oʻylab koʻradi, qoʻyilgan maqsadga yetish uchun anglab-bilib gʻayrat koʻrsatadi, roʻy bergan qiyinchiliklarni yengib oʻtadigan boʻlib qoladi. Iroda bilan boʻladigan harakatlar - ongli harakatlar shakllanadi. Shu bilan birga, odamning iroda-ixtiyor bilan qiladigan harakatlari boʻladi. Tevarakatdagi muhitni oʻzlashtirish, uni oʻz ehtiyojiga moslashtirish imkonini paydo qiladi. Odam iroda egasi boʻlganligi tufayli tarixiy

taraqqiyot jarayonida tabiatni o'ziga asta-sekin bo'ysundirdi, uni o'ziga xizmat qilishga majbur etdi. Odam tabiatni, tevarak-atrofdagi olamni o'z maqsadlariga muvofiq qilib o'zgartiradi, unga yangilik kiritadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida, uzoq kurash yo'li bilan insonlar ijtimoiy muhitining stixiyali ta'siridan qutuladi, ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini sekin-asta bilib olib, ijtimoiy hayotga uyushgan holda ta'sir ko'rsata boshlaydi, inson jamiyatining taraqqiyotini muayyan yo'lga sola boshlaydi.

Shubhasiz, tafakkur insonlar, jumladan, harbiy xizmatchilar hayotida katta rol o'ynaydi. Tafakkur - bu borliqdagi buyumlar va hodisalar o'rtasidagi murakkab bog'lanishlarning inson ongida aks etishi. Yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tafakkur shaxsning obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning muhim xususiyatlari, bog'lanish hamda munosabatlarini bevosita umumlashgan holda aks ettirishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyat.

Tafakkur-obyektiv voqelikni aks ettirishning eng yuksak shakli.

Tafakkur - voqelikni sezgi, idrok va tasavvurlarga qaraganda yanada chuqur, keng va to'liq bilishga imkon beradi. Tafakkur inson miyasining alohida funksiyasi bo'lib, miyaning ikkinchi signallar tizimiga asoslangan reflektor analitik-sintetik faoliyatining ro'yobga chiqish shakli hisoblanadi.

Tafakkurning asab-fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal tizimlarining o'zaro munosabatidir.

Obyektiv borliqdagi buyumlar va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlar moddiylashmagan, demakki, ularni sezgilar va idrok vositasida aks ettirib bo'lmaydi. Faqat tafakkur vositasidagina ushbu munosabat va aloqalar ongda akslanadi. Lekin, ushbu akslanish sezgilar va idrokning miyaga yetkazib bergan ma'lumotlari asosida amalga oshadi.

Masalan, jangovar vaziyat nafaqat ma'lum predmetlardagi sifat, xususiyatlar bilan, balki, ushbu predmetlar o'rtasidagi murakkab aloqa va munosabatlar bilan ham xarakterlanadi.

Bular:

- dushman kuchlarining jangovar tartibi;
- bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va aloqalar;
- dushmanning jangovar rejalari;
- ularning yakuniy maqsadlari va hokazo.

Ushbu aloqa va munosabatlar tafakkur jarayoni vositasidagina jangchi ongida o'z aksini topadi. Sezgilar va idrok vositasida olingan ma'lumotlar qayta ishlanadi. Bu qayta ishlash murakkab jarayon bo'lib, hozirgina olingan ma'lumotlar oldingilar bilan solishtiriladi.

Aynan tafakkurda voqelikni analiz va sintez qilish jarayoni amalga oshadi. Tushuncha, uning tashuvchisi so'z (nutq) obyektiv voqelikni sintez va analiz qilishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Til - fikrning namoyon bo'lish shakli yoki boshqacha qilib aytganda, moddiylashgan shakli. Tushuncha - murakkab psixik tuzilma hisoblanadi. Aynan tushunchalarda predmetlardagi eng muhim xususiyatlar, sifatlar o'z aksini topadi. Tushuncha insonning shu paytgacha voqelikni bilish jarayonidagi analiz, sintez va solishtirish natijasi bo'lgan buyum, hodisalarning eng umumiy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Bu esa inson ayni paytda qabul qilayotgan ma'lumotlarni tushunchalar vositasida analiz va sintez qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham o'zi idrok qilayotgan predmetni so'z-tushuncha bilan atash asnosida inson ushbu predmetniig mohiyatini anglab yetadi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, tafakkur jarayonini tushuncha-so'zlar vositasida qilinadigan ish, deb atashimiz mumkin. Bu jarayon inson murakkab masalalarni, muammolarni yechganda to'liq namoyon bo'ladi. Har bir odam, u nima ish bilan shug'ullanmasin, har doim amaliy va aqliy xarakterdagi vazifalarni yechadi. Aqliy (nazariy) masalalar, odatda biron hodisa va uning sabablari o'rtasidagi bog'lanishlarni topish zaruriyati tugilganda paydo bo'ladi.

Vazifalar esa o'z mohiyatiga ko'ra oddiy, murakkab va o'ta murakkab bo'ladi.

Oddiy vazifalar shunday vazifalarki, bunda kerakli ma'lumotlarning hammasi ochiq-oydin ko'rinib turadi.

Murakkab vazifalarni hal qilish uchun esa oldindan ma'lum bilimlarni egallash zarur. Masalan, hozirgi sharoitda urush olib borish uchun bo'linmalarning jangovar tartibini ma'lum taktik qoidalar bo'yicha zarur vositalar ketma-ketligi ko'rinishida tuzish kerak bo'ladi. Bular shu paytgacha to'plangan jangovar tajribaga asoslanishi lozim. Bunday masalalarni qiyinchiliklarsiz yechish uchun bilim yurtida nazariy bilimlarni puxta egallash maqsadga muvofiq.

Va nihoyat, o'ta murakkab vazifalar ham bo'lib, ularni mavjud bilim va tajribalar ko'magida yechib bo'lmaydi-endi ijodiy tafakkur

talab etiladi. Har qanday vazifa-masalalarni yechishda uni turli bosqichlarga ajratish yaxshi samara beradi.

Masalani to'g'ri qo'yish muammoni hal qilishning birinchi bosqichi hisoblanadi. Birinchi bosqichning vazifasi qo'yilgan masalani oydinlashtirishdan iborat.

Topshiriqni tushunish malakasi harbiy xizmatchiga xos bo'lgan muhim sifat hisoblanadi. Uning vazifani qanchalik to'g'ri tasavvur qilishiga qarab, undagi ishga bo'lgan munosabatni bilish mumkin. Agar harbiy xizmatchi vazifaning ijrosiga uning mohiyatiga to'liq etmasdan kirishar ekan, u yetarlicha mas'uliyatni his qilmasligi oydinlashadi. Bu esa qo'yilgan vazifa hech qachon bajarilmasligini anglatadi.

3.3. Harbiy xizmatchilarda nutqni rivojlantirish yo'llari. Komandirlik (rahbarlik) nutqi

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sof til, nafis uslub, bilimdagi ancha-muncha kamchilikni sezdirmaydi. Nutq tushunarli bo'lishi uchun yana ba'zi bir narsalar kerak bo'ladi. Bu ham bo'lsa tafakkurdir. Insonning tafakkuri va nutqi o'zaro birlikda rivojlanadi va namoyon bo'ladi. Tafakkurning har qanday turida nutq ishtirok etadi. So'z tushunchalar, mulohazalarni ifodalash va tuzish, buyum hamda hodisalarni ongda aks ettirish vositasi bo'lib hisoblanadi.

Inson nutqining mazmuni va shakli uning kasbiga, tajribasiga, temperamentiga, xarakteriga, qobiliyatlariga, qiziqishlariga bog'liq bo'ladi. Nutq vositasida odamlar o'zaro bilim va axborotlar almashadilar, bir-birlariga hamda o'z-o'zlariga ta'sir o'tkazadilar. Ammo, nutq va til ba'zilar o'ylaganlaridek bir narsa emas.

Til - bu insoniy muloqot, tafakkur va ifoda vositasi bo'lgan belgilar tizimi. Til yordamida inson tashqi dunyoni, shunidek, o'zini biladi, xulq-atvorini boshqaradi va hokazo. Til mazmunan ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, uni o'zlashtirish inson ruhiyatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi hamda uning ongining shakllanishiga sharoit yaratadi. Til tarixan jamiyat paydo bo'lishi bilan hamkorlikdagi mahnat jarayonida yaratilgan.

Dunyoda 5000 atrofida tillar bo'lib, har biri o'ziga xos so'zlar zahirasi va grammatik tuzilishiga ega. Har bir so'z ma'no xususiyatlariga ega va biron-bir tushunchani o'zida ifodalashi

mumkin. Ular yordamida insonlar borliqni, undagi qonuniyatlarni anglaydilar.

Tilning rivoji birinchi o'rinda muloqot va o'zaro ta'sirni taqozo qiladigan jamoa mehnati bilan bog'liq. Dastlab til juda sodda va tovushlardangina iborat bo'lgan. Haqiqiy insoniy nutqning paydo bo'lishi bilan inson, uning ongi va jamiyat rivojlanishi uchun katta imkoniyat tug'ildi. Til yordamida insonlar o'zlarining ijtimoiy tajribalarini, madaniy me'yor va an'analarini boshqa kishilarga hamda kelgusi avlodga yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Til, tafakkur bilan izchil aloqadorlikka ega bo'lganligi uchun ham ruhiy jarayonlarning hammasida ishtirok etadi. Imo-ishoralar, garchi, ular vositasida juda ko'p narsani yetkazib berish imkoniyati mavjud bo'lsa-da, tilga nisbatan yordamchi vazifasini o'taydi. Dastlab tovushlar va ularning birikmalari ibtidoiy jamoa a'zosi uchun xulq-atvor sababchisi, keyinroq esa boshqaruvchisi vazifasini bajargan. Keyinroq esa, nutqiy muloqotning murakkablashishi bilan esa u haqiqiy belgilar tizimiga aylandi.

So'z va gap, tilning haqiqiy birliklari hisoblanadilar. Ular mazmun va ma'noga ega. So'zda ifodalangan axborot uning mazmunini tashkil qiladi. So'z yordamida obyektlar belgilanadi, ularning belgilari umumlashtiriladi. So'zning ma'nosi esa obyektiv borliqdagi buyum va hodisalarni individual idrok qilish hamda tushunishda namoyon bo'ladi. Shaxsda so'z mazmun va ma'nosini yaqinlashuvi bir nechta bosqichlar orqali o'tadi, ya'ni avval u tarqoq tushuniladi va boshqa shunga o'xshash so'zlardan ko'p ham farqlanmaydi, keyinroq esa ushbu so'z nisbat berilayotgan obyektning mohiyati anglanib, so'z bilan ular o'rtasida munosabat o'rnatiladi.

Har bir odam dunyoga kelar ekan, nafaqat tafakkur, balki, hamma ruhiy jarayonlar rivoji uchun zarur bo'lgan tayyor til bilan uchrashadi.

Nutq - bu tildan individual foydalanish jarayoni. Boshqalar bilan muloqot jarayonida biz tildan eng ko'p foydalanamiz. Insonga tovushlardan buyumlarni belgilashda foydalana bilish va voqelikni anglash layoqati berilgan. Inson nutqi voqelikni miyada belgilar vositasida aks ettirishdan iborat. Bu esa axborotni kodlash va uzatishning asosiy vositalaridan biridir. O'zga kishilar nutqini tushunish uchun uni qaytadan kodlash, ya'ni ichki ma'noga ko'chirish kerak bo'ladi. Shu orqali so'z anglatadigan ma'no bilib olinadi. Bu esa miya analitik-sintetik faoliyatining natijasi.

Nutqni idrok qilish jarayonida uning eng ko'p axborot beradigan qismi ajratiladi, ayni vaziyat uchun muhim bo'lgan ma'no tanlanadi. Nutqni tanish va anglash jarayoni ma'lum bir belgilarni ajratib olishga asoslanadi. Shaxs alohida harflar yig'indisini idrok qilish bilan nutqni tushunadi.

So'z qo'zg'atuvchi sifatida uch xil shaklda namoyon bo'ladi: eshitish, ko'rish va harakat. Shunga mos ravishda miyada uchta nutq markazlari rivojlangan: eshitish markazi, ko'rish markazi va harakat markazi. Ular shartli refleklar orqali butun miya bilan bog'langan bo'lib, bir odam nutqining boshqa kishiga har tomonlama ta'sir etish mexanizmini, shuningdek, o'z-o'zini ishontirish, o'z-o'ziga buyruq berish va hokazolarni tushuntirish mumkin.

Insondagi nutq markazlari nafaqat u gapirayotganda, balki, o'ylayotganda ham qo'zg'aladi. Masalan, inson biron masalani yechayotganda, bir vaqtning o'zida, nutq markazi va nutq harakat apparatida kuchli qo'zg'alish kuzatiladi. So'z ta'sirida miya qobig'ida insonga o'zidagi ruhiy jarayonlar (ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriy xotira va hokazo)ni ongli ravishda boshqarish imkonini beruvchi muvaqqat bog'lanishlar tizimi, ikkinchi signallar tizimi shakllanadi. Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha predmetli harakatlarning aqliy harakatlarga aylanishida nutq faoliyati muhim vosita bo'ladi. Aqliy harakatlarning shakllanishida, tashqi harakatlar tartibi bilan dastlabki tanishuvdan tashqari ularni nutqda bajarish (*tashqi va ichki*) ham muhim bosqich bo'lib hisoblanadi.

So'z, miya qobig'ini faollashtirishga va oldingi tajribalarni faoliyatga jalb etishga qodir. U nafaqat ikkinchi signallar tizimiga, balki, u orqali birinchi signallar tizimiga va hatto miya qobig'i ostiga ham ta'sir etadi. So'z yordamida inson ruhiyati va faoliyatini zarur tomonga yo'naltirish mumkin.

Psixologiya nuqtai nazaridan nutq, ko'p vazifalarni bajaradi. U, eng avvalo, belgilash, atash vazifasini bajaradi. Har bir so'z yoki gap, predmet va hodisalarni aks ettiruvchi muayyan mazmunga ega bo'ladi. Ko'pgina so'zlar bir guruh predmetlarni anglatadi: tank, samolyot, raketa va hokazo. Ushbu so'zlarning o'zi muayyan tank, samolyot va hokazolarni belgilash uchun ham ishlatiladi. Nutqning ma'lumot berish vazifasi axborot, bilim va tajribalarni yetkazib berishda namoyon bo'ladi.

Nutqning ifoda vazifasi insonning o‘z hissiyotlari, ehtiyojlari va munosabatlarini gapining talaffuzida, urg‘usida, tuzilishida, qiyoslashda, maqollarda berishida o‘z ifodasini topadi.

Nutqda insonning temperamenti va xarakteri, uning aqli, hissiyot va iroda sifatlari ko‘rinib turadi. Insondagi o‘zini qo‘lga ola bilish, tashkilotchilik, maqsad sari intilish yoki, aksincha, faoliyatsizlik, loqaydlik, shubha kabilar uning nutq talaffuzida aks etadi.

Nutqning ta‘sir o‘tkazish vazifasi - bu insonni so‘z yordamida ma‘lum bir vazifalarni bajarishga, faollik ko‘rsatishga undashdan, da‘vat etishdan iborat. Nutq ta‘sirida insonning ruhiy holati, hissiyoti va xulq-atvor motivlari o‘zgarishi, unda gapirayotgan odam bilan ichki hamkorlik, hamfikrlik paydo bo‘lishi mumkin. Uning ta‘sir o‘tkazish vazifasidan o‘quv-tarbiya jarayonida, targ‘ibot va tashviqot ishida, rahbarlik va komandirlik faoliyatida keng foydalaniladi. Nutq kommunikatsiyaning eng muhim, ammo yagona vositasi emas. U har doim muloqotning boshqa vositalari, mimika, talaffuzning o‘zgarishi, imo-ishora kabilar bilan o‘zaro ta‘sirlashadi. Og‘zaki nutq ikki turga, diolog va monolog nutqqa bo‘linadi.

Suhbat jarayonida diolog nutqdan foydalaniladi. Suhbatdosh bilan yaqin hamkorlikda bo‘lish, nutqdagi alohida bir joylarni tashlab ketishga imkon beradi. Yuz ifodasi, ko‘z, talaffuz, imo-ishora, pauza, urg‘u berish, bularning hammasi suhbatdoshlarning bir-birlarini tezda tushunishlariga sharoit yaratadi. Ammo, ba‘zi holatlarda diolog nutqini to‘liq va aniq ifodalash zarur bo‘ladi: ilmiy bahs-munozara bo‘layotganda, komandir o‘z qo‘l ostidagi harbiy xizmatchilar bilan suhbatlashayotganda shunday bo‘ladi.

Monolog nutq - bu bir odamning nutqi (ma‘ruza, doklad), bu yerda odamlar o‘rtasidagi bevosita ta‘sir zaif bo‘lib, ularni baholash qiyin (teskari aloqa zaif). Monolog nutq, insondan katta bilimni, umumiy madaniyatni, to‘g‘ri talaffuzni, o‘zini qo‘lga ola bilishni, axborotni faol va to‘g‘ri uzatishni talab qiladi.

Og‘zaki nutq harbiy xizmatchilar hayot va faoliyatlarining hamma tomonlariga, o‘zaro munosabatlariga, ijtimoiy fikrning shakllanishiga va hokazolarga ta‘sir etadi.

Bo‘linmadagi harbiy xizmatchilardagi hissiyot, kayfiyat, muammo va baholarni bilish, komandirlarga ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tushunishiga yordam berib, uning nutqini boshqalar

ruhiyati hamda xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etadigan holatga olib boradi. Bu narsa komandir obro'sini oshiradi.

Axborotni harflar, so'zlar va iboralar vositasida berishga yozma nutq deyiladi. Muloqotning bu turi og'zaki nutqqa qaraganda ancha qiyin. Ruhiy holatni, fikrlarni yetkazib berish uchun ma'lumot va dalillarni tushunarli, to'liq va izchil bayon etish zarur. Og'zaki nutqda istagancha takrorlash mumkin, yozma nutqda esa bunday qilib bo'lmaydi. Shuni aytib o'tish kerakki, inson og'zaki nutq mahoratini yozma nutq orqali egallaydi, biroq buning uchun maxsus og'zaki mashg'ulotlarni bajarishi kerak bo'ladi.

Ichki nutq fikran amalga oshirilib, muloqot vazifasini bajarmaydi, ammo tafakkur jarayonini amalga oshirish uchun xizmat qiladi va aqliy faoliyatni shakllantirishning asosi bo'lib hisoblanadi. Ko'pincha birovlariga aytmoqchi bo'lgan gapimizni ichimizda gapirib olamiz. Bunday nutq, asosan axloqiy ruhda bo'lib, o'z xulq-atvorimizni tahlil qilishga va baholashga bag'ishlanadi. Bunday suhbat xayoliy tanqidchi bilan olib boriladi. Yaxshi rivojlangan ichki nutq matnlarni tez o'qish va tushunishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Nutqning deyarli hamma vazifalari va turlari harbiy faoliyatda ishtirok etadi. Ular orqali harbiy xizmatchilar bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bilim va tajribalarini almashadilar. Nutq yordamida komandirlar harbiy xizmatchilar faoliyatlariga rahbarlik qiladilar, ularni o'qitadilar va tarbiyalaydilar, ulardagi aqliy, irodaviy va boshqa sifatlarni rivojlantiradilar.

Harbiy xizmatchilar nutqi ham shakli, ham mazmuniga ko'ra o'zida harbiy hayotni aks ettiradi. Harbiy xizmatning o'ziga xosligi komandirlik nutqini hosil qilgan. Harbiy xizmatchilardagi nutqiy muloqot, shunidek, buyruq, talab va bildiruvlarning tuzilishi nizomlar hamda qo'llanmalar bilan tartibga solinadi. Harbiy xizmatchilar oldida so'zlanadigan tashviqot nutqi ham o'zining shakli va mazmuniga ko'ra ajralib turadi.

Tayanch so'zlar: Nutq, so'z, harbiy xizmatchi, komandir nutqi, muloqot, tashviqot, tarbiya, aql, iroda.

Nazorat uchun savollar:

1. Nutq nima?
2. Harbiy xizmatchilarda nutqni rivojlantirish yo'llarini tushuntiring.
3. Komandirlik (rahbarlik) nutqini tushuntirib bering.

3-MODUL: HARBIY XIZMATCHI SHAXSINING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI VA EMOSIONAL HOLATLARI

4-mavzu: Harbiy xizmatchilardagi emotsiya, hissiyot va iroda

Reja:

- 4.1. Emotsiya va hissiyotlar haqida tushuncha.
- 4.2. Iroda, uni harbiy xizmatchilarda tarbiyalash yoʻllari.
- 4.3. Emotsiya va hissiyotlar haqida tushuncha

Emotsiya va hissiyotlar ham boshqa ruhiy hodisalar singari borliqni aks ettirishning shakllaridan biri hisoblanadi. Voqelikni sezgi, obraz, tasavvur, tushuncha va fikrlarda aks ettiruvchi bilish jarayonlaridan farqli ravishda emotsiya hamda hissiyotlar dunyoni kechinmalarda ifodalaydilar. Bunday kechinmalarda atrofdagi buyumlar va hodisalarga nisbatan insonning shaxsiy his-tuygʻulari aks etadi.

Kishilar koʻrayotgan va eshitayotgan narsalariga, bajarayotgan va oʻylayotgan ishlariga befarq boʻlmaydilar. Bir xil buyumlar, shaxslar, harakatlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi, yana boshqalari gʻazab-nafratimizni qoʻzgʻatadi. Biz xavf ostida qolganimizda qoʻrquvni his qilamiz, dushman ustidan gʻalaba qozonish yoki qiyinchiliklarni yengish zavq, shodlik uygʻotadi. Har bir kishi yashab, mehnat qilar ekan, oʻz oldiga qoʻygan maqsadlariga erishish uchun intilib, kurash olib borar ekan, ana shunday va boshqa kechinmalarni boshidan oʻtkazadi.

“Emotsiya” soʻzi lotincha boʻlib, “hayajonlantiraman”, “iztirobga solaman” degan maʼnoni bildiradi. Emotsiya va hissiyot terminlari koʻp hollarda bir maʼnoda ishlatiladi. Emotsiya, shaxsning voqelikka boʻlgan oʻz munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bogʻliq boʻlgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir.

His-tuygʻularning manbai, biz idrok qiladigan, ish koʻradigan predmetlar va hodisalarning xususiyatlari vujudga keltiradigan ehtiyojlar, intilishlar, istaklardir. Bizning hayotdagi ozgina xatoligimiz ham katta yoʻqotishlarga olib kelishi mumkin.

Shundan soʻng tafakkur jarayoni yana ham muhim boʻlgan yangi bosqich - uchinchi bosqichga koʻtariladi. Bu bosqich gipotezalarni

tekshirib ko'rish bosqichi deb ataladi. Bu bosqich muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun komandir o'zi uchun zarur ma'lumotlarni to'la jamlay olishi, o'z bilim va tajribalariga asoslanib ushbu ma'lumotlarni to'g'ri baholay bilishi lozim. Agar yig'ilgan dalillar gipotezaning to'g'riligini tasdiqlasa, vazifa bajarilgan bo'ladi. Bordi-yu, gipoteza tasdiqlanmasa, vazifa bajarilmagan bo'ladi va komandir boshqa gipotezani ilgari suradi.

Tashqi dunyoga xos bo'lgan aloqalar va munosabatlar har xil operatsiyalar vositasida tafakkurda o'z aksini topadi. Bunday aqliy operatsiya turlari quyidagilar:

1. Analiz;
2. Sintez;
3. Qiyoslash;
4. Abstraksiya (mavhumlashtirish);
5. Umumlashtirish;
6. Konkretlashtirish.

Analiz - tafakkurning shunday operatsiyasiki, bunda butun bir predmet yoki voqelik fikran tarkibiy qismlarga ajratiladi. Butunga xos bo'lgan elementlar, xususiyatlar, belgilar va sifatlar ushbu tarkibiy qismlarni tashkil etadi. Bunga misol qilib dala o'quv mashg'ulotini rejalashtirishda uni turli bosqichlarga ajratishni aytish mumkin.

Sintez esa analizga teskari operatsiya bo'lib, uning vositasida analiz jarayonida aniqlangan predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqadorliklar asosida alohida qismlar bir butun qilib birlashtiriladi.

Qiyoslash. Bunda buyumlar yoki hodisalar o'rtasidagi umumiylik va tafovutlar qiyoslash yo'li bilan aniqlanadi. Vzvodda o'qish, xizmat va harbiy intizomni mustahkamlash yakunlarini sarhisob qilishda ushbu operatsiyadan foydalaniladi. Ushbu usul orqali qaysi guruh yoki harbiy xizmatchi ilg'or yoki aksincha, qoloq ekanligi aniqlanadi.

Abstraksiyalash (mavhumlashtirish) narsa va hodisalarning belgilarini, xususiyat yoki sifatlarini fikran ajratib olishdan iborat.

Umumlashtirish - fikr obyektini hisoblangan narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgilarini, bog'lanishlarini fikran bir tushunchaga birlashtirishdan iborat aqliy operatsiyadir. Masalan, avtomat, to'pponcha, pulemyot kabilarga xos belgilar "qurol" tushunchasi bilan umumlashtiriladi.

Konkretlashtirish (muayyanlashtirish) umumiy, mavhum belgi yoki xususiyatlarni yakka obyektlarga tadbiq qilishganda chiqadigan

tovush yoqimsiz bo‘ladi. Bunday emotsiyalar shartsiz reflekslarga asoslanadi, ya’ni u insonning ijtimoiy xususiyatlariga bog‘liq emas.

Ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida insoniy kechinmalarning yangi, o‘ziga xos shakli hissiyot paydo bo‘lgan bo‘lib, u insonning shaxs sifatidagi ehtiyojlarining qanchalik qondirilganligini aks ettiradi (muloqotga va bilishga bo‘lgan, estetik va hokazo ehtiyojlar). Hissiyotlar, masalan, jamoatchilik va o‘rtoqlik, uyat va vijdon, burchni va javobgarlikni his qilish kabilar ijtimoiy mavjudot bo‘lgan insongagina xos.

Emotsiya va hissiyotlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ular insonga ta’sir etayotgan narsa va hodisalarning ushbu inson uchun qanchalik ahamiyatliligiga bog‘liq bo‘ladi. Bitta buyum yoki holat turli vaqtlarda turlicha emotsiya va hissiyotlar uyg‘otishi mumkin.

Shaxs xususiyatlari emotsiya va hissiyotlarda bilish jarayonlaridagiga qaraganda aniqroq namoyon bo‘ladi.

Hissiyotlar va emotsiyalar fiziologik jarayonlar bilan bog‘langan bo‘lib, ichki organik jarayonlar (ochlik, og‘riq, charchoq va hokazo) emotsiya va hissiyotlarni keltirib chiqaradi.

Hissiyotlarning bilish jarayonlaridan farqli jihatlaridan yana biri, ularning inson tashqi xulq-atvori (yuzning ifodali harakatlari)da, tana harakatlari (pantomimika)da, imo-ishoralarda, tovushning talaffuzi va ohangida ko‘proq namoyon bo‘lishidan iborat.

Emotsiya va hissiyotlarga o‘zaro qutblilik (egizaklilik) hamda egiluvchanlik xos. Har bir hissiyotga nisbatan unga qarama-qarshi turuvchi hissiyot mavjud bo‘lib, ular bir-birlariga o‘tib turadilar. Masalan, quvonch hissiga xafachilik, sevgiga nafrat, jamoatchilikka xudbinlik qarama-qarshi turuvchi hissiyotlar hisoblanadi. Shu bilan birga, birgina hissiyotning o‘zi inson tomonidan har xil chuqurlikda his etilishi mumkin. Bunga insonning hissiyotni keltirib chiqargan sababga qanchalik bog‘liqligi va u amalga oshirayotgan faoliyat xususiyatlari sabab bo‘lishi mumkin.

Emotsiya va hissiyotlarga xos bo‘lgan xususiyatlardan yana biri shuki, ma’lum sharoitlarda inson kechirayotgan hissiyotlarning shaxsiy va ijtimoiy mazmuni mos kelmasligi mumkin.

Butun organizmda, jumladan, miyada kechadigan jarayonlarning murakkab o‘zaro ta’sirlashuvlari emotsiya va hissiyotlarning fiziologik asosi bo‘lib hisoblanadi.

Emotsiya va hissiyotlarni boshqarishda hamda ularning tashqi namoyon bo'lishida ikkinchi signallar tizimi, ya'ni so'z ta'sirida bosh miya qobig'ida qaror topadigan asab bog'lanishlari muhim o'rin tutadi. Inson so'z vositasida boshqa insonlardagi emotsional tajribalarni, ularning mazmuni va shaklini o'zlashtirib oladi. U so'z yordamida o'z hissiyotlarini tushunib yetishi, boshqarishi, ularni burch (harbiy, ijtimoiy va hokazo) talablariga bo'ysundirishi, boshqalardagi emotsiya va hissiyotlarga ta'sir o'tkazishi mumkin.

Insonning o'zidagi emotsiya va hissiyotlarni u yoki bu darajada boshqara olish hamda ularni tashqi tomondan namoyon qilishdan tiyilib turish layoqati ancha rivojlangan bo'lib, ammo ko'p hollarda buni uddalash qiyin kechadi. Har bir ofitserning o'z pedagogik ishida ushbu qonuniyatni e'tiborga olishi maqsadga muvofiq. Chunki, emotsiya va hissiyotlarning tashqi namoyon bo'lishi sergak ofitserga qo'l ostidagi harbiy xizmatchilarining ma'naviy olamini yaxshiroq tushunib olishiga imkon beradi. Shaxsiy tarkib bilan uzoq vaqt muloqotda bo'lgan ofitser har bir askardagi kechinmalarning mohiyatini bittagina so'z, imo-ishora yoki ohangidan bilib olishi mumkin.

Emotsiya va hissiyotlarda yana bir o'ziga xoslik mavjud: bir odamdagi hissiyotlar boshqalarga ham ta'sir etadi. Ularga istaklar, ichki holat, hayotiy vazifalarga munosabat kabilar ta'sir o'tkazadi. Bularning hammasi ofitserga har bir so'zi va xatti-harakati bilan harbiy xizmatchilarda ayni vaziyat uchun zarur hissiyotlarni hosil qilish hamda ma'naviy-axloqiy jihatdan salbiy holatlarga barham berish mas'uliyatini yuklaydi. Bunday madadga yosh askarlar, qiyin jangovar vaziyatlarda esa istisnosiz hamma harbiy xizmatchilar muhtoj bo'ladilar. Shuning uchun ham tajribali komandirlar o'z bo'ysunuvchilarini ayg'oqchilik (razvedka)ka yoki boshqa xavfli ishlarga jo'natishi oldidan, ularga iliq, tetiklashtiruvchi so'zlar aytadilar.

Emotsiya va hissiyotlar o'zlarining murakkabliklari, mazmuni va yo'nalishiga ko'ra quyi (oddiy) va yuqori (murakkab) darajalarga bo'linadi. Quyi darajadagi emotsiyalar birinchi signallar tizimi faoliyati bilan bog'langan bo'lib, shartsiz reflekslarga asoslanadi.

Yuqori darajadagi emotsiyalar shartli reflekslar negizida paydo bo'ladi va inson emotsional tajribasining oshib borishi bilan shartsiz reflekslar ustiga qurila boradi. Bundan tashqari, bunday emotsiyalar

quyi darajadagi emotsiyalar bilan shaxs hissiyotlari o'rtasida bog'lovchilik vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham ba'zan ma'nolari har xil bo'lsa ham emotsiya va hissiyotni bitta tushuncha bilan ifodalaydilar. Masalan, hayot uchun xavf tug'ilgandagi qo'rquv, shartsiz refleksga asoslangan yoki o'z-o'zini saqlash instinkti bilan bog'liq bo'lgan shartli refleksga ham asoslangan bo'lishi mumkin. Qo'rquvning bu turlari emotsiyalar hisoblanadi. Jamoa oldidagi hurmatini yo'qotishdan qo'rqish esa, hissiyot bo'lib, u ikkinchi signallar tizimi asosiga quriladi.

Harbiy xizmatchilardagi hissiyotlar ulardagi ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi, harbiy nizomlar, qasamyod talablari va boshliqlarning buyruqlarini bajarish bilan chambarchas bog'langan. Ularga harbiy faoliyat va uning natijalari kuchli ta'sir etadi. Harbiy xizmatchilardagi hissiyotlar ichida ayniqsa, axloqiy-siyosiy, huquqiy, estetik va intellektual kechinmalar muhim o'rin tutadi.

Axloqiy-siyosiy hissiyotlarga Vatanga muhabbat, dushmanlarga nafrat, harbiy burch, baynalminallik, jamoaviylik mehnatga nisbatan ijobiy-emotsional munosabat, or-nomus g'urur, uyat va vijdoniylik kabilar kiradi. Ushbu hissiyotlar askardagi dunyoqarash, siyosiy va axloqiy qadriyatlar, e'tiqod oilan bog'liq bo'ladi. Axloqiy-siyosiy hissiyotlar jang sharoitida harbiy xizmatchilarning xulq-atvorlarini belgilovchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilarning urush holatidagi jangovar harakatlarga nisbatan axloqiy - ruhiy tayyorgarligi, ularning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, turli xil huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan va xatti-harakatlar hamda ishlarga nisbatan shaxsning kechinmalarida namoyon bo'ladigan huquqiy hissiyotlar ham inson hayotida muhim o'rin tutadi. Yuksak darajada rivojlangan huquqiy hissiyotlar harbiy xizmatchilarni tartibbuzarlik va jinoiy harakatlardan saqlovchi asosiy mezonlar bo'lib xizmat qiladi. Huquqiy hissiyotlarga quyidagilar kiradi: qonunlarni, harbiy nizomlarni bajarishga nisbatan mas'uliyat hissi, jamoat tartibiga hurmat va hokazo. Shuning uchun ham huquqiy tarbiya tadbirlarini o'tkazishda harbiy xizmatchilarga nafaqat huquqiy bilimlarni berishga, balki, ularda huquqiy hissiyotlarni rivojlantirishga ham harakat qilish lozim.

Intellektual hissiyotlar bilish faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va boshqarib turiladi. Ularda insonning turli xil fikr va tushunchalarga nisbatan munosabatlari ifodalanadi. Ularga qiziquvchanlik, hayrat,

tushunmaslik, fikrlarning aniq va qat'iyliigi, shubha, yangilikni his qilish kabilar kiradi. Odatda, ular insonning fikrlash jarayonini jadallashtiradi, uni buyum va hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirishiga majbur qiladi.

Intellektual hissiyotlar bilimlarni o'zlashtirishda, harbiy xizmatchilarni o'qitish ishida muhim ahamiyatga ega. Vaqt tig'iz, axborotlar kam yoki to'g'ri bo'lmagan, hayot uchun xavfli murakkab jangovar sharoitlarda intellektual hissiyotlar komandirlarga to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Shaxsning estetik ehtiyojlari qondirilganda yoki qondirilmaganda unda estetik hissiyotlar paydo bo'ladi. Go'zallik – xunuklikni his qilish, ko'tarinkilik yoki tushkunlik, fojealilik yoki kulgililik kabilar estetik hissiyotlar hisoblanadi. Estetik hissiyotlar harbiy xizmatni go'zallik qonunlari bo'yicha tashkil qilishda, harbiycha kiyimni toza va ozoda saqlashda, harbiy burchni sharaf bilan bajarishda asqotadi.

Emotsiya va hissiyotlar o'zlarining mazmuni, yo'nalishi, kuchi, davomiyligi, chuqurligi, paydo bo'lishi, tezligi va ta'sir o'tkazishiga ko'ra farqlanadilar. Shundan kelib chiqib, ular ancha nobarqaror yoki nisbatan barqaror jarayonlar shaklida namoyon bo'lishlari mumkin. Unisi ham, bunisi ham inson xulq-atvorini boshqaradi, ular doim harakatda bo'lib, boshi, davomiyligi va yakuniga ega. Shaxs nafaqat kuchayib - kamayib yoki paydo bo'lib-yo'qolib turadigan kechinmalarini his qiladi, balki dunyoga nisbatan barqaror emotsional munosabatga, emotsional xususiyatlarga ham ega.

Emotsional holatlar uch xil shaklda namoyon bo'ladi: kayfiyat, affekt va ishtiyoq.

Kayfiyat. Inson kayfiyatini belgilovchi asosiy omillar quyidagilar: ijtimoiy tuzum, hayot tarzi, insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning dunyoqarashlari, temperament va xarakterlari. Qandaydir bir muayyan voqea, yoqimli yoki yoqimsiz xabar kabilar kayfiyatning sabablari bo'lishlari mumkin. Bir kayfiyat inson va jamoa faoliyatiga ijobiy ta'sir etsa, boshqasi aksincha, salbiy ta'sir etishi mumkin.

Kayfiyat - insonning kuchsiz yoki o'rtacha kuchga ega bo'lgan nisbatan barqaror umumiy emotsional holati. Muayyan kayfiyat uni keltirib chiqargan sabablar yoki shaxsning xarakter xislatlariga qarab kunlab, oylab ham davom etishi mumkin. Kayfiyat ham boshqa

hissiyotlar kabi ijobiy va salbiy bo‘ladi. Masalan, xushchaqchaqlik, g‘amginlik va hokazo.

Jangovar o‘quv jarayonida yaxshi kayfiyat bilim, ko‘nikma va malakalarni tez va mustahkam o‘zlashtirishni ta‘minlaydi. Ishonchsizlik, loqaydlik va bezovtalik kabilar esa o‘quv faoliyatini hamda harbiy xizmatchilar shaxsida axloqiy jangovar sifatlarni rivojlantirishni sekinlashtiradi, hatto ularni to‘xtatib ham qo‘yishi mumkin. Shuningdek, yomon kayfiyat harbiy intizomning buzilishiga, avariya va jinoyatlar sodir bo‘lishiga, o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarning yo‘qotilishiga sabab bo‘ladi.

Har bir harbiy xizmatchidagi kayfiyatga bo‘linmadagi umumiy kayfiyat kuchli ta‘sir qiladi. Ko‘tarinki va tetik kayfiyat mavjud bo‘lgan bo‘linmalarda harbiy xizmat qiyinchiliklarini yengib o‘tish oson kechadi. U askarlarda ertangi kunga nisbatan umidvorlik uyg‘otib, yaxshi kayfiyat hadya etadi.

Jang qilish ehtimoli yaqinlashganda, harbiy xizmatchilarda emotsional zo‘riqish paydo bo‘ladi, agar uning oldi olinmasa, affekt holatiga olib kelishi mumkin.

Affekt - lotincha so‘z bo‘lib, «ruhiy hayajon» yoki «ehtiros» degan ma‘noni bildiradi. Affekt - tez va kuchli paydo bo‘lib, shiddat bilan o‘tadigan qisqa muddatli hissiyot (qo‘rqinch, dahshat va hokazo). Affekt holatida ichki organlar faoliyati o‘zgaradi, keskin ifodali harakatlar paydo bo‘ladi, kishining ong doirasi torayadi, xulqini nazorat qilish qobiliyati yo‘qoladi. Affekt asab tizimining zararlanishi yoki irodaning bo‘shashishidan iborat psixopatologik holat ham bo‘lishi mumkin.

Odatda nobarqaror, tez o‘zgaruvchan va zaif xarakterli kishilarda affekt holati tez-tez paydo bo‘lib turadi, tashqi tomondan u hech qanday zarurati bo‘lmagan odatdan tashqari o‘ta faollikda, imo-ishoralarda, xitob va chaqirishlarda yoki aksincha, harakatlarni to‘xtatib qolishda namoyon bo‘ladi.

Iroda kuchi bilan affektning oldini olish mumkin. Insonda irodaviy sifatlar qanchalik rivojlangan bo‘lsa, u affektga shunchalik kam beriladi yoki unda bunday holat umuman bo‘lmaydi. Shuningdek, diqqatni chalg‘itish yoki boshqa narsaga qaratish ham affektning kamaytiradi yoki butunlay uning oldini oladi. Ushbu usullarning psixologik mohiyati kuchli asab qo‘zg‘alishlarini miyaning bir qismidan boshqa qismiga o‘tkazishdan iborat.

Ishtiyoq - muayyan faoliyat turiga kuchli intilish bilan bog'liq bo'lgan davomli va barqaror hissiyot. Ishtiyoq ham salbiy va ijobiy bo'lishi mumkin. Masalan, bilim olishga bo'lgan ishtiyoq ijobiy bo'lsa, noqonuniy shaxsiy boylik orttirishga bo'lgan ishtiyoq esa salbiy hisoblanadi. Salbiy ishtiyoqni hirs, deb ham atashadi.

Ishtiyoq bilan havasni bir-biridan farqlash lozim; havasda ham ishtiyoqdagi kabi buyum yoki faoliyatga nisbatan kuchli moyillik namoyon bo'lsa-da, ammo, u vaqtinchalik qisqa vaqtli bo'ladi. Ijtimoiy jihatdan foydali ishlarga qaratilgan ishtiyoq shaxsni boyitadi, uni buyuk maqsadlarga, jasoratga yetaklaydi. Fanga, texnikaga, san'atga bo'lgan cheksiz muhabbat ham ishtiyoqning namoyon bo'lishi hisoblanadi. Ishtiyoqlardan farqli ravishda havaslarning tarkibidagi aqliy va irodaviy unsurlar emotsiyalarga nisbatan befarq bo'ladilar. Havasni ishtiyoq paydo bo'lishining birinchi bosqichi, deb hisoblash mumkin, ya'ni ma'lum shart-sharoit bo'lganda vaqt o'tishi bilan u rivojlanib, ishtiyoqqa aylanadi.

Harbiy faoliyat hissiyotlarni junbushga keltiradigan faoliyat hisoblanadi. Ayniqsa, jangovar harakatlar sharoitida harbiy xizmatda emotsiya hamda hissiyotlar shunchalik kuchli va tez namoyon bo'lishi mumkinki, u bunchalik ko'p kechinmalarni yarim umri davomida ham boshidan o'tkazmasligi mumkin. Zamonaviy urushlarda eng yangi va qudratli harbiy texnika, qurollarning qo'llanilishi esa bunday kechinmalarni kuchaytiruvchi qo'shimcha omil bo'lib xizmat qiladi.

Jangovar tayyorgarlik va jang sharoitlarida harbiy xizmatchilardagi yuksak axloqiy-siyosiy hissiyotlarni rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash ularda muvaffaqiyatga, g'alabaga bo'lgan intilishni saqlab turadi. Bunday hissiyotlar loqaydlikka, qo'rquvga va boshqa salbiy emotsional holatlarga nisbatan davo vositasi bo'lib hisoblanadi. Shuni unutmaslik lozimki, komandirdagi ozgina salbiy emotsional kechinmalar ham harbiy xizmatchilarni befarq qoldirmaydi, ularga yuqadi. Shuning uchun ham komandir har doim o'zini qo'lga ola bilishi, ayniqsa, jangning qiyin daqiqalarida mardlik va jasorat, chidamlilik va ishchanlik namunasini ko'rsatishi kerak.

Harbiy xizmatchidagi axloqiy-siyosiy, intellektual, huquqiy va estetik hissiyotlar uning dunyoqarashi hamda e'tiqodi bilan bog'liq. Chunki, uning atrof-muhitga, voqelikka, harbiy burchiga, mehnatga va o'zga kishilarga munosabati dunyoqarashi va e'tiqodida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham ularda onglilikni shakllantirish axloqiy-

siyosiy, huquqiy, intellektual va estetik hissiyotlarga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo, harbiy xizmatchilarga siyosiy, axloqiy, tarixiy va boshqa bilimlarni berish bilangina ularda hissiyotni tarbiyalab bo'lmaydi. Bilimlar nisbatan tez o'sadi, hissiyot esa sekin shakllanadi. Bilimlar va hissiyot o'rtasidagi bunday nomuvofiqlikni tugatishning yo'llaridan biri - bilimlarni ishonarli qilib, obrazli-emotsional shaklda berishdan iborat.

Harbiy xizmatchilarga amaliy faoliyatda yetarlicha mustaqillik berish muhim ahamiyatga ega. Ular olgan bilimlarini qo'llash jarayonida aqliy va irodaviy faollik ko'rsatib, huquqiy jihatdan mustaqil qarorlar qabul qiladilar.

4.2.Iroda, uni harbiy xizmatchilarda tarbiyalash yo'llari

Ofitserga duch kelib qolgan askar beixtiyor o'ng qo'lini o'ng qulog'ining ustiga qo'yganicha, unga harbiychasiga salom berdi, holbuki u buni qilmasligi lozim edi, chunki uning bosh kiyimi yo'q edi. Askarning bu harakatiga kutilmagan, bexosdan bo'lgan, reflektiv harakat deyiladi. Kishining hamma ta'sirlanishlari reflektor tabiatga ega, lekin askarning yuqorida tasvirlangan harakati ongning nazoratisiz yoki uning yetarli ishtirokisiz, ma'lum bir maqsadsiz amalga oshirilgan bo'lib, shu sababli ixtiyorsiz harakat yoki ataylab qilinmagan harakat deyiladi. Lekin har bir kishi jo'da ko'p oddiy va murakkab harakatlarni amalga oshiradiki, ular batamom ongli ravishda bajariladi va muayyan maqsadni ko'zlaydi.

Iroda - bu shaxsning ongli harakatlarida, o'z-o'zini tuta bilishida ifodalanadigan, ayniqsa, maqsadga erishish yo'lida uchraydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni yengib chiqishida namoyon bo'ladigan ixtiyoriy faolligi.

Iroda ham boshqa ruhiy hodisalar singari voqelikni, xususan jamiyatdagi, alohida kishilar hayotidagi zaruratni aks ettirishning maxsus shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham iroda, garchi kishilarning ixtiyoriy faolligi bo'lsa ham obyektiv sabablar, shaxsning yashash tartibi va sharoitlari bilan belgilanadi.

Irodaviy xatti-harakat uch bosqichdan iborat:

- 1.Tayyorgarlik;
- 2.Bajarish;

3. Yakunlash.

Tayyorgarlik bosqichi niyatni, maqsadni anglashni, ish olib borish usullarini tanlashni o'z ichiga oladi. Masalan, agar yosh yigitcha ofitser bo'lishga qaror qilar ekan, o'z maqsadini belgilab oladi, u ana shu maqsadga erishish uchun harbiy bilim yurtiga kirishni istaydi, qaysi o'quv yurtiga, qaysi fakultetga kirish va hokazolar masalasini hal qiladi. U o'qishga kirishga qanday tayyorgarlik ko'rishni: mustaqil tayyorgarlik ko'radimi yoki tayyorlash kursiga kiradimi, ana shuni o'ylaydi.

Nihoyat, maqsad aniq bo'ldi. Bir qarorga kelish bilan harakatning tayyorgarlik bosqichi tamom bo'ladi, lekin agar bu harakatning ketidan qarorning bajarilishidan hamda shundan so'ng ma'lum bir xulosalar chiqarishdan iborat navbatdagi bosqichlar kelmasa, u irodaviy harakat bo'lmaydi. Mazkur misolda irodaviy harakat to'la amalga oshishi uchun yigitcha belgilangan kirish imtihonlarini topshirib, harbiy bilim yurtiga kirish (ikkinchi bosqich)i, so'ngra esa o'zining faoliyatini tahlil qilib, ma'lum bir xulosalar (uchunchi bosqich) chiqarishi kerak bo'ladi.

Irodaviy xatti-harakatlarning uch bosqichini yana ham maydalab, besh bosqichga bo'lish mumkin:

1. Maqsad qo'yish;
2. Maqsadga erishish yo'llarini belgilash (bir nechta);
3. Ushbu yo'llardan birini tanlash;
4. Maqsadni amalga oshirish;
5. Yakunlash yoki yakuniy xulosalar chiqarish-tahlil qilish.

Irodaviy xatti-harakat quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Oddiy va murakkab;
2. Qisqa vaqtli va uzoq vaqtli;
3. O'z tashabbusi bilan yoki boshqalar tashabbusi bilan amalga oshirilganligiga ko'ra.

Irodaga soddaroq qilib quyidagicha ta'rif berish mumkin: iroda bu insonning o'z xulq-atvorini ongli boshqarish hamda kuch-g'ayratlarini, qiyinchiliklarni yengishga safarbar etish qobiliyati.

Demak, insonning o'z faoliyatini nazorat qilish hamda ma'lum maqsadga erishishga yo'naltira olish qobiliyatiga iroda deyiladi.

U insonning biron-bir narsaga erishishi shaklida ham, shuningdek, insonning biror-bir narsadan voz kechishi shaklida ham namoyon bo'lishi mumkin. Iroda insonning bilish va his qilishdan amaliy

faoliyatga o'tishini ta'minlaydi. Iroda yordamida inson o'z faoliyatini tashkillashtiradi va xulq-atvorini nazorat qiladi.

Psixik jarayonlar inson xatti-harakatlari va faoliyatini tartibga solib turadi. Faoliyatning eng yaxshi boshqaruvchisi va tartibga soluvchisi iroda hisoblanadi. Iroda psixik faoliyatda bir-biri bilan o'zaro bog'langan faollashtirish va tormozlash vazifalarini bajaradi.

Iroda insonning biror-bir maqsadga erishishida emas, balki, undan voz kechishida ham namoyon bo'ladi. Insondagi bilish va hissiyot iroda vositasida amaliy faoliyatga aylanadi.

Iroda, ayniqsa, harbiy xizmatchilar faoliyatida katta ahamiyatga ega. Mustahkam iroda mehnat va jangovar faoliyatda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham komandirlar o'z faoliyatlarida harbiy xizmatchilarda irodani tarbiyalashga katta e'tibor berishlari lozim.

Irodani toblash, hissiy-irodaviy barqarorlikni tarbiyalash, harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlashning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shaxs faolligi har xil xatti-harakatlar shaklida amalga oshadi. U bu xatti-harakatlar bilan atrof borliqni o'zgartiradi. Xatti-harakat va faoliyatlar ularda irodaning ishtirok etish darajasiga qarab ikki guruhga: *ixtiyoriy va ixtiyorsiz* turlarga bo'linadi.

Ixtiyoriy - nishonga olish, qurolni tozalash va hokazo. Ixtiyorsiz - qo'qqisdan o'q tovushi kelgan tomonga qarash. Inson ixtiyorsiz harakatlarni oldindan anglanmagan hamda hech kim tomonidan (yoki o'zi tomonidan) qo'yilmagan maqsadlarsiz amalga oshiradi. Bunda u qiyinchiliklarni his qilmaydi. Ular favqulodda sodir bo'lib, aniq rejaga ega emas. Bu yerda harakat sababi butunlay tashqi bo'lib, harakatlar esa avtomatik ravishda yuz beradi, Ularda organizmdagi mo'ljallash, himoyalash va boshqa reaksiyalar namoyon bo'ladi.

Ixtiyoriy harakatlarda esa inson ma'lum maqsadga erishish uchun turli to'siqlarni yengib o'tadi. Irodaviy xatti-harakatlar jismoniy va psixologik-ruhiy zo'riqishlarda o'z ifodasini topadi.

Iroda, uni harbiy xizmatchilarda tarbiyalash yo'llari.

Harbiy xizmatchilarda irodani shakllantirish yo'llari:

- Milliy istiqlol g'oyasiga sadoqatni shakllantirish;
- Mashg'ulotlarni jangovar va qiyin sharoitlarda olib borish;
- Qat'iy harbiy intizom, komandirlarning doimiy talabchanligi;
- Qiyinchiliklarni yengib o'tish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish;
- Jamoaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish;

- O‘z-o‘zini tarbiyalash.

Ehtiyojlar irodaviy faollikning manbai. Insonning faoliyati asosida ehtiyojlar yotadi va ular xilma-xil bo‘ladi: eng elementar-organik ehtiyojlardan tortib, eng yuksak-axloqiy, ma’naviy ehtiyojlargacha mavjud. Ular o‘zaro hamkorlikda shaxs motivatsiyasini tashkil etadi. Insonning irodaviy xulq-atvorini tahlil qilish uchun uning ehtiyojlarini o‘rganish kerak bo‘ladi.

Ehtiyojlar kuchli va axloqiy tarbiyalangan irodani tarbiyalashga ham, shuningdek, “yovuz” irodani tarbiyalashga ham sababchi bo‘lishi mumkin. Kimki, o‘zining ijtimoiy vazifalarini yaxshi anglasa va sog‘lom ehtiyojlarni rivojlantirsa Unda axloqiy jihatdan to‘g‘ri iroda shakllanadi.

Ijtimoiy burch irodaning axloqiy tashkil qiluvchisi hisoblanadi. Har bir shaxs oldida nafaqat shaxsiy, balki, ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlar ham bo‘ladi. Bunday maqsadlar inson tomonidan ijtimoiy burch sifatida anglanadi va qabul qilinadi.

O‘zining ijtimoiy burchiga munosabatiga ko‘ra harbiy xizmatchilarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. O‘z ijtimoiy burchini anglaydigan va uni bajarishga astoydil intiladigan;
2. O‘z ijtimoiy burchini anglaydigan, ammo uni bajarishga har doim ham intilmaydigan;
3. O‘zining ijtimoiy burchini anglab yetmaganlar.

Irodaviy xatti-harakatlar klassifikatsiyasi:

- Oddiy irodaviy harakatlar;
- Murakkab irodaviy harakatlar;
- Alohida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan irodaviy harakatlar, shaxsning hamma kuch va imkoniyatlarini ishga solishni talab qiladigan faoliyat.

Oddiy irodaviy harakatda shaxsda qaror qabul qilishda ikkilanishlar, ya’ni motivlar o‘rtasida kurash bo‘lmaydi. Bunda irodaviy xatti-harakat unga nisbatan ehtiyoj paydo bo‘lishi bilan darrov amalga oshadi.

Murakkab irodaviy harakatni esa yuqorida ko‘rib chiqdik.

Bunda qo‘zg‘alish va faoliyat oralig‘ida murakkab anglash jarayoni kechadi:

-Tayyorgarlik bosqichi: murakkab irodaviy harakat ehtiyoj paydo bo‘lishidan va ushbu ehtiyojni qondirish maqsadini aniqlashdan

boshlanadi. Undan keyin ushbu maqsadga erishish yo‘llari ongda muhokama qilinadi;

-*Asosiy bosqich*: ushbu bosqichda ehtiyojni qondirish maqsadidagi faoliyat amalga oshiriladi;

-*Yakuniy bosqich*: qilingan xatti-harakatlar tahlil qilinib tegishli xulosalar chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari (QK) harbiy xizmatchisining irodaviy xususiyatlari.

Irodani tarbiyalash yo‘lidagi ishlarni samarali olib borish irodaning o‘ziga xos jihatlarini bilishni taqozo qiladi. Ular quyidagilar:

- Maqsadga intilish;
- Qat’iylik;
- Harakatchanlik va sabotlilik;
- Bardoshlilik va o‘zini idora qila olish;
- Ijrochilik;
- Tashabbuskorlik;
- Jasoratlilik;
- Mustaqillik;
- Intizomlilik;
- Mardlik.

Shuni aytib o‘tish kerakki, psixologik tayyorgarlik axloqiy-siyosiy va harbiy-professional tayyorgarlik doirasida amalga oshiriladi.

Harbiy xizmatchilardagi emotsional-irodaviy barqarorlik quyidagi omillar bilan ta’minlanadi:

- Axloqiy-psixologik sifatlar;
- Harbiy mahorat;
- Jismoniy chiniqqanlik;
- Psixologik tayyorgarlik.

Ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik mashg‘ulotlarida:

- Harbiy xizmatchilarda milliy istiqloq mafkurasini shakllantirish;

- Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va hamisha Vatan himoyasiga shay turishni ongiga singdirish;

- Zamonaviy urushlar haqida to‘g‘ri tasavvurni, shuningdek, g‘alabaga bo‘lgan ishonchni tarbiyalash.

Tayanch soʻzlar: Emotsiya; hissiyot; astenik hissiyot; stenik hissiyot; kayfiyat, affekt, ishtiyoq; iroda; faollashtirish; tormozlash; ixtiyoriy va ixtiyorsiz harakatlar; ijtimoiy burch; iroda akti.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Hissiyot nima? Uni taʼriflang. Emotsiyachi?
- 2.Iroda qanday psixologik jarayon?
- 4.Harbiy xizmatchilarda iroda qanday tarbiyalanadi?

5-mavzu: Harbiy xizmatchi shaxsining psixologik muammolari

Reja:

- 1.Shaxs va uning belgilari.
- 2.Harbiy xizmatchilardagi temperament va xarakterlar.
- 3.Qobiliyatlar, ularni harbiy xizmatchilarda rivojlantirish.

5.1.Shaxs va uning belgilari

Maʼlumki, psixologiyada, nafaqat psixologiyada, balki umuman ijtimoiy-psixologik adabiyotlarda shaxs tushunchasiga katta eʼtibor qaratiladi.

Psixologiya nuqtai nazaridan shaxs quyidagi belgilarga ega:

1. U aniq bir inson;
2. Muayyan jamiyatning aʼzosi;
3. Muayyan jamoaga mansublik;
4. Muayyan bir faoliyat yoki faoliyatlar turi bilan shugʻullanadi;
5. Atrof-muhit va voqelikka nisbatan oʻzining munosabatiga ega;
6. Oʻziga xos individual xususiyatlarga ega.

Bundan tashqari, shaxs oʻziga xos quyidagi psixologik xususiyatlarga ham ega boʻladi:

1. Oʻz-oʻzini anglash;
2. Individuallik - oʻziga xoslik;
3. Oʻz-oʻzini boshqara (alohida reja asosida) olish layoqati;
4. Muayyan faoliyat turida namoyon qiladigan faolligi;
5. Ijtimoiy aloqa tizimiga qoʻshilganligi.

Shuni aytib oʻtish kerakki, “inson” va “shaxs” tushunchalari bir xil maʼnoni anglatmaydi. Inson - bu yigʻma tushuncha boʻlib, har qanday shaxsga nisbatan ham ishlatilaveradi. Shaxs esa oʻzidagi

jamiki individual xususiyatlar bilan birgalikda muayyan bir insonni anglatadi.

Individual xususiyatlarga insonni shaxsga aylantiradi. Uning shaxslilik darajasi ushbu individual xususiyatlarning qanchalik rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Insondagi biologik omil uning shaxsiga shubhasiz ta'sir etadi. Undagi biologik omillarga quyidagilar kiradi:

- Salomatligi;
- Jismoniy rivojlanganlik darajasi;
- Tana tuzilishi;
- Bo'yi;
- Og'irligi;
- Muskul kuchi;
- O'pkasining hajmi va hokazo.

Bu omillar vositasida ofitser harbiy xizmatchi ko'tara oladigan jismoniy zo'riqishni aniqlab olishi mumkin. Harbiy xizmatchi salomatligi, jismoniy ahvoli uning ishlash layoqati va kayfiyatiga ta'sir etadi. Uning o'qish va xizmatdagi muvaffaqiyatlari, shuningdek, o'rtoqlari hamda komandirlari bilan bo'ladigan munosabatlari uning ishchanligiga va kayfiyatiga bog'liq bo'ladi.

Bularning hammasi qo'shib undagi individual-psixologik xususiyatlarning rivojlanish darajasini belgilab beradi. Insonning nimani emas, balki, ushbu nimani qanday bajarishi ko'proq uning shaxs sifatidagi qiyofasini belgilaydi. Insonning xatti-harakatlari ma'lumki, sababsiz sodir bo'lmaydi, ular inson ruhiyatiga, uning fikrlari, ehtiyojlari va hissiyotlariga asoslangan bo'ladi.

Biron-bir narsa yoki hodisani tushunib yetish uchun, uni nimadan iborat ekanligini bilish katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda inson psixikasi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

- Psixologik jarayonlar;
- Psixologik xususiyatlar;
- Psixologik holatlar;
- Psixologik tuzilmalar;

Psixologik jarayonlar:

- bilish jarayonlari;
 - hissiyot;
- iroda.

Psixologik xususiyatlar:

- shaxs yoʻnalishi (ehtiyoblari, qiziqishlari va hakoza);
- temperament;
- xarakter;
- qobiliyatlar.

Psixologik holatlar:

- koʻtarinki kayfiyat;
- ruhiy tushkunlik;
- qoniqish hissi;
- oʻz-oʻzidan qoniqmaslik

Psixologik tuzilmalar:

- bilimlar;
- koʻnikmalar;
- malakalar;
- odatlar.

Ushbu sanab oʻtilgan komponentlar har bir harbiy xizmatchida har xil rivojlanish yoki shakllanish darajasida boʻladi. Masalan, birgina psixologik bilish jarayonlarini (sezgilar, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va nutq) olib koʻradigan boʻlsak, ular ham har bir kishida oʻziga xos qiyofaga ega boʻladi. Inson har xil sezgilarga ega, ammo u har kishida har xil; kimdadir koʻrish sezgisi kuchli rivojlangan, kimdadir zaifroq va hokazo.

Tafakkur ham har bir kishiga xos boʻlib, lekin oʻzining namoyon boʻlishi jihatidan har kimda har xil boʻladi. Kimningdir tafakkuri umumlashtiruvchi operatsiyalarni tezkorlik bilan bajarsa, boshqalarniki analitik (tahlil qilish) qobiliyati bilan ajralib turadi.

Ofitserning oʻz qoʻl ostidagi harbiy xizmatchilardagi psixologik jarayonlarning xususiyatlarini toʻgʻri baholay olish layoqati undagi kasbiy-pedagogik mahoratning muhim belgisi hisoblanadi.

Yoʻnalganlik, temperament, xarakter, qobiliyat kabilar insonning psixologik xususiyatlari boʻlib, ularda insonning ichki dunyosi, ijtimoiy mohiyati oʻz ifodasini topadi. Ushbu xususiyatlarni oʻrganish ofitserga tarbiyaviy ishlarni va harbiy xizmatni toʻgʻri rejalashtirishga yordam beradi.

Shaxsdagi psixologik reaksiya va jarayonlarning qanchalik tez yoki sekin kechishi esa insonning psixologik holatini tashkil etadi. Psixologik holatlar qisqa vaqtli va barqaror turlarga boʻlinadi. Ikkala holat ham bir-biri bilan oʻzaro uygʻunlashib, doimo inson hayot faoliyatiga taʼsir etib turadi.

Harbiy xizmatchining faoliyatida qanchalik muvaffaqiyatga erishishi uning shu paytdagi psixologik holatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bu narsa harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ofitser har bir harbiy xizmatchidagi ruhiy holatni sinchkovlik bilan kuzatib borishi va jamoa manfaatlariga bo'ysundira olishi lozim.

Ma'lum bir faoliyatlar bilan shug'ullanish natijasida insonda psixologik tuzilmalar shakllanadi. *Bilim, ko'nikma, malaka va odatlar, psixologik tuzilmalar hisoblanadi. Ular insonning butun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi.* Masalan, harbiy xizmatchi xizmat jarayonida o'zidagi siyosiy va harbiy bilimlarni, harbiy texnika va qurollarni ishlata olish bilan bog'liq ko'nikma va malakalarni, harbiy intizomga qat'iy bo'ysunish odatlarini o'zlashtiradi hamda rivojlantiradi.

Ushbu sanab o'tilgan psixologik tuzilmalarni tashkil qiluvchilarning o'zaro birligi inson shaxsining mohiyatini tashkil etadi.

Ofitser amalga oshiradigan tarbiyaviy ishning obykti muayyan inson, shaxs hisoblanadi. Intizomli, munosib askar qilib tarbiyalash uchun ofitser uni shaxs sifatida o'rganishi lozim.

Ofitser o'z faoliyatini samarali olib borishi uchun nafaqat har bir harbiy xizmatchi psixologiyasini, balki, harbiy jamoa psixologiyasini ham bilishi maqsadga muvofiq.

Jamoa psixologiyasi - bu ma'lum bir insonlar guruhi yashaydigan muhit, ularning ma'naviy dunyosi. Harbiy xizmat sharoitida qism, batalon, vzvod guruh, seksiya, ekipaj kabilar jamoalarga misol bo'la oladi.

Fikr, kayfiyat, o'zaro munosabatlar, an'ana, ehtiyoj va talablar jamoa psixologiyasini tashkil etadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, harbiy jamoa psixologiyasi juda katta tarbiyaviy va g'oyaviy ta'sir kuchiga ega. Agar jamoa bir ovozdan harbiy intizomni buzuvchi, vijdotsiz harbiy xizmatchini qoralaydigan bo'lsa, bu harbiy xizmatchi albatta o'zining xizmatga va o'z burchiga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Lekin, afsuski, ba'zan harbiy jamoada nosog'lom muhit, nosog'lom kayfiyat va o'zaro munosabatlar ustuvorlik qiladi. Komandir, ofitser jamoa psixologiyasini o'rganish orqali ushbu salbiy o'zgarishlarning oldini olishi mumkin.

1. Psixologik jarayonlar, psixik hodisalarning paydo bo'lishi, qonuniy ravishda izchil o'zgarishi va bir taraqqiyot bosqichidan navbatdasisiga o'tishi, ularda sifat o'zgarishlarining sodir bo'lishidan iborat bo'lgan hodisa.

2. Psixologik xususiyatlar insonning shaxs sifatidagi asosiy tashkil qiluvchilari bo'lib, ularsiz u biron bir faoliyatni amalga oshira olmaydi.

3. Inson hayot faoliyati jarayonida unda shakllanadigan nisbatan mustahkam sifatlarga psixologik tuzilmalar deyiladi.

4. Psixologik holatlar - bu shaxsning obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi ijobiy hamda salbiy emotsional kechinmalari.

5.2. Harbiy xizmatchilardagi temperament va xarakterlar

Odamlar bilan muloqotda bo'lib, ularni kuzatib shu narsaga guvoh bo'lish mumkinki, ularning ba'zilari xotirjam, boshqasi harakatchan, uchinchisi kamgap va xafaqon, to'rtinchisi quvnoq bo'lishadi. Odamlar o'rtasidagi qanday tafovut ular temperamentlaridagi har xillik bilan izohlanadi. (Temperament tushunchasi lotincha "temperamentum" so'zidan olingan bo'lib, "aralashma" yoki "qismlarning nisbati" degan ma'noni bildiradi). Temperament psixika va xulq-atvor dinamikasini ifodalaydi.

His-tuyg'ularning paydo bo'lish tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatlarning majmui temperament deb ataladi. U shaxsning tug'ma sifati hisoblanadi.

Temperamentlar har xilligining sabablarini mashhur rus fiziolog olimi I.P. Pavlov o'zining oliy asab faoliyati turdagi haqidagi ta'limotida tushuntirib beradi. Unga ko'ra temperamentning asosi bo'lib, bosh miya yarimsharlari qobig'ining faoliyati hisoblanadi. Bosh miya qobig'ida kechadigan qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari har xil odamlarda turli xil kuch bilan namoyon bo'ladi, shuningdek, ushbu jarayonlar harakatchanlik va barqarorlik xususiyatlariga ham ega bo'ladi. Asab qo'zg'alishlarining kuchi quyidagi sifatlar bilan belgilanadi: faollik, diqqatlilik, chidamlilik, emotsional barqarorlik va noqulay sharoitlarda ham ish qobiliyatining birday saqlanib turishi. Barqarorlik xulq-atvorning bir tekisda namoyon bo'lishida o'z ifodasini topadi. Nobarqarorlik, o'zini tuta

olmaslik, o'z-o'ziga nisbatan nazoratning yo'qligi kabi sifatlar bilan belgilanadi. Ko'nikma va odatlarni tezda o'zgartira olish, shuningdek, yangi sharoitlarga yengil moslashish kabilar harakatchanlik belgilaridir. Asab jarayonlari kuchsiz bo'lganida insonda tez charchash, emotsional nobarqarorlik hamda og'ir vaziyatlarda o'zini tuta bilmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Asab jarayonining bu xususiyatlari o'zaro birlashib, asab tizimi turlarini tashkil qiladi. Bu turlar o'z navbatida mos ravishda 4 ta temperamentning fiziologik asosini tashkil qiladi.

Kuchli, qo'zg'aluvchan, tajang, g'ayratli, aniq imo-ishoralar va mimikaga boy, nobarqaror turiga, temperamentning xolerik turi to'g'ri keladi; kuchli, harakatchan, tuyg'ularning beqarorligi - sangvinik temperamenti; Kam harakatchan, inert tur - flegmatik temperamenti, flegmatik kishini uning uchun odatiy bo'lib qolgan tinch holatdan olib chiqish oson emas. U harakat va gapirishda ham shoshilmaydi, uning mimikasi kam ifodali, harakatlari sust; kuchsiz turga esa melanxolik temperamenti mos keladi, u tuyg'ularning nisbatan kam xilma-xilligi bo'lgani holda ularning sekin paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Tashqi tomondan deyarli tuyg'ular ko'zga tashlanmaydi. Melanxolik kishini ko'p narsa bezovta qilmaydi, lekin his-tuyg'ular paydo bo'lganda u, odatda chuqur, davomli va ancha kuchli bo'ladi. Melanxolik kishining kayfiyati ko'pincha g'amgin bo'ladi.

Temperament shaxsning barqaror xususiyati hisoblansa-da, ammo insonning hayoti va faoliyati jarayonida o'zgarishi mumkin. Barqaror xarakterni shakllantirish, o'z temperamentini boshqara olish kabilar temperamentni rivojlantirishning asosiy shakllari hisoblanadi. O'quv va tarbiyaviy ishlarda harbiy xizmatchilardagi temperamentni e'tiborga olish kerak. O'z qo'l ostidagi askarlarning temperamentlarini bilish komandirlarga askarlarning xulq-atvorlarini, xatti-harakatlarini tushunishlarida, shuningdek, tarbiyaviy ta'sir vositalarini to'g'ri belgilashda yordam beradi.

O'z vaqtida amalga oshirilgan tarbiyaviy ta'sir va askarlar faoliyatini to'g'ri tashkil etish u yoki bu temperamentning ijobiy tomondan namoyon bo'lishiga yordam beradi. Masalan, flegmatiklarda javob reaksiyasini oshirish, xoleriklarda esa nobarqarorlikni yo'qotish, melanxoliklarda o'z kuchiga ishonch hissini hosil qilish mumkin. Bular o'zini boshqarishga nisbatan

ko'nikma, odat, malakalar paydo bo'lishi bilan shakllanadi. Harbiycha hayotga sangvinik va xolerik temperament turlarining tezroq moslashishini, flegmatik va melanxolik turlarining esa, aksincha, qiyinchilik bilan ko'nikishini tadqiqotlar ko'rsatdi.

Misollarga murojaat qilamiz.

Xolerik temperamentidagi askarga nobarqarorlik, o'zini tuta olmaslik, reaksiyalarning tezligi, jonli mimika va harakatchanlik xos.

Xolerik, I.P.Pavlovning fikricha aniq jangovar tur, u oson va tez qo'zg'aladi. Qiyinchiliklarsiz yangi hayot sharoitlariga moslashadi, atrofdagi kishilar bilan oson muloqotga kirishadi. U yangi sharoitlarda paydo bo'ladigan to'siqlardan qo'rqmaydi, jo'shqin faoliyat sohibi ekanligini va ixtirochiligini namoyon etadi, shuningdek, tezda jamoa lideriga aylanadi.

Bunday odam ishni faol boshlab, uning oxirida sovib qolishi mumkin. Uni bir tekisdagi sekin harakatlar toliqtiradi. U jo'shqin va keskin harakatlarga moyil. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, xolerik temperamentli odam biron topshiriqni bajarishdan oldin keragidan ortiq hayajonlanadi. Bu esa o'q otish mashg'ulotlari, jangovar navbatchiliklarda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sangvinik temperamenti vazmin odamlarga xos. Uning harakatlari xolerikka qaraganda sekinroq, ammo bunday tur yangi sharoitlarga tezda moslashadi. Askar-sangvinik o'zining optimistligi va amaliyotchiligi bilan jamoaga tezda qo'shilib ketadi. Xizmatdoshlari bilan tezda tanishib, o'rtoqlik munosabatlarini o'rnatadi.

Flegmatik temperamentidagi odam vazmin, kam harakat qiladigan va xotirjam bo'ladi. Unga kuchsiz emotsional qo'zg'aluvchanlik xos. U bo'lg'usi harakatlarni uzoq o'ylaydi, qarorlar qabul qilishda qiynaladi, hayotning yangi sharoitlariga qiyinchilik bilan va sekin moslashadi. Ammo ishda qat'iylik va chidamlilik ko'rsatadi. Flegmatik o'rtoqlikka moyil emas, ya'ni ko'proq yolg'izlikni ma'qul ko'radi.

Melanxolik temperamentidagi odamga esa boshqalarga qo'shilmaslik va tashabbus ko'rsatmaslik xos. Unda ko'nikish jarayoni qiyinchilik bilan kechadi. U bir-ikkita o'rtoqlar orttirish bilan qanoatlanib, o'ziga nisbatan amalga oshirilgan qo'polliklarga ularni ichiga yutish bilan javob beradi. Ular xafagarchiliklarni uzoq vaqt o'zlarida saqlab yuradilar va uzoq davom etadigan his-tuyg'ular bilan yashaydilar.

Shaxsdagi o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini sevish, o'z-o'zini tushunish, mustaqillikka intilish, jamoatchilik kabi xislatlarga temperament katta ta'sir ko'rsatadi. Inson xarakteri qanchalik kuchli bo'lsa, uning jamoaga yoki alohida kishilarga bo'lgan munosabati shunchalik aniq namoyon bo'ladi.

Temperamentni o'zgartirish mumkinmi?

Temperamentni o'zgartirishning ehtimolligi axloqiy va boshqa sifatlarni shakllantirishga nisbatan juda ham kam. Bu holat temperamentning asab tizimi turlariga bog'liqligi bilan izohlanadi. Asab tizimi turlari esa qariyb o'zgarmaydi.

Xarakter va uni harbiy xizmatchilarda tarbiyalash muammolari ham dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shaxsning yo'nalishi, temperamenti, qobiliyatlari kabi xususiyatlar ichida xarakter alohida o'ringa ega. Bu esa aynan xarakterda inson psixologiyasining barqaror xususiyatlari sintezlashgani bilan izohlanadi.

Shaxs xususiyati sifatida xarakter - bu barqaror ruhiy jihatlarning yig'indisi bo'lib, u inson xulq-atvorining hamma tomonlariga ta'sir etadi hamda uning individual o'ziga xosligini ifodalaydi.

Xarakter tarkibida axloqiy jihatlari alohida ajralib turadi: jamoatchilik, to'g'rilik, haqiqatparvarlik, muloqotga tez kirishuvchanlik, emotsional jihatlari, ishonch, fidoiylilik, hayrat, hayotsevarlik, irodaviy jihatlari, bosiqlik, qat'iylik, mustaqillik, intizomlilik, aqliy sifatlari, tezda tushunib olish, topqirlik va hokazo.

Inson xarakteri ko'plab jihatlarga ega bo'lib, ularni ma'lum bir tartibda tasniflash (klassifikatsiyalash) mumkin.

Birinchi guruhga xarakterdagi jamiyatga, fuqarolik va harbiy burchga munosabat kabi jihatlarni kiritish mumkin: javobgarlik hissi, o'z Vataniga nisbatan muhabbat, dushmanlarga nafrat; ikkinchi guruhga esa mehnat faoliyatiga nisbatan munosabat, mehnatsevarlik, vijdonlilik, intiluvchanlik, botartiblik yoki aksincha dangasalik; uchinchi guruhga insonning boshqa kishilarga munosabati, muloqotga tez kirishishi, hushyorligi, insonparvarligi yoki qo'polligi; to'rtinchi guruhga - insonning o'z-o'ziga munosabati, o'z-o'zini tanqid, kamtarlik yoki aksincha maqtanchoqlik va kekkayish kabilarni kiritish mumkin.

Xarakterlar kuchli va kuchsiz, jamoatchi va xudbin, maqsadli va ziddiyatli, indamas va dilkash kabi turlarga bo'linadi.

Har bir odamning xarakteri individual va umumiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Umumiylik deganda alohida kishilar guruhiga, jamiyatga xos bo'lgan sifatlarni tushunamiz.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari xarakteriga xos bulgan umumiy jihatlar quyidagilar: Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, jamoatchilik tuyg'usi va hokazo. Alohida odam xarakteriga xos bo'lgan umumiy sifatlarni esa insonning hayot yo'liga, uni qurshagan ijtimoiy va tabiiy muhitga, unga xos bo'lgan asab tizimi turiga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Temperament va xarakter o'rtasida o'zaro aloqadorlik hamda o'zaro ta'sir hodisalari, alomatlari mavjud. Xarakterga xos bo'lgan ba'zi bir jihatlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi temperamentga bog'liq.

Masalan, xolerikda o'ziga ishonch tez rivojlanadi, flegmatikda esa faoliyatda to'xtab qolish yoki ikkilanish holatlari kuzatilishi mumkin.

Temperamentning alohida barqaror xususiyatlari o'z mohiyatiga ko'ra xarakter tarkibiga kiradi. Shu bilan bir qatorda xarakter ta'siri ostida temperament o'zgarishi mumkin.

Xarakterni qanday o'rganish mumkin? Tashqi ko'rinish har doim ham xarakterni ifodalaydimi? Aslo! *Juda xotirjam, yumshoq odamda kuchli, ijtimoiy yo'naltirilgan xarakter bo'lishi, chiroyli so'zlar ostida esa kuchsiz, xudbin xarakter yashiringan bo'lishi mumkin. Insonning nigohi, qadam tashlashi, husnixati, imo-ishoralari, nutq ohangi, yuz ifodasi kabilar esa xarakterni o'rganish uchun faqatgina yordamchi "manba" bo'lishlari mumkin.*

Inson xarakteri, eng avvalo, uning xatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi. Inson xulq-atvorini kuzatib va faoliyatini tahlil qilib, uning xarakteri to'g'risida gapirish mumkin.

Dala o'quv mashg'ulotlari jarayonida jangovar otishlar va hokazolarda ishtirok etish harbiy xizmatchilar uchun yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Komandir uchun esa o'quv-tarbiya ishlari, insonlarga rahbarlik qilish kabilar asosiy faoliyat bo'ladi. Shuningdek, insonning hayot yo'li, tarjimai holi, uning ijtimoiy axloqqa bo'lgan munosabatlari ham uning xarakteri to'g'risida ko'p narsalarni berishi mumkin.

Xarakterga xos bo'lgan ba'zi bir kamchiliklar (dangasalik, intizomsizlik, noxolislik va hokazo) askarlarni milliy istiqloq g'oyalari ruhida tarbiyalash ishiga xalaqit beradi. Xarakterdagi salbiy unsurlar

harbiy xizmatgacha bo'lgan davrda ham, shuningdek, harbiy xizmat jarayonida ham ba'zi askarlarda paydo bo'lishi mumkin. Bunga o'qish va xizmatdagi muvaffaqiyatsizliklar omil bo'ladi. U yoki bu askar xarakteridagi kamchiliklarni yo'qotish tarbiyaviy ishlarning muhim vazifasi hisoblanadi. Bunda inson xarakteri shunchaki alohida jihatlarning mexanik yig'indisi emasligini esda tutish lozim. *Maqsadga yetishish uchun bo'ladigan izchil va qat'iy kurashda xarakter kuchi namoyon bo'ladi.* Kuchli xarakterga ega askar o'zini uzoq vaqt davomida psixologik barqaror holatda ushlab tura oladi. Bunday askarda so'z va ish har doim bir bo'ladi.

Askarlarda xarakterni qanday tarbiyalash mumkin?

Inson xarakteri uning butun umri davomida shakllanadi. Harbiy xizmatchi xarakteri harbiy xizmat jarayonida amalga oshiriladigan jamiki tadbirlar ta'siri ostida chiniqib boradi.

Xarakter bir vaqtning o'zida ham barqaror ham nobarqaror tuzilma. Xarakterning barqarorligi uni tasniflash (klassifikatsiyalash), ya'ni u yoki bu guruhga ajratish imkonini beradi.

Xarakterni tiplarga ajratish zarurligini qadimgi grek olimlari ham tushunib yetishgan. Insonning atrofdagi voqelikka bo'lgan ongli munosabati nafaqat uning dunyoqarashi, e'tiqodi va fikrlarida, balki, uning xarakterida ham namoyon bo'ladi. "Xarakter" tushunchasini eramizdan oldingi IV asrda yashagan grek olimi Teofrast birinchi marta ilmiy iste'molga olib kirgan. U o'zining "Axloqiy xarakterlar" degan asarida xarakterni 31 ta turga bo'ladi. Teofrast xarakterni jamiyat axloqiy hayotining shaxsdagi aksi sifatida tushungan.

Aristoteldan boshlab esa xarakterni shaxsning irodaviy sifatleri bilan bog'lab tushunish an'anasi paydo bo'lgan. Oqibatda esa iroda xususiyatlarining namoyon bo'lishiga qarab xarakter kuchli va kuchsiz turlarga bo'lingan. Boshqa bir asosga ko'ra esa xarakterlar intellektual, emotsional, irodaviy, yaxshi, ulug' va hokazo turlarga ajratilgan.

Xarakterlarni tasniflash urush sharoitida harbiy xizmatchi namoyon qiladigan xulq-atvor bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun ham zarur.

Hozirgi vaqtda ushbu muammo ma'lum ma'noda hal etilgan. Inson xarakterining asosiy jihati, uning voqelikka, dunyoga munosabati. Uning boshqa odamlarga munosabati esa xarakterining yana bir muhim jihatini tashkil etadi. Insonning o'zga kishilarga,

guruh, jamoa va jamiyatga nisbatan bo‘ladigan ko‘plab munosabatlari undagi xarakterning o‘ziga xos sifatlaridan kelib chiqadi. Bunday sifatlarga, jamoatchilik, sezgirlik, insonparvarlik, haqqoniylik, va ularga mos ravishda teskari bo‘lgan xudbinlik, qo‘pollik kabilar kiradi.

Harbiy xizmatchining o‘z jangovar mehnatiga bo‘lgan munosabati hech bo‘lmaganda uch narsani o‘z ichiga oladi: o‘z mehnatini ma‘lum bir ijtimoiy qadriyat sifatida baholash, mehnat faoliyatining muayyan bir turi bo‘lgan o‘z kasbi va mutaxassisligiga bo‘lgan munosabati, o‘z ishiga ayni ishlab chiqarish sharoitidagi muayyan mehnat turi sifatida munosabatda bo‘lish. Bu uchchala munosabat o‘zaro farqlanadi va shuning bilan bir qatorda bir-birlariga nisbatan umumiy, xususiy hamda yakka hodisalar sifatida o‘zaro aloqadorlikka ham ega. Ular bir-birlarini har xil holatlarda to‘ldirishlari mumkin.

Mehnatga munosabat umuman faoliyatdan, xususan esa kasbidan va ishidan qoniqish yoki qoniqmaslikni o‘z ichiga olishi mumkin, lekin, bu shu bilangina tugamaydi. U shaxsning mehnat jarayonidagi ijtimoiy ahvoli va o‘rni bilan belgilanadi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, harbiy xizmatchining mehnatga munosabati undagi xarakterning muhim tomoni hisoblanadi va u insonning fikr hamda hissiyotlarida namoyon bo‘lib, uning xatti-harakatlariga o‘tadi. Insonning o‘z-o‘ziga munosabati xarakterning muhim xususiyati bo‘lgan boshqa odamlarga, jamoaga munosabati bilan qat’iy bog‘lanishga ega.

Shu o‘rinda avvalgi mavzularimizda murojaat qilganimiz mashhur ingliz siyosatchisi Chesterfieldning “Farzandga maktublar” asarida quyidagilarni o‘qiymiz: “Odamlar barchasi, istisnosiz bir xil unsurlardan tashkil topishgan, ammo xuddi mana shu unsurlar mutanosibliigi har xil odamlarda bir xil bo‘lavermaydi, dunyoda bir-biriga aynan o‘xshash odamlar uchramaydi. Bundan tashqari, yillar o‘tib, inson o‘zgaradi. Har qanday iste’dodli kishi nimanidir beo‘xshov qilib qo‘yishi mumkin, g‘ururli kishi kutilmagan pastkashlikka yuz tutishi mumkin, halol odam vijdonsizlarcha yo‘l tutishi mumkin, maraz vaqti kelib, olijanoblik qilishi mumkin. Shuning uchun ham odamni uzoq muddat kuzatmoq ma‘qul, uning tasviriga oxirgi chiziq tortishga oshiqma”.

Xarakterning bu hamma tomonlari (dunyoga, mehnatga, boshqa kishilarga va o'z-o'ziga) intellektual, emotsional va irodaviy sifatlar bilan u yoki bu darajada o'zaro kesishadi, birlashadi hamda ta'sirlashadi. Irodaviy sifatlar ichida, masalan, maqsadga intilish, qat'iylik, sabotlilik, mardlik kabilar xarakter uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bilan birgalikda tabiiyki, o'jarlik, irodasizlik, qo'rqqoqlik kabi irodaviy sifatlar ham xarakterda o'z aksini topadi.

Sanab o'tilgan xususiyat va sifatlarning uyg'unligi, ularning rivojlanish darajasi xarakterning rivojlanish ko'rsatkichini belgilaydi. Xarakterning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik kuchli bo'ladi.

Yaqin vaqtlargacha insonlardagi kuchli va zaif xarakterlar faqatgina xarakterdagi irodaviy xususiyatlarga qarab aniqlangan. Kuchli xarakterga ega insonda xatti-harakat va qarashlari bir-biriga to'la mos keladi. Konformist o'z fikrida qat'iy tura olmaydi. Uning xulq-atvori muhitga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham harbiy xizmatchilarni tarbiyalash bilan bog'liq muammolarni hal etayotganda, insonning xakteri uning ijtimoiy turmushi, ya'ni u yashab, faoliyat yuritayotgan ijtimoiy shart-sharoitlar bilan belgilanishini nazarda tutish lozim. Ijtimoiy turmush unga bevosita va bilvosita ta'sir etadi. Shuning uchun ham inson xakteri o'zi mansub bo'lgan jamiyatga va uning o'zigagina xos bo'lgan jihatlarni o'zaro birlashtiradi. Bitta jamiyatga mansub bo'lgan kishilar xakterlaridagi o'xshashlik va umumiyliklar umumiy ijtimoiy shart-sharoitlar bilan izohlanadi. Boshqa tomondan esa har bir odamga xos bo'lgan o'ziga xos betakror hayot yo'li, hayot va faoliyat sharoitlari xakterning individual xususiyatlarini yaratadi.

Shuni aytib o'tish kerakki, kundalik hayotda kishilardagi xakter har xil baholanishi mumkin. Ba'zan harbiy xizmatchilar qaysarlikni prinsipiiallik yoki qat'iyatlilikning ifodasi sifatida tushunib, unga ijobiy baho beradilar. Yoki sezgirlik, rahmdillik kabi sifatlarni ham ular zaif xakter nishonalari tarzida tushunadilar. Ular sezgirlik - irodasiz odamlarga xos xususiyat, shuning uchun ham irodali odam sovuqqon, dag'al va cho'rtkesar bo'lishi kerak, deb hisoblaydilar. Boshliqlar va kattalarga ko'rsatilgan samimiy munosabat laganbardorlik, deb qabul qilinishi ham mumkin. Tabiiyki, komandirlar bunday noto'g'ri qarashlarning oldini olishlari, harbiy xizmatchilarda to'g'ri qarashlarni shakllantirishlari zarur.

Insonda haqiqiy tasavvur, e'tiqod va g'oyalarning bo'lishi unda kuchli xarakterni shakllantirishning zarur sharti hisoblanadi. Ammo, buning o'zi yetarli emas, muhimi inson nafaqat to'g'ri tasavvur va e'tiqodga ega bo'lishi, balki, hayotda ularga amal qilishi ham kerak.

Xarakterni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaga muhim e'tibor qaratiladi. Jismoniy jihatdan chiniqqan harbiy xizmatchi, teng sharoitlarda boshqalarga nisbatan yuksakroq irodaviy sifatlarni namoyon etadi, uning o'ziga bo'lgan ishonchi yuqori bo'ladi.

Bulardan tashqari, o'z-o'zini tarbiyalash ham xarakterni tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega. Komandirlar ushbu jarayonga rahbarlik qilishlari, harbiy xizmatchilarni urush sharoitlarida kerak bo'ladigan xarakter sifatlarini o'zlarida rivojlantirishga rag'batlantirishlari zarur. Bunda o'z-o'zini ishontirish, o'z-o'zini tanqid qilish, mashq qilish, o'z-o'zini rag'batlantirish va hatto o'z-o'zini majbur qilish usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

5.3.Qobiliyatlar, ularni harbiy xizmatchilarda rivojlantirish

O'qituvchi kursantlarni kuzatib, ulardan bir xillari o'qishga qobiliyatli, boshqalari kamroq qobiliyatli bo'ladi, deb hisoblar ekan, bu gapda jon bor. Shunday bo'ladiki, kursant matematikaga qobiliyatli bo'ladi-yu, lekin o'zining og'zaki va yozma nutqini yaxshi ifodalay olmaydi yoki tillarga, adabiyotga, umuman ijtimoiy fanlarga bo'lgan qobiliyatini namoyon etadi, biroq matematika, fizika, texnikani o'rganish unga qiyinlik qiladi.

Qobiliyat, insonning u yoki bu faoliyatni amalga oshirishida juda katta ahamiyatga ega bo'ladigan shaxs xususiyati hisoblanadi.

Qobiliyatlar deb shunday psixik sifatlarga aytiladiki, inson ular yordamida bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nisbatan osonlik bilan egallab oladi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadi.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Idrok etish paytida, masalan, ranglarning tovlanishidagi nozik farqlar, predmetlarning aniq ko'rinishi, proporsional nisbatlarni tushunish (rassomlar ishida), mutloq eshitish (musiqachilar), kuzatuvchanlik (harbiy xizmatchilar) va hokazolar ayon bo'ladi. Ayrim qobiliyatlar xotiraning yaxshi ishlashi bilan bog'liqdir (masalan, komandirning topshiriqlarini aniq esda saqlash, uni to'la bajarishda yordam beradi). Kishining fikrlash faoliyatida (materialni tushunish, murakkab

masalalarni hal qilish, fikrning chuqurligi, tanqidiylik va mulohazakorlik) qobiliyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qobiliyatlar umumiy va maxsus bo‘ladi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo‘lganda kishi faoliyatning turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana oladi. Umumiy qobiliyatlarga ega kursantlar, odatda, hamma fanlardan yaxshi va qiynalmay o‘qiydilar. Maxsus qobiliyatlar esa kishiga qandaydir bir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanish imkonini beradi. Masalan, matematik, texnikaviy, musiqaviy, harbiy faoliyatga nisbatan va boshqa qobiliyatlar bo‘ladi.

Biron faoliyatga nisbatan bo‘lgan qobiliyat o‘z ichiga ancha soddaroq bo‘lgan qobiliyatlarni oladi. Masalan, ofitserning pedagogik qobiliyati o‘z ichiga uch guruh qobiliyatlarni oladi: konstruktiv (o‘quv, tarbiyaviy ishlar mavzusini askarning talablari va individual xususiyatlaridan kelib chiqib tuzish qobiliyati), tashkilotchilik (askarlar faoliyatiga rahbarlik qobiliyati) va kommunikativ (harbiy jamoa va alohida askarlar bilan kerakli munosabatlarni o‘rnata olish qobiliyati).

Insonlar qobiliyat bilan yoki qobiliyatsiz tug‘ilmaydilar. Ular u yoki bu qobiliyatlarning rivojlanishiga asos bo‘ladigan anatomik, fiziologik xususiyatlar bilan tug‘iladilar. Ma’lum qobiliyatlarning rivojlanishi yoki rivojlanmasligi insonning faoliyati va hayot sharoitiga bog‘liq bo‘ladi.

Qobiliyatlar ma’lum bilimlar, ko‘nikma va malakalarni tez o‘zlashtirishda, ularni to‘g‘ri ishlatishda hamda amaliyotda o‘ziga xos tarzda qulay bilishda namoyon bo‘ladi.

Har bir inson ma’lum iste’dod va qobiliyat alomatlari bilan dunyoga keladi. *Insonda bir turdagi qobiliyat alomatlari bo‘lsa, unda turli iste’dodlar rivojlanishi mumkin.* Masalan, yaxshi ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lgan odam yaxshi rassom bo‘lishi, harbiy sohada esa - yaxshi mergan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, agar insonda bir turdagi qobiliyat alomatlari zaif rivojlangan bo‘lsa, faoliyat jarayonida unda boshqa qobiliyatlar juda yaxshi rivojlanishi mumkin. Lekin, bir narsani esdan chiqarmaslik lozim: eng yuksak iste’dod alomatlariga ega bo‘lgan inson ham, agar ushbu sohada ter to‘kib ishlamasa, faoliyatda yuqori natijalarga erisha olmaydi.

Qobiliyatlar ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalarni tez o‘zlashtirishda hamda amaliyotda to‘g‘ri qo‘llay bilishda namoyon

bo'radi. Bilim, ko'nikma va malakalarni yangi sharoitlarda qo'llay bilish yuksak qobiliyat belgisi hisoblanadi.

Yuqori darajadagi qobiliyatga iste'dod deyiladi.

Iste'dodli odam bir yoki bir nechta faoliyatlarda yuksak natijalarga erishadi. *Iste'dodning asosiy belgilari quyidagilar:*

- qobiliyatlarning erta namoyon bo'lishi;
- muayyan faoliyatga xos bilim, ko'nikma va malakalarni tezda o'zlashtirish;
- ularga nisbatan moyillik va qiziqish.

Iste'dod insondagi qobiliyatning tez rivojlanishidagina emas, balki, insonning qiyin va yangi sharoitlarda ham yuksak natijalarga erisha olishida namoyon bo'radi.

U yoki bu insondagi iste'dod favqulodda yuqori darajaga yetishishi mumkin. *Bunga talant deyiladi.* Talantli odam o'zining faoliyatiga ijodiy yondashuvi va izlanuvchanligi bilan ajralib turadi. Bunday odam fan, texnika, san'at, harbiy ish va boshqa sohalarga g'oyat katta yangiliklar olib kiradi.

Eng yuksak qobiliyatlarning sohibiga *daho* deyiladi. Daho insonlar ijodi jamiyat hayoti uchun tarixiy ahamiyatga ega. Daho o'zi shug'ullanayotgan sohada yangi davrni yaratadi.

Masalan, Amir Temur davlatchilik va harbiy sohada, Mirzo Ulug'bek astronomiya fanida, Alisher Navoiy adabiyotda, Albert Eynshteyn fizika fanida shunday daholar edilar.

Ma'lumki, yosh yigitlar harbiy xizmatga ma'lum bir qobiliyatlarning bilan keladilar. Ofitserning asosiy vazifasi ushbu qobiliyatlarni rivojlantirishdan hamda harbiy faoliyatda ishlatishni to'g'ri tashkil etishdan iborat. Eng muhimi, bu ishda xatoga yo'l qo'ymaslik, har bir askarni uning qobiliyatlariga mos faoliyat sohasiga qo'yish kerak bo'radi.

Ba'zi kishilarda psixologik bilish jarayonlari: diqqat, xotira, idrok rivojlangan bo'lishi mumkin. Ular u yoki bu darajada hamma faoliyat turlarida katta imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Shunday qobiliyatlarning borki ular shaxs xususiyatlariga: qiziqish, moyillik, temperamentlarga asoslanadi. Shuningdek, ma'lum faoliyatlardagina namoyon bo'ladigan qobiliyatlarning ham bor (matematikaga yoki konstruktorlikka bo'lgan qobiliyat).

Askarlar faoliyatini kuzatib, ularga xos qobiliyatlarni aniqlash mumkin. Shuningdek, ulardagi temperamentlarni ham farqlash mumkin. Shuni aytib o'tish kerakki, insondagi qobiliyatlarni to'g'ri baholash oson ish emas. Masalan, o'quv bo'linmasi komandiri bitta kursantni kursantlar safidan chiqarishni so'rab boshlig'iga murojaat qiladi. U ushbu kursantda tankni haydash qobiliyati yo'q, degan xulosaga keladi. Bo'linma komandiri o'z xulosasini yetarlicha asoslab bera olmaydi, shundan keyin boshliq ushbu kursantni yana ham yaxshiroq o'rganishni tavsiya etadi. Bo'linma komandiri ushbu topshiriqni bajaradi: kursant bilan yaxshiroq tanishib, uning shaxsiy sifatlarini va jangovar imkoniyatlarini o'rgana boshlaydi. Uning harakatlari bekor ketmadi. Ushbu kursant tez orada tungi tank haydash mashg'ulotlarida ishtirok etdi. O'qishning ikkinchi bosqichida esa u birinchi klass mexanik haydovchisi darajasini oldi.

Hozirgi vaqtda juda ko'p mamlakatlar armiyalarida harbiy xizmatchilar qobiliyatlarini aniqlashda testlardan foydalaniladi. Bu usulning tinchlik davri sharoitlarida foyda berishiga shubha yo'q. Biroq, kutilmagan holatlarga to'la urush davri uchun bu usul har doim ham samarali bo'lavermaydi. Chunki, ekstrimal sharoitlarda inson ruhiyati, jumladan, uning qobiliyatlari ham ma'lum o'zgarishlarga uchrashi mumkin.

Ofitserning qobiliyatlar haqidagi ma'lum bilimlarga ega bo'lishi nafaqat o'z qo'l ostidagi harbiy xizmatchilardagi qobiliyatlarni baholashga, balki, ulardagi qobiliyatlarni kerakli yo'nalishda rivojlantirishga imkon beradi. Harbiy xizmatchilardagi qobiliyatlarni shakllantirish ular xizmatining birinchi kunidan boshlab, ma'lum reja asosida olib boriladi. Bunda ta'lim jarayonida askar yo'l qo'yadigan xato harakatlar tahlili katta rol o'ynaydi.

Shu narsani esda tutish kerakki, harakatlardagi bir qator qo'pol xatoliklar oxir-oqibat harbiy xizmatchidagi qobiliyatsizlik bilan bog'liq bitta umumiy sababdan kelib chiqadi.

Bir xil sharoitda qobiliyatsiz askar yomonroq faoliyat yuritadi. Unga nisbatan individual yondashuv zarur bo'lib, bu narsa harbiy

xizmatchini har tomonlama o'rgangandagina sezilarli muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydi.

Askarlar har xil tayyorgarlik va mahoratga ega bo'ladilar. Ulardagi bilim, ko'nikma va malakalarning rasman qabul qilingan me'yorlarga qanchalik mos kelishiga qarab, tayyorgarlik darajalari aniqlanadi.

Har bir o'quv mashg'ulotida harbiy xizmatchilar oldiga muayyan maqsadlar qo'yiladi. Lekin, hamma ham bu maqsadlarga bir xil osonlik va aniqlik bilan erishavermaydi. Ular o'quv jangovar tayyorgarlik jarayonida turli xil xatoliklarga yo'l qo'yadilar.

Bironta ham kursant yoki askarda harbiy ta'lim biron- bir xatoliklarsiz o'tmaydi. Yaxshi askar mashg'ulotlarda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'ymaydi va bir xil xatoliklarni qayta takrorlamasdan, ularga tezda barham beradi.

Harbiy xizmatchilar harakatlaridagi har bir xatolik har tomonlama baholanishi zarur:

- 1.Me'yordan qanchalik chetga chiqqanligiga qarab, xatolikning namoyon bo'lish darajasi;
- 2.Uning takrorlanishiga qarab, barqarorlik darajasi;
- 3.Boshqa turdagi xatoliklar bilan bog'liqlik darajasi;
- 4.Xatoliklarning sabablari aniqlanadi.

Harbiy amaliyotda "xatolik" tushunchasi ikki xil holatni anglatadi: birida harbiy xizmatchi amalga oshiradigan noaniq harakat tushunilsa, boshqa holatda esa xatolik tank, samolyot, bomba yoki o'qning ma'lum yo'nalishdan chetga og'ishini bildiradi.

Har qanday xato, harakat bir yoki bir nechta sabablarga ega bo'ladi. Sabablar bir nechta bo'lganda ushbu xatolik namoyon bo'lishini belgilovchi sabab bosh sabab, boshqalari esa yordamchi sabablar bo'ladi. Bartaraf etilishi bilan xatolik ham o'z-o'zidan yo'qoladigan sabab bosh sabab bo'ladi va asosiy kurash ushbu sabab bilan olib boriladi.

Harbiy xizmat jarayonida askarlar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatoliklarning sabablarini quyidagi uchta guruhga birlashtirish mumkin:

1. Tayyorgarlik darajasining pastligi;
2. Qobiliyatlarning zaifligi;
3. Intizomsizlik.

Harbiy xizmatchining deyarli har bir xato harakati mana shu sabablardan birontasi yoki hammasining ta’sirida yuzaga kelishi mumkin. Oxir-oqibat ulardan birontasi asosiy, qolganlari esa yordamchi sabablar bo‘ladi. Boshqalardagi xatoliklarni ko‘rib, tahlil qila olgan kishigina o‘z xatoliklarini bilib, ularni tuzata oladi.

Tayanch so‘zlar: Qobiliyat; pedagogik qobiliyat; iste’dod; talant; daho, tahlil, harbiy xizmatchi, sabab.

Nazorat uchun savollar:

1. Qobiliyat nima? Uni ta’riflang.
2. Harbiy xizmatchilarda qobiliyatni qanday yo‘llar bilan rivojlantirish mumkin?

4-MODUL: HARBIY PSIXOLOGIYANING O‘RGANISH METODLARI

6-mavzu: Harbiy psixologiyaning o‘rganish metodlari

Reja:

1. Harbiy xizmatchilar psixologiyasini o‘rganish metodlari.
2. Harbiy xizmatchilardagi individual xususiyatlarni o‘rganish dasturi.
3. Harbiy xizmatchilar bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarni olib borish tartibi.

6.1. Harbiy xizmatchilar psixologiyasini o‘rganish metodlari

Harbiy psixologiya o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni ma’lum metodlar yordamida hal qiladi.

Metod – bu haqiqatni bilib olish yo‘li. Eng umumiy (metodologik), bir qator fanlarga xos va xususiy (alohida bir fanga xos) metodlar, shuningdek, usul va vositalar mavjud. Har qanday metod nazariya va metodologiyaga asoslanadi.

Kuzatish va eksperiment metodlari axborot yig‘ishning eng muhim metodlari hisoblanadi. Kuzatish metodi harbiy psixologiya uslublari orasida eng keng qo‘llaniladigani bo‘lib, uning vositasida ma’lum bir inson yoki jamoa (ularning psixologik xususiyatlari) haqidagi faktlar aniq maqsad bilan izchil ravishda yig‘ib boriladi. Shuni alohida qayd qilib o‘tish kerakki, kuzatish uslubi bilan o‘rganilayotgan obyekt faoliyatining tashqi tomonlarigina emas, balki uni yuzaga keltirgan kuchlarni, fikr, motiv, hissiyot, maqsad va ehtiyojlarni ham kuzatish, o‘rganish mumkin.

Kuzatish metodi. Kuzatish eng keng tarqalgan o‘rganish metodi bo‘lib, uning yordamida insonlar, harbiy jamoalar har xil sharoit va faoliyatlarda namoyon qiladigan hissiyot, xatti-harakat, xulq-atvorlarning tashqi ko‘rinishlari namoyon bo‘lishlari o‘rganiladi.

Kuzatish faqatgina faktlarni qayd etishdangina iborat bo‘lmasdan, balki, ularni ilmiy jihatdan tushuntirish, tasniflash (klassifikatsiyalash) va umumlashtirishni ham o‘z ichiga oladi.

Kuzatish metodining o‘ziga xos belgilari quyidagilar:

1. Har qanday kuzatish o‘zining maqsadiga ega bo‘ladi;
2. Kuzatish metodi o‘zining tizimlashganligi bilan ajralib turadi (masalan, kuzatish asnosida kuzatilayotgan hodisa va psixik hodisalar (munosabatlar, motivlar) o‘rtasidagi qat’iy aloqadorlikni aniqlash imkoniyatining mavjudligi);

3. Kuzatilayotgan shaxslar yoki guruhlar soni va kuzatishlar soni yetarlicha ma'lumotlar yig'ish hamda ularni matematik qayta tahlil qilish uchun yetarli bo'lishi lozim;

4. Ma'lumotlarni obyektiv ravishda tizimlashtirish va yozib olish imkoniyatining mavjudligi (protokollashtirish, magnitofonga yozib olish, foto-kinotasvir va hokazo);

Kuzatish metodiga nisbatan biz yuqorida sanab o'tgan talablar albatta komandirlar tomonidan inobatga olinishi lozim.

Kuzatish har xil shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- a) Bevosita - tadqiqotchining o'zi tomonidan olib boriladi;
- b) Bilvosita - boshqa kishilardan (vrachdan, o'qituvchidan, instruktordan, shturmandan va h.k.) olgan ma'lumotlarni tadqiqotchi umumlashtiradi.

Kuzatish tabiiy sharoitlarda amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. U voqealarning odatdagi tabiiy maromini buzmaydi. Ushbu usul o'zining afzalliklari bilan bir qatorda ba'zi bir kamchiliklariga ham ega:

- uzoq vaqt davom etishi;
- natijalarni yozib borishning qiyinligi; o'rganilayotgan obyektlarning ko'pligi; materiallarni yig'ishning qiyinligi.

Kuzatish usuli vositasida ma'lum bir inson yoki jamoa (ularning psixologik xususiyatlari) haqidagi faktlar aniq maqsad bilan izchil ravishda yig'ib boriladi. Ammo, kuzatish uslubi bilan o'rganilayotgan obyekt faoliyatining tashqi tomonlarigina emas, balki uni yuzaga keltirgan kuchlarni - fikr, motiv, hissiyot, maqsad va ehtiyojlarni ham kuzatish, o'rganish mumkin.

Ofitser kuzatish uslubidan foydalanib, obyektни o'rganganda harbiy xizmatchining o'zi haqida bergan ma'lumotlar o'zining fikrlari, hissiyotlari, harakatlari haqidagi xabarlardan ustalik, mahorat bilan foydalanishi lozim. Psixologiyada bunday ma'lumotlarga "o'z-o'ziga hisobot" deyiladi.

Bo'ysunuvchilarning o'z-o'ziga hisoboti ularning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishning muhim vositasi hisoblanadi. Muayyan inson haqida faqatgina uning tashqi xulq-atvoriga qarabgina xulosa chiqarish yetarli emas. Agar, askar zohiran xotirjam bir holatda quroldan o'q otib topshiriqni yaxshi bajarar ekan, bu unda ichki hissiy kechinmalar bo'lmadi, degani emas. Buni, uning mashg'ulotlardan keyingi hikoyasidan (agar u dilkash bo'lsa) bilib olsa bo'ladi. Undan

keyin komandirning ushbu askarda psixologik barqarorlikni ta'minlash uchun yana ishlashiga to'g'ri keladi. Faqat tashqaridan kuzatibgina bu natijalarga erishib bo'lmaydi.

Ammo, harbiy xizmatchilarning o'zi haqidagi fikrlariga har doim tanqidiy yondashish kerak bo'ladi. Chunki inson o'zi haqida, ayniqsa, o'zining ichki kechinmalari haqida gapirganda obyektivlikdan yiroqlashib, subyektivlikka berilib ketadi.

Kuzatishning eng maqbul shakli alohida harbiy xizmatchini har xil faoliyatlarda, har xil vaziyatlarda, har xil kishilar davrasida kuzatish hamda ushbu kuzatish natijalarini bir tizimga solib, undan keyingina ma'lum bir xulosaga kelishdan iborat. Shundagina undagi xarakterni, yo'nalishni, motiv, maqsad, his-tuyg'u va kechinmalarini bilib olish, tushunish mumkin.

Ammo, bunday chuqur va atroflicha xulosalar yasash, inson to'g'risida bir to'xtamga kelish uchun juda ko'p vaqt kerak bo'ladi. Kichik komandirlar kuzatuv natijalarini o'z natijalari bilan qiyoslab, umumlashtirish ham u yoki bu harbiy xizmatchi to'g'risida fikrlar haqqoniyligini ta'minlaydi.

Kuzatishning ikkita turi farqlanadi:

- oddiy, ya'ni hayotiy kuzatish;
- ilmiy kuzatish.

Oddiy kuzatishda, kuzatuvchi o'z kuzatishlarini jiddiy deb qabul qilmaydi. Shuning uchun ham o'zi kuzayotgan insondagi ba'zi jihatlarga (ba'zan ikkinchi darajali) ko'proq e'tiborni qaratib, muhim xususiyatlarni e'tibordan chetda qoldirishi mumkin. Shunday holatlar bo'lmasligi uchun ofitser ilmiy kuzatish usulidan foydalanishi kerak bo'ladi.

Ilmiy kuzatish oddiy kuzatish uslubidan quyidagilar bilan farq qiladi:

1. Kuzatishdan aniq maqsad belgilanadi;
2. Maqsaddan kelib chiqqan holda kuzatish rejasi ishlab chiqiladi.

Ilmiy kuzatish doimiy va izchil ravishda olib boriladi. Kuzatish faqatgina ma'lumotlar yig'ishdangina iborat emas, balki ushbu yig'ilgan axborotlarni muntazam ravishda tahlil qilish, qiyoslash, baholash va tekshirishni ham o'z ichiga oladi.

Eksperiment metodi. Eksperiment o'rganishning shunday uslubi bo'lib, bunda harbiy xizmatchi va jamoaning oddiy, kundalik faoliyati sharoitida namoyon bo'lmaydigan xususiyatlari o'rganiladi. Bu esa,

ma'lum bir sharoitni yaratish bilan amalga oshiriladi. Bu shunday sharoitki, bunda ofitserni qiziqtirayotgan xususiyatlar shaxs yoki jamoada namoyon bo'ladi.

Eksperiment metod sifatida tadqiqotchining o'rganilayotgan jarayonga faol aralashuvini taqozo qiladi. Shaxs yoki jamoa o'rnashadigan sharoit oldindan tayyorlab qo'yiladi. Eksperiment o'ziga xos ilmiy tajriba bo'lib, qat'iy kuzatuv ostida amalga oshiriladi. Amalga oshish shart-sharoitlariga ko'ra eksperiment laboratoriya, tabiiy yoki bu har ikkalasi asosidagi aralash eksperiment bo'lishi mumkin.

Laboratoriya eksperimentida tadqiqotchi o'rganilayotgan psixik hodisalarni tug'diradigan shart-sharoitlarni sun'iy ravishda yaratadi. Tadqiqotchi eksperiment asnosida sharoitlarni o'zgartirish orqali u yoki bu psixik hodisaga ta'sir etishi mumkin. Ushbu metodni qo'llaganda u yoki bu hodisani o'rganish jarayonini bir necha marta takrorlash mumkin. Boshqa metodlarni qo'llaganda buning imkoni yo'q. Har xil texnik moslamalarga nisbatan insondagi psixik reaksiyalarni o'rganish laboratoriya eksperimentiga misol bo'la olishi mumkin. Ayniqsa, harbiy xizmatchilarni mutaxassisliklarga taqsimlashda laboratoriya eksperimenti qo'l keladi. Laboratoriya eksperimentida tekshiriluvchining tashqi harakatlarigina emas, balki, undagi ichki (yashirin) fiziologik reaksiyalar ham o'rganiladi.

Masalan, aqliy faoliyat jarayonida miyada biologik tokning o'zgarishini o'rganish yoki emotsional reaksiyalar vaqtida yurak va qon tomirlari faoliyatining o'zgarishi va hokazo. Sun'iy eksperiment laboratoriya sharoitida amalga oshirilib, har xil laboratoriya uskunalaridan foydalaniladi. Bunda harbiy xizmatchi o'zining kuzatuv obyekti ekanligini bilib turadi. Bunga misol qilib sizning o'zingiz kirish imtihonlari vaqtida bajarganingiz - kasbiy (professional) layoqat sinovini aytib o'tish mumkin. Siz unda ma'lum savollarga javob berish bilan o'zingizning harbiy kasbga layoqatli yoki layoqatsiz ekanligingizni ko'rsatdingiz.

Tabiiy eksperiment esa kundalik, tabiiy sharoitda amalga oshiriladi. U kuzatish va sun'iy eksperiment o'rtasidagi oraliq uslub hisoblanadi. Masalan, taktik yoki o'q otish mashg'ulotlarida harbiy xizmatchiga vaziyatni o'zgartirib, qo'shimcha topshiriqlar berish yo'li bilan undagi bilim, topqirlik, tashabbuskorlik, xotira, malaka, ko'nikma, intilish kabilarni o'rganish mumkin.

Tabiiy eksperimentda shaxs yoki jamoa barqaror tabiiy hayot faoliyati sharoitida o'rganiladi. Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tabiiy eksperiment bilib oluvchi va shakllantiruvchi turlarga bo'linadi.

Bilib oluvchi eksperimentda shaxsdagi bilim, ko'nikma, malaka, shuningdek, xarakterning ijobiy va salbiy tomonlari aniqlanadi. Masalan, tekshiriluvchini shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar to'qnashadigan sharoitga solish bilan undagi yo'nalish aniqlanadi. Oddiy hayotiy vaziyatlar (masalan, o'zining noqonuniy harakatlari haqida komandirga bildiruv beradimi, yo'qmi; yig'ilishda o'z do'stining xatti-harakatlarini muhokama qiladimi, yo'qmi; jamoa manfaati uchun sport musobaqalarida ishtirok etadimi, yo'qmi?) shaxsning axloqiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun boy manba beradi. Shakllantiruvchi eksperiment vositasida esa shaxs va jamoaning psixologiyasi bilib olinadi, shuning bilan bir qatorda, ularga u yoki bu sifatlarni tarbiyalash maqsadida ta'sir o'tkaziladi. U nafaqat psixologiyada, balki, pedagogikada ham katta ahamiyatga ega. Har qanday eksperiment oldindan tayyorlab qo'yiladigan gipotezalar bo'lishini taqozo qiladi. Ushbu gipotezalar tajriba va nazorat guruhlaridagi xulq-atvor hamda faoliyatlarni solishtirish, qiyoslash jarayonida yo inkor qilinadi, yoki o'z isbotini topadi.

Shakllantiruvchi eksperimentni amalga oshirishning majburiy shartlaridan biri u yoki bu sifatning rivojlanishini ko'rsatuvchi aniq va barqaror mezonlarning bo'lishligi hisoblanadi.

Kuzatish va eksperiment boshqa metodlar bilan to'ldiriladi: suhbat, anketa, test, betaraf xarakteristikalarini umumlashtirish va hokazo.

Suhbat. Suhbatga o'rganish metodi sifatida bir qator talablar qo'yiladi. Birinchisi, suhbat ixtiyoriylik asosida, erkin olib borilishi lozim. Agar tadqiqot jarayonida o'rganuvchi va o'rganiluvchi orasida shaxsiy munosabatlar mavjud bo'lsa, suhbat yana ham ko'proq samara beradi. Har qanday suhbatga oldindan tayyorgarlik ko'rib, reja tuzib olinadi. Bevosita suhbat asnosida esa ushbu rejaga zaruratga qarab o'zgarishlar kiritish lozim. Suhbatda savollar faqat tekshiriluvchilarga qaratilmasdan, balki tekshiruvchiga ham qaratilishi mumkin. Suhbat jarayonida hech narsani yozmaslik o'zaro ishonch muhitini yaratadi. Javoblar zaruratga qarab suhbatdan keyin yozib qo'yiladi. Suhbat sharoitga qarab alohida shaxs yoki guruh bilan olib borilishi mumkin.

Suhbat sharoitga qarab turli usullarda olib boriladi. Shulardan biri individual, ya'ni yakka suhbat hisoblanadi. Askarlarni individual tarbiyalashni yakka ravishda olib boriladigan suhbatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunday suhbatlar har qanday harbiy xizmatchiga, shubhasiz, juda katta ta'sir ko'rsatadi. Askar va komandirning bir-biri bilan yolg'iz qolib, yuzma-yuz suhbatlashishining o'ziyoq ma'naviy-ruhiy jihatdan katta ta'sir omili hisoblanadi. Maxsus anketa savollariga javob bergan askar va serjantlarning 80 foizi, suhbat ular tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishini aytishgan.

Suhbatning mohiyatini belgilab beradigan narsa, uning maqsadi. U yoki bu askar bilan suhbatlashishdan oldin, ofitser o'z oldiga uni bilib olish; uning qiziqish va intilishlarini ko'rish; uni tarbiyalash; unga pand-nasihat qilish; shuningdek, uni ogohlantirish maqsadini qo'yishi mumkin.

Masalan, yangi kelgan askarlar bilan bo'ladigan suhbat jarayonida ulardagi individual-ruhiy xususiyatlarni hamda hayot tajribalarini bilib olish imkoniyati mavjud bo'lib, shu asosda ular orasidan bo'linma faollarini, kichik komandirlikka nomzodlarni, jangovar varaqa va devoriy gazeta muharrirlarini, sportchilarni va boshqalarni aniqlab olish mumkin.

“Borlab ko'rish” suhbat, odatda, bo'linmadagi faollar va serjantlar bilan o'tkaziladi. U jamoadagi mavjud muammolar atrofida va fikrlarni erkin bayon etish bilan amalga oshiriladi. Bunday suhbatlar bo'linmalardagi intizom buzilishlari, uning sabablari va qanday qilib oldini olish mumkin ekanligi, bunday hodisalarga nisbatan jamoaning munosabati qandayligi, harbiy xizmatchilar orasidan kimlar boshqalarga namuna bo'la olishi mumkinligi kabi savollar atrofida bo'lishi mumkin. Shuni nazarda tutish kerakki, xizmat muddatlarini o'tab, uylariga qaytayotgan askarlar boshqa paytda aytmagan tanqidiy fikrlarini aytadilar.

Tarbiyaviy suhbatda esa askarlarga harbiy xizmat shart-sharoitlari va nizom talablari tushuntiriladi, ularda mustahkam e'tiqod va dunyoqarash shakllantiriladi. Bunday suhbatlarning o'ziga xos tomoni shundaki, unda jamoa oldida turgan masalalar umumiy tarzda yoki umumjamoada doirasida emas, balki, ushbu askarning umumiy ishdagi shaxsiy ishtiroki nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Individual suhbatning o'zaro ishonch muhitida kechishi juda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu narsa komandirning muayyan bir

sharoitlarda qarorlar qabul qilishini yengillashtiradi. Bunday suhbat vositasida komandir jamoa kayfiyati haqida ma'lumot olish bilan birgalikda jamoa fikriga ta'sir etib, askarlarda o'ziga nisbatan ishonch muhitini yaratadi. Bunday suhbatlar komandirlarning, shuningdek, askarlarning tashabbuslari bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Komandirning askarlarning ota-onalari va boshqa yaqin kishilari bilan xat orqali muloqoti ham o'ziga xos "suhbat" vazifasini o'tab, qo'shimcha, ba'zan esa muhim ma'lumotlar beruvchi manba bo'lib xizmat qiladi. Bu xatlarda askarlarning xizmatgacha bo'lgan davrdagi hayotlari - maktabdagi fanlarni o'zlashtirish darajalari, qiziqishlari, bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazganliklari, qanday kasalliklar bilan og'rikanliklari, kimlar bilan do'stlashganliklari kabi ko'plab savollarga javoblar o'z aksini topgan bo'ladi. Eng muhimi esa, bunday xat yozishlar butun jamoaga va har bir askarga kuchli tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi. Ofitser askar oilasiga xat yozganda salbiy holatlar haqida yozishi maqsadga muvofiq emas.

Anketa metodi. Eng ko'p qo'llaniladigan uslublardan yana biri, anketa vositasida so'rov o'tkazish hisoblanadi. Anketa uslubi og'zaki yoki yozma bo'lishi mumkin. Anketada ko'pi bilan 5-7 ta savol bo'lishi maqsadga muvofiq.

Anketa metodi qisqa vaqtda butun guruhni o'rganishga imkon beruvchi metod bo'lib, undagi savollar oldindan tayyorlab qo'yiladi. Masalan, anketa vositasida guruh qiziqishlarini, qo'yilgan film haqidagi fikrlarni o'rganish mumkin. Ammo, anketa metodi bilan olingan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi juda ham past bo'ladi.

Betaraf xarakteristikalarini umumlashtirish metodi. Bir nechta tarbiyachilarning shaxs va jamoalarni psixologik jihatdan o'rganish sohasidagi hamkorlikdagi faoliyatlari yaxshi samara beradi. Inson va jamoa faoliyati haqidagi psixologik fikr-baholarni tahlil qilish usuliga betaraf xarakteristikalarini umumlashtirish metodi, deyiladi. Harbiy xizmatchini, masalan, seksiya komandiri, vzvod komandiri, batalyon komandiri, vrach va hokazolar o'rganadilar. Ular tomonidan yig'ilgan ma'lumotlar tadqiqotchi tomonidan umumlashtiriladi.

Faoliyat natijalarini tahlil qilish metodi. Psixologik hodisalarni insonning faoliyat natijalarini tahlil qilish orqali ham bilvosita o'rganish mumkin. Insonning ijodiy kuchi va qobiliyatlari uning mehnat mahsulida aks etgan bo'ladi, shuning uchun ham nafaqat o'rganilayotgan shaxsning faoliyat jarayoni, balki, uning faoliyat

natijalari ham kuzatish obyekti bo'lishi mumkin. O'rganishga hozirlab qo'yilgan texnika, ta'mirlangan asbob, buyruqning ijrosi, mashg'ulot vaqtida kovlangan okop, bularning hammasi faoliyat natijalari hisoblanadi. Bular insonning nafaqat bilimlari, ko'nikmalari haqida, balki uning shaxsiy sifatlari, masalan, batartibliligi, intizomliligi, mehnatga va jangovar texnikaga munosabati haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

6.2. Harbiy xizmatchilardagi individual xususiyatlarni o'rganish dasturi

O'z qo'l ostidagilarni bilish, ularni muntazam o'rgana borish har bir komandirning harbiy nizomlarda yozib qo'yilgan majburiyatidir. Busiz hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish, ularda harbiy xizmat uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalash mumkin emas. Shaxslardagi eng muhim ijobiy va salbiy xususiyatlarni ajrata olish mahoratini egallash komandirlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Ofitser, askardagi xususiyatlardan o'zi tayanishi lozim bo'lgan birontasini ajratib oladi: kim uchundir xarakter sifatlari, boshqa bironda qobiliyat, uchunchi bir kishida esa temperament shunday asos vazifasini o'tashi mumkin. Askar xulq-atvorini bashorat (prognoz) qilishda komandir shularga tayanadi. Shaxsdagi yashirin, har doim ham ko'zga tashlanavermaydigan sifat va xususiyatlarni faoliyat jarayonida yuzaga chiqarish mumkin. Jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik mashg'ulotlari, sport musobaqalari hamda badiiy havaskorlik to'garaklarida askarlardagi yashirin qobiliyatlarni yuzaga chiqarish imkoniyati mavjud.

Shuni aytib o'tish kerakki, hamma harbiy xizmatchilarga nisbatan ulardagi yakka xususiyatlarni o'rganishning umumiy usullari yo'q. Yakka tarbiya har doim muayyan shaxsga nisbatan muayyan sharoitlarda amalga oshiriladi. Harbiy xizmatchilarni o'rganishda bo'linma komandirlari tomonidan har bir askarga nisbatan yuritiladigan "Pedagogik kundalik"lar katta ahamiyatga ega. Komandirlar ushbu kundaliklarga muayyan bir askarning faoliyatini kuzatishdan olgan taassurotlarini, undagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni yozib boradilar.

Harbiy xizmatchilarni baholaganda bir yoqlamalikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ba'zan shunday bo'ladiki, ba'zi bir komandirlar askarlarni ikki qutbga, oqqa va qoraga ajratishadi. Aslida bu ikkala toifalar

orasida ham ma'lum bir guruhlar bo'ladi. Askarlardagi u yoki bu sifatlarni o'rganishda komandir quyidagi talablarni nazarda tutishi lozim:

- har bir askarga to'laqonli shaxs sifatida yondashish;
- har bir shaxs rivojlanuvchi, o'zgaruvchi tizim ekanligini yodda tutish;
- inson va uning faoliyati haqidagi har qanday xulosa nisbiy ekanligini unutmaslik.

Harbiy faoliyat va harbiy jamoalarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda harbiy xizmatchilarning bo'linmalardagi xulq-atvorlarini bir nechta tiplarga bo'lish mumkin. Ular quyidagilar:

1. Faoliyatini to'la-to'kis topshirilgan ishni, vazifani bajarishga qaratadi. U faol, mehnatsevar, tashabbuskor, qaror qabul qilishda mustaqil. Jamoa vazifalarini bajarish faoliyatining asosiy mazmuni hisoblanadi. Atrofdagi kishilar bilan bo'ladigan munosabatlarga kam e'tibor beradi.

2. U faoliyat jarayonida boshqa kishilar bilan bo'ladigan munosabat, muloqotga katta e'tibor beradi. Uning uchun bajarilgan ish sifati ikkinchi darajali hisoblanadi.

3. Bunday shaxs jamoadagi o'z xulq-atvorini "o'z-o'ziga" qaratadi. U do'stlik munosabatlarini qadrlamaydi. Jamoadagi vazifalaridan o'zini ko'rsatish uchun foydalanadi. Buning oqibatida esa ko'pincha jamoada ko'ngilsiz voqealar kelib chiqadi.

Bo'linmalarda askarlar bilan olib boriladigan yakka tarbiyaviy ishlarni taxminan oltita bosqichga bo'lish mumkin. Ular quyidagilar:

1. Askarning tarjimai holini, oilaviy ahvolini va xizmatgacha qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanganligini bilib olish.

2. Salomatligi va jismoniy tayyorgarligini o'rganish.

3. Ehtiyojlari, qiziqishlari, e'tiqodi, axloqiy sifatlari kabilarni muntazam ravishda kuzatib borish.

4. Temperamenti, ish qobiliyati va muloqot imkoniyatlarini bilish.

5. Xarakteri, irodasi, jamoatchilik hissi, xizmatga, o'rtoqlariga va komandirlariga munosabatini aniqlash.

Bularning hammasi "pedagogik kundalik"ka yozib boriladi. Askar shaxsini o'rganishda uning harbiy xizmatgacha bo'lgan davrda o'zining bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazganligini bilish komandir uchun juda katta ma'lumot beradi. Bo'sh vaqtini hech bir maqsadsiz o'tkazgan askarda harbiy intizomni buzish holatlari ko'proq bo'ladi.

Shu va shunga o'xshagan harbiy xizmatchilar harbiy qismlarda "xavfli guruh"ni tashkil etadilar. Xo'sh, "xavfli" yoki "qiyin" askarlar qayerdan paydo bo'ladi, ularni qanday qilib qayta tarbiyalash mumkin?

Bugungi "qiyin" askar, kechagi "qiyin" o'quvchi yoki ishlab chiqarishdagi "qiyin" o'smir. Undagi muammolarning hammasi mohiyat e'tibori bilan oldingi faoliyatining, ayniqsa, oiladagi hayotining natijasidir. Psixolog va sotsiolog olimlarning ta'kidlashlaricha, "qiyin" o'smirlarning soni o'zaro do'stlik, hurmat muhiti mavjud bo'lgan oilalarga qaraganda xudbinlik, befarqlik va qo'pollik hukm suradigan oilalarda 10 marta ko'p bo'lar ekan.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, har doim ham "qiyin" askarlar harbiy xizmatga tashqaridan kelavermaydi, balki, ma'lum shart-sharoitlar bo'lganda harbiy bo'linmalarda ham paydo bo'ladi. Harbiy xizmatchi o'z kuchiga ishonmay qolganda, unda o'qishga, xizmatga va ijtimoiy mehnatga nisbatan qiziqish yo'qolganda, o'z-o'zi bilan bo'lib qolganda, shuningdek, komandir va boshliqlar uning uchun namuna bo'lolmay qolganlarida, ya'ni o'z obro'larini yo'qotganlarida shunday bo'ladi.

6.3. Harbiy xizmatchilar bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarni olib borish tartibi

Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning mazmun va mohiyati

Hamma odamlar jamiyatda yashaydi, lekin har bir inson atrofdagi olamda o'zini ko'rsata oladigan yakka tartibdagi hayotiga ega bo'ladi. Insonning yakka tartibdagiligi shundaki, u o'zining aniq bir mustaqil hayotini namoyon qiladi, lekin bu namoyish boshqa insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lgandagina ko'rinadi. Insonlarning yakka tartibdagi xilma-xilligisiz jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi bo'lmaydi. Insonlarning takrorlanmas yakka tartibdaligining asl ma'nosi nafaqat uning tashqi qiyofasi bilan, balki asosan uning turmushi bilan bog'liq. Aynan muayyan insonning professionallik faoliyatida uning takrorlanmas yakka tartibdaligida namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar muhim ahamiyatga ega. Buning sababi quyidagicha: jamiyatni demokratlashtirish, insonlarning siyosatga kirib borishi bilan yuzaga

kelgan jarayonlar harbiy xizmatchilarning qarashlari va fikrlashlarida muhim o'zgarishlar qilishiga imkon beradi. Bu narsa harbiy xizmatchi – rahbarlardan suhbat olib borishni, mantiqan fikrlash bilan ishontirishni, qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun harbiy xizmatchilarni safarbar qiluvchi eng samarali uslublarni topishni talab qiladi. Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan sharoitlarning judayam murakkablashuvi, vazifalarning o'zining murakkablashuvi, harbiy jamoaning ma'naviy muhitida sodir bo'layotgan jarayonlarning g'alati aralashuvi, ko'plab salbiy hodisalar – bularning hammasi muayyan insonga e'tibor berishning muhimligini kuchaytiradi. Shaxsga yakka tartibdagi yondashish va uni tarbiyalash bo'yicha ko'p gapirishadi va yozishadi, lekin ko'plab oddiy xatolarga yo'l qo'yishadi. Bir tarafdin, individni shakllantirishda ko'pincha jamiyatning ahamiyati absolyutlashtiriladi, bu esa muqarrar ravishda konformist (moslashtirilgan, maqsadsiz, ko'r ijro etuvchi) insonni tarbiyalashga olib keladi.

Boshqa tarafdin, tarbiyaviy ishlarda jamiyatdagi shaxsning rolini mutlaqlashtirib, uning yakka tartibdagi takrorlanmasligini doimiy ravishda ta'kidlash kerak emas, bu yakka tartibdagichi, egoist, yulg'ichlarni tarbiyalashga olib kelishi mumkin.

Tarbiyadagi yakka tartibdagi yondashuv har bir insonning yakka xususiyatlarini hisobga olgan holda unga saylov ta'sirini amalga oshirishi mumkin va natijada undan jamiyat uchun zarur bo'lgan siyosiy, ishbilarmonlik va ma'naviy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan.

Shunday ekan, yakka tartibdagi tarbiyaning mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin: **bu har bir harbiy xizmatchining yakka xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning ongi va tuyg'usiga kerakli ijobiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida ta'sir qilish bo'yicha tarbiyaviy va tashkiliy ishlardir.**

Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar – bu qo'mondonliklar, harbiy boshqaruv organlari, komandir va ularning o'rinbosarlari (xizmat boshliqlari) tomonidan o'z qo'l ostidagilarining ruhiy holati, bilim darajasi, oilaviy ahvoli va xulq-atvori, xususiyatlari, harbiy jamoadagi xatti-harakatlari va intizomi, o'ziga xos jihatlarini **chuqur bilish maqsadida o'tkaziladi.**

Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar kun tartibida belgilanmagan bo'lsa-da, asosiy mashg'ulotlardan so'ng mustaqil

tayyorgarlik yoki shaxsiy tarkibning shaxsiy va dam olish vaqtlarida, **shuningdek haftaning shanba va yakshanba kunlari o'tkazilishi mumkin.**

Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni harbiy xizmatchilar bilan muntazam, ya'ni:

muddatli harbiy xizmatchilar (kursantlar) bilan *chorakda kamida ikki marotaba;*

shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchi serjantlar va oddiy askarlar tarkibi bilan *bir yilda kamida uch marotaba;*

shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchi kichik ofitserlar tarkibi bilan *bir yilda kamida ikki marotaba o'tkazib borilishi yo'lga qo'yiladi.*

Qo'mondonliklar, harbiy boshqaruv organlari, komandir va ularning o'rinbosarlari tomonidan o'z qo'l ostidagi harbiy xizmatchilar bilan ***o'tkazilgan suhbatlar "Shaxsni individual psixologik xususiyatlarini o'rganish kundaligi"ga qayd etib boriladi.***

Komandir (boshliq) bo'ysunuvchining ongiga ta'sir qilish bilan undan munosib muomalaga, yaxshi xulq va xatti-harakatlarga, mehnat, hayot va turmush sharoitlarining o'zgarishi bilan esa unda yangi ehtiyoj, did va qarashlarning paydo bo'lishiga erishish kerak. Odamlarning ongiga bir vaqtda, tizimli va biror maqsadga qaratilgan ta'sir qilish va hayot tarzining kerakli yo'nalishda o'zgartirishgina shaxs shakllanishining jarayoniga kompleksli ta'sir qilishga imkon beradi.

Keyinchalik masalalarni tushunish uchun yakka tartibdagi tarbiyaning mazmunini aniqlash zarur.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning maqsadi - harbiy xizmatchilarda qurollangan Vatan himoyachisining fazilatlarini shakllantirishdan iborat.

Bunday fazilatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- jamoaviy ishlarning zarurligiga ishonch hosil qilish, jamoaviy faollik va shu kabilar;

- ishning ahamiyati va o'zining majburiyatlarini bajarish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish va o'z ishini bilish;

- tashkilotchilik qobiliyatlar;

- jamiyatga axloqiy munosabatda bo'lish (vatanparvarlik, ma'naviyat, Qurolli Kuchlarning tarkibida bo'lish g'ururi va shu kabilar);

- xizmatga bo'lgan munosabat (vijdonlik, ijodiy yondashish va shu kabilar);

- boshqa odamlarga munosabat (jamoatchilik, to'g'rilik, atrofdagilarning qiziqishlarini hurmat qilish va shu kabilar);

- o'ziga munosabat (or-nomus, izzat va shu kabilar).

Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning mazmuni tarbiyaning muayyan shakllaridan alohida mavjud bo'la olmaydi, shakl esa (yoki bu shaklda) turli xil uslublar bilan mazmuni maqsadlar bo'yicha uzatadi. Boshqacha qilib aytganda: turli xil uslublar bilan aniq, shaklga kiritilgan mazmun insonlarning ongi va tuyg'usiga ta'sir qiladi.

Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni yakka tartibda olib borishning asosiy vazifalari:

harbiy xizmatchilarning dunyoqarashini shakllantirish;

ularda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

harbiy burchiga sadoqat;

yuksak ma'naviy – axloqiy darajasi;

Qurolli Kuchlarda xizmat qilish kerakligini anglab yetish.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarda bo'ysunuvchilar shaxsini o'rganish usullari

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 2003 yilgi D-7-sonli va 2018 yildagi D-5 direktivalarida ko'rsatilgandek, yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari (YaTTMI)ning asosiy yo'nalishi va vositasining biridir. Shu vositalarning birida ko'rsatilganki, YaTTMI har bir ofitser o'tkazadi, vaholanki har bir boshliq o'zining qo'l ostidagilarni tarbiyalaydi.

YaTTMI ko'rsatib o'tilganidek, bu tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning alohida shakl va usul vositasidir.

YaTTMI - bu shaxsiy tarkibni ongiga muntazam va uzluksiz, maqsadli ta'sir o'tkazish, ularning ongida jangovar va ma'naviy-ruhiy sifatlarni shakllantirish, xulq-atvori va hissiyotiga chuqur bilim olishi uchun alohida xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish demakdir.

YaTTMI tashkillashtirish Umumharbiy nizomlar, Mudofaa vazirining direktiva va buyruqlariga asoslanadi.

Bo'linmalarda o'tkaziladigan YaTTMIning asosiy xususiyati:

aniq o'tkazilishida – ya'ni ular belgilangan harbiy xizmatchilar bilan o'tkaziladi;

maqsadliligida – tarbiyaviy ta'sirni bir maqsadga yo'naltiriladi;

tezkorligida - har qanday vaziyat va vaqt jarayonlarda o'tkaziladi;

yuqori ta'sirchanligida - tarbiya shaxsga to'g'ridan-to'g'ri yetib boradi.

Yana bir YaTTMIning xususiyati shundaki, uni tashkillashtirish alohida vaqt va kun tartibi talab qilmaydi. Barcha mansabdor shaxslar YaTTMI ni o'z majburiyatlarini bajarish jarayonlarida, mashg'ulotlarda, xizmat o'tash vaqtlarda, bo'linmaning ijtimoiy hayotida ishtirok etib o'tkazadi.

O'z qo'l ostidagilarni bilish, ularni muntazam o'rganib borish har bir komandirning harbiy nizomlarda yozib qo'yilgan majburiyatidir. Busiz hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish, ularda harbiy xizmat uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalash mumkin emas. Shaxsdagi eng muhim ijobiy va salbiy xususiyatlarni ajrata olish mahoratini egallash komandirlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Komandir harbiy xizmatchilarning xususiyatlardan o'zi tayanishi lozim bo'lgan birontasini ajratib oladi: kim uchundir xarakter sifatlari, boshqa birovdan qobiliyat, uchinchi bir kishida esa temperament shunday asos vazifasini o'tashi mumkin. Jangchining xulq-atvorini bashorat (prognoz) qilishda komandir shularga tayanadi. Shaxsdagi yashirin, har doim ham ko'zga tashlanavermaydigan sifat va xususiyatlarni faoliyat jarayonida yuzaga chiqarish mumkin. Jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari, sport musobaqalari hamda badiiy havaskorlik to'garaklarida harbiy xizmatchining yashirin qobiliyatlarni yuzaga chiqarish imkoniyati mavjud.

Jangchilarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagi usullar bilan o'rganiladi:

kuzatish;

hujjatlarni o'rganish;

suhbatlar;

ota-onasi bilan aloqalar,

eksperiment-anketa va bo'ysunuvchi faoliyati tahlili va boshqalar.

Jangchi haqidagi yig'ilgan ma'lumotlar umumlashtiriladi va tahlil qilinib xulosa chiqariladi va YaTTMI o'tkazishga qaror qabul qilinadi. Harbiy xizmat haqidagi barcha ma'lumotlar, xulosalar va qarorlar YaTTMI jurnaliga kiritiladi.

Barcha tahlillar va xulosalardan kelib chiqib, YaTTMI rejasi tuziladi. Unda yakka tartibdagi tarbiyaviy ishning: maqsadi va vazifalari, ularga erishish yo'nalishlari belgilanadi; yakka tartibda tarbiyaviy ish o'tkazuvchilarga vazifalar kuyiladi va ularga ish olib borish uslublari o'rgatiladi; tarbiyaviy tadbirlarga kirishiladi va boshliqning shaxsan ishtiroki ta'minlanadi; tarbiyaviy ishning davomiyligi rejasi takomillashtiriladi, unga ilg'or tajribalar kiritiladi.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ta'sir usullari

- a) Yakka tartibdagi yordam;
- b) Do'stona tanqid;
- v) Kamchilik va nuqsonlarini bartaraf etishiga sharoit yaratish;
- g) Yakka tartibdagi yondashuv.

Mazkur usullarning ba'zilar bilan yaqinroq tanishamiz.

1. Kuzatish. Kuzatish jarayoni bo'ysunuvchini turli xil sharoitlarda o'zini tutishi, turli vaziyatlarga uning munosabatini o'rganishni o'z ichiga oladi. Kuzatish usuli haqida psixologiya asoslari haqidagi mashg'ulotimizda ham yetarli ma'lumotlar bor. Shunga qaramasdan shuni ta'kidlab o'tish lozimki, kuzatish chog'ida bo'ysunuvchining ichki dunyosi bilan tashqi qiyofasi – yuzidagi ifodasi, kayfiyatidagi o'zgarishlar, mimika va jest (imo-ishora)lariga e'tibor beriladi.

2. Hujjatlarni o'rganish. O'rganilayotgan bo'ysunuvchi haqida dastlabki tasavvur hosil qilishda muhim rol o'ynaydi. Hujjatlari orqali biz bo'ysunuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, oyi, millati, oilaviy ahvoli, mutaxassisligi va xizmatgacha bo'lgan xulq-atvori, sog'ligi va shu kabi ma'lumotlarni to'plashimiz mumkin.

3. Yakka tartibdagi suhbat. Bu usul yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarning asosiy usuli hisoblanadi. U har bir insonni chuqur o'rganishga, unga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga va har kanday topshiriqni bajarishga safarbar etishga imkon yaratadi. Shu sababli yakka tartibdagi suhbat o'tkazish usulini yaxshi o'zlashtirish har bir komandirning va jamoa faolining burchidir.

Yakka tartibdagi suhbatlar birinchi navbatda:

- ota-onasi bo'lmagan oilada o'sgan bo'ysunuvchilar bilan;
- xizmatgacha bo'lgan davrda ish joyini tez-tez sababsiz o'zgartirib turgan, ma'muriy jazoga tortilganlar bilan;
- harbiy intizomni buzishga moyil bo'lganlar bilan;

-o'rtoblari orasida soxta obro'ga ega bo'lganlar (salbiy liderlar) bilan;

-jismonan yaxshi rivojlanmagan va biror jismoniy yoki ruhiy nuqsonga ega bo'lganlar bilan;

-o'z harakatlari va gaplari bilan o'rtoblari orasida kulgi bo'ladiganlar bilan;

-xizmatgacha bo'lgan davrda spirtli ichimliklar iste'mol qilishga berilib ketganlar bilan o'tkaziladi.

Suhbat. Suhbatga o'rganish usuli sifatida bir qator talablar qo'yiladi. Birinchisi, suhbat ixtiyoriylik asosida, erkin olib borilishi lozim. Agar tadqiqot jarayonida o'rganuvchi va o'rganiluvchi orasida shaxsiy munosabatlar mavjud bo'lsa, suhbat yana ham ko'proq samara beradi. Buning uchun suhbat obyekti bo'lishi ehtimol tutilgan harbiy xizmatchi haqida imkon qadar ko'proq ma'lumotlar yig'iladi. Ushbu ma'lumotlardan va komandirning shaxsiy rejasidan kelib chiqib maqsad belgilanadi. Shundan so'ng mana shu maqsadga moslab taxminiy savollar tuziladi. Mazkur reja tuzilgachgina suhbat o'tkaziladi. Bevosita suhbat asnosida ushbu rejaga zaruratga qarab o'zgarishlar kiritish lozim. Suhbatda savollar faqat tekshiriluvchilarga qaratilmasdan, balki tekshiruvchiga ham qaratilishi mumkin. Suhbat jarayonida komandir imkon qadar hech bir fikr-mulohazalarni yozib bormagani maqsadga muvofiq - bu suhbatdoshlar o'rtasida o'zaro ishonch muhitini yaratishga yordam beradi. Javoblar zaruratga qarab suhbatdan keyin yozib qo'yiladi. Suhbat alohida harbiy xizmatchi yoki harbiy bo'linma bilan olib borilishi mumkin.

Suhbat sharoitga qarab turli usullarda olib boriladi. Shulardan biri alohida harbiy xizmatchi bilan olib boriladigan yakka suhbat hisoblanadi. Askarlarni tarbiyalashni yakka ravishda olib boriladigan shuhbasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunday suhbatlar har qanday harbiy xizmatchiga shubhasiz juda katta ta'sir ko'rsatadi. Askar va komandirning bir-biri bilan yolg'iz qolib, yuzma-yuz suhbatlashishining o'ziyoq ma'naviy-ruhiy jihatdan katta ta'sir omili hisoblanadi. Maxsus anketa savollariga javob bergan askar va serjantlarning 80 foizi, suhbat ular tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishini aytishgan.

Suhbatning mohiyatini belgilab beradigan narsa - bu uning maqsadi. U yoki bu askar bilan suhbatlashishdan oldin ofitser o'z oldiga uni bilib olish, uning qiziqish va intilishlarini borlab ko'rish,

uni tarbiyalash, unga pand-nasihat qilish, shuningdek, uni ogohlantirish maqsadini qoʻyishi mumkin.

Masalan, yangi kelgan askarlar bilan boʻladigan suhbat jarayonida ulardagi individual-ruhiy xususiyatlarni hamda hayot tajribalarini bilib olish imkoniyati mavjud boʻlib, shu asosda ular orasidan boʻlinma faollarini, kichik komandirlikka nomzodlarni, jangovar varaqa va devoriy gazeta muharrirlarini, sportchilarni va boshqalarni aniqlab olish mumkin.

«Borlab koʻrish» suhbatlari odatda boʻlinmadagi faollar va serjantlar bilan oʻtkaziladi. U jamoadagi mavjud muammolar atrofida va fikrlarni erkin bayon etish bilan amalga oshiriladi. Bunday suhbatlar boʻlinmalardagi intizom buzilishlari, uning sabablari va qanday qilib oldini olish mumkin ekanligi, bunday hodisalarga nisbatan jamoaning munosabati qandayligi, harbiy xizmatchilar orasidan kimlar boshqalarga namuna boʻla olishi mumkinligi kabi savollar atrofida boʻlishi mumkin. Shuni nazarda tutish kerakki, xizmat muddatlarini oʻtab, uylariga qaytayotgan askarlar boshqa paytda aytolmagan tanqidiy fikrlarini aytadilar.

Tarbiyaviy suhbatda esa askarlarga harbiy xizmat shart-sharoitlari va nizom talablari tushuntiriladi, ularda mustahkam eʼtiqod va dunyoqarash shakllantiriladi. Bunday suhbatlarning oʻziga xos tomoni shundaki, unda jamoa oldida turgan masalalar umumiy tarzda yoki umumjamoa doirasida emas, balki, ushbu askarning umumiy ishdagi shaxsiy ishtiroki nuqtai nazaridan koʻrib chiqiladi. Individual suhbatning oʻzaro ishonch muhitida kechishi juda ham muhim ahamiyatga ega boʻlib, bu narsa komandirning muayyan bir sharoitlarda qarorlar qabul qilishini yengillashtiradi. Bunday suhbat vositasida komandir jamoa kayfiyati haqida maʼlumot olish bilan birgalikda jamoa fikriga taʼsir etib, askarlarda oʻziga nisbatan ishonch muhitini yaratadi. Bunday suhbatlar komandirlarning, shuningdek, askarlarning tashabbuslari bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Komandirning askarlarning ota-onalari va boshqa yaqin kishilari bilan xat orqali muloqoti ham oʻziga xos “suhbat” vazifasini oʻtab, qoʻshimcha, baʼzan esa muhim maʼlumotlar beruvchi manba boʻlib xizmat qiladi. Bu xatlarda askarlarning xizmatgacha boʻlgan davrdagi hayotlari-maktabdagi fanlarni oʻzlashtirish darajalari, qiziqishlari, boʻsh vaqtlarini qanday oʻtkazganliklari, qanday kasalliklar bilan ogʻriganliklari, kimlar bilan doʻstlashganliklari kabi koʻplab

savollarga javoblar o'z aksini topgan bo'ladi. Eng muhimi esa, bunday xat yozishlar butun jamoaga va har bir askarga kuchli tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi. Ofitser askar oilasiga xat yozganda salbiy holatlar haqida yozishi maqsadga muvofiq emas.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning asosiy yo'nalishi:

harbiy xizmatchilarning yakka tartibda o'rganish va tarbiyalashni oldindan rejalashtirish;

barcha mansabdor shaxslar va faollarni amalda shaxsiy tarkibni YaTTMI o'tkazishga o'rgatish.

YaTTMI tashkillashtirishda ofitser, serjant va faollarga yordam ko'rsatish va nazorat qilish.

yakka tartibdagi ishlar holatini tahlil qilish va kamchiliklarni bartaraf qilish.

komandir va faollar bilan YaTTMI tashkillashtirishda tajriba almashish va targ'ibot qilish.

muntazam YaTTMIning yakunini o'tkazish.

YaTTMI ijobiy tamoyillarni, usullarini OAV orqali tarqatish.

kichik komandirlar va faollarni shaxsiy tarkib bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlardagi yutuqlari uchun taqdirlash.

Bo'linmalarda o'tkaziladigan YaTTMI - 3 toifada o'tkaziladi.

shaxsning alohida xususiyatlarini o'rganish;

yakka tartibda yondashishni aniqlash;

yakka tartibda ta'sir o'tkazish.

YaTTMI keng tarqalgan shakllari - suhbat, yakka tartibdagi topshiriq, yordam ko'rsatish, yakka tartibda yondashishi, tanqid va boshqalar.

Komandir o'z qo'l ostidagi shaxsiy tarkibni quyidagi sifatlarini bilishi shart:

familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, joyi, ma'lumoti, fuqarolik mutaxassisligi, oilaviy ahvoli.

shaxsiy sifatlarini rivojlanish bosqichlari;

burch, do'stlik va o'rtoqlik, intizomlilik, xalqparvarlik va to'g'rilik xislatlari;

shunday xislatlardan eslab qolish, anglab yetish, tirishqoqlik, diqqat, mehnatkashlik xislatlari;

qiziqishi, muxtojligi;

sogʻligining ahvoli, jismoniy chiniqqanligi, xizmatdagi qiyinchilik va kamchiliklari oʻqishda va intizomda va hokazo.

Yakka tartibda tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishdan oldin har bir komandir yakka tartibda shaxsga taʼsir oʻtkazishga tayyorgarlik koʻrishi, rejalashtirishi lozim.

Amaliyot shuni koʻrsatadiki, YaTTMI boʻyicha tadbirlarni har bir komandir oʻzining oylik shaxsiy rejasiga kiritishi maqsadga muvofiq boʻladi.

Misol uchun rejada quyidagi misollar koʻrsatilishi mumkin:

- KAHX kichik serjant Akromov, Rustamov, Shaxobovlarning oilaviy ahvoli va shaxsiy hujjatlarini oʻrganish;

- oddiy askar Maxmudov, Sattorov, Choriyevlarga harbiy texnikalarni oʻzlashtirishga yordam berish;

- serjant Rustamov, oddiy askarlar Yaxyoev, Qoriyevlar bilan harbiy intizomni mustahkamlash boʻyicha qoʻshimcha tadbirlar oʻtkazish.

YaTTMI boʻyicha alohida reja tuzilmaydi, bu tadbirlar ofitserning shaxsiy oylik rejalarida va boʻlinmaning oylik rejasiga kiritiladi.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarda individual-psixologik xususiyatlarini oʻrganish usullari. Yakka tartibdagi tarbiyalash usullari.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarda boʻysunuvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini oʻrganish oʻz oldiga qoʻygan vazifalarni maʼlum usullar yordamida hal qiladi.

Usul - bu haqiqatni bilib olish yoʻli. Eng umumiy (metodologik), umumiy (bir qator fanlarga xos) va xususiy (alohida bir fanga xos) usullar va vositalar mavjud. Har qanday usul nazariya va metodologiyaga asoslanadi.

Kuzatish va eksperiment axborot yigʻishning eng muhim usullari hisoblanadi. Kuzatish usuli harbiy psixologiyaning oʻrganish usullari orasida eng keng qoʻllaniladigani boʻlib, uning vositasida maʼlum bir inson yoki jamoa (ularning psixologik xususiyatlari) haqidagi faktlar aniq maqsad bilan izchil ravishda yigʻib boriladi. Shuni alohida qayd qilib oʻtish kerakki, kuzatish usuli bilan oʻrganilayotgan obyekt faoliyatining tashqi tomonlarigina emas, balki uni yuzaga keltirgan kuchlarni fikr, motiv, hissiyot, maqsad va ehtiyojlarni ham kuzatish, oʻrganish mumkin.

Harbiy xizmatchilarni o'rganish usullari: kuzatish; suhbat; eksperiment; anketa usuli; hujjatlarni tahlil qilish; o'z-o'zini baholash; test usuli; faoliyat natijalarini tahlil qilish; betaraf xarakteristikalarni umumlashtirish.

Ushbu usullarni qo'llashning asosiy tamoyillari:

- u yoki bu usulni qo'llashga puxta tayyorgarlik ko'rish;
- izchil va bosqichma-bosqich o'rganish;
- olingan natijalarni boshqa usullar yordamida tekshirish.

Kuzatish usuli. Kuzatish eng keng tarqalgan o'rganish usuli bo'lib, uning yordamida insonlar, harbiy jamoalar har xil sharoit va faoliyatlarda namoyon qiladigan hissiyot, xatti-harakat, xulq-atvorlarning tashqi ko'rinishlari - namoyon bo'lishlari o'rganiladi.

Kuzatish faqatgina faktlarni qayd etishdangina iborat bo'lmasdan, balki, ularni ilmiy jihatdan tushuntirish, tasniflash (klassifikatsiyalash) va umumlashtirishni ham o'z ichiga oladi.

Kuzatish usulining o'ziga xos belgilari quyidagilar:

Har qanday kuzatish o'zining maqsadiga ega bo'ladi;

Kuzatish usuli o'zining tizimlashganligi bilan ajralib turadi (masalan, kuzatish asnosida kuzatilayotgan hodisa va psixik hodisalar (munosabatlar, motivlar) o'rtasidagi qat'iy aloqadorlikni aniqlash imkoniyatining mavjudligi);

Kuzatilayotgan shaxslar yoki guruhlar soni va kuzatishlar soni yetarlicha ma'lumotlar yig'ish hamda ularni matematik qayta tahlil qilish uchun yetarli bo'lishi lozim;

Ma'lumotlarni obyektiv ravishda tizimlashtirish va yozib olish imkoniyatining mavjudligi (bayonnoma tuzish, magnitofonga yozib olish, foto va kinotasvir);

Kuzatish usuliga nisbatan biz yuqorida sanab o'tgan talablar, albatta, komandirlar tomonidan inobatga olinishi lozim.

Kuzatish har xil shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- a) Bevosita - tadqiqotchining o'zi tomonidan olib boriladi;
- b) Bilvosita - boshqa kishilardan (vrachdan, o'qituvchidan, instruktordan, shturmandan) olgan ma'lumotlarni tadqiqotchi umumlashtiradi.

Kuzatish tabiiy sharoitlarda amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. U voqealarning odatdagi tabiiy maromini buzmaydi.

Ushbu metod o'zining afzalliklari bilan bir qatorda ba'zi bir kamchiliklariga ham ega:

- uzoq vaqt davom etishi;
- natijalarni yozib borishning qiyinligi;
- o'rganilayotgan obyektlarning ko'pligi;
- materiallarni yig'ishning qiyinligi.

Kuzatish usuli vositasida ma'lum bir inson yoki jamoa (ularning psixologik xususiyatlari) haqidagi faktlar aniq maqsad bilan izchil ravishda yig'ib boriladi. Ammo, kuzatish uslubi bilan o'rganilayotgan obyekt faoliyatining tashqi tomonlarigina emas, balki uni yuzaga keltirgan kuchlarni - fikr, motiv, hissiyot, maqsad va ehtiyojlarni ham kuzatish, o'rganish mumkin.

Ofitser kuzatish usulidan foydalanib obyektни o'rgananda harbiy xizmatchining o'zi haqida bergan ma'lumotlar - o'zining fikrlari, hissiyotlari, harakatlari haqidagi xabarlardan ustalik, mahorat bilan foydalanishi lozim. Psixologiyada bunday ma'lumotlarga «o'z-o'ziga hisobot» deyiladi.

Bo'ysunuvchilarning o'z-o'ziga hisoboti ularning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishning muhim vositasi hisoblanadi. Muayyan inson haqida faqatgina uning tashqi xulq-atvoriga qarabgina xulosa chiqarish yetarli emas. Agar harbiy xizmatchi zohiran xotirjam bir holatda quoldan o'q otib topshiriqni yaxshi bajarar ekan, bu unda ichki hissiy kechinmalar bo'lmadi, degani emas. Buni uning mashg'ulotlardan keyingi hikoyasidan (agar u dilkash bo'lsa) bilib olsa bo'ladi. Undan keyin komandirning ushbu harbiy xizmatchi psixologik barqarorlikni ta'minlash uchun yana ishlashiga to'g'ri keladi. Faqat tashqaridan kuzatibgina bu natijalarga erishib bo'lmaydi, ammo, harbiy xizmatchilarning o'zi haqidagi fikrlariga har doim tanqidiy yondashish kerak bo'ladi. Chunki inson o'zi haqida, ayniqsa, o'zining ichki kechinmalari haqida gapirganda obyektivlikdan yiroqlashib, subyektivlikka berilib ketadi.

Kuzatishning eng maqbul shakli alohida harbiy xizmatchini har xil faoliyatlarda, har xil vaziyatlarda, har xil kishilar davrasida kuzatish hamda ushbu kuzatish natijalarini bir tizimga solib, undan keyingina ma'lum bir xulosaga kelishdan iborat. Shundagina undagi xarakterni, yo'nalishni, motiv, maqsad, his-tuyg'u va kechinmalarini bilib olish, tushunish mumkin, ammo, bunday chuqur va atroflicha xulosalar yasash, inson to'g'risida bir to'xtamga kelish uchun juda ko'p vaqt kerak bo'ladi. Kichik komandirlar kuzatuv natijalarini o'z

natijalari bilan qiyoslab, umumlashtirish ham u yoki bu harbiy xizmatchi to'g'risida fikrlar haqqoniyligini ta'minlaydi.

Kuzatishning ikkita turi farqlanadi:

- oddiy, ya'ni hayotiy kuzatish;
- ilmiy kuzatish.

Oddiy kuzatishda kuzatuvchi o'z kuzatishlarini jiddiy deb qabul qilmaydi. Shuning uchun ham o'zi kuzayotgan insondagi ba'zi jihatlarga (ba'zan ikkinchi darajali) ko'proq e'tiborni qaratib, muhim xususiyatlarni e'tibordan chetda qoldirishi mumkin. Shunday holatlar bo'lmasligi uchun ofitser ilmiy kuzatish usulidan foydalanishi kerak bo'ladi.

Ilmiy kuzatish oddiy kuzatish uslubidan quyidagilar bilan farq qiladi: kuzatishdan aniq maqsad belgilanadi; maqsaddan kelib chiqqan holda kuzatish rejasi ishlab chiqiladi.

Ilmiy kuzatish doimiy va izchil ravishda olib boriladi. Kuzatish faqatgina ma'lumotlar yig'ishdangina iborat emas, balki ushbu yig'ilgan axborotlarni muntazam ravishda tahlil qilish, qiyoslash, baholash va tekshirishni ham o'z ichiga oladi.

Eksperiment usuli. Eksperiment o'rganishning shunday usuli bo'lib, bunda harbiy xizmatchi va jamoaning oddiy, kundalik faoliyati sharoitida namoyon bo'lmaydigan xususiyatlari o'rganiladi. Bu esa ma'lum bir sharoitni yaratish bilan amalga oshiriladi. Bu shunday sharoitki, bunda ofitserni qiziqtirayotgan xususiyatlar shaxs yoki jamoada namoyon bo'ladi.

Eksperiment o'rganish usuli sifatida tadqiqotchining o'rganilayotgan jarayonga faol aralashuvini taqozo qiladi. Shaxs yoki jamoa o'rnashadigan sharoit oldindan tayyorlab qo'yiladi. Eksperiment o'ziga xos ilmiy tajriba bo'lib, qat'iy kuzatuv ostida amalga oshiriladi. Amalga oshish shart-sharoitlariga ko'ra eksperiment laboratoriya, tabiiy yoki bu har ikkalasi asosidagi aralash eksperiment bo'lishi mumkin.

Laboratoriya eksperimentida tadqiqotchi o'rganilayotgan psixik hodisalarni tug'diradigan shart-sharoitlarni sun'iy ravishda yaratadi. Tadqiqotchi eksperiment asnosida sharoitlarni o'zgartirish orqali u yoki bu psixik hodisaga ta'sir o'tkazadi. Ushbu usulni qo'llaganda u yoki bu hodisani o'rganish jarayonini bir necha marta takrorlash mumkin. Boshqa usullarni qo'llaganda buning imkoni yo'q. Har xil texnik moslamalarga nisbatan insondagi psixik reaksiyalarni o'rganish

laboratoriya eksperimentiga misol bo'la oladi. Ayniqsa, harbiy xizmatchilarni mutaxassisliklarga taqsimlashda laboratoriya eksperimenti qo'l keladi. Laboratoriya eksperimentida tekshiriluvchining tashqi harakatlarigina emas, balki, undagi ichki (yashirin) fiziologik reaksiyalar ham o'rganiladi. Masalan, aqliy faoliyat jarayonida miyada biologik tokning o'zgarishi yoki emotsional reaksiyalar vaqtida yurak va qon tomirlari faoliyatining kuchayishi o'rganiladi. Sun'iy eksperiment laboratoriya sharoitida amalga oshirilib, har xil laboratoriya uskunalaridan foydalaniladi. Bunda harbiy xizmatchi o'zining kuzatuv obyekti ekanligini bilib turadi. Bunga misol qilib sizning o'zingiz kirish imtihonlari vaqtida bajarganingiz - kasbiy (professional) layoqat sinovini aytib o'tish mumkin. Siz unda ma'lum savollarga javob berish bilan o'zingizning harbiy kasbga layoqatli yoki layoqasiz ekanligingizni ko'rsatdingiz.

Tabiiy eksperiment kundalik, tabiiy sharoitda amalga oshiriladi. U kuzatish va sun'iy eksperiment o'rtasidagi oraliq uslub hisoblanadi. Masalan, taktik yoki o'q otish mashg'ulotlarida harbiy xizmatchiga vaziyatni o'zgartirib, qo'shimcha topshiriqlar berish yo'li bilan undagi bilim, topqirlik, tashabbuskorlik, xotira, malaka, ko'nikma, intilish kabilarni o'rganish mumkin.

Tabiiy eksperimentda shaxs yoki jamoa barqaror tabiiy hayot faoliyati sharoitida o'rganiladi. Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tabiiy eksperiment bilib oluvchi va shakllantiruvchi turlarga bo'linadi.

Bilib oluvchi eksperimentda shaxsdagi bilim, ko'nikma, malaka, shuningdek, xarakterning ijobiy va salbiy tomonlari aniqlanadi. Masalan, tekshiriluvchini shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar to'qnashadigan sharoitga solish bilan undagi psixologik yo'nalish aniqlanadi. Oddiy hayotiy vaziyatlar (masalan, o'zining noqonuniy harakatlari haqida komandirga o'z vaqtida bildiruv beradimi?; Yig'ilishda o'z do'stining xatti-harakatlarini muhokama qiladimi?; Jamoa manfaati uchun sport musobaqalarida ishtirok etadimi?) shaxsning axloqiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun boy manba beradi.

Shakllantiruvchi eksperiment vositasida shaxs va jamoaning psixologiyasi bilib olinadi, shuning bilan bir qatorda, ularga u yoki bu sifatlarni tarbiyalash maqsadida ta'sir o'tkaziladi. U nafaqat psixologiyada, balki, pedagogikada ham katta ahamiyatga ega. Har

qanday eksperiment oldindan tayyorlab qo'yiladigan gipotezalar bo'lishini taqozo qiladi. Ushbu gipotezalar tajriba va nazorat guruhlaridagi xulq-atvor hamda faoliyatlarni solishtirish, qiyoslash jarayonida yoki inkor qilinadi, yoki o'z isbotini topadi. Shakllantiruvchi eksperimentni amalga oshirishning majburiy shartlaridan biri u yoki bu sifatning rivojlanishini ko'rsatuvchi aniq va barqaror mezonlarning mavjud bo'lishi hisoblanadi.

Kuzatish va eksperiment usullari yordamida olinadigan ma'lumotlar suhbat, anketa, test, betaraf xarakteristikalarni umumlashtirish, hujjatlarni o'rganish usullari bilan yig'ilgan axborotlar bilan to'ldiriladi:

Anketa usuli. Eng ko'p qo'llaniladigan usullardan yana biri - bu anketa vositasida so'rov o'tkazish hisoblanadi. Anketa usuli og'zaki yoki yozma bo'lishi mumkin. Anketada ko'pi bilan 5-7 ta savol bo'lishi maqsadga muvofiq.

Anketa usuli qisqa vaqtda butun guruhni o'rganishga imkon beruvchi usul bo'lib, undagi savollar oldindan tayyorlab qo'yiladi. Masalan, anketa vositasida guruh qiziqishlarini, qo'yilgan film haqidagi fikrlarni o'rganish mumkin. Ammo, anketa metodi bilan olingan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi juda ham past bo'ladi.

Betaraf xarakteristikalarni umumlashtirish usuli. Bir nechta tarbiyachilarning shaxs va jamoalarni psixologik jihatdan o'rganish sohasidagi hamkorlikdagi faoliyatlari yaxshi samara beradi. Inson va jamoa faoliyati haqidagi psixologik fikr-baholarni tahlil qilish usuliga betaraf xarakteristikalarni umumlashtirish usuli deyiladi. Harbiy xizmatchini, masalan, seksiya komandiri, vzvod komandiri, batalyon komandiri, vrach va hokazolar o'rganadilar. Ular tomonidan yig'ilgan ma'lumotlar tadqiqotchi tomonidan umumlashtiriladi.

Faoliyat natijalarini tahlil qilish usuli. Psixologik hodisalarni insonning faoliyat natijalarini tahlil qilish orqali ham bavosita o'rganish mumkin. Insonning ijodiy kuchi va qobiliyatlari uning mehnat mahsulida aks etgan bo'ladi, shuning uchun ham, nafaqat o'rganilayotgan shaxsning faoliyat jarayoni, balki, uning faoliyat natijalari ham kuzatish obyekti bo'lishi mumkin. O'rganishga hozirlab qo'yilgan texnika, ta'mirlangan texnik jihoz, buyruqning ijrosi, mashg'ulot vaqtida qazilgan okop-bularning hammasi faoliyat natijalari hisoblanadi. Bular insonning nafaqat bilimlari, ko'nikmalari haqida, balki uning shaxsiy sifatleri, masalan, botartiblligi,

intizomlilik, mehnatga va jangovar texnikaga munosabati haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Harbiy xizmatchilardagi individual xususiyatlarni o'rganish dasturi

O'z qo'l ostidagilarni bilish, ularni muntazam o'rgana borish har bir komandirning harbiy nizomlarda yozib qo'yilgan majburiyatidir. Busiz hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish, ularda harbiy xizmat uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalash mumkin emas. Shaxslardagi eng muhim ijobiy va salbiy xususiyatlarni ajrata olish mahoratini egallash komandirlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Ofitser askardagi xususiyatlardan o'zi tayanishi lozim bo'lgan birontasini ajratib oladi: kim uchundir xarakter sifatlari, boshqa birovda qobiliyat, uchunchi bir kishida esa temperament shunday asos vazifasini o'tashi mumkin. Askar xulq-atvorini bashorat (prognoz) qilishda komandir shularga tayanadi. Shaxsdagi yashirin, har doim ham ko'zga tashlanavermaydigan sifat va xususiyatlarni faoliyat jarayonida yuzaga chiqarish mumkin. Jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari, sport musobaqalari hamda badiiy havaskorlik to'garaklarida askarlardagi yashirin qobiliyatlarni yuzaga chiqarish imkoniyati mavjud.

Yakka tartibdagi tarbiyalash usullari

Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik (MMT) mashg'ulotlarida tarbiyaning yakka tartibi misollarida mashg'ulot o'tkaziladigan shaxslar tarbiyasining qarash va sabablarini tahlil qilish, materialni bayon qilish yoki muhokama qilish jarayonida tavsiyalar berish uslublari bilan amalga oshirish mumkin. Ko'pincha bu o'qish bilan hayotni bog'lashni ta'minlash deb ataladi. Bundan tashqari, yakka tartibdagi ishlar, dokladlar, chiqishlar, axborotlar, ko'rsatmali qo'llanmalar va hokazolar tayyorgarligi bo'yicha yakka tartibdagi topshiriqlarni berish, alohida savollar va masalalar bo'yicha yakka tartibdagi suhbatlar o'tkazish, o'quv materialini o'rganishda yakka tartibdagi yordam berish va h.k uslublari bilan o'tkaziladi.

Axborot-tarbiyaviy ishlarda yakka tartibdagi yondashish keskin ravishda uning ta'sirchanligini oshiradi. Misol uchun: agar tadbir olib borilayotgan vaqtda (axborot berish, umumiy majlis, disputlar, savol-javob kechalari, suhbatlar va h.k) hamda nashr shakllarida (devoriy, rasmi, jangovar varaqalar va h.k) salbiy yoki ijobiy o'rinda harbiy xizmatchining faqat familiyasigina ko'rsatilgan bo'lsa, u holda bu

bilan tarbiyaning oddiy yakka tartibdagi ta'minlanadi. Agarda e'lon yoki nashr qilinayotgan mazmun muayyan odamlarga, ularning xulqidagi yoki askarlarning axloqiy holatidagi harakatlarga, sabablarning batafsil tahlili bilan bag'ishlangan bo'lsa va shu bilan birga siyosiy, ishbilarmonlik, axloqiy fazilatlarni mukammallashtirish haqida tavsiyalar berilsa, buni yakka tartibdagi tarbiyaviy ta'sir deb atash kerak.

Askarning shaxsiyatiga *madaniy hordiq chiqarish ishlari* katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. U ko'proq odamlarning shaxsiy hayotiga, ularning bo'sh vaqtdagi qiziqishlari, talablari va ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. Tarbiyaviy ishlar o'zining barcha shakllari bilan askarlarda adabiyot va san'atning badiiy asarlariga kuchli qiziqishni uyg'otishi, tabiiy fanlarning bilimlarini kengaytirishi, harbiy xizmatchilarning mazmunli va to'liq dam olishini ta'minlashi, badiiy ijodga qat'iylik bilan jalb qilishi kerak. Aynan madaniy hordiq chiqarish ishlari taqdim qilingan imkoniyatlarning keng to'plami bilan insonlarning qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantirishga intilishlarini faol ravishda rag'batlantirishi mumkin, ya'ni bu ishlar tashqi ommaviylik bilan tarbiyaviy jarayonning yakka tartibdagi o'zgarishini ta'minlaydi.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar tizimi bo'linmaning barcha mansabdor shaxslari a'lo darajada ishlaganlaridagina samarali ta'sir qilishi mumkin. Tizimning eng yuqori natijasiga «tarbiyachi - tarbiyalanuvchi» halqasidagi teskari bog'lanishlar mavjud bo'lgandagina erishiladi. Teskari bog'lanishning shakllantirishini tezlashtirish mumkin, agarda komandirlar har bir qo'l ostidagilari bilan munosabatda bo'lish jarayonida ba'zi bir maslahatlardan foydalanishsa:

- samimiy qiziqishi namoyon bo'lishi, askarlar bilan suhbat;
- odamni ismi bo'yicha chaqirganda ovoz – inson nutqidagi ovozlarning eng yoqimlisi va eng asosiysi ekanligini esda tutish;
- harbiy xizmatchilarning o'zi haqida hikoya qilishiga intilishini rag'batlantirish, suhbatdoshning qiziqishlaridan kelib chiqib muloqot uchun mavzuni tanlash;
- uning jamoada o'z o'rnini bor ekanligini sezishiga doim imkoniyat berish.

Yuqorida keltirilgan maslahatlar qo'l ostidagilaringizni o'zingizga og'dirishga yordam beradi. Lekin bular kamlik qiladi. Yana u sizning

yordamchingiz bo'lishiga harakat qilish kerak. Buni amalga oshirish uchun ham bir nechta tavsiyalar mavjud:

- eng avvalo, unga do'stona munosabatda ekanligingizni ko'rsating;

- suhbatdoshingizning fikrini hurmat qiling, darhol unga nohaqligini ayt mang, yaxshisi uning o'zi bu fikrga kelishiga yordam bering;

- suhbatdoshingiz sizga nisbatan ko'proq gapirishiga harakat qiling;

- suhbatdoshingizning fikrini chin ko'ngildan tushunishga harakat qiling, uning fikr va istaklariga xayrixohlik ko'rsating;

- oliyanob va yaxshi fazilatlarga ega bo'lishiga intiltiring, o'z g'oyalaringizga ravshanlik kirgizing.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, bir qator shartlarga amal qilinmasa, qo'lga kiritilgan aloqa darhol uziladi. Birinchi o'rinda odamni ranjitmaslik, g'azabini keltirmaslik kerak.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar tizimi butun xizmat davomida harbiy xizmatchilar shaxsiy fazilatlarining o'ziga xos fazilatlarini o'rganishni ko'zda tutadi. Bunda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- shaxsan nazorat qilish;
- amaliy faoliyatning hujjatlarini, natijalarini o'rganib chiqish;
- yakka tartibda bilim berish suhbatini yuritish;
- bog'liq bo'lmagan xarakteristikalarini umumlashtirish;
- pedagogik tajriba.

Komandir noyob masalalarni yechadi, o'qitish va tarbiyalash uchun asos yaratib beradi. U harbiy xizmatchilarning shaxsiy fazilatlarini boshidan o'rganadi, oxir-oqibatda harbiy jamoaning jipsligi unga bog'liq bo'ladi.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni olib borish – bu harbiy xizmatchilarni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan tizim orqali ta'sir ko'rsatish, hamda ularni yakka ravishda xususiyatlarni hisobga olgan holda bir qancha uslub va vositalarni qo'llash maqsadida olib boriladi. Jangchining o'ziga xos xususiyatlari uning ongida, xulqida, xizmat davomida do'stlariga, jamoaga, voqea va hodisalarga munosabatida aks etadi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishda uning o'ziga xos sharoiti va xususiyatlarini

hisobga olish zarur. Ko'pgina yosh harbiy xizmatchilar xizmat davomida harbiy sirlarni hech qanday to'siqsiz egallay oladi, ammo boshqalari uchun o'qish jarayoni juda og'ir kechadi.

Komandirlar o'z vaqtida mana shu xususiyatlarini topish va ularni hisobga olish lozim. (Masalan: o'quv jarayonida qiynalayotgan harbiy xizmatchilarga so'zda va amalda yordam ko'rsatish, ularda ishonchni hosil qilish, o'zining harbiy mutaxassisligini mukammallashtirishi uchun kerak bo'lgan sharoitlarni yaratish).

Shu bilan birgalikda, yakka ravishdagi ish jarayonida komandirlarning asosiy vazifalari quyidagilardir:

1. Komandirlarning jangchiga shaxs sifatida yo'nalishlari, ularga qiziqishi va yakka ravishdagi e'tibori;

2. Shaxs yo'nalishini hisobga olish, xizmatchini yakka ravishdagi xususiyatlarini, ular ongining faolligina tayangan holda qo'l ostidagilarni xulqlari, qiziqishi shakllantiriladi;

3. Yakka ravishda tarbiyaviy ishlarni olib borish jarayonida komandirlar va ularning shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha o'rinbosarlari harbiy xizmatchilarda nafaqat g'oyaviy-axloqiy sifatni shakllantiradi va rivojlantiradi, balki ulardagi salbiy sifatlarni qayta tarbiyalashga harakat qiladi.

Harbiy xizmatchilar bo'linmaga kelgandan boshlab, zahiraga ketgunga qadar ular bilan yakka ravishdagi tarbiyaviy ishlarni doimiy ravishda olib borish lozim.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'linmalarda barcha harbiy xizmatchilar bilan o'tkazilishi kerak:

- jangovar va ma'naviy ma'rifiy tayyorgarlik a'lochilari bilan;
- yosh kelgan harbiy xizmatchilar bilan;
- ko'p xizmat qilgan harbiy xizmatchilar bilan;
- intizomli harbiy xizmatchilar bilan;
- intizomsiz harbiy xizmatchilar bilan.

Bironta ham harbiy xizmatchilar komandirlarning nazaridan chetda qolmasligi kerak.

Komandir harbiy xizmatchini, shaxsni o'rganishda quyidagilarni bilishi kerak:

- ularning mehnat stajlarini;
- ularning fuqarolik mutaxassisligini;

- ularning oilaviy sharoitlarini;
- tarjimai holiga oid ma'lumotlar.

Komandir harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikdagi yutuq va kamchiliklari, harbiy mutaxassisligi va xizmatga munosabati, jamoatchilik va sport sog'lomlashtirish ishlarida ishtiroki, jamoadagi o'rni, do'stlari, o'rtoqlari, tanishlari doirasidagi o'rni bilan qiziqish kerak. Asosiy e'tibor harbiy xizmatchining sog'lom va ruhiy holatiga, uning fe'l-atvori, qiziqqonligi, nimalarga qodirligi, shuningdek, voqea-hodisaga, sezgi holatlarda ko'zga tashlanib turgan belgilarga qaratiladi.

Ko'pchilik bilan tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar olib borishning shakllari:

- ko'pchilik bilan tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar olib borilayotgan harbiy xizmatchining yakka xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'sir ko'rsatish;

- ko'pchilik bilan tadbir o'tkazishda shaxsiy tarkibni hammasiga bir xil ta'sir o'tkazish imkoniyati bo'lmaydi;

- ko'pchilik bilan ish olib borgan tadbirlarda formalizm bor, ular o'z samaradorligini bermaydi.

Yakka ravishda ish olib borishni ustuvorligi:

- maqsadga muvofiqligi, aniqligi, aniq bir odam bilan o'tkazilishi, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilganligini;

- tezkorligi va amalga oshirilishi mumkinligi, yakka ravishda suhbat o'tkazish uchun xona, tayyorgarlik ko'rish, shaxsiy tarkibni yig'ish shart emas. Har qanday vaqtda, sharoitda, har bir tarbiyachi uchun mumkin;

- harbiy xizmatchiga ta'sir ko'rsatish vositasi va uslublarini tanlash uchun katta imkoniyat borligi, yakka ravishda ish olib borishning samaradorligi va haqqoniyligidan iboratdir;

- yakka ish olib borish bu pedagogik talab bo'lib, u yakka ish olib borishini yo'llarini keltirib chiqaradi.

Bo'linma komandiri tomonidan doimiy ravishda o'tkaziladigan yakka tartibdagi ish quyidagilarni namoyon etadi:

- harbiy xizmatchi xulqidagi o'ziga xos xususiyat qirralarini va ularning o'z majburiyati, xizmatdoshi, o'ziga bo'lgan munosabatini namoyon etishni o'rganish;

- shaxsiy tarkib ma'naviy-ruhiy holatini to'la va aniq tahlil qilish;

- harbiy xizmatchilarning ruhiy holatlarini, shaxsiy sifatlari, jismoniy yetukligi, e'tiqodi va boshqalarini hisobga olish;

- jamoadagi axloqiy-ruhiy holatga doimo ta'sir o'tkazib turish, kichik guruhlardagi yashirin "yo'l boshchilar"ni aniqlash, ular xizmatga chaqirilgan joylarning o'ziga xos mahalliy xislatlarini chuqur o'rganish;

- harbiy xizmatchilar o'zaro munosabatidagi ziddiyatli vaziyatlarni tahlillari natijasida oldindan seza bilish va kelib chiqishi mumkin bo'lgan hodisalar haqida ogohlantirish;

- har bir harbiy xizmatchida xizmatdoshlari bilan nizomiy munosabatlarda ko'nikmalar hosil bo'lishi maqsadida ta'sir etishning samarali usul va uslublarini to'g'ri tanlash.

Shuni esda tutish muhim! Yakka tartibdagi ish hodisadan hodisagacha emas, doimiy ravishda olib borishni taqozo etadi.

Asosiy vazifa qisqa muddat ichida kichik guruhni, uning yo'nalish va tarkibini aniqlash, harbiy jamoaning ijobiy asosini va salbiy munosabatlar namoyonchilarini aniqlashdan iborat.

Tayanch so'zlar: Yakka tarbiya, mafkura, bo'linma, jangchi, xususiyat, nazorat, asosiy vazifa, harbiy jamoa.

Nazorat uchun savollar:

1. Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning mazmun va mohiyati so'zlab bering.

2. Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarda bo'ysunuvchilar shaxsini o'rganish usullari nimalardan iborat?

3. Bo'linmalarda o'tkaziladigan YaTTMning asosiy xususiyatlarini aytib bering.

4. Yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ta'sirlar usullari nimalardan iborat?

5. Jangchilarning o'ziga xos xususiyatlari qaysi usullar bilan o'rganiladi?

7-mavzu: Harbiy jamoaning psixologik manzarasi

Reja:

1. Harbiy jamoaning psixologik manzarasi.
2. Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar.
3. Ijtimoiy fikr va jamoa kayfiyati haqida tushuncha.
4. Harbiy jamoaning psixologik manzarasini tuzish tartibi.
5. Bo'linmada ijtimoiy fikrni shakllantirish tartibi.

7.1. Harbiy jamoaning psixologik manzarasi

Harbiy psixologiyada jamoa deb, harbiy xizmatchilarning shunday guruhiga aytiladiki, bu guruhdagi xizmat va ichki hayot harbiy nizomlar asosida tashkil etilib, ular o'rtasidagi shaxsiy hamda xizmatga oid munosabatlar mustahkam bo'ladi. *Yoki boshqacha qilib aytganda, bir faoliyat atrofida uyushgan kishilar guruhiga jamoa deyiladi. "Bo'linma shaxsiy tarkibi" va "bo'linma jamoasi" birikmalari bir narsani anglatmaydi. O'zaro ixtiloflar mavjud bo'lib, harbiy intizom zaif bo'lgan joyda harbiy jamoa bo'lmaydi.*

Harbiy jamoa o'zgarib, rivojlanib turuvchi ijtimoiy - psixologik hodisa bo'lib, o'ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega: Birinchi bosqichda komandir butun jamoa oldiga o'z talablarini qo'yadi; Komandir talablarining jamoa a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi esa rivojlanishning ikkinchi bosqichini anglatadi; Bu talablar jamoaning umumiy fikriga aylanganda va jamoa o'z a'zolarining har biridan ushbu talablarni bajarishni so'raydigan paytda esa rivojlanishning uchinchi bosqichi boshlanadi; Navbatdagi bosqichda jamoa talablari ta'sirida har bir harbiy xizmatchi o'zi o'zidan mana shu majburiyatlarni bajarishni talab qiladi. Ularda o'z-o'ziga nisbatan talabchanlik, tanqid qilish hissi paydo bo'lishi bilan harbiy jamoa rivojlanishining eng yuqori, oliy bosqichiga erishiladi.

Ammo, talab qo'yish harbiy jamoa rivojining yagona mezonini emas. Jamoa fikri rivojlanishi bilan bu talablar har bir harbiy xizmatchidagi boshqalar oldidagi javobgarlik hissiga aylanadi. Bu narsa harbiy intizomning mustahkamlanishini ta'minlaydi.

Harbiy jamoalar rivojlanishiga xos bo'lgan va biz yuqorida sanab o'tgan bosqichlardan o'zlarining individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, har bir harbiy xizmatchi turli darajadagi qiyinchiliklar bilan o'tadilar. Buni endigina harbiy xizmatga kelgan yosh askarlar misolida ko'rib chiqamiz. Ulardagi ko'nikish

(adaptatsiya) davrini ruhiy va jismoniy jihatdan me'yorida o'tkazish bo'linmadagi harbiy intizomni mustahkamlashga yordam beradi. Moslashish shunday hodisaki, bunda atrof-muhitdagi va faoliyatdagi yangi omillar, sharoitlar ta'sirida shaxs ruhiyatida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Askarning harbiy xizmat sharoitlariga moslashishi jarayoniga harbiy xizmatning hamma tomonlari ta'sir etadi. Ular quyidagilar:

1. Askarlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;

2. Ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

3. Harbiy va texnik bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallashlariga yordam berish (harbiy-texnik ko'nikish);

- Ularda jang olib borish ko'nikmalarini shakllantirish (jangovar ko'nikish);

- Muayyan bir harbiy jamoaga qo'shilish, komandirlar, boshliqlar va lavozimi tenglar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatish (ijtimoiy ko'nikish);

Ko'nikishning turli shakllari o'rtasida o'zaro yaqin aloqadorlik mavjud. Masalan, yosh askarning jangovar mahoratni egallashi uning bo'linmadagi ijtimoiy muhitga kirishiga yordam beradi. Bu narsa o'z navbatida, ushbu askarning bo'linmadagi obro'yiga hamda jamoaning unga nisbatan bo'lgan munosabatiga ta'sir etadi. Va aksincha, askarning ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik mashg'ulotlaridagi faolligi uning harbiy texnikani qanchalik muvaffaqiyatli o'rganishiga hamda unda ishlay olishiga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy muhit yaxshi bo'lgan inoq jamoalarda harbiy mutaxassislikni egallash jarayonidagi qiyinchiliklar harbiy nizom qoidalari tez-tez buzilib turadigan bo'linmalardagiga qaraganda 3-4 marta kam bo'lar ekan. Yoki, yana bir misol: o'quv bo'linmalari bitiruvchilari o'zlari harbiy xizmat amaliyotini o'tagan qismlardan boshqa qismlarga xizmatga jo'natilganda ularda ko'nikish bilan bog'liq qiyinchiliklar ancha ko'p bo'lgan.

Harbiy xizmat sharoitlariga ko'nikish jarayoni yosh askar va uni o'ragan ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv ekanligini e'tiborga olsak, uni shaxsiy va tashqi omillarga ajratish mumkin. Shaxsiy omillarga ijtimoiy tajriba, harbiy xizmatga munosabat, umumiy ma'lumot darajasi, muayyan mutaxassislikni egallashga bo'lgan qobiliyati, temperamenti va xarakter xislatlari kabilar kiradi. Jangovar navbatchilik, qorovullik xizmati, o'quv-tarbiya jarayoni,

ruhiy tayyorgarlik, kichik komandirlardagi rahbarlik usullari va jamoadagi o'zaro munosabatlar esa tashqi omillar sirasiga kiradi. Harbiy xizmat sharoitlariga ko'nikish ushbu faoliyatga moyilligi bo'lgan va boshlang'ich harbiy tayyorgarlikdan o'tgan yigitlarda nisbatan tez sodir bo'ladi. Aksincha, xizmatgacha bo'lgan davrda betartib hayot kechirgan yoshlarda bu bosqich qiyinchilik bilan kechadi.

Yosh askar inoq jamoaga tushsa-yu, harbiy xizmat uni qoniqtirsagina undagi umumiy ma'lumot va texnik qobiliyatlar mutaxassislikni tezroq egallashiga hamda ko'nikish jarayonining oson kechishiga yordam beradi. Aksincha, mutaxassislik va xizmat vazifalari unga quvonch baxsh etmasa, ko'nikish jarayoni uzoqqa cho'zilishi mumkin. Ko'pincha xizmat ko'rsatish va qo'riqlash bo'linmalarida shunday hodisa kuzatiladi. Chunki, bunday bo'linmalarda askarlar zerikarli, jangovar ishdan uzoq vazifalar bilan shug'ullanishadi. Bu yerda komandirlar harbiy xizmatchilar o'rtasidagi vazifalarni shunday taqsimlashlari kerakki, toki askarlar o'z mahoratlarining ijtimoiy nafini va harbiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiqligini anglashsin.

Kechagi o'quvchi, talaba yoki ishchini fuqarolik hayotidan harbiy xizmat sharoitiga birdaniga o'tkazish har xil ko'ngilsizliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun bu bosqich komandirlar nazorati ostida amalga oshiriladi. Yosh askardagi xarakter, qobiliyat va ko'nikmalar bu davrning qanday o'tishini belgilab beradi. Masalan, biri dilkash, ikkinchisi esa xudbin bo'lgan askarlarni olaylik. Dilkash askar xizmatga xos bo'lgan harbiy nizom talablarini va axloq me'yorlarini tezda o'zlashtirib oladi. Bundaylar jamoa topshiriqlarini ham ishtiyoq bilan bajaradilar va boshqa safdoshlariga bajonidil yordam beradilar. Odatda, ular mustahkam axloqiy-irodaviy xususiyatga ega bo'ladilar.

Xudbin askar esa unga komandirlarning nazariga tushishiga yordam beradigan va uni yuqori mavqega ko'taradigan ishlar bilan shug'ullanadi. U ko'p ham ko'zga tashlanavermaydigan, har vaqt komandirlar payqayvermaydigan "qora" ishlar bilan boshqalar qatori shug'ullanishni yoqtirmaydi. Ko'nikish jarayonida yosh askarlar dunyoqarashi, odatlari va umuman ruhiyatida qayta qurishlar yuz beradi.

Shu o'rinda hozirgi yosh askarlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalishga to'g'ri keladi. Ular o'zlaridagi keng dunyoqarash

va bilimdonliklari bilan ajralib turadilar. Ularda mehnatga munosabat ijobiy bo'lib, Vatanga muhabbat hissi rivojlangan. Yoshlar har sohada mustaqillikka intiladilar, lekin, shuning bilan birgalikda ularga jamoa ta'siriga beriluvchanlik xos. Ulardagi fikr yuritish va faoliyat tarzi tengdoshlariga va atrofdagilarga bog'liq bo'lib, boshqalarga o'zini ko'rsatib qo'yish istagi ularda tez-tez paydo bo'lib turadi. Tajribasiz bo'lganliklari uchun ham bu harakatlar qo'pol, agressiv usullar bilan amalga oshiriladi. Bu yoshdagi kishilar atrofdagi voqea-hodisalarga baho berishda ko'proq maksimalizm (bir yoqlamalik)ga berilishadi. Bunga sabab ulardagi sabr-toqatning yo'qligi. Shuningdek, ularga yana tug'ilib o'sgan joylariga nisbatan ma'naviy-ruhiy jihatdan bog'lanib qolish hodisasi ham xos bo'lib, bu narsa xizmat davrida ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi.

Yosh askarlarni safga qo'yishda harbiy qism va bo'linmalardagi katta askarlar yordamidan foydalanish lozim. Katta askarlar bo'linmada shakllangan an'analarning barqaror tashuvchilari hisoblanadilar. Ularning bilim va tajribalaridan ekipajlarni tuzishda hamda yosh askarlarga biriktirib qo'yish orqali ham foydalanish mumkin.

7.2. Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar

Muayyan bir bo'linma harbiy xizmatchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ushbu jamoa psixologiyasining muhim elementi hisoblanadi. *Hamkorlikdagi hayot va faoliyat jarayonida jamoadagi kishilar o'rtasida paydo bo'ladigan har xil aloqa va muloqot shakllariga o'zaro munosabatlar deyiladi.* Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari harbiy jamoalaridagi o'zaro munosabatlar jangovar tayyorgarlik, o'qish, mehnat hamda kundalik hayot jarayonida shakllanadi. Bunda O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy va davlat tuzimi, jamiyatimizda shakllanib kelayotgan milliy istiqlol mafkurasi harbiy xizmatchilar orasidagi o'zaro munosabatlar uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilar har doim jamoa muhitida bo'ladilar. Shuning uchun ham shaxslararo munosabatlar aniq bir tizimga solingan bo'lib, ular harbiy nizomlar bilan tartibga solib turiladi. Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlar quyidagi shakllarda bo'ladi: Xizmatga oid, xizmatdan tashqari (maishiy) va shaxsiy munosabatlar.

Xizmatga oid munosabatlar xizmatni o‘tashda, jangda va kundalik hayotda nihoyatda zarur bo‘lib, har bir kishidan eng avvalo, jangovar, xizmatga va mehnatga oid, ijtimoiy-siyosiy majburiyatlarni so‘zsiz bajarishni taqozo etadi. Ushbu o‘zaro munosabatlar harbiy jamoaning tashkiliy tuzilishida rasman mustahkamlab qo‘yilgan. Bundan tashqari, ular harbiy nizom, buyruq, qoida va qo‘llanmalarda bayon etilgan bo‘ladi. Komandirlarning faoliyatlari ushbu o‘zaro munosabatlarni qaror toptirishga, mustahkamlashga va boshqarishga qaratiladi. Xizmatga oid o‘zaro munosabatlar tizimi muntazam qaror toptirib boriladi. Masalan, xizmat faoliyatining u yoki bu jarayonida harbiy xizmatchilarni qayta taqsimlash, majburiyatlarni belgilash va vazifalarni taqsimlash, hisobot vaqti va shaklini ko‘rsatish, xizmatda kamchiliklar bo‘lganda jazolash shular sirasiga kiradi. Ammo, xizmat davrida ham, undan tashqarida ham iroda, ong va hissiyotga ega bo‘lgan kishilar o‘zaro ta’sirlashadilar. Shuning uchun ham xizmatga oid munosabatlarni shaxsiy munosabatlardan, shaxsiy munosabatlarni esa xizmatdan tashqari munosabatlardan butunlay ajratib bo‘lmaydi. Xizmat vaqtida ham, xizmatdan tashqari holatlarda ham o‘ziga xos his-tuyg‘ularga, irodaviy sifatlarga, tafakkur va dunyoqarashga ega bo‘lgan insonlar o‘zaro munosabatlarga kirishadilar. Bu esa harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi munosabatlarning chuqur ruhiy-emotsional mazmunga ega ekanligidan dalolat beradi.

Bo‘linmadagi o‘zaro munosabatlar kishilar xulq-atvoriga juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Askarning o‘z komandiriga bo‘lgan ichki subyektiv munosabati unda harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Qandaydir sabablarga ko‘ra, ushbu munosabat salbiy bo‘lsa, bo‘ysunish majburiy, xizmat jarayoni esa zerikarli bo‘ladi, natijada kelishmovchilik va ko‘ngilsiz holatlar kelib chiqadi. Aksincha, komandir va askar o‘rtasidagi ijobiy munosabat xizmatni osonlashtirib, uni sevimli mashg‘ulotga aylantiradi. Bu esa askarlarda kerakli jangovar sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Bo‘linmalardagi harbiy intizomni mustahkamlashda o‘zaro munosabatlar mazmuni katta ahamiyatga ega: qayerda o‘zaro munosabatlar harbiy nizomlar asosiga qurilgan bo‘lsa, o‘sha joyda harbiy intizom mustahkam bo‘ladi.

Harbiy bo‘linmadagi o‘zaro munosabatlar har xil ichki va tashqi omillar ta’sirida o‘zgarib turadi. Zamonaviy harbiy texnika va

qurollarning murakkablashganligi, ularning bir nechta kishilar tomonidan boshqarilishi bo'linmadagi va har bir harbiy xizmatchidagi mas'uliyat hissini nihoyatda oshiradi. Ularni boshqarishda aniqlik va hushyorlik, harakatlardagi o'zaro muvofiqlik talab etiladi. Bularning hammasi harbiy xizmatchilarni bitta jamoa atrofiga birlashtiradi, har bir kishining umumiy ish uchun mas'uliyatini oshiradi.

Insonlarga o'tkazadigan ta'siriga ko'ra, shaxsiy munosabatlar o'zaro munosabatlar tizimida alohida o'rin tutadi. Bunday munosabatlar stixiyali ravishda qaror topadi (yoqtirish, yoqtirmaslik, befarqlik, do'stlik, xayrixohlik va hokazo). Kundalik hayotda bunday munosabatlarga har doim ham e'tibor berilavermaydi. Ammo, shaxsiy munosabatlar katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, doimiy e'tiborni hamda izchil boshqaruvni taqozo qiladi.

Kundalik harbiy xizmat jarayonida harbiy xizmatchilar amalga oshiradigan har xil o'zaro aloqalar va muloqotlar jamoadagi o'zaro munosabatlar tizimini tashkil etadi. Aynan ushbu jarayonda shaxslar va jamoalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv shakllari paydo bo'ladi va rivojlanadi. O'zaro munosabatlar tizimi jamoadagi rahbarlik usullariga, ijtimoiy-psixologik muhitga, an'analarga, harbiy intizomga va shaxsiy tarkibning o'z vazifalariga bo'lgan munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sanab o'tilgan omillar esa jamoaning rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Ma'lumki, harbiy bo'linmalardagi o'zaro munosabatlar umumharbiy nizomlar va axloq me'yorlari bilan tartibga solib turiladi. O'zaro hurmat, jangovar o'rtoqlik, jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etish, har qanday sharoitda ham o'rtoqlariga yordam berishga intilish kabilar harbiy nizomlarga asoslangan o'zaro munosabatlarga xos.

Boshliqlar va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yakkaboshchilik, turli toifadagi harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlarda ma'lum masofani saqlash, o'zaro hurmat va boshliqlarning obro'si kabi tamoyillarga asoslanadi. Boshliq va komandirlarga so'zsiz bo'ysunish harbiy xizmatchi shaxsini erga urmaydi. Chunki, ularning qiziqishlari o'zaro mos keladi, ular bir maqsad, Vatan himoyasi uchun xizmat qiladilar. Jamoada harbiy nizomlarga asoslangan o'zaro munosabatlarni shakllantirish ko'p jihatdan askarlarning jamoaga moslashuviga, ularning muloqot usullariga va ruhiy jihatdan qanchalik mosliklariga bog'liq bo'ladi.

Ushbu ko'rsatkichlarni bilgan holda bo'linmadagi o'zaro munosabatlarni boshqarish mumkin.

O'zaro munosabatlarning har qanday shaklida turli xil ijtimoiy-psixologik hodisalar yuz berib turadi. Shunday hodisalardan biri *taqlid* bo'lib, inson shaxsining kamol topishida uning o'rnini beqiyos, har qanday inson hayotda kimgadir taqlid qiladi, unga o'xshashga harakat qiladi. Psixologlar tili bilan aytganda, insonlardagi ijtimoiy bilim va tajriba manbalaridan biri - taqliddir.

Munosabatlarda paydo bo'ladigan yana bir ijtimoiy - psixologik hodisa *musobaqa* yoki o'zaro raqobat hisoblanadi. Musobaqa insonlarni faollashtiruvchi ta'sir kuchiga ega. Ushbu hodisadan bo'linmalardagi jangovar va ijtimoiy - siyosiy tayyorgarlik darajasini oshirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlar boshliqlar va bo'ysunuvchilar, kattalar va kichiklar, shuningdek, o'zaro tenglar o'rtasidagi munosabatlarga bo'linadi. Bunday munosabatlarning mazmuni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining intizom nizomida bayon etilgan.

7.3. Ijtimoiy fikr va jamoa kayfiyati haqida tushuncha

Ijtimoiy fikr yoki *jamoa fikri* - jamoa psixologiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. *Biron bir voqea - hodisaga nisbatan harbiy bo'linma a'zolaridagi fikrlar, baholar yig'indisiga ijtimoiy yoki jamoa fikri, deyiladi.* Jamoa fikri ommaviy ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, odamlar o'rtasidagi g'oyalar, fikrlar, e'tiqodlar va hissiyotlarning o'zaro almashinuvida rivojlanadi. Bu jarayonda davlat yuritayotgan siyosat va ayniqsa, jamiyatimizda shakllanayotgan g'oyalar katta rol o'ynaydi. Jamoa fikri, bu, o'zaro ta'sirlashuvlarda ma'lum bir o'zgarishlarga uchragan shaxsiy fikrlarning o'ziga xos eritmasidan iborat. U jamoa ma'naviy hayotining juda ham murakkab va tez o'zgaruvchan hodisasi hisoblanadi. Jamoa fikri ijtimoiy ongning ifodalashning o'ziga xos maxsus shakli bo'lib, u o'zida mafkura va ijtimoiy psixologiya unsur (element)larini birlashtirgan bo'ladi. Shuning uchun ham bo'linmalarda ijtimoiy fikrni shakllantirmay turib, mustahkam harbiy intizom, yuksak jangovar tayyorgarlik hamda harbiy jamoa a'zolarining ijtimoiy faolligiga erishib bo'lmaydi. Jamoa fikri o'z mohiyat e'tibori bilan boshqariladigan hodisa. Uni boshqarish, ma'lum bir tomonga maqsadga muvofiq ravishda

yoʻnaltirish mumkin. Harbiy xizmatchilarda mafkura, gʻoya, fikr va maqsadlarni shakllantirishda komandirlar, jamoa faollari, rasmiy va norasmiy liderlar katta rol oʻynaydilar. Harbiy xizmatchilarning oʻz komandirlariga yoki safdoshlariga nisbatan taqlid qilishlari jamoada gʻoyaviy asosdagi birlikka erishishda katta ahamiyatga ega. Jamoada gʻoyaviy birlikka erishishda ijtimoiy fikr asos boʻlib xizmat qiladi. Buning uchun esa ijtimoiy fikr yakdil va umumiy boʻlishi lozim. Jamoa fikrining tez oʻzgaruvchanlik xususiyatini yuqorida aytib oʻtgan edik, komandirning asosiy vazifasi mana shu oʻzgarishlarni kerakli tomonga yoʻnaltirishdan iborat.

Shu maʼnoda askarlar u yoki bu voqeani faol muhokama qilishayotgan vaqtni qoʻldan boy bermasliklari lozim. Ular stixiyali oʻzaro muhokama va munozara jarayonida u yoki bu fikrga kelishadi. Ushbu vaziyatda maʼlum bir askarlardagi notoʻgʻri fikrlardan xalos boʻlish uchun voqeaning asl sabab va mohiyatini tushuntirib berish katta ahamiyatga ega. Baʼzan alohida bir kishining (liderning yoki oddiy aʼzoning ham) fikri butun boshli jamoaning fikriga aylanishi mumkin. Agar bunday kishilardagi fikrlar guruhning haqiqiy maqsadlariga zid boʻlsa, ulardan ehtiyot boʻlish kerak.

Jamoa fikrini bilishning, oʻrganishning yagona yoʻli shaxsiy tarkibga yaqin boʻlishdir. Ayniqsa, muhim masalalarni, aytaylik jangovar vazifalarni bajarishdan oldin, salbiy individual fikrlarning oldini olish juda ham zarur. Boʻlinmada toʻgʻri va haqiqiy ijtimoiy fikrni shakllantirish uchun jamoa oldiga va alohida olingan har bir harbiy xizmatchi oldiga aniq talablar qoʻyish kerak boʻladi. Shu narsani esdan chiqarimaslik kerakki, jamoa fikri jamoaning har bir aʼzosiga nainki ijobiy, balki, salbiy taʼsir ham koʻrsatishi mumkin. Bu narsa koʻproq salbiy ijtimoiy fikr mavjud boʻlgan boʻlinmalarga xos boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlarida boʻlinmalardagi jangovar tayyorgarlik va ichki intizomni mustahkamlash maqsadida ofitserlarning jamoa fikridan har tomonlama foydalanishlari zarurligi koʻrsatib oʻtilgan.

Har xil odamlarni bir jamoaga birlashtiruvchi asoslar turlichadir. Shulardan birinchisi - askarlardagi qarashlar, fikrlar, qiziqish va eʼtiqodlarning oʻxshashligi yoki umumiyliigi. Bunday kishilarga hamfikrlar ham deyiladi.

Ikkinchisi esa, askarlarning hamkorlikdagi hayot faoliyatlarida shakllanadi; qurollar va harbiy texnikaga birgalikda xizmat ko'rsatish, umumiy vazifalarni bajarayotganda yakka tartibdagi xatti-harakatlarni o'zaro kelishib olish zarurligi kabilar. Uchinchidan, askarlardagi ichki tuyg'u hisoblanadi. O'zining o'rtog'iga nisbatan hurmat va ishonch tuyg'usiga ega askar yordamida umumiy ish jarayoni ko'tarinki faoliyatga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy jamoalariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar quyidagilar:

-siyosiy, axloqiy va g'oyaviy birlik;

-umumiy dunyoqarash va Vatan himoyasi uchun shaxsiy hamda jamoa mas'ulligi.

Jamoaning shakllanishi va birlashishi jarayonida umumiy ma'naviy qadriyatlar tizimi yaratiladi. Ma'naviy qadriyatlar ta'sirida harbiy jamoa fikri shakllanadi. *Jamoa fikri deb, biron bir masalaga nisbatan jamoa a'zolarida paydo bo'lgan fikrlar majmuasiga aytiladi.* Harbiy faoliyat harbiy jamoada amalga oshiriladi, ushbu faoliyat jarayonida harbiy xizmatchilar o'rtasida harakatlarni o'zaro taqsimlash katta ahamiyatga ega. Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari qism va bo'linmalaridagi ijtimoiy fikr butun jamiyatimiz miqyosidagi ijtimoiy fikrga to'la mos keladi. Bu esa mustahkam harbiy intizom va yuksak jangovar tayyorgarlikning asosiy omili hisoblanadi.

Agar harbiy xizmatchilar jamoaga xos ko'nikma va malakalarga ega bo'lsalar, o'zaro ta'sirlashuv, shuningdek, jamoa faoliyati ham samarali, uzluksiz hamda ziddiyatlarsiz bo'ladi. Har bir jamoa o'ziga xos tuzulishga ega bo'ladi. A'zolarining ma'lum holatni, mavqeni egallashi, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jamoa tuzilishini tashkil etadi. Barqaror tuzilishga ega jamoalarda har bir harbiy xizmatchining mavqei ham mustahkam bo'lib, yaxshi samara beradi.

Jamoa kayfiyati, jamoa a'zolarida u yoki bu hodisaga nisbatan paydo bo'ladigan hissiyotlar majmuasi. Jamoa kayfiyati juda katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, harbiy xizmatchilar xulq-atvori va faoliyatining motivi hisoblanadi. Jamoa kayfiyatining ba'zi turlari (ishtiyoq, muvaffaqiyatga bo'lgan ishonch, ko'tarinki kayfiyat) uning muvaffaqiyatiga omil bo'lsa, boshqalari (yomon kayfiyat, o'z kuchiga ishonmaslik, zerikish, xafalik va norozilik) esa aksincha, jamoaning imkoniyatlarini pasaytiradi.

Bundan tashqari harbiy jamoalar o'ziga xos an'analar ega bo'ladilar. *Jamoaning o'ziga xos biron bir xususiyatini vaqt o'tishi bilan saqlab qolish hodisasiga an'ana deyiladi.* Umuman jamiyatda, xususan esa jamoada kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot va munosabatlarda paydo bo'ladigan hodisalar ko'p hollarda urf-odat yoki an'ana shakliga kiradi. Harbiy bo'linmadagi kayfiyat, uning faoliyat va hayot tarzi, komandirning rahbarlik uslubi hamda harbiy xizmatchilarning o'ziga xos xulq-atvorlari ham an'ana darajasiga ko'tarilishi mumkin. An'analar umuminsoniy, milliy, hududiy va jamoaviy bo'ladi. Ular jamoada o'ziga xos ijtimoiy "elim" vazifasini o'taydi: aynan an'analar jamoani bir butunlikda ushlab turadi. Shu bilan birgalikda u jamoaga o'ziga xoslik va joziba baxsh etadi. Mazmunan an'analar mehnat, sport, jangovar va hokazo turlarga bo'linadi.

Shuningdek, jamoa yana o'ziga xos ijtimoiy-psixologik muhit bilan ham xarakterlanadi. Ijtimoiy-psixologik muhit (mikromuhit, axloqiy muhit) murakkab tushuncha bo'lib, u o'z ichiga har bir harbiy xizmatchidagi his-tuyg'ularni, ulardagi ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilganlik darajasini (muloqot, o'zaro hurmat, do'stlik, qobiliyatlarini namoyon qilish darajasi va hokazo) va jamoa kayfiyatini oladi. *Bir vaqtda jamoaning hamma a'zolarida yoki ularning ko'pchiligida namoyon bo'ladigan his-tuyg'ular va kechinmalar majmuasiga jamoa kayfiyati deyiladi.*

Agar alohida bir shaxsdagi kayfiyat fiziologik, psixologik va boshqa ijtimoiy omillarga bir xil darajada bog'liq bo'lsa, jamoa kayfiyati esa, eng avvalo, ijtimoiy munosabatlar butun tizimi (iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, ma'naviy) natijasi hisoblanadi. Ijtimoiy hayot esa insonlar hayotining moddiy va ma'naviy sharoitlari bilan belgilanadi.

Kayfiyat psixologiyaning harakatchan elementi bo'lib, juda tez o'zgarib turadi. Bir kishida paydo bo'lgan kayfiyat tezda boshqalarga ham yuqib, ularni ham "ruhan oziqlantirishi" mumkin. Aynan shu yerda taqlid qilishning ijtimoiy-psixologik qonuni amal qiladi, unga ko'ra ijobiy holatlar bilan birgalikda salbiy holatlar ham tez tarqaladi (masalan, yomon xulq-atvor). Yomon kayfiyat harbiy xizmatchilar orasida uchrab turadi. Uning g'oyaviy sabablari yo'q, balki psixologik sabablari mavjud. Salbiy kayfiyatlarning oldini olishning eng to'g'ri yo'li bo'linmada nizom talablarini joriy qilish, xizmatni, mehnatni va

dam olishni to'g'ri tashkil etish, shuningdek, harbiy xizmatchilar haqida har tomonlama g'amxo'rlik qilishdan iborat. Harbiy xizmatchilarga mamlakatimizdagi va dunyodagi ahvol haqida muntazam axborot berib borish muhim ahamiyatga ega. Avvalo, komandirlarning o'zlarida o'z faoliyatlariga nisbatan ishonch va tetiklik bo'lishi kerak. Ular endigina bir yoki bir nechta harbiy xizmatchilarda paydo bo'lgan salbiy kayfiyatlarni o'z vaqtida ilg'ashlari va oldini olishlari lozim. Jamoalarda shakllangan harbiy an'analar ijobiy kayfiyat manbai hisoblanadi: Vatanga qasamyod qabul qilish, saf ko'rigi, qurollar va harbiy texnika ko'rigi, kechki yo'qlama, yosh askarlarni jamoaga qabul qilish, bayramlar, qorovul almashinuvi, harbiy qismga jangovar bayroq topshirish kabilar.

7.4. Harbiy jamoaning psixologik manzarasini tuzish tartibi

Harbiy jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni belgilab beruvchi omillardan biri, o'zaro munosabatlarning o'ziga xos shakli bo'lgan obro' (obro'-e'tibor yoki nufuz) hisoblanadi. Obro', bir kishi (guruh)ning boshqa kishi (guruh)larga o'tkazadigan ijtimoiy-psixologik ta'siri. Masalan, rahbar yoki komandirning o'z qo'l ostidagilariga, o'qituvchining o'quvchilariga, jamoaning shaxsga va yuqori tashkilotlarning quyi tashkilotlarga ko'rsatadigan ta'siri. Guruh paydo bo'lishi bilan obro' hodisasi ham paydo bo'ladi va u kishilar o'rtasidagi muloqot-munosabatlarning ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi. Bo'linma komandirining obro'si harbiy xizmatchilar o'rtasidagi harbiy intizomni mustahkamlashda, ularni o'qitish va tarbiyalash jarayonida muvaffaqiyatga erishishning asosiy sharti hisoblanadi. Shuni unutmash kerakki, obro'li komandir obro'siz komandirga qaraganda juda katta ta'sir kuchiga ega.

Ammo, hech qachon zo'ravonlik bilan obro' qozonib bo'lmaydi. Obro', jamoadagi mavjud o'zaro munosabatlarning hamda alohida bir shaxsdagi ijobiy sifatning mahsuli hisoblanadi. Obro'-e'tiborda har doim o'sha insonga nisbatan hurmat, uning kuchiga va imkoniyatlariga ishonch o'z ifodasini topadi. Obro'ning yana bir ahamiyati shundaki, usiz jamiyatda va alohida harbiy bo'linmada birona ham tashkiliy faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi.

Obro' ishontirish kuchiga ega. Unga ega bo'lgan kishi atrofdagilarga kuchli ta'sir eta oladi. Jamoadagi obro'li shaxsga bo'lgan ishonch shu jamoani jipslashtiruvchi omil bo'lib xizmat

qiladi. Har qanday jamoada bitta emas, balki bir nechta obro‘li kishilar bo‘lishi mumkin: komandir, yaxshi mutaxassis, harbiy jamoa faollari, sportchi va hokazo. Shuningdek, oddiy askarlar orasida ham shundaylari ko‘plab topiladi. Oddiy harbiy xizmatchining obro‘si uning xizmatdoshlari o‘rtasida o‘ziga xos yuqori mavqeni egallashini bildiruvchi mezon bo‘lib, undagi hurmat, tajriba, bilimlar, qobiliyatlar, axloqiy-psixologik va jismoniy sifatlarga asoslanadi. Lekin, shu narsani afsus bilan ta’kidlab o‘tish kerakki, biz hayotda obro‘tushunchasida kattalar yoki komandirlarning mavqeini anglashga o‘rganib qolganmiz. Obro‘ga nisbatan bunday bir tomonlama qarash harbiy xizmatchilarni jamoada tarbiyalash tamoyiliga zid hisoblanadi. Aynan oddiy askarlar o‘rtasidagi obro‘li harbiy xizmatchilar jamoaning boshqa a’zolarini tarbiyalashda katta imkoniyatga ega bo‘ladilar. Harbiy bo‘linmada obro‘li kishilarning ko‘p bo‘lishi jamoa ma’naviy hayotining boyligini, rang-barangligini, uning imkoniyatlari kengligini bildiradi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, jamoada obro‘li - katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan kishilarning ko‘p bo‘lishi ba’zan ushbu jamoada nosog‘lom muhitning yuzaga kelishiga - o‘zaro qarama-qarshi turuvchi kichik guruhlarining shakllanishiga ham sababchi bo‘lishi mumkin. Natijada jamoa mayda guruhlarga bo‘linib, zaiflashadi.

Intizom ham harbiy bo‘linmalardagi o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, umumharbiy nizomlar va, axloq me’yorlari, komandirlarning buyruq va ko‘rsatmalari, ijtimoiy va jamoa fikri, an’analar, obro‘ kabi vositalar bilan boshqariladi. Har qanday intizom, jumladan, harbiy intizom asosida huquq va axloq yotadi. Umumharbiy nizomlar harbiy intizomni, harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi munosabatlarni hamda kundalik xizmat faoliyatida paydo bo‘ladigan muayyan sharoitlarda qanday harakat qilishni tartibga soladi.

Tajribalarning ko‘rsatishicha, harbiy intizom buzilishining asosiy sababi harbiy xizmatchilarning umumharbiy nizomlarni qisman yoki umuman bilmasliklari ekan. Shuning uchun ham askar va serjantlarning harbiy nizomlarni bilishlariga erishish katta ahamiyatga ega. Harbiy intizomga o‘rgatishda uning uslubiyati muhim rol o‘ynaydi. Nizomlarni o‘rgatish, odatda, ofitserning ular haqidagi hikoyasidan, tushuntirishidan boshlanadi. U yosh askarlarga harbiy nizomlarning turlari, ularning nima maqsadda yaratilganligi, jangovar tayyorgarlikdagi ahamiyati haqida so‘zlab beradi. Shundan keyin esa

alohida moddalarni o'qib o'rganishga, ularni hayotiy misollar bilan mustahkamlashga o'tiladi ba'zi ofitserlar esa nizomlarni o'rgatishda noto'g'ri yo'ldan borishadi. Harbiy xizmatchilardan ma'lum bir moddalarni yoki qoidalarni to'laligicha yod olishni talab qilishadi. Bunday munosabat kishilarning o'z vazifalariga nisbatan sovuqqonliklariga, ulardagi aqliy faoliyatning zaiflashuviga olib keladi.

Quyidagilar jamoada ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit bo'lishining asosiy shartlari hisoblanadi: jamoaning barqaror tarkibi; shaxsiy tarkib o'rtasidagi psixologik moslik; umumiy natija uchun hammaning harakat qilishi.

7.5.Bo'linmada ijtimoiy fikrni shakllantirish tartibi

Ijtimoiy fikr yoki *jamoat fikri* - jamoa psixologiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. *Biron-bir voqea - hodisa nisbatan harbiy bo'linma a'zolaridagi fikrlar, baholar yig'indisiga ijtimoiy yoki jamoa fikri, deyiladi.* Jamoa fikri ommaviy ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, odamlar o'rtasidagi g'oyalar, fikrlar, e'tiqodlar va hissiyotlarning o'zaro almashinuvida rivojlanadi. Bu jarayonda davlat yuritayotgan siyosat va ayniqsa, jamiyatimizda shakllanayotgan g'oyalar katta rol o'ynaydi. Jamoa fikri - bu o'zaro ta'sirlashuvlarda ma'lum bir o'zgarishlarga uchragan shaxsiy fikrlarning o'ziga xos eritmasidan iborat. U jamoa ma'naviy hayotining juda ham murakkab va tez o'zgaruvchan hodisasi hisoblanadi. Jamoa fikri ijtimoiy ongning ifodalashning o'ziga xos maxsus shakli bo'lib, U o'zida mafkura va ijtimoiy psixologiya unsur (element)larini birlashtirgan bo'ladi. Shuning uchun ham bo'linmalarda ijtimoiy fikrni shakllantirmay turib, mustahkam harbiy intizom, yuksak jangovar tayyorgarlik hamda harbiy jamoa a'zolarining ijtimoiy faolligiga erishib bo'lmaydi. Jamoa fikri o'z mohiyat e'tibori bilan boshqariladigan hodisa. Uni boshqarish - ma'lum bir tomonga, maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirish mumkin. Harbiy xizmatchilarda mafkura, g'oya, fikr va maqsadlarni shakllantirishda komandirlar, jamoa faollari, rasmiy va norasmiy liderlar katta rol o'ynaydilar. Harbiy xizmatchilarning o'z komandirlariga yoki safdoshlariga nisbatan taqlid qilishlari jamoada g'oyaviy asosdagi birlikka erishishda katta ahamiyatga ega. Jamoada g'oyaviy birlikka erishishda ijtimoiy fikr asos bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun esa ijtimoiy fikr yakdil va umumiy bo'lishi lozim.

Jamoa fikrining tez o'zgaruvchanlik xususiyatini yuqorida aytib o'tgan edik, komandirning asosiy vazifasi mana shu o'zgarishlarni kerakli tomonga yo'naltirishdan iborat.

Shu ma'noda, askarlar, u yoki bu voqeani faol muhokama qilishayotgan vaqtni qo'ldan boy bermaslik lozim. Ular stixiyali o'zaro muhokama va munozara jarayonida u yoki bu fikrga kelishadi. Ushbu vaziyatda ma'lum bir askarlardagi noto'g'ri fikrlardan xalos bo'lish uchun voqeaning asl sabab va mohiyatini tushuntirib berish katta ahamiyatga ega. Ba'zan alohida bir kishining (liderning yoki oddiy a'zoning ham) fikri, butun boshli jamoaning fikriga aylanishi mumkin. Agar bunday kishilardagi fikrlar, guruhning haqiqiy maqsadlariga zid bo'lsa, ulardan ehtiyot bo'lish kerak.

Jamoa fikrini bilishning, o'rganishning yagona yo'li, shaxsiy tarkibga yaqin bo'lishdir. Ayniqsa, muhim masalalarni, aytaylik jangovar vazifalarni bajarishdan oldin salbiy individual fikrlarning oldini olish juda ham zarur. Bo'linmada to'g'ri va haqiqiy ijtimoiy fikrni shakllantirish uchun jamoa oldiga va alohida olingan har bir harbiy xizmatchi oldiga aniq talablar qo'yish kerak bo'ladi. Shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, jamoa fikri, jamoaning har bir a'zosiga nainki ijobiy, balki, salbiy ta'sir ham ko'rsatishi mumkin. Bu narsa ko'proq salbiy ijtimoiy fikr mavjud bo'lgan bo'linmalarga xos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlarida bo'linmalardagi jangovar tayyorgarlik va ichki intizomni mustahkamlash maqsadida ofitserlarning jamoa fikridan har tomonlama foydalanishlari zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Har xil odamlarni bir jamoaga birlashtiruvchi asoslar turlichadir. Shulardan birinchisi - askarlardagi qarashlar, fikrlar, qiziqish va e'tiqodlarning o'xshashligi yoki umumiyliigi. Bunday kishilarga hamfikrlar ham deyiladi.

Ikkinchisi esa, askarlarning hamkorlikdagi hayot faoliyatlarida shakllanadi; qurollar va harbiy texnikaga birgalikda xizmat ko'rsatish, umumiy vazifalarni bajarayotganda yakka tartibdagi xatti-harakatlarni o'zaro kelishib olish zarurligi kabilardir.

Uchinchidan, askarlardagi ichki tuyg'u hisoblanadi. O'zining o'rtog'iga nisbatan hurmat va ishonch tuyg'usiga ega askar yordamida, umumiy ish jarayoni ko'tarinki faoliyatga aylanadi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy jamoalariga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar quyidagilar:

- siyosiy, axloqiy va g‘oyaviy birlik;

umumiy dunyoqarash va Vatan himoyasi uchun shaxsiy hamda jamoa mas’ulligi.

Jamoaning shakllanishi va birlashishi jarayonida umumiy ma’naviy qadriyatlar tizimi yaratiladi. Ma’naviy qadriyatlar ta’sirida harbiy jamoa fikri shakllanadi. *Jamoa fikri deb, biron bir masalaga nisbatan jamoa a’zolarida paydo bo‘lgan fikrlar majmuasiga aytiladi.* Harbiy faoliyat, harbiy jamoada amalga oshiriladi, ushbu faoliyat jarayonida harbiy xizmatchilar o‘rtasida harakatlarni o‘zaro taqsimlash katta ahamiyatga ega. Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari qism va bo‘linmalaridagi ijtimoiy fikr butun jamiyatimiz miqyosidagi ijtimoiy fikrga to‘la mos keladi. Bu esa mustahkam harbiy intizom va yuksak jangovar tayyorgarlikning asosiy omili hisoblanadi.

Agar harbiy xizmatchilar jamoaga xos ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lsalar, o‘zaro ta’sirlashuv, shuningdek, jamoa faoliyati ham samarali, uzluksiz hamda ziddiyatlarsiz bo‘ladi. Har bir jamoa o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘ladi. A’zolarining ma’lum holatni, mavqeni egallashi, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jamoa tuzilishini tashkil etadi. Barqaror tuzilishga ega jamoalarda har bir harbiy xizmatchining mavqei ham mustahkam bo‘lib, yaxshi samara beradi.

Jamoa kayfiyati, jamoa a’zolarida u yoki bu hodisaga nisbatan paydo bo‘ladigan hissiyotlar majmuasi. Jamoa kayfiyati juda katta ta’sir kuchiga ega bo‘lib, harbiy xizmatchilar xulq-atvori va faoliyatining motivi hisoblanadi. Jamoa kayfiyatining ba’zi turlari (ishtiyoq, muvaffaqiyatga bo‘lgan ishonch, ko‘tarinki kayfiyat) uning muvaffaqiyatiga omil bo‘lsa, boshqalari (yomon kayfiyat, o‘z kuchiga ishonmaslik, zerikish, xafalik va norozilik) esa aksincha, jamoaning imkoniyatlarini pasaytiradi.

Bundan tashqari, harbiy jamoalar o‘ziga xos an’analariga ega bo‘ladilar. *Jamoaning o‘ziga xos biron bir xususiyatini vaqt o‘tishi bilan saqlab qolish hodisasiga an’ana deyiladi.* Umuman jamiyatda, xususan esa jamoada kishilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot va munosabatlarda paydo bo‘ladigan hodisalar ko‘p hollarda urf-odat yoki an’ana shakliga kiradi. Harbiy bo‘linmadagi kayfiyat, uning faoliyat va hayot tarzi, komandirning rahbarlik uslubi hamda harbiy xizmatchilarning o‘ziga xos xulq-atvorlari ham an’ana darajasiga

ko'tarilishi mumkin. An'analar umuminsoniy, milliy, hududiy va jamoaviy bo'ladi. Ular jamoada o'ziga xos ijtimoiy "kley" vazifasini o'taydi: aynan an'analar jamoani bir butunlikda ushlab turadi. Shu bilan birgalikda, u jamoaga o'ziga xoslik va joziba baxsh etadi. Mazmunan an'analar mehnat, sport, jangovar va hokazo turlarga bo'linadi.

Shuningdek, jamoa yana o'ziga xos ijtimoiy-psixologik muhit bilan ham xarakterlanadi. Ijtimoiy-psixologik muhit (mikromuhit, axloqiy muhit) murakkab tushuncha bo'lib, u o'z ichiga har bir harbiy xizmatchidagi his-tuyg'ularni, ulardagi ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilganlik darajasini (muloqot, o'zaro hurmat, do'stlik, qobiliyatlarini namoyon qilish darajasi va hokazo) va jamoa kayfiyatini oladi. *Bir vaqtda jamoaning hamma a'zolarida yoki ularning ko'pchiligida namoyon bo'ladigan his-tuyg'ular va kechinmalar majmuasiga jamoa kayfiyati deyiladi.*

Agar alohida bir shaxsdagi kayfiyat fiziologik, psixologik va boshqa ijtimoiy omillarga bir xil darajada bog'liq bo'lsa, jamoa kayfiyati esa eng avvalo, ijtimoiy munosabatlar butun tizimi (iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, ma'naviy) natijasi hisoblanadi. Ijtimoiy hayot esa insonlar hayotining moddiy va ma'naviy sharoitlari bilan belgilanadi.

Kayfiyat psixologiyaning harakatchan elementi bo'lib, juda tez o'zgarib turadi. Bir kishida paydo bo'lgan kayfiyat tezda boshqalarga ham yuqib, ularni ham "ruhan oziqlantirishi" mumkin. Aynan shu yerda taqlid qilishning ijtimoiy-psixologik qonuni amal qiladi, unga ko'ra ijobiy holatlar bilan birgalikda salbiy holatlar ham tez tarqaladi (masalan, yomon xulq-atvor, axmoqona xatti - harakat). Yomon kayfiyat harbiy xizmatchilar orasida uchrab turadi. Uning g'oyaviy sabablari yo'q, balki psixologik sabablari mavjud. Salbiy kayfiyatlarning oldini olishning eng to'g'ri yo'li bo'linmada nizom talablarini joriy qilish, xizmatni, mehnatni va dam olishni to'g'ri tashkil etish, shuningdek, harbiy xizmatchilar haqida har tomonlama g'amxo'rlik qilishdan iborat. Harbiy xizmatchilarga mamlakatimizdagi va dunyodagi ahvol haqida muntazam axborot berib borish muhim ahamiyatga ega. Avvalo, komandirlarning o'zlarida o'z faoliyatlariga nisbatan ishonch va tetiklik bo'lishi kerak. Ular endigina bir yoki bir nechta harbiy xizmatchilarda paydo bo'lgan salbiy kayfiyatlarni o'z vaqtida ilg'ashlari va oldini olishlari lozim.

Jamoalarda shakllangan harbiy an'analar ijobiy kayfiyat manbai hisoblanadi: harbiy qasamyod qabul qilish, saf ko'rigi, qurollar va harbiy texnika ko'rigi, kechki yo'qlama, yosh askarlarni jamoaga qabul qilish, bayramlar, qorovul almashinuvi, harbiy qismga jangovar bayroq topshirish kabilar.

Harbiy jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni belgilab beruvchi omillardan yana biri, o'zaro munosabatlarning o'ziga xos shakli bo'lgan obro' (obro'-e'tibor yoki nufuz) hisoblanadi. Obro', bir kishi (guruh)ning boshqa kishi (guruh)larga o'tkazadigan ijtimoiy-psixologik ta'siri. Masalan, rahbar yoki komandirning o'z qo'lostidagilariga, o'qituvchining o'quvchilariga, jamoaning shaxsga va yuqori tashkilotlarning quyi tashkilotlarga ko'rsatadigan ta'siri. Guruh paydo bo'lishi bilan obro' hodisasi ham paydo bo'ladi va u kishilar o'rtasidagi muloqot-munosabatlarning ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi. Bo'linma komandirining obro'si harbiy xizmatchilar o'rtasidagi harbiy intizomni mustahkamlashda, ularni o'qitish va tarbiyalash jarayonida muvaffaqiyatga erishishning asosiy sharti hisoblanadi. Shuni unutmaslik kerakki, obro'li komandir obro'siz komandirga qaraganda juda katta ta'sir kuchiga ega.

Ammo, hech qachon zo'ravonlik bilan obro' qozonib bo'lmaydi. Obro', jamoadagi mavjud o'zaro munosabatlarning, hamda alohida bir shaxsdagi ijobiy sifatlarning mahsuli hisoblanadi. Obro'-e'tiborda har doim o'sha insonga nisbatan hurmat, uning kuchiga va imkoniyatlariga ishonch o'z ifodasini topadi. Obro'ning yana bir ahamiyati shundaki, usiz jamiyatda va alohida harbiy bo'linmada bironta ham tashkiliy faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi.

Obro', ishontirish kuchiga ega. Unga ega bo'lgan kishi, atrofdagilarga kuchli ta'sir eta oladi. Jamoadagi obro'li shaxsga bo'lgan ishonch, shu jamoani jipslashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Har qanday jamoada bitta emas, balki bir nechta obro'li kishilar bo'lishi mumkin: komandir, yaxshi mutaxassis, harbiy jamoa faollari, sportchi va hokazo. Shuningdek, oddiy askarlar orasida ham shundaylari ko'plab topiladi. Oddiy harbiy xizmatchining obro'si, uning xizmatdoshlari o'rtasida o'ziga xos yuqori mavqeni egallashini bildiruvchi mezon bo'lib, undagi hurmat, tajriba, bilimlar, qobiliyatlar, axloqiy-psixologik va jismoniy sifatlarga asoslanadi. Lekin, shu narsani afsus bilan ta'kidlab o'tish kerakki, biz hayotda obro' tushunchasida kattalar yoki komandirlarning mavqegini anglashga

o'rganib qolganmiz. Obro'ga nisbatan bunday bir tomonlama qarash, harbiy xizmatchilarni jamoada tarbiyalash tamoyiliga zid hisoblanadi. Aynan oddiy askarlar o'rtasidagi obro'li harbiy xizmatchilar jamoaning boshqa a'zolarini tarbiyalashda katta imkoniyatga ega bo'ladilar. Harbiy bo'linmada obro'li kishilarning ko'p bo'lishi, jamoa ma'naviy hayotining boyligini, rang-barangligini, uning imkoniyatlari kengligini bildiradi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, jamoada obro'li - katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan kishilarning ko'p bo'lishi, ba'zan, ushbu jamoada nosog'lom muhitning yuzaga kelishiga, o'zaro qarama-qarshi turuvchi kichik guruhlarining shakllanishiga ham sababchi bo'lishi mumkin. Natijada, jamoa mayda guruhlarga bo'linib, zaiflashadi.

Intizom ham harbiy bo'linmalardagi o'ziga xos ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, umumharbiy nizomlar va, axloq me'yorlari, komandirlarning buyruq va ko'rsatmalari, ijtimoiy va jamoa fikri, an'analar, obro' kabi vositalar bilan boshqariladi. Har qanday intizom, jumladan harbiy intizom asosida huquq va axloq yotadi. Umumharbiy nizomlar harbiy intizomni, harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlarni hamda kundalik xizmat faoliyatida paydo bo'ladigan muayyan sharoitlarda qanday harakat qilishni tartibga soladi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, harbiy intizom buzilishining asosiy sababi harbiy xizmatchilarning umumharbiy nizomlarni qisman yoki umuman bilmasliklari ekan. Shuning uchun ham askar va serjantlarning harbiy nizomlarni bilishlariga erishish katta ahamiyatga ega. Harbiy intizomga o'rgatishda uning uslubiyati muhim rol o'ynaydi. Nizomlarni o'rgatish, odatda, ofitserning ular haqidagi hikoyasidan, tushuntirishidan boshlanadi. U yosh askarlarga harbiy nizomlarning turlari, ularning nima maqsadda yaratilganligi, jangovar tayyorgarlikdagi ahamiyati haqida so'zlab beradi. Shundan keyin esa alohida moddalarni o'qib o'rganishga, ularni hayotiy misollar bilan mustahkamlashga o'tiladi Ba'zi ofitserlar esa, nizomlarni o'rgatishda noto'g'ri yo'ldan borishadi, harbiy xizmatchilardan ma'lum bir moddalarni yoki qoidalarni to'laligicha yod olishni talab qilishadi. Bunday munosabat, kishilarning o'z vazifalariga nisbatan sovuqqonliklariga, ulardagi aqliy faoliyatning zaiflashuviga olib keladi.

Quyidagilar jamoada ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit bo'lishining asosiy shartlari hisoblanadi: jamoaning barqaror tarkibi;

shaxsiy tarkib o'rtasidagi psixologik moslik; umumiy natija uchun hammaning harakat qilishi.

Tayanch so'zlar: harbiy jamoa; o'zaro munosabatlar; taqlid; musobaqa; raqobat; ijtimoiy fikr; jamoa kayfiyati, an'analar.

Nazorat uchun savollar:

1. Harbiy jamoa nima? Unga ta'rif bering.
2. Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar deganda nimani tushunasiz?
3. Bo'linmadagi ijtimoiy fikr qanday shakllantiriladi?
4. Jamoa kayfiyati nima? U qanday boshqariladi?
5. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jamoalariga xos bo'lgan qanday an'analarni bilasiz?

5-MODUL: HARBIY – KASBIY FAOLIYAT PSIXOLOGIYASI

8-mavzu: Suitsid, uning ijtimoiy-psixologik sabalari

Reja:

- 1.Suitsid, uning ijtimoiy-psixologik sabablari.
- 2.Ruhiy bemor va sog‘lom kishilardagi suitsidal xulq-atvorlar.
- 3.Suitsidal xulq-atvorlarni aniqlash usullari.
- 4.Bo‘linmada suitsidni oldini olishda komandirning amalga oshiradigan tadbirlari.

8.1.Suitsid, uning ijtimoiy-psixologik sabablari.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga xos bo‘lgan muammolar umumjamiyat muammolarining bir qismi hisoblanadi. Chunki, Qurolli Kuchlar jamiyatning bir qismi ekan, ushbu muammolardan chetda, alohida mavjud bo‘lishi mumkin.

Professor A. Ambrumova o‘zini-o‘zi o‘ldirishni ijtimoiy (qisman tibbiy) muammo sifatida hisoblab, unga quyidagicha ta’rif bergan edi: suitsid, bu shaxsning ijtimoiy va psixologik jihatdan o‘zi boshidan kechirayotgan mikroijtimoiy kelishmovchiliklarga moslasha olmasligi.

Suitsidal xulq-atvoriga ega bo‘lgan kishilarni quyidagi uch (3) guruhga ajratish mumkin:

1. Ruhiiy kasallar;
2. Ruhiiy jihatdan stressga uchragan;
3. Sog‘lom kishilar.

Suitsidning ikki xili farq qilinadi:

1. Oxirigacha yetkazilgani (o‘zini o‘ldirish)
2. Oxirigacha yetkazilmagani.

Suitsidning bosqichlari:


1. Dunyoqarash bosqichi (suitsid haqida bilish);
2. Fikrlashning zaifligi (o‘limga rozi bo‘lish);
3. Faollik (o‘lish uchun nimadir qilish).

Suitsidal xatti-harakat-bu o‘zini o‘ldirishga intilish bo‘lib, lekin o‘lim bilan tugamaydi.

Suitsidal xulq-atvor ikki xil bo‘ladi:

1. Haqiqiy
2. Namoyish etish - yolg‘on (shantaj)

Ba'zi holatlarda inson o'lishga emas, balki, o'z muammolariga boshqalarning e'tiborini qaratishga harakat qiladi, shuningdek, stress holatidan chiqishni xohlaydi.



Juda ko'p harbiy xizmatchilarda suitsidga aloqador fikrlar xizmatgacha bo'lgan davrda tug'ilgan bo'lib, harbiy xizmatdagi qiyinchiliklar ushbu fikrlarni amalga oshirishga turtki vazifasini o'taydi, xolos. Kichik yoshdagi kishilarda suitsidal xatti-harakatlar qiyin vaziyatlar

ta'sirida paydo bo'ladi. Suitsid oldi holatlari bir necha soatdan bir necha kungacha davom etadi.

Ko'pincha o'z-o'zini o'ldirishga olib keladigan bahonalar haqiqiy sabab bilan mos keladi.

O'z muammolariga yechim topa olmaslik, umidsizlik kabilar suitsidga olib keladi.

Qiyin vaziyat bilan bog'liq his-tuyg'ular inson ongida ustunlik qiladi, bu esa atrofdagi voqelikni to'g'ri idrok qilishni cheklab qo'yadi, tanqidiy fikrlashni va muqobil yechim topishni qiyinlashtiradi. Natijada inson o'zi kelib qolgan vaziyatni ilojisiz deb qabul qiladi.

Jangovar vaziyatlarda har kungi xavf-xatar ta'sirida ba'zi bir harbiy xizmatchilarda hayotni qadrlash tuyg'usi zaiflashadi, shuningdek, xavf-xatarni his qilish pasayadi (o'tmaslashadi). O'zini saqlash instinkti zaiflashadi, bu esa suitsidal fikrlarning amalga oshishini yengillashtiradi. Urush vaqtida ba'zi askarlarning o'zlarini o'limga olib keluvchi qaltis harakat qilishlarini shu bilan izohlash mumkin. Ma'lumki, urush shaxsda agressivlikni, shafqatsizlikni (dushmanga nisbatan) tarbiyalaydi. Ulardagi ushba sifatlar muammoli vaziyatlarda atrofdagi kishilarga ham qaratilishi mumkin.

Olimlar tomonidan shunday faktlar ham aniqlanganki, insondagi boshqa kishilarga qaratilgan o'ch olish, norozilik bildirish va tovlamachilik qilish kabi intilishlar ba'zi bir vaziyatlarda o'z

yoʻnalishini oʻzgartirib, ushbu insonning oʻziga qaratilishi ham mumkin.

Harbiy xizmat sharoitida amalga oshiriladigan suitsidal xatti-harakatlarning 80 foizi muddatli harbiy xizmatchilar tomonidan amalga oshiriladi. Ularning 2/3 qismi esa xizmatning birinchi yarmini oʻtayotgan askar va serjantlar hissasiga toʻgʻri keladi. Shuni aytib oʻtish kerakki, oʻq otish qurollari vositasida amalga oshirilayotgan suitsidlar soni yildan- yilga oshib bormoqda. Ularning 75 foizi esa bevosita postlarda yoki qorovullik xizmatini oʻtash jarayonida amalga oshirilmoqda.

Harbiy xizmatchilar tomonidan suitsid hodisalarining sodir etilishida alkogolli ichimliklar ichish ham katta rol oʻynaydi.

Inson spirtli ichimliklar isteʼmol qilganda oʻzini oʻldirish haqidagi fikrlarning kelishi osonlashadi.

Jami suitsid hdisalarining 2/3 qismi shaxsiy tarkib bilan tarbiyaviy ishlarning yetarli darajada olib borilmasligi oqibatida yuz bermoqda.

Suitsidga intilgan harbiy xizmatchilarning 50 foizi jamoatchilik tadbirlarida umuman ishtirok etmas ekan. Demak, askarlarni jamoatchilik ishlariga faolroq jalb qilish yoʻli bilan ham suitsidning oldini olish mumkin boʻladi.

Odatda, suitsid qilish ehtimoli bor askarlar quyidagi belgilarga ega boʻladilar:

1. Hech kimga qoʻshilmasdan, oʻzi bilan oʻzi boʻlishlik;
2. Hissiyotga oʻta beriluvchanlik;
3. Xudbinlik, oʻzini-oʻzi yaxshi koʻrish;
4. Omadsizlik;
4. Boshqalardan ajralib qolish; atrofdagilarning hurmati va mehribonchiligidan mahrum boʻlish va hokazo.

8.2. Ruhiy bemor va sogʻlom kishilardagi suitsidal xulq-atvorlar

Ruhiy bemor kishilarda suitsid hodisalari koʻproq depressiyalar vaqtida yuz beradi. Ammo, shuni aytib oʻtish kerakki, ruhiy kasallik belgilari va suitsid hodisasi oʻrtasida bevosita bogʻliqlik mavjud emas. Yuqorida aytib oʻtganimizdek, jami suitsid hodisalarining bor-yoʻgʻi 10% foizigina ruhiy kasallar hissasiga toʻgʻri keladi. Bunday kishilar tomonidan sodir etiladigan suitsid xulq-atvorlarning aksariyati

depressiya, ruhiy tushkunlik vaqtlariga to'g'ri keladi. Bu ko'proq kasallarning stasionarlardan davolanib chiqqan vaqtlarida sodir bo'ladi.

Ruhiy jihatdan suitsidga moyil shaxslarni aniqlashda, oila shifokorlari yaxshigina yordamchi bo'lishlari mumkin. Ular oiladagi ahvol to'g'risida ko'proq ma'lumotga ega bo'lib, vaziyatni to'g'ri baholaydilar. Shuningdek, qiyin vaziyatlarda psixiatr va davolovchi psixologlar yordamini ham inkor qilmaslik kerak. Agar, zarurat bo'lsa, ularning maslahati bilan bemorni ruhiy kasalliklar shifoxonasiga yotqizish maqsadga muvofiq.

Bemor-suitsidentga nisbatan atrofdagilar tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va qo'llab-quvvatlash bir maromda saqlanishi, ushlab turilishi lozim. Undagi kritik-xavfli vaziyat o'tgandan so'ng ham unga qaratilgan e'tibor kamaymasligi maqsadga muvofiq. Chunki eng qiyini keyin sodir bo'lishi mumkin.

Sog'lom kishilar o'rtasida emotsional zo'riqishga uchragan shaxslar ko'proq suitsidga moyil bo'ladilar. Bunda, asosan, muammoli vaziyatlar katta rol o'ynaydi. Sog'lom kishilarda suitsid xulq-atvorning paydo bo'lishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

1. Emotsional zo'riqishlarga nisbatan chidamlilikning pasayishi;
2. Intellekt (aql)ning o'ziga xosligi (maksimalizm, dunyoqarashning torligi va hokazo);
3. Kommunikatsiya tizimlaridagi kamchiliklar;
4. O'z imkoniyatlarini noto'g'ri baholash;
5. Psixologik himoyaning zaifligi;
6. Hayotdan lazzatlanish (hayot ne'matlaridan) hissining pasayishi yoki butunlay yo'qolishi va hokazo.

Suitsidni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillar quyidagilar:

1. Atrofdagilarga emotsional bog'liqlik;
2. Ota-onalik majburiyatlari;
3. Burch va majburiyatlarni yuksak darajada his qilish;
4. O'z salomatligi haqida doimiy g'amxo'rlik;
5. Jamoatchilik fikri bilan hisoblashish;
6. Uyat hissining kuchli bo'lishi;
7. O'z-o'ziga suiqasd qilishni og'ir gunoh deb bilish;
8. Hayotda ijodiy rejalarining mavjudligi;

9. O‘zida hali ishga solinmagan imkoniyatlarning mavjudligiga ishonish.

10. Muammoli vaziyatdan suitsidga o‘tish quyidagi ikkita omilga bog‘liq bo‘ladi:

11. Ushbu muammoni hal qilish imkoniyatlarini juda kam yoki yo‘q, deb hisoblash;

12. Muammoni hal qilishning mavjud variantlari hech qanday natija bermaydi, deb hisoblash.

Shuni aytib o‘tish kerakki, askar hali o‘z-o‘zini o‘ldirishdek dahshatli fikrga kelishidan oldin o‘z atrofidagi xizmatdoshlaridan yupanch, taskin, madad va uni tushunish, qo‘llab-quvvatlash kabilarni kutadi. Bu kutilgan narsalar bo‘lmagandan keyin esa u boshqalardan ajralib, suitsidga tayyorlanadi.

Ushbu vaziyat suitsidning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Ammo, ushbu soatlarda harbiy xizmatchidagi bunday o‘zgarishlarga hech kim e‘tibor bermaydi. Suitsidga moyil harbiy xizmatchilarga yordam ikki xil shaklda olib borilishi mumkin:


1. Ularni psixologik jihatdan chiniqtirish;

2. Ularga ushbu vaziyatdan chiqib olish uchun psixologik yordamni tashkil etish.

Misol tariqasida shuni aytib o‘tish kerakki, ikkinchi jahon urushi arafasida Germaniya qo‘l ostidagi hududlarda yashagan, yoki fashistlarga asrga tushgan yahudiylar taqdiri bunga misol bo‘la oladi. Ma’lumki, Gitler, bu millatni butunlay yo‘q qilib tashlashga intilgan. Yahudiylar orasidagi o‘zini-o‘zi o‘ldirish, 1940-yildan oldin har 100 000 aholiga 71,2 kishini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 1940-yilning may oyida (nasistlar bosqinidan keyin) 371 tani tashkil etadi. Konslagerlarga tushish xavfidan dahshatga tushgan kishilar, o‘zlarini o‘ldira boshlaganlar. O‘zlarini o‘ldirmagan yahudiylar esa, dastlabki daqiqalarda ozodlikka chiqish va o‘z oilalarini topish umidi bilan yashaydilar. Jilla qursa, ozgina umidning bo‘lishi ham suitsidni keskin kamaytiruvchi omil vazifasini o‘tagan.

Urush davri, cho‘zilgandan cho‘zilib, gitlerchilarning millionlab odamlarni o‘ldirayotganliklari haqidagi mish-mishlar yetib kelgandan so‘ng, mahbuslar orasida o‘zini o‘ldirishlar epidemiya shakliga kirdi. Suitsidning so‘nggi avj pallasi, urushning oxiriga to‘g‘ri keladi. O‘z yaqinlarining o‘limidan va ular chekkan azob-uqubatlardan xabar topganlarning juda ko‘plari hayotdan voz kechishgan.

O‘lim oldidan yozib qoldirilgan xatlar, bunday odamlar uchun kelajakdan umid qolmaganligidan dalolat beradi. Agar insonda eng so‘nggi umid uchquni so‘nsa-yu, buni yaqin kishilari qandaydir darajada tasdiqlashsa, u o‘zini qurbon qiladi. Nima bo‘lishidan qat’iy



nazar, umidvorlik real vaziyatdan kelib chiqishi lozim.

Suitsident uchun, dindor kishi yaxshigina yordamchi bo‘lishi mumkin. Taniqli psixolog olim Uilyam Jeyms suitsidni diniy kasallik, deb hisoblaydi. U Xudoga bo‘lgan ishonch, bu dardni davolashiga ishonadi. Juda ko‘p dindor kishilar, ziyrak, tushunadigan va ishonchga munosib maslahatchi, yordamchi bo‘la olishadi.

8.3.Suitsidal xulq-atvorlarni aniqlash usullari

Suitsidal xatti-harakatlarni oldindan ko‘ra bilish, bashorat qilish juda ham qiyin muammo hisoblanadi. Shaxs tomonidan aytilgan suitsidal fikr-mulohazalar va qilingan xatti-harakatlar prognostik ahamiyatga ega.

Shaxsiy tarkib bilan ishlaydigan ofitser va komandirlar 18-20 yoshdagi yigitlarning ruhiy xususiyatlarini yaxshi bilishlari kerak. Ular quyidagilar:

1. Shaxs sifatida hali to‘la shakllanmaganlik, ushbu jarayonning jadal sur‘atda davom etayotganligi:

2.Emotsional jihatdan qo‘zg‘aluvchanlikning yuqoriligi, o‘ta sezuvchanlik;

3.Bir yoqlama fikr yuritish;

4.Hayotiy tajribaning yo‘qligi va hakoza.

Harbiy xizmatchining qanday oilada voyaga yetganligi ham muhim ahamiyatga ega:

To‘laqonli oila yoki muammoli oila.

Ushbu oilada yoki qarindoshlar orasida suitsid sodir etilganmi yoki yo‘qmi? Bu ham katta ahamiyatga ega.

Xizmat jarayonida harbiy xizmatchilarga qo'yiladigan jismoniy va ruhiy yuklamani asta-sekin oshirib borish lozim. Odatda, suitsidni aniqlashda va oldini olishda quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yiladi:

O'z-o'zini o'ldirishning oldini olish muammosiga yetarlicha e'tibor qaratmaslik;

Askarlarining harbiy xizmatga chaqirilishidan to zahiraga bo'shatilgunlarigacha bo'lgan davr ichida ularni uzluksiz ravishda psixologik kuzatishning yo'lga qo'yilmaganligi;

Komandirlarning o'z qo'l ostidagilarni yaxshi bilmasliklari, tarbiyaviy tadbirlarning nomigagina o'tkazilishi;

Suitsidga sabab bo'luvchi haqoratlash, qiynash kabi faktlarni o'z vaqtida o'rganmaslik va chora ko'rmaslik;

Sog'lom turmush va maishiy sharoitlarning yo'qligi, spirtli ichimliklar ichish holatlarining tez-tez bo'lib turishi, komandirlarning o'z qo'l ostidagi harbiy xizmatchilar oilalaridagi ahvolni bilmasligi;

Harbiy xizmat sharoitida yuz beradigan suitsid hodisalarining asosiy sababi, ijtimoiy omillar va profilaktika ishlarining yomon yo'lga qo'yilganligi.

Suitsidga yetaklovchi ijtimoiy omillar quyidagilar:

- xizmatdagi qiyinchiliklar;
- harbiy jamoalarda sog'lom ma'naviy-psixologik muhitning yo'qligi;
- komandirlarning o'z qo'l ostidagilar to'g'risida g'amxo'rlik qilmasliklari;
- harbiy xizmatchilar uy va maishiy sharoitlarini yaxshilash sohasidagi ishlarning yetarli darajada emasligi;
- muddatli harbiy xizmatchilar o'rtasidagi nizomga zid o'zaro munosabatlar;
- alkogolli ichimliklar va narkotik moddalarni iste'mol qilish va hokazo.

Suitsidni oldindan aniqlashning yana bir necha turlari mavjud bo'lib, bugungi kunda g'arb davlatlari ruhshunoslari tomonidan keng o'rganishlar va kuzatishlar natijasida aniqlangan. Quyida ushbu usullardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz:

Suratdan ko'rinib turibdiki, o'spirin o'z joniga qasd qilishga moyilligi sababli ruhiy zo'riqish va kechinmalar natijasida, tana a'zolariga jarohatlar yetkazadi.



Suitsidga moyil o‘spirinning qo‘lidagi jarohatlar



12 yoshli o‘spirin tomonidan **“Bu men”** deb chizilgan rasm.

Autoagressiv xatti-harakatga ega 12 yoshli o‘spirin tomonidan ixtiyoriy surat chizish amalga oshiriladi. Suratda inson qiyofasiga o‘xshash jihatlari bo‘lgan kinofilmlardagi dahshatli **“ZOMBI”** qayd etilib, o‘spirin unda o‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Bu chizilgan rasm orqali o‘spirin, o‘zida suitsid, ya’ni o‘z joniga qasd qilishga moyilligini bildiradi. Rasmdagi **“ZOMBI”** qiyofali mavjudot orqali o‘spirin, o‘zining boshqalarga agressiv qarashlarini, jonidan to‘yganini namoyon qilmoqda.

Nosog‘lom muhitda tarbiyalanib o‘z joniga qasd qilgan bola tomonidan chizilgan suratlar, shaxsiy bloknotidagi yozuvlar o‘rganilganda, o‘smir doimiy ravishda yaqinlariga nisbatan agressiv holatda bo‘lgani, uni hech kim yaxshi ko‘rmasligini takror va takror qayd qilib borganligi aniqlangan.



Nosogʻlom oilada oʻz joniga qasd qilgan oʻsmirning yozuvlari.

Suitsidal xatti – harakatning diagnostikasi



SUITSIDning xavflilik diagnostikasi

1. Suitsidal harakatlarning rejalashtirilishi va metodlari;
2. Ilgari suitsidal harakatlar sodir etganlik holati;
3. Autoagressiv xatti – harakatlar sodir etishga yetaklagan omillarning borligi;
4. Oʻz joniga qasd qilishga boʻlgan boshlangʻich tayyorgarlikning mavjudligi.

Mutaxassisning diagnostik rejasida quyidagilarni aniqlanish muhim boʻladi:

1. Psixologik rivojlanishni baholash kriteriyalarini ishlab chiqish;
2. Shaxsni tekshirishning aniq metodikasini tanlash;
3. Shaxs xatti – harakatlarini kuzatishni tashkil etish;
4. Koʻrsatkichlarni taqqoslab borish;
5. Shaxs holatini aniqlashga qaratilgan normativlarni belgilab olish, jumladan:

- shaxsning ichki hissiyotlarini;
- jamoadagi oʻrni va harakatlarini;
- jamoadoshlari bilan muloqoti, ularga boʻlgan adovatlarini;
- motivatsiyasini;
- qobiliyatlari va ularni namoyon etishini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi.

“SIZNING SUITSIDGA MOYILLIGINGIZ” metodini ko‘rib chiqamiz:

Sizning oldingizda noma’lum formaga ega rasm turibdi. Uning o‘rtasi qora rangga bo‘yalgan. Vazifa shundan iborat: rasmni bo‘yashni yakunlang. Buning uchun suratni qolgan qismlarini shunday bo‘yangki, bo‘yalgan surat o‘zingizga yoqsin.



“Sizning suitsidga moyilligingiz” testiga kalit yechimlar

Agar sizning rasmingizda, bo‘sh joylardan ko‘ra bo‘yalgan joylar ko‘p bo‘lsa, hozirda siz hayotda tushkun holatda ekanligingizni bildiradi. Sizni nimalardir, qandaydir siz uchun muhim bo‘lgan jarayonlar qiyin ahvolga solmoqda, tushkunlikka tushmang, bu o‘tkinchi hammasi o‘tib ketadi. Siz suitsidga moyil emassiz, hayotni sevasiz, o‘z joniga qasd qiluvchilarni qabul qila olmaysiz. Ularni tushunmaysiz.

Agar rasmning hech qayerini bo‘yamagan bo‘lsangiz-u, faqatgina atrofni chizgan bo‘lsangiz, bu sizning asablaringiz butunligini va irodangiz mustahkamligini bildiradi. Siz hech qachon o‘z joningizga qasd qilish haqida o‘ylamaysiz, bu haqda o‘ylash o‘zingiz va yaqinlaringizga nisbatan jinoyat deb baholaysiz. Hayot qanchalik mushkul, uning yo‘llari naqadar murakkab va qiyin bo‘lishidan qat’iy

nazar, siz hayotga chanqoq, kurashga tayyor insonsiz va hayotning barcha qiyinchiliklarini yengib o'ta olasiz.

Agarda siz uchtdan ko'p bo'lmagan qismlarni bo'yagan bo'lsangiz, ba'zi bir holatlarda o'z joningizga qasd qilish haqida o'ylaysiz. Bordi-yu, hamma narsa sizga qarshi burilgan taqdirda o'z joningizga qasd qilishga urinasiz ham. Biroq, baxtingizga siz optimist insonsiz, juda kam holatlar siz uchun ilojsiz ko'rinadi, shunga qaramay siz tonnel oxirida yorug'likni ko'ra olasiz.

Figuraning butun chap qismini bo'yagan bo'lsangiz, bu sizning ko'ngilchanligingizni, barcha voqea va hodisalarni yuragingizga yaqin olishingizni, hayotdagi nohaqliklardan aziyat chekishingizni bildiradi. Siz suitsidga moyilsiz, ba'zi paytlarda o'z joningizga qasd qilishdan sizni faqatgina yaqinlaringizga bo'lgan muhabbatingiz to'xtatib qoladi.

Bordi-yu, figuraning butun o'ng qismini bo'yagan bo'lsangiz, bu shundan dalolat beradiki, siz suitsidga moyilligingizni o'z foydangizga ishlatmoqchi bo'lasiz. Siz o'z yaqinlaringizni joningizga qasd qilish bilan qo'rqitib shantajlik qilasiz hamda o'zingizni istak va xohishlaringizni bajarishga ularni majbur qilasiz. Siz bilan yashash judayam mushkul va qiyin.


Figuraning bo'yalgan qismini qayta bo'yashda davom etgan bo'lsangiz, u holatda siz ong ostingizda o'limni ixtiyor etganligingizdan dalolat beradi. Biroq sizda suitsidga moyilligingiz tashqi tarafdin ko'rinmaydi, faqatgina vaziyat taqazo qilsagina tashqariga chiqishi mumkin.

Navbatdagi testni ko'rib chiqamiz.

“SIZNING O'LIM HAQIDAGI O'YLARINGIZ” TESTI

Sizning oldingizda o'limni bildiruvchi simvolik figura ko'rsatilgan.

Ushbu kartina tugallanmagan, unda ba'zi bir muhim qismlari yetishmaydi. Yetishmaydigan qismlarini chizib, o'lim kartinasini tugating.



**“SIZNING O‘LIM HAQIDAGI O‘YLARINGIZ” testiga kalit
yechimlar**

Agarda siz - figura detallarini chizmagan bo‘lsangiz, siz o‘lim haqida o‘ylamaysiz, bu siz uchun falsafiy chalg‘ituvchi mavzu hisoblanadi. Siz o‘zingizdan qora o‘y xayollarni haydaysiz va faqatgina xursandchilikni qoldirasiz.

Bordi-yu siz - sinchkovlik bilan figura detallarini chizib, uni cholg‘u ushlab turgan kampir holatiga yoki oq kiyim kiygan ayol ko‘rinishiga keltirgan bo‘lsangiz, yoki boshqa bir qiyofaga keltirsangiz, bu – sizning o‘limdan qo‘rqmasligingiz, hayotni to‘g‘ri qabul qilib, hamma ham bir kunmas bir kun o‘lishini tushunishingizdan darak beradi. Albatta, bu xayollar sizni quvontirmaydi, biroq bu masala yuzasidan xafa bo‘lishni ham istamaysiz. Sizning o‘limga bo‘lgan munosabatingiz sog‘lom fikr ko‘rinishida.

Bordiyu siz - rasmni to‘laligicha bo‘yagan va unga qo‘shimchalar (ort qismiga soch yoki profil) chizgan bo‘lsangiz, bu sizning o‘limga nisbatan ko‘nglingiz bo‘shligini va yuragingizga yaqin olishingizdan darak beradi. Bu haqda siz ko‘p fikr yuritasiz hamda asabiylashasiz. Sizda og‘ir judoliklar bo‘lganini va u holatlar qalbingizda o‘zidan iztirobli iz qoldirganini bildiradi. Siz o‘limdan qo‘rqasiz va uni yomon ko‘rasiz.

Agarda siz - xayoliy bo'yashni amalga oshirgan chiziqlar, uzun uzun yo'laklar) bo'lsangiz, bu holatda siz o'limni doimiy ravishda o'ylashingizdan, o'lim siz uchun sirli ko'rinishidan, hamda o'ziga tortishidan darak beradi. Siz, doimiy ravishda o'limdan so'ng hayot bormi, degan savolni o'zingizga berasiz. Siz bu savol bilan judayam qiziqasiz, doim izlanishdasiz, bu sirli hodisani tagiga yetishga intilasiz. Siz nazariy izlanishlar bilan bandsiz, bu qo'rqinchli emas. Faqatgina amaliyotga o'tishga harakat qilmang.

Rasm qanchalik tiniq va yorqin bo'yalgan bo'lsa, bu sizning o'lim haqida uzoq muddat fikr yuritishingizdan darak beradi. Bordi-yu, siz asosiy figuraga nisbatan fonni yorqin rangda ifoda etgan bo'lsangiz, bu sizning pessimistligingizdan darak beradi. Hayotning nohaqligi va o'zingizning oxiratingiz haqida ko'proq o'ylaysiz.

Bordi-yu siz, mazkur figurani bir necha kichik figuralarga bo'lgan bo'lsangiz (to'lin oy ostida yangi qazilgani go'r ustida turgan figura) bu sizning ijodiy shaxs ekanligingizdan darak beradi. Siz, hattoki o'lim haqida ham original nuqtai nazardan yondashasiz, bu mavzu haqida gapirish siz uchun yoqimli hisoblanadi, barcha nuqtai nazarlarni to'g'ri qabul qilib tinglay olasiz. Siz bu haqda yakuniy fikrga kelganingizcha yo'q. Siz o'limdan qo'rqmaysiz, siz uni hurmat qilasiz.

8.4.Bo'linmada suitsidni oldini olishda komandirning amalga oshiradigan tadbirlari

Suitsidal xatti-harakatlarni oldindan ko'ra bilish, bashorat qilish juda ham qiyin muammo hisoblanadi. Shaxs tomonidan aytilgan suitsidal fikr-mulohazalar va qilingan xatti-harakatlar prognostik ahamiyatga ega. Shaxsiy tarkib bilan ishlaydigan ofitser va komandirlar 18-20 yoshdagi yigitlarning ruhiy xususiyatlarini yaxshi bilishlari kerak. Ular quyidagilar:

1.Shaxs sifatida hali to'la shakllanmaganlik, ushbu jarayonning jadal sur'atda davom etayotganligi:

2.Emotsional jihatdan qo'zg'aluvchanlikning yuqoriligi - o'ta sezuvchanlik;

3.Bir yoqlama fikr yuritish;

4.Hayotiy tajribaning yo'qligi va boshqalar.

Harbiy xizmatchining qanday oilada voyaga yetganligi ham muhim ahamiyatga ega:

- to'laqonli oila yoki muammoli oila.

Ushbu oilada yoki qarindoshlar orasida suitsid sodir etilganmi yoki yo'qmi? Bu ham katta ahamiyatga ega.

Xizmat jarayonida harbiy xizmatchilarga qo'yiladigan jismoniy va ruhiy yuklamani asta-sekin oshirib borish lozim. Odatda, suitsidni aniqlashda va oldini olishda quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yiladi:

- o'z-o'zini o'ldirishning oldini olish muammosiga yetarlicha e'tibor qaratmaslik;

- askarlarning harbiy xizmatga chaqirilishidan to zahiraga bo'shatilgunlarigacha bo'lgan davr ichida ularni uzluksiz ravishda psixologik kuzatishning yo'lga qo'yilmaganligi;

- komandirlarning o'z qo'l ostidagilarni yaxshi bilmasliklari, tarbiyaviy tadbirlarning nomigagina o'tkazilishi;

- suitsidga sabab bo'luvchi haqoratlash, qiynash kabi faktlarni o'z vaqtida o'rganmaslik va chora ko'rmaslik;

- sog'lom turmush va maishiy sharoitlarning yo'qligi, spirtli ichimliklar ichish holatlarining tez-tez bo'lib turishi;

- komandirlarning o'z qo'lostidagi harbiy xizmatchilar oilalaridagi ahvolni bilmasligi.

Harbiy xizmat sharoitida yuz beradigan suitsid hodisalarining asosiy sababi, ijtimoiy omillar va profilaktika ishlarining yomon yo'lga qo'yilganligi.

Suitsidga etaklovchi ijtimoiy omillar quyidagilar:

- xizmatdagi qiyinchiliklar;

- harbiy jamoalarda soglom ma'naviy-psixologik muhitning yo'qligi;

- komandirlarning o'z qo'lostidagilar to'g'risida g'amxo'rlik qilmasliklari;

- harbiy xizmatchilar uy va maishiy sharoitlarini yaxshilash sohasidagi ishlarning yetarli darajada emasligi;

-muddatli harbiy xizmatchilar o'rtasidagi nizomga zid o'zaro munosabatlar;

- alkogolli ichimliklar va narkotik moddalarni ise'mol qilish va boshqalar.

Suitsidning oldini olishga yo'naltirilgan ish shakllariga quyidagilar kiradi:

1.Hamma suitsid hodisalarini hisobga olish, yig'ish, ularni turli parametr - mezonlar bo'yicha tizimlashtirish: shaxsiy tarkib tabaqalari

bo'yicha; xizmat lavozimi bo'yicha; millati; oiladagi tarbiyasi; ma'lumoti; dinga munosabati va hokazo.

2. Eng ko'p ahamiyatli bo'lgan vaziyatlar, jarayonlar, suitsid ko'p sodir etiladigan joy, vaqt va amalga oshirish usullari, ushbu suitsidlarning bo'linmadagi axloqiy-psixologik muhitga ta'sirini aniqlash;

3. Har xil darajadagi komandirlarning samarali tarbiyaviy ishlarni olib borishdagi ishtirokini belgilash; harbiy jamoalarda o'zaro sog'lom munosabatlarni shakllantirish; harbiy xizmatchilardagi stresslarni yo'qotish bo'yicha tadbirlarni o'tkazish;

4. Olingan natijalarni umumlashtirish va ulardan zarur xulosalarni chiqarish.

Harbiy qismlarda suitsidning oldini olish bilan bog'liq eng muhim vazifalar quyidagilar:

- suitsidga olib keluvchi sabablarni o'z vaqtida aniqlash va tugatish;
- vaqtida da'vo choralarni ko'rish.

Tayanch so'zlar: Suitsid; ijtimoiy hodisa; individual reaksiya; stress; oxirigacha yetkazilgan suitsid; oxirigacha yetkazilmagan suitsid; suitsidal xulq-atvor; muammoli oila.

Nazorat uchun savollar:

1. Suitsid nima? Uni ta'riflang.
2. Suitsidning ijtimoiy sabablari deganda nimani tushunasiz?
3. O'z joniga suiqasd qilish ehtimoli bor harbiy xizmatchi qanday xulq-atvor belgilariga ega bo'ladi?
4. Bo'linmada suitsidning oldini olish uchun komandirlar qanday tadbirlarni amalga oshirishlari kerak?

9-Mavzu: Harbiy faoliyat psixologiyasi

Reja:

1. Harbiy faoliyat psixologiyasi.
2. Jangovar, o'quv-jangovar faoliyat xususiyatlari
3. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
4. Bo'linmada va harbiy xizmatchilar orasida vahima va uni oldini olish yo'llari.

9.1. Harbiy faoliyat psixologiyasi

Ma'lumki, alohida olingan shaxs muammosini ko'plab fanlar o'rganadi. Psixologiya, xususan, harbiy psixologiya ham shunday fanlar sirasiga kiradi. Har qanday faoliyatda, jumladan, harbiy faoliyatda kishilarning psixologik xususiyatlari katta rol o'ynaydi. Faoliyatga tirik mavjudotning (jumladan, insonning ham) o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida atrof-muhit bilan bo'ladigan o'zaro ta'sirlashuv jarayoni sifatida qaraladi yoki boshqacha qilib aytganda, insonning moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishga yo'naltirilgan, yakunlangan xatti-harakatlar tizimiga faoliyat deyiladi.

Uning maqsad, motiv va vositalari faoliyatning ichki tashkil qiluvchilari hisoblanadi.

Shuning uchun ham aynan faoliyat shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi ta'sirlashuvning asosi hisoblanadi. Tashqi muhitning ta'siri shaxsning mohiyatini tashkil etadi. Ma'lumki, shaxs faoliyatdagina rivojlanadi va o'zini namoyon qiladi.

Faoliyatda shaxs atrofda voqea va borliqni anglaydi, u muhit, mehnat vositalari va insonlar bilan bog'lanadi. Faoliyat insonni murakkab munosabatlar tizimiga olib kiradi. Ammo, faoliyat asnosida inson ushbu sanab o'tilgan omillarning aks ta'siriga uchraydi, inson faolligi qancha yuqori bo'lsa, bu ta'sir shunchalik kuchli bo'ladi. Inson shaxsi faoliyatda rivojlanadi, u boshqa insonlar bilan muloqotga kirishadi, ular bilan fikr almashadi. Inson mehnat qurolidan foydalanishi uchun ma'lum bilim, usul va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Ijtimoiy muhit insonga nisbatan axloqiy va ijtimoiy talablarni qo'yadi. Ularni bajarish jarayonida insonda ma'lum qarashlar, xarakter, odatlar shakllanadi. Faoliyat jarayonida insonda ruhiyatning hamma qirralari, eng oddiy ruhiy jarayonlar (sezgi, idrok, diqqat va hokazo)dan tortib shaxsga xos psixologik xususiyatlar (temperament, xarakter va boshqalar)gacha rivojlanadi.

Inson o'z hayotining ma'lum davrida boshqariladigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonida ishtirok etadi. Shu paytdan boshlab u maxsus faoliyat turi, o'qitishning subyektiga aylanadi, o'qitishning maqsadi esa bilim egallashdan iborat bo'ladi.

O'qitish jarayoni ikki bosqichdan iborat:

- har qanday foydali faoliyat uchun zarur bo'lgan, dunyo sir-sinoatlari haqida qayd etilgan va ilmiy tan olingan axborotlar olish;
- malakalar hosil qilish, ya'ni aniq sharoitlarda amalga oshadigan usullar va avtomatlashgan operatsiyalarni egallash.

O'qitish faoliyati shunday alohida xususiyatlar bilan xarakterlanadiki, bunda insonning faoliyati aqliy maqsadga yo'naltiriladi, ya'ni ma'lum bilim, ko'nikma va malaka egallanadi.

Inson o'zining tashqi dunyoga bo'lgan munosabatini faoliyat orqali ifodalaydi. Faoliyatda inson o'zida hosil bo'lgan ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun fikran qo'yilgan maqsadga erishadi. Maqsad deganda esa, inson o'zining u yoki bu ehtiyojini qondirish uchun ma'lum buyumga yo'naltirilgan harakatining ko'zda tutilgan natijasi tushuniladi. Harakat – bu faoliyatning nisbatan yakunlangan elementi bo'lib, bu jarayonda yanada soddaroq, bo'laklarga bo'linmaydigan, ma'lum bir anglangan maqsadga erishiladi. Faoliyat o'zining tashqi (jismoniy) va ichki (ruhiy) tashkil qiluvchilaridan iborat. Tashqi jihat, tashqi olamga ta'sir ko'rsatish uchun amalga oshiriladigan harakatlar bo'lib, ular iroda, hissiyot va bilish jarayonlari kabi ichki (ruhiy) faoliyat motivlari (sababchilari) vositasida amalga oshiriladi va boshqariladi.

Faoliyatning tashqi jhati harakat orqali ifodalanishi tufayli ularni mexanik, fiziologik, psixologik nuqtai nazardan tavsiflash mumkin. Mexanik jihatdan harakat traektoriyasi, kuchi va maromi bilan belgilanadi.

Faoliyatning jarayon ekanligini e'tiborga olib, uni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Maqsadning qo'yilishi (ma'lum vazifaning aniq anglanishi);
2. Ishni rejalashtirish (harakatlar ketma-ketligi, har bir harakat uchun ma'lum vositalar tanlash);
3. Faoliyatni amalga oshirish zarur hollarda nazorat qilish va qayta ko'rib chiqish bilan amalga oshiriladi;
4. Faoliyat natijalarini tekshirish, mavjud xatolarni to'g'rilash;

5. Olingan natijalarni taqqoslash, ishga xulosa yasash va uni baholash.

Har qanday faoliyat maqsadga olib boruvchi bir-biri bilan bogʻlangan xatti-harakatlar tizimidan iborat. Shuning bilan bir qatorda, har bir xatti-harakat oʻz maqsadi, vosita va motivlariga ega.

Faoliyat alohida bir kishi va guruh tomonidan amalga oshiriladi. U tashqi tomondan ijtimoiy talablar, qaror topgan tartib va intizom, rahbarlarning koʻrsatmalari va hokazolar bilan boshqariladi.

Ichki tomondan esa faoliyat psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar, eʼtiqodlar, qiziqishlar, ehtiyojlar, fikrlar va boshqalar taʼsirida nazorat qilinadi.

Faoliyat jarayoni ehtiyoj va motivlardan kelib chiqib, maʼlum maqsad qoʻyish bilan boshlanadi. Undan keyin esa ushbu maqsadga xizmat qiluvchi rejalar, modellar, sxemalar yaratiladi. Soʻngra inson harakat usul va vositalari orqali faoliyatni amalga oshira boshlaydi. Faoliyat jarayonida u oʻz xatti-harakatlariga oʻzgarishlar kiritib boradi. Xatti-harakatni tugatgandan keyin u tahlil qilinadi, agar maqsadga erishilmagan boʻlsa, uning sabablari qidiriladi. Faoliyatning psixologik xususiyatlari uning maqsadi, predmeti, vositalari, sharoitlar, shuningdek, shaxs hamda jamoaning sifatleri, ehtiyojlari, ustanovka va tajribalari bilan aniqlanadi.

Shu maʼnoda faoliyatning ishonchliligi va samaradorligi katta ahamiyatga ega. Maqsadni amalga oshirishda kuch va vositalardan samarali foydalanish samaradorlikning koʻrsatkichi hisoblanadi.

Shaxs faoliyati ishonchliligi va samaradorligining psixologik shart-sharoitlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Maqsadni aniq tushunish;
2. Ijobiy motivatsiya;
3. Ruhiy tayyorgarlik;
4. Kasbiy mahorat;
5. Iroda sifatleri;
6. Psixologik bilish jarayonlarining yaxshi rivojlanganligi.

Harbiy jamoa faoliyatining ishonchliligi va samardorligi haqida shuni aytish mumkinki, u inoqlik, oʻzaro bir-birini tushunish, oʻzaro munosabat koʻnikmalari kabilarga bogʻliq. Kelishmovchilik, bir-biriga nisbatan shubha, umumiy ishdagi har bir kishining oʻrni va rolini notoʻgʻri tushunish kabilar jamoaviy faoliyat samaradorligini pasaytiradi.

Inson faoliyati, asosan uch turga bo'linadi:

1. Mehnat;
2. O'qish;
3. O'yin.

Faoliyatning boshqa turlariga ijtimoiy-siyosiy, pedagogik, sport va hokazolar kiradi, ular ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan mehnat ta'sirida paydo bo'ladi. Faoliyatda shaxs, jamoa paydo bo'ladi va shakllanadi.

Harbiy faoliyat keng ma'noda ijtimoiy-siyosiy xarakterga ega. Harbiy faoliyat vositasida davlat va xalqni qurolli himoya qilish ta'minlanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xalqimizni, Vatanimizni va mustaqilligimizni himoya qilishdek ezgu ishni amalga oshiradi.

Tor ma'noda esa harbiy faoliyat harbiy xizmatchilarning harbiy xizmat topshiriqlarini bajarishlarini, jangovar texnika va qurollarni o'rganishlarini, jangovar navbatchilikni amalga oshirishlarini, dushmanga qarshi jangovar harakatlarga shayliklarini anglatadi.

9.2. Jangovar, o'quv – jangovar faoliyat xususiyatlari

Harbiy faoliyat o'ziga xos o'zaro munosabatlar (qat'iyatlik, subordinatsiya), shuningdek, insonlarning katta kuch sarflashlari bilan xarakterlanadi.

Harbiy faoliyat o'zining tarkibi, maqsadlari, motivlari, vositalari, usullari, amalga oshirishning ichki va tashqi sharoitlari bilan ajralib turadi. Harbiy faoliyatning tinchlik vaqtidagi va urush sharoitlaridagi vazifalari bir-biridan farqlanadi.

Tinchlik vaqtida dushmanga qarshi jangovar harakatlar olib borishga tayyorgarlik ko'riladi. Urush vaqtida esa dushmanni joyida yakson qilib tashlash harbiy faoliyatning asosiy vazifasi hisoblanadi. Harbiy faoliyatning vositalari, qurol-yarog'lar va jangovar texnika. Armiyaning jangovar qobiliyati va tayyorgarligi, ulardagi jangovar ko'nikmalar hamda intizom tinchlik vaqtidagi jangovar tayyorgarlikning natijasi hisoblanadi. Harbiy holat vaqtida esa dushmanni yengib g'alabaga erishish jangovar faoliyat natijasi bo'ladi. Mustaqil mamlakatimiz Qurolli Kuchlaridagi harbiy xizmatchilar faoliyatlarining asosiy motivlaridan biri-bu Vatanga, xalqqa va mustaqillikka bo'lgan sadoqat, shuningdek, dushmanga bo'lgan nafrat hissidir.

Harbiy xizmatchilarning faoliyati har xil iqlim sharoitlarida, shuningdek, quruqlikda, daryoda, havoda va suv ostida kechadi. Topshirilgan vazifani bajarish jarayoni esa uzluksiz o'zgarib turadigan sharoitlarda, kunning turli vaqtlarida, uyqusizlik, qattiq charchoq va rejimning buzulishi sharoitlarida kechishi mumkin. Hozirgi zamonaviy jangovar texnika va qurol-yarog'lar harbiy xizmatchilarning xulq-atvoriga va ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu qurol-yarog' va jangovar texnikalar o'zlarining murakkabliklari, tez harakat qilishlari, katta vayron qilish kuchiga egaligi bilan ajralib turadi. Ularni o'rganish hamda ishlatish jarayonida harbiy xizmatchilarga kimyoviy, jismoniy hamda boshqa turdagi zararlar yetishi mumkin.

Harbiy faoliyatning tarkibi va mazmuni uning bir kishi yoki guruh tomonidan amalga oshirilayotganligi bilan o'zgarib turadi. Turli vaziyatlarda har bir shaxs va jamoa o'zlarini har xil namoyon qiladilar. Bunga esa ulardagi tafakkur, kayfiyat, iroda, tajriba, ehtiyoj va qobiliyatlarning har xilligi sabab bo'ladi. Harbiy faoliyat har doim aniq va qattiq kun tartibiga ega bo'ladi. U quyidagi turlarga bo'linadi:

1. O'quv faoliyati.
2. Maishiy faoliyat.
3. Har kungi xizmat faoliyati.
4. Jangovar faoliyat.

Hozirgi vaqtda harbiy faoliyatning quyidagi ikkita turiga katta e'tibor beriladi: bular, o'quv jangovar va jangovar faoliyatlar. Agar qadim zamonlarda harbiy faoliyat o'zining soddaligi va ko'p jismoniy kuch talab qilishligi bilan ajralib turgan bo'lsa, endilikda u ko'proq aqliy tayyorgarlikni talab qiladi. Harbiy faoliyatga elektron hisoblash mashinalari va murakkab texnik moslamalarning kiritilishi bilan juda ko'p harbiy xizmatchilar bir joyda o'tirib har xil modellar va tasvirlar bilan ishlashadi, shuning uchun ham ularning faoliyati operatorlik faoliyatiga aylanib qolgan. Harbiy faoliyat, ayniqsa, jangovar sharoitlarda juda qiyin kechadi, uni amalga oshirish uchun yetarlicha kuchli motivlar, yaxshi rivojlangan bilish jarayonlari, kuchli iroda hamda mahorat zarur bo'ladi. Harbiy faoliyatda harbiy xizmatchilarga rahbarlik qilish har xil chora-tadbirlarni ko'rishni talab qiladi. Bunday chora-tadbirlarga esa vazifalarni tushuntirish, buyruq berish, rag'batlantirish va jazolash kabilar kiradi.

Harbiy xizmat faoliyatning murakkab turi bo'lib, o'z ichiga o'yin, o'qish va mehnat elementlarini oladi. Ma'lumki, inson yoshligida muntazam o'yin faoliyati bilan shug'ullanadi, katta bo'lgandan keyin esa sport o'yinlarida qatnashishi mumkin. Shu asnoda inson psixologiyasi rivojlanadi. Harbiy xizmatda o'yin elementlari bilan harbiy xizmatchi taktik mashg'ulotlar va dala o'quv mashg'ulotlari vaqtida to'qnash keladi. Harbiy xizmat davrining katta qismini jangovar o'quv mashg'ulotlari tashkil etadi. Uning amaliyot bilan bog'liqligi va mohiyatini anglash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Askar taktik bilimlarni egallaydi, nizomlarni va armiya hayotini o'rganadi.

Harbiy xizmat yana mehnat faoliyati hamdir. Askar texnikaga xizmat ko'rsatadi, uni yuksak jangovar tayyorgarlik holatida saqlaydi. Har doim boshliqlar va komandirlarning buyruqlarini kutib turadi. Xizmat jarayonida askar mehnat vositalari, qurollar, texnikalar; odamlar - boshqa harbiy xizmatchilar, komandirlar; g'oyalar xizmatning nihoyatda katta ahamiyati, harbiy nizom talablari, harbiy axloq, murakkab topshiriqlar yordamida yangi narsalarni o'rganadi. Bular ham askar shaxsining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Faoliyatning har bir turi alohida elementlardan tashkil topadi. *Harakat faoliyatning eng muhim elementi bo'lib hisoblanadi.* Masalan: samolyotni boshqarish har xil harakatlardan iborat: ko'tarilish, uchish, qo'nish. Faoliyatning bu komponentlari uchuvchining alohida mustaqil harakatlari bilan amalga oshiriladi. Faoliyatning psixologik tuzulishini tushunish uchun uning tashkil qiluvchisi bo'lgan harakatni ko'rib chiqamiz.

Insonning u yoki bu harakati alohida qo'zg'alish natijasida kelib chiqadi. Bu qo'zg'alishga motiv deyiladi. Masalan: starter knopkasini bosish dvigatelni yurgizish haqidagi buyruq natijasida yuz beradi. Harakat har doim maqsadga, ya'ni harakat ta'sirida egallanishi kerak bo'lgan natijaga yo'naltirilgan bo'ladi. Harakatni amalga oshirishda inson ma'lum vositalardan foydalanadi: texnik moslama yoki harakat usuli shunday vosita bo'lishi mumkin. Harakatni, u orqali esa faoliyatni tushunish uchun motiv, maqsad va vositalarni baholash lozim.

Psixologik yo'nalish shaxsning eng asosiy xususiyati bo'lib, uning hayoti va faoliyatida chuqur iz qoldiradi.

Shaxs yoʻnalishi undagi ehtiyojlar, motivlar, ustanovka va maqsadlarning oʻzaro birligidan iborat boʻlgan ijtimoiy-psixologik tuzilma.

Ehtiyoj - bu insonning biron narsaga boʻlgan talabi.

Ehtiyojlar ikki xil boʻladi:

-moddiy;

-maʼnaviy.

Moddiy ehtiyojlarga ovqat, kiyimlar, boshpana va hokazolar kiradi.

Maʼnaviy ehtiyojlarga esa bilimga, muloqotga, faoliyatga boʻlgan ehtiyojlar kiradi.

Askar shaxsining yoʻnalishi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

1. Harbiy xizmatning maqsadi, vazifalari va ahamiyatini tushuntirish;

2. Mustaqillikka boʻlgan eʼtiqodni shakllantirish; askarni ijtimoiy-siyosiy faoliyatga jalb qilish; askarlarning hayotini harbiy nizom talablari asosida tashkil qilish;

3. Maʼnaviy va aqliy ehtiyojlarni qondirish uchun sharoit yaratish;

4. Oʻzini-oʻzi oʻqitish va oʻzini-oʻzi tarbiyalash jarayonini faollashtirish.

Agar insonning yoʻnalishi aniq boʻlsa, uning xatti-harakatlarini bashorat qilish oson boʻladi. Shaxs yoʻnalishining paydo boʻlishi ehtiyojlar bilan bogʻliq. Insonning ehtiyojlari uning hayoti davomida shakllanadi. Har bir odam jamiyatning aʼzosi hisoblanar ekan, unda maʼlum bir mavqeni egallaydi. Bu esa undagi ehtiyojlar mazmunini belgilaydi.

Inson hayotida moddiy ehtiyojlarga qaraganda maʼnaviy ehtiyojlar yetakchi oʻrinda turadi. Unga birinchi oʻrinda atrof-muhitni bilishga boʻlgan ehtiyojlar, faoliyatga boʻlgan ehtiyojlar, muloqotga boʻlgan ehtiyojlar kiradi.

Shubhasiz, ehtiyojlar inson hayotida katta rol oʻynaydi. Lekin, shuni aytib oʻtish kerakki, ularning oʻzigina insondagi yoʻnalishni belgilamaydi. *Inson ehtiyojlari asosida uning faoliyat motivlari paydo boʻladi.*

Motiv - bu shunday kuchki, u insonni maqsad sari undaydi.

Har bir motivda turli xil moddiy va maʼnaviy ehtiyojlar qoʻshilib ketadi hamda ushbu koʻplab ehtiyojlarning birontasi unda ustunlik

qiladi. Insonni harakatga undaydigan motivlar shakli va mazmuniga ko'ra turli-tuman bo'ladilar.

Shakliga ko'ra:

1. Yuksak rivojlangan;
2. Murakkab;
3. Oddiy.

Motivlar umum e'tirof etilgan axloq me'yorlari nuqtai nazaridan ijobiy, betaraf va salbiy mazmunga ega bo'lishi mumkin.

Istak - motivning eng sodda shakli hisoblanadi. U hali inson o'z ehtiyojini anglab yetmagan vaqtda paydo bo'ladi va stixiyali harakat qiladi.

Motivlarning bu shakli ko'proq yangi kelgan askarlarda paydo bo'ladi, chunki ular hali o'zlarini yetarlicha o'rganib yetmagan bo'ladilar. Istak shaklidagi xulq-atvor motivatsiyasi ko'p hollarda qoidabuzarlikka sabab bo'ladi.

Masalan, har bir insonda jamoada o'z o'rnini egallashga, hurmat qozonishga nisbatan ehtiyoj mavjud. Agar, u ushbu ehtiyojni anglamasa, uni noto'g'ri yo'l bilan qondirishga harakat qiladi: janjallashadi, qo'pollik qiladi. Faqat to'g'ri tashkil etilgan tarbiyaviy ishlargina askarlarga motivlarning bunday shaklidan qutulishlariga yordam beradi.

Istak ko'proq insonning moddiy ehtiyojlari bilan bog'langan.

Ma'naviy ehtiyojlar xarakteriga ko'proq motivlarning murakkab shakli mos keladi.

Qiziqishlar - bu insonning tanlab, u yoki bu hodisaga, buyumga, faoliyatga nisbatan bilish maqsadidagi munosabati. Qiziqishlarning mavjudligi yaxshi o'qish va qobiliyatlarni rivojlantirish uchun tayanch hisoblanadi. Qiziqishlarda birinchi o'rinda insonning bilishga nisbatan ehtiyojlari namoyon bo'ladi. Ammo, qiziqish nobarqaror motiv hisoblanib, tez-tez o'zgarib turadi.

Qiziqish vaqt o'tishi bilan yo'qolishi yoki moyillikka - doimiy qiziqishga aylanishi mumkin. Qiziqishning moyillikka aylanishi ko'p jihatdan ofitserga va tarbiyaviy ishlarning qanday tashkil etilganligiga bog'liq.

Insonning xulq-atvori va faoliyatiga undagi qiziqish hamda moyilliklarning ta'sirini quyidagi holatdan ham bilsa bo'ladi.

Bir qator harbiy bilim yurtlarida kursantlardagi qiziqish va moyilliklarning keyingi xizmat faoliyatlariga hamda fanlarni

o'zlashtirishlariga ta'siri o'rganilgan. Kursantlar orasidan bilim yurtiga harbiy faoliyatga qiziqishlari ta'sirida kelganlari ajratilib olingan. Bu ish anketa va so'rovnomalar yordamida amalga oshirilgan. O'qishning birinchi yilida bu kursantlar yuqori natijalarga erishganlar. Lekin II, III, va IV bosqichlarda bu toifadagi ko'plab kursantlarda o'zlashtirish ko'rsatkichlari pasayib ketgan.

Ikkinchi guruhga esa o'zlaridagi moyilliklar ta'sirida bilim yurtiga kelgan kursantlar olingan. Ungacha muddatli harbiy xizmatni o'tagan kursantlar birinchi o'quv iilida fanlarni o'zlashtirishda unchalik yuqori natijalarni ko'rsatishmadi. Lekin, ikkinchi o'quv yilidan boshlab ulardagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari barqarorlashdi.

Inson xulq-atvorining eng kuchli, murakkab va yuksak motiv e'tiqod hisoblanadi. E'tiqod yetarlicha yuksak bo'lganda boshqa jami motivlar unga ergashadi, bo'ysunadi.

9.3.Ko'nikma va malakalarni shakllantirish

Ko'nikma va malakalar bir tekis rivojlanmaydi. Keyingi mashqlarning samaradorligi asta-sekin tushib boradi, bunga faoliyat sharoitlarining o'zgarishi, jismonan zaiflashish, kayfiyatning yomonlashishi kabilar sabab bo'lishi mumkin. Ko'nikma va malakalarni shakllantirishda askarga qiyin va xavfli sharoitlarda ham harakat qilishni o'rgatish katta ahamiyatga ega. Sharoitni askarning eng so'nggi imkoniyatlari darajasida qiyinlashtirish yaxshi natija beradi. Faqatgina jangovor sharoitlarga yaqinlashtirilgan muhitda o'qitish orqali askarda mustahkam ko'nikma va malakalarni hosil qilish mumkin.

Agar askarda eski faoliyatga nisbatan ko'nikma va malakalar mavjud bo'lsa, yangi faoliyatni amalga oshirish jarayonida ko'nikma hamda malakalarning shakllanishi tez, nisbatan qiyinchiliksiz yuz beradi. Go'yoki eski ko'nikma, malakalarning yangi sharoitlarga ko'chib o'tishi yuz beradi. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, eski ko'nikma va malakalar har doim ham askarga yordam beravermaydi. Ba'zan, ular yangi harakatlarni, faoliyatni amalga oshirishda xalaqit qilishi, qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Traktorchi tankni qiyinchiliksiz boshqarishi mumkin, uchuvchi esa boshqa turdagi samolyotni ham boshqara oladi. Lekin, yangi texnikani o'zlashtirishda, o'sha haydovchi yoki uchuvchi ba'zi

harakatlarni eski odatlari bo'yicha noto'g'ri amalga oshiradi. Bu narsa esa ba'zan ko'ngilsiz hodisalarga, halokatlarga olib keladi.

Shularga asoslanib, komandir askarlardagi ko'nikmalarning ijobiy va salbiy oqibatlarini to'g'ri baholashi lozim. Qismga yangi turdagi texnikalar kelganda esa eng yaxshi mutaxassislarni ham qayta o'qitish foydadan xoli emas.

Ba'zan ko'nikmalar rivojlanishida quyidagicha holat kuzatiladi: Harbiy xizmatchidagi ko'nikma rivojlanishdan to'xtaydi, u ma'lum muvaffaqiyatga erishadi va shu joyda to'xtab qoladi.

Buning sabablari quyidagilar:

1. Harakatlarni bajarishning bu usuli yoki o'qitishning uslubi o'z imkoniyatlarini oxirigacha berib bo'lgan;

2. Harbiy xizmatchida ushbu faoliyatga nisbatan qiziqish so'ngan.

O'qitish usullariga yangi elementlarni kiritish askardagi faollikni oshirib, harakat samaradorligini yaxshilaydi.

Ko'nikmalar shakllanishi va rivojlanishi jarayonida muskullardagi zo'riqishlar sekin-asta kamayib boradi, ortiqcha harakatlar yo'qoladi, har xil harakatlar o'rtasidagi (vaqt qisqaradi, ko'z bilan ko'rish nazorati kamayib, harakat nazoratining roli ortadi.

Ko'nikma va malakalar quyidagi uch shaklda, bir vaqtda hamda o'zaro ketma-ketlikda shakllantirilsa, yaxshi samara beradi: moddiy predmetlar, nutq va aql-idrok vositasida.

Ko'nikma va malakalarni hosil qilishning moddiylashgan shakli deganda, askarning mashg'ulot rejasi, sxema, chizmalar, rasmlar, o'quv modellari, maxsus priborlardan foydalanishi nazarda tutiladi. Bu askar harakatlarini tartibga solishga yordam beradi.

Nutq shaklida esa topshiriqlar og'zaki berilganda qilinadigan ishlar manzarasini va davomiyligini tasavvurda tiklash ko'nikmalari hosil qilinadi. Bunda so'zlar vositasida berilayotgan ma'no topshiriq mazmunini to'g'ri ifodalashi juda muhim. Aqliy shaklda askar ma'lum vazifani bajarish asnosida bo'layotgan va bo'lg'usi harakatlarni ongida to'la tiklaydi.

Hozirgi vaqtda harbiy xizmatchilarda ko'nikma va malakalarni shakllantirishda o'quv priborlari va qo'llanmalarining ahamiyati nihoyatda katta.

O'quv priborlari o'quv jarayonini jangovar sharoitlarga yaqinlashtirishga yordam beradi. Ko'rgazmali vosita va qo'llanmalar

mashg'ulotni osonlashtirib, tinglovchilardagi mavzuga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Trenajerlar ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, shubhasiz, katta rol o'ynaydi. Masalan, texnik vositalar yordamida dars jarayonida har xil urush holatlarini hosil qilish, ta'limni real urush holatiga yaqin sharoitlarda olib borishga yordam beradi. Bu o'z navbatida mashg'ulot rahbariga ko'nikma va malakalarning rivojlanish jarayonini kuzatish hamda ushbu jarayonni boshqarish imkoniyatini beradi. Bunda askarlar yo'l qo'yayotgan kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatib borish imkoniyati muhim ahamiyatga ega.

Tajriba shuni ko'rsatayaptiki, harbiy xizmatchida ko'nikma, malakalar vaqt o'tishi bilan sekin-asta yo'qolib boradi. Shuning uchun ham jangovar tayyorgarlikda ko'nikma, malakalarni mustahkamlovchi mashg'ulotlarga katta e'tibor beriladi.

Takrorlash mashqlarini optimal vaqt oraliqlarida tashkil etish maqsadga muvofiq: qisqa vaqtli doimiy mashg'ulotlar, ahyon-ahyonda o'tkazilib, uzoq davom etadigan mashg'ulotlarga nisbatan ko'proq samara beradi.

9.4.Bo'linmada va harbiy xizmatchilar orasida vahima va uning oldini olish yo'llari

Harbiy jamoada salbiy ruhiy holatlar namoyon bo'lishining eng yomon shakllaridan biri vahima hisoblanadi. Vahima shunchaki ruhiy holat bo'lmasdan, balki kishilarning ongsiz va nazoratdan chiqib ketgan, bir vaqtda amalga oshiradigan xatti-harakatlar majmuasi hisoblanadi. Vahimaga tushgan kishilar nafaqat o'zlariga nisbatan nazoratni yo'qotadilar, shuningdek, komandirlar nazoratidan ham chiqib ketadilar hamda ma'lum bir muddat davomida irodaviy qobiliyatlarini yo'qotadilar. Shuning uchun ham vahima jangovar holatlarda eng xavfli hodisa hisoblanadi.

Urushlar tarixi shundan dalolat beradiki, qo'shin ichida paydo bo'lgan vahima, jangning mag'lubiyat bilan yakun topishiga olib keladi. Rossiya-Fransiya urushi Napoleon qo'shini ichida tarqalgan vahima tufayli fransuzlarning mag'lubiyati bilan yakunlandi. Yoki, ulug' sarkarda Bobur Mirzo qo'shinining Panapatra (Hindiston)da ko'p sonli hindlar qo'shini ustidan g'alaba qozonishini ta'minlagan narsa ham raqib qo'shini ichida tarqalgan vahima bo'lgan.

Vahima o'zining ta'sir doirasiga ko'ra ma'lum bir chegaraga ega emas. U kichik bir bo'linmani, harbiy qismni yoki butun boshli qo'shinni egallashi mumkin. Shu nuqtai nazardan Ikkinchi jahon urushining muhim sahifalaridan biri bo'lgan Dyunkerkdagi jang muhim ahamiyatga ega. Bu yerda Britaniya armiyasi shunchalik vahimaga tushgan ediki, jangovar qobiliyati va harbiy kuchini butunlay yo'qotdi. Shuning uchun ham Gitler raqib qo'shinini jismonan yo'q qilmaslik, aksincha, ularga chekinish uchun imkon berish haqida buyruq beradi. Gitlerning fikricha: "toki ingliz askar va ofitserlari butun Angliya bo'ylab nemislar oldidagi qo'rquv va tushkunlik kayfiyatini tarqatsinlar, bu esa ularni chuqur inqirozga olib keladi hamda so'zsiz taslim bo'lishlarini ta'minlaydi". Hatto butun Fransiya 1940 yilda vahima iskanjasida qolgan edi.

Ikkinchi jahon urushining eng muhim jabhasi bo'lgan Sovet-German frontidagi sovet qo'shinlari orasida ham vahima o'qtin-o'qtin paydo bo'lib, ko'plab talofatlar bo'lishiga olib kelgan. Shunday vaziyatlardan biri 1942-yilning yozida Don daryosi bo'yidagi janglarda kuzatiladi. Bu haqda Marshal V.I.Chuykov shunday deb yozadi: "Aftidan, nemislarning front chizig'ini yorib o'tish uchun zo'r berib qilgan hujumlarini daf qilganday edik, lekin, kutilmaganda qo'shinlarimiz ichida vahima boshlandi. U oldingi jabhada emas, balki, Don daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan front orti qismlari, medsanbat, artpark va avtomobilchilar bo'linmalarida boshlandi. Kimdir ikki-uch chaqirim narida nemis tanklarini ko'rganligini aytadi. Shu birgina, ehtimol yolg'on xabarning o'ziyoq ushbu qismlarda tartibsizlik boshlanib, hammaning daryodan o'tish uchun taraddudlanishiga olib keldi. Bu vahima menga noma'lum bo'lgan yo'llar orqali oldingi jabhadagi qismlarga ham yetib bordi, dushman aviasiyasi daryodan o'tish joyida juda ko'p odamlar va mashinalar to'planib qolganligini payqab qolib, bombardimon qila boshladi".

Amerikalik general Ridjuey, Koreya yarim orolida 1950-yilning dekabrda o'z qo'l ostidagi qo'shin ichida yuz bergan vahima holati haqida shunday deb yozadi: "Seuldan bor-yo'g'i bir necha chaqirim shimol tomonda qochayotgan armiyaga duch keldim. Men shu paytgacha bunday hodisani ko'rmagan edim va xudoga iltijo qilamanki, bundan keyin ham shunday tomoshani ko'rish menga nasib qilmasin. Tikka turgan askarlar bilan to'lgan yuk mashinalari butun yo'l bo'ylab yelib borar, askarlar esa og'ir artilleriya, pulemyot va

minometlarni tashlab qochishardi. Faqat ba'zi birlaridagina vintovkalar qolgan edi. Ularning hammasi faqat bir narsa, iloji boricha tezroq qochish, dahshatli dushmandan uzoqlashish haqida o'ylashardi. Men mashinadan chiqib, yo'ning o'rtasida turgancha imo-ishoralar bilan mashinalarni to'xtatishga urindim. Bu yo'l bilan biron-bir natijaga erishish dushvor edi. Faqat birgina yo'l qoldi: qo'shinga istagan joyigacha qochishiga imkon berish va shundan so'nggina ularni bir joyga jamlash haqida buyruq berdim"².

Keltirilgan misol-dalillardan ma'lum bo'ladiki, vahima har qanday armiya uchun uni ichdan yemiruvchi dahshatli psixologik hodisa ekan. U armiyaning kuch-qudratini yakson qilib, har qanaqangi samarali boshqaruv tizimini ham yemirib tashlaydi. Shuning uchun ham turli tarixiy davrlarda sodir bo'lgan mahoraba-urushlarda qo'mondonlar o'z qo'shinlari safida vahima tarqalishining oldini olish, aksincha, dushman bo'linmalari ichida uni yoyish uchun harakat qilishgan.

Bunday tajribalar Sohibqiron Amir Temur faoliyatida ham tez-tez bo'lib turgan, u dushmanni chalg'itish va qo'shinlarining ruhini ko'tarish maqsadida turli xil usul va vositalardan foydalangan. Ozarbayjondagi janglardan birida Sohibqiron lashkarboshilaridan biri Mengli Bug'o jangchilar orasida ko'tarilgan vahimaning oldini olish maqsadida o'ziga xos hiyla o'ylab topadi. Amir Temur o'z "Tuzuklari"da bu haqda "Ozarbayjon urushida Qora Yusuf bilan to'qnashganimda, lashkarim og'ir ahvolga tushib qoldi. Shunda u (Mengli Bug'o) maydonda o'lgan Qora Yusufning lashkar boshliqlaridan birining boshini nayza uchiga sanchib, baland ko'tardi va lashkariga uni Qora Yusufning boshi deb, uni o'ldiga chiqardi. Bundan lashkarim dadillanib, jangga tashlandi va Qora Yusuf lashkarining o'rtasiga hujum qilib, Qora Yusufni qochirdi. Bu urushda Qora Yusuf ustidan qozonilgan g'alabani Mengli Bo'g'o nomiga yozdirdim va uning martabasini oshirdim" - deb, yozadi.

Vahima jamoa psixologiyasiga xos hodisa bo'lganligi uchun ma'lum bir shart-sharoitlar mavjud bo'lganda har qanday armiyada ham paydo bo'lishi mumkin.

Qurolli Kuchlarda vahimani bartaraf etish muammosi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Harbiy faoliyatga texnik jihatdan yuksak darajada takomillashgan harbiy texnika, qurollar, ayniqsa, ommaviy qirg'in qurollarining kirib kelishi bilan jang sharoitida

shaxsiy tarkibga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar miqdori va ta'sir kuchi ancha oshdi. Bu narsa harbiy nazariyotchilar va psixologlarning o'z diqqatlarini vahima hodisasi hamda uning oldini olish muammolariga yana ham ko'proq qaratishlariga sabab bo'ldi. Amerikalik psixolog J. Berk yozganidek, "Harbiy tarix sahifalari yomon tayyorgarlik ko'rgan va, shuningdek, ilg'or bo'linmalardagi vahimalar tafsiloti bilan to'lib toshgan. Ammo hali hech qachon uning tarqalish imkoniyatlari yadroviy urushlardagidek bo'lgan emas".

Ommaviy psixologik hodisa sifatida vahimaning tabiatini va unga qarshi kurashish yo'llarini "Harbiy psixologiya" fani o'rganadi. Ushbu maqsadda bir qator mamlakatlar Qurolli Kuchlari tizimida maxsus laboratoriya va tadqiqot markazlari tuzilgan.

Psixologiya nuqtai nazaridan vahima nima?

Vahima - bu haqiqiy yoki yolg'on xavf-xatar oldida alohida insonning yoki kishilar guruhining kuchli esankirashi, qo'rqishi va o'zini yo'qotib qo'yishidan iborat holat bo'lib, bunda boshlangan ishni davom ettirish imkoniyati qolmaydi va shuning bilan birgalikda kishilar hech bir ma'nisiz, rejasiz hamda tasodifiy harakatlarni amalga oshiradilar.

Qo'rquv va vahimani individual-psixologik hodisa sifatida ham, shuningdek, ommaviy hodisa sifatida ham talqin qilish mumkin. Lekin, nima bo'lganda ham ularni inson va jamoalar tabiatidan ajratib bo'lmaydi. Ammo alohida odamdagi vahima birlamchi bo'lib, guruh doirasidagi vahima uchun asos bo'ladi.

Qo'rquv nima? Uning oldini olish va yo'qotish imkoniyatlari mavjudmi?

Qo'rquvni ko'p million yillarga cho'zilgan insoniyat bosib o'tgan biologik taraqqiyot yo'lining mahsuli deb qarash mumkin. Chunki aynan vahima hissi insonlarni xavf-xatardan saqlagan, ular uchun himoyalaniish va yashab qolish vositasi bo'lgan.

Qo'rquv mohiyat e'tibori bilan insonning xavf-xatarni anglashi natijasida kuchli ruhiy zo'riqishga uchrash holati. Hayot uchun xavfli bo'lgan jangovar vaziyatlarda harbiy xizmatchilarda vahima hissi paydo bo'ladi. U psixologik reaksiya sifatida insondagi fiziologik va ruhiy jarayonlarga juda kuchli ta'sir o'tkazadi, natijada harbiy xizmatchi o'zini boshqacha tuta boshlaydi. Vahima insonning ichki organlari faoliyatiga ham ta'sir etadi. Yurak, qon tomirlar ishi va nafas olish maromi o'zgaradi. Qon tarkibida qand miqdori birdan oshib

ketishi oqibatida organizmning umumiy zaiflashishi kuzatiladi. Shuning uchun ham qoʻrquvni boshidan kechirgan kishilarga koʻproq qand va shirinliklar berish tavsiya etiladi. Lekin buni qoʻrquvni bartaraf etish usuli deb tushunmaslik kerak.

Qoʻrquv hissi asab hujayralari va bosh miya qobigʻidagi asosiy asab jarayonlari qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlarining maromda kechishiga ham taʼsir etadi. Asab hujayralarining qoʻzgʻatuvchilar taʼsiriga javoblari nomuvofiq boʻladi. Bunday holatda asab tizimining kuchsiz qoʻzgʻatuvchilarga reaksiyasi kutilmaganda juda ham kuchli boʻlishi mumkin. Aksincha, kuchli qoʻzgʻatuvchilar oʻz taʼsirlarini yoʻqotadilar.

Shuningdek, qoʻrquv aqliy jarayonlar, hissiyot va irodaga ham oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Odam diqqatini jamlab ololmay qoladi, oddiy narsalarni ham unutadi, eng oddiy vaziyatlarni ham toʻgʻri baholay olmaydi, uning harakatlari ong nazoratidan chiqib ketadi va oʻzgaruvchan boʻlib qoladi. Qoʻrquv turli daraja va shakllarda sodir boʻladi. Xavf-xatar mavjud boʻlganda har qanday inson his qiladigan bezovtalik hissi qoʻrquvga xos boʻlgan emotsional reaksiyalar jumlasiga kiradi.

Desantchilar qismlarida yangi kelgan harbiy xizmatchilar parashyutdan sakrash boʻyicha yerda oʻtkaziladigan dastlabki tayyorgarliklar vaqtida bezovtalik hissini tuyadilar. Agar vaqtida tegishli choralar koʻrilmasa, bezovtalik hadiksirashga aylanadi. Bu hodisa birinchi marta samolyotdan sakrash vaqtida boʻlishi mumkin. Kimda iroda yaxshi rivojlangan boʻlsa, oʻzidagi hadiksirash hissini vaqtida bartaraf etishi mumkin. Bordi-yu, buning uddasidan chiqilmasa, u qoʻrquvga aylanishi mumkin. Bunday paytda hadiksirash komandirning aralashuvi va taʼsiri ostida yoʻqotiladi. Choʻchiyotgan kishiga uni qiynayotgan bunday hissiyotdan qutulishi va harakat qilishi uchun, odatda, birinchi turtki zarur boʻladi, bunday turtki komandir tomonidan beriladi. Bu baland tovushda va qatʼiy qilib berilgan buyruq, harakatni boshlash uchun ishora yoki shaxsiy namuna boʻlishi mumkin. Agar harbiy xizmatchidagi hadiksirash oʻz vaqtida yoʻqotilsa, uning ish qobiliyati toʻliq tiklanadi.

Oʻz vaqtida nazorat qilinib, oldi olinmagan hadiksirash qoʻrquv yoki dahshatga tushish darajasigacha yetishi mumkin. Bu holat inson ruhiyatini uzoq vaqtgacha falaj qilib, uning ish qobiliyatining butunlay yoʻqolishiga olib keladi. Qoʻrquv va dahshatga tushgan askarlar

boshqalarga yomon ta'sir ko'rsatmasliklari uchun shaxsiy tarkibdan ajratib qo'yilishlari kerak. Birgina odamdagi qo'rquv hissiyoti qisqa vaqt ichida yana ham kattaroq bo'linmalarga o'tishi mumkin.

Vahima iskanjasida qolgan jamoa, odatda, o'zining jamoaga xos sifatlarini yo'qotadi. U o'zaro uyushmagan kishilar guruhiga aylanadi. Bunday guruhlarni, ba'zan olomon deb ham ataydilar.

Shuni aytib o'tish kerakki, har qanday vahima o'zining manbalariga ega bo'ladi. Qism va bo'linmalardagi vahima, odatda, bitta yoki bir nechta manbalardan boshlanadi. Alohida askar yoki kichik guruh shunday manba bo'lishi mumkin. Vahima hamma vaqt ham bir manbadan boshlanmasa-da, ammo vahima ichida qolgan bo'linmada doim uning markazi bo'ladi. Muayyan bir kishi shunday markaz bo'ladi. U favqulodda bir vaziyatda vahimaga tushgan kishilar yetakchisiga aylanadi va yana kutilmaganda o'zining bu o'rnidan mahrum bo'lishi mumkin.

Vahimaga berilgan kishilar yetakchiga taqlid qiladilar, ularda yetakchining so'zlariga va harakatlariga nisbatan ishonch paydo bo'ladi. Olomon eng oldinda chopayotganning ortidan u to'g'ri qilayotganligi uchun emas, balki hammadan tez yugurayotganligi uchun ham ergashadi. Tasodifiy lider qanchalik ko'p vahimaga berilsa, boshqalar unga shunchalik zo'r berib ergashadilar. Shuning uchun ham bunday liderni tezda boshqalardan ajratish va uning o'rnini to'g'ri fikrlash hamda sovuqqonlik bilan harakat qilish layoqatiga ega bo'lgan boshqa bir kishi egallashi vaziyatni o'nglashning yagona yo'li hisoblanadi. Toki u olomonning diqqatini o'ziga qaratib, ular taqlid qilishlari uchun to'g'ri harakatlarni amalga oshira olsin.

Shuningdek, vahima jamoa a'zolarining hammasida birdaniga boshlanishi mumkin. Odatda, bunday holat dushman tomonining kuch va imkoniyatlari juda ham yuqori bo'lganda namoyon bo'ladi.

Vahima davomiyligiga ko'ra qisqa yoki uzoq vaqtli bo'ladi.

Albatta, agar harbiy jamoada buning uchun shart-sharoit bo'lmasa, alohida askardagi qo'rquv hissi boshqalarga yuqmaydi. Bu holatda har bir harbiy xizmatchidagi ma'naviy-axloqiy tayyorgarlik darajasi katta rol o'ynaydi. Jamoa psixologiyasida ma'naviy-axloqiy barqarorlikning bo'lmasligi uni arziyas qo'rquv oldida ham zaif qilib qo'yadi. Agar askarda o'zi qilayotgan ishning adolatliligiga nisbatan e'tiqod, dushmanlarga nafrat, o'z Vataniga va xalqiga muhabbat, g'alabaga ishonch bo'lmasa, jangovar vaziyatlarda paydo bo'ladigan

jismoniy va ruhiy zo'riqishlarni yengib o'tish uchun ichki qudrat bo'lmaydi.

Harbiy ishni, texnikani va qurollarni yaxshi bilish, jang sharoitida ishonchli harakat qilish ko'nikmalarini egallash, dushmanning zaif va kuchli tomonlarini bilish kabilar jangda harbiy xizmatchilar ruhiy barqarorligini ta'minlovchi, demakki, qo'rquv va vahimaning oldini oluvchi omillar sirasiga kiradi. Komandirlarning o'z bo'linmalaridagi harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlarini bilishlari ham tahlikali vaziyatlarda tashabbusni qo'lga olishlariga va jangovar faoliyatni samarali boshqarishlariga yordam beradi.

Tayanch so'zlar: Vahima; qo'rquv; esankirash; tahlika; yetakchi; olomon; ommaviy qirg'in qurollari.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Vahima nima? Uni ta'riflang.
- 2.Vahimaning oldini olish va bartaraf etish yo'llari haqida so'zlab bering.

10-mavzu: Harbiy xizmatchilarni axloqiy-psixologik tayyorlash.

Reja:

- 1.Harbiy xizmatchilarni axloqiy-psixologik tayyorlash.
- 2.Shaxsiy tarkibni jangovar tayyorgarlik jarayonida psixologik chiniqtirish (tayyorlash).
- 3.Harbiy xizmatchi va bo'linmalar psixologik xususiyatlarini o'rganish usullari
- 4.Motivatsiya.

10.1.Harbiy xizmatchilarni axloqiy-psixologik tayyorlash

Urushda g'alabaga erishish harbiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy omillarga bog'liq bo'ladi. Urushni muvaffaqiyatli olib borish uchun uni jangovar texnika va qurollar, yaxshi tayyorgarlik ko'rgan qo'shin, yuksak malakali ofitserlar va boshqa narsalar bilan ta'minlash zarur. Bundan tashqari, ma'naviy omil - xalq va Qurolli Kuchlarning ma'naviy jihatdan birligi muhim ahamiyatga ega. Qurolli Kuchlarning ma'naviy ruhi quyidagi 3 ta sifatni o'z ichiga oladi:

- Shaxsiy tarkibning g'oyaviy-siyosiy holati;
- Shaxsiy tarkibning axloqiy-jangovar holati;
- Shaxsiy tarkibning ruhiy holati.

Qurolli Kuchlar ma'naviy ruhining eng muhim tashkil qiluvchisi g'oyaviy-siyosiy jihat hisoblanadi. U narsa shaxsiy tarkibning g'oyaviy va siyosiy jihatdan qanchalik yetukligida o'z ifodasini topadi. Bular g'oyaviy e'tiqodlilik, vatanparvarlik, dushmanlardan nafratlanish, baynalminallik, o'z burchi va majburiyatini yuksak darajada anglash, shuningdek, g'alabaga erishish yo'lida har qanday yo'qotish va qiyinchiliklarga chidab berishdir. Qurolli Kuchlar ruhining axloqiy-jangovar tomoni esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish;
- jangovar mahorat;
- o'z harbiy texnikasi va quroliga ishonch hissi;
- o'z komandirlariga, o'z-o'ziga va g'alabaga bo'lgan ishonch;

Harbiy jamoa psixologiyasidagi axloqiy-jangovar komponent yuksak jangovar tayyorgarlik va jangovar qobiliyatni his qilishda va, shuningdek, jangovar jipslikka erishishda, hujumkorlik va shijoatkorlik ruhida namoyon bo'ladi. Qurolli Kuchlar axloqiy ruhining psixologik tomoni shaxsiy tarkibdagi axloqiy-siyosiy va jangovar sifatlarning mavjudligida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari harbiy xizmatchilardagi psixologik xususiyatlar, psixik jarayonlar, holatlar, munosabatlar, shuningdek, harbiy jamoaga xos xususiyatlar ham psixologik tomonini tashkil qiladi.

Masalan: hozirgi paytda harbiy uchuvchi taxminan 30 ta psixologik va psixofiziologik sifatlarga ega bo'lishi lozim. Ulardan qaror qabul qilishdagi mustaqillik va tezkorlik, idrok va diqqat qobiliyatining yorqin namoyon bo'lishi, yaxshi fazoviy tasavvur va operativ xotira, sensomotor va aqliy ko'nikmalarni tezda egallash qobiliyati, yuksak emotsional irodaviy barqarorlik va hokazo. Uchuvchining bunday sifatlarni egallashi harbiy texnikani boshqarish va urush talablari bilan bog'liq. Keyingi 30 yil ichida samolyotlardagi asboblarning soni 10 martaga, samolyotni boshqarish bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish uchun ketadigan vaqt esa 6-7 martaga qisqardi. Harbiy telegrafchi ham quyidagi psixologik sifatlarga ega bo'lishi lozim:

- morze belgilari asosida tovushlarni idrok qila olish qobiliyati;
- eshitish analizatorlarining tanlovchanlik qobiliyati;
- kuch va imkoniyatlarni vaqt hamda joylar bo'yicha to'g'ri taqsimlay olish malakasi;
- harakat reaksiyasining tezligi;

-umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi.

Radiolokatsiya tizimi operatori esa quyidagi psixologik sifatlarga ega bo'lishi lozim:

- mas'uliyatni yuksak darajada his eta olish;
- batartiblik;
- stressga nisbatan barqaror munosabat;
- yaxshi kuzatuvchanlik qobiliyati;
- diqqatni uzoq vaqt bir joyga jamlay olish qobiliyati;
- yuksak operativ xotira;
- induktiv va deduktiv tafakkur qobiliyati;
- ko'rish analizatorlarining yaxshi moslashuvchanligi.

Shuningdek, harbiy jamoani quyidagi ijtimoiy-psixologik sifatlarsiz ham tasavvur qilib bo'lmaydi:

-harakatlarning yuksak darajadagi uyg'unligi va ijtimoiy - psixologik jipslik;

- jangovar birodarlik va o'rtoqliq hissi;
- g'alabaga erishish yo'lida fikrlar va intilishlarni birlashtira olish;
- hujumga shiddat bilan kirishish va mudofaada sabot bilan tura olish;

-jamoada ko'pchilikning ozchilikning fikrlariga nisbatan bag'rikengligi.

Yuqorida aytilganlardan shu narsa ko'rinib turibdiki, harbiy jamoa psixologiyasi individual - psixologik va ijtimoiy - psixologik hodisalar yig'indisidan iborat. Qurolli Kuchlarda olib boriladigan axloqiy - siyosiy, jangovar va psixologik tayyorgarliklar bir - biridan ajralmas jarayonlardir. Ushbu jarayonda axloqiy - siyosiy va jangovar tayyorgarlik yetakchi hisoblanadi. Psixologik tayyorgarlik esa ikkala jarayonda shakllantiriladi. Ya'ni, alohida psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazilmaydi.

Malumki, hozirgi vaqtda dunyoning bir qancha davlatlari ommaviy qirg'in qurollariga ega, jumladan, bizning hududimizga yaqin joylashgan Rossiya, Hindiston va Pokiston davlatlari ham yadroviy qurollarga ega. Ommaviy qirg'in qurollarining mavjudligi, ularni ishlatish ehtimoli yoki bevosita harakatga solish harbiy xizmatchilarda (aholida ham) bir qator psixologik holatlarning paydo bo'lishiga olib keladi:

- ruhiy zo'riqish;
- ruhiy holatning izdan chiqishi;

- xatti - harakatlarni boshqara olmaslik;
- vaziyatlarni baholashda xatoliklarga yo‘l qo‘yish;
- vaqtini va joyini aniqlashdagi xatoliklar;
- reaksiyalar tezligi va aniqligining pasayishi;
- xotira va tafakkurning zaiflashuvi.

Bu holatlarning hammasi urush vaqtida odamlarni va harbiy texnikani boshqarayotgan harbiy xizmatchining kasbiy imkoniyatlarini xavf ostiga qoldirishi mumkin. Agar zamonaviy harbiy qurollar va texnikaning jangdagi ishtiroki inson imkoniyatlarini bir necha marotaba oshirishini e‘tiborga oladigan bo‘lsak, u yo‘l qo‘yadigan xatoliklarning ham ko‘lami shunga mos ravishda kattalashadi. Shunday qilib, zamonaviy urush talablaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, psixologik tayyorgarlikning vazifalaridan biri, harbiy xizmatchi psixikasining funksional ishonchliligini oshirishdan iborat.

Psixikaning funksional ishonchliligi quyidagilar hisobiga oshadi:

- sezgi organlarining sezuvchanligini oshirish, reaksiyalarning tezligi va aniqligi, xatti - harakatining kuchi, koordinatsiyasi va barqarorligi;

- jang vaqtida vaqtni va masofani, obyektlarning o‘lchamlarini, harakat tezligini to‘g‘ri baholash qobiliyatini rivojlantirish;

- jang vaqtida harbiy xizmatchilarda diqqat ko‘lamini asosiy faoliyatga yo‘naltirilgan diqqatga ziyon yetkazmagan holda boshqa narsalarga ham qarata olish;

- inson jangda ro‘baro‘ kelishi mumkin bo‘lgan predmet va hodisalar haqida har tomonlama keng tasavvurlarni yaratish va mustahkamlash;

- jang vaqtida xotira samaradorligini saqlab qolish, esga olishning tezligi, esda saqlash va aniq esga olish, operativ xotira mavjudligi. Bularning hammasiga jangovar sharoitlarga yaqin sharoitlarda o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish yo‘li bilan erishish mumkin.

Zamonaviy urushlar insonning nafaqat bilish jarayonlariga, balki, uning hissiyot va irodasiga ham yuksak talablar qo‘yadi.

Xavf - xatar urushning ajralmas xususiyati hisoblanadi. Ma’lumki, insonning xavf - xatarni bevosita idrok qilishi qiyin va u buni xayol vositasida biladi.

Insondagi xavfli vaziyatlarda ham ruhiy barqarorlikni yo‘qotmaslik va samarali faoliyat yurita olish layoqatiga emotsional - irodaviy barqarorlik, deyiladi.

Emotsional - irodaviy barqarorlik shaxsiy tarkibni psixologik tayyorlashning muhim vazifalaridan biri. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, harbiy xizmatchilarda sovuqqonlikni, barqarorlikni va qo'rqishni yenga olish mahoratini tarbiyalash jangovar vazifalar ichida eng mas'uliyatli, psixologik jihatdan esa eng murakkabi hisoblanadi.

Psixologik tayyorgarlik axloqiy - siyosiy hamda harbiy - kasbiy tayyorgarlik doirasida amalga oshiriladi.

Psixologik tayyorgarlik - bu harbiy xizmatchilarda jangovar vazifalarni bajarishga nisbatan ichki tayyorgarlikni shakllantirish, shuningdek, ularda faoliyatning barqaror ijobiy motivlarini yaratishdan iborat bo'lgan hodisadir.

Qurolli Kuchlarda shaxsiy tarkibni psixologik tayyorlashning 3 xil turi mavjud:

- maxsus;
- umumiy;
- maqsadli.

Psixologik tayyorgarlikning maxsus turida harbiy xizmatchilarda jangovar holatlarga nisbatan tayyorgarlik hosil qilinadi, ularda barqarorlik shakllantiriladi. Psixologik tayyorgarlikning umumiy turida esa harbiy xizmatchilarda Vatan himoyasiga ongli ravishda tayyor turish shakllantiriladi.

O'quv mashg'ulotlarida qiyin va xavfli vaziyatlarni hosil qilish bilan harbiy xizmatchilarda qo'rqishni irodaviy yengish ko'nikmalari maqsadli psixologik tayyorgarlik jarayonida hosil qilinadi.

Shaxsiy tarkibni jangovar vaziyatlarga nisbatan psixologik tayyorlash yo'llari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasini o'rganish;
- raketa-yadro urushi haqida to'g'ri tasavvurni shakllantirish;
- mashg'ulotlarni jangovarlikka yaqin sharoitlarda olib borish;
- o'z quroliga, komandirlariga va g'alabaga ishonchni shakllantirish;
- o'quv jarayonida oldingi urush tajribalarini o'rganish;
- milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasini shakllantirish;
- vatanparvarlikni, baynalminallikni va dushmanga nisbatan nafratni tarbiyalash;
- g'oyaviy immunitetni shakllantirish;
- jangovar mahoratni shakllantirish;
- yuksak harbiy intizomni tarbiyalash;

- Vatanga qasamyodga sadoqatni tarbiyalash;
- himoya vositalarida mashq o‘tkazish;
- jismoniy jihatdan chiniqtirish;
- mashg‘ulotlarda imitatsiya vositalarini qo‘llash;
- mashg‘ulotlarda qo‘rqish hissini yengishda yordam beruvchi mashqlarni bajarish.

Shubhasiz, shaxsiy tarkibning psixologik chiniqqanligi jangovar tayyorgarlikda katta rol o‘ynaydi.

10.2.Shaxsiy tarkibni jangovar tayyorgarlik jarayonida psixologik chiniqtirish (tayyorlash).

Ta’lim va tarbiya sharoitlarini jangovar faoliyat sharoitlariga yaqinlashtirish jangchini ruhiy tomondan jangga tayyorlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Albatda, haqiqiy jangovar vaziyat faqat jang-u jadalar vaqtidagina bo‘ladi. O‘quv - jangovar faoliyat jarayonida esa biz jangovar sharoit modelini yoki uning alohida qismlarini yaratishimiz va shu orqali shaxsiy tarkib yoki bo‘linmaning psixologik tayyorgarligini ta’minlashimiz mumkin.

Psixologik tayyorgarlik jarayonida jangovar faoliyatni takomillashtirish maqsadida har xil jang, urush vaziyatlari yaratilishi lozim.

Yaratilayotgan sun’iy vaziyatlar o‘zining psixologik tarkibiga ko‘ra, jangovar holatga qanchalik yaqin bo‘lsa, o‘quv - jangovar faoliyat jangovarlikka shunchalik yaqinlashib boradi. Bu narsa shundan dalolat beradiki, o‘quv - jangovar faoliyatni amalga oshirayotgan harbiy xizmatchidagi motiv, maqsad va harakatlar haqiqiy jangovar vaziyatlardagi xuddi shunday psixologik elementlar bilan imkoni boricha ko‘proq o‘xshash bo‘lishi lozim. Tabiiyki, o‘quv-jangovar faoliyat o‘zining emotsional tomonlari bilan ham jangovar faoliyatga o‘xshash bo‘lishi talab etiladi.

Mashqlar paytida jangovar shart-sharoitlarni sun’iy yaratganda jangovar faoliyat modelini hosil qilish psixologik jihatdan muhim omil hisoblanadi. Jangda psixologik omillarni modellashtirish deganda shunday vaziyatni yaratish usulini tushunamizki, uning vositasida harbiy xizmatchilarda haqiqiy jang sharoitida tug‘iladigan ruhiy holatlar hosil qilinadi.

Jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari jarayonida jangning psixologik omillarini modellashtirish o'xshashlik tamoyili asosida, shuningdek, boshqa usullar vositasida amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlarda jangning psixologik omillarini modellashtirish ikki xil shaklda amalga oshiriladi:

1. Jangning psixologik tashkil qiluvchilarining to'liq modelini yaratish;

2. Jangning psixologik tashkil qiluvchilarining bitta yoki bir nechtasining modelini yaratish.

O'quv mashg'ulotlarini rejalashtirganda nafaqat uning taktik tomonlarini yoki o'quv savollarini, balki, psixologik rejani ham aniqlashtirib olish kerak.

Psixologik reja quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Mashg'ulot qayerda o'tkaziladi;

2. Harbiy xizmatchilarda qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun kerak bo'ladigan qat'iylik, jasurlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni hosil qilish yo'llari.

Afsuski, ko'pchilik komandirlar imitatsiya vositalari yordamida jangning tashqi shart-sharoitlarini yaratish bilan jangchilarning psixologik tayyorgarligini amalga oshirish mumkin, deb noto'g'ri o'ylashadi.

O'quv-jangovar faoliyatida jangning psixologik omillarini yaratish uchun komandirlar har xil usullardan foydalanishadi. Psixologik tayyorgarlik usuli deganda, jang omillarini modellashtirish usullari tushuniladi.

Jangning psixologik omillarini yaratish usullari quyidagilar:

1. So'z-belgi usuli. Bu usul harbiy xizmatchilarga ikkinchi signallar tizimi - so'z orqali ta'sir etib, psixologik holatlar yaratishdan iborat. Bu oldindagi qiyinchiliklar haqidagi, jarohat olish ehtimolligi hamda har xil, tarixiy voqealar haqidagi hikoyalar bo'lishi mumkin;

2. Ko'rgazmali usul. Bu usul vositasida harbiy xizmatchilarga har xil predmetlar (masalan: har xil qurollarni), xatti - harakatlar (har xil to'siqlarni yengib o'tish, harbiy xizmatchilar ustidan tankni haydab o'tish va hokazo), kinofilmlar, fotodasturlar, chizmalar va hokazolar ko'rsatiladi;

3. Kompyuter vositasida ta'sir etish usuli. Kompyuterlarda jangning psixologik omillari modellashtiriladi va harbiy xizmatchilarga ko'rsatiladi;

4. Trenajer usuli. Jangning psixologik omillari sport snaryadlari, texnik vositalar va inshootlarni qo'llash bilan modellashtirish orqali harbiy xizmatchilar ongiga ta'sir etiladi;

5. Imitatsiya usuli. Imitatsiya vositalari yordamida jangning psixologik omillari modellashtiriladi;

6. Jangovar usul. Jangning psixologik omillari jangovar texnika va qurollarni qo'llash orqali modellashtiriladi.

Psixologik tayyorgarlik metodi deganda, dars va dala o'quv mashg'ulotlari jarayonida psixologik tayyorgarlik usullarining o'quv-jangovar faoliyat bilan uyg'unlashuvi tushuniladi.

Faoliyatga harbiy xizmatchining qo'shilish darajasiga qarab psixologik tayyorgarlik usullari uchta katta guruhga bo'linadi:

1. Ko'rgazmali usullar (qurollarning harakatlarini ko'rsatish, jangovar yoki himoya harakatlarini ko'rsatib berish. Ushbu usullarni qo'llash vaqtida harbiy xizmatchi jangovar faoliyatdan boshqa faoliyatlar bilan shug'ullanadi (masalan, kuzatish).

2. Shartli vaziyatlar usullari (har xil muammolarni yechish, ish o'yinlari, taktik o'quv mashg'ulotlari, qo'mondonlik-shtab o'quv mashg'ulotlari). Ushbu usullarni qo'llagandagi faoliyat shartli xarakterga ega (o'ziga xos "urush-urush o'yini"), shartli vaziyatlar usullari jangovar faoliyatning ichki tuzulishini va mantiqini bilib olishga yo'naltirilgan.

3. "Real" vaziyatlar usullari. Ushbu usullar yaratilgan shart-sharoitlarning harbiy xizmatchilar tomonidan real jangovar sharoit sifatida qabul qilinishini hamda ularning haqiqiy jangovar xatti-harakatlarni amalga oshirilishlarini taqozo qiladi.

Harbiy xizmatchi va harbiy jamoalarda jangovar vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan psixologik sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimiga psixologik tayyorgarlik deyiladi.

Psixologik tayyorgarlik bo'yicha tadbirlar komandirlar tomonidan ularga bo'ysunuvchilarning xizmat davri davomida amalga oshiriladi. Ko'pincha, psixologik tayyorgarlik anglanmagan holda, shakllangan an'ana va tasavvurlardan kelib chiqib, "shunday qilish kerak" degan tamoyil asosida olib boriladi.

Psixologik sifatlarning faqat faoliyatdagina shakllanishi psixologiya fanida isbotlangan. Qanday psixologik sifatlari (qat'iylik, tashabbuskorlik)ni emas, balki, ushbu sifatlarni qanday shakllantirish psixologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Har xil odamlar bir xil

vazifani o'zlarining psixologik imkoniyatlaridan kelib chiqib har xil usullar bilan bajaradilar. Kam rivojlangan, bir xil sifatlarning o'rni yaxshi rivojlangan boshqa bir sifat bilan to'ldirilishi mumkin.

Ushbu qoidadan kelib chiqadigan bo'lsak, amaliyot uchun insonning u yoki bu psixologik sifatga egaligi yoki ega emasligi emas, balki, uning psixologik sifatlari jangovar sharoitda ko'zda tutilgan faoliyatlarni amalga oshirishga imkon berish yoki bermasligi katta ahamiyatga ega.

Psixologik tayyorgarlikni tashkil etishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1. Faoliyatni qiyinlashtiruvchi elementlarni harbiy xizmatchi normal sharoitda harakat qilishni to'liq o'zlashtirib olgandan keyingina kiritish kerak;

2. Psixologik omillarni modellashtirish usullari o'zlashtirilayotgan xatti-harakatlar mazmuniga mos bo'lishi zarur;

3. Jangovar vaziyatni harbiy xizmatchilar uchun kutilmaganda tartibsiz ravishda modellashtirish lozim, toki ular modellashtirishdagi ma'lum bir davomiylikka o'rganib qolishmasin;

4. Muayyan mutaxassislik uchun ta'sir etish ehtimolligi yuqori bo'lgan omillarni ko'proq modellashtirish maqsadga muvofiq;

5. Jang omillarini modellashtirishda psixologik yuklama shunday bo'lishi kerakki, toki ko'pchilik harbiy xizmatchilar uni yengib o'tib, muvafaqqiyatga erishish imkoniga ega bo'lishsin. Yuklamaning mana shunday miqdori harbiy xizmatchilardagi o'zlariga bo'lgan ishonchlarini mustahkamlaydi, shuningdek, ularda murakkabroq masalalarni yechish istagini uyg'otadi;

6. Agar harbiy xizmatchi hosil qilingan jangovar vaziyatda qiynalib qolsa, unga yengilroq vazifalarni hal etish taklif etiladi.

Harbiy xizmatchi ruhiyatiga ta'sir etuvchi jang omillari (xavf-xatar, favquloddalik, noaniqlik, yangiligi, harakat me'yoring oshishi, vaqt taqchilligi) ikki guruhga bo'linadi:

Birlamchi va ikkilamchi omillar.

Birlamchi omil sifatida xavf-xatar e'tirof etiladi.

Ikkilamchi omillarga esa favquloddalik, noaniqlik, yangiligi va hokazolar kiritiladi.

Psixologik tayyorgarlik ma'lum tartibda amalga oshishi uchun jangni psixologik modellashtirish quyidagi komponentlarga ajratiladi:

motivatsiya komponenti, bilish xarakteridagi komponentlar va motor komponenti.

Bunday ajratish shartli bo'lib, u psixologik modellarni ongli rejalashtirish va tahlil qilish uchun zarur.

Motivatsiya komponenti: motivlar insonni faoliyatga undaydi. O'quv mashg'ulotlarida motivlarni faollashtirish bilan motivatsiya komponentini modellashtiramiz.

Uch turdaga motivlar mavjud:

1. Keng ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan motivlar, Vatanga muhabbat, burchga, xalqqa sadoqat, dushmanlarga nafrat;
2. Jamoatchilik motivlari-jamoatchilik hissi, o'z bo'linmasi uchun faxrlanish;
3. Shaxsiy motivlar-boshqalarning e'tiboriga tushishga intilish, o'z mavqeini mustahkamlash yoki o'zgartirish, komandirning maqtovi.

Faoliyat samaradorligiga ko'rsatadigan ta'siriga qarab motivlar bir-biridan farq qiladi. Birinchi guruh motivlar faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ikkinchi va uchinchi guruh motivlari esa ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bundan shu narsa ma'lum bo'ldiki, harbiy xizmatchilarda, eng avvalo, birinchi guruh motivlarini faollashtirish lozim. Bunda ikkinchi va uchinchi guruh motivlaridan samarali foydalanish zarur bo'ladi.

Ruhiyatimizga ko'rsatilayotgan ta'sirotlarning hammasini ham ongimizda aks ettirmaymiz. Tashqi qo'zg'atuvchining ongimizda aks etish darajasi uning uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga bog'liq. Sezgi o'zining quyi va yuqori chegaralari oralig'ida voqealarni anglaydi.

10.3. Harbiy xizmatchi va bo'linmalar psixologik xususiyatlarini o'rganish usullari

Harbiy xizmatchi shaxsini psixologik o'rganish dasturi.

Harbiy xizmatchi psixologiyasini har tomonlama o'rganish uchun uning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq hamma jihatlarini o'z ichiga olgan dastur bo'lishi lozim. Quyida shunday dasturlardan biri namuna tariqasida beriladi.

Harbiy xizmatchining psixologik xususiyatlarini o'rganish dasturi.

Harbiy xizmatchi hayotiy tajribasi.

1. Oilasi, tugʻilgan joyi. Ota-onalarining yashash joyi (shahar yoki qishloq).

Oila tarkibi, har bir oila aʼzosi bajaradigan faoliyat turi (kasbi, ishlash yoki oʻqish joyi).

Ota-onalarining bir-birlariga va bolalariga munosabati. Ota-onalar bolalar tarbiyasi bilan muntazam shugʻullanadilarmi yoki yoʻqmi? Bolalikda oila aʼzolaridan kim eng koʻp taʼsir oʻtkazgan (oiladagi axloqiy-psixologik muhit). Uylangan yoki boʻydoq, bolalari bormi?

2. Maktab, kollej, oliy oʻquv yurti. Qaysi maktabda, oʻquv yurtida oʻqigan (shahar, qishloq, uydan uzoqda, kasbi)?

Oʻqishdagi muvaffaqiyatlari. Qaysi fanlarni yaxshi koʻrgan? Oʻqituvchilardan kimlarni yoqtirgan va nima uchun? Oʻqishdan boʻsh vaqtlarda nima bilan shugʻullangan, (maktabda, uyda, koʻchada)? Kim bilan doʻstlashgan, qanday toʻgaraklarga qatnashgan? Qanday kitoblarni oʻqigan? Kim boʻlishni orzu qilgan? Maktabda, oʻquv yurtida qanday jamoatchilik ishlarini bajargan?

3. Qurolli Kuchlarga chaqirilish davrigacha boʻlgan ish faoliyati. Qayerda va qancha vaqt ishlagan (zavod, kolxoz)? U ishlagan mehnat jamoasi oʻz rejalarini qanday bajargan? Qanday kasbni oʻzlashtirgan? Oʻz ishi yoqqanmi? Nima uchun aynan ushbu kasbni tanlagan? Ishdan boʻsh vaqtlarda nima bilan shugʻullangan? Nima bilan qiziqqan? Kimlar bilan doʻstlashgan? Doʻstlari bilan xat yozishib turadimi? Yoshlar tashkilotlari ishida ishtirok etganmi?

Xulosalar: oila, maktab va mehnat jamoasining harbiy xizmatchi shaxsi rivojlanishiga taʼsiri: nimalar ijobiy va nimalar salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin? Harbiy xizmatchi shaxsidagi u yoki bu psixologik xususiyatlarning paydo boʻlishiga taʼsir qiluvchi omillar.

Harbiy xizmatchining jismoniy holati va jismoniy rivojlanish xususiyatlari.

1. Jismoniy rivojlanishi:

Umumiy jismoniy rivojlanganligi (yaxshi, oʻrtacha, zaif). Jismoniy chiniqqanlik darajasi (jismoniy chiniqqan yoki yoʻq, dala oʻquv mashgʻulotlarida jismoniy zoʻriqishni qanday yengadi). Sportni sevadimi? Sportning qaysi turiga qiziqadi? Qanday maqsadda sport bilan shugʻullanadi (sportchi razryadini olish yoki boshqa maqsadlarda)?

Salomatligi. Tez-tez kasal bo'lib turadimi? Nimadan shikoyat qiladi? Salomatligi uning kayfiyatiga va xizmatiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Jismoniy chiniqish darajasi, organizmning yuqumli kasalliklarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati. Uning salomatligini mustahkamlash uchun qanday choralar ko'rilishi kerak?

Xulosalar: Harbiy xizmatchi jismoniy rivojlanishining asosiy xususiyatlari, salomatligi va uning harbiy xizmatchi shaxsiga hamda xizmatiga ta'siri.

Harbiy xizmatchi shaxsining yo'nalishi va xulq-atvor motivlari.

1. Harbiy xizmatchining shaxsiy, ijtimoiy maqsadlari. Shaxsiy hayotida nimalarga e'tiqod qo'ygan? Falsafiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarga munosabati qanday?

Xizmat davrida harbiy xizmatchi o'z oldiga qanday maqsadlarni qo'yadi: xizmatda yaxshi natijalarga erishishga, aralash mutaxassisliklarni egallashga intiladimi?

Muvaffaqiyatga intilishida qanday motivlar ustunlik qiladi, shaxsiy yoki ijtimoiy motivlar?

Bo'linma jamoasi talablarini qanday idrok etadi? Harbiy jamoa manfaatlarini faol himoya qiladimi?

Bo'linmaning ijtimoiy hayotida qanchalik faol ishtirok etadi?

O'z kamchiliklarini ko'ra oladimi? O'z-o'zini tarbiyasi bilan shug'ullanadimi? Xizmatdosh o'rtoqlaridagi kamchiliklarni ilg'ay oladimi? Intizomni buzuvchilarga nisbatan fikri. Intizomlimi, kimlar bilan do'stlashadi? Hayotda kimlardan namuna oladi? Xizmatni tugatgandan keyin nima bilan shug'ullanmoqchi?

- Harbiy xizmatchidagi qiziqishlar. O'zini ma'naviy jihatdan boyitishga intiladimi yoki yo'qmi, xizmatdan bo'sh vaqtlarida nimalar bilan shug'ullanadi? Adabiyotlar o'qiydimi, sport bilan shug'ullanadimi yoki vaqtini bekorchilik bilan o'tkazadimi? Estetik didini rivojlantirishga intiladimi, qadriyatlarga mustahkammi?

Qanday mazmundagi kitob va kinofilmlarga qiziqadi? Qanday odatlarga ega: yomon (chekish spirtli ichimlik ichish, bemaza gaplarni gapirish, bo'lar-bo'lmasga hayajonlanish, buyruqlarni bajarmaslik) yoki yaxshi (botartib, saranjom) buyruqlarni o'z vaqtida bajaradi?

Harbiy xizmatchidagi g'oyaviy e'tiqod, undagi qiziqishlar, odatlar, axloqiy me'yorlar. Undagi qanday xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish lozim?

Harbiy xizmatchining temperamenti va emotsional xususiyatlari.

Harbiy xizmatchilar temperamentining xususiyatlari.

Harbiy xizmatchi layoqatining o'ziga xosliklari. Mashg'ulotlarda tez charchaydimi? Kunduzgi va tungi mashg'ulotlardan keyin jismoniy va aqliy quvvatini tezda tiklay oladimi, mashg'ulotlardan keyin o'zini qanday his qiladi (tetik yoki toliqqan)? Yangi sharoitga qanday moslashadi (tez yoki sekin)?

Tashqi halaqit qiluvchi omillar mavjud bo'lganda aqliy faoliyatini yetarlicha aniqlikda olib bora oladimi? Dilkash, kamgap yoki tortinchoq?

O'zidagi ichki kechinmalarni ochiq bayon etadi yoki yashiradi? Injiq yoki aksincha?

Temperamentning barqarorligi. Harakatlarida, nutqida va hissiyotlarida barqarorlik mavjudmi yoki yo'qmi? Biron-ir muhim narsani kutish kerak bo'lganda chidamlilik namoyon etadimi yoki yo'qmi?

Mehnat jarayonini bir tekisda olib bora oladimi yoki yo'qmi? Unda qanday kayfiyat ustunlik qiladi: vazmin yoki tez o'zgaralar bilan muloqot qilganda o'zini tutib tura oladimi?

Temperamentning harakatchanligi.

Bir faoliyatdan boshqasiga, biron-bir fikrdan uning amaliy ijrosiga osonlik bilan o'tadimi yoki qiyinchilik bilan o'tadimi? Yangi kasbni o'zlashtirishda eski ko'nikmalar uzoq vaqt xalaqit berib turadimi yoki yo'qmi? Tashabbuslar ko'rsatadimi yoki bir maromdagi faoliyat jarayoniga ko'nikkanmi? Unda odat va ko'nikmalar tezda shakllanadimi yoki yo'qmi?

Umumiy baho. Sangvinik temperamenti: oliy asab faoliyatining kuchli, barqaror va harakatchan tipi ustuvorlik.

Xolerik temperamenti: oliy asab faoliyatining kuchli, nobarqaror va harakatchan tipi ustuvorlik qiladi.

Flegmatik temperamenti: oliy asab faoliyatining kuchli, barqaror va kamharakatchan (inert) tipi ustuvorlik qiladi.

Melanxolik temperamenti: oliy asab faoliyatining kuchsiz nobarqaror va kam harakatchan tipi ustuvorlik qiladi.

Harbiy xizmatchining emotsional xususiyatlari uning temperamentiga bog'liq bo'ladi:

- kayfiyat (tetiklik, quvonch, tushkunlik, g'amginlik, zerikish, loqaydlik);

- xizmatdagi va turmushdagi yoqimli va yoqimsiz narsalarga nisbatan munosabat;

- hissiy kechinmalarning kuchi, chuqurligi va davomiyligi.

Xulosalar: harbiy xizmatchilarning temperamenti va hissiy kechinmalarining o'ziga xos xususiyatlari. Harbiy xizmatchi bilan yakka tartibda ishlaganda nimalarni e'tiborga olish lozim?

1. Harbiy xizmatchining xarakteri va irodaviy sifatleri.

2. Harbiy xizmatchining tashqi dunyoga munosabati va jamiyatga qarashlari.

Ushbu bo'limda ofitser harbiy xizmatchidagi vatanparvarlik, e'tiqod, harbiy burchga sadoqat hissi, xalq va davlat manfaatlariga sadoqat, baynalminallik, dushmanlarga nafrat, ogohlik, prinsipiiallik, jamoaviylik, maqsadga intilishiga, qahramonlik, jasorat, mas'uliyat xislatlariga e'tiborni qaratishi. Layoqatsizlik, passivlik, prinsipsizlik masalalariga jiddiy yondashish, mas'uliyatsizlik kabi xarakter xislatlarining sabablarini yo'qotishga intilishi lozim.

1. Harbiy xizmatchining mehnat va harbiy xizmatga munosabati. mehnatsevarlik, batartiblik, vijdonlilik, faollik, intizomlilik, sabotlilik, mustaqillik bosliqlik kabi xislatlar harbiy xizmatchining mehnatga va jamoaga bo'lgan munosabatini belgilaydi.

2. Harbiy texnika va qurollardan foydalanish usullarini egallashga intiladimi; qurol-aslaha va harbiy texnika bilan hamma mashg'ulotlarda berilib shug'ullanadimi yoki yo'q? Intiluvchanlik xarakterini, o'z faoliyatini yetarlicha samarali tashkil qila oladimi?

3. Harbiy xizmatchining komandirlari, o'rtoqlari va boshqa kishilar bilan munosabati.

Dilkash, kam muloqot qiladigan, do'stlari ko'p yoki oz. O'rtoqlarini ularning oldida tanqid qila oladi yoki boshqalarning ko'zi uchungina tanqid qilib qo'yadi? O'rtoqlarining tanqidiga qanday munosabatda bo'ladi? O'z o'rtoqlariga va komandirlariga o'zining fikrlarini, kechinmalarini ochiq bayon etadimi yoki sir tutadimi?

O'rtoqlariga yordamga oshiqadimi yoki yo'qmi, komandirlari oldida o'zini qanday tutadi?

Harbiy xizmatchining o'z-o'ziga munosabati.

O'z shaxsiy manfaatlarini jamoa manfaatlaridan ustun qo'yadimi? O'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanadimi, o'zida qanday sifatlarni shakllantirish kerak, deb hisoblaydi. O'z-o'zidan tez-tez norozi bo'lib turadimi?

Xizmatda, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikda yuksak natijalarga erishishga intiladimi? O‘z imkoniyatlarini yuqori yoki past baholaydimi? O‘z salomatligiga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘ladimi?

Xulosalar: Biron-bir g‘oyaga e‘tiqod qiladimi yoki yo‘qmi? Irodalimi yoki yo‘qmi? Dilkashmi yoki yo‘qmi? Jamoatchimi yoki xudbinmi?

Harbiy xizmatchining qobiliyatlari va intellektual xususiyatlari. Harbiy mahorat darajasi.

1. Umumiy qobiliyatlar.

Qobiliyatlari yetarlicha namoyon bo‘lmaydi. Harbiy xizmatchi o‘qish va xizmatdagi muammolarni qiyinchilik bilan yengadi, harbiy mutaxassislikni boshqalarning faol ko‘magi bilangina o‘zlashtiradi.

Qobiliyatlari namoyon bo‘ladi. Xizmatdagi va o‘qishdagi muammolarni hal qila oladi. Xizmatda, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik sohasida “qoniqarli” va “yaxshi” natijalarga erishadi. Mutaxassislik talablarini o‘z vaqtida, lekin qiyinchilik bilan bajaradi.

Yaxshi qobiliyatlarga ega. Harbiy xizmatchi xizmatda, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik mashg‘ulotlarida “yaxshi” va “a’lo” natijalarga erishadi. Mutaxassislik talablarini muddatidan oldin bajaradi.

Qobiliyatlarning yuqori darajasi. Harbiy xizmatchi faqat “a’lo”ga o‘qiydi. Aralash mutaxassisliklarni osonlik bilan o‘zlashtiradi. Sportda, badiiy havaskorlikda, san’atda va faoliyatning boshqa turlarida katta muvaffaqiyatlarga erishadi.

Maxsus qobiliyatlar:

Texnik qobiliyatlar. Texnikaga, ratsionalizatorlik va ixtirochilikka nisbatan ishtiyoqi bor, murakkab texnikaviy chizmalarni tezda o‘qiy oladi, qurollar hamda jangovar texnikaning tarkibiy qismlari va mexanizmlari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqadorliklarni anglab yetadi; maxsus adabiyotlar va texnik yangiliklarga qiziqadi.

Tashkilotchilik qobiliyatlari. Jamoa ishini tashkillashtiradi; kishilarni vazifalarga samarali taqsimlay oladi; qat’iyatli va talabchan; boshqalar bildiradigan fikr va tanqidiy mulohazalarni eshita biladi; ishni to‘g‘ri rejalashtiradi; tashabbuskor.

Harakat qobiliyatlari. Qurollardan yakka va guruh bo‘lib otish ko‘nikmalari mavjud; harbiy texnika va mutaxassislikni qiyinchiliksiz

egallaydi; sport ko'nikmalari (suzish va hokazo)ni egallash, sport o'yinlaridagi ko'nikmalari.

Ranglar vositasida bo'linmadagi psixologik muhitni aniqlash usuli.

Shuningdek, bo'linmadagi psixologik muhit holatini ranglar vositasida ham aniqlash mumkin. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, harbiy xizmatchilarga ushbu jamoa safiga qo'shilishlari va undagi kayfiyatlarini biron-bir rangda ifodalash taklif etiladi.

Quyidagi ranglardan foydalaniladi:

1. Qizil rang -ko'tarinki kayfiyatni ifodalaydi;
2. Och qizil rang - quvnoq kayfiyat belgisi;
3. Och sariq rang - yoqimli kayfiyatni ifodalaydi;
4. Yashil rang- xotirjamlik va vazminlik belgisi;
5. Siyoh rang - bezovtalikni, tashvishli kayfiyatni ifodalaydi.
6. Qora rang - norozilik , tushkunlik, toliqish belgisi. Agar, ofitser har doim o'z qo'l ostidagilarning kayfiyati haqida yetarlicha axborotga ega bo'lsa, jamoadagi psixologik muhitni boshqarish oson bo'ladi.

Guruhdagi inoqlikni aniqlash usuli.

Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, harbiy xizmatchilarga 5 ta savolga javob berish taklif etiladi. Ushbu savollarning har birida bir nechta javob variantlari bo'ladi. Harbiy xizmatchining vazifasi o'zi to'g'ri deb hisoblaydigan javob variantlarini belgilashdan iborat. Harbiy xizmatchi o'z varag'ida savollarni rim (I,II,III,IV,V) raqamlari bilan, o'zi tanlagan javob variantini uning yoniga arab (1,2,3,4,5) raqami bilan qo'yishi lozim.

(Javoblarning kaliti faqat tekshiruvchi (ofitser)dagina bo'ladi.)

Siz o'zingizning harbiy bo'linmaga mansubligingizni qanday baholaysiz?

1. O'zimni harbiy jamoaning bir qismi, a'zosi sifatida his qilaman (5 ball)
2. Faoliyatning ko'p turlarida ishtirok etaman. (4 ball)
3. Bir xil faoliyat turlarida ishtirok etib, boshqalarida ishtirok etmayman. (3 ball)
4. O'zimni ushbu jamoaning a'zosi sifatida his etmayman. (2 ball)
5. Butunlay jamoadan alohida yashayman (1 ball)

Sizda imkoniyat bo'lganda boshqa harbiy bo'linmaga o'tarmidingiz?

1. Ha, buni juda xohlayman (1 ball)
2. Agar shunday imkoniyat bo'lsa, yangi jamoaga o'tish ehtimolim ko'proq (2 ball)
3. Menimcha, ikkalasi ham baribir (3 ball)
4. Ehtimol, o'z jamoamda qolgan bo'lardim (4 ball)
5. O'z bo'linmamda qolishni juda ham istayman (5 ball)
6. Bilmadim, bir nima deyish qiyin (1 ball)

Bo'linmangiz a'zolari o'rtasida qanday munosabatlar mavjud?

1. Ko'pgina bo'linmalarga qaraganda yaxshi (3 ball).
2. Ko'pgina bo'linmalarda qanday bo'lsa, bizda ham taxminan shunday (2 ball).
3. Ko'pgina bo'linmadagilardan yomon (1 ball).
4. Bilmadim (1 ball).

Ofitserlar bilan o'zaro munosabatlaringiz qanday?

1. Ko'pgina bo'linmadagilardan yaxshi (3 ball)
2. Ko'pgina bo'linmalarda qanday bo'lsa, bizda ham taxminan shunday (2 ball).
3. Ko'pgina bo'linmadagilardan yomon (1 ball).
4. Bilmadim (1 ball).

Sizning bo'linmangizda xizmatga munosabat qanday?

1. Ko'pgina bo'linmalardan yaxshi (3 ball).
2. Ko'pgina bo'linmalarda qanday bo'lsa, bizda ham taxminan shunday (2 ball).
3. Ko'pgina bo'linmadagilardan yomon (1 ball).
4. Bilmadim (1 ball).

Ushbu savollar asosida aniq axborot olish uchun bu testni anonim shaklida o'tkazish tavsiya etiladi.

Natijani hisoblash uchun beshta savollar bo'yicha olingan ballar qo'shiladi: eng katta miqdor - 19 ball, eng kichik natija esa -5 ball.

Harbiy xizmatchi olgan ballar soni qanchalik yuqori bo'lsa, harbiy bo'linmadagi inoqlik shuncha ijobiy bo'ladi va aksincha.

Ushbu so'rovnomani bir guruh harbiy xizmatchilar bilan o'tkazganda ularning hammasi yiqqan ballarni harbiy xizmatchilar soniga bo'linadi, chiqqan son harbiy jamoadagi inoqlik darajasini ko'rsatadi.

10.4.Motivatsiya.

Motiv - bu shunday kuchki, u insonni maqsad sari undaydi.

Har bir motivda turli xil moddiy va ma'naviy ehtiyojlar qo'shilib ketadi hamda ushbu ko'plab ehtiyojlarning birontasi unda ustunlik qiladi. Insonni harakatga undaydigan motivlar shakli va mazmuniga ko'ra turli-tuman bo'ladilar.

Shakliga ko'ra:

-yuksak rivojlangan;

-murakkab;

-oddiy.

Motivlar umum e'tirof etilgan axloq me'yorlari nuqtai nazaridan ijobiy, betaraf va salbiy mazmunga ega bo'lishi mumkin.

Istak - motivning eng sodda shakli hisoblanadi. U hali inson o'z ehtiyojini anglab yetmagan vaqtda paydo bo'ladi va stixiyali harakat qiladi.

Motivlarning bu shakli ko'proq yangi kelgan askarlarda paydo bo'ladi, chunki ular hali o'zlarini yetarlicha o'rganib yetmagan bo'ladilar. Istak shaklidagi xulq-atvor motivatsiyasi ko'p hollarda qoidabuzarlikka sabab bo'ladi.

Masalan, har bir insonda jamoada o'z o'rnini egallashga, hurmat qozonishga nisbatan ehtiyoj mavjud. Agar, u ushbu ehtiyojni anglamasa, uni noto'g'ri yo'l bilan qondirishga harakat qiladi: janjallashadi, qo'pollik qiladi. Faqat to'g'ri tashkil etilgan tarbiyaviy ishlargina askarlarga motivlarning bunday shaklidan qutulishlariga yordam beradi.

Istak ko'proq insonning moddiy ehtiyojlari bilan bog'langan.

Ma'naviy ehtiyojlar xarakteriga ko'proq motivlarning murakkab shakli mos keladi.

Qiziqishlar - bu insonning tanlab, u yoki bu hodisaga, buyumga, faoliyatga nisbatan bilish maqsadidagi munosabati. Qiziqishlarning mavjudligi yaxshi o'qish va qobiliyatlarni rivojlantirish uchun tayanch hisoblanadi. Qiziqishlarda birinchi o'rinda insonning bilishga nisbatan ehtiyojlari namoyon bo'ladi. Ammo, qiziqish nobarqaror motiv hisoblanib, tez-tez o'zgarib turadi.

Qiziqish vaqt o'tishi bilan yo'qolishi yoki moyillikka, doimiy qiziqishga aylanishi mumkin. Qiziqishning moyillikka aylanishi ko'p jihatdan ofitserga va tarbiyaviy ishlarning qanday tashkil etilganligiga bog'liq.

Insonning xulq-atvori va faoliyatiga undagi qiziqish hamda moyilliklarning ta'sirini quyidagi holatdan ham bilsa bo'ladi.

Bir qator harbiy bilim yurtlarida kursantlardagi qiziqish va moyilliklarning keyingi xizmat faoliyatlariga hamda fanlarni o'zlashtirishlariga ta'siri o'rganilgan. Kursantlar orasidan bilim yurtiga harbiy faoliyatga qiziqishlari ta'sirida kelganlari ajratilib olingan. Bu ish anketa va so'rovnomalar yordamida amalga oshirilgan. O'qishning birinchi yilida bu kursantlar yuqori natijalarga erishganlar. Lekin II, III, va IV bosqichlarda bu toifadagi ko'plab kursantlarda o'zlashtirish ko'rsatkichlari pasayib ketgan.

Ikkinchi guruhga esa o'zlaridagi moyilliklar ta'sirida bilim yurtiga kelgan kursantlar olingan. Ungacha muddatli harbiy xizmatni o'tagan kursantlar birinchi o'quv yilida fanlarni o'zlashtirishda unchalik yuqori natijalarni ko'rsatishmadi. Lekin, ikkinchi o'quv yilidan boshlab ulardagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari barqarorlashdi.

Inson xulq-atvorining eng kuchli, murakkab va yuksak motiv e'tiqod hisoblanadi. E'tiqod yetarlicha yuksak bo'lganda boshqa jami motivlar unga ergashadi, bo'ysunadi.

Motivlarning falsafiy metodologik ahamiyati shundan iboratki, ular sabab - oqibat, ichki murakkab bog'lanishlar tuzilishini yuksak darajada rivojlangan tizim sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv esa o'z navbatida materiya rivojlanishining oliy mahsuli ekanligi to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Chunonchi, maqsadga yo'naltirilgan va maqsadga muvofiqlashtirilgan har xil mazmundagi savollar, axborotlar, ma'lumotlar, xabarlar kishilar faoliyatining ongli xususiyati ta'kidlab o'tilgan mulohazalar mohiyati tarkibiga kiradi. Motivlar tuzilishini amaliy (tadbiqiy) yo'nalishga qaratish - inson shaxsiga motivatsion, irodaviy, axloqiy, hissiy, kognitiv, regulyativ ta'sir o'tkazishning omilkor shakllarining ilmiy asosi yuzaga kelishiga muhim imkon va zarur shart-sharoitlar yaratadi. Motivning tadqiqot tarixidan kelib, unga yondashsak, bu holda u insonlar (goho hayvonlar xatti-harakati) hayoti va faoliyatini ruhiy jihatdan boshqaruvchisi sifatida talqinidan iborat o'ziga xos turidir. Motiv tushunchasi, asosan, sutemizuvchi hayvonlarga taalluqli ekanligi ilmiy manbaalarda ta'kidlab o'tiladi. Insonlarga aloqador motivlar tushunchasi qo'zg'atuvchilar va qo'zg'ovchilarning barcha turlari (ko'rinishlari, modalliklari, shakllari)ni o'z ichiga oladi (chunonchi, motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, intilishlar, motivlashgan

ustanovkalar va boshqalar). Motiv keng ma'noda xulq-atvor determinatsiya belgilanishiga qaramay, ko'pgina chet el tadqiqotchilari shaxs motivlarini juda tor ma'noda talqin qilib, uni ilmiy jihatdan tekshiradilar, hattoki ular shartsiz reflektor aktlarining miqdorini, affektiv, stress va ekspressiv reaksiyalarni motiv tizimiga kiritmaydilar. Bir qator psixologlar motivni energetik, ma'noviy va ma'naviy tomonlarini o'zaro solishtiradilar, ular motivni sof ma'nodagi energetik bioquvvat faolligining manbai sifatida talqin qilib, uning ma'noviy va ma'naviy jabhalarini hisobga olmay turib, o'ziga xos ravishda tushuntirishga intiladilar. Jumladan, Z.Freyd (856-1939) motivning qonun - qoidalarini faqat dinamik energetik holat tariqasida talqin qiladi. Bir guruh chet el psixologlarining fikriga qaraganda, motiv - bu tajriba va reaksiyalarning energetik jabhasidan iboratdir.

Shaxsning shakllanishida motivasiyaning roli. Insonning motivlar oqimi to'g'risida mulohazalar insonning motivlari tuzilishini, ularning asosiy funksional mexanizmlarini hamda shakllanish jarayoniga yo'naltirishning strategik rejasini ishlab chiqish muammosini psixologik jihatdan tushuntirish uchun shaxsning psixik rivojlanishi tahliliga o'ziga xos ravishda taktik yondashish ma'qul.

Motiv klassifikatsiyasi.

Jahon psixologiyasi fanining nazariy mushohadalariga va o'zimizning shaxsiy ma'lumotlarimizga asoslanib, motivlarni quyidagi turkumlarga ajratishni lozim topdik.

I. Shaxsning ijtimoiy ehtiyojlari bilan uyg'unlashgan, ularning mohiyati mezoni orqali o'lchanuvchi motivlar:

1) Dunyoqarashga taalluqli, aloqador bo'lgan g'oyaviy motivlar;
2) Ichki va tashqi siyosatga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi, shaxsiy pozitsiyani ifodalovchi siyosiy motivlar:

3) Jamiyatning axloqiy normalari, prinsiplari, turmush tarzi, etnopsixologik xususiyatlariga asoslanuvchi axloqiy motivlar;

4) Borliq go'zalligiga nisbatan ehtiyojlarda in'iko etuvchi nafosat (estetik) motivlari.

II. Vujudga kelishi, shartlanganlik manbai bo'yicha umumiylikka ega bo'lgan, boshqaruv va boshqariluv xususiyatli motivlar:

1) Keng qamrovli ijtimoiy motivlar (vatanparvarlik, fidoiyluk, altruistik);

2)Guruhiy, jamoaviy, hududiy, umumbashariy motivlar;

3) Faoliyat tuzilishi, mohiyati va tizimiga yoʻnaltirilgan prosessual motivlar;

4) Faoliyat mahsulini baholashga, maqsadga erishuvga moʻljallangan ragʻbatlanuv, mukofot motivlari.

III. Faoliyat turlari mohiyatini oʻzida aks ettiruvchi motivlar:

1) Ijtimoiy-siyosiy voqeliklarni mujassamlashtiruvchi motivlar;

2) Kasbiy tayyorgarlik va mahoratni oʻzida namoyon etuvchi motivlar;

3) Oʻqishga, bilishga (kognitiv), ijodga (kreativ) oid motivlar.

IV. Paydo boʻlish xususiyati, muddati, muhlati, barqarorligi bilan umumiylikka ega boʻlgan motivlar:

1) Doimiy, uzluksiz, longityud xususiyatli motivlar;

2) Qisqa muddatli, bir lahzali, bir zumlik va soniyalik motivlar;

3) Uzoq muddatli, vaqt taqchilligidan ozod, xotirjam xatti - harakatlarni talab etuvchi motivlar.

V. Vujudga kelishi, kechishi surʼati bioquvvat bilan oʻlchanuvchi motivlar:

1) Kuchli, qudratli, taʼsir doirasidagi shijoatli motivlar;

2) Paydo boʻlishi, kechishi oʻrta surʼatli motivlar;

3) Yuzaga kelishi, kechishi zaif, boʻsh, kuchsiz, beqaror motivlar.

VI. Faoliyatda, muomalada va xatti - harakatda vujudga kelishi xususiyati, xislati hamda sifatini aks ettiruvchi motivlar:

1) Aniq, yaqqol, voqe boʻluvchi real motivlar;

2) Zarurat, yuksak talab va ehtiyojlarda ifodalanuvchi dolzarb motivlar;

3) Imkoniyat (potensial), zahira (rezerv), yashirin (latent) xususiyatlarini oʻzida mujassamlashtiruvchi motivlar.

Aks ettirish darajasi, sifati nuqtai nazardan ierarxiya vujudga keltiruvchi motivlar.

1) Biologik motivlar; 2). Psixologik motivlar; 3). Yuksak psixologik motivlar.

Tayanch soʻzlar: Motiv, xarakter, istak, jarayon, qiziqish, guruh, qonun – qoida, reaksiya, stress, psixologik, biologik motiv.

Nazorat uchun savollar:

1. Motiv nima?

2. Qiziqish nima, uni taʼriflab bering.

11-mavzu: Harbiy xizmatchi va harbiy jamoani o'rganish usullari

Reja:

1. Qaydnoma orqali harbiy xizmatchilar temperamentini aniqlash usullari.
2. Harbiy xizmatchilar psixologik xususiyatlarini o'rganish usullari.
3. Bo'linmada harbiy xizmatchilar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni o'rganish usuli.
4. Harbiy jamoadagi psixologik muhitni aniqlash usullari.
5. Harbiy bo'linmaning jamoa sifatidagi ijtimoiy-psixologik rivojlanish darajasini aniqlash usuli.

11.1. Qaydnoma orqali harbiy xizmatchilar temperamentini aniqlash usullari.

Usulning maqsadi: Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida har bir harbiy xizmatchining o'ziga xos olamini to'g'ri tushunish va unga mos ravishda ish tutish, uni shaxs sifatida rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Chunki, inson ruhiyati, uning qabul qilish doirasi, olamga va odamlarga munosabati, hayotning quvonchlari-yu tashvishlarini his etishi turli kishilarda turlicha namoyon bo'lishi tabiiy bir hol. Bir xil odamlar hayot hodisalariga tez va yengillik bilan javob beradilar. Ular ta'sirchan bo'ladilar. Boshqa bir toifa odamlari esa hodisalarga shoshmasdan, qiyinchilik bilan javob beradilar. Ular sust va befarq bo'ladilar. Yana bir xil odamlar borki, ular nihoyatda g'ayratli, keskin bo'ladilar. Boshqa bir xil odamlar esa bir maromli va mulohazali bo'ladilar. Hayotdagi va jamiyatdagi bunday holatlar insonning o'ziga xos xususiyatlari yoki temperamenti tushunchasi bilan izohlanadi.

Demak, temperament kishining yurishida ham, imo-ishoralarida ham, mimikasida ham, sezgilar va tafakkur faoliyatining xususiyatlarida ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shuning uchun temperament - bu shaxsning psixik jarayonlari sodir bo'lish dinamikasida, umumiy harakatchanligi va emotsional qo'zg'aluvchanligida ro'yobga chiqadigan o'ziga xos xususiyatlaridir. Bu xususiyat oliy asab faoliyati tipi, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining sodir bo'lishi va o'zaro munosabati bilan belgilanadi. Temperamentlarning to'rtta tipi (xolerik, sangvinik, flegmatik va

melanxolik) haqidagi tushunchani dastlab Gippokrat, keyin esa I. P. Pavlov har tomonlama asoslab berganlar.

Har bir temperament tipining ham ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Komandir esa o'z faoliyatida har bir harbiy xizmatchining ijobiy tomonlaridan unumli foydalanishga va salbiy tomonlarini ma'lum darajada tarbiyalashga harakat qilmog'i darkor, aks holda, harbiy xizmatchi shaxsi kamolotini ta'minlash birmuncha zaiflashadi va murakkablashadi.

Usulni qo'llash tartibi: mazkur usulni qo'llash, asosan uch bosqich bo'yicha amalga oshiriladi:

Tayyorgarlik bosqichi. Har bir harbiy xizmatchi uchun baho qo'yish shartlari va 60 ta savolni o'z ichiga olgan qaydnoma namunasi bayon etilgan varaqa tayyorlanadi. Harbiy xizmatchilarga anketa mazmuni batafsil tushuntiriladi.

Eksperimentning borishi. Bunda harbiy xizmatchilar qaydnomada ko'rsatilgan barcha savollarga o'z xulq-atvorlari va imkoniyatlarini haqiqiy baholashdan kelib chiqqan holda javob beradilar, ya'ni qaydnomadagi har bir savol to'g'risiga tegishli ballarni qo'yib boradilar.

Olingan ma'lumotlar ustida ishlash. Bunda tekshiruvchi harbiy xizmatchilar to'ldirgan qaydnomani yig'ib oladi va ma'lum ko'rsatma bo'yicha olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi. U yoki bu harbiy xizmatchidagi temperament tiplarining qay darajada namoyon bo'lganligini aniqlaydi va tegishli xulosalar chiqaradi.

Quyida usulni qo'llash tartibi bilan tanishib chiqamiz.

Harbiy xizmatchilar to'ldirishi lozim bo'lgan qaydnoma savollari:
(1-bosqich)

Hurmatli _____ quyidagi qaydnoma 15 bo'limdan iborat bo'lib, har bir bo'limda to'rttadan (a, b, v, g) savol yoki insonning xulq-atvorida namoyon bo'luvchi ba'zi bir sifatlarning yozma bayoni qayd etilgan. Har bir savol to'g'risiga tegishli ballni qo'yish orqali o'z munosabatingizni bildirishingiz lozim. Buning uchun esa har bir bo'limda qayd etilgan to'rttala (a, b, v, g) sifatlarni o'zaro taqqoslaganda aynan sizning xulq-atvoringizda qaysi biri nisbatan ko'p yoki kamroq miqdorda namoyon bo'layotganligini o'ylab ko'rishingiz va quyidagi shart asosida imkoni boricha har bir bo'limdagi to'rttala sifatga ham tegishli (0, 1, 2, 3) ballarni qo'yib borishingiz lozim bo'ladi.

Qo‘yiladigan ballarning esa sharti va mazmuni quyidagi;

“0”-ball-bunday sifat mening xulq-atvorimga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi;

“1”-ball-bunday sifat mening xulq-atvorimga qisman to‘g‘ri keladi;

“2”-ball-bunday sifat mening xulq-atvorimda o‘rtacha o‘rinni egallaydi;

“3”-ball-bunday sifat mening xulq-atvorimda juda ko‘p marotaba namoyon bo‘lgan va bu aynan men uchun xos bo‘lgan sifat hisoblanadi.

№	Xulq-atvorda namoyon bo‘luvchi sifatlar	Mazkur sifat darajasi
I.a	Hamisha tinib-tinchimas, biroz hovliqma, bahslarda	
b	hozirjavob;	
v	Hamisha quvnoq va xushchaqchaq;	
g	Ba‘zan loqayd, sovuqqon, ko‘pincha bosiq va xotirjam;	
	Uyatchan, tortinchoq. O‘ta rahmdil.	

II.	Qiziqqon, tavakkalchi;	
a	Serharakat, ishbilarmon;	
b	Chuqurroq fikr yuritishga va ko‘proq mulohaza yuritishga ishtiyoqmand;	
	Yangi talablar va sharoitlarga tez moslasha olmaydi, o‘zini yo‘qotib	
III.		
a	Kayfiyatning tez-tez o‘zgarib turishi;	
b	Qiziqarli ishlarni ko‘proq bajarishga va tashabbus ko‘rsatishga moyillik;	
v	Kamgan, hamisha tinchlik va osovishchalikni sevadigan.	
IV.	Osonlikcha bironvga yon bermaslik, ko‘proq o‘z bilganini qilish, keskin va	
a	shiddatli harakatlar bilan ishlash;	
b	Qayg‘uli damlarda ham o‘zini bildirmaslik;	
v	Nihoyatda vazmin, sabr-bardoshli, o‘z kuchiga ishonuvchan;	
	Sekin harakatlar qilsa-da, uzoqni ko‘zlab ish tutadigan, tez vahimaga	
V.a	Ba‘zan qaysar, injiq, kamchiliklarga chidamsiz;	
b	Yangilikni tez ocha oladigan, g‘am-anduhlarni tez va osonlik bilan unuta	
v	oladigan;	
g	Jahlini chiqarish yoki kuldirish juda qiyin;	
	Shirin xayollarga moyil, ishdan tez toliqadigan.	

VI.	<p>Ishga tezkorlik va katta tashabbuslar ko'rsatib kirishadi, lekin ba'zan birdan harakatlari susayadi, dastlabki jo'shqin ilhomi esa yo'qoladi;</p> <p>Uddaburon, epchil, o'zini to'g'ri idora qila oladigan;</p> <p>Ishni bamaylixotir boshlaydi, aslo shoshilmaydi;</p> <p>Ishni boshlashdan oldin qattiq hayajonga tushadi, chunki qiyinchilik bo'lsa yenga olmaslikdan xavotirlanadi.</p>	
VII.	<p>Qiziqishi va intilishlari shiddatli, ammo beqaror;</p> <p>Qiziqishlari sharoitga bog'liq ravishda rivojlanib boradi;</p> <p>Qiziqish va intilishlarida barqarorlik hukmron;</p> <p>Qiziqishlarida ma'lum hadiksirash bor, lekin barcha tartib va qoidalariga</p>	
VIII.	<p>O'ziga va o'zgalarga talabchanligi ba'zan paydo bo'lib, ba'zan esa yo'qolib turadi;</p> <p>Talabchanligi ko'p hollarda shart-sharoitga bog'liq;</p> <p>O'zgalarga talabchan emas, o'zi esa maqto'v berilmaydi;</p> <p>O'ziga va o'zgalarga talabchan, maqto'vga tez beriladi.</p>	
IX	<p>Ifodali mimika egasi, xafaligini yoki xursandligini tezda payqash mumkin;</p> <p>Yuzida ko'pincha quvnoq va ko'tarinki ruh namoyon;</p> <p>Ifodali mimikaga ega emas, ichidagi gaplarni yuz tuzilishidan bilish qiyin;</p> <p>Mimikasida ko'pincha hayojon, ta'sirlanish, jur'atsizlik va ishdagi chuqur mas'uliyat hissi sezilib turdi.</p>	
X.	<p>Tezkor, zavqli va ifodali gapirishga harakat qiladi;</p> <p>Jarangdor, tez, aniq va ravshan gapirishga odatlangan;</p> <p>Sekin, bir maromda, to'xtab-to'xtab, har bir so'zning mantiqiy bog'lanishiga e'tibor berib, tashqi ifodasiz gapirishga harakat qiladi;</p> <p>Sekin, behol, ko'pincha shivirlab gapirish odati mavjud.</p>	

XI.a	<p>Odamlarga tez qo'shilib keta oladi va tez arazlaydi;</p> <p>Odamlar bilan osonlikcha til topishib keta oladi;</p> <p>Odamlarga tez qo'shilib keta olmaydi, yangi sharoitga va yangi odamlarga mashaqqat bilan ko'nikadi;</p> <p>Odamlarga tez qo'shilib ketadi, kattalarga itoatkor, ularning xarakteriga va talablariga beixtiyor moslashib keta oladi.</p>	
b		
v		
g		
XII.a	<p>Diqqatini bir nuqtaga to'plashi qiyin, tez chalg'iydi;</p> <p>Alohida nazorat ostiga olinsa, diqqatini tez to'play oladi va rivojlantira oladi;</p> <p>Diqqati barqaror, ixtiyoriy diqqat ustun;</p> <p>Diqqati tez toliqadi, ko'pincha barqaror emas.</p>	
b		
v		
g		
XIII.a	<p>Xulq-atvoridagi barcha harakatlar keskin va</p>	

b	shiddatli;	
v	Iltilofli, o'zgalarni tashabbusga chorlay oluvchi;	
g	Ko'proq o'ylashni, mustaqil fikr-mulohaza yuritishni yaxshi ko'radi;	
	Kattalarga itoatkor, do'stlariga hamisha quloq soladi.	
XIV a	Umidlar va jo'shqin harakatlar bilan ishga kirishadi, biroq mag'lubiyatga birinchi bor duch kelishidayoq ishni yig'ishtirib qo'ya qoladi;	
b	Mag'lubiyatni sezdirmaslikka harakat qiladi;	
v	Mag'lubiyatdan qo'rqmaydi, esankiramaydi;	
g	Mag'lubiyatni ko'tara olmaydi, o'zini ma'lum darajada yo'qotib ko'yishi mumkin.	
XV a	Tez hayajoshtanadi, dastlab bu hayajon uning samarali ishlashida yordam beradi, keyinchalik ish sifati pasayishi mumkin;	
b	Hayajonli vaziyatlarda oqilona harakat qila oladi;	
v	Hayajonga tushishi qiyin, bunday paytda o'zini to'liq idora qila oladi;	
g	Hayajonli vaziyatda vahimaga tushadi, ta'sirlanib ketadi, ba'zan yig'lab yuborishi mumkin.	

ESLATMA: Siz to'ldirib bergan ushbu anketa hech kimga ko'rsatilmaydi, hech qayerda muhokama qilinmaydi va jurnaldagi xulq-atvoringiz uchun qo'yiladigan bahoga hech qanday ta'sir qilmaydi.

Marhamat, qaydnomani to'ldirishingiz mumkin.

EKSPERIMENTNING BORISHI (II bosqich).

Komandir harbiy xizmatchilarning temperamentini aniqlash uchun, dastlab ular to'ldirishi lozim bo'lgan qaydnoma mazmuni (yuqorida qayd etilgan qaydnoma savollari) bilan ularni tanishtiradi. Harbiy xizmatchilar esa mazkur qaydnomani to'ldirishga kirishadilar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, qaydnomada 15 yo'nalish bo'yicha va har bir yo'nalishda to'rttadan savol bo'lib, tekshiriluvchi qaydnoma savollariga javob berish uchun har bir yo'nalishga alohida to'xtalishi, undagi to'rtala sifat haqida chuqur fikr yuritishi va ularni bir-biriga

taqqoslagan holda aynan o‘zi uchun qaysi biri ko‘proq va qaysi biri kamroq ahamiyatga ega ekanligini ifodalovchi ballarni qo‘yishi lozim. Ya’ni, to‘rtala sifat ichida eng ko‘p miqdorda o‘zining xulq-atvorida namoyon bo‘lib turuvchi sifatga eng yuqori ball - 3 ball, o‘rtacha miqdorda namoyon bo‘luvchi sifatga - 2 ball, kamdan-kam hollarda yoki ba’zida namoyon bo‘luvchi sifatga esa-1 ball, uning xarakterida mutlaqo uchramaydigan sifat- ga “0” ball qo‘yilishi lozim.

OLINGAN MA’LUMOTLAR USTIDA ISHLASH (III bosqich)

O‘z-o‘zidan ma’lumki, usulning birinchi va ikkinchi bosqichlari muvaffaqiyatli bajarilgandan keyingina uchinchi - yakunlovchi bosqichga o‘tish mumkin. Bunda komandir tekshiriluvchilardan yig‘ilgan barcha ma’lumotlarni umumlashtirishi, ma’lum reja bo‘yicha psixologik tahlil qilishi va tegishli xulosalar chiqarishi zarur (buni faqat komandirning o‘zi bajaradi).

Metodikaning kaliti (u yoki bu temperament tipiga xos sifatlarini ifodalagan va ularni tahlil qilish uchun muallif tomonida ishlab chiqilgan savollar ro‘yxati):

Temperament tiplari					
	Xolerik	Sangvinik	Flegmatik	Melanxolik	T- Umumiy ball
I	a	b	v	gg	
II	a	b	v	gg	
III	a	b	v	gg	
IV	a	b	v	gg	
V	a	b	v	gg	
VI	a	b	v	gg	
VII	a	b	v	gg	
VIII	a	b	v	gg	
IX	a	b	v	gg	

X	a	b	v	g	
XI	a	b	v	g	
XII	a	b	v	g	
XIII	a	b	v	g	
XIV	a	b	v	g	
XV	a	b	v	g	
Jami					
Ball ar					

Demak, har bir harbiy xizmatchi o‘z qaydnomasida to‘ldirgan barcha ballarni, komandir ushbu jadval asosida to‘ldirib chiqadi. Temperamentlarga tegishli barcha ballar qo‘shiladi va har bitta temperament uchun umumiy ballar yig‘indisi keltirib chiqariladi. Bu ballarni o‘zaro taqqoslanganda esa, harbiy xizmatchi shaxsida namoyon bo‘luvchi u yoki bu temperament tipiga xos sifatning qay darajada ekanligi namoyon bo‘ladi. Masalan, askar K da “xolerikdan yig‘gan ballar - 32 ga, sangvinik - 11 ga, flegmatik - 16 ga, melankolik - 20 ga teng bo‘lishi mumkin”. Bunda askar K ni xolerik temperametli kishi, deb aytish mumkin, chunki boshqa temperamentlarga nisbatan xolerikda ko‘p ball yig‘ilgan.

Yig‘ilgan ballarni foiz hisobida chiqarish masalaga yana ham aniqlik kiritadi va bu ayni maqsadga muvofiqdir. Bu ishni quyidagi formula orqali amalga oshirish mumkin.

$$T = X + S + F + M$$

$$Xol. = X.YUO/T \text{ Sang. } = S.100/T \text{ Fl. } = F.YUO/T \text{ Mel } = M- 100/T$$

Bunda: T- to‘rttala temperamentga tegishli ballarni foizga aylantirish uchun belgilangan umumiy yig‘indi.

Chunonchi, har bir temperamentga tegishli ballni foizga aylantirish uchun shu temperament balini 100 ga ko‘paytirib, to‘rttala temperamentning yig‘indisi - (T) ga bo‘lish kerak.

Ushbu formulalar asosida harbiy xizmatchi xulq-atvorida namoyon bo‘luvchi temperamentlarni foiz hisobida aniq aytib berish mumkin.

Endi bir namuna sifatida mazkur usulni qo‘llash orqali oddiy askar Kamolov Salimdan olingan ma’lumotlarni bayon etmoqchimiz:

Kamolov Salim - 9-vzvod harbiy xizmatchisi (askarning bergan ko‘rsatmasi yoxud har bir yo‘nalish bo‘yicha qo‘ygan balli).

I a	- 0	VI a - 2	IX a	- 1
b	- 1	b - 3	b	- 1
v	- 0	v - 2	v	- 0
g	- 2	g - 2	g	- 2
II a	- 1	VII a - 1	XII g	- 2
b	- 2	b - 3	b	- 2
v	- 1	v - 2	v	- 2
g	- 1	g - 3	g	- 2
III a	- 0	VIII a - 1	XIII a	- 1
b	- 2	6-2	b	- 3
v	- 1	v - 0	v	- 2
g	- 3	g - 3	g	- 2
VI a	- 2	IX a - 3	XIV a	- 0
b	- 0	b - 1	b	- 2

g - 0	v - 0	v -
g - 1	g - 3	g - 2
V a - 3	X a - 2	XV a - 2
b - 1	b - 3	b - 1
v - 2	v - 1	v - 1
g - 2	g - 2	g - 2

Olingan ma'lumotlar ustida ishlash.
Temperamentlarning namoyon bo'lish darajasi.

№	Xolerik	Sangvink	Flegmatik	Melanxolik	T-umumiy ball
I	(a) 0	(b) 1	(v) 0	(g) 2	3
II	1	2	1	1	5
III	0	2	1	3	6
IV	2	0	0	1	3
V	3	1	2	2	8
VI	2	3	2	2	9
VII	2	3	2	3	10
VIII	1	2	0	3	6
IX	3	1	0	3	7
X	2	3	1	2	8
XI	1	1	0	2	4
XII	1	2	2	1	6
XIII	1	3	2	2	8
XIV	0	2	2	2	6
XV	2	1	1	2	6

Jami	21	27	16	31	95
------	----	----	----	----	----

X 100 21 100

Xol.=, ya'ni Xol.= = 22,1 % T S 100

Sang. =, ya'ni T F 100

Fleg. =, ya'ni Fleg. = = 16,9 % T M 100

Mel. =, ya'ni M. = —⁴ = 32,6 % T *2

Demak, olingan ma'lumotlarga qaraganda, oddiy askar - Kamolov Salimning xulq-atvorida melanxolik temperamentiga xos sifatlar (32,6 %) boshqa temperament sifatlariga nisbatan ustunlik qiladi. Shuning uchun mazkur harbiy xizmatchini ma'lum ma'noda "Melanxolik" deyish mumkin.

Eslatma:

Mazkur usulni faqat bir marotaba qo'llash bilangina kifoyalanib bo'lmaydi. Shuning uchun yuqoridagi 60 ta savolga mazkur askarning o'zi bergan ko'rsatmasi, quroldosh do'stlarining shu askarga nisbatan bergan ko'rsatmalari (albatta har bir savolga alohida), qolaversa, eng yaqin o'rtog'ining yoki komandirining ko'rsatmasi, shuningdek, qo'shimcha boshqa usullar orqali, alohida suhbatlar davomida olingan barcha ma'lumotlar ham yuqoridagi jadval bo'yicha atroflicha o'rganib chiqilsa va o'zaro taqqoslanib, so'ngra mazkur askar haqida tegishli xulosalar chiqarilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

11.2. Harbiy xizmatchilar psixologik xususiyatlarini o'rganish usullari

Harbiy xizmatchi va bo'linmalar psixologik xususiyatlarini o'rganish usullari

Harbiy xizmatchi psixologiyasini har tomonlama o'rganish uchun uning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq hamma jihatlarini o'z ichiga olgan dastur bo'lishi lozim. Quyida shunday dasturlardan biri namuna tariqasida beriladi.

Harbiy xizmatchining psixologik xususiyatlarini o'rganish dasturi

I. Harbiy xizmatchi hayotiy tajribasi.

Oilasi

Tug'ilgan joyi. Ota-onalarining yashash joyi (shahar yoki qishloq).

Oila tarkibi, har bir oila a'zosi bajaradigan faoliyat turi (kasbi, ishlash yoki o'qish joyi).

Ota-onalarining bir-birlariga va bolalariga munosabati. Ota-onalar bolalar tarbiyasi bilan muntazam shug'ullanadilarmi yoki yo'qmi? Bolalikda oila a'zolaridan kim eng ko'p ta'sir o'tkazgan (oiladagi axloqiy-psixologik muhit).

Uylangan yoki bo'ydoq, bolalari bormi?

Maktab, kollej, oliy o'quv yurti.

Qaysi maktabda, o'quv yurtida o'qigan (shahar, qishloq, uydan uzoqda, kasbi)?

O'qishdagi muvaffaqiyatlari. Qaysi fanlarni yaxshi ko'rgan? O'qituvchilardan kimlarni yoqtirgan va nima uchun? O'qishdan bo'sh vaqtlarda nima bilan shugullangan, (maktabda, uyda, ko'chada)? Kim bilan do'stlashgan, qanday to'garaklarga qatnashgan? Qanday kitoblarni o'qigan? Kim bo'lishni orzu qilgan? Maktabda, o'quv yurtida qanday jamoatchilik ishlarini bajargan?

Qurolli Kuchlarga chaqirilish davrigacha bo'lgan ish faoliyati.

Qayerda va qancha vaqt ishlagan (zavod, kolxoz)? U ishlagan mehnat jamoasi o'z rejalarini qanday bajargan? Qanday kasbni o'zlashtirgan? O'z ishi yoqqanmi? Nima uchun aynan ushbu kasbni tanlagan? Ishdan bo'sh vaqtlarda nima bilan shug'ullangan? Nima bilan qiziqqan? Kimlar bilan do'stlashgan? Do'stlari bilan xat yozishib turadimi? Yoshlar tashkilotlari ishida ishtirok etganmi?

Xulosalar: oila, maktab va mehnat jamoasining harbiy xizmatchi shaxsi rivojlanishiga ta'siri: nimalar ijobii va nimalar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin? Harbiy xizmatchi shaxsidagi u yoki bu psixologik xususiyatlarning paydo bo'lishiga ta'sir qiluvchi omillar.

Harbiy xizmatchining jismoniy holati va jismoniy rivojlanish xususiyatlari

1. Jismoniy rivojlanishi. Umumiy jismoniy rivojlanganligi (yaxshi, o'rtacha, zaif). Jismoniy chiniqqanlik darajasi (jismoniy chiniqqan yoki yo'q, dala o'quv mashg'ulotlarida jismoniy zo'riqishni qanday yengadi)? Sportni sevadimi? Sportning qaysi turiga qiziqadi? Qanday maqsadda sport bilan shug'ullanadi (sportchi razryadini olish yoki boshqa maqsadlarda)?

Salomatligi Tez-tez kasal bo'lib turadimi? Nimadan shikoyat qiladi? Salomatligi, uning kayfiyatiga va xizmatiga qanday ta'sir

qiladi? Jismoniy chiniqish darajasi, organizmning yuqumli kasalliklarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati.

Uning salomatligini mustahkamlash uchun qanday choralar ko'rilmoqda? Xulosalar: Harbiy xizmatchi jismoniy rivojlanishining asosiy xususiyatlari, salomatligi va uning harbiy xizmatchi shaxsiga hamda xizmatiga ta'siri.

III. Harbiy xizmatchi shaxsining yo'nalishi va xulq-atvor motivlari.

1. Harbiy xizmatchining shaxsiy, ijtimoiy maqsadlari. Shaxsiy hayotida nimalarga e'tiqod qo'ygan? Falsafiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarga munosabati qanday?

Xizmat davrida harbiy xizmatchi o'z oldiga qanday maqsadlarni qo'yadi: xizmatda yaxshi natijalarga erishishga, aralash mutaxassisliklarni egallashga intiladimi?

Muvaffaqiyatga intilishida qanday motivlar ustunlik qiladi - shaxsiy yoki ijtimoiy motivlar?

Bo'linma jamoasi talablarini qanday idrok etadi? Harbiy jamoa manfaatlarini faol himoya qiladimi?

Bo'linmaning ijtimoiy hayotida qanchalik faol ishtirok etadi?

O'z kamchiliklarini ko'ra oladimi? O'z-o'zini tarbiyasi bilan shug'ullanadimi? Xizmatdosh o'rtoqlaridagi kamchiliklarni ilg'ay oladimi? Intizomni buzuvchilarga nisbatan qanday munosabatda? Ularni tanqid qila oladimi yoki yo'qmi? Xizmatni tugatgandan keyin nima bilan shug'ullanmoqchi?

- Harbiy xizmatchidagi qiziqishlari:

O'zini ma'naviy jihatdan boyitishga intiladimi yoki yo'qmi?

Bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanadi? Adabiyotlar o'qiydimi, sport bilan shug'ullanadimi yoki vaqtini bekorchilik bilan o'tkazadimi?

Qanday mazmundagi kitob va kinofilmlarga qiziqadi? Qanday odatlarga ega: yomon (chekish spirtli ichimliklar ichish, bemaza gaplarni gapirish, bo'lar-bo'lmasga hayajonlanish, buyruqlarni bajarmaslik) yoki yaxshi (botartib) buyruqlarni o'z vaqtida bajaradi?

Harbiy xizmatchidagi g'oyaviy e'tiqod, undagi qiziqishlar, odatlar, axloqiy me'yorlar. Undagi qanday xususiyatlarni shakllantirish va rivojlatirish lozim?

Harbiy xizmatchining temperamenti va emotsional xususiyatlari.

Harbiy xizmatchilar temperamentining xususiyatlari. Mashg'ulotlarda tez charchaydimi? Kunduzgi va tungi mashg'ulotlardan keyin jismoniy va aqliy quvvatini tezda tiklay oladimi?

Yangi sharoitga qanday moslashadi (tez yoki sekin)? Xavfli vaziyatlarda o'zini qanday tutadi?

Tashqi xalaqit qiluvchi omillar mavjud bo'lganda aqliy faoliyatini yetarlicha aniqlikda olib bora oladimi? Dilkash, kamgap yoki tortinchoq?

Ichki kechinmalarni ochiq bayon etadi yoki yashiradi?

Injiq yoki aksincha?

Temperamentning barqarorligi.

Harakatlarida, nutqida va hissiyotlarida barqarorlik mavjudmi yoki yo'qmi?

Biron-bir muhim narsani kutish kerak bo'lganda chidamlilik namayon etadimi yoki yo'qmi?

Mehnat jarayonini bir tekisda olib bora oladimi yoki yo'qmi?

Unda qanday kayfiyat ustunlik qiladi: vazmin yoki tez o'zgalar bilan muloqot qilganda o'zini tutib tura oladimi?

Temperamentning harakatchanligi.

Bir faoliyatdan boshqasiga, biron bir fikrdan uning amaliy ijrosiga osonlik bilan o'tadimi yoki qiyinchilik bilan o'tadimi? Yangi kasbni o'zlashtirishda eski ko'nikmalar uzoq vaqt xalaqit berib turadimi yoki yo'qmi? Tashabbuslar ko'rsatadimi yoki bir maromdagi faoliyat jarayoniga ko'nikkanmi? Unda odat va ko'nikmalar tezda shakllanadimi yoki yo'qmi?

Umumiy baho. Sangvinik temperamenti: oliy nerv faoliyatining kuchli, barqaror va harakatchan tipi ustuvorlik qiladi.

Xolerik temperamenti: oliy nerv faoliyatining kuchli, nobarqaror va harakatchan tipi ustuvorlik qiladi.

Flegmatik temperamenti: oliy nerv faoliyatining kuchli, barqaror va kam harakatchan (inert) tipi ustuvorlik qiladi.

Melanxolik temperamenti: oliy nerv faoliyatining kuchsiz nobarqaror va kam harakatchan tipi ustuvorlik qiladi.

Harbiy xizmatchining emotsional xususiyatlari uning temperamentiga bog'liq bo'ladi:

- kayfiyat (tetiklik, quvonch, tushkunlik, g'amginlik, zerikish, loqaydlik);

- xizmatdagi va turmushdagi yoqimli va yoqimsiz narsalarga nisbatan munosabat;

- hissiy kechinmalarning kuchi, chuqurligi va davomiyligi. Xulosalar: harbiy xizmatchilarning temperamenti va hissiy kechinmalarining o'ziga xos xususiyatlari. Harbiy xizmatchi bilan yakka tartibda ishlaganda nimalarni e'tiborga olish lozim?

Harbiy xizmatchining xarakteri va irodaviy sifatlari.

Harbiy xizmatchining tashqi dunyoga munosabati va jamiyatga qarashlari.

Ushbu bo'limda ofitser harbiy xizmatchidagi vatanparvarlik, e'tiqod, harbiy burchga sadoqat hissi, xalq va davlat manfaatlariga sadoqat, baynalminallik, dushmanlarga nafrat, ogohlik, prinsipiiallik, jamoaviylik, maqsadga intilishi qahramonlik, jasorat, mas'uliyatni his etish.

Harbiy xizmatchining mehnat va harbiy xizmatga munosabati mehnatsevarligi, batartiblik, vijdonlilik, faollik, intizomlilik, sabotlilik, mustaqillik - bosiqlik kabi hislatlar harbiy xizmatchining mehnatga munosabatlari.

Harbiy texnika va qurollardan foydalanish usullarini egallashga intiladimi?

Hamma mashg'ulotlarda berilib shug'ullanadimi yoki yo'qmi?

O'z faoliyatini yetarlicha samarali tashkil qila oladimi?

Harbiy xizmatchining komandirlari, o'rtoqlari va ooshqa kishilar bilan munosabati.

Dilkash, kam muloqot qiladigan, do'stlari ko'p yoki oz, o'rtoqlarini ularning oldida tanqid qila oladi yoki boshqalarning ko'zi uchungina tanqid qilib qo'yadi. O'rtoqlarining tanqidiga qanday munosabatda bo'ladi? O'z o'rtoqlariga va komandirlariga o'zining fikrlarini, kechinmalarini ochiq bayon etadimi yoki sir tutadimi?

O'rtoqlariga yordamga oshiqadimi yoki yo'qmi? Komandirlari oldida o'zini qanday tutadi?

Harbiy xizmatchining o'z-o'ziga munosabati. Shaxsiy manfaatlarini, jamoa manfaatlaridan ustun qo'yadimi yo'qmi?

O'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanadimi, o'zida qanday sifatlarni shakllantirish kerak, deb hisoblaydi?

O'z-o'zidan tez-tez norozi bo'lib turadimi?

Xizmatda, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikda yuksak natijalarga erishishga intiladimi?

O‘z imkoniyatlarini yuqori yoki past baholaydimi?

O‘z salomatligiga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘ladimi?

Xulosalar: Biron-bir g‘oyaga e‘tiqod qiladimi yoki yo‘qmi? Irodalimi yoki yo‘qmi? Dilkashmi yoki yo‘qmi? Jamoatchimi yoki xudbinmi?

Harbiy xizmatchining qobiliyatlari va intellektual xususiyatlari. Harbiy mahorat darajasi.

1. Umumiy qobiliyatlar.

Qobiliyatlari yetarlicha namoyon bo‘lmaydi. Harbiy xizmatchi o‘qish va xizmatdagi muammolarni qiyinchilik bilan yengadi, harbiy mutaxassislikni boshqalarning faol ko‘magi bilangina o‘zlashtiradi.

Qobiliyatlari namoyon bo‘ladi. Xizmatdagi va o‘qishdagi muammolarni hal qila oladi. Xizmatda, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik sohasida “qoniqarli” va “yaxshi” natijalarga erishadi. Mutaxassislik talablarini o‘z vaqtida, lekin qiyinchilik bilan bajaradi.

Yaxshi qobiliyatlarga ega. Harbiy xizmatchi xizmatda, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik mashg‘ulotlarida “yaxshi” va “a‘lo” natijalarga erishadi. Mutaxassislik talablarini muddatidan oldin bajaradi.

Qobiliyatlarning yuqori darajasi. Harbiy xizmatchi faqat “a‘lo”ga o‘qiydi. Aralash mutaxassisliklarni osonlik bilan o‘zlashtiradi. Sportda, badiiy havaskorlikda, san’atda va faoliyatning boshqa turlarida katta muvaffaqiyatlarga erishadi.

Maxsus qobiliyatlar.

Texnik qobiliyatlar. Texnikaga, ratsionalizatorlik va ixtirochilikka nisbatan ishtiyoqi bor, murakkab texnikaviy chizmalarni tezda o‘qiy oladi, qurollar hamda jangovar texnikaning tarkibiy qismlari va mexanizmlari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqadorliklarni anglab yetadi; maxsus adabiyotlar va texnik yangiliklarga qiziqadi.

Tashkilotchilik qobiliyatlari. Jamoa ishini tashkillashtiradi; kishilarni vazifalarga samarali taqsimlay oladi; qat’iyatli va talabchan; boshqalar bildiradigan fikr va tanqidiy mulohazalarni eshita biladi; ishni to‘g‘ri rejalashtiradi; tashabbuskor.

Harakat qobiliyatlari. Qurollardan yakka va guruh bo‘lib otish ko‘nikmalari mavjud; harbiy texnika va mutaxassislikni qiyinchiliksiz egallaydi; sport ko‘nikmalari (suzish va hokazo)ni egallash.

11.3.Bo‘linmada harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganish usuli

Muayyan bir bo‘linma harbiy xizmatchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ushbu jamoa psixologiyasining muhim elementi hisoblanadi. *Hamkorlikdagi hayot va faoliyat jarayonida jamoadagi kishilar o‘rtasida paydo bo‘ladigan har xil aloqa va muloqot shakllariga o‘zaro munosabatlar deyiladi.*

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari harbiy jamoalaridagi o‘zaro munosabatlar jangovar tayyorgarlik, o‘qish, mehnat hamda kundalik hayot jarayonida shakllanadi. Bunda O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy va davlat tuzimi, jamiyatimizda shakllanib kelayotgan milliy istiqloq mafkurasi, harbiy xizmatchilar orasidagi o‘zaro munosabatlar uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilar har doim jamoa muhitida bo‘ladilar. Shuning uchun ham shaxslararo munosabatlar aniq bir tizimga solingan bo‘lib, ular harbiy nizomlar bilan tartibga solib turiladi. Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi munosabatlar quyidagi shakllarda bo‘ladi: Xizmatga oid, xizmatdan tashqari (maishiy) va shaxsiy munosabatlar.

Xizmatga oid munosabatlar, xizmatni o‘tashda, jangda va kundalik hayotda nihoyatda zarur bo‘lib, har bir kishidan, eng avvalo, jangovar xizmatga va mehnatga oid, ijtimoiy-siyosiy majburiyatlarni so‘zsiz bajarishni taqozo etadi. Ushbu o‘zaro munosabatlar harbiy jamoaning tashkiliy tuzilishida rasman mustahkamlab qo‘yilgan. Bundan tashqari, ular harbiy nizom, buyruq, qoida va qo‘llanmalarda bayon etilgan bo‘ladi. Komandirlarning faoliyatlari ushbu o‘zaro munosabatlarni qaror toptirishga, mustahkamlashga va boshqarishga qaratiladi. Xizmatga oid o‘zaro munosabatlar tizimi, muntazam qaror toptirib boriladi. (Masalan, xizmat faoliyatining u yoki bu jarayonida harbiy xizmatchilarni qayta taqsimlash, majburiyatlarni belgilash va vazifalarni taqsimlash, hisobot vaqti va shaklini ko‘rsatish, xizmatda kamchiliklar bo‘lganda jazolash va hokazo). Ammo, xizmat davrida ham, undan tashqarida ham, iroda, ong va hissiyotga ega bo‘lgan kishilar o‘zaro ta’sirlashadilar. Shuning uchun ham, xizmatga oid munosabatlarni shaxsiy munosabatlardan, shaxsiy munosabatlarni esa xizmatdan tashqari munosabatlardan, butunlay ajratib bo‘lmaydi. Xizmat vaqtida ham, xizmatdan tashqari holatlarda ham, o‘ziga xos his-tuyg‘ularga, irodaviy sifatlarga, tafakkur va dunyoqarashga ega

bo'lgan insonlar o'zaro munosabatlarga kirishadilar. Bu esa harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlarning chuqur ruhiy-emotsional mazmunga ega ekanligidan dalolat beradi.

Bo'linmadagi o'zaro munosabatlar kishilar xulq-atvoriga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Askarning o'z komandiriga bo'lgan ichki, subyektiv munosabati, unda harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Qandaydir sabablarga ko'ra, ushbu munosabat salbiy bo'lsa, bo'ysunish majburiy, xizmat jarayoni esa zerikarli bo'ladi, natijada kelishmovchilik va ko'ngilsiz holatlar kelib chiqadi. Aksincha, komandir va askar o'rtasidagi ijobiy munosabat xizmatni osonlashtirib, uni sevimli mashg'ulotga aylantiradi. Bu esa askarlarda kerakli jangovar sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Bo'linmalardagi harbiy intizomni mustahkamlashda o'zaro munosabatlar mazmuni katta ahamiyatga ega: qayerda o'zaro munosabatlar harbiy nizomlar asosiga qurilgan bo'lsa, o'sha joyda harbiy intizom mustahkam bo'ladi.

Harbiy bo'linmadagi o'zaro munosabatlar, har xil ichki va tashqi omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Zamonaviy harbiy texnika va qurollarning murakkablashganligi, ularning bir nechta kishilar tomonidan boshqarilishi, bo'linmadagi va har bir harbiy xizmatchidagi mas'uliyat hissini nihoyatda oshiradi. Ularni boshqarishda aniqlik va hushyorlik, harakatlardagi o'zaro muvofiqlik talab etiladi. Bularning hammasi, harbiy xizmatchilarni bitta jamoa atrofiga birlashtiradi, har bir kishining umumiy ish uchun mas'uliyatini oshiradi.

Insonlarga o'tkazadigan ta'siriga ko'ra, shaxsiy munosabatlar o'zaro munosabatlar tizimida alohida o'rin tutadi. Bunday munosabatlar stixiyali ravishda qaror topadi (yoqtirish, yoqtirmaslik, befarqlik, do'stlik, xayrixohlik va hokazo). Kundalik hayotda bunday munosabatlarga har doim ham e'tibor berilavermaydi. Ammo, shaxsiy munosabatlar katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, doimiy e'tiborni hamda izchil boshqaruvni taqozo qiladi.

Kundalik harbiy xizmat jarayonida harbiy xizmatchilar amalga oshiradigan har xil o'zaro aloqalar va muloqotlar, jamoadagi o'zaro munosabatlar tizimini tashkil etadi. Aynan, ushbu jarayonda, shaxslar va jamoalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv shakllari paydo bo'ladi va rivojlanadi. O'zaro munosabatlar tizimi, jamoadagi rahbarlik usullariga, ijtimoiy-psixologik muhitga, an'analarga, harbiy intizomga

va shaxsiy tarkibning o'z vazifalariga bo'lgan munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sanab o'tilgan omillar esa, jamoaning rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Ma'lumki, harbiy bo'linmalardagi o'zaro munosabatlar, umumharbiy nizomlar va axloq me'yorlari bilan tartibga solib turiladi. O'zaro hurmat, jangovar o'rtoqlik, jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etish, har qanday sharoitda ham o'rtoqlariga yordam berishga intilish kabilar harbiy nizomlarga asoslangan o'zaro munosabatlarga xos.

Bo'linmada harbiy xizmatchilar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishda komandir quyidagi usullardan foydalanadi:

- yakka tartibdagi suhbat;
- anketa so'rovnomalar orqali;
- shaxsiy tarkib xatti – harakatlarini shaxsan kuzatish orqali;
- nizom talablariga rioya qilishlik darajasini tahlil qilish.

Boshliqlar va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, yakkaboshchilik, turli toifadagi harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlarda ma'lum masofani saqlash, o'zaro hurmat va boshliqlarning obro'si kabi tamoyillarga asoslanadi. Boshliq va komandirlarga so'zsiz bo'ysunish, harbiy xizmatchi shaxsini yerga urmaydi. Chunki, ularning qiziqishlari o'zaro mos keladi, ular bir maqsad, Vatan himoyasi uchun xizmat qiladilar. Jamoada harbiy nizomlarga asoslangan o'zaro munosabatlarni shakllantirish, ko'p jihatdan askarlarning jamoaga moslashuviga, ularning muloqot usullariga va ruhiy jihatdan qanchalik mosliklariga bog'liq bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichlarni bilgan holda, bo'linmadagi o'zaro munosabatlarni boshqarish mumkin.

O'zaro munosabatlarning har qanday shaklida, turli xil ijtimoiy-psixologik hodisalar yuz berib turadi. Shunday hodisalardan biri, *taqlid* bo'lib, inson shaxsining kamol topishida uning o'rni beqiyos, har qanday inson hayotda kimgadir taqlid qiladi, unga o'xshashga harakat qiladi. Psixologlar tili bilan aytganda, insonlardagi ijtimoiy bilim va tajriba manbalaridan biri - taqliddir.

Munosabatlarda paydo bo'ladigan yana bir ijtimoiy-psixologik hodisa, *musobaqa* yoki, o'zaro raqobat hisoblanadi. Musobaqa insonlarni faollashtiruvchi ta'sir kuchga ega. Ushbu hodisadan bo'linmalardagi jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik darajasini oshirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, yana harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlar, boshliqlar va bo'ysunuvchilar, kattalar va kichiklar, shuningdek, o'zaro tenglar o'rtasidagi munosabatlarga bo'linadi. Bunday munosabatlarning mazmuni, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining intizom nizomida bayon etilgan.

Shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy fikr yoki jamoa fikri muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlarida, bo'linmalardagi jangovar tayyorgarlik va ichki intizomni mustahkamlash maqsadida ofitserlarning jamoa fikridan har tomonlama foydalanishlari zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bo'linmada harbiy xizmatchilar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni o'rganish jarayonida, bo'linma komandiri, ijodiy yondashishi, har bir bo'ysunuvidagi harbiy xizmatchi xarakteri, uning psixologiyasini mukammal bilishi lozim bo'ladi.

11.4. Harbiy jamoadagi psixologik muhitni aniqlash usuli

Bo'linmada sog'lom psixologik muhitni yaratish ofitserning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Harbiy jamoada shakllangan o'zaro munosabatlar, har bir harbiy xizmatchining emotsional holati kabilar psixologik muhitda o'z aksini topadi. Jamoadagi psixologik muhitni aniqlashda ofitser A.N. Lutoshkinning karta - chizmasidan foydalanishi mumkin. Ushbu karta-chizma jamoaga xos sifatlarining ma'lum bir tartibdagi yig'indisidan iborat. Ushbu sifatlar ikkita ustun qilib, ma'lum bir tartibda qog'ozning chap va o'ng tomonlariga yoziladi: Qog'ozning chap tomoniga ijobiy psixologik muhitni belgilovchi sifatlar, o'ng tomoniga esa yomon - salbiy psixologik muhitni belgilovchi sifatlar yoziladi. Ushbu sifatlar jamoada namoyon bo'lish darajasiga qarab, yetti balli darajada baholanadi, ya'ni 3 dan - 3 gacha.

Harbiy xizmatchiga quyidagicha ko'rsatma beriladi: "avval chap tomondagi, keyin esa o'ng tomondagi mulohazalarni o'qing, shundan so'ng qog'ozning o'rta qismidagi kataklarga jamoangizdagi haqiqiy ahvolni bildiradigan bahoni qo'ying.

+ 3- chap tomonda ko'rsatilgan xususiyat jamoada har doim namoyon bo'ladi.

+ 2- xususiyat ko'p hollarda namoyon bo'ladi;

+ 1- xususiyat ba'zan namoyon bo'ladi.

0-ushbu xususiyat ham, unga qarama-qarshi bo'lgan xususiyat (o'ng tomonda ko'rsatilgan) ham tez-tez namoyon bo'lmaydi yoki ikkalasi ham bir darajada namoyon bo'ladi.

- 1-o'ng tomonda ko'rsatilgan xususiyat jamoada ba'zan namoyon bo'lib turadi.

- 2- xususiyat ko'p hollarda namoyon bo'ladi.

- 3- xususiyat har doim namoyon bo'ladi (chap tomonda ko'rsatilgan) ushbu baholar har doim ularning ko'z oldlarida bo'lishi uchun, ularni doskada yoki o'zlaridagi varaqqa yozish tavsiya etiladi.

KARTA-chizma

Ijoiy xususiyatlar	+3	+2	+ 1	0	-I	-2	-3	Salbiy xususiyatlar
Tetik va ko'tarinki kayfiyat ustuvor								Tushkun va umidsiz kayfiyati ustuvor.
O'zaro simpatiya va samimiyat ustuvor.								Munosabatlarda antipatiya ziddiyatlar ustuvor.
Jamoa ichidagi guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarida ishonch va tushunishning mavjudligi.								Jamoa ichidagi guruhlar o'zaro bir-birlari bilan nizolashadi.
Jamoa a'zolariga bo'sh vaqtlarni birgalikda o'tkazish, birga bo'lish va faoliyat yuritish yoqadi.								Jamoa a'zolari o'zaro muloqatga nisbatan befarq bo'lib, hamkorlikdagi faoliyatga nisbatan salbiy.
Biron-bir kishi erishadigan yutuq yoki muvaffaqiyatsizlik butun								Biron-bir kishi erishadigan yutuq yoki muvaffaqiyatsizlikka nisbatan befarqlik yoki kinoya alomatlari paydo

jamoaning xayrixohligiga yoki tashvishlanishiga sabab bo‘ladi.								bo‘ladi.
Qo‘llab-quvvatlash va ma’qullash ustuvor, tanqid va kinoya samimiy bo‘ladi.								Tanqidiy fikrlar yashirin va ochiqdan-ochiq dushmanlikdan iborat.
Jamoda kishilar bir - birlarining fikrlariga hurmat bilan munosabatda bo‘ladilar.								Jamoda har kim o‘z fikrini o‘tkazishga harakat qiladi.
Qiyin daqiqa; jamoda “Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun” tamoyili asosidagi emotsional birlikka erishiladi.								Qiyin vaziyatlarda jamoa bo‘linib ketadi, o‘zaro janjanlar va bir-birlarini ayblashlar kelib chiqadi.
Jamoaning yutug‘i yoki muvaffaqiyatsizligini har bir kishi o‘z inikidek qabul qiladi.								Jamoaning yutuq va muvaffaqiyatsizligiga nisbatan kishilar o‘z munosabatlarini bildirmaydilar.
Jamoa o‘zining yangi a’zolariga samimiy munosabatda bo‘lib, ularga yordam berishga harakat qiladi.								Jamoa yangi a’zoga nisbatan dushmanlarcha munosabatda bo‘ladi, ular o‘zlarini ortiqcha va begona his qiladilar.
Jamoa faol, energiyaga to‘la.								Jamoa loqayd va faol emas.
Jamoa ezgu ishlar qilishga intiladi.								Jamoda birdamlik yo‘q, har kim o‘zini o‘ylaydi.

Jamoada har bir kishiga adolatli munosabatda bo‘linadi. Zaiflar himoya qilinadi.								Jamoya “Kuchlilar”ga va “Kuchsizlar”ga ajralgan, zaiflarning ustidan kuladilar.
Jamoaga nisbatan boshliqlar bildirgan ijobiy fikrlar har bir a’zoda o‘z jamoasiga nisbatan iftixor tuyg‘usini uyg‘otadi.								Kishilarda o‘z jamolarining rag‘batlantirilishiga nisbatan befarqlik mavjud.

Jamoadagi psixologik muhitni aniqlash uchun ijobiy va salbiy ballarning hammasini qo‘shib chiqish lozim. Chiqqan yig‘indi son qanchalik katta bo‘lsa, jamoadagi psixologik muhit ham shunchalik yaxshi bo‘ladi, aksincha, ballar yig‘indisi qanchalik kichik bo‘lsa psixologik muhit shunchalik yomon bo‘ladi.

Ranglar vositasida bo‘linmadagi psixologik muhitni aniqlash usuli

Shuningdek, bo‘linmadagi psixologik muhit holatini ranglar vositasida ham aniqlash mumkin. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, harbiy xizmatchilarga ushbu jamoa safiga qo‘shilishlari va undagi kayfiyatlarini biron-bir rangda ifodalash taklif etiladi.

Quyidagi ranglardan foydalaniladi:

1. Qizil rang -ko‘tarinki kayfiyatni ifodalaydi;
2. Och qizil rang - quvnoq kayfiyat belgisi;
3. Och sariq rang - yoqimli kayfiyatni ifodalaydi;
4. Yashil rang- xotirjamlik va vazminlik belgisi;
5. Siyoh rang - bezovtalikni, tashvishli kayfiyatni ifodalaydi.
6. Qora rang - norozilik , tushkunlik, toliqish belgisi. Agar, ofitser har doim o‘z qo‘l ostidagilarning kayfiyati haqida yetarlicha axborotga ega bo‘lsa, jamoadagi psixologik muhitni boshqarish oson bo‘ladi.

11.5. Harbiy jamoaning ijtimoiy-psixologik tuzilishi va uni o'rganish dasturi

Zamonaviy urushda mahoratli jang olib borib g'alaba qilish uchun, jangchi, jangga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi kerak va unda ko'nikma va jang malakalari shakllangan bo'lishi shart. Bu narsalarni esa jangchi o'qish jarayonida o'zlashtirib oladi. Undan tashqari, jangchida shaxsiy sifatlar, ya'ni jang paytida o'zini tuta bilishi, malakasi, psixologik holati judayam katta rol o'ynaydi.

Ma'lumki, alohida tanlab olingan shaxs muammosini ko'plab fanlar o'rganadi. Har qanday faoliyatda, jumladan, harbiy faoliyatda kishilarning psixologik xususiyatlari katta rol o'ynaydi. Faoliyatga tirik mavjudotning o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida atrof-muhit bilan bo'ladigan o'zaro ta'sirlashuv jarayoni sifatida qaraladi yoki boshqacha qilib aytganda, inson moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishga yo'naltirilgan, yakunlangan xatti-harakatlar tizimiga faoliyat deyiladi.

Uning maqsadi, motiv va vositalari faoliyatning ichki tashkil qiluvchilari hisoblanadi. Aynan faoliyat shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasida ta'sirlashuvning asosi hisoblanadi. Tashqi muhitning ta'siri shaxsning mohiyatini tashkil etadi. Ma'lumki, shaxs faoliyatdagina rivojlanadi va o'zini namoyon qiladi.

Harbiy jamoaning mohiyati va uning o'ziga xosligi

Harbiy xizmatchilarning ma'naviy yaqinlashishi, ularning xarakterlari xususiyatlarining yaqinlashishlari, keyinchalik esa yuqori darajali rivojlangan jamoaga aylanishining amaliy omili - bu harbiy faoliyat majmui (yig'indisi)dir.

Umumiy vazifalarni bajarish jarayonida harbiy xizmatchilar orasidagi aloqa mukammalashib boradi, boshqarish va tashkillashtirish jarayonlari yengillashib borib, ularning xarakter va nuqtai nazarlari yaqinlashib boradi.

Shunday qilib, **harbiy jamoa deb** – Vatan himoyasi maqsadida doimo jangovar shaylik harbiy bilimlarini egallash va umumiy harbiy faoliyat yuritish uchun birlashgan harbiy xizmatchilarning tartibga solingan guruhiga aytiladi.

Hammamizga ma'lumki, bu guruhni bo'linmadagi o'z boshqarmasi qurol-aslahasi, majburiyatlari, hayot tarzi, maishiy va

hordiq chiqarish tizimiga solib qo'yib, harbiy jamoa tashkil eta olmaymiz, harbiy jamoa tuzish uchun biz bo'linmaga kelgan insonlarning orasida mustahkam axloqiy, ishga aloqador va hattoki do'stlik ham o'rnatishimiz darkor.

Odatga ko'ra, harbiy jamoa tushunchasi o'z ijtimoiy rivojida yuqori darajaga yetgan jamoalarga nisbatan ishlatiladi. Shu tufayli, jamoaning yetukligi haqida birmuncha belgilar bor:

1. Yetuk jamoani asosiy belgisi – harbiy xizmatchilar to'plamini g'oyaviy birligi, ularning asosiy qiziqish va ma'naviy tamoyillari birligi, hamda jamoaviylikni yuqori darajada anglanganligi;

2. Yana bir belgilardan biri – maqsadlari, faoliyat jarayoni va bajarayotgan vazifalarini birligi;

3. Jamoa sog'lom ijtimoiy-psixologik klimit, intizom va siyosiy-ma'naviy holat bilan ham ta'riflanadi. Jamoaning shakllanishi uchun dastlabki shart-sharoitlar: insonlarning birgalikda hayot kechirishi va faoliyat yuritishi uchun umumiy qiziqishlar, vazifalarning mavjudligi. Bu dastlabki shart-sharoitlar mavjudligida shaxslararo va guruhi ichida muloqotlar boshlanadi, muloqot jamoaning shakllanishi va uning psixologiyasining asosiy usul va vositasi hisoblanadi.



Jamoaning muhim xususiyatlari – bu birgalikdagi jamoaviy faoliyatga va uning har bir a'zosining hayoti va rivojlanishi uchun yetarli ijtimoiy sharoitlar va ularning ehtiyojlarini qondirishiga qodirligida. Yana bir muhim xususiyatlardan biri – bu boshqa jamoalar bilan yaqin aloqada bo'lishidir. Bizning qurolli kuchlarimizda ko'plab har xil birlamchi harbiy jamoalar mavjud. Ularning psixologiyasi va tuzilishlarida

ko'p o'xshashliklar bor. Birinchidan, ularning hammasi harbiy jamoalardir. Har bir harbiy xizmatchi individligidan, harbiy jamoalar ham bir-biridan farq qiladi.

Harbiy jamoalarning bir-biridan farqlarining sabablari, harbiy kasbiy xususiyati:

- ya'ni faoliyatning shakli, turi yoki biron-bir vazifani bajarish uchun tayinlanganligi;
- qurolli kuchlar turiga ham bog'liqligi; harbiy o'quv bilim yurtlari jamoalari;
- harbiy xizmatchilarning xizmat turkumiga bo'linishi: ofitserlarga, serjantlarga, askarlarga, bundan tashqari, harbiy mutaxassisligi: mexanik, haydovchi, operator, o'qchilar.

Faoliyati, xarakteri, shaxsiy tarkibning xususiyatlari va boshqa obyektiv sharoitlarga ko'ra, harbiy jamoalar psixologik belgilar bilan ham bir-biridan ajralib turadi. Bunga, birinchi navbatda, jamoa ichida muloqot hisobga olinadi. Ayrim jamoalarda muloqot faqat ish yuzasidan, ayrimlarida do'stona muloqotda bo'lishadilar.

Hamma harbiy jamoalar uchun ularni shtat-tartibi tuzilishida turishi xarakterlidir. Shuning uchun bu jamoani biz xohishimizsiz asosiy harbiy jamoa deymiz. Ular, albatta, yakka jamoa bo'lib qolmaydi, ular ichida faollar jamoasi bo'ladi. Bundan tashqari, sport, badiiy havaskorlik va boshqa jamoalar ham bo'ladi va ular o'z faoliyatlarini ijtimoiy tarifda yuritishadi.

Harbiy jamoa ichida yoki boshqa bo'linmalar harbiy xizmatchilardan tashkil topiladigan mikroguruhlar insonlarning do'stligi va qiziqishlarining bir-birlariga mosligi natijasida hosil bo'ladi.

Har bir harbiy xizmatchi bir necha jamoalar a'zosi bo'la oladi: avvalo, o'z bo'linmasi, so'ng boshqalarining.

Har bir jamoa o'zining ijtimoiy-psixologik tuzilishiga egadir. Uning elementlariga jamoa hayoti va faoliyati aniq rol bajaruvchi, ma'lum bir holatni egallagan jamoa ichida alohida o'rin egallagan shaxs va mikroguruhlar kiradi. Ayrim harbiy jamoalarda, ba'zan yolg'on jamoaviylik va yolg'on do'stonalik elementlari ham uchrab turadi. Yolg'on kollektivizm, maqsad va vazifalarga befarqlik bilan kurashda ifodalanadi. Yolg'on kollektivizm psixologiyasi - bu tashqi go'zallik orqali jamoadagi salbiy holatni yashirishga intilishdir.

Harbiy jamoaning ijtimoiy psixologik tuzilishi

Harbiy jamoani jipslashtiruvchi va rivojlantirish jarayonida, shaxsiy tarkibni axloqiy – siyosiy tashkiliy birligiga erishiladi. Bular shaxsiy tarkibning harakatlar va faoliyatlarida, uni harbiy texnika va

qurol-aslaha bilan ishlashida, har bir jangchini do'stlariga bo'lgan yaqinligida, ular oldida javobgarligini his etishida, xizmatdan tashqari holatdagi ma'naviy hayotlarida namoyon bo'ladi. Tajribalarning ko'rsatishicha, murakkab vaziyat chog'ida harbiy jamoaning o'z oldidagi vazifalarini bajarishga qodirligi quyidagi sharoitlarga bog'liq:

a) jamoa a'zolarining siyosiy hayot va harbiy xizmatchilarning asosiy savollari bo'yicha kelishilgan va umumiy tutgan o'rni;

b) harbiy xizmatchilarning faoliyat va xizmatdan tashqari turmushida muloqot va o'zaro aloqalari ko'nikmalari va malakalari;

v) askariy birodarlik va jangovar do'stlik, ya'ni, shaxslararo va mikroguruhlararo munosabatlar, bir-biriga ishonchi, hurmat va bir-biri oldidagi javobgarlik;

Shunday qilib, harbiy jamoa psixologiyasiga quyidagilar kiradi:

- jamoadagi munosabatlar;

- ijtimoiy fikr;

- jamoa kayfiyati;

- harbiy an'analar;

- boshqa ijtimoiy-psixologik hodisalar (raqiblik, birovga o'xshamoqlik).

Harbiy xizmatchilarning g'oyaviy birligi ijtimoiy fikrda o'z ifodasini topadi.

Ijtimoiy fikr deb, jamoaning jamiyatda bo'lib o'tayotgan hodisalarga, jamoa yoki uning biron-bir a'zosining faoliyati, xulqi va qiliqlariga bo'lgan baholash fikrlar to'plamiga aytilgan.

Ijtimoiy fikrni shakllantirish to'rt bosqichga bo'linadi:

I –bosqich: individual fikrlarni o'rganish.

II- bosqich: to'g'ri baholash, fikrlar ishlash.

III- bosqich: individual fikrlarni birlashtirish.

IV- bosqich: shakllangan ijtimoiy fikrni faoliyatdagi namoyoni.

Ijtimoiy fikrni shakllantirish sharoitlari va usullari:

- harbiy xizmatchilarda, yuksak onglilik, do'stlik hissiyotlarini, birodarlik va kollektivizm tarbiyalari;

- komandir va faollarni shaxsiy namunaligini va avtoritetini ta'minlash;

- so'zsiz va ish birligini ta'minlash;

- o'quv-tarbiyaviy ishlarni hayot bilan aloqalash;

- harbiy xizmatchilarni faol ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga chorlash.

Harbiy jamoa psixologiyasiga jamoa kayfiyati muhim o‘rin tutadi. Jamoa kayfiyati deb, jamoa yoki uning bir qismini biron-bir vaqt ichida jamiyatdagi yoki jamoadagi biron bir hodisa, dalillar haqida, birgalikda qayg‘urishiga aytiladi.

Kayfiyat faol va bo‘shang shakllarda bo‘ladi. Bo‘shang shaklidagi jamoa, shunday bir emotsional holatda bo‘ladi-yu, ammo bu holatdan so‘ng, biron-bir aniq harakatga kirishmaydi. Faol shaklning negizida esa, aniq harakatlarga emotsional intilish va motiv bo‘ladi.

Jamoa kayfiyati qonuniyatlari:

- ijtimoiy omillarning shartligi;
- ta’sirchanligi;
- katta intiltiradigan, qiziqtiradigan kuchliligi;
- dinamikliligi.

Jamoa kayfiyatli funksiyalari (vazifalari):

- harbiy xizmatchilar faolligini tartibga solish, kuchaytirish va qiziqtirish;
- psixik bilish jarayonlariga ta’siri;
- harbiy xizmatchilar xulqiga ta’siri.

Jamoaning rivoji va faoliyatining muhim sharoitlaridan biri, harbiy an’analaridir.

An’analar, bu jamoaga o‘rnatilgan va unga rioya qilish jamoaning ehtiyojiga aylanib qolgan, qat’iy va aniq harakat va munosabatlardir. Ular ijtimoiy psixologik tartiblashtiruvchi sifatida namoyon bo‘ladilar va avloddan avlodga o‘tib keladilar.

O‘zlarining kundalik faoliyatlarida, komandir va boshliqlar, oldinda turgan vazifalarni bajarilishiga ta’sir ko‘rsatayotgan har xil shakllar bilan to‘qnashadilar. Ayrim holatlarda, albatta, ularning diqqatini jamoaning ijtimoiy psixologik sifatlari o‘ziga tortadi, ya’ni uning jipsliligi, tartibliligi, intizomliligi, jangga qodirligi, tarbiyalash imkoniyatlari va hokozolar.

Bundan tashqari, komandirlar o‘z kundalik faoliyatlarida ijtimoiy-psixologik jarayonlar bilan ham uchrashib turishadi: boshqarish, jamoa fikrini shakllanishi va umumiy qaror qabul qilish, yordam so‘rab kelish va yordam ko‘rsatish, jamoaga shaxsni tasdiq topishi, nizolar tug‘ilishi va boshqa dinamik hodisalar.

Jamoaning muvaffaqiyatlari va kamchiliklari uning a’zolari bilan qayg‘urmasdan, chetda qolib ketadigan bo‘lsa, demak, hali jamoa

shakllanib bo‘lmagan yoki shakllanishi jarayonining boshlanishida turibdi, deb xulosa qilish maqsadga muvofiqdir.

Komandir va boshliqlar oldida harbiy jamoaning hayoti va faoliyatining shakllanishi, ijtimoiy-psixologik hodisa, ijtimoiy holatlarning shakllanishi hamda sog‘lom siyosiy-axloqiy holatlarni, yuksak harbiy intizomni mustahkamlash kabi og‘ir va murakkab vazifalar turadi.

Harbiy jamoaga rahbarlik qilishda komandir boshliqlar quyidagilarni bilishlari kerak:

- ijtimoiy fikrni (jamoa fikrini);
- bo‘ysunuvchilar kayfiyatini (salbiy kayfiyati sabablarini);
- shaxslararo munosabatlarning xarakterini;
- mikroguruhlarining mavjudligi, ularning yetakchilarini va yo‘nalishlarini;
- jamoadagi an‘analarni;
- bo‘ysunuvchilarning ehtiyojlari va bu ehtiyojlarining qoniqarliligini;

b) shakllanishiga ta’sir ko‘rsatishi kerak:

- ijtimoiy fikrga;
- jamoadagi psixologik muhitga;
- yaxshi kayfiyatga;
- jamoadagi jipslikka yo‘naltirilgan an‘analarga;
- nizomiy munosabatlarga;
- jamoa qadr-qimmatini va sharafi uchun javobgarlik, birodarlik va askariy do‘stonalik kabi sifatlarga.

v) erishish kerak:

- jamoada nizomiy munosabatlarni ta’minlashga;
- bo‘linma faollarining o‘qish va intizomda ilg‘orligiga;
- kichik komandirlarning avtoritetini mustahkamliligiga;
- salbiy an‘analar bilan maqsadli kurashishga;
- jamoa jisplashishiga rejalashtirilgan ish olib borishga;

Harbiy jamoani jisplashtirish bo‘yicha komandir faoliyatining asosiy yo‘nalishlari:

a) serjantlar bilan ishlash:

- bo‘linmalardagi holat haqida serjantlarni muntazam tinglash;
- serjantlar bilan yakka tartibda suhbat;
- serjantlarni shaxsiy tarkib bilan ishlashga o‘rgatish;

- intizomiy amaliyotda serjantlar ishtirokini muntazam tahlil qilib turish;

- ilg'or tajriba almashishni tashkillashtirish;

b) faollar bilan ishlash:

- avtoritetlilarni bo'linma faollari safiga saylash;

- faollarga shaxsiy tarkib bilan ishlash uslub va shakllarini o'rgatish;

- faollar bilan turmush va hordiq masalalari bo'yicha maslahatlar olib borish;

- faollarni o'qish va intizomda (xizmatda) ilg'orligini ta'minlash;

- faollar tashabbusiga beparvolik qilmaslik;

v) jamoani jipslashtirish usullari:

- jamoa oldida turgan vazifa va maqsadlarni tushuntirish;

- do'stlik va askariy birodarlik savollari bo'yicha, shaxsiy tarkib bilan umumiy yig'ilishlar o'tkazish;

- yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar;

- jamoaning ayrim a'zolari yoki mikrogruphlarni salbiy ta'sirlarini yengish;

- kichik komandirlar avtoritetini mustahkamlash;

Harbiy jamoadagi o'zaro munosabatlar

Harbiy xizmatchilar, har doim, jamoa muhitida bo'ladilar. Shuning uchun ham shaxslararo munosabatlar aniq bir tizimga solingan bo'lib, ular harbiy nizomlar bilan tartibga solib turiladi. Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlar quyidagi shakllarda bo'linadi:

- xizmatga oid;

- xizmatdan tashqari (maishiy);

- shaxsiy munosabatlar.

Jamoadagi munosabatlar – bu harbiy xizmatchilararo muloqot, hayotiy turmush va harbiy faoliyat jarayonidagi munosabatlar bo'lib, ular boshqa ijtimoiy-psixologik hodisalarga (kayfiyat, ijtimoiy fikr, an'ana) muayyan ta'sir ko'rsatadi va jamoa faoliyatining natijasini hamda ayrim harbiy xizmatchilarni ishchanligini aniqlaydi.

Jamoadagi nizomiy munosabatlarni shakllantirish usullari:

- harbiy xizmatchilarni kollektivizm ruhida tarbiyalash;

- qat'iy nizomiy tartib va doimiy talabchanlikni ta'minlash;

- qonunlar, harbiy qasamyod va nizomlar talablarini tushuntirib berish;

- bo‘linma faollariga suyanish;



- serjantlar avtoritetini mustahkamlash.

Xizmatga oid munosabatlar, xizmatni qadrlashda, jangda va kundalik hayotda nihoyatda zarur bo‘lib, har bir harbiy xizmatchidan, eng avvalo, jangovar, xizmatga va mehnatga oid, ma’naviy-ma’rifiy majburiyatlarni so‘zsiz bajarishni taqozo etadi. Ushbu o‘zaro munosabatlar harbiy

jamoaning tashkiliy tuzilishida rasman mustahkamlab qo‘yilgan. Bundan tashqari, ular harbiy nizom, buyruq, qoida va qo‘llanmalarda bayon etilgan bo‘ladi.

Komandirlar faoliyatlari ushbu o‘zaro munosabatlarni qaror toptirishga, mustahkamlashga va boshqarishga qaratiladi. Xizmatga oid o‘zaro munosabatlar tizimi muntazam qaror toptirib boriladi, (masalan, xizmat faoliyatining u yoki bu jarayonida harbiy xizmatchilarni qayta taqsimlash, majburiyatlarni belgilash va vazifalarni taqsimlash, hisob vaqti va shaklini ko‘rsatish, xizmatda kamchiliklar bo‘lganda jazolash va hokazo). Ammo, xizmat davrida ham, undan tashqari ham, iroda, ong va hissiyotga ega bo‘lgan kishilar o‘zaro ta’sirlashadilar.

Shuning uchun ham xizmatga oid munosabatlarni shaxsiy munosabatlardan, shaxsiy munosabatlarni esa xizmatdan tashqari munosabatlardan butunlay ajratib bo‘lmaydi. Xizmat vaqtida ham, xizmatdan tashqari holatlarda ham o‘ziga xos his-tuyg‘ularga, irodaviy sifatlarga, tafakkur va dunyoqarashga ega bo‘lgan insonlar o‘zaro munosabatlarga kirishadilar. Bu esa harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi munosabatlarning chuqur ruhiy-emotsional mazmunga ega ekanligidan dalolat beradi.

Bo‘linmadagi o‘zaro munosabatlar kishilar xulq-atvoriga juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Askarning o‘z komandiriga bo‘lgan ichki subyektiv munosabatni unda harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Qandaydir sabablarga ko'ra, ushbu munosabat salbiy bo'lsa, bo'ysunish majburiy, xizmat jarayoni esa zerikarli bo'ladi, natijada kelishmovchilik va ko'ngilsiz holatlar kelib chiqadi. Aksincha, komandir va askar o'rtasidagi ijobiy munosabat xizmatni osonlashtirib, uni sevimli mashg'ulotga aylantiradi. Bu esa askarlarda kerakli jangovar sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Bo'linmalarda harbiy intizomni mustahkamlashda, o'zaro munosabatlar mazmuni katta ahamiyatga ega: qayerda o'zaro munosabatlar harbiy nizomlar asosiga qurilgan bo'lsa, o'sha joyda harbiy intizom mustahkam bo'ladi.

Tayanch so'zlar: Mustahkam harbiy intizom, harbiy jamoa, o'zaro munosabat, nizom, ruhiy-emotsional, xulq-atvor, iroda sifat tafakkur.

Takrorlash uchun savollar:

1. Harbiy bo'linmaning jamoa sifati nimalarda ko'rinadi?
2. Jamoaning ijtimoiy-psixologik rivojlanish darajasi deganda nimani tushunasiz?
3. Harbiy xizmatchilar orasidagi munosabatlar nimaga asoslanadi?
4. Obro'li harbiy xizmatchilar harbiy jamoaning shakllanishida qanday rol o'ynaydi?

6-MODUL: HARBIY PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI

12-mavzu: Harbiy pedagogikaning maqsad va vazifalari. Harbiy rahbar va ofitser faoliyatida pedagogik bilimlarning o'рни

Reja:

1. Harbiy pedagogikaning maqsad va vazifalari.
2. Harbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Harbiy pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.
4. Harbiy pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlari
5. Pedagogik kuzatish va suhbat metodlarini qo'llash.
6. Harbiy xizmatchilar amaliy faoliyatini o'rganish. Test – so'rovnomalar metodini o'tkazish. Hujjatlarni tahlil qilish metodi.
7. Pedagogik eksperiment metodini o'tkazish. Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi.

12.1. Harbiy pedagogikaning maqsad va vazifalari

Hayotimizning barcha jabhalarida, jumladan, yosh avlod ta'lim-tarbiyasida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Tariximizni, ma'naviyatimizni qayta tiklash, yanada boyitish borasidagi harakatlar, ta'lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash yo'lidagi tub o'zgarishlar shular jumlasidandir. Bu ishlar bejiz amalga oshirilayotgani yo'q. Chunki har qanday mamlakatning ravnaqi xalqning bilimdonlik saviyasi, ma'naviy darajasiga bog'liq. Shu munosabat bilan mamlakatimiz Prezidenti SH.M. Mirziyoyev: **“Maktab o'zgarmasa, jamiyat o'zgarmaydi. Bu – aksioma. Buni inkor qilib bo'lmaydi”** deb ta'kidladilar yoshlarni vatanparvalik ruhida tarbiyalash va o'qituvchi mavqeini oshirish yuzasidan kengaytirilgan videoselektrda.

O'zbekiston Respublikasining “Xalq ta'limi” to'g'risidagi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi ana shu g'amxo'rlikdan darak berib turibdi.

Har sohada bo'lgani kabi, harbiy mutaxassislar tayyorlashda ham katta ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ofitser kadrlarga qo'yiladigan talablar oshib bormoqda. Chunki hozirgi ofitser faqat ma'lum bir sohada chegaralangan bilimlar egasi bo'lgan tor ixtisosli mutaxassis emas, balki chuqur intellektual qobiliyatga ega bo'lgan, keng dunyoqarashli, yuksak madaniyatli va ma'naviyatli inson, o'z bilimi,

shaxsiy namunasi bilan o'z bo'ysunuvchilariga tarbiya va ta'lim bera oladigan pedagog bo'lishi zarur.

Ofitser ta'lim-tarbiya borasida qanday bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, nima qilishi, qanday yo'l tutishi, nimalarga e'tibor berishi lozim?. Bu va shu kabi boshqa savollarga ma'lum darajada "Harbiy pedagogika" fani javob beradi.

"Harbiy pedagogika" qanday fan, nimani o'rgatadi, degan savolga javob topishdan oldin, "Pedagogika" fani bilan qisqacha tanishib o'tish lozim.

Kishilik jamiyatining qadimiy ibtidoiy, ya'ni boshlang'ich davrida odamlar tayyor mahsulotdan foydalanishgan. Ovchilik, keyinchalik esa dehqonchilik va turli-tuman hunarmandchilikning rivojlanishi odamlar mehnat tajribasining oshishiga olib kelgan. Mehnat faoliyati borgan sari murakkablasha borib, odamlarning shaxs sifatida shakllanishida va kishilik jamiyatining rivojlanishida muhim rol o'ynay boshladi. Mehnat odamlarning tarbiyasiga ta'sir ko'rsatib, tarbiyani hayotiy zaruriyat qilib qo'yadi. Odamlarning mehnat ko'nikmalari yosh avlodga meros bo'lib qola boshladi. Endi tarbiya mehnat faoliyatining, mehnat tajribasining mahsuliga bevosita bog'liq bo'lib qoldi. Shu tariqa, ijtimoiy hayotda orttirilgan tajribalarni quyi avlodga o'rgatish ehtiyoji tug'ildi. Tajribalarning to'planishi natijasida ta'lim-tarbiyaning dastlabki omillari vujudga keldi. Tabiat, ijtimoiy hayot haqidagi tajribalar asosida ma'lum bilimlar boyib bordi.

Oldiniga bola tarbiyasi kattalar tomonidan bevosita mehnat faoliyatida amalga oshirilgan bo'lsa, jamiyat rivojlana borgan sari, bunday yo'l, talabga javob bermay qo'ydi. Endi tarbiya bilan bilimdon, tajribasi yetarli odamlar shug'ullana boshladi. Ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchi tabiyachilar kasb-hunar homiylari sifatida ajralib chiqa boshladilar. Ularning ta'lim-tarbiya borasidagi faoliyatlari va to'plagan tajribalaridan o'rinli foydalanishlari pedagogika fanining vujudga kelishiga olib keldi. Mashg'ulotlar tobora tashkiliy shakllarga, ko'rinishlarga ega bo'lib bordi. Shu asnoda dastlabki maktab ko'rinishidagi muassasalar vujudga keldi, taraqqiy etdi. Shunday qilib, pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqidagi ma'lumot beruvchi fanga aylandi.

"Pedagogika" atamasi qadimgi yunon tilidan kirib kelgan bo'lib, "bola yetaklovchi" mazmunini bildiradi. Eramizdan oldingi III - II

asrlarda qadimgi Yunonistonda quldorlarning bolasini ovqatlantiradigan, sayr qildiradigan, maktabga olib boradigan tarbiyachi-qullar “pedagog” deb atalgan.

Keyinchalik bu atamaning ma’nosi birmuncha o’zgardi. Maxsus tayyorgarlik ko’rgan va ta’lim-tarbiya bilan shug’ullanadigan shaxslar “pedagog” deb atala boshladi. Ko’p vaqtlar mobaynida pedagogika fan sifatida faqat o’sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasini o’rganadi, deb qarab kelingan. Ammo hayot amaliyoti tarbiyaning umumiy prinsiplari faqat bolalar tarbiyasiga emas, balki katta yoshdagilar tarbiyasiga ham taalluqli ekanligini ko’rsatdi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda pedagogikaga yosh avlodga va katta yoshdagi odamlarga ta’lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o’rganuvchi fan sifatida qaralmoqda.

Hozirgi kunga kelib, pedagogika alohida fan sifatida taraqqiy etgan bo’lib, o’zining bir necha mustaqil tarmoqlariga ega. Jumladan, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, umumiy ta’lim pedagogikasi, oliy ta’lim pedagogikasi, pedagogika tarixi, kasb pedagogikasi, maxsus pedagogika – defektologiya (surdopedagogika – kar va soqov bolalarni o’qitish va tarbiyalash; tiflopedagogika – ko’zi ojiz bolalarni o’qitish; oligofrenopedagogika – aqliy rivojlanishdan orqada qolgan bolalarni o’qitish va tarbiyalash; logopediya – nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarni o’qitish) va boshqalar.

Hozirgi kunda “harbiy pedagogika” pedagogika fanining alohida tarmog’i sifatida boshqa fanlar bilan hamkorlikda taraqqiy etmoqda.

Harbiy pedagogika askarlar va harbiy jamoalarga ularda doimiy yuksak jangovar tayyorgarlikka ega bo’lishlari, tinchlik davrida va urush sharoitida o’z harbiy burchini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun yuksak ma’naviy, siyosiy va jangovar xislatlarni, jangovar mahoratni shakllantirish, aqliy va jismoniy kuchlarini rivojlantirish, ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik qonuniyatlarini o’rganuvchi fandır.

Harbiy pedagogikaning obyekti shaxsiy tarkibni o’z xizmat va jangovar vazifalarini bajarishga tayyorlash jarayonidan iborat; uning predmeti (mazmuni) sifatida askarlarning jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligi jarayonining pedagogik qonuniyatlari xizmat qiladi.

Harbiy pedagogikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- harbiy-pedagogik jarayonning mohiyati, xususiyatlari va qonuniyatlarini va uning tarkibiy qismlari bo’lmish ta’lim, tarbiya,

ruhiy tayyorgarlik, rivojlanish, mustaqil tarbiya, mustaqil ta'lim olish jarayonlarini o'rganish;

- jamiyatda va Qurolli Kuchlarda ro'y berayotgan o'zgarishlar asosida, shuningdek, jangovar texnika va qurol-yarog'ning takomillashuvi, jangni olib borish usullari, shaxsiy tarkibdagi miqdor va sifat o'zgarishlari, jangovar tayyorgarlikni kuchaytirish vazifalaridan kelib chiqib ta'lim va tarbiya prinsiplarini aniqlash, shakllari va metodlarini rivojlantirib, takomillashtirib borish;

- turli toifadagi harbiy xizmatchilar bilan turli sharoitlarda ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ta'lim va tarbiya prinsiplari talablarini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharoitlarini aniqlash va asoslash;

- qo'shin turlarining, turli ixtisoslikdagi harbiy mutaxassislarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ta'lim va tarbiya metodlari tizimini ishlab chiqish va takomillashtirib borish;

- ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish shakllarini takomillashtirish va rivojlantirish, askarlar va harbiy jamoalar ta'limi va tarbiyasi darajasini aniqlash, tekshirish va baholashning samarali yo'llarini tadqiq qilish;

- harbiy-pedagogik jarayonning rivojini bashorat qilish, rejalashtirish;

- didaktik tadqiqotlarning markaziy muammosi sifatida askarlar bilish faoliyatini faollashtirish, alohida olingan askarlar va harbiy jamoalarning yuksak harbiy-professional tayyorgarlik darajasiga ega bo'lish vaqtini qisqartirish yo'llarini, usullarini va vositalarini izlash va ularni qo'llash;

- harbiy jamoalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ta'lim-tarbiya jarayonida ularni hisobga olish;

- jangovar tayyorgarlik va harbiy intizomni, askarlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma'naviy-axloqiy kamolotga erishish yo'llarini o'rganish;

- harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalar o'rtasida musobaqa tashkil etishning pedagogik shartlarini aniqlash;

- jamoani jipslashtirish, unda nizom talablariga xos o'zaro munosabatlarni, sog'lom ruhiy muhit va ijtimoiy fikrni shakllantirish metodlarini o'rganish va boshqalar.

Shuningdek, ofitserlar, shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchilarning rahbarlik, o'qituvchilik va ustozlik faoliyatidan kelib

chiqib, harbiy pedagogika uchun quyidagi vazifalar ham muhim o‘rin egallaydi:

- harbiy-pedagogik jarayonda ularning o‘rnini aniqlash;
- ularda pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratni shakllantirish yo‘llarini, mazmuni va uslublarini ko‘rsatish;
- hurmat qozonish yo‘llari va mohiyatini ochib berish;
- ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish, harbiy-pedagogik tadqiqotlar olib borish uslublarini ishlab chiqish.

12.2. Harbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Pedagogika insonlar orasidagi munosabatlarni va ijtimoiy muhitning insonga ta‘sirini tadqiq etuvchi fan sifatida iqtisodiyot, madaniyat rivojlanishining o‘ziga xosligi hamda ularning inson shaxsi shakllanishiga ta‘sirini o‘rganadi. Shu bilan birga, pedagogika o‘quv muassasasi tizimining tashkiliy jihatlaridagi ko‘pgina masalalarni hal etishga, shaxslarni tarbiyalashda o‘quv muassasasi, oila va jamoatchilikning o‘zaro hamkorlikda ish olib borishiga yordam beradi.

“Pedagogika” fani tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganar ekan, tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bog‘liqdir. “Falsafa” fan sifatida insoniyat jamiyati, tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tashkil etadigan, ya‘ni pedagogikaning taraqqiy etib borishiga imkon beradigan ilmiy manbaidir. Shu bilan birga, faylasuflar va pedagogika fanlari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bir qator umumiy masalalar falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir.

Bular jumlasiga tarbiya bilan boshqa ijtimoiy hodisalar orasidagi o‘zaro aloqalar; dunyoqarashni, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta‘lim jarayoni mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan gneseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi.

Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sotsiologiya, etika, estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

Etika falsafaning axloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bog‘liqdir. Ularni hal etishda pedagogika axloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

Estetika (nafosat tarbiyasi) – insonning estetik ideallarini

shakllantirish, madaniyatga va voqelikka estetik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini o'rganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni go'zallikni his qila olish, tushunishga o'rganish vositalari va yo'llarini belgilab beradi.

Pedagogikaning falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligini, hal etadigan ilmiy masalalarning umumiylikini pedagogikaning ijtimoiy xususiyati, uning mafkuraviy yo'nalishga ega ekanligini ta'kidlab turadi. Tarbiyaning hamma muammolarini boshqa siyosiy, ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda, hal etish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo'lgan obyektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o'rganadi.

Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini o'rganadigan boshqa fanlardan farqli o'laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug'ullanadi.

Pedagogika psixologiya va fiziologiya bilan ham bevosita va bilvosita bog'liqdir. Fiziologiya pedagogika hamda psixologiyaning tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika fiziologiyaning oliy asab (nerv) faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o'ziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek, sezgi organlarining, tayanch-harakat apparatlarining, yurak, qon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga suyanadi.


Psixologik hodisalarning fiziologik asoslarini bilish pedagogika uchun tarbiya va ta'limning ba'zi bir omillarini yaqqol, aniq bilib olish, tushunish imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning ko'pgina muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Psixologiya pedagogikaning boshqa fanlar tomonidan aniqlangan bilimlar, o'sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ichki jarayonlarini yuz berish omillari va shart-sharoitlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Keyingi vaqtlarda pedagogika boshqa yangi rivojlanayotgan fanlar bilan, jumladan, murakkab dinamik tizimlarni rejali boshqarish

haqidagi fan bo'lgan kibernetika bilan mustahkam aloqada rivojlanmoqda. Bularning barchasi pedagogika o'zining predmeti va tadqiqot sohasiga ega bo'lib, boshqa bir qator fanlar bilan juda mustahkam bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi ko'rinishi.



12.3. Harbiy pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari

Pedagogika fani o'z mazmunini boyitishda, yangilashda mavjud bo'lgan pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari qanchalik to'g'ri qo'llansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Lekin ilmiy tadqiqot metodlarining aniq chegaralangan tizimi hozirgacha fanda yaratilgan emas. Pedagog, pedagogik jarayonda o'z auditoriyasi tarbiyalanuvchilari xarakter-xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning psixologiyasini chuqur o'rganishda bir qator metodlarni qo'llashi mumkin. Chunki pedagogning asosiy maqsadi dars jarayonini tarbiyaviy ta'sirini oshirish hisoblanadi. Buning uchun quyidagi pedagogik ilmiy tekshirish metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Adabiyotlarni o'rganish metodi.
2. Pedagogik kuzatish metodi.

3. Suhbat metodi (yakka tartibda, guruh bilan).
4. Pedagogik soʻrash metodi.
5. Test sinovlari metodi.
6. Taʼlim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
7. Eksperiment-tajriba-sinov metodi.
8. Statistika maʼlumotlarini tahlil qilish metodi.
9. Matematika va kibernetika metodi.
10. Modellashtirish metodi.

Taʼlim metodlarini tanlash bilan bir qatorda, oʻqituvchi darsdagi oʻquvchilarni yosh va individual xarakter xususiyatlarini oʻrganishi hamda tahlil qilishi shart.

Adabiyotlarni oʻrganish metodi – tadqiqot mavzusi boʻyicha pedagogika psixologiya, madaniyat, iqtisod, siyosatga doir adabiyotlar va dissertatsiyalarni oʻrganishda qoʻllaniladi.

Pedagogik kuzatish – odatda, tabiiy kuzatish orqali oʻquvchilarning fanlarni oʻzlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi oʻzgarishlarni hisobga olish va tegishli taʼlimiy-tarbiyaviy taʼsir koʻrsatish yoʻllarini belgilash uchun qoʻllaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni koʻzda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

Suhbat metodi – soʻrashning bir turi boʻlgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik koʻrishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada boʻlish vaqtida ogʻzaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala shaklida qoʻllaniladi.

Suhbat metodi – taʼlim muassasasi oʻqituvchilari va oʻquvchilar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qoʻllaniladi. Suhbat metodidan farq qilib intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yoʻli bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy soʻrash nazariyasi va praktikasi intervyu tashkil etishning koʻp metodlari mavjud:

- guruhlar bilan;
- intensiv;

- sinash va h.k.

Pedagogik so‘rash metodi – tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So‘rash savollarning mantiqiy o‘ylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5 ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat’iy shakldagi javobni («ha», «yo‘q») ham taqozo etishi mumkin.

Test sinovlar metodi – bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig‘ib olish metodidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada, tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to‘ldirilgan anketalar soniga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, test savollarining ma‘lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

Ta‘lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi – bunda o‘quvchilarning umumiy miqdori, uning o‘sishi yoki kamayish sabablari tavsifi, o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish darajasiga yoki kursidan qolishning oldini olish, rag‘batlantirish va jazolash choralari turlariga, ta‘lim muassasasining moddiy bazasiga e‘tibor beriladi.


Eksperiment-tajriba-sinov metodi – ushbu tajriba, asosan, ta‘lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqui jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Statistika ma‘lumotlarini tahlil qilish metodi - ta‘lim sohasiga, jumladan, ajratilgan mablag‘larning doimiy o‘sib borishi, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rgazmali qurollar, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, o‘quv binosi qurilishi, xo‘jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag‘lar statistika metodi orqali aniqlanadi.

Matematika va kibernetika metodlari - o‘qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta‘lim va uni mashina orqali boshqarish, o‘qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish differensial va individual ta‘lim berish, ta‘lim-muassasasi hisobotini mashinalar yordamida tuzish kabi jarayonlardir.

Bu kabi metodlardan foydalanib ta‘lim va tarbiya ishlarini olib borish faqatgina pedagog uchun emas, iqtisodiyot jabhalarida faoliyat

yuritayotgan boshqaruvchi xodimlar, oilada farzand tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ota-onalar uchun ham, jamoa bilan ishlaydigan mas'uliyatli shaxs uchun ham zaruriy shart bo'lgan metodlardan biridir. Zero, inson tarbiyasidek murakkab jarayonga hech qachon e'tiborsiz bo'lmaslik zarur.



Har qanday fan fan sifatida o'zining ilmiy tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlar orqali u o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi.

Harbiy pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Shu ma'noda, harbiy pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari harbiy xizmatchilarga ta'lim va tarbiya berishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, metodlari, vositalari majmui tushuniladi.

Harbiy-pedagogik jarayonning xususiyatlari yana quyidagilar bilan ifodalanadi:

Harbiy mehnat, harbiy mahoratni sabot bilan egallash, Vatanni himoya qilish har bir harbiy xizmatchining xizmat burchidir. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunda, Vatanga qasamyodda va umumharbiy nizomlarda qonuniy asosda belgilab qo'yilgandir.

Vatanga qasamyod va nizomlar talablariga ko'ra, askar o'z mehnati sifati uchun qonuniy asosda javobgardir. Harbiy mutaxassislikni egallashga, o'z xizmat vazifalarini bajarishga nisbatan

mas'uliyatsiz munosabat Vatan oldidagi o'z burchini bajarishdan bo'yin tovlash sifatida baholanishi mumkin.

Harbiy-pedagogik jarayonning muhim xususiyatlaridan yana biri shundan iboratki, askarlar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar, nazariy bilim, tushunchalar va qoidalar tizimi ularning kundalik xizmat faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, harbiy-pedagogik jarayon askarlarning xizmat faoliyati bilan chambarchas bog'liq ravishda amalga oshiriladi va yaqqol ko'rinib turuvchi amaliy mazmunga ega bo'ladi. Askar mashg'ulotlar jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini jangovar navbatchilikni o'tash, turli xizmat vazifalarini bajarish vaqtida qo'llaydi. Bu, albatta, bir tomondan bilim, ko'nikma va malakalarning puxta bo'lishini talab qilsa, boshqa tomondan ularning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Harbiy-pedagogik jarayonning xizmat faoliyati bilan bog'liqligi uning qism va bo'linmalar jangovar tayyorgarligiga putur yetkazmagan holda oqilona tashkil etishni taqozo etadi. Demak, harbiy-pedagogik jarayon qo'shinlarning doimiy jangovar tayyorgarligi sharoitida amalga oshiriladi va uni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Harbiy-pedagogik jarayonning yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, ta'lim-tarbiya jarayoni askardan tobora ko'proq aqliy, jismoniy va ruhiy zo'riqishni talab qilmoqda. Bu zamonaviy harbiy texnika va qurol-yarog'larning murakkablashib borishi, xizmat muddatining qisqarishi, jahondagi harbiy-siyosiy vaziyatning keskinlashib borayotganligi bilan ifodalanadi.

Harbiy-pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyati bo'linmada xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning turli bilim va umumta'lim tayyorgarlik darajasiga ega ekanligi bilan ham ifodalanadi. Chunki bir bo'linmada oliy, o'rta-maxsus, o'rta va hatto tugallanmagan o'rta ma'lumotli askarlar xizmat qilishi va ta'lim olishi mumkin. Askarlarning umumta'lim darajasidagi bunday tafovut ta'lim jarayonini tashkil etishda ko'proq yakka tartibda yondashishni, alohida ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Tayanch so'z va tushunchalar: ta'lim jarayoni, ilmiy tadqiqot, metod, eksperiment, tafovut, harbiy-pedagogik jarayon.

Nazorat uchun savollar:

1. Harbiy pedagogik jarayonning xususiyatlarini tushuntirib bering.
2. Vatanga qasamyod mohiyatini tushuntirib bering.
3. Harbiy ta'lim deganda nimani tushunasiz?

7-MODUL:HARBIY DIDAKTIKA

13-mavzu: Harbiy didaktika. Harbiy xizmatchilar ta'limi

Reja:

1.Ta'lim jarayonining mohiyati, mazmuni va umumiy tavsifi. Ta'lim jarayonining asosiy prinsiplari.

2.Ta'limning tashkiliy shakllari haqida tushuncha. Ta'lim metodlari va ularning tavsiflari.

13.1.Ta'lim jarayonining mohiyati, mazmuni va umumiy tavsifi. Ta'lim jarayonining asosiy prinsiplari

Didaktika – pedagogikaning mustaqil tarmog‘i. Ta'lim-tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

Didaktika pedagogikada ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi qismdir.

Didaktika grekcha so‘z bo‘lib, “didasko” – o‘qitish, “didaskol” – o‘rgatuvchi degan so‘zlardan kelib chiqqan.

“Didaktika”ning so‘zma-so‘z tarjimasini ta'lim nazariyasini anglatadi.

Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan. Didaktika nomi ostida nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fanni tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Y.A.Komenskiy (1592 - 1670) tomonidan ishlab chiqilgan. U 1657-yilda u chex tilida “Buyuk didaktika” asarini yozdi. Didaktika nomi ostida Komenskiy “Hammani hamma narsaga o‘rgatish san’ati”, deb tushundi. Didaktikaning mohiyatini ishlab chiqishda G.Pestalossi, I.Gerbart, K.D.Ushinskiy, V.Ostrogorskiy, P.Kapterev kabi mashhur olimlar katta hissa qo‘shishdi. Bu yo‘nalishda didaktlar Yu.K.Babanskiy, N.Gruzdev, M.Danilov, B.Esipov, L.Zankov, M.Skatkin kabilar ham ancha ishlarni amalga oshirishdi.

Didaktika pedagogikaning “Nima uchun o‘qitish kerak?”, “Nimani o‘qitish kerak?”, “Qanday o‘qitish kerak?”, “Qanday hajmda o‘qitish kerak?”, “Kimlarni o‘qitish kerak?”, “Qayerda o‘qitish kerak?”, “Nimadan foydalanib o‘qitish kerak?” kabi savollariga javob izlaydi.

Umumiy didaktika, o'z navbatida, ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog'langan bo'lib, ularga oid ma'lumotlariga tayanib o'qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Didaktika o'z oldiga o'qitishning o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarni bilib olish vazifasini qo'yadi.

Didaktikada ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa hamda o'zaro bog'liqlikda joylashadi. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Xususiy didaktika – muayyan o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari, usullari, vositalari, shakllari va yo'llarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogika fanlari turkumining asosiy sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi. U umumiy didaktika yutuqlari asosida rivojlanadi va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina takomillashib boradi. Muayyan bir fanga tadbiiq etilgan didaktik qonuniyatlar, o'sha predmetning umumiy jihatlarini qonunlashtiradi va ularda o'qitishning universal jihatlarini namoyon bo'ladi.

Harbiy didaktika va uning qo'shinlarni tayyorlashdagi o'rni

Harbiy didaktika askarlarga ta'lim berish jarayonining pedagogik mohiyatini "Harbiy pedagogika"ning muhim tarkibiy qismi bo'lgan "Harbiy didaktika" o'rganadi. Askarlar ta'limi jarayonining qonuniyatlarini tadqiq etar ekan, didaktika uning prinsiplari, shakl va

metodlari, moddiy-texnikaviy vositalari va shu kabilarni belgilaydi. Sanab o'tilgan vazifalarni hal etish davomida harbiy didaktika askarlar ta'limi jarayonining metodik tizimida o'z aksini topuvchi nazariy modelini tuzadi. Shaxsiy tarkib ta'limining aniq (xususiy) metodikasi sifatida harbiy didaktika unga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Harbiy faoliyat o'zining maqsadi va tabiatiga ko'ra harbiy xizmatchilardan uzluksiz, aniq tizim asosidagi tayyorgarlikni talab qiladi. Shuning uchun ham o'z harbiy mutaxassisligini chuqur egallash, o'zining bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini, mahoratini tinmay takomillashtirib borish har bir harbiy xizmatchining muqaddas burchi sanaladi.

Askarlar ta'limi jarayonining mohiyatini, mazmunini, metodikasini va uni tashkil etish yo'llarini "Harbiy pedagogika"ning tarkibiy qismi bo'lgan "Harbiy didaktika" (yunon tilida "didasko" - o'qitaman) o'rganadi. Askarlarga ta'lim berish jarayonini tadqiq qilar ekan, Harbiy didaktika ta'lim qonuniyatlari va prinsiplarini o'rganadi, turli shakl va metodlarni, usul va vositalarni samarali qo'llash shartlarini asoslab beradi. Shu bilan birga, u askarlar ta'limi mazmunini, uni tashkil etishni va metodikasini bashorat qiladi va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Askarlar ta'limining Harbiy didaktikada yoritiladigan umumiy qonuniyatlari turli o'quv fanlarini o'rganish jarayonida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bu o'ziga xoslikni xususiy metodikalar o'rganadi. Masalan: ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik, taktika, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik metodikasi va boshqalar. Askarlar ta'limining umumiy nazariyasi sifatida Harbiy didaktika metodikalar o'rtasidagi aloqadorlikni va turli pedagogik vazifalarni hal qilishda yagona yondashuvni ta'minlaydi. Harbiy didaktika xususiy metodikalarga tayanadi, ular to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyib boradi va shu bilan birga, ta'lim jarayonining mohiyatiga chuqur kirib boradi.

Harbiy didaktika askarlar ta'limini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o'rganadi va bu jarayonning quyidagi asosiy funksiyalarini belgilaydi: ta'limiy (askarlarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish); tarbiyaviy (askarlarda o'z Vatanining qurolli himoyachisi uchun zarur shaxsiy xislatlarni tarbiyalash).

Ta'lim jarayonida ofitserning harbiy pedagog sifatidagi o'rni

Harbiy-pedagogik jarayonning mazmuni, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga ham bog'liqdir. Mamlakat iqtisodi qanchalik taraqqiy etgan bo'lsa, Qurolli Kuchlar moddiy-texnik asosi ham shunchalik rivojlanadi, zamonaviy qurol-yarog', texnika bilan ta'minlanganlik darajasi ortadi. Harbiy-texnik omil ta'siri ostida ta'lim va tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari o'zgarib, takomillashib boradi.

Harbiy-pedagogik jarayon o'zining ma'lum tizimiga ega. Odatda, u ikki bosqichga, ya'ni askarlarning yakka tayyorgarligi va bo'linmalar tayyorgarligiga bo'linadi va bu ikki bosqich o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi. Harbiy-pedagogik jarayonning xususiyatlaridan yana biri shuki, u rejadagi mashg'ulotlardan tashqari, qo'shin xizmati, komandirlar (boshliqlar) tomonidan shaxsiy tarkib bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarni ham o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, harbiy-pedagogik jarayon – o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan murakkab, ko'p qirrali, rivojlanuvchan jarayon bo'lib, u askarlarni va bo'linmalarni Vatanni qurolli himoya qilish, hozirgi zamon urushi sharoitida jangovar harakatlarni muvaffaqiyatli olib borishga tayyorlash bilan bog'liq aniq vazifalarni hal qilishga qaratilgandir.

Harbiy-pedagogik jarayonning xususiyatlari yana quyidagilar bilan ifodalanadi:

Harbiy mehnat, harbiy mahoratni sabot bilan egallash, Vatanni himoya qilish har bir harbiy xizmatchining xizmat burchidir. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunda, Vatanga qasamyodda va umumharbiy nizomlarda qonuniy asosda belgilab qo'yilgandir.

Vatanga qasamyod va nizomlar talablariga ko'ra, askar o'z mehnati sifati uchun qonuniy asosda javobgardir. Harbiy mutaxassislikni egallashga, o'z xizmat vazifalarini bajarishga nisbatan mas'uliyasiz munosabat Vatan oldidagi o'z burchini bajarishdan bo'yin tovlash sifatida baholanishi mumkin.

Harbiy-pedagogik jarayonning muhim xususiyatlaridan yana biri shundan iboratki, askarlar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar, nazariy bilim, tushunchalar va qoidalar tizimi ularning kundalik xizmat faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda,

harbiy-pedagogik jarayon askarlarning xizmat faoliyati bilan chambarchas bog'liq ravishda amalga oshiriladi va yaqqol ko'rinib turuvchi amaliy mazmunga ega bo'ladi. Askar mashg'ulotlar jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini jangovar navbatchilikni o'tash, turli xizmat vazifalarini bajarish vaqtida qo'llaydi. Bu, albatta, bir tomondan bilim, ko'nikma va malakalarning puxta bo'lishini talab qilsa, boshqa tomondan ularning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Harbiy-pedagogik jarayonning xizmat faoliyati bilan bog'liqligi, uning qism va bo'linmalar jangovar tayyorgarligiga putur yetkazmagan holda oqilona tashkil etishni taqozo etadi. Demak, harbiy-pedagogik jarayon qo'shinlarning doimiy jangovar tayyorgarligi sharoitida amalga oshiriladi va uni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Harbiy-pedagogik jarayonning yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, ta'lim-tarbiya jarayoni askardan tobora ko'proq aqliy, jismoniy va ruhiy zo'riqishni talab qilmoqda. Bu zamonaviy harbiy texnika va qurol-yarog'larning murakkablashib borishi, xizmat muddatining qisqarishi, jahondagi harbiy-siyosiy vaziyatning keskinlashib borayotganligi bilan ifodalanadi.

Harbiy-pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyati bo'linmada xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning turli bilim va umumta'lim tayyorgarlik darajasiga ega ekanligi bilan ham ifodalanadi. Chunki bir bo'linmada oliy, o'rta-maxsus, o'rta va hatto tugallanmagan o'rta ma'lumotli askarlar xizmat qilishi va ta'lim olishi mumkin. Askarlarning umumta'lim darajasidagi bunday tafovut ta'lim jarayonini tashkil etishda ko'proq yakka tartibda yondashishni, alohida ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Ta'lim prinsiplari yoki ***didaktik prinsiplar*** deb harbiy-pedagogik jarayonning asosiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi pedagogik qoidalar tushuniladi va ular ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish bo'yicha ta'lim beruvchining faoliyatini belgilaydi. Bu prinsiplarda ta'lim jarayoni qonuniyatlarining, uning mantig'i va qarama-qarshiliklarining talablari aks etadi.

Har bir prinsip ta'lim jarayonining alohida tomonlarini, ularning aniq talablarini yoritib beruvchi qoidalarini o'z ichiga oladi va ularning qo'llanilishi ta'lim beruvchining ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan umumiy munosabatini belgilaydi.

Ta'lim prinsiplari quyidagilardan iborat:

Ta'limning ilmiyligi prinsipi.

Bo'linmadagi ta'lim-tarbiya jarayoni Qurolli Kuchlarni doimo jangovar shay holatda saqlashga va uning jangovar qudratini yanada oshirishga qaratilishi lozim. Xuddi ana shu maqsadlarda ta'lim beruvchilar o'z bo'ysunuvchilarini qurollantiradigan bilimlar haqqoniy bo'lishi, fan va texnikaning so'nggi yutuqlariga muvofiq kelishi, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik esa ilmiy asosda, "Harbiy psixologiya va pedagogika" fanining, harbiy ta'lim jarayonida o'rganilayotgan fanlarni o'qitish metodikalarining talablari va ko'rsatmalari asosida tashkil etishi lozim.

Fan va texnika doimo taraqqiy etib boradi. Yangi qurol-yarog' va jangovar texnikalar yaratilmoqda, jang harakatlarini olib borish taktikasi, shakllari va metodlari takomillashib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, ta'limning yangi usul va vositalarini qo'llashni talab qilmoqda. Shuning uchun ham ta'lim jarayoniga fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlarini joriy qilish asosida bo'linmalarning jangovar salohiyatini doimo oshirib borish va doimiy jangovar shayligini ta'minlash – ta'limning ilmiyligi prinsipining asosiy talabidir.

Aytilganlardan kelib chiqib, ta'limning ilmiyligi prinsipiga qo'yiladigan asosiy talablarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- bilimlar, faktlarning haqqoniyligi;
- ta'lim oluvchilar egallaydigan bilimlarning hozirgi zamon fani, texnikasi, pedagogikasi, psixologiyasi yutuqlari bilan mosligi;
- ta'lim shakllari va metodlarining zamonaviy fan yutuqlariga muvofiqligi.

Qo'shinlarni jangda zarur harakatlarga o'rgatish prinsipi.

Qo'shinlarni jangda zarur harakatlarga o'rgatish prinsipi askarlarning ta'limi jarayonini mamlakatimiz Mudofaa doktrinasi va harbiy fan ko'rsatmalari asosida, harbiy nizomlar talablari asosida tashkil etishni ko'zda tutadi.

Hozirgi zamon urushining xususiyatlaridan, turli mintaqalardagi, xususan, mamlakatimiz hududiga qurolli tajovuz qilishga uringan terroristik guruhlar bilan bo'lgan jangovar harakatlar tajribasidan kelib chiqib qo'shinlarning tayyorgarligini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'shinlarni jangda zarur harakatlarga o'rgatish prinsipining asosiy talablari quyidagilardan iborat:

- harbiy xizmatchilarning hozirgi zamon urushi xususiyatlarini bilishi;
- shaxsiy tarkibning yuqori darajadagi texnik, taktik, ijtimoiy-siyosiy va ruhiy tayyorgarligiga erishishini ta'minlash;
- jangovar tayyorgarlikni kuchaytirish;
- o'qish sharoitini jangovar sharoitga yaqinlashtirish;
- askarlarni tez, shiddatli harakat qilishga, nishonni birinchi otishdayoq mo'ljalga olishga, birinchi hujumdayoq g'alaba qozonishga o'rgatish;
- askarlarni jismoniy, ruhiy va g'oyaviy chiniqtirish va hokazo.

Ta'lim oluvchilarning ongliligi va faolligi prinsipi.

Ta'lim oluvchilarning ongliligi va faolligi ularning o'z harbiy burchini chuqur anglab yetishlari va shu asosda kasbiy mutaxassisligini puxta egallashlariga asoslanadi. Bunda shaxsiy tarkibning bilim olishga intilishini, bilish faolligini rivojlantirish, amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishini oshirish muhim ahamiyatga egadir.

Mashg'ulotlar jarayonida shaxsiy tarkib faolligini oshirishga quyidagi didaktik omillar sabab bo'ladi:

1. Ta'lim jarayonida yuqori natijalarni egallash uchun ijodiy kurash muhitini yaratishning muhim sharti sifatida harbiy mehnatni ilmiy asosda tashkil etish.
2. Askarlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, aqliy va amaliy faoliyatining samarali usullarini egallashga ko'maklashish.
3. Berilayotgan o'quv materialini mazmunida doimo askar uchun yangilikning mavjud bo'lishi.

Ta'lim oluvchilarning ongliligi va faolligi prinsipi o'qituvchilardan askarlar o'rganayotgan o'quv materialining maqsadi va vazifalarini, ularning amaliy ahamiyatini chuqur tushunib yetishlari va ongli ravishda egallashlari haqida doimo qayg'urib borishlarini talab qiladi. Bunda askarlarga turli hodisa, jarayonlarning mohiyatini tushuntiribgina qolmasdan, balki ular o'rtasidagi bog'liqlik va aloqadorlikni va ularning amaliy faoliyatda namoyon bo'lishini ham tushuntirish muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim oluvchilarning ongliligi va faolligi prinsipi quyidagi asosiy qoidalariga amal qilinishini taqozo etadi:

- mashg'ulotlar davomida hal qilinayotgan vazifalarning mohiyatini tushuntirish, o'rganilayotgan o'quv materialining va uning amaliy ahamiyatining ta'lim oluvchilar tomonidan tushunilishiga erishish;

- askarlar tomonidan o'rganilayotgan o'quv materialining chuqur o'rganilishiga, idrok qilinishiga erishish;

- mashg'ulotlarda va jangovar sharoitga yaqin mashqlarda ta'lim oluvchilar tomonidan vazifalarning mustaqil hal etilishiga erishish;

- tashabbus ko'rsatish, vazifaga ijodiy yondashish uchun sharoit yaratish;

- askarlarni o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'ziga baho berishga o'rgatish;

- mashg'ulot va mashqlar davomida ta'lim oluvchilarni musataqil ravishda yechimini topishga o'rgatish maqsadida ularning oldida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish.

Ta'limda ko'rgazmalilik prinsipi.

Ta'limda ko'rgazmalilik prinsipi insonning atrof muhitni, hodisa va jarayonlarni sezgi organlari orqali idrok qilishiga asoslanadi va ta'lim jarayonida o'qituvchining so'zlari bilan jonli qabul qilishi o'rtasidagi aloqadorlikni ko'zda tutadi.

Shaxsiy tarkibga ta'lim berish jarayonida ko'rgazmalilik keng qo'llaniladi va turli sharoitlarda turlicha rol o'ynaydi. Masalan, yangi o'quv materialini o'rganish vaqtida ko'rgazmalilik vositalari sezgi va idrok manbai sifatida xizmat qiladi; materialni takrorlash vaqtida ilgari o'rganilganlarning xotirada namoyon bo'lishiga, bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga yordam beradi. Amaliy mashg'ulotlar davomida esa ko'rgazmalilik vositalari zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Har qaysi holda ham ular bilimlarni egallash jarayonini yengillatadi, ta'limga nisbatan qiziqishni oshiradi.

Harbiy ta'lim jarayonida ko'rgazmalilikning quyidagi turlaridan keng foydalaniladi:

a) tabiiy ko'rgazmalilik:

- haqiqiy jangovar va o'quv qurollari (shu jumladan, ularning ayrim qismlarining kesmalari);

- harbiy texnika (masalan, avtomobil, tank, BTR, BMP, ularning dvigateli, ba'zi bir mexanizm va qismlarining qirqmalari va boshqalar);

- o'quv maydonlari, tankodrom, poligon, u yerdagi turli jihozlar va boshqalar;

- turli moslamalar (masalan, texnika vositalarini ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun zarur stanok, uskunalari) va boshqalar;

b) *tasviriy ko'rgazmalilik:*

- hajmli ko'rgazmali qurollar: texnika obyektlarining modellari, maketlari, stendlar, sxemalar va boshqalar;

- ekranli vositalar: kino, videofilmlar, diapozitivlar, slaydlar, kompyuter yordamida tushiriladigan tasvirlar;

- grafik (chizma) ko'rgazmali qurollar: plakatlar, sxemalar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar, kompyuter grafikasi va boshqalar;

v) *ovozli ko'rgazma vositalari:*

- magnitofon yozuvlari, radiopriyomniklardan foydalanish;

- ovoz immitatorlari va boshqalar;

g) *amalda ko'rsatish:*

- ta'lim beruvchi tomonidan ma'lum bir usul va harakatlarning shaxsan ko'rsatilishi;

- bo'linma, ekipaj, jangovar hisoblarning harakatini ko'rsatish va boshqalar.

Ta'limda tizimlilik, ketma-ketlik va izchillik prinsipi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bilim, ko'nikma va malakalar faqat ma'lum bir fan doirasida mukammal bo'lib qolmay, balki mutaxassislikdan kelib chiqqan holda barcha fanlar bilan yagona kompleks tashkil qilgan tarzda chuqur va izchil egallangan holdagina harbiy xizmatchi o'z kasbining mohir ustasi sifatida o'z xizmat vazifalarini bajara olishi mumkin.

Ta'limda tizimlilik, ketma-ketlik va izchillik prinsipi o'quv materialini aniq ketma-ketlik va mantiqiy tartib asosida, har bir o'quv fanini boshqa fanlar bilan bog'liq ravishda berishni, ta'lim oluvchilarning o'quv mehnati ustidan doimiy rahbarlik va g'amxo'rlik qilishni, butun ta'lim-tarbiya jarayonining aniq belgilangan tizim asosida olib borilishini ko'zda tutadi.

Bu prinsip talablariga muvofiq qo'shinlarning kasbiy, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligi dasturlari va rejaları ishlab chiqiladi.

Ta'limda tizimlilik, ketma-ketlik va izchillik prinsipi harbiy mutaxassislarni tayyorlash jarayonida berilayotgan yangi o'quv materialining ilgari egallaganlariga tayanishini, ulardan kelib chiqishi, shu bilan birga, ularni kengaytirishi va chuqurlashtirishini talab qiladi.

Buning uchun mashg'ulot rahbari nafaqat o'tayotgan mavzusining mazmunini, balki keyingilarini ham yaxshi bilishi zarur va shu asosda bo'lajak mashg'ulotlarni rejalashtirib borishi va yangi bilimlar uchun zamin yaratib borishi lozim.

Ta'limda tizimlilik, ketma-ketlik va izchillik prinsipi quyidagi asosiy talablarga rioya qilishni ko'zda tutadi:

- o'quv materialini aniq ketma-ketlik va mantiqiy tartib asosida berish;

- ta'lim oluvchilarning o'quv mehnati ustidan doimiy rahbarlik va g'amxo'rlik qilish;

- jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikni to'g'ri rejalashtirish;

- yangi o'quv materialining avvalgisiga tayanishi va hokazo.

Ta'limning tushunarligi prinsipi.

Ta'limning tushunarligi prinsipi ta'lim oluvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning ongli ravishda, mazmunini anglagan va ularning o'z xizmat faoliyatlari va hayoti davomida kerakligini tushungan holda egallanishini ko'zda tutadi.

Ta'limning tushunarligi prinsipini amalga tadbiiq etishda ta'lim beruvchi bir qator pedagogik qoidalarga rioya qilishi lozim. Bulardan asosiylari quyidagilar sanaladi:

- ta'lim oluvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning ongli ravishda egallanishiga va bunda ma'lum miqdorda aqliy va jismoniy zo'riqishga erishish;

- har bir askarning shaxsiy xususiyatlarini, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini, tayyorgarlik darajasini hisobga olish;

- ma'lumdan noma'lumga, yengildan og'irga, osondan qiyinga, oddiydan murakkabga qoidasiga amal qilish.

Bilim, ko'nikma va malakalarning puxtaligi prinsipi.

Hozirgi davrda fan va texnikaning taraqqiyot darajasi, zamonaviy urushning xususiyatlari shaxsiy tarkibning bilimi, ko'nikmasi va malakalari puxta va chuqur bo'lishini taqozo qiladi. Biroq bilim, ko'nikma va malakalarning puxtaligi didaktik jihatdan ham muhimdir. Askarning bilim, ko'nikma va malakalari qanchalik puxta, mustahkam bo'lsa, yangi o'quv materialini ham shunchalik ongli, chuqur va puxta egallaydi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi o'z bo'ysunuvchilarining o'quv dasturlarini o'z vaqtida va chuqur egallab borishlari haqida qayg'urishlari lozim.

Shaxsiy tarkibning bilim, ko'nikma va malakalarining puxtaligiga erishish uchun quyidagi asosiy shartlarning bajarilishi muhimdir:

- ta'lim oluvchilar tomonidan o'rganilayotgan o'quv materialining amaliy faoliyat uchun zarurligining tushunilishi;

- o'quv materialining uzoq vaqt esda saqlab qolinishini ta'minlash;

- avval o'rganilgan o'quv materialini doimiy takrorlab turish;

- o'rganilgan o'quv materialini amalda qo'llab turish;

- ta'lim oluvchilarning mustaqil mehnatini taqdirlash;

- tashabbus ko'rsatishlari uchun imkoniyat yaratish.

Ta'limda jamoa bo'lib va yakka tartibda yondashish prinsipi.

Harbiy faoliyat o'z xarakteriga ko'ra jamoaviy faoliyat hisoblanadi. Tinchlik davrida ham, urush sharoitida ham qo'yilgan vazifalarni bajarishda shaxsiy tarkib o'rtasida hamkorlik, hamjihatlik va o'zaro yordam talab qilinadi. Harbiy faoliyatning jamoa xarakteri, ayniqsa, ekipajlar, hisoblarning jangovar vazifalarni bajarishi davomida shaxsiy tarkibning, shu bilan birga, alohida olingan har bir askar harakatlarining aniqligi, o'zaro muvofiqligi, uyushganligida, har qanday sharoitda ham bir-biriga yordamga kelishga, zarur holda do'sti o'rniga uning vazifalarini bajarishga tayyorligida yaqqol namoyon bo'ladi.

Harbiy xizmatning jamoaviy xarakteri shaxsiy tarkibning fikri, irodasi, harakatlari va mas'uliyatining birligi bo'lib, tinchlik davrida va jang sharoitida harbiy jamoa oldiga qo'yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishining muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, u ta'lim jarayoni muvaffaqiyatining muhim omili sanaladi.

Shaxsiy tarkib o'rtasida jamoa kayfiyatini rivojlantirishning asosi sifatida mashg'ulotlar va mashqlarda, jangovar navbatchilik, ichki va qorovul xizmatlarini bajarish davomida jamoa harakatlarini tashkil qilish muhimdir. Jamoa o'quv mehnatiga rahbarlik qilish davomida mashg'ulot rahbaridan jamoa psixologiyasini va kayfiyatini, umumiy va yakka fikrlarni, ehtiyojlarini bilish, ta'lim oluvchilarning umumiy bilish va amaliy faoliyatini faollashtirishni talab qiladi.

Mashg'ulotlar jarayonida ta'limda jamoa bo'lib va yakka tartibda yondashish prinsipini amalga oshirishning asosiy pedagogik qoidalari quyidagilardan iborat:

- mashg'ulotlar davomida jamoa harakatlarini tashkil qilish;

- savollarga javob topish, vazifa, muammolarni jamoa bo'lib hal qilish uchun ijodiy mehnat sharoitini yaratish;

- har bir askarni boshqa askar va jamoa fikrini tinglash va tushunishga o'rgatish;

- jamoa a'zolarining hamjihatlikda ishlashi va shu bilan birga, har birining o'z imkoniyatlarini alohida namoyon qilishi uchun sharoit yaratish;

- ta'lim beruvchi tomonidan har bir askarning aqliy, ma'naviy va jismoniy imkoniyatlarini, ruhiy rivojlanish darajasini bilish.

Ta'lim prinsiplarining asosiy mazmuni ularning jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik davomida amalga oshirish yo'llari shulardan iborat. Ko'rib o'tilgan har bir prinsip ta'lim jarayonining ma'lum bir tomonini namoyon qiladi. Biroq ta'limning barcha bo'g'inlari o'zaro bog'liq yagona, yaxlit jarayon bo'lganligi tufayli, ta'lim prinsiplari o'zaro bog'liq bo'ladi, bir-birini to'ldirib boradi va hech qachon bir-birini inkor etmaydi. Shaxsiy tarkibni tinchlik davrida va jang sharoitida berilgan vazifalarni bajarishga tayyorlash ishini mavaffaqiyatli amalga oshirish uchun ofitser ta'lim prinsiplarining mazmunini va mohiyatini aniq tushunib yetishi va o'z faoliyatida ular talablariga amal qilib borishi lozim.

13.2. Ta'limning tashkiliy shakllari haqida tushuncha. Ta'lim metodlari va ularning tavsiflari

Ta'limning tashkiliy shakllari deganda, o'quv materialini yetkazishning tartibi va ketma-ketligi, o'rni va davomiyligi, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining xususiyati tushuniladi.

Ta'lim beruvchi shaxsiy tarkibga u egallayotgan mutaxassislikning xususiyati, har bir mashg'ulot mavzusining mazmuni va maqsadlaridan kelib chiqqan holda mashg'ulotlarni turli shakllarda rejalashtiradi va tashkil etadi. O'z maqsadiga ko'ra, yangi nazariy bilimlar berish, mavjud bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlantirish, tekshirish, baholash mashg'ulotlari bo'lib, ularning har biridan alohida yoki bir mashg'ulotning o'zida bir necha turidan foydalanish mumkin. Masalan, ma'ruza mashg'ulotida shaxsiy tarkibga faqat yangi o'quv materialini (yangi bilimlarni) berish bilan kifoyalanish yoki shu mashg'ulotning o'zida o'tgan mavzuni qisqacha takrorlash va yangi

materialni mustahkamlash mumkin. Mashg'ulot qaysi shaklda tashkil etilmasin, uning asosiy maqsadi yuqori malakali harbiy mutaxassis tayyorlash dasturi talablariga javob bergan holda shaxsiy tarkibga zarur bilimlarni berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish, keng dunyoqarashga ega bo'lgan yuksak ma'naviyatli insonni tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Ta'limning tashkiliy shakllari umumiy va maxsus shakllarga ajratiladi. Ta'limning umumiy shakllari barcha qo'shin turlari va mutaxassisliklar uchun umumiydir. Ta'limni tashkil etishning maxsus shakllari esa qo'shin turlari va mutaxassisliklarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, aviatsiyada yerdagi maxsus tayyorgarlik va parvozlar, harbiy-havo desantchilarining maxsus tayyorgarligi va boshqalar.

Mashg'ulotlarni tashkil etishning uzoq yillardan beri qo'llanib kelinayotgan an'anaviy shakl va metodlari bilan bir qatorda, hozirgi vaqtda ta'limning faol shakl va metodlaridan ham foydalanilmoqda. Quyida harbiy mutaxassislarni tayyorlashda mashg'ulotlarni tashkil etishning, keyingi mavzuda esa ta'lim metodlarining an'anaviy turlari bayon etiladi. Ta'limni tashkil etishning faol shakl va mavzulariga esa alohida mavzu bag'ishlanadi.

Hozirgi kunda shaxsiy tarkibga ta'lim berishning umumiy shakllari quyidagicha tasniflanadi:

I. O'quv-rejali tashkiliy shakllar.

1. Sinf mashg'ulotlari: ma'ruza, laboratoriya va maxsus jihozlangan o'quv xonalaridagi mashg'ulotlar, mustaqil tayyorgarlik, konsultatsiya, bo'sh o'zlashtiruvchi yoki mashg'ulot qoldirgan askarlar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar va boshqalar.

Sanab o'tilgan shakllardagi mashg'ulotlar tashkil etilishining o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi va ma'lum bir o'quv vazifalarini hal qilishgagina imkon beradi. Bu shakllar uchun umumiylik shundan iboratki, ular, avvalambor, shaxsiy tarkibning nazariy tayyorgarligini, askarlar tomonidan ijtimoiy-siyosiy bilimlarning, zamonaviy jangning nazariy asoslarining, qurol-yarog' va jangovar texnika ishlashining fizik asoslari va prinsiplarining egallanishini ta'minlaydi. Bulardan tashqari, sinf mashg'ulotlari ba'zi bir amaliy ko'nikmalarning shakllanishiga ham imkon beradi.

Sinf mashg'ulotlari, odatda, u yoki bu bo'linma shaxsiy tarkibi yoki ofitserlar, shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchilar guruhi bilan

o'tkaziladi. Harbiy qismlarda ba'zan vaqtinchalik o'quv guruhlari tashkil etilishi mumkin. Mashg'ulot jarayonida ta'lim oluvchilarning soni o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv savollarining mazmuni, askarlarning tayyorgarlik darajasi, o'quv xonalarining mavjudligi va jihozlanishi, belgilangan mavzu bo'yicha mashg'ulot o'tuvchi mutaxassislarning mavjudligi va boshqa omillardan kelib chiqib belgilanadi.

Konsultatsiyalar, odatda, yakka tartibda yoki guruh tarkibida o'tkaziladi. Konsultatsiya vaqtida o'qituvchi ta'lim oluvchilarda tug'ilgan savollarga javob beradi, umumlashtiruvchi ma'ruzalar o'qiydi, kerakli o'quv materiallarini izlash uchun manbalar bilan tanishtiradi, mustaqil tayyorlanish yo'llarini o'rgatadi.

Qo'shimcha mashg'ulotlar ham yakka tartibda yoki guruh tarkibida amalga oshirilishi mumkin. Bunda o'qituvchi mashg'ulot qoldirgan askarlarga o'tilgan mavzuning asosiy mazmunini bayon qiladi, ularning tushunganlik darajasini aniqlaydi, mustaqil tayyorlanish uchun adabiyotlar tavsiya etadi. Askar asosiy mashg'ulotda bo'la turib, o'quv materialini yomon o'zlashtirgan holda o'qituvchi askar mavzuni yoki mavzuning ma'lum bir qismini nima uchun tushunmaganligini aniqlashi, tushuntirib berishi va qanday o'zlashtirganini tekshirishi, mustaqil tayyorgarlik uchun tavsiyalar berishi lozim.

Mustaqil tayyorgarlik askarlarning asosiy mashg'ulotlar davomida egallagan bilimlarini mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumotlar olishda katta ahamiyatga ega. Bunda askarlar adabiyotlar bilan ishlashi, mustaqil ravishda elektron kutubxonalar yoki internet tarmog'idan kerakli ma'lumotlarni izlab topishi, qurol-yarog' va texnikani o'rganishi mumkin. Askarlarning mustaqil tayyorgarligi rejali asosda, ma'lum o'quv maqsadlarini ko'zda tutgan holda va albatta, o'qituvchi (komandir, instruktor) rahbarligi ostida o'tishi lozim.

2. Dala mashg'ulotlari: taktik mashg'ulotlar, saf mashg'ulotlari, parvozlar, o't ochish joylaridagi mashg'ulotlar; jangovar post, poligon, aerodrom, tankodrom, avtodrom, jangovar texnika parki va garajlar, muhandislik, kimyo, sport shaharchalaridagi mashg'ulotlar va boshqalar. Mashg'ulotlarni tashkil etishning bunday shakllari davomida egallangan nazariy bilimlar asosida amaliy ko'nikma va

malakalar shakllantiriladi, askar va bo‘linmalarning amaliy tayyorgarligi amalga oshiriladi.

Dala mashg‘ulotlari jarayonida askarlar qurol-yarog‘ va jangovar texnikadan foydalanish, har xil sharoitlarda va jangning turli ko‘rinishlarida taktik usullar va harakatlarni bajarish yo‘llarini egallaydilar.

Dala mashg‘ulotlari davomida ta’limni jangovar sharoitlarga yaqinlashtirish, shaxsiy tarkib harakatlarida kerakli darajada jismoniy va ruhiy zo‘riqishga erishishni ta’minlash imkoni yaratiladi.

Dala mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi o‘quv mashg‘ulotining mazmuni, maqsadiga bog‘liq bo‘ladi.

3. Mashqlar: jismoniy, saf tayyorgarligi, shtab mashqlari, radiomashqlar, boshqarish punktlaridagi mashqlar, ommaviy qirg‘in qurollaridan himoyalanih, “Xavf-xatar” (“Trevoga”) signali bo‘yicha mashqlar va boshqalar.

Mashqlar maxsus belgilangan reja asosida dalada, jangovar postlarda, poligonda, o‘q otish shaharchasida, boshqaruv punktlarida, maxsus jihozlangan sinflarda o‘tkaziladi. Ular maxsus yoki kompleks bo‘lishi mumkin. Mashqlar shaxsiy tarkibning umumiy va maxsus jangovar tayyorgarligini ta’minlash va takomillashtirish, bo‘linmalar, ekipajlar, shtablar va bo‘linmalar jangovar harakatini muvofiqlashtirish maqsadida o‘tkaziladi.

4. Jangovar otish va raketa uchirish: yakka otish, raschyot va ekipaj tarkibida otish, artilleriya, havo, kema otishlari, jangovar raketalarni uchirish va boshqalar.

Jangovar otish va raketa uchirish ta’limning o‘ziga xos shakllaridan hisoblanadi. Ular bilan, odatda, ta’limning ma’lum bir bosqichi yakunlanadi. Ularni o‘tkazishdan maqsad bir tomondan askarlarning tayyorgarlik darajasini tekshirish bo‘lsa, boshqa tomondan ularning hozirgi zamon jangi sharoitida o‘t ochish ko‘nikma va malakalarini yanada takomillashtirishdir. Shu bilan birga, bunday shakldagi mashg‘ulotlar paytida bo‘linmalarning jangovar harakatlarining muvofiqligini ta’minlash va shaxsiy tarkibning jangovar sharoitda harakat qilishi uchun ruhiy tayyorgarligini amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratiladi.

5. Qo‘shin mashqlari (ucheniya): taktik, taktik-maxsus, qo‘mondonlik va qo‘mondonlik-shtab mashqlari, jangovar otish bilan taktik mashqlar.

Har xil turdagi mashqlar komandirlar, shtablar va qo‘shinlar jangovar tayyorgarligining oliy shakli hisoblanadi. Ular bo‘linmalar, qismlar, birlashmalar jangovar harakatlarining o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash va ularning jangga amaliy va ruhiy tayyorlashdagi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mashqlar haqiqiy joyda, yilning, kun va tunning istalgan paytida o‘tkaziladi. Mashqlarda ishtirok etadigan shaxsiy tarkib esa haqiqiy qurol va jangovar texnika bilan harakat qiladi. Taktik mashqlar davomida ta‘limning asosini askarlarning jangovar sharoitga juda yaqin vaziyatlarda o‘z vazifalarini bajarish bilan bog‘liq amaliy masalalarni hal etish tashkil qiladi.

6. Harbiy o‘yinlar: qo‘mondonlik va qo‘mondonlik-shtab harbiy o‘yinlari (kompyuter dasturlari yordamida, xarita ustida o‘tkaziladi). Bundan maqsad, qo‘shinlarni boshqarishdagi muvofiqlikni ta‘minlash, general va ofitserlarning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, jangovar harakatlarni amalga oshirish bo‘yicha nazariy xulosalarini amalda tekshirishdan iboratdir.

Harbiy o‘yinlar davomida ta‘lim oluvchilar o‘zaro bog‘liq taktik vaziyatlar bo‘yicha qarorlar qabul qiladilar va o‘z qarorlarini bayon qiladilar, jangovar buyruqlar va ko‘rsatmalar beradilar, tezkor taktik hisoblarni bajaradilar, turli jangovar hujjatlarni ishlab chiqadilar. Bunda ta‘lim oluvchilarning faoliyati yuzaga kelgan vaziyat, qo‘yilgan jangovar vazifa, ajratilgan vaqt va o‘zlarining vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

II. Xizmat-rejali tashkiliy shakllar.

Park kunlari, park-xo‘jalik kunlari, texnikani mavsumiy foydalanishga tayyorlash, reglament ishlari (asosan raketa qo‘shinlarida).

Mashg‘ulotlarning yuqorida sanab o‘tilgan turlari jangovar texnika va qurollarni doimiy jangovar shay holda saqlash, shaxsiy tarkibning texnik tayyorgarligini amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir. Bunday mashg‘ulotlar davomida ta‘lim oluvchilar ta‘lim beruvchi rahbarligida qurol-yarog‘, jangovar texnikaga texnik xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash, sozlash ishlarini bajarish vaqtida egallangan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish bo‘yicha faol harakat qiladilar.

III. Rejadan, darsdan tashqari mashgʻulotlar.

Texnik toʻgaraklar, fan toʻgaraklari, ilgʻor tajriba maktabi, konkurslar, olimpiadalar, mavzuli kechalar, kitobxonlik kechalari, kinolektoriylar, davra suhbatlari, ekskursiyalar va boshqalar.

Bunday mashgʻulotlar shaxsiy tarkibning bilimi, koʻnikmasi va malakalarini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Taʼlimning faol shakl va metodlari haqida tushuncha

Oʻquv jarayonini jadallashtirish uni takomillashtirishning obyektiv qonuniyati sifatida tushuniladi. Hozirgi kunda u taʼlimning yanada takomillashgan faol shakl va metodlarini yaratish va ularni oʻquv jarayoniga kiritishda namoyon boʻlmoqda.

Taʼlim tashkiliy shaklining yoki metodining faolligi taʼlim oluvchilarning mashgʻulot davomida oʻqituvchi tomonidan boshqarib boriladigan aqliy faolligi va tafakkurining ijodiy xarakterda boʻlishidan iborat boʻladi. Uning qoʻshimcha belgilari sifatida quyidagilarni sanab oʻtish mumkin:

- mustaqil ravishda qaror ishlab chiqish va qabul qilish;
- taʼlim oluvchilar va taʼlim beruvchining toʻgʻridan-toʻgʻri va aks aloqalar yordamidagi oʻzaro hamkorligi;
- kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarni egallashga boʻlgan intilishlarining oshib borishi;
- taʼlim oluvchilarni nazorat qilish maqsadida ularning faoliyatiga aralashmasdan turib baholash va boshqalar.

Faol taʼlimning barcha shakl va metodlari mashgʻulot jarayonida oʻyindan foydalanish darajasiga koʻra oʻyinli va oʻyinsiz boʻlishi mumkin. Uning mezoni taʼlim oluvchilarning boʻlajak yoki hozirgi kasbiy faoliyati tasvirlangan oʻyin metodining qoʻllanilish darajdasidan iborat boʻladi.

Taʼlimning oʻyinli shakllariga taktik va qoʻmondonlik-shtab mashqlari, taktik-maxsus mashqlar, shtab mashqlari, turli koʻrinishdagi oʻquv vazifalari kiradi. Hozirgi vaqtda aniq vaziyatlarni tahlil qilish, rollarga boʻlinib oʻynash metodlari, trening, ishchan oʻyin kabi taʼlimning shakllari oʻquv jarayoniga keng kirib bormoqda.

Taʼlimning oʻyinsiz shakl va metodlari.

Faol maʼruzalar.

Taʼlimning mavjud anʼanaviy shakllari orasida maʼruza eng passiv shakl sanaladi. Chunki maʼruza vaqtida faqat taʼlim beruvchi –

ma'ruzachigina faol mehnat qiladi. Biroq ma'ruzani faollashtirish yo'lidagi urinishlar uning bir necha ko'rinishlarini keltirib chiqardi. Ularning nisbatan keng tarqalganlari va harbiy ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lganlari ustida to'xtalib o'tamiz.

Tasviriy (vizual) ma'ruzaning maqsadi ovozli va tasvirli yozuvlar (videoyozuvlar), shuningdek, kichik kinolavhalar namoyish qilish vositasida o'quv materialini tinglovchiga yetkazib berishni ko'zda tutadi. Bunda o'qituvchi ko'rsatilayotgan tasvirlarga izoh beruvchi sifatida qatnashadi.

Muammoli ma'ruza o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodini muammoli metod bilan almashtirish natijasida an'anaviy ma'ruzadan kelib chiqqan. Muammoli ma'ruza tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishga ko'ra an'anaviy ma'ruzaga qaraganda ancha murakkabdir. Unda o'qituvchi tomonidan muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish va ularni hal qilishda imkon qadar ko'proq tinglovchilarning ishtirok etishi talab qilinadi.

Muammoli vaziyat yechimi (hal qilinishi) yo'llari, usullari o'zlari uchun noma'lum bo'lgan vazifa (savol, masala, topshiriq) olgan tinglovchilarning ana shu muammoli vazifani yechish vaqtidagi ruhiy holati sifatida qaraladi. Muammoli vazifalar ijodiy tafakkur vositasidagina o'z yechimini topishi mumkin. Shuning uchun bunday vaziyat tinglovchilarning yuqori intellektual ijodiy faolligi va ijodiy tafakkur qobiliyatini talab qiladi va ularni rivojlantirishga yordam beradi.

Muammoli vaziyat mashg'ulot jarayonida ma'ruzachi va tinglovchilar faoliyatining bir necha bosqichini o'z ichiga oladi:

- muammoli savolni qo'yish;
- muammoni aniqlash;
- muammoni hal qilish bo'yicha faraz (taxmin)larni ishlab chiqish, ilgari surish va tahlil qilish;
- eng maqbul yechim variantini tanlash;
- tanlangan yechimni mavjud tajribaga tadbiq qilish orqali muammoni hal qilish.

Ma'ruza paytida o'qituvchi mashg'ulot mavzusi va maqsadlaridan kelib chiqqan holda ilgaridan tayyorlangan savol (vazifa, topshiriq)larni beradi va muammoli vaziyatning rivojini va uning tinglovchilar tomonidan hal qilinishini boshqarib boradi. Bunda

yuqorida sanab o‘tilgan bosqichlarning barchasi bosib o‘tilishi shart emas.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish - tinglovchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi mashqdir. O‘qituvchi tinglovchilarni nafaqat muammolarni hal qilish sari boshlab boradi, balki mazkur jarayonning mantig‘ini va metodikasini ko‘rsatadi. Bunda u tinglovchilarning muammoni hal qilish bo‘yicha faoliyatini kuzata borib, ijodiy izlanish usullarini namoyish qiladi.

Ma‘ruza – matbuot konferensiyasini oddiy ma‘ruza va amaliy mashg‘ulot oralig‘idagi bo‘g‘in sifatida qabul qilish mumkin. Uning mazmuni ma‘ruza mavzusi bilan oldindan xabardor bo‘lgan tinglovchilarning savollari asosida aniqlanadi, shakllanadi va yoritiladi. O‘quv material ta‘lim oluvchilarning buyurtmasi, ehtiyoji va talabiga ko‘ra o‘rganiladi.

Bunday mashg‘ulot mavzusi bir necha kun ilgari, yoxud mashg‘ulot boshlanishida o‘qituvchi tomonidan e‘lon qilinadi va har bir tinglovchi bittadan o‘zini qiziqtirgan savolni yozma ravishda berishi taklif qilinadi. So‘ngra ma‘ruzachi berilgan savollarni ma‘lum mantiqiy tizimga solgan holda o‘quv materialini yoritib beradi. Material bayon etilishi davomida savollar o‘qilmaydi, faqat ularning mazmuni ochiladi. Ma‘ruzaning bunday tartibda qurilishi har bir tinglovchining o‘z bergan savoliga javob kutishi oqibatida mashg‘ulot to‘liq mavzusini diqqat bilan tinglashga majbur qiladi.

Ikki kishilik ma‘ruza - ikki, uch va hatto to‘rt bir-birini yaxshi tushunadigan, ruhiy va aqliy jihatdan bir-biriga mos keladigan hamda mavzu materialini chuqur biladigan o‘qituvchilar tomonidan o‘qiladi. U dialog ko‘rinishida o‘tadi va bir o‘qituvchi mavzu bayoni davomida “kutilmagan” ma‘lumotlar berishi, boshqa o‘qituvchi (o‘qituvchilar) esa bu fikrni rivojlantirishi ko‘zda tutiladi. Bunday tabiiy ko‘rinishdagi jonli dialog tinglovchilarning e‘tiborini o‘ziga jalb qiladi va qiziqarli munozara ko‘rinishida o‘tadi. Bunday shakldagi ma‘ruzani o‘tkazish uchun ssenariy tuziladi, yoritilishi lozim bo‘lgan muammolar o‘qituvchilar o‘rtasida taqsimlanadi, har bir muammoning muhokamasi uchun vaqt belgilanadi, mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi ko‘rsatiladi.

Bunday ma‘ruzalar, odatda, o‘quv fanining axborot ko‘p berilishi lozim bo‘lgan, biroq bu to‘g‘rida adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalari yo‘q bo‘lgan bo‘limlari bo‘yicha o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

*Ma'ruza-provokatsiya (chalq'ituvchi ma'ruza)*lar tinglovchilarni sezgir bo'lishga undash orqali o'quv materialiga bo'lgan qiziqishini oshirishni ko'zda tutadi. O'qituvchi o'z ma'ruzasini boshlashidan oldin tinglovchilarga mavzuni bayon etish davomida ataylab bir necha xatoga yo'l qo'yishini va ularning sonini e'lon qiladi. Tinglovchilar bu xatolarni aniqlab, mashg'ulot so'ngida ajratiladigan vaqtda ularni ko'rsatishlari lozim bo'ladi. Shu tariqa o'qituvchi tinglovchilarning bilish faolligini uyg'otadi va muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. O'qituvchining o'zi esa diqqat-e'tibor va tanqid obyektiga aylanadi.

Insonning boshqa birovga yordam ko'rsatish maqsadida uning xatosini topishga bo'lgan tabiiy intilishi ma'ruzaning bu turining psixologik asosi hisoblanadi.

Ma'ruzaning bu turida har xil vaziyatlar bo'lishi mumkin. Masalan, tinglovchilar xatolarni topa olmadilar. Shunda ma'ruzachi bu xatolarni o'zi aytadi va ular bilan bog'liq muammolarni bayon etadi. Yoki rejalashtirilgan xatolarning bir qismigina aniqlandi, xolos. Bu holda o'qituvchi aniqlangan xatolarning qanchalik to'g'riligiga ta'rif beradi va tinglovchilar sezmagan xatolarni ko'rsatib, ularni tahlil qiladi.

Ma'ruza-konsultatsiya, odatda, o'qituvchi tomonidan emas, balki pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lmasa ham, biroq katta amaliy tajribasi bo'lgan va o'z sohasini chuqur biladigan yirik rahbarlar, mutaxassislar tomonidan o'qiladi.

Ma'ruza-konsultatsiyaning o'tkazilish kuni, vaqti, o'rni, mavzusi, kim tomonidan o'tkazilishi oldindan e'lon qilinadi va, albatta, tinglovchilarni qiziqtirayotgan savollarni ilgaridan yozma ravishda berish taklif qilinadi.

Tashrif buyurgan konsultant ma'ruzaning birinchi qismida ilgaridan yozma ravishda berilgan savollarga tayyorlab kelgan javoblarini bayon etadi. Ma'ruzaning ikkinchi qismida esa ma'ruza davomida tug'ilgan savollarga javob beradi. Ma'ruza oxirida kichik munozara uyushtirish, so'ngra ma'ruzachining yakuniy so'zi bilan tugatish maqsadga muvofiqdir.

Ma'ruza-konsultatsiyani boshqacha tartibda ham o'tkazish mumkin. Kirish qismida ma'ruzachi tinglovchilar diqqatini ko'rib chiqilayotgan masalaning amaldagi muammolariga jalb qiladi. So'ngra tinglovchilar savollar beradilar, ma'ruzachi esa mashg'ulotga ajratilgan vaqtning taxminan yarmini ana shu savollarga javob

berishga sarflaydi va erkin fikr almashuvdan keyin ma'ruzachining yakuniy so'zi bilan mashg'ulotga yakun yasaladi.

Ma'ruza-suhbat ma'ruza shaklida o'tilayotgan mashg'ulot jarayoniga tinglovchilarni imkon qadar ko'proq jalb qilishni ko'zda tutadi. Bunda tinglovchilarning faolligini oshirish vositasi sifatida auditoriyaga beriladigan alohida savollardan, bahs-munozara tashkil etishdan foydalaniladi.

Ma'ruza-suhbatning bir necha turlari mavjud:

Ma'ruza-dialog maxsus tayyorlangan bir tinglovchi ishtirokida o'qiladi. U ma'ruzachining savollariga javob beradi va aniqlovchi savollar beradi, biroq, opponent sifatida qatnashmaydi.

Ma'ruza-diskussiya nafaqat tinglovchilarning javoblaridan foydalanishni ko'zda tutadi, balki o'quv materialini bayon qilish oralig'ida ta'lim oluvchilarning erkin fikr almashuvini, shu bilan birga, ma'ruzachining tinglovchilar tomonidan berilayotgan to'g'ri javoblariga tayanishini taqozo etadi.

Ma'ruza-disput auditoriyani ikki konsepsiya, fikr, tafakkur kurashi maydoniga aylantiradi.

Ma'ruza-seminar auditoriyaning oldindan tayyorlangan qismi bilan munozara tarzida o'tkazilishi mumkin.

Ma'ruza-suhbatning barcha turlari ma'ruzachi tomonidan o'rnatiladigan qoidalarga amal qilingan holda o'ziga xos o'yin tariqasida o'tkaziladi. O'qituvchi bunda o'yin qoidalarini tinglovchilar bilan muloqot ma'ruzaning o'quv savollarini ko'rib chiqish vaqtida ko'zlangan maqsadlarga erishishga olib keladigan tarzda belgilashi lozim.

Qarshi aloqa texnikasidan foydalanuvchi ma'ruza (boshqariluvchi ma'ruza) maxsus jihozlangan auditoriyalarda o'tkaziladi. Tinglovchilar va o'qituvchining ish joylarida o'rnatilgan texnik vositalar bayon etilayotgan o'quv materialiga bo'lgan munosabatni aniqlab borishga imkon beradi. Auditoriya kompyuterlar bilan ta'minlangan bo'lsa, tinglovchilar o'qituvchining mavzu bayoniga qay darajada tushunganliklari haqida yoki savollarga javob berishda klaviaturaning belgilangan tugmalarini bosish yordamida ma'ruzachi boshqaruv pultiga signal beradilar. Ma'ruzachi tinglovchilar tomonidan yuborilgan signallarni kompyuter yordamida foiz hisobida tahlil qilib boradi, o'quv materialining o'zlashtirilishi

haqida tegishli xulosalar chiqaradi va bu xulosalar natijasiga ko'ra mavzu bayoni jarayoniga tegishli o'zgarishlar kiritishi mumkin.

Ta'limning o'yinli shakl va metodlari

Kasbiy ta'limni takomillashtirish maqsadida uni faollashtirish vositasi sifatida o'yin harbiy sohada keng qo'llanilib kelinmoqda. Chunki harbiy ta'lim jarayonida boshqa sohalarga qaraganda turli harakatlar, hodisalar, jarayonlarni "o'ynash" zaruriyati ko'proq seziladi.

Komandir faoliyatining asosi – qaror qabul qilishdir. Qaror qabul qilishdan oldin esa vazifani tushunish va vaziyatga baho berish (vaziyatni tahlil qilish) zarur bo'ladi. Ta'limning bu elementlari qaror ishlab chiqish, jangovar, tezkor (operativ), texnik va boshqa hujjatlarni qayta-qayta ishlash natijasida aniq vaziyatga baho berish va qaror qabul qilishni o'rganadilar.

Aniq vaziyatni tahlil qilish.

Aniq vaziyat – qo'shinlarning jangovar sharoitda yoki tinchlik vaqtida to'satdan yuzaga keladigan va rivoj topadigan ma'lumotlar va faktlar yig'indisi bilan xarakterlanadigan vaziyatdir. U qarama-qarshilikni, o'zi uning bir qismi hisoblangan vaziyat bilan konfliktni o'z ichiga oladi. Aniq vaziyatni hal qilish chog'ida ta'lim oluvchilar odatda haqiqiy amaliyotda ishtirok etayotgan kabi harakat qiladilar, ya'ni o'zlarida mavjud tajribadan, shuningdek, ta'lim jarayonida o'zlari o'zlashtirgan tahlil usullari, vositalari va mezonlaridan foydalanib yuzaga kelgan vaziyatni tahlil qiladilar, baho beradilar, zarur bo'lgan qarorni ishlab chiqadilar va qabul qiladilar. Shu tariqa tinglovchilar o'z tasavvurlarida o'rnatib qolgan ba'zi bir tushuncha va xulosalarning to'g'ri yoki noto'g'riligiga ishonch hosil qiladilar, eng maqbul variantni ishlab chiqish va qabul qilishga o'rganadilar.

Ofitserlar o'z kasbiy faoliyatlarida duch kelishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarning uch asosiy turi mavjud.

Standart (odatdagi) vaziyat ma'lum ma'noda odatiy hol hisoblanib, harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatida tez-tez takrorlanib turadi, shuningdek ularning manbai, sabablari ham bir (yoki o'xshash) bo'ladi. Standart vaziyatlarning manbai, sabablari ijobiy bo'lishi bilan birga, salbiy bo'lishi ham mumkin. Masalan, laboratoriya uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish, taktik-saf mashg'ulotlarini tayyorlash va o'tkazish va boshqalar.

Kritik (tang) vaziyat – mazkur harbiy jamoa uchun xos bo‘lmagan vaziyatlar. Odatda, bunday vaziyatlar to‘satdan sodir bo‘ladi va jamoani shoshirib, ba’zida esa sarosimaga solib qo‘yadi, rejalarini buzadi, ruhiy, ma’naviy va iqtisodiy ziyon keltirishi mumkin. Bunday vaziyatga zudlik bilan aralashuv, zarur choralarni ko‘rish talab qilinadi. Masalan, mashg‘ulotni o‘tkazish uchun belgilangan uskunaning buzilib qolishi, ob-havo sharoitining birdaniga o‘zgarib qolishi natijasida rejalashtirilgan tadbirni o‘tkazish imkoni bo‘lmay qolishi va boshqalar.

Ekstrimal (favqulodda) vaziyat – ilgari hech bo‘lmagan, rejalarda ko‘zda tutilmagan moddiy sarf-harajatlar va insoniy resurslarni talab etuvchi vaziyatlar. Masalan, tabiiy ofat, baxtsiz hodisa va boshqalar.

Vaziyatlarning ana shu turlaridan kelib chiqib ta’lim jarayonida tinglovchilar oldiga turli xil muammoli vaziyatlar qo‘yib, ularni hal qilish yo‘llarini mustaqil izlab topishga o‘rgatish bo‘lajak ofitserlarni vaziyatga to‘g‘ri baho berib, eng maqbul qaror qabul qilishga o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi.

Ishchan o‘yin. Mashg‘ulot jarayonida ta’lim oluvchilarning ma’lum bir kasbiy faoliyatni egallash yoki mavjud malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida ularga ma’lum bir rollarni ijro etishni topshirish orqali mashg‘ulot mavzusidan ko‘zlangan maqsadlarga erishish “ishchan o‘yin”ning asosiy mazmunini tashkil etadi. Ta’lim oluvchilar tomonidan mashg‘ulotda haqiqiy amaliyotga yaqinlashtirilgan sharoitda kasbiy faoliyat modellashtiriladi va amalga oshiriladi. Bu egallangan nazariy bilimlarni amalga tadbiiq etish malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

O‘yinning har bir ishtirokchisi o‘zining funksional vazifalariga ega bo‘lgan rollarni oladi. O‘yin rivojida ishtirokchilar harakatlari konfliktli vaziyatlarda, hissiy zo‘riqishlar bilan, mavjud kasbiy, intellektual va ruhiy qobiliyatlarini ishga solib belgilangan “kasbiy faoliyatda” faol ishtirok etishlari talab etiladi. O‘yinchilar konflikt ishtirokchilari hisoblanadilar va o‘z harakatlari bilan, tanlagan usullari bilan ana shu konfliktni hal qilishga urinadilar.

“Ishchan o‘yin”ni o‘tkazish uchun bir qator hujjatlar ishlab chiqiladi. Bular qatorida metodik ishlanma asosiy hujjat sanaladi. U o‘yinni tashkil etish va o‘tkazishni ta’minlovchi bo‘limlardan iborat bo‘ladi. Metodik ishlanmaning kirish qismida, odatda, o‘yin mavzusining dolzarbligi asoslab beriladi, umumiy maqsadlar va

kutilayotgan natijalar ko'rsatiladi. So'ngra o'yin haqida ma'lumot, uning asosiy belgilari, maqsadlari, o'xshatish obyektlari, ishtirokchilar tarkibi, rollar to'plami, o'yinchilarning vazifalari, o'yin qoidalari ko'rsatiladi.

Metodik ko'rsatmaning asosiy qismida o'yin ssenariysi ko'rsatiladi. Shu bilan birga, o'yinning blok-sxemasini, borish tartibini, o'yin davomida kutilayotgan konfliktli vaziyatlarni xarakterlash, uni baholash, metodik ta'minoti ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir.

Yakuniy qismida esa o'yinning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlari, bu o'yin tinglovchilarga nima berishi, qayerda va qanday sharoitlarda qo'llash mumkinligi ko'rsatiladi va foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati beriladi.

Faol seminarlar. An'anaviy seminarlarda asosiy ta'lim metodi suhbat hisoblanadi. Agarda seminar qarama-qarshiliklar, mubolag'alar asosida qurilsa, bunday bahs-munozaralar seminarni faollashtiriladi, tinglovchilarning qiziqishini uyg'otadi. O'yin xarakteriga ega bo'lgan nutqli bahs ta'limni o'yin-seminarga aylantiradi. Mashg'ulot davomida turli faollashtiruvchi metodlarni qo'llash seminarining yangi turlarini, masalan, o'yin-seminar, aniq vaziyatlarni tahlil qiluvchi seminar, rollarni o'ynash seminari, "miya hujumi" ("shturmi") yordamidagi seminar, "davra suhbat" seminari, muammoli seminarni keltirib chiqaradi.

O'yin-seminar jarayonida o'yin bahsni keltirib chiqaradi. O'yin ko'rinishidagi bahs inson faoliyatini tabiiy sharoitga yaqinlashtiradi, tinglovchilarda esa bahs yuritish, o'z fikrini himoya qilish, shu bilan birga, o'z xatolarini anglab yetish va tan olish malakalari ham shakllanadi.

*Aniq vaziyatlarni tahlil qiluvchi seminar*ning mazmunini belgilovchi o'quv savollari ta'lim oluvchilarning bo'lajak faoliyati bilan bog'liq aniq vaziyatlar nomi bilan beriladi. Odatda, ular baholovchi vaziyat va muammoli vaziyat ko'rinishida bo'ladi.

Rollarni o'ynash seminari aniq vaziyatlarni tahlil qiluvchi seminarga o'xshab ketadi, biroq undan ta'lim oluvchilarning bo'lajak kasbiy faoliyati bilan bog'liq rollarning belgilanishi bilan farq qiladi.

"Miya hujumi" ("shturmi") yordamidagi seminar yechimi tinglovchilar uchun mashg'ulotga qadar noma'lum bo'lgan savollarni ko'rib chiqishni taqozo etadi.

“*Davra suhbat*” seminari barcha ishtirokchilarning tengligini ta’minlashni va erkin suhbat uchun sharoit yaratishni talab qiladi. Bu kabi seminarlarda yutuqqa erishishning asosiy shartlaridan biri mashg‘ulotda seminarining alohida savollari bo‘yicha kuchli mutaxassis sifatida qatnashuvchi tinglovchilarni puxta tayyorlashdan iboratdir.

Muammoli seminar ta’limning ko‘pdan beri qo‘llanib kelinayotgan faol shaklidir. Seminarining bu shaklini o‘tishga tayyorgarlik ko‘rayotgan o‘qituvchidan mashg‘ulot paytida muammoli vaziyatlarni sodir qilish va ularni hal qilishni boshqara bilish qobiliyati talab qilinadi. O‘qituvchi muammoli savollar (vazifalar) variantlarini oldindan ishlab chiqishi yoki to‘satdan keltirib chiqarishi, mashg‘ulotda yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqib, berilgan javoblarni, fikrlarni tahlil qilishi va ularga baho berishi, farazlarning ilgari surilishi va tahlili jarayonini boshqarib borishi lozim, ya’ni muammoli vaziyatlarni mohirona yuzaga keltira olishi, ularning rivojini va yechimini boshqara olishi zarur.

Tayanch so‘zlar: Ta’limning tashkiliy shakllari; o‘quv-reja, xizmat-rejali tashkiliy shakl, darsdan tashqari mashg‘ulot. Ta’limning faol metodlari; ta’limning o‘yinsiz shakl va metodlari; ta’limning o‘yinli shakl va metodlari.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta’limning tashkiliy shakllari deb nimaga aytamiz?
2. O‘quv-rejali tashkiliy shakllarga qaysi turdagi mashg‘ulotlarni kiritish mumkin?
3. Xizmat-rejali tashkiliy shakllarga misollar keltiring.
4. Rejadan, darsdan tashqari mashg‘ulotlarning askar shaxsi shakllanishidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
5. Ta’limning faol shakl va metodlarining an’anaviylaridan qanday farqi bor?
6. Ta’limning o‘yinsiz shakl va metodlarini sanab, har biriga ta’rif bering.

14-mavzu: Shaxsiy tarkib harbiy mahoratini shakllantirishning psixologik – pedagogik asoslari

Reja:

1. Shaxsiy tarkib harbiy mahoratini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.
2. Harbiy xizmatchilar bilimi, ko‘nikmasi va malakalarini tekshirish va baholash.
3. Tekshirish maqsadi va turlari. Shaxsiy tarkib tayyorgarligini tekshirish metodlari.

14.1. Shaxsiy tarkib harbiy mahoratini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari

Qurolli Kuchlar oldida turgan vazifalarning o‘z vaqtida, to‘g‘ri va sifatli bajarilishi qurol-yarog‘, jangovar texnika bilan ta‘minlanganlik, shaxsiy tarkibning jangovar, ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligi, ruhiy holatiga bog‘liq. Shu sababdan harbiy mahoratni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmog‘i lozim.

Harbiy mahorat askarning o‘z mutaxassisligini egallash va uni amalga oshirish jarayonidagi yuqori darajadagi faoliyatidir.

Harbiy mahorat quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

I. Ichki asoslar:

1. Bilim.
2. Ko‘nikma.
3. Malaka.
4. Umumiy dunyoqarash.
5. Ma‘naviy-axloqiy xislatlar.
6. Ruhiy xislatlar.

II. Tashqi asoslar:

1. To‘g‘ri, aniq va ongli harakatlar.
2. Bilim, ko‘nikma va malakalarni ongli ravishda qo‘llash.
3. Qurol-yarog‘ va texnikani samarali va ijodiy qo‘llash.

Bilim – borliq, voqea va hodisalarning, ularning aloqa va munosabatlarining inson ongida namoyon bo‘lishidir. U insonning borliqni, boshqa odamlar tomonidan topilgan ma‘lumotlar, faktlarni o‘zlashtirishi natijasi hisoblanadi. Bilimlar inson ongida, xotirasida

tushunchalar, qarashlar, tasavvurlar, ular o'rtasidagi aloqadorlik tarzida saqlanib keladi.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida murakkab zamonaviy texnika va qurol-yarog'larning yaratilishi va jangovar harakatlarni olib borishning yangi usullari insonga, uning ma'naviy, ruhiy va jismoniy sifatlariga, bilimi saviyasiga, tayyorgarlik darajasiga yuksak talablar qo'yimoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, har bir askar chuqur, har tomonlama keng bilimlarga ega bo'lishi va bu bilimlarni har qanday sharoitda qo'llay olishga tayyor bo'lishi zarur.

Mahoratni ko'nikmasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ko'nikmalar – ish-harakatlarning puxta egallanganligi, avtomatlashgan tarzda bajarilishidir. Ma'lum bir sohada ko'nikmalarga ega bo'lgan inson o'z diqqatini asosiy narsaga qarata oladi, o'z faoliyatiga ijodiy munosabatda bo'la oladi hamda yuqori sifat va miqdor ko'rsatkichlari bilan harakat qila oladi.

Askar uchun jangovar texnikaga xizmat ko'rsatish, o'z qurolini qo'llash, turli xizmat vazifalarini bajarish, kuzatish va boshqa ko'nikmalar muhimdir.

Ko'nikmalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. *Sensor ko'nikmalar* sezgi organlari (ko'rish, eshitish, hid bilish va boshqalar) faoliyatiga taalluqlidir. Masalan, pribor ko'rsatkichlarini olish, masofani aniqlash, moddani rangiga, hidiga qarab aniqlash, topokartalarni o'qish va hokazo.

2. *Harakatli ko'nikmalar* turli harakatlarni egallash natijasidir. Ular texnikani boshqarish va qurol-yarog'ni jangovar qo'llash uchun zarurdir. Masalan, bu ko'nikmalar mexanik-haydovchi harakatida, operator harakatida va hokazolarda ko'rinadi.

3. *Aqliy ko'nikmalar* intellektual masalalarni hal etishda, masalan, qabul qilingan axborotni tahlil qilish, qo'yilgan vazifani tushunish, vaziyatga baho berish, qaror ishlab chiqish va qabul qilish va hokazolar. Ular aqliy faoliyat sanalib, uni samarali va tejamli qilishga olib keladi.

Barcha sanab o'tilgan ko'nikmalar turli vazifalarni bajarsa-da, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har qanday mutaxassislikdagi askar faoliyatida birlikda namoyon bo'ladi.

Ko'nikmalar murakkablik darajasiga qarab ham tasniflanadi. Avtomatik ravishda bajariladigan murakkab bo'lmagan usul va harakatlar *oddiy ko'nikmalar* deb ataladi. Masalan, quroldan otish,

mo'ljalga olish, dvigatelni ishga tushirish, tezlik qutisi richagini qo'shish va boshqalar. Bu kabi ko'nikmalar alohida usullarni takrorlash natijasidir.

Oddiy ko'nikmalar asta-sekin qo'shilishi, murakkab harakatlarga birlashishi, takrorlanishi va mustahkamlanishi natijasida *murakkab ko'nikmalar* kelib chiqadi.

Malakalar bilim va ko'nikmalardan samarali foydalanishda, ularni yangi va murakkab sharoitlarda to'g'ri va muvaffaqiyatli qo'llay olishda namoyon bo'ladi.

Malakalar ham ko'nikmalar singari oddiy va murakkab turlarga bo'linadi.

Harbiy mahorat shakllanishining boshlang'ich bosqichida, ya'ni askar o'z bilimlarini qo'llay boshlagan davrda *oddiy malakalar* paydo bo'ladi. Mashqlar jarayonida bunday malakalar oddiy ko'nikmalarga aylanadi. Bilimlar, oddiy malakalar, sodda va murakkab ko'nikmalar asosida murakkab malakalar shakllanadi.

Murakkab malakalar – askarning ta'lim jarayonida egallagan bilimi, ko'nikmalarini ijodiy qo'llay olish va harbiy faoliyatning murakkab vaziyatlarida yuqori natijalarga erisha olish imkoniyatidir.

Ko'nikma tez-tez takrorlanib turuvchi sharoitlarda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Malaka esa insonga ko'nikmalarni yangi sharoitlarda qo'llashga imkon yaratib beradi. Ko'nikmadan farqli o'laroq, malaka inson ongining faolligini, o'z-o'zini nazorat qila olishni, turli vazifalarni bajarishning umumlashgan usullarini egallashni talab qiladi. Malakalarni shakllantirish bilim va ko'nikmalarni tobora murakkablashib boruvchi sharoitlarda qo'llash, shaxsiy tarkibning nazariy va amaliy tayyorgarligini doimiy uyg'un ravishda olib borishni talab qiladi.

Ko'nikmalarning shakllanish bosqichlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Analiz-sintez, ya'ni alohida usul va operatsiyalar shakllanadi va ular yaxlitlanadi.

2. Zo'riqish, hayajon, xato yo'qotiladi.

3. Harakatlar avtomatlashadi.

4. Generalizastiya jarayoni kechadi, ya'ni harakatlar umumlashadi, ko'nikma faoliyatga aylanadi.

Ko'nikmalar askarlarning o'z xizmat vazifalarini chuqur anglagan, xatolarini bilgan, shuningdek, muvaffaqiyatlari o'z vaqtida

ma'qullangan va taqdirlangan holda samarali rivojlanadi. Shuning uchun ta'lim beruvchi askarga nisbatan g'amxo'r va talabchan bo'lishi, o'qish va xizmatda yangi yutuqlar sari ruhlantira olishi muhim ahamiyatga ega.

Ko'nikmaning takomillashishi uning murakkabligiga, askar shaxsining shaxsiy va ruhiy xususiyatlariga va holatiga, ta'lim beruvchilarning mahoratiga va ta'lim sharoitiga ham bog'liq.

Harbiy mahorat o'z mohiyatiga ko'ra, jamoaviy mahorat hamdir. Askarlar birgalikda harbiy texnikaga xizmat ko'rsatadilar, bo'linma oldiga qo'yilgan vazifalarni bajaradilar va jamoa oldiga qo'yilgan boshqa maqsadlarga erishish yo'lida jamoa bo'lib yondashadilar. Shuning uchun harbiy mahorat to'g'risida so'z yuritganda nafaqat yakka olingan askar, balki jamoaning harbiy mahorati haqida ham to'xtalib o'tish zarur.

Jamoa harbiy mahoratining mazmuni vazifalarning jamoaviy bilim, ko'nikma va malakalar, jamoaning xususiyatlariga asoslangan umumiy ijrosining yuksak darajasini belgilaydi.

Jamoaviy bilim – askarlarning nizomlar va yo'riqnomalarning bo'linma, qism harakatlari to'g'risidagi, jangovar texnikadan foydalanish va qo'llash to'g'risidagi bilimlaridir. Jamoaviy bilimlar jang maydonidagi va tinchlik davridagi turli vazifalarni bajarishdagi o'zaro muvofiqlashgan harakatlarda ko'rinadi.

Jamoaviy faoliyat ko'nikmalari – askarlar o'rtasidagi o'zaro harakatlarning belgilangan tartib-qoidalari va sharoitlarining o'zlashtirilishi, umumiy vazifalarning bajarilishi natijasidir. Bu ko'nikmalar harbiy jamoa turli faoliyati uyg'unligining, muvofiqlashganligining samaradorligini ta'minlaydi.

Jamoaviy faoliyat malakalari jamoa tomonidan bilim va malakalarning to'g'ri va ijodiy qo'llanilishida namoyon bo'ladi.

Jamoa harbiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirishda komandir mahorati muhim rol o'ynaydi.

Komandir mahorati – ofitserning bo'linma, qismga rahbarlik qilish uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar, xislatlarga asoslangan faoliyatining yuksak darajasidir. Komandir mahorati, asosan, uning rahbarlik va harbiy mutaxassislik san'atidan iborat bo'ladi.

Jamoa mahorati askarlarning yakka mahorati, turli mutaxassislar guruhlar mahorati va komandir mahoratidan tarkib topadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yakka va jamoa harbiy mahoratini shakllantirishda quyidagi shartlar muhim sanaladi:

- askarlarda yuksak g'oyaviy, ma'naviy va axloqiy xislatlarni tarbiyalash;

- jamoani jipslashtirishga alohida e'tibor qaratish, askarlar o'rtasida do'stona munosabatlarni tarbiyalash;

- umumiy faoliyatda yuksak natijalarga erishishga intilish;

- askarlarni yakka va jamoa faoliyatini samarali amalga oshirish uchun o'z bilimlarini, ko'nikmalarini va malakalarini tinmay takomillashtirib borishga undash;

- tinchlik davrida va urush sharoitida askarlarning tashabbus ko'rsatishi, o'z bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini ijodiy qo'llashi, faollik ko'rsatishi uchun sharoit yaratish;

- ta'lim va tarbiya jarayonida askarlarning qobiliyati, temperamenti va xarakteri xususiyatlarini hisobga olish;

- harbiy xizmatning turli sharoitlarida o'zlarining bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini to'la namoyon qila olishlari uchun askarlarning hissiy-irodaviy turg'unligini mustahkamlash, birgalikda turli vazifalarni bajarish.

Hozirgi davrdagi harbiy xizmat insonga, uning aqliy, ma'naviy, ruhiy, irodaviy va jismoniy sifatlariga, intellektual darajasiga, kasbiy tayyorgarligiga yuksak talablar qo'yimoqda va har bir askarning, bo'linmaning harbiy mahoratini tobora yuqori darajaga ko'tarishni taqozo etmoqda. Bu vazifalarni bajarishda ta'lim-tarbiya jarayonining, xususan harbiy mahoratni shakllantirishning psixologik-pedagogik shartlarini hisobga olish muhimdir.

14.2. Harbiy xizmatchilar bilimi, ko'nikmasi va malakalarini tekshirish va baholash

Harbiy xizmatchilar bilimi, ko'nikmasi va malakasini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining tarkibiy qismidir. Jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikda turlicha funksiyalarni bajarar ekan, tekshirish va baholash ta'lim jarayonining borishiga va natijalariga to'g'ridan-to'g'ri va bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim beruvchi (o'qituvchi, komandir, boshliq, instruktor) o'z bo'ysunuvchilarining bilimi, ko'nikmasi va malakalarini tekshirib borar ekan, avvalambor, ularning faoliyatini nazorat qiladi: askarlar

nimalarni va qanday o'rganayapdilar, qanday qiyinchiliklarga duch kelayapdilar, kim qanday yordamga muhtoj va hokazo. Shu bilan birga, u tekshirish davomida ta'lim va tarbiya berishni davom ettiradi, ya'ni askarlarga bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlashga, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga, tafakkurini va xotirasini rivojlantirishga, axloqiy-jangovar, hissiy-irodaviy xislatlarini mustahkamlashga va ma'naviy-ma'rifiy barkamolligini ta'minlashga yordam beradi.

Shu bilan bir vaqtda, shaxsiy tarkib tayyorgarligi darajasini tekshirish ta'lim beruvchiga o'z faoliyati natijasini tanqidiy baholash imkonini beradi. Harbiy xizmatchilar ta'limi jarayonida yo'l qo'ygan xatolarini bilish, ularning sabablarini o'rganish va tuzatish choralarini ko'rish kelajakda bo'linmaning jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligini yanada yuqori darajaga ko'tarishga imkon beradi.

Shaxsiy tarkibning bilimi, ko'nikmasi va malakalarini tekshirish va baholashdan ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun quyidagi pedagogik talablarga rioya qilish shart:

birinchidan, tekshirish ma'lum tizim asosida, har bir mashg'ulotda amalga oshirilishi lozim;

ikkinchidan, u bilish xarakteriga ega bo'lishi, barcha ta'lim oluvchilar uchun qiziqarli va foydali bo'lishi kerak;

uchinchidan, yakka tartibdagi tekshiruv jamoa (bo'linma, ekipaj) tayyorgarligini tekshirish bilan muvofiqlashtirilishi zarur;

to'rtinchidan, tekshirish har tomonlama, haqqoniy bo'lishi va turli metodlar bilan amalga oshirilishi muhimdir;

beshinchidan, tekshirish jarayonida askarlarga nisbatan yuksak talabchanlik ko'rsatish va ularning shaxsiy qadriyatlarini hurmat qilish hamda amaliy yordam berish lozim.

Sanab o'tilgan talablar asosida o'tkaziladigan tekshirishlar askarlarni o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatadi. Ta'lim beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan doimiy va ma'lum tizim asosidagi tekshirish ularni mashg'ulotlarga puxta tayyorlanishga, ko'proq mustaqillik va tashabbuskorlik ko'rsatishga, o'z harbiy mutaxassisligini ongli ravishda egallashga undab boradi.

O'zining belgilanishiga va xarakteriga ko'ra, askarlarning bilimi, ko'nikmasi va malakasini tekshirish boshlang'ich, joriy, yakuniy va nazorat tekshiruvi kabi turlarga bo'linadi.

Dastlabki tekshirish bo‘linmaga endigina kelgan askarlar, kursantlar va ofitserlarning tayyorgarlik darajasini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi. Bu turdagi tekshirish har bir bo‘ysunuvchi bilan alohida suhbatlashish, mashg‘ulotlarda qatnashish va xizmat vazifalarini bajarish davomida ular harakati va xulqini kuzatish, ba’zi hollarda ma’lum bir vazifalarni bajarishni talab qilish orqali o‘tkazilishi mumkin. Boshlang‘ich tekshirish natijalari ta’lim beruvchi uchun keyingi ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish uchun muhimdir.

Joriy tekshirish ta’lim jarayoni davomida, har bir mashg‘ulotda o‘tkazib turiladi. Bunday tekshirish, bir tomondan, ta’lim oluvchilarning mas’uliyatini oshirsa va mashg‘ulotlarga doimiy ravishda tayyor holda kelishga undasa, ikkinchi tomondan, o‘qituvchiga bo‘ysunuvchilarning o‘quv materialini qay darajada o‘zlashtirayotganlarini kuzatib borishga yordam beradi va zarur hollarda ta’lim jarayoniga kerakli tuzatishlar kiritish lozimligini ko‘rsatadi.

Yakuniy tekshiruv, odatda, o‘quv yili oxirida, fanni yoxud uning katta bo‘limini o‘rganish tugaganda o‘tkaziladi. U bitiruv va joriy imtihonlari, sinovlar, maxsus tekshiruv mashg‘ulotlari, taktik mashqlar ko‘rinishida va boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Nazorat tekshiruvi bo‘linmalarda, qismlarda yuqori qo‘mondonlikning rejalari asosida ma’lum davrlarda o‘tkaziladi. Bunday tekshiruvlarning maqsadi shaxsiy tarkibning tayyorgarlik darajasini tekshirish, shuningdek, ta’lim jarayonining borishini nazorat qilishdan iboratdir. Nazorat tekshiruvlari reja asosidagi mashg‘ulotlar (mashqlar) jarayonida yoki alohida belgilangan vaqtda o‘tkazilishi mumkin. Saf ko‘riklari ham shunday tekshiruv jumlasiga kiradi.

Ta’lim jarayonining borishi, shaxsiy tarkibning tayyorgarlik darajasi yuqori organlar rejasi asosida o‘tkaziladigan xususiy va, ayniqsa, inspektorlik tekshiruvi vaqtida tekshiriladi va baholanadi. Bunda bo‘linmalar va qismlar shaxsiy tarkibining faoliyati, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligining tashkil etilishi, jangovar tayyorgarligi darajasi har tomonlama o‘rganiladi va baholanadi.

Nazorat va yakuniy tekshiruvlari ta’lim beruvchilar uchun ta’lim jarayonining borishi, o‘z faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlari haqida

ma'lumot olish va keyingi faoliyatida shularni hisobga olish imkonini beradi.

Harbiy xizmatchilar bilimi, ko'nikmasi va malakalarini baholash.

Shaxsiy tarkibning bilimi, ko'nikmasi va malakalari tekshirilar ekan, ular baholanishi ham zarur. Bunda baholash turlari quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

1. His-hayajonli munosabat yordamida baholash: ma'qullab yoki norozi ma'noda bosh irg'ab qo'yish, "yaxshi", "to'g'ri", "barakalla", "yaxshi emas" kabi qisqa izohlar berish va hokazo.

2. Baholovchi fikr, munosabat yordamida baholash: "to'g'ri, biroq ishonchsiz harakat qildingiz", "masalani tushunasiz, ammo fikrlaringizni aniq bayon etolmadingiz" kabi fikrlarni bildirish.

3. Baho qo'yish yordamida baholash, ya'ni "a'lo", "yaxshi", "qoniqarli" va "qoniqarsiz" baholar qo'yish.

4. Reyting tizimida baholash, ya'ni o'quv fanlarini o'rganish jarayonida mavzular bo'yicha belgilangan ballarni to'plab borish.

Harbiy xizmatchilar bilimini baholashda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o'quv fani (savol) bo'yicha bilimlari hajmi;
- bilimlarining chuqurligi va aniq tizimga solinganligi;
- o'rganilgan bilimlarni tushunib yetganligi, fikrlarining mustaqilligi, qat'iy ishonch bilan bayon etilishi;
- bilimlarining amaliy ahamiyatini tushunib yetishi, turli vazifalarni bajarishda qo'llay olishi.

Harbiy xizmatchilarning ko'nikma va malakalarini baholashda quyidagilar inobatga olinadi:

- ko'nikma va malakalarning mavjudligi;
- ularning aniqligi va mustahkamligi;
- ko'nikma va malakalarni turli sharoitlarda qo'llay olishi;
- yo'l qo'yilgan xatolarning miqdori, ularning xarakteri va amaliy faoliyatga ta'siri;
- harakatlarining aniqligi, mustaqilligi, bajarilish tartibi (ketma-ketligi).

Ta'lim oluvchilarga baho qo'yishda quyidagi pedagogik mezonlarga rioya qilish lozim:

- "a'lo" baho qo'yiladi, qachonki askar fan bo'yicha dastur materiallarini to'liq va chuqur egallasa hamda tushunib yetsa; aniq,

mazmunli, mantiqiy bayon etsa va fikrlarini asoslab bera olsa; nazariy bilimlarini amalda to‘g‘ri qo‘llay olsa;

- “yaxshi” baho qo‘yiladi, qachonki ta’lim oluvchi dastur materialini bilsa, savollarga erkin javob bersa; nazariy bilimlarini amalda qo‘llay olsa; xatosiz harakat qila olsa;

- “qoniqarli” baho qo‘yiladi, qachonki askar dastur materialining asosiy qismini bilsa, savollarga to‘liq javob bera olmasa; nazariy bilimlarini amalda to‘g‘ri qo‘llashga qiynalsa;

- “qoniqarsiz” baho qo‘yiladi, qachonki askar dastur materiali haqida yuzaki tushunchaga ega bo‘lsa; nazariy bilimlarini amalda qo‘llay olmasa.

Har qanday sharoitda ham baho obyektiv va haqqoniy bo‘lishi, ta’lim oluvchilarning bilimi, ko‘nikmasi va malakalariga aniq mos kelishi lozim. Oshirib qo‘yilgan baho bo‘ysunuvchini “erkalatib”, tinchlantirib qo‘yishi, ba’zan esa manmanlikka olib kelishi mumkin. Nohaq pasaytirib qo‘yilgan baho esa askarni ranjitishi, mashg‘ulotlardan ko‘nglini sovutib qo‘yishi mumkin.

14.3. Tekshirish maqsadi va turlari. Shaxsiy tarkib tayyorgarligini tekshirish metodlari

Shaxsiy tarkibning bilimi, ko‘nikmasi va malakalarini tekshirish turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

- nazorat kuzatuv;
- ta’lim oluvchilarning amaliy faoliyatini tahlil qilish;
- og‘zaki so‘rov;
- yozma ish;
- test usulida tekshirish;
- texnik vositalar yordamida tekshirish.

Ta’lim beruvchi shaxsiy tarkibning bilimi, ko‘nikmasi va malakalari hajmini va sifatini, shuningdek, ularning shakllanish va rivojlanish jarayonini, avvalambor, doimiy kuzatish orqali aniqlaydi. Shuning uchun ham *nazorat kuzatuv* keng tarqalgan va o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lgan metoddir. Bu metod barcha mashg‘ulotlar va mashqlar davomida qo‘llanilishi mumkin. Ta’lim beruvchi o‘tkazilayotgan turli shakldagi mashg‘ulotlar, mashqlar, xizmat vazifalarini va turli topshiriqlarni bajarish jarayonida bo‘ysunuvchilar

o‘z bilimlaridan qay darajada foydalanayotganlarini, ko‘nikma va malakalari qanchalik rivojlanganligini va ularni amalda qanday qo‘llayotganlarini kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ta’lim oluvchilarning amaliy faoliyatini tahlil qilish askarlar tayyorgarligi darajasini tekshirishning muhim metodi sanaladi. Ofitser o‘z bo‘ysunuvchilarining bilimi, ko‘nikmasi va malakalari haqida nafaqat ularni kuzatish, balki ularning amaliy faoliyati, bajarayotgan ishlari natijalariga qarab ham baho beradi. Masalan, jangovar texnikani boshqarish va qurol-yarog‘lardan foydalanish vaqtida ta’lim oluvchining harakatlari qanchalik to‘g‘ri va aniq bo‘lishi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi, harbiy mulkka ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishi uning bilimi, ko‘nikmasi va malakalari haqida to‘g‘ri tasavvur olishga va haqqoniy baholashga imkon beradi.

Og‘zaki so‘rov tekshirishning keng tarqalgan metodi bo‘lib, bundan ko‘pincha ta’lim oluvchining nazariy bilimlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Og‘zaki so‘rov bir qarashda juda oson metodga o‘xshab ko‘rinsa-da, puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Ta’lim beruvchi tekshirilishi lozim bo‘lgan bilimlar hajmini aniqlashi, so‘rov paytida beriladigan savollarni mantiqan va mazmunan to‘g‘ri tuzishi lozim.

Tekshirishning og‘zaki so‘rov metodi ta’lim oluvchidan savolni tez idrok etish ko‘nikmasini hosil qilish, ularning xotirasini rivojlantirishga yordam beradi.

Tekshirishning yozma metodi ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlarini tekshirish maqsadida qo‘llaniladi. Yozma tekshirish askarni mantiqiy mushohada qilishga (fikrlash)ga o‘rgatadi, o‘z fikrini yozma ravishda bayon eta olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Test usulida tekshirish keyingi paytlarda ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlarini tekshirish maqsadida keng qo‘llanilmoqda. Biroq tekshirishning bu metodi turli tanqidiy munozaralarga ham sabab bo‘lmoqda.

Ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini **texnika vositalari yordamida tekshirish** alohida olingan askarlarning va bo‘linmalarning tayyorgarligini tekshirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Tekshirish vaqtida turli trenajerlardan, kompyuter texnikasidan foydalanish bir tomondan vaqtni va moddiy resurslarni tejash imkonini bersa, boshqa tomondan esa nazariy bilimlar va

amaliy ko‘nikma va malakalardagi kamchiliklarni aniqlash va tuzatish uchun qulaylik yaratadi.

Tayanch so‘z va tushunchalar: Tekshirish, moddiy resurs, texnika, mantiq, fikr, amaliy faoliyat, so‘rov.

Nazorat uchun savollar:

1. Tekshirish maqsadi va turlarini tushuntirib bering.
2. Shaxsiy tarkib tayyorgarligini tekshirish metodlarini yoriting.

8-MODUL: TARBIYA NAZARIYASI VA AMALIYOTI

15-mavzu: Tarbiya nazariyasi va amaliyoti

Reja:

1. Tarbiya jarayonining metodologik asoslari.
2. Xavfsizlik, osoyishtalik va farovonlikning inson tarbiyasiga bogʻliqligi.
3. Insonning nodir betakrorligi va milliy gʻoya, milliy mafkuraning pedagogik asoslari.
4. Tarbiyada shaxs rivojlanishini amalga oshirishda ajdodlarimiz ilmiy merosining ahamiyati.

15.1. Tarbiya jarayonining metodologik asoslari

Tarixiy anʼana va tajribalardan maʼlumki, taʼlim-tarbiya doimo muayyan jamiyat va tuzum yuritgan siyosat, oʻz oldiga qoʻygan vazifa va maqsadlar asosiga qurilgan. Tarbiya - yosh avlodni muayyan maqsad yoʻlida har tomonlama oʻstirish, uning demokratik ongi va xulq-atvorini tarkib toptirish jarayonidir. Yosh avlodni tarbiyalash masalalari doimo mustaqil jamiyatimizning diqqat markazida turadi.

Har bir mustahkam fan oʻzining predmeti va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, “Pedagogika” ham fan sifatida shakllanib, oʻzining predmetiga ega boʻldi. “Pedagogika” ham fan sifatida tarbiya tizimini, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida hayotga bogʻlab boradi.

Shu sababli tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim, chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

Buyuk mutafakkir Avloniy taʼkidlaganidek, “*Tarbiya - biz uchun yo hayot, yo mamot; yo najot, yo halokat; yo saodat, yo falokat masalasidir*”. Undan maʼlum boʻladiki, inson tarbiyani hayotdan, tabiatidan va jamiyatdan oʻziga jalblab oladi. Inson hayotga keldi, hayot uchun kurashadi va uni hayot tarbiyalaydi.

XI asrda tojik adabiyotining asoschisi, buyuk alloma Abu Abdulloh Rudakiy shu haqda aytgan ekan:

***Hayotdan olmasang agarda taʼlim,
Senga oʻrgatolmas hech bir muallim.¹***

* A. Набиев - «Осори педагогии Абӯ Абдуллоҳ Рӯдаки». Хужанд-1999 й. 19-бет.

Tarbiya ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgan holda, o'ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta'lim va tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Ta'lim va tarbiyaning birligi, avvalo, ularning maqsadining umumiyligidan iborat. Bir butun pedagogik jarayonida ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi.

Buyuk sarkarda, ma'rifatparvar, olim Abu Nasr Farobiy "Fanlar tasnifi" degan asarida "Arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa"ni tarbiyaviy fan deb ataydi. Chunki ular tufayli yoshlar tarbiyalanadi. Bu fanlar yoshlarimizni yanada nazokatliroq qiladi. Tarbiyaviy deb ataluvchi fanlarni yaxshi egallamasdan turib "Tabiat" to'g'risidagi fanlarni egallash qiyin bo'ladi, "Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilan shakllana boradi, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi" degan edi.

Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi. Tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan mukammal inson shaxsini tarbiyalashdir. Harbiylar jamoasi va har bir askarlar ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda qo'mondonlar ish sharoitini hisobga olgan holda harbiylarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

Ta'limning asosiy vazifasi askarlarni bilimlar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiyada harbiylarni harbiy bilim yurtlarida, jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodning axloqiy malaka va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirishdan iboratdir.

O'zbek xalq pedagogi tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston" yoxud "Axloq" asarida inson kamolotida tarbiyaning rolini alohida ta'kidlab shunday degandi: "Janobi haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir

inson bo‘lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, nasihatni qulog‘iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo‘lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi, tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan “poklik” degan davoni ustidan berib, katta qilmog‘i lozimdir. Zeroki, amri-sharifi uzra xulqimizning tuzatmoqqa amr qilinganimiz, lekin xulqimiz yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadir. Axloqimiz binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta‘siri bordir.

Inson, asosan, ikki yo‘l bilan tarbiya topishi mumkin:

1. Birovlarning bevosita ta‘siri, ya‘ni o‘rgatishi, shuningdek, donolar fikrlari, o‘g‘itlari va asarlarini o‘qish orqali;
2. Inson o‘zining fikrlashi, odamlar xatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olish, eng qudratlisi - tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkin.

Bolaning o‘sishi va tarbiyasi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya berish deganda, ko‘p olim-u fuzalolar faqat bolaga tarbiya berishni tushunadilar. Bizningcha, bu tushunchaga boshqacha qarab, tarbiyaga faqat bolalar emas, balki kattalarni ham jalb qilishimiz kerak.

A.S.Makarenkoning tushunchasiga qaraganda, bolaning tarbiyasi tug‘ilgan kundan boshlanadi, balkim, har holda bu tushuncha Yevropa pedagogikasiga, qarashlariga, ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillariga taaluqlidir. Ammo bizning milliy pedagogikamizning qarashlariga qaraganda, bolaning tarbiyasini hayotga kelgan vaqtdan, ya‘ni onaning bag‘rida bo‘lgan paytda tarbiyalash kerak.

Harbiy pedagogika tarbiyaning maqsadi, mazmuni, shakl va usullari tarbiyalanuvchi shaxsning qaror topishi bilan mustahkam bog‘liq holda qarab chiqiladi.

Tarbiya davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy nuqtai nazari asta-sekin tarbiya topib boradi. U harbiylarning xulq-atvori hamda tevarak atrofidagi muhitning xilma-xil ta‘sirilariga uning munosabatlarini belgilaydi.

Harbiy qo‘mondon sharoitida shaxsiy tarkib bilan tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular

tarbiyani jamiyatning maqsadi hamda vazifalariga muvofiq ravishda tashkil etadilar. Unda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi soʻzlari aynan ishlatilmasa-da, ularning burch vazifalari aks etgan.

Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon boʻlib, harbiylarning shaxsiga muntazam va sistemali taʼsir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni oʻzaro bogʻliq boʻlgan ikki faoliyatni ofitser va askarlarning faoliyatini oʻz ichiga oladi.


Oʻz-oʻzini tarbiyalash shaxsda tanqidiy qarash paydo boʻlishi bilan boshlanadi. Ammo bunda tanqidiy mulohaza boshqalar xulqiga, oʻrtoqlarining faoliyatiga nisbatan emas, balki oʻz xulqi va xarakteriga, oʻz bilim va oʻzlashtirishiga nisbatan boʻlsagina oʻz-oʻzini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda harbiylarda oʻzini idora qilish, oʻz harakatlari va qilmishlarini nazorat qilish, tahlil qilish imkoniyati shakllanib boradi. Oʻz-oʻzini tarbiyalashda muvaffaqiyatga erishish uchun askar oʻzining xulqini toʻgʻri baholash qobiliyatini oʻstirish, oʻzi uchun axloqiy ideal tanlash istagini vujudga keltirish kerak.

Baʼzan oʻzini-oʻzi tarbiyalash ishga yomon sifatlarining (masalan: ikki yuzlamachilik, manmanlik, bagʻritoshlik, berahmlik) tarkib topishiga qaratilishi ham mumkin. Shuning uchun harbiylarning oʻz-oʻzini tarbiyalash boʻyicha qilayotgan oʻrinishlariga pedagogika fani rahbarlik qilishi kerak.

Shunday qilib, tarbiyalash, oʻz-oʻzini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonlari oʻzaro mustaqil bogʻlangan boʻlib, inson shaxsini tarkib toptirishning bir butun jarayonida doimo bir-biriga taʼsir oʻtkazadi.

Tarbiya jarayonida tarbiyachi oʻrnak boʻlgulik voqea va hodisalarni soʻzlab beradi, hikoya qiladi, tarbiya berilayotgan soha boʻyicha oʻgitlar, nasihatlar qiladi, yoxud ramziy, timsoliy til bilan gapiradi. Tarbiyachi aksariyat hollarda xalq ogʻzaki ijodi va badiiy ijod namunalaridan foydalaniladi.

TARBIYA TIZIMI



Tarbiya metodlari (yunoncha yo‘l, usul) – tarbiyalanuvchiga ta’sir ko‘rsatish yo‘llari degan ma’noni bildiradi. Tarbiyaning maqsad va mazmuniga qarab metodlar tanlanadi. Ular shaxsni to‘g‘ri shakllantirish va kamol toptirishga xizmat qiladi.

Tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari quyidagilardir:

1. Tarbiyada o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

Tarbiya jarayonida o‘qituvchi turli xil bir-biriga o‘xshamas temperament, xarakter, qobiliyatli talabalar bilan shug‘ullanadi. Ma’lum talabaga nisbatan qo‘llangan metodni boshqa bir talabaga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi. Shuning uchun tarbiya jarayonida individual yondashishdan foydalanish tavsiya qilinadi.

Individual yondashishda tarbiyachining o‘quvchilarga nisbatan g‘amxo‘rligi va nazokati, o‘z xatti-harakatlarining psixologik oqibatlarini oldindan ko‘ra olishi nazarda tutiladi. Individual yondashish o‘quvchi shaxsining xususiyatlariga va uning muayyan vaqtdagi psixik holatiga ko‘proq mos keladigan tarbiyaviy tadbirlarni tanlashni va amalga oshirishni talab qiladi. Individual yondashishda, birinchi navbatda, shaxsda biror xislatning tarkib topishiga ta’sir etadigan individual, maxsus sharoitlarni bilish va hisobga olish nazarda tutiladi.

2. Tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish;

Tarbiyalanuvchi guruhidagi talabalar jamoasi yuqori rivojlanganlik darajasiga etib, ularda axloq masalalarini o‘rganish ehtiyoji paydo bo‘lgandagina axloqiy tarbiya ishini amalga oshirish lozim. Ana shunda bu tadbirlar maksimal darajada samara beradi.

3. Aniq pedagogik sharoitni hisobga olish.

O‘qituvchi o‘z xatti-harakati talabalar tomonidan to‘g‘ri qabul qilinayotganiga, uning talablari talabalar tomonidan bajarilishiga ishonchi komil bo‘lsagina, ma’lum metodlarni qo‘llashi mumkin.

Ishontirish. Talabalar bilan muntazam ravishda o‘tkaziladigan suhbatlarda qo‘llaniladi. O‘qituvchi tomonidan aytiladigan har bir fikr asoslangan, isbotlangan bo‘lishi, talabada barcha narsani tushunishga va natijada to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Ishontirish deganda, faqat fikrga emas, balki o‘z kuchiga, shaxsiga ishonishni tarbiyalash ham nazarda tutiladi.

O'git-nasihat. Tarbiya jarayonida azaldan qo'llanib kelinadigan usul. Misol qilib, Kaykovusning **“Qobusnoma”** asarini olish mumkin.

Kaykovus o'zining hayotiy tajribalari bilan o'g'li Gilonshohni tarbiyalashni istaydi va bu pand-nasihatlarini o'g'li uchun eng qimmatbaho meros, deb ta'kidlaydi. U o'z asari **“Qobusnoma”**da o'g'li Gilonshohga murojaat qilib, umidim shuki, sen shu pandlarni qabul qilgaysan. Bu bilan men otalik vazifasini bajo keltirgan bo'lurman. Bilgilki, xalqning rasmi, odati shunday: yugurib-yelib, qidirib-axtarib dunyodan biror narsa hosil qiladi va bu topgan narsasini o'zining eng yaxshi ko'rgan kishisiga qoldirib ketadi. Men dunyoda mana shu so'zlarni hosil qildim, sen esa mening uchun eng qimmatbaholisan. Menga safar vaqti yaqinlashdi, dunyodan nima hosil kilgan bo'lsam, sening oldingga qo'ydim, toki o'zingga bino qo'ymaygaysan va o'zingga nomunosib ishlarni qilmaygaysan, degan pandlarni aytadi.

Maslahat berish: Bu usulni qo'llashda (ayniqsa, o'smirlik yoshida) buyruq ohangidan qochish lozim. Takror-takror aytilgan maslahatning foydasi oz bo'ladi. Ustoz G'aybulloh as-salom o'zining **“Tolibnoma”** asarida ushbu metoddan juda oqilona foydalanganini qayd qilmoqchimiz. Asarning har bir bobida yosh talabalarga ibratli maslahatlar beriladi: “Talaba, eng avvalo, tolibi ilm demakdir. Bas, talabaning el-yurtga sadoqati, fidoiyligi, vatanparvarligi ilm istashida, ilm izlashida, ilm topishida, bilim cho'qqilarini egallashida namoyon bo'ladi”. “Bugungi ishni ertaga qo'yma”, - degan maqol tolibi ilmlarga nisbatan ishlatiladigan bo'lsa: “Bugungi o'qishni ertaga qo'yma”. “Shu topshiriqni ertaga bajarsam-chi?”, “O'qib kelinglar, deyilgan kitobni keyinroq o'qisam-chi?”, “Xonamni boshqa kun yig'ishtiraman, osmon uzilib yerga tushmas”, “Chet tilini keyinroq o'rganarman, xudoning kuni ko'p-ku”. Bular – yalqov odamning falsafasi, o'zini-o'zi aldashi!. “Ertaga” – “bugun”ning zo'r dushmanidir; “ertaga” bizni bor-budumizdan ayiradi, - degan ekan bir donishmand. Umr – yetmish yildir, sakson yildir, to'qson yildir, ko'pdir, ozdir – oqar daryo ekan. Sharq donishmandlari o'rtacha umrni to'qson yil deb, shundan o'ttiz yilini – o'qib – o'rganishga, o'ttiz yilini sayohat qilish, dunyoni ko'rish, qolgan o'ttiz yilini ilmga, ijod qilishga sarflashni maslahat berishgan.

Ko'ndirish: Bu metod izohini berishda T.Sodiqova faoliyatidan misol keltirmoqchimiz.

O'tgan asrimizning 70-80-yillarida "Svetofor" nomli o'quvchilar o'yini bo'lar edi. O'yin bosqichma-bosqich maktabdan to respublika miqyosigacha o'tkazilar edi. Noma'lum sabablarga, asosan, T. Sodiqova rahbarlik qilayotgan 5-sinf o'quvchilari o'zlaridan 1 yil katta bo'lgan 6-sinf o'quvchilari bilan "Svetofor" o'yinida bellashishadi. Hay'at a'zolari 6-sinf o'quvchilari ukalariga mag'lub bo'lishsa uyat bo'lishini hisobga olib ularni g'olib, deb e'lon qilishadi. Bunday nohaqlik 5-sinf o'quvchilariga juda qattiq ta'sir qiladi. Oradan bir oz vaqt o'tib respublika miqyosidagi "Svetofor" o'yiniga maktabdan o'quvchilar taklif qilinadi. Maktab direktori T.Sodiqovani chaqirib, bolalarni tayyorlashni buyuradi. Xabarni eshitgan o'quvchilar "O'yinga g'olib chiqqan sinf borsin. Bizni mag'lub, deb e'lon qilishdi-ku", - deb qattiq e'tiroz bildirishadi. Albatta ular haq edi. Biroq maktab, qolaversa, viloyat obro'sini ko'tarish mas'uliyatini his etgan holda Tursunoy opa "Bolalarim, respublika miqyosida o'tkaziladigan o'yinga viloyat maktablari, sinflari ichidan bizni tanlashgani g'olibligimizni tan olishgani emasmi?", deb murojaat etishi talabalarni sergaklantirib, ko'nishga undaydi.

Tushuntirish: Talaba nojo'ya xatti-harakatining oqibati nimalarga olib kelishi mumkinligini asosli tushuntirib berish.

"Harom narsalardan saqlaning – odamlar ichida ibodatlirog'i bo'lasiz. Ollohning taqsim qilgan rizqiga rozi bo'ling – odamlarning boyrog'i bo'lasiz. Qo'shningizga yaxshilik qiling – tinch bo'lasiz. O'zingiz sevgan narsani odamlarga ham ravo ko'ring – salomat yurasiz. Ko'p kulmang. Ko'p kulish dilni o'ldiradi" (Hadisdan).

Xulq-atvorni shakllantirish usullari: Milliy o'yinlar.

O'yin tarbiya jarayonining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O'yin bolalarni fikr yuritishga, faoliyatiga tayyorlaydi. Milliy o'yinlar bolalarda milliy mafkura g'oyalarini shakllantirishda muhim o'rin kasb etadi.

Odatlantirish – har kungi oddiy o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish, ya'ni kun tartibini ma'lum rejim asosida tashkil qilish nazarda tutiladi. Odatlantirish shaxs irodasini mustahkamlash jarayonida asosiy o'rinni egallaydi.

O'rgatish metodi o'quvchilarning hayotini, mehnatini, dam olishlarini batafsil o'ylab chiqilgan holda tashkil etishni hamda dastlabki axloq normalarini tarkib toptirish maqsadida o'quvchilarni yurish-turish qoidalarini bajarishga o'rgatib borishni nazarda tutadi.

O'rgatish – xatti-harakatlarni tanlash, milliy qadriyatlarni bilish, etik normalarni o'zlashtirishni o'rgatish yordamida amalga oshiriladi.

Mashq qildirish – turli-tuman mashqlar tarbiyada muhim o'rin egallaydi. Bu mashqlarning o'zi bevosita o'rganish bilan bog'langandir. O'quv ishlarida mashqlardan o'quvchilarda malaka va ko'nikmalar tarkib toptirish uchun foydalaniladi. Ba'zi hollarda mashqlar tarbiyada biror bir narsani o'rgatish maqsadida ham qo'llaniladi.

Talab - o'qituvchi o'z talabi tarbiyalanuvchilar tomonidan bajarilishiga ko'zi yetsagina, bu metoddan foydalanishi mumkin.

Ibrat-namuna – “Qush uyasida ko'rganini qiladi”. Tarbiyalanuvchilarga doim yolg'on gapirish yomon ekanligini uqtiramiz-u, birov so'rab kelganda, ba'zan o'zimiz bo'la turib “meni yo'q deb aytgin”, deb yolg'on gapirishni o'rgatamiz. Talabalar aksari hollarda so'zlarimizga emas, balki xatti-harakatlarimizga e'tiborlarini qaratadilar.

Jazolash. Jamaa yoki tarbiyachi talabaning axloqidan, uning ishga munosabatidan, uning muomalasidan mamnun bo'lmasa talabaga o'z xulqini tuzatib olishda yordam ko'rsatish uchun foydalaniladi. Rag'batlantirish singari jazolash metodidan ham ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim. Chunki haddan tashqari ko'p jazolash talabada “ma'noli to'siq” hamda uni o'zini noqulay sezishga uyalishga majbur qiladi.

15.2.Xavfsizlik, osoyishtalik va farovonlikning inson tarbiyasiga bog'liqligi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash kafolatlari batafsil e'tirof etilgan. Siyosiy barqarorlik murakkab va ko'pqirrali tushunchadir. Bu tushuncha o'ziga turli siyosiy subyektlar-xalqlar, millatlar ijtimoiy harakatlarning o'zaro aloqalari tizimini anglatadi. Hozirgi demokratik huquqiy davlatini shakllantirish jarayonida jamiyatimizning osoyishtaligini, farovonligini ta'minlash demokratiyaning inson huquqlarini himoya etish, xavfsizlikni barqaror qilishda hamkorlikni mustahkamlash va qurolli Kuchlarni erkinlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Siyosiy xavfsizlikning, osoyishtalikning ichki siyosiy, mintaqaviy va xalqaro turlari mavjud. Ichki siyosiy xavfsizlikni ta'minlashda

jamiyatning siyosiy xavfsizlikni ta'minlashda jamiyatning siyosiy tizimi qismlari davlat uning organlari (siyosiy partiyalar; jamoat birlashmalari va ijtimoiy harakatlar) faoliyati asosiy omil hisoblanadi.

Ushbu holatdan kelib chiqib, shuni ta'kidlashimiz joizki, mudofaa etuvchi organlarning jamiyat farovonligini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati kattadir. Ular o'z kasbiy faoliyatlari bo'yicha ham siyosiy osoyishtalik va farovonlikni ta'minlashda ishtirok etadilar. Bu o'rinda ofitserlarning va harbiylarning siyosiy-ma'rifiy tarbiyasi bilan muntazam va maqsadli shug'ullanish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida mavjud oliy harbiy ta'lim muassasalarida yetarli tajriba to'plangan.

Harbiy ta'lim muassasalarida o'quv va tarbiya rejasiga binoan har bir bosqichda, har bir tinglovchiga vatanparvarlik, fidoiylik xislatlarini shakllantirish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Harbiylar har tongni O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi sadolari ostida qarshilaydilar, respublika ramzlariga, xalqiga o'z sadoqatlarini bildiradilar, guruh va bosqichlarda esa har haftalik siyosiy axborotlar, ma'rifat soatlari uyushtiriladi.

Yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ularning qalbiga Vatan xavfsizligi, xalq osoyishtaligi va farovonlik fazilatlarini chuqur joylashtirish har bir tarbiyachining burchi hisoblanadi.

Yoshlarni xavfsizlikni mudofaa qilish, osoyishtalik va farovonlikni barqaror qilish ruhida tarbiyalashda turli vositalardan foydalanish lozim. Ayniqsa, xalqimiz tarixi, Vatan uchun jon fidoligi, topqirligi, aql-zakovatini oqilona ishga solinishi, tahlikaviy jihatlardan mardonavor chiqa olishligi, dushman fikrini oldindan o'qiy olishligi va uni daf eta olishi, tuzoqqa tushmasligi, aksincha, dushmanga pand bera olishi, mashaqqatlarga chidamliligi kabi vositalarni tarbiyalash lozim.

Xavfsizlikning oldini olish va osoyishtalik, farovonlik ruhida tarbiyalashni yana biri – bu harbiy an'analarni davom ettirish bilan bog'liqdir. Toshkent shahri va viloyatlarida joylashgan bir nechta bolalar uylarida tarbiyalanuvchilar bilim yurtiga kelib, harbiy-texnika, qurol-yarog', kursantlarning yashash, o'qish va xizmat sharoitlari bilan yaqindan tanishdilar. Bunday aloqa ikki tomon uchun ham samaralidir.

Shuni aytish kerakki, Respublikamiz oliy harbiy bilim yurtlarida bo'lajak ofitserlarni tayyorlashda ularni Vatanga, tanlangan kasbiga muhabbat, xalq tinchligi va osoyishtaligini saqlash yo'lida kuch-g'ayratini, kerak bo'lsa jonini ham ayamasklik hissini shakllantirishi bilim yurti qo'mondonligi, professor-o'qituvchilar tarkibi komandirlar, faxriylar, ota-onalar hamkorligida harakat qilmoqdalar.

Bu sohada erishilgan muayyan yutuqlar bilim yurtini tugatib, xizmat burchlarini respublikamiz turli qismlarida xizmat etayotgan yoki ofitserlarning faoliyatida o'z aksini topmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hozirgi kunda ham sheryurak o'g'lonlarimizning qo'shgan hissalarini yo'q emas. Masalan: Surxondaryoning Sariosiyo, Uzun, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanlarida sodir bo'lgan voqealarda jangari bosqinchilarga qarshi kurashgan ona Vatanimizning mard o'g'lonlarining jasorati va shu yurt uchun shahid bo'lishlari Vatani tuyg'usi ham juda yuksak ekanligidan dalolat beradi. Bunday jasur jangchilarni vatanga sodiq askarlarni har tomonlama tarbiyalashda quyidagi masalalarga e'tibor berish zarur:

1. Har bir viloyatda maxsus harbiy maktablar tashkil etish.

2. Barcha oliy o'quv yurtlariga talabalikka faqat O'zbekiston Qurolli Kuchlarida xizmatni o'taganlaridan so'ng qabul qilish.

3. Barcha oliy o'quv yurtlarida harbiy kafedralar ishini yaxshi yo'lga qo'yish.

4. Boy tariximizdan bizga meros qolgan xalq og'zaki ijodiyoti "Avesto", "Islom", tasavvuf va umuminsoniy g'oyalarni o'zida mujassamlanshtirilgan turli baddiy filmlarni tanlov asosida yaratish.

Shu yo'llar orqali yoshlarimizning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Milliy qadriyatimiz va ajdodlarimizning jangovar an'alariga, shu bilan birga, eng zamonaviy talablar va andozalarga mos keladigan armiyamizni barpo etish haqida gapirar ekanmiz, o'tgan qisqa davr mobaynida ana shu maqsadga erishish yo'lga dastlabki qadamlar qo'yish lozim. Xalqimizning eng ishonchli tayanchi va suyanchi, faxri va iftixori bo'lishi milliy armiyamizni barpo etish davlatimiz, jamiyatimiz, Vatanimizning taqdiriga befarq qaramaydigan har qaysi insonning muqaddas burchiga aylanishi zarur.

Shu ma'noda, armiyamizda sog'lom ma'naviy muhitni yaratishda milliy istiqloq g'oyasini tarbiyalashda ta'lim-tarbiya ishlariga alohida e'tibor berish, harbiy-tayyorgarlik jarayonini ilg'or texnik va

texnologik vositalar, yangicha usul-uslublar asosida tashkil etish, harbiy xizmatchining intellektual mezonlari va yoʻnalishlarini takomillashtirish yoʻlida boshlangan ishlarimizni izchil davom ettirishimiz shart.

Yurtimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni saqlashga intilish uchun harbiylarning mustaqillik sharoitlarida demokratiyaning sharqona anʼanalari rivojlanishini tushunish, ularda jamoatchilik fikrini hurmat qilish, uzoqni oʻylab ish tutish, ehtiros va hissiyotlarga berilmaslik, har qanday ogʻir vaziyatda oʻzini tuta olish madaniyatini shakllantirishga katta eʼtibor berish zarur.

Tinchlik, ahillik, osoyishtalik barqaror boʻlgan joydagina taraqqiyot boʻlishi, inson oʻz orzu-umidlariga yetishi mumkinligini yoshlar anglashi vatanparvarlik eʼtiqodining burch, masʼuliyat darajasiga koʻtarilishiga olib keladi.

Bizga maʼlumki, milliy istiqlol mafkurasining asosiy gʻoyalaridan biri – bu yurt tinchligidir. Bu bejiz emas, negaki asrlar davomida bizning ajdodlarimiz bashariyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida, eng avvalo, tinchlik-totuvlikka intilib kelgan, zero, yurt tinchligi – barqaror taraqqiyot garovidir.

15.3. Insonning nodir betakrorligi va milliy gʻoya, milliy mafkuraning pedagogik asoslari

Gʻoya – insonlarning ezgu-niyatlar fikri asosidagi amalga oshirilayotgan jarayonlar, ishlar, istiqlol rejalari, tamoyillaridan iborat. Gʻoya bu shaxsni madaniyatini aks etuvchi asosiy omildir. Gʻoya deganda, biz shaxsning maʼnaviyatini tushunishimiz mumkin.

Maʼnaviyat – arabcha “*ana*” soʻzidan olingan boʻlib, ruh, aql, idrok degan maʼnoni bildiradi. Maʼnaviyat kishilarning yigʻindisidir. Maʼnaviyat ona suti orqali ajdodlar oʻgiti va ota namunasi orqali shakllanadi va rivojlanadi.

Maʼnaviyatning ikkita tarkibiy qismi mavjud:

- *maʼrifat*;

- *madaniyat*.

Maʼrifat “*arafa*” soʻzidan olingan boʻlib, ilm olish, tanish-bilish maʼnolarini anglatadi. Maʼrifatni keng maʼnoda “maorif” sifatida tushunish mumkin.

Madaniyat arabcha “*madina*” soʻzidan olingan boʻlib, “*shahar*” soʻzini ifodalaydi. Madaniyat kishilik taraqqiyoti jarayonda

yaratiladigan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisidan iborat. Uning nazariy jihatdan 2 ta turi: *moddiy* va *ma'naviy madaniyat* mavjud.

Moddiy – bino, uy-joy, san'at asarlari kiradi.

Milliy g'oya-chuqur ilmiy asoslarga ega. U dunyoviy diniy fanlar va hayot, jamiyat, tabiatidan o'ziga moslashtirib oladi.

Milliy g'oya bu ma'naviyatimizni qadriyatlarimizga munosabatlarini qandayligini shakllantiradi. Ma'naviy qadriyatlarimizni belgilashda faqat ilmiy merosni o'rganish emas, balki betakror xazinamizning ilmiy, amaliy tamoyillarini yangi davrga xizmat qiladigan aqidalarni ochish va ularni hayotda tadbiq qilishdir.

Qisqacha qilib aytganda, g'oya – inson tafakkuri mahsuli, milliy g'oya esa, millat tafakkurining mahsulidir.

Milliy g'oya – inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir. Har qanday tushuncha, fikr va qarash ham milliy g'oya bo'la olmaydi. Chunki shaxsiy fikr o'ziga xos bir qarashdir, ijtimoiy fikr esa, voqelikka nisbatan o'zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. G'oya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug'ilganda esa butun bir davr tarixiga aylantiradi.

Muayyan bir g'oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmuniga ega bo'lgani, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi.

Masalan, o'rta asrlarda jaholat va inkvizitsiya shaxsning orzu-intilishlari, erkinligi va tashabbuskorligi yo'lida to'siq bo'lib turgan paytda polyak olimi Nikolo Kopernik Erning quyosh atrofida aylanishiga doir geliosentrizm nazariyasini olg'a surdi. Bu g'oya ham, avvalo, bir jasoratli shaxs qalbidagi intilishlar ifodasi sifatida paydo bo'lgan, keyinchalik esa butun dunyoda e'tirof etilib, ilmiy tafakkurning tarkibiy qismiga aylangan.

Milliy mafkura – jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmuni, ularning intilishi, orzu-umidlarini o'zida mujassamlashtiradi. Har qanday inson murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy, ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog'lom, ezgu-maqсадlar sari birlashtirib, o'zining muddaolariga erishishi

uchun ma'naviy, ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan mafkura jamiyat taraqqiyotida quyidagi vaziflarni bajargan:

Birinchidan - davlat rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi vazifalar kiradi;

Ikkinchidan - bir davlat bir mamlakat miqyosida barcha fuqarolari, turli millat, elat, sinflar va ijtimoiy guruhlarni bir g'oya va maqsad sari birlashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan - davlat olib boriladigan ichki va tashqi siyosat g'oyalarini o'zida mujassamlashtirib, uni fuqarolarga targ'ib qiladi;

To'rtinchidan - xalqning orzu-umidlarini o'zida ifoda etadigan jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni hal etish uchun butun jamiyat va fuqarolarni harakatga keltiradi».

Qayerdaki, mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi tayin. Jamiyat a'zolari mustahkam va ravshan mafkurasi, g'oyasi, maqsadi bo'lmasa inqirozga yuz tutadi.

Insoniyat tarixida davlatlar va jamiyatlar paydo bo'lib, dini, ularga egizak holda mafkuraviy qarashlar ham shakllangan. Chunki mafkurasiz davlat yoki jamiyat bamisoli hech bir maqsad, rejasiz, tavakkal qilib yo'lga chiqqan odamga o'xshaydi.

Vatanizmning yorqin kelajagi bizning milliy g'oyamiz, milliy mustaqillik mafkuramizning negizini tashkil qiladi. Muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamning millat yoki davlatning ehtiyojlarini maqsad va intilishlarini, ijtimoiy, ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Insoniyat tarixida o'z talab ehtiyojlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirish istagi talonchilik va bosqinlik, buyuk davlatchilik va tajovuzkor millatchilik fashizm va ekstremizm kabi mafkuralarni yuzaga keltirgan.

Bunday g'oyalar xalqlar boshiga ko'p kulfat va musibatlar solgan. Mafkuraning jamiyat, millat, shaxs va fuqaro hayotidagi roli katta. Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamizda umuman mafkuraga uning mohiyatini tushunganlar ham, tushunmaganlar ham qarshi kurash boshlab yuborgan edilar, ya'ni hech qanday mafkuraga ega bo'lmagan, mafkuraviy bo'shliqqa asoslangan, o'z g'oyasiga ega bo'lmagan jamiyat qurish kabi qarashlarni ilgari sura boshladilar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi chuqur anglashi, mag'ziga yetib olishi kerak, negaki, jamiyatning jamiyat a'zolarining

mustahkam va ravshan mafkurasi, g'oyasi, maqsadi bo'lmasa, inqirozga yuz tutadi.

15.4. Tarbiyada shaxs rivojlanishini amalga oshirishda ajdodlarimiz ilmiy merosining ahamiyati

Insoniyat o'zining tarixi taraqqiyoti davrida ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun ma'rifiy jarayonda obyektiv qonuniyatlarni aniqlaydi va shu asosda ta'lim-tarbiya uslublarini yaratadi.

Pedagogika va psixologiya fani rivojlanishini biologik va ijtimoiy xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butun narsa deb hisoblaydi. Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishi har tomonlama kamol topishining samarali bo'lishiga erishish maqsadida ajdodlarimiz ilmiy meroslaridan, pedagogika fani rivojlanishining qonuniyatlarini unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qiladi. Ma'lumki, odam shaxs sifatida dunyoga kelmaydi, balki uning shakllanishi, avvalo, hayot sharoitlariga bog'liqdir. Shaxs hayot davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi, natijada shaxsga aylanadi. Shu sababli shaxsni ma'lum ijtimoiy tizimning mahsuli deb tushunishimiz lozim.

Jamiyat a'zolarining madaniy-ma'rifiy, axloqiy kamoloti, ta'lim-tarbiya ishlarining oqilona yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq. Agar inson to'g'ri tarbiya topmasa uning faoliyati jamiyat uchun zararli bo'ladi. Demak, axloq-ma'naviyat o'zagi. "Avesto"da inson o'z mehnati tufayli barcha yomonliklardan, yozuvliklardan qutilishi mumkin, degan ulug' g'oya yotadi. Unda axloqiylikning asosi – saxovatlilik, deb ko'rsatilgan.

Shaxsning rivojlanish jarayoni bir qancha omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Bular irsiyat, ya'ni biologik omil hamda muhit, ta'lim-tarbiya, shaxs faoliyati shaxsni shakllantirishning asosiy omillari deb tushuniladi.

Shaxsning, ayniqsa, harbiylarning jismoniy rivojlanishi, sog'lig'i biologik omilga bog'liqdir. Biologiyaning asosiy tushunchasi bilan irsiyatning, ya'ni yoshlarning nasl-nasabining roliga omillarimiz alohida e'tibor bermoqda. Bola tug'ilgandan so'ng unda shaxs bo'lib shakllanishi, yetuk inson bo'lib voyaga yetishi imkoniyati mavjud bo'ladi. Ammo o'tmish ajdodlarimiz aqidalariga ko'ra bola tarbiyasi onani qornida rivojlana boshlanadi va tashqi holatlar, ijtimoiy

vaziyatlarga qarab o‘sib boradi. Shunday ekan, sog‘lom ota-onadan sog‘lom farzand dunyoga kelishini unutmashimiz lozim. «Sog‘lom avlod yili» deb ataganlari bu sog‘lom naslni nazarda tutganlar. Sog‘lom avlod tarbiyasi oson ish emas, u har bir inson, har bir oila, bugun jamiyatdan jiddiy e‘tibor va uzluksiz mehnat talab qiladi. Agar ota-bobolarimizning turmush tarziga, tafakkuriga nazar solsak, ular nasl-nasab, yetti pushtining tozaligiga, avlodning solig‘iga juda katta e‘tibor berganini ko‘ramiz. «Sog‘lom bolaning tug‘ilishi, eng avvalo, onaning sog‘lig‘iga bog‘liq», deb ta’kidlaydi yurtboshimiz.

Shaxs ijtimoiy hayotning mahsuli ekan, u albatta, bolani urab olgan muhit ta’sirida rivojlanadi. Shaxsning hayoti faoliyati davomida muhit unga yo ijobiy, yo salbiy ta’sir ko‘rsatadi, rivojlanish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi yoki yo‘q qilishi mumkin.

Muhit – bu shaxsga ta’sir etuvchi tashqi voqea va hodisalar kompleksidir. Bular: tabiiy muhit (geografik, ekologik), ijtimoiy muhit (shaxs yashayotgan jamiyat), oila muhiti va boshqalar kiradi. Bular orasida ijtimoiy muhitning, ya’ni shaxs yashayotgan jamiyatning inson kamoloti uchun yaratilgan imkoniyatlari muhim rol o‘ynaydi.

Barkamol avlod birdaniga paydo bo‘lmaydi. U oiladan boshlanadi. Oiladagi iqlim farzandlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Oila bilan birga xalq ta’limi tizimida ham tarbiya mazmunini yangilash, ya’ni ijtimoiy muhit sharoitida rivojlantirish zarur.

O‘zbekiston taraqqiyotining muhim sharti xalqning boy ilmiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirishdir.

Sharq va O‘rta Osiyo mutafakkirlari va Islom ta’limotlarida shaxsni tarbiyasiga, odob axloqi haqida ko‘p qimmatli masalihatlar, fikrlar beriladi. Ularning g‘oyalarida odamiylik, rahm-shafqat, muruvvat, mehr-oqibat, diyonat kabi fazilatlar uyg‘unlashib kelgan.

Sharqona an’analarimizga ko‘ra, harbiylar jamoasida kattalarga salom berish, bir-biriga samimiy munosabatda bo‘lish, e’zozlash, mehribonlik qilish, tenglikka, birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka va yaxshilikka da’vat etgan. Insonparvarlikni targ‘ib etib razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma’naviy poklik va kamolotga, mehnat qilishga hamda yer yuzini obod va go‘zal qilishga undaydi.

Qur'onda iymonning o'ziga xos mezoni sanalgan saxovat, jasorat, sabr-qanoat, to'g'rilik, vafodorlik va sadoqatlikka katta e'tibor berilgan. Bu oliy darajadagi insoniy xislatlar bo'lib, pok qalbli kishilargina bunga erisha oladi, deyiladi.

Imom-al-Buxoriyning tarbiya haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o'lim keltiruvchi fojia sifatida qoralanadi. U odamlarning to'g'ri so'zli bo'lishga, va'daga vafo qilishga da'vat etib, munofiq kishining uchta belgisi borligini ko'rsatadi, ular:

1. *Yolg'on gapirish;*
2. *Va'daga vafo qilmaslik;*
3. *Omonatga xiyonat qilishdan iborat.*

U insonning kuch-qudrati jismonan pahlavonligida emas, balki jahll chiqqanda o'zini tiya olishda, deb biladi.

Imom-al Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" asarini umuminsoniy axloqiy qadriyatlar durdonasi desak, hech mubolig'a qilmagan bo'lamiz.

Alloma Abu Iso at-Termiziy yoshlik chog'ida Hadis mutolaasiga kirishib, yoshlarni rivojlantirishiga doir ko'p g'oyalar tushirilgan. U "Sunan" kitobida keltirilgan Hadislarda uning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari ko'p uchraydi.

Chunonchi: "Xayrli va yaxshi ishlar qilishga da'vat etishning va zulmdan qaytarishing – sening sadaqang", "Adashgan kishilarga to'g'ri yo'l ko'rsatishing ham-sadaqa", "Hatto kambag'allarga xushmuomalada bo'lishing ham-sening sadaqang", "Yerda xalaqit berib yotgan biror tosh, tikanak yoki suyakni bir chekkaga olib qo'yishing, o'z paqiringdan boshqalarning idishiga suv olib berishing ham – sadaqa" hisoblanadi deb da'vat etgan.

Imom at-Termiziy hadislar orasida yoshlarni axloq-odob, marhumlarga hurmat, sabr-toqatli bo'lishga taklif etgan.

Ajdodlarimiz yaratgan asarlar tarkibida tarbiyaning nazariyasini ifodalaganlar. Uning sababi o'sha davrda Sharq tanlanish arafasida inson muammosi ma'naviyat sohasidagi asosiy masala bo'lgan. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta e'tibor berilgan.

Ma'rifiy risolalarida, asosan, shaxsning rivojlanishini nazarga olib tarbiyaning nazariy va amaliy masalalari tahlil etilgan. Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Davvoniy, Koshifiy, Kaykovus, Sa'diy, Jomiy, Navoiylarning "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Axloq haqida risola", "Ishq

risolasi”, “Qutadg‘u bilik”, “Axloqi Nosiriy”, “Axloqi Jaloliy”, “Axloqi Muhsiniy”, “Hibbat-ul-haqoyiq”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Bo‘ston”, “Mahbub-ul-qulub” kaba ta‘lim va tarbiyaga oid asarlari inson shaxsini, ma‘naviyatini shakllantirish va rivojlantirish muomalalariga qaratilgan va katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Tayanch so‘zlar: Vatan, millat, qahramonlik, Vatanni asrash, qo‘riqlash, g‘alaba, millatchilik, xotira, tinchlik va farovonlik, oriyat, faxr, iftixor, ma‘rifat va madaniyat, ajdodlar, ilmiy meroslar.

Nazorat uchun savollar:

1. Ajdodlarimizning asosiy milliy meroslari qanday shakllanadi?
2. Shaxs rivoji deganda nimani tushunasiz?

16-mavzu: Tarbiyaning tamoyillari

Reja:

1. Tarbiyaning ilmiyligi va ongliligi. Tarbiyada ishontirish.
2. Tarbiyaning hayot va harbiy faoliyat bilan bog‘liqligi. Tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakteri.
3. Tarbiyada vijdon, iroda, qat‘iyatlik va ishonch. Tarbiyada intizom, axloq va burch uyg‘unligi.
4. Tarbiyaning yakka va uzluksizligi xarakteri.

16.1. Tarbiyaning ilmiyligi va ongliligi. Tarbiyada ishontirish

Tarbiya tamoyillari deganda, tarbiya jarayonining qonuniyatlaridan kelib chiqadigan, tarbiya jarayonining mazmuniga, metodlariga va uni tashkil etishga quyiladigan asosiy talablarni ifodalovchi, boshlang‘ich (asos bo‘lgan) qoidalarni tushuniladi. Ular tarbiya jarayonining xususiyatlarini aks ettiradi. Tarbiya tamoyillariga pedagoglar tarbiyaviy vazifalarni hal etishda amal qiladilar. Tarbiyaning tamoyillari deb, yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va talablarni milliy qadriyat ruhida tarbiyalashning mazmuni, mohiyati va yo‘nalishiga qo‘yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g‘oyalar va qoidalar yig‘indisini aytiladi.

Tarbiya tamoyillariga pedagoglar tarbiyaviy vazifalarni hal etishda amal qiladilar. Tarbiya tamoyillariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

Birinchi talab-majburiylik (ya'ni, tarbiya tamoyillari shunchaki maslahat yoki tavsiya bo'lmagan, ular muqarrar ravishda pedagogik amaliyotga tadbiiq etilishini talab qiladi);

Ikkinchi talab-komplekslilik (ya'ni, tarbiya tamoyillari tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida bir vaqtning o'zida, frontal holda qo'llaniladi, ularning ketma-ket, alohida qo'llanishlariga yo'l qo'ymaslik kerak);

Uchinchi talab-baravar qimmatlilik (ya'ni, tarbiya tamoyillari umumiy va asosiy qoidalar sifatida eng qimmatli, baravar bo'lib, ularning orasida asosiy va ikkinchi darajali prinsiplar bo'lmaydi).

Tarbiya tamoyillari "*tayyor retseptlar*" "*universal qoidalar*" emas, pedagoglar ulardan foydalanganlarida avtomatik tarzda yuqori natijalarni birdangina olmaydilar.

Tarbiya tamoyillarining talablari umumiy, ammo, har bir ofitser o'z bilimi, tajribasi, mahoratiga tayanib, ulardan ijodiy foydalaniladi.

Har bir ishning o'ziga xos bir qator muhim qonun-qoidalari mavjudki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Jumladan:

- tarbiyaning ilmiyligi;
- tarbiyaning ongliligi;
- tarbiyada ishontirish;
- tarbiyaning hayot va harbiy faoliyat bilan bog'liqligi;
- tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakteri;
- tarbiyada vijdon, iroda, qat'iylik va ishonch;
- tarbiyada intizom, axloq va burch uyg'unligi;
- tarbiyaning yakka va umumiy xarakteri;
- jamoada ijobiy namuna;
- jamoada va jamoa orqali tarbiya.

Tarbiyaning ilmiyligi

Mustaqil O'zbekistonimizda ayni kunlarda ta'lim-tarbiya jarayonini hozirgi davr talabiga javob berishga va ularni yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda, xususan, tarbiyaning ilmiy sifatida, demokratik nuqtai nazarda tashkil qilishda katta ahamiyat bermoqda. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» sharaflil nomda yozgan Prezidentimizni asari shahodat beradiki, yoshlarimizni dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish uchun chet ellarda ta'lim-tarbiya olish va ularning ta'lim tizimimizda

ilmiy nuqtai nazarda ommalashtirish bu harbiylarni solim fikr va yuqori darajali ilmlarga tayyor qilishdan iborat.

Qadimgi Yunonistonning mashhur faylasuflari Suqrot, Aflotun, Arastu, Demokrit va boshqalar o'z g'oyalariga ham jiddiy e'tibor berilganlar.

Tarbiya – bu harbiylar hayotida hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot-dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni, ofitserlar shaxsiga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi va o'zining qoidalarini alohida belgilaydi.

Tarbiyada izchillik juda muhimdir. Tarbiyachi avloddan tarbiyalanuvchilardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zining bu talabini unutib qo'ysa yoki o'zi bu talabga xilof ish tutsa, bu hol tarbiyaga juda yomon ta'sir qiladi.

Qurolli Kuchlarda harbiylar o'z lafziga sobit bo'lmog'i kerak. Masalan: ofitser ertaga harbiy kiyimlaringizni tozalashni va tartib tarzini ko'raman, deb va'da berdingizmi, albatta, bajarishi shart. Yoki agar qo'lostidagilar bilan biron mavzuda bahs-munozara o'tkazmoqchi bo'lsa, bu masala ilmiy nuqtai nazarda asoslangan bo'lishi kerak. Ofitser biror tarbiyaviy tadbir uyushtirishni harbiylarga va'da qilib, sal orada va'dasini esdan chiqarib qo'ysa, harbiylar bunday ofitserga ishonmay qo'yadilar. Har bir ofitserni so'zi bilan ishi bir bo'lishi kerak.

Harbiylarda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilish, muammoni avvalicha davom ettirish va bir xil talab qo'yish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Afsuski, amalda ba'zan harbiy qo'mondonning talablarini qo'llab-quvvatlaydigan emas, balki harbiylarga teskari ta'sir ko'rsatadi. Harbiylar orasida ham hamma vaqt bir xilligi ta'minlanavermaydi. Tarbiya uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, unda harbiy qo'mondon va yashash muhit, jamoatchilik, ta'lim muassasalari va boshqalar ta'sir yetkazadi. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya etish, bu tarbiya zanjirini buzmaslik, harbiylarni tarbiyalanganlik darajasini tarbiya usullari va tamoyillarini o'z vaqtida aniqlab olish juda muhimdir.

Tarbiyaning ilmiy nuqtai nazardan qaraganda u bir chinor daraxtidir. Ammo undan farqi shundaki, agar chinor shoxasini kessangiz qaytadan ko'karishi mumkin, ammo tarbiya tamoyilini bir sohasini olib tashsangiz tarbiya o'z mohiyatini yo'qotadi. Shu nuqtai nazardan tarbiyaga ilmiylik asosda tashkiliy ishlar olib borish kerak.

Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarini chuqur o'rganish talab qiladiki, tarbiya jarayonining muayyan rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi sabab va oqibat o'rtasidagi muhim, zarur ichki aloqalarning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiyaning ilmiyligi bu bevosita tarbiyaga ilmiy tomondan yondashilgan holda, tarbiyani qonuniyatlarini ilmiy jihatdan ochib berish, tarbiyani yo'naltirishning yangi usullarini takomillashtirishni ham talab qiladi.

Ilmiy-axloqiy normalarni egallash jarayonida harbiylarda yoshlarda aqliy, axloqiy tarbiya, dunyoqarash, e'tiqod tarkib topadi, ma'naviy saviyasi yanada o'sib rivojlanadi.

Tarbiyaning bu qoidasi harbiylar hayotida tarbiyaning nechog'lik o'rni muhimligini, davrlar taraqqiyotida tarbiya o'z ilmiyligini yanada boyitish shu yoshlar qo'lida ekanligini yana bir bor ko'rsatib beradi.

Tarbiyaning ilmiyligi hozirgi kunda ta'lim kabi eng dolzarb masaladir. Chunki, tarbiyani ilmiyligini yo'qotsa yoshlar tarbiyasi va tarbiya bevosita o'z izidan chiqib ketadi. Lekin Sharq mutafakkirlari tarbiyaning ilmiyligida boy ma'naviy-madaniy meroslarga egadirlar. Bular hozirgi tarbiya jarayoniga bevosita uyg'unlashtirilib olib borilmoqda.

Harbiy vaziyatlarda ilmiylik asosida yo'l tuta olishni tarbiyalash Har bir harbiy xizmatchi o'z g'oyasiga bog'liq muammolarni to'g'ri hal qilmog'i, yutuqlarni esa keyingi xatolarni sodir etmasligi shart deb bilish kerak. Harbiy vaziyatlar, ya'ni jangovar holatda tinchlik vaqtida eng oqil va to'g'ri yo'lni tanlamog'i darkor. Xizmat faoliyatini oladigan bo'lsak quyidagi holatlarda:

Xizmatini yoki harbiy qismini o'zboshimchalik bilan tashlab ketmaslik;

O'z Vatani himoyasi va uning taraqqiyoti oldida o'z burchini unutmazlik;

Xizmatini namunali bajarish va xizmatdan bo'yin tovlamaslik;

Xizmatda o'rnatilgan tartib-qoidalarni buzmaslik ularga qat'iy va aniq rioya qilish;

O'zining qurolli Kuchlarini jangchisi burchini teran anglash;

Har doim o'zini jismoniy va aqliy chiniqtirib borishi zarur;

Jangovar vaziyatlarda esa u quyidagilarni hisobga olgan holda to'g'ri va eng aniq yo'lini tanlanmog'i lozim;

Jangda o'z Vatanini kichik bir bo'lagi bo'lishi lozim, har bir kishining hayotini yanada shirinroq va baxtliroq qilish uchun bir tomchi qonini ham ayamalik;

Jangda nafaqat o'zini, balki o'z do'stini himoya qilishi va ularni har qanday sharoitlarda tashlab ketmaslik, o'z do'stiga sodiqligini shunday vaziyatlarda ko'rsatish uning insoniy jangchilik burchidir.

Tarbiyaning ongliligi

Tarbiyaning mazmuni, shakl va tamoyillari harbiylarning saviyasiga qarab turli guruhlarda har xil bo'ladi. Tarbiyaning tamoyillariga qaraganda tarbiyaning ongliyligi harbiylarning bilim, ko'nikma va malakaga qay darajagacha erishishni har tomonlama ijtimoiy-siyosiy jihatlardan aniqlaydigan tamoyildir.

Ong va xulq-atvorning birligi: ong faoliyatda vujudga keladi, shakllanadi va namoyon bo'ladi. Tushunchalar, mulohazalar, baholashlar, e'tiqodlarning majmui sifatida ong ofitserning xulq-atvori va xatti-harakatlarini yo'naltiradi va bir vaqtning o'zida o'zi ham xulq-atvor va faoliyatning ta'siri ostida shakllanadi. Tarbiyada ong va faoliyat birligiga erishish harbiylarning faoliyati va muomalasi asosida ularni hayotini tashkil qilish, amaldagi o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish tufayli vujudga keladi.

Har bir ofitserda shaxsni ko'ra bilish kerak. Ofitserning qo'l ostidagilari qanday bo'lmasin unga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi, uning barcha xatti-harakatlariga sabr-toqatli bo'lmog'i lozim. Ammo hurmatni o'z me'yori bo'lib, unga oqilona, ongliy ravishda talab qo'yish va munosabatda bo'lishi lozim.

Harbiylarga oqilona talab qo'yish uning maqsadga muvofiqligi, tarbiya jarayonining ehtiyojlaridan kelib chiqishi, tarbiya vazifalariga mosligi, harbiylar tomonidan zaruriyat sifatida qabul qilinishini anglatadi.

Ayrim harbiy xizmatchilar o'zlarining ongliyligi, saranjom-sarishtaliligi, intizomlilik, fahm-farosati, aktivligi bilan ofitser va

jamoaning ishonchi va hurmatiga sazovor bo'ladilar. Ayrimlari esa, intizomsizligi va be'mani qiliqlari bilan tezda «tanilib» qoladilar.

Harbiy bilim yurtlarida ofitserlar qo'l ostidagilarni orzu-havas bilan bilim yurtga kelishini nazarga olib, bu intilishlarini mustahkamlashi, ishini va xulqini baholashda avval yaxshi, ijobiy tomonlarini ta'kidlab, keyin kamchiliklarini yo'qotish yo'lini ko'rsatishi lozim.

Harbiylarni tarbiyalashda aql bilan ish ko'radigan mohir ofitserlar o'z tarbiyalaridagi askarlarning shaxsiy fazilatlarini juda yaxshi biladilar va bundan keyin uning xulqida nimalarga erishmoqchi ekanliklarini aniq tasavvur etadilar. Tarbiyada ana shu maqsadni amalga ilmiy nuqtai nazardan oshirish uchun bola xulqidagi ijobiy sifatlarga suyanib ish tutadilar. Natijada askar o'z vazifalarini yanada yaxshi bajarishga, ofitserlarning hurmatini qozonishga, ishonchini oqlashga intiladi.

Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka, bilish va odatlar axloq normalariga rioya qilishini yengillashtiradi. Demak, tarbiyachi harbiylar shaxsining eng tez rivojlanadigan davri-kursantlik yillarida uning ongiga turli-tuman faoliyat (o'qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin, sport) yordami bilan maxsus ta'sir etishi muhimdir. Aks holda xulq normalari, ijtimoiy axloq talablari yaxshi tushunilmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda barqaror, tasodifiy ta'sirga beriluvchan bo'lib qolishi mumkin.

Ofitserni o'z fikriga ega bo'lishi uchun mustaqil fikrlash g'oyalarni ular ongiga singdirishimiz lozim. Shundagina kelajak ofitser har tomonlama yetuk, barkamol inson bo'lib yetishadi. Harbiylarni tarbiyalashda axloqiy ong va axloqiy tuyg'ularni shakllantirish emas, ularni ma'naviy munosabatlarda namoyon bo'ladigan faoliyatining har xil turlariga jalb etishi lozim.

Axloqiy ongni tarbiyalash – harbiylarni Vatanga, jamiyat va mehnatga, o'ziga va ofitser munosabatini anglab olishga qaratilgan axloqiy tuyg'ularni tarbiyalash hisoblanadi.

Yuqoridagi sifatlar ofitserlar ma'naviyatini tashkil etadi. Harbiylar ma'naviyati ongli ravishda hayotga mujassamlashtirilgan bo'lishi lozim.

Ong osti har bir ofitserning taqdiri, yo'li, oliy maqsadi va ezgu niyatlar asosidagi hayot modeli hisoblanadi. Ong osti va ong uyg'unligi vijdon yordamida amalga oshiriladi.

Ong osti - dunyoviy va hayotiy haqiqat asosidagi ofitser shaxsiy faoliyatining ma'naviy-ruhiy yo'li.

Ongli faoliyat – jamiyat hayotini bosh mezonidir. Bizga meros bo'lib qolgan ta'lim-tarbiya tizimining ma'lum bir qismi bilan bir qatorda, uni eng nomaqbul tomoni shundan iborat ediki, harbiylarni o'quv jarayonida mustaqil va erkin fikrlashga yo'l qo'ymasliklari qaysi o'quv yurtini bitiruvchilarini bilimi emas, balki ularni avvalgi soxta g'oyalarini hisobga olish edi.

Tarbiyada ishontirish

Tarbiya, ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgan hamda o'ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Bir butun pedagogik jarayonida ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, bir-biriga ishontirish, unga tayyorlanishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifasi ko'p qirralidir. Tarbiya qiluvchilar tabib kabi, ularni aytgan va qilmishlari boshqalar uchun ishonarli voqeadir.

Tarbiyada ishontirish tamoyili bir maxsus maqsad va maromga yo'naltirilgan bo'lib, tarbiyaning asosiy maqsadiga qaratilgan bo'lishi lozim. Tarbiyada ishontirish o'ziga xos bir ma'noga ega bo'lgan taqdirda hayotidagi barcha ishlarni amalga oshirilishiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e'lon qilingach, o'zining intellektual boyliklarini tiklashga kirishdi. Huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'liga o'tdi. O'tkazilayotgan demokratik islohotlarni amalga oshirish uchun O'zbekistonga jamiyatda barqarorlik, ishonch va ishonchli davlat xavfsizligi dardkor.


Keyingi paytlarda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jangovar shayligi sifat ko'rsatkichlari oshishida, jangovar potensial mustahamlanishida harbiy jamoaning roli nisbatan oshib bormoqda.

Ayniqsa, prinsipial xarakterdagi masalalarda, deylik, harbiy xizmatchilar o'rtasida o'zaro ishontirish qoidalari buzilganda o'ta kechirimlikka, qo'rqqoqliklarga yo'l qo'yish, murosasozlik qilishga aslo chidab bo'lmaydi. Har bir harbiy xizmatchi Nizomga zid o'zaro ishontirish asosida sodir etgan jinoyati uchun javob beradi. Hamma, har kim harbiy xizmatchilar o'rtasidagi qoidalarni buzuvchilarga qarshi ayovsiz kurash olib borishlari kerak. Kim qonunbuzarlik yo'liga o'tgan, harbiy intizomda yuksak jangovar shaylikning muhim asoslarini ko'rishini istamaslik yo'liga o'tgan bo'lsa ularga nisbatan qonun kuchini ishga solish, shu bilan birga, harbiy jamoadagi askarlar,

serjantlar, ofitserlar bilan yakka tartibda olib boriladigan kundalik tarbiyaviy ishlarini esdan chiqarmaslik zarur.

Ofitser haqiqatan ham, har tomonlama bilimli, jismonan baquvvat, axloqiy-ruhiy jihatdan pok va yetuk bo‘lishi lozim. Shunga qarab unga ishonib harbiylarni tarbiyasini topshiriladi. O‘sha har bir yosh askarni yuborayotgan ota-onalar ishonib mana shu ofitserni qo‘liga topshiradi, desak ham mubolag‘adan xoli bo‘lmas. Keyin uni tarbiyachi ofitser bir yil mobaynida komil inson bo‘lib yetishini ta’minlaydi.

ISHONTIRISH TARBIYALASH USULINING XARAKTERISTIKASI



16.2. Tarbiyaning hayot va harbiy faoliyat bilan bog‘liqligi. Tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakteri

O‘sib kelayotgan yosh ofitserning o‘sib-ulg‘ayishiga va shaxsning shakllanishiga hayot, demokratik jamiyat katta ta‘sir etadi. Bu bir tomondan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, harbiylarni tarbiyalashdan maqsad, ularni ona yurtimiz istiqloli va istiqboli yo‘lida fidoiylilik ko‘rsatish, Vatanga sodiq, milliy qadriyatlarimizni e‘zozlashga o‘rgatishdan iborat. Shunday ekan, harbiy bilim yurtlarida olib boriladigan ta‘lim-tarbiya jarayoni hayot bilan mustahkam bog‘langan bo‘lishi kerak.

Qurolli Kuchlar ma‘naviy kamolotning har qanday darajasiga faqat jamoa hayotiga bog‘lanib, yashab, mehnat qilgandagina yetisha oladilar. Hayot harbiylarda insonga o‘ziga xos betakror mohiyat, imkoniyat baxsh etadi, jamiyat a‘zolari birlashtiradi, uyushtirib turadi.

Hayot harbiylarning, davlatning, jamiyatning kuchi va qudratidir, taraqqiyotni imkoniyatlari va istiqbollari belgilovchi ichki ijobiy, ruhiy omildir. Shuning uchun ham hayot tarixining barcha davralarida olimlar bu jarayonning ichki mohiyatini, qonunlarini anglashga, ularga yo‘nalish berishga harakat qilganlar. Ta‘lim-tarbiya ishlarining zaminida barcha davrlarda ham muayyan manfaatlar bilan bog‘langan maqsadlar yotgan. Bu maqsadlar tizimi va ularning mohiyati davlatlar, turli hayotiy-siyosiy kuchlar yaratgan va amal qilgan mafkurada ifodalangan.

Buyuk daholar, qaysi millat, qaysi xalq, qaysi e‘tiqodga mansubliklaridan qat‘iy nazar, hamisha, avvalo o‘z xalqi, millati, Vatani manfaatlaridan kelib chiqib ish ko‘rganlar. Bunga misol keltirib buyuk sarkarda Amir Temur davlat boshqaruv faoliyati siyosatini va harbiy strategik mahoratini har tomonlama o‘rgansak arziydi. Amir Temur “Temur tuzuklari” asarida “Barcha ishlarimning 9 ulushdan kengash tadbir va mashvarat bilan qolgan 1 ulushin esa, qilich bilan bajo keltirdim” degan edi.

Shu bilan birga, ularning chinakam yetuk insoniy ma‘naviyatlari doimo jahon miqyosida tan olingan, hurmatlangan-bu hayotning eng adolatli hukmi bo‘lib qolgan, hamon shunday bo‘lib qoladi.

Hayot bu xalqning o‘tmishi, bugungi va kelajagidir. Bu uning ma‘naviyati, madaniyati, dili, tili, dini, ota-bobolardan qolgan oltin merosdir. Ajdodlarimiz hayoti biz uchun beqiyos bir ibrat, hayot

sabog'idir. Shuningdek, hayot tuyg'usi-bu diyorimizni himoya qilib, fido bo'lgan Tumaris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Qurbonjon Dodxo, Namoz Botir kabi bahodirlarning nomini yodga olishdir.

16.3. Tarbiyada vijdon, iroda, qat'iyatlik va ishonch. Tarbiyada intizom, axloq va burch uyg'unligi

Vijdon ofitserning o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun jamoatchilik oldidagi ma'rifat tuyg'u hisoblanadi. U diyonat, insof, halollik, sofdillik degan ma'nolarni ham bildiradi. Tarbiyani xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, harbiylarda ijobiy fazilatlarni, vijdoniy irodali, qat'iylik va ishonch tuyg'usini muntazam amalga oshirib boriladi.

Shubhasiz tarbiya insonning ko'zi, sochi, terisining rangiga, uning badani tuzilishiga ta'sir eta olmaydi, lekin jismoniy taraqqiyotga, vijdoniga, irodasiga, qat'iyligiga va ishonchiga ta'sir etish mumkin. Vijdon, iroda, va qat'iylik harbiylarning faoliyatiga, maqsad va intilishiga asos bo'ladigan, ularga baho bera olishga imkoniyat yaratadigan ma'naviy zaminlardir. Bu ma'naviy qadriyatlar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lsa ham, ishonch ularning o'zagidir, poydevoridir.

Vijdon harbiylar shaxsining o'z e'tiqodiga tayangan holda boshqarishning niyati, qilmish-qidirmishiga, o'zining ishlariga, xatolariga munosabat bildirishdir. Vijdon hayotda yo'l topishning mezoni hisoblanadi. Vijdonga asoslangan ruhiy holatlarning mazmuni, ahamiyati shaxs ma'naviy kamoloti darajasi bilan belgilanadi. Ma'naviyatning bu jihatlari axloq, odob, burch, to'g'rilik va mas'uliyat tuyg'usi, bilim va tajriba asosida shakllanib, inson xarakterining ichki negizini tashkil etadi.

Vijdon e'tiqod asosida barqarorlashib, barcha, insonning jamiyatdagi mavqeini, maqsad va intilishlarining yo'nalishlarini belgilab beruvchi asosiy ma'naviy omilga aylanadi. Harbiylarni vijdonli bo'lishiga chorlash, ularni axloqiy, huquqiy qadriyatlarga asoslanib faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirishdir.

Vijdon insonning hayotida doimo Oллоhga, uning rusumiga, ularning yo'llanmalariga pok bo'lishi lozim. Hayotga vijdonan e'tiqod qilish inson qalbida doimo mustahkam o'rin olishni anglaydi. Inson

viydon orqali Payg'ambarimizni qilmishlariga iymon keltiradi, ularning rahnamoligini tan oladi. Tadbir o'zgarib turadi. Agar insonning tadbiri ulug' hikmatlarga, viydoniga tayansa, u ta'sirli, samarali bo'ladi, uni savobli ishlarga yo'llaydi.

Yuqoridagi fikrlarga viydonlikning mezonlari ko'rsatilgan. Bular viydonlikning hayotiy yo'nalishlariga asos bo'ladigan ma'naviy omillardir.

Iroda, birinchi navbatda, hayotiy, dunyoviy muammo hamdir, odamlarni to'g'ri yo'l bilan borishga qaratilgan ma'naviy qadriyatlar tizimidir.

Iroda manbai hayotning barcha sohalaridagi ijodiy, yaratuvchilik faoliyati deyish mumkin. Mehnatga nisbatan munosabat esa jamiyat ilgari lab rivojlanishi darajasining muhim belgisi hisoblanadi.

Qat'iysizlik esa e'tiqodsizlik, viydonsizlik, tuban yo'llarga yurish, axloq, odob, insonparvarlik qoidalariga rioya qilmaslikdir. Agar qat'iy bo'lishning mohiyatiga e'tibor berilsa, ular hayo, andisha, shirinso'zlik, halollik, adolatlik, or-nomuslilik, viydonlik, vafodorlik, mehnatsevarlik, xayr-ehsonlilik kabi axloqiy qadriyatlardan iborat ekanligini ko'ramiz.

Demak, qat'iylik komil ofitserning yetuk ma'naviy fazilatlarini yig'indisidir. Ofitserning qalbidan viydon, iroda, qat'iylik urug'i bor. Bu urug'ni qanday parvarishlash e'tiqodimiz mustahkamligiga, ma'naviyatimiz darajasiga bog'liq. Viydonli, irodali va qat'iyli bo'lish har qanday sharoitda meros va qadriyatlarga, yangi davr taqozo etgan ma'naviy qadriyatlarga tayanch bilishdir. Inson ilmi yo qat'iyatlik mavqesida, yoshi, yo kasb-koridan qat'iy nazar, har kun, balki har soat odamlar bilan muomalada bo'ladi. Askarlar tomonidan ayri yashash mumkin bo'lmaganidek, xizmat burchi yoki harbiy Mudofaa ehtiyoji bilan ham askarlarga ro'baro' kelmaslikning iloji yo'q.

Harbiylarni ma'naviy jihatdan go'zal qilayotgan irodalik va mehnatsevarlik kabi sifatlar orasida qat'iyatlik irodasi, tajribasi va shijoati bilan havas uyg'otish mumkin. Ammo viydonsiz, irodasiz va qat'iysizlik yaxshi sifatning hammasi ikki chaqa bo'lib qoladi.

Ma'lumki, har qanday ijtimoiy tuzumning o'z mafkurasini, kurash va intilishini aks ettiradigan qat'iyli bo'ladi. Shuning uchun viydon va qat'iylikni jamiyat oynasi deb atash mumkin. Ma'lumki, inson onadan viydonsiz, irodasiz yo bezori bo'lib tug'ilmaydi. Uni ijtimoiy

tuzum yo tor muhit buzadi. Bizning jamiyatimizda esa odamning buzilishiga na zamin bor va na asos.

Shuning uchun bizdagi ba'zi vijdotsizlik, irodasizlik, qat'iysizlik, tekinxo'rlik hollari faqat tor muhit ta'siri asosida siqilib yashayotgan yaramas illatlar bo'lishi mumkin.

Shuningdek, bunday yomon odatlar tabiiy ofat singari osmondan ham yog'masligini bilamiz. Bularning asl tug'iladigan, qo'lansa hid tortaladigan joylari bosh-bog'siz oila, tor muhit, maslaksiz, ma'nosiz jo'ralar ulfatchiligidir.

O'tmish tajribalardan ma'lumki, vijdon, iroda, ishonch va qat'iylilik bo'lmagan joyda taraqqiyot va kamolot, osoyishtalik, ezgulik va ro'shnoilik, haqiqat va adolat, poklik va halollik, diyonat va halovat va shu kabilarning ildiz topishi mumkin emasligi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan to'la dalillangan.

Ishonch yaxshilikning shakllanishi, rivojlanishi, barkamollik gashtidir. Vijdon, iroda, ishonch va qat'iylilik yo'qolgan yerdan iymon ketadi. Ishonchsiz umr-yonib bitgan ko'mir. Ishonchsiz-qalbdan iztirob, qayg'u sitam, umidsizlik kayfiyati uya quradi.

Demak, harbiylar ruhidan ishonchsizlikni chiqarib tashlab, ishonch urug'ini sepish, uni undirish, o'stirish birinchi galdagi vazifasidir. Shuning uchun malakatimizda demokratiya va ijtimoiy adolatni qaror toptirishiga alohida e'tibor bermoqda. Chunki u istiqloq va taraqqiyot yo'lining asosiy tamoyillaridan biridir. Boshqacha qilib aytganda, adolat va haqiqat ishonch qasrining kalitidir. Yangi tashkil topgan yosh mustaqil O'zbekiston davlati va armiyasi uchun odamlarning odamlarga, odamlarning davlatga, armiyaga va armiyaning davlatga ishonchi juda muhimdir. Xuddi shu narsa davlatlararo munosabatlarda ham qaror topishi zarur.

Ishonchni ko'kartiruvchi, o'stiruvchi tabarruk zamin-demokratiya va adolatdir, hamma uchun barobar kuchga ega musstahkam qonundir. Inson ruhiyatida va inson qarashlarida bir narsa borki, u insonni dadil olg'a qadam tashlashga, doimo da'vat etib turadi. U ham bo'lsa kafolatdir. Bir kishi boshqa kishiga biron ishni qilishga undasa, u shu ishning yaxshilik bilan tugashiga, natijasi ijobiy yakunlashiga kafil bo'lishi kerak. Ayniqsa, armiyani, davlatni boshqarishda kafolat muhim ahamiyatga egadir.

Har bir mustaqil davlatning chegaralarini qo'riqlash, Vatanni, xalqni himoya qilish uchun ishonchi bilan, kuchli, bilimli, jismonan

baquvvat Qurolli Kuchlarning barcha sir-asrorini to‘la-to‘kis qunt bilan o‘rgangan harbiy xizmatchilar kerak. Bulardan oldin birinchi bor harbiy xizmatchilarimiz o‘rtasida umuminsoniy qadriyatlarimizni yuqori cho‘qqiga olib chiqishimiz darkor.

Harbiy jamoada tarbiyaviy ishlarning eng murakkab jihatlaridan biri bu-harbiy intizomni mustahkamlashdir. Harbiy intizomni mustahkamlashning eng asosiy yo‘llari Qurolli Kuchlar Nizomida va boshqa hujjatlarda ko‘rsatib o‘tilgan. Mudofaa vaziri harbiy intizom barcha g‘alabalar garovi ekanligini inobatga olgan holda bu masalaga alohida e‘tibor qaratadi, intizomni mustahkamlash masalasi birinchi darajadagi masala ekanligini ta’kidlaydi.

Bunda asosiy e‘tibor tashkiliy va tarbiyaviy ishlarini yaxshilashga, harbiy xizmatchilarning qasamyodga sodiqligiga, Nizom talablari va komandir boshliqlar bilan ishlash hamda texnika xavfsizligi va qoidalariga rioya qilishga qaratilishi kerak. Harbiy intizomni mustahkamlashning asosiy shartlaridan biri komandirlaning o‘z qo‘lostidagilar shaxsiy tarkibni yaxshi bilish va ular bilan yakka tartibda tarbiyaviy ishlarni o‘tkazishdir. Ularni orasida o‘zaro jipslikni vujudga keltirish, harbiy jamoani birlashtirish va sog‘lom muhitni yaratish kerak.

Jangchilarni ongli ravishda intizomli bo‘lish ruhida tarbiyalash, komandirlarning shaxsiy o‘rnak bo‘lishlarini yo‘lga qo‘yish, intizomiy va talabchanlikni uyg‘unligiga ishontirish, qo‘l ostidagilarning insoniylik to‘yg‘ularini hurmat qilish va ular haqida g‘amxo‘rlik qilish lozim. Harbiy intizomni mustahkamlashda ijtimoiy-siyosiy, harbiy-texnikaviy, ruhiy ko‘nikmalarni e‘tiborga olish, intizom ahvolini tahlil qilib borishni takomillashtirish va uni haqqoniy baholab borish kerak.

Harbiy intizomni yaxshilashda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak:

Shaxsiy tarkibda doimiy ravishda harbiy intizom mohiyatini tushuntirish;

Intizomiylik va xizmatga munosabatda shaxsan o‘rnak ko‘rsatish;

Serjant va faollardan intizom bobida namuna ko‘rsatishni talab qilish;

O‘z intizomiy huquqlaridan oqilona foydalanish;

Shaxsiy tarkib orasida or-nomusi va iftixori, munosib xatti-harakatlari, namunali tashqi qiyofasi odob-axloq normalarini saqlash;

Bo'ysunuvchilar bilan, ayniqsa, harbiy intizom yomon, intizomiy holatlarni buzishga moyil bo'lgan askarlar bilan yakka tartibda ishlarni olib borishni o'rgatish;

Harbiy jamoani mustahkamlashiga erishish, katta va kichik harbiy xizmatchilar orasida Nizom qoidalari buzilishiga yo'l qo'ymasligi;

Doimo harbiy xizmatchilar yig'ilishida harbiy intizom holatini tahlil qilish;

Shaxsiy tarkibni bo'sh vaqtida va dam olish kunlarida hordiq chiqarishlarini to'g'ri tashkil qilish hamda nazorat qilish;

Namunali va intizomli askarlarni har tomonlama rag'batlantirishi;

Har hafta guruhdagi harbiy intizom holatini va uni mustahkamlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar natijasini tahlil qilish.

Harbiy intizom mazmun va mohiyatini, uni qo'llab-quvatlash choralarini intizom nizomi belgilaydi. Harbiy intizom har bir harbiy xizmatchining O'zbekiston Respublikasini himoya qilishga bo'lgan harbiy burch va shaxsiy mas'uliyat, o'z xalqiga mislsiz sadoqatini his qilishga asoslanadi.

Harbiy ta'lim tizimida o'qitish tarbiyalanuvchilarni axloqiy mukammallashtirish bilan bog'lab olib boriladi. Ularga ong bilan xulq birligida tarbiyalanadi. Shaxsning harbiylarni jamiyat va Vatanga, mehnatga, kishilarga, o'z xulqiga munosabatlarini quyidagicha tekshirish mumkin:

1. Harbiy xizmatchi jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarlik, fuqaro yetukligi, baynalmilal fazilatlarida aks etadi. Uning maqsadlarida, Vatan boyliklarini ko'paytirish, mustahkamlash va himoyalashga qaratilgan amaliy ishlarda namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik va baynalmilallik axloqiy tarbiyada alohida o'rin tutadi.

2. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash-xizmatchining butun ma'naviy yo'nalishini belgilaydi, chunki ishlaymay, kurashmay yashash mumkin emas. Bu axloqiy munosabat xizmatchining mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotidagi rolini anglashida mehnatni hurmat qilish va mehnatsevarlikda ifodalanadi.

3. Atrofidagi kishilarga axloqiy munosabat, shaxsning jamoatchilik manfaatini, shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yishdir.

Shaxsan o'ziga, o'z xalqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi-bu shaxs o'z-o'zini ongli intizomni ruhida tarbiyalashiga o'rgatishdan iboratdir.

Axloqiy fazilatlarga baho berish mezonlari ham aniq tarixiy jarayonlar, sharoitlar bilan bog'liq ravishda o'zgarib turadi. O'zbek xalqining axloqidagi oriyat, diyonat, kattalarga hurmat, mehnatdo'stlik kabi sifatlarga ularning ruhiyatidagi samimiylik, insof, bag'rikenglik, sharm-hayolik xususiyatlari jihatlarini milliy adabiyot va san'ati qo'shib o'zbek ma'naviyatining o'ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi.

Harbiy xizmatchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash g'oyaviy, harbiy va boshqa turdagi axloqiy tarbiya bilan bog'langan bo'lib, ularda ma'naviy-axloqiy tarbiyani ongida, shakllantirish uni harbiy qasamyod, harbiy Nizom talablari asosida qo'mondon va boshliqlarni buyruqlarini so'zsiz bajarish ruhida tarbiyalashdir.

Harbiy xizmatchilarda to'g'ri axloqiy tarbiyani shakllantirish uchun birdan-bir vazifasi, jamiyatni davlatimiz tomonidan olib brayotgan siyosatini to'g'ri anglab yetishi, o'tmishini va tarixini chuqur o'rganishdan iboratdir.

Qurolli Kuchlarda axloqiy tarbiyaning mohiyati shundaki, qo'shinlarni ongida og'ir vazifani bajarishga, ularni maqsadi barcha shaxsiy tarkibni yuqori darajali jihatdan axloqiy tomondan javobgarlikni his qila bilishi, o'z xalqini tinch, farovon hayotini va mehnat qilishini ta'minlashdan iboratdir. Jangchini shaxsini mukammallashtirishda axloqiy tarbiyani yana bir turi rag'batlantirishni to'g'ri qo'llanishdir.

Rag'batlantirish turlari quyidagilardan iborat:

- *qism jangovar bayrog'i oldida rasmga tushishi;*
- *faxriylar kitobiga kiritish;*
- *ota-onasiga o'g'lining jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikda erishgan yutuqlari to'g'risida xat jo'natish;*
- *Buyruq bo'yicha minnatdorchilik bildirish.*

Biz Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishni faxrli burch deya aytamiz. Chunki Vatanni himoya qilish qadim-qadimdan faxrli burch bo'lib kelgan va kelmoqda. Bu bilan Vatanni mudofaa qilish bo'yicha fuqaroga alohida bir mas'uliyat. Yuklatilgani urg'ulanadi. Ushbu

mas'uliyatni va harbiy xizmat mazmunini chuqur his qilish posbonga o'z mamlakati oldidagi fuqarolik burchini sharaf bilan o'tashida, Vatanning sodiq o'g'loni bo'lishida yaqindan yordam beradi.

16.4. Tarbiyaning yakka va uzluksizligi xarakteri

Tarbiyaning mohiyati tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq maqsadga intiluvchan o'zaro ta'siri, ular orasida ma'lum munosabatlarning tashkil qilinishi, tarbiyalanuvchilarning ahamiyatli ijtimoiy tajribani o'zlashtirishlariga imkon beruvchi faolliklarni rivojlantirishni anglatadi. Pedagogik jarayon sifatida tarbiyaning mohiyatini anglash uchun, ijtimoiy tajribaning turli tarkibiy qismlarini o'zlashtirishining o'ziga xos yo'llariga aniqlik kiritish zarur.

Tarbiya berishda har bir harbiy xizmatchini o'ziga xos yakka xususiyatlarini hisobga olish ham katta ahamiyatga ega. Bir qancha harbiylarni yoshi va bo'yi bir xil bo'lgan taqdirda ham ularni yakka xarakterlari farq qilinadi. Jumladan, ularning mijozi, xarakter xislatlari, qobiliyat va maylari, qiziqishlari, irodaviy sifatleri har xil bo'ladi.

Yakka xususiyatlarga nisbatan foydali va muvofiq bo'lgan tarbiya tamoyillarini boshqa shaxsga nisbatan aynan qo'llaganda natijasiz bo'lib chiqishi mumkin.

Harbiylar faoliyatida yakka holatlarda tarbiyalash boshqalarga nisbatan tanbeh va jazo sifatida tuyiladi. Harbiylarning ba'zilariga oddiy tanbehning o'ziyoq samarali ta'sir ko'rsatadi, ammo boshqalarga tanbeh berish kifoya qilmaydi, unga nisbatan jiddiyroq choralar ko'rishga to'g'ri keladi. Ba'zan bir askar ayrim axloqiy fazilatlarni tezda qabul qilib oladi va unga amal qiladi, ikkinchisi esa unga amal qilmaydi, ayrim askarlar esa bu xil sifatleri o'zlariga juda sekinlik bilan singdiradilar.

Demak, askarlarning har biri "*Shaklda ham, mazmunda ham bir xil emasdir*". Shuning uchun har biriga o'ziga xos xususiyati va o'ziga xos qilg'ini o'rganish lozim. Shundagina har bir askarga yakka holda qobiliyatiga, qiziqishiga, his-tuyg'ulariga, zaif va kuchli tomonlarga qarab tarbiya ishini davom ettirish lozim.

Shuni unutmaslik kerakki, tarbiya vazifalari va qonuniyatlari har bir guruhga hamma askarlarga bir xil bo'ladi, ammo bu vazifalarni hal etish muammolari har bir harbiyga nisbatan har xil bo'lishi mumkin.


Tajribali ofitser jazo berish shakli va choralari belgilaganda askarlarni xulq-atvori, sabablarini hisobga oladi. Buning uchun u harbiylarning individual xususiyatini yaxshi bilishi kerak bo'ladi.

Harbiylarga ta'lim-tarbiya berishda uzluksizlik va tizimlilikka rioya qilish kerak. Hamma tarbiyachilar harbiylarga bo'lgan munosabatlarida bir-birlariga zid harakatda bo'lmasliklari, bir xil yagona talab qo'yishlari lozim. Tarbiyaviy ishda bunday izchillikka rioya etishi juda ham muhimdir.

Shuningdek, tarbiyaning harbiylarga jadval ravishda ularga izchil va tizimli olib borish, ulardagi axloqiy fazilatlarning tez shakllanishiga insoniy xususiyatlarning rivojlanishiga juda muhim turtki bo'ladi. Bundan tashqari, bu qoidalar natijasida harbiylarda tarbiyani hayotning barcha jabhalarida doim singdirish va ularda ma'naviy dunyoqarash, tasavvur, o'zligini anglash huquqini ta'minlaydi.

Tarbiya jarayonida sistemalik va uzluksizlik (izchillik)ni ta'min etadigan muhim shartlaridan biri tarbiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va mustahkamlashda uyg'unlikka rioya etishdir.

Ofitserlar va harbiy xizmatchilar yuqorida ko'rsatib o'tilgan tamoyillarni bilishlari va ularni mohirlik bilan qo'llay olishlari kerak. Bu harbiylarga xos fazilatlarni muvaffaqiyatli tarbiyalashga yordam beradi, shu bilan birga, sotsial-demokratik tarbiyaning yo'llari, vosita va metodlarini to'g'ri belgilab olishga imkon beradi.



Tarbiya jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1. *Bilimlar tasavvurlarini shakllantirish;*
2. *Shaxsning munosabatlarini shakllantirish;*
3. *Qadriyatlarga yo‘nalganlik, ideallar, e‘tiqodlarni shakllantirish;*
4. *Shaxsning yo‘nalganligini shakllantirish.*

-Tarbiyaviy ta’sir, o‘zaro ta’sif va tarbiyalanuvchilar shaxsiy faolligining qonuniy bog‘lanishi mavjudligi: tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy va mehnat faoliyati bilan, ularda yuz bergan o‘zaro o‘zgarishlar bilan tarbiyaviy ta’sif va tez ravishda shaxsni tanishtirishni talab etadi. Tarbiyalanuvchilarni amaldagi hayotiy munosabatlariga, ijtimoiy faoliyatining har xil turlariga jalb etishni talab qiladi.

-Tarbiya jarayonida jamoa va shaxsning o‘zaro aloqadorligi: shaxs va jamoa ko‘p qutbli mafkuraviy tizimga ega. Bu mafkuraviy qutblar o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga hamisha o‘zaro aloqada bo‘lib turadi. Shaxs kamolotiga ta’sir etadigan asosiy omil bu jamoa hisoblanadi. Jamoa deganda, shaxsga tabiiy ta’sir etadigan tashqi voqealar majmui tushuniladi. Bunga oila, atrofdagi muhit, yashash

tarzi, ish jarayoni, o'qish jarayoni va boshqa atrofimizdagi har kundagi muomalada bo'ladigan kishilar kiradi.

Askariy birodarlik harbiy jamoada shakllanadi va mustahkamlanadi. Harbiy jamoa o'z burchini munosib darajada bajarish uchun bo'linma shaxsiy tarkibi va ofitserlar tinimsiz tashkiliy ishlarni olib borishlari talab qilinadi. Ular ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik bosqichida jangovar hozirlik bilan amaliy masalalarni yechishda hamkorlikdagi harakatlari bilan bo'linmada, qismda, jamoada askariy birodarlikni shakllantiradilar.

Harbiy jamoani shakllantirish unda askariy birodarlik munosabatlarini yo'lga qo'yish faqatgina ofitserlarni emas, balki har bir askarlarning ishidir.

Jamoa-askarning uyi. Ular harbiy xizmatning qiyinchiklarini, murakkabliklarini yengib o'tishadi. Askar jamoani jamoa esa askarni kashf etadi. Xuddi shuning uchun ham har bir askar jamoaning shakllanishi uchun ma'naviy sog'lom bo'lishi, unda askariy birodarlik tamoyillari hukm surishi uchun ko'yib-pishishi kerak.

Keyingi paytlarda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jangovar shayligi sifat ko'rsatkichlari oshishida, jangovar potensiali mustahkamlanishida harbiy jamoaning roli nisbatan oshib boradi.

Do'stlik va askariy birodarlik faqat o'zaro yordam, umumiy harakatlardan iborat emas. Balki hech kim Vatan himoyasining obro'yini, hurmatini yerga urmasligi uchun ularga nisbatan talabchanlik bilan g'amxo'rlik qilishdir. Do'stlik askariy birodarlik rishtalarining mustahkamligini tasdiqlayman desa, safdoshning kamchiliklari, ayblari va xatolari haqida gap ketayotganda haddan tashqari ko'ngilchanlikka, kechirimlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Haqiqiy do'st har qancha achchiq va yoqimsiz bo'lsa-da, haqiqatni gapiradi. Ayniqsa, prinsipial xarakterdagi masalalarda, deylik, harbiy xizmatchilarning o'rtasida o'zaro munosabatlar qoidalari buzilganda o'ta kechirimlikka, qo'rqqoqlikka yo'l qo'yish, murosasizlik qilishga aslo chidab bo'lmaydi.

Harbiy jamoani jipslashtirishning asosiy pedagogik talablari mavjud:

- *Zamonaviy talablarini nazarga olgan holda uning tashkiliy strukturasi doimiy shakllantirish;*

- *Turmush tarzi va maishiy hayotini Nizom talabi asosida tashkil qilish;*

- Boshqalar va ularning qo‘l ostidagilar unvon bo‘yicha nizomiy o‘zaro munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash;

- Jamoa ishidagi ijtimoiy-ruhiy holat va bosqichlarni boshqarib borish;

- Harbiy xizmatchilarda o‘z jamoasidan faxrlanish, uni jangovar an‘analarga hurmat ruhida tarbiyalash, ushbu an‘analarning yanada kuchayishiga o‘z hissasini qo‘shishga hozirlik tuyg‘ularini doimiy tarzda singdirib borish.

Shuningdek, bir-biroviga muomala qilganda xushmuomalalikka amal qilish kerak. Ushbu muomala turi butun tarbiyaviy bosqichni qamrab olishi lozim.

Har bir harbiy xizmatchi jamoasining bir bo‘lagi ekanligini sezar, u ishtiyoq bilan xizmat qilmasa o‘qishda, mashqlarda bo‘linmaning oqsashiga va oqibatda, safdoshlarining uyalishiga sababchi bo‘lishini doimo esda tutishi kerak. Axir har qanday bo‘linmaning, qismning muvaffaqiyati, har bir jangchi erishgan natijalardan tashkil topadi. Shuning uchun ham harbiy jamoaning obro‘si, jangovar sharafini himoya qilish Vatan himoyachisining burchi hisoblanadi.

Tayanch so‘zlar: Tarbiya tamoyillari, burch-mas‘uliyat, ong faoliyati, falakiyot, demokratik yo‘nalish, chet ellardagi ta‘lim, harbiy vaziyat, ongli tarbiya, xulq-atvor, shaxs, insonparvarlik.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiya tamoyillari deganda nimani tushunasiz?
2. Ongli tarbiyani qaysi xususiyatlari orqali aniqlash mumkin?
3. Tarbiyaning ilmiyligida asosiy bosqichlarni ajrating.
4. Insonparvarlik deganda siz nimani tushunasiz?
5. Harbiy intizomni mustahkamlashning asosiy shartlari nimalar?

17-Mavzu: TARBIYANING MAZMUNI VA VAZIFASI

Reja:

1. Harbiy xizmatchilarda harbiy vatanparvarlik, ma'naviy-madaniy axloqiy va huquqiy tarbiya.
2. Harbiy xizmatchilarning ekologik tarbiyasi.

17.1. Harbiy xizmatchilarda harbiy vatanparvarlik, ma'naviy-madaniy axloqiy va huquqiy tarbiya.

Harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiya tadbirlari barcha toifadagi harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar xizmatchilarning intellektual saviyasi va bilimlarini oshirish, ona Vatanni chin qalbdan sevib ardoqlash, uni har qanday g'animdan har qanday sharoitda ishonchli himoya qila olish va buning uchun harbiy ilmini puxta egallash, jangovar texnika va qurol-yarog'lardan mohirona foydalana olish, tartib-intizom, axloq-odob, o'zaro ko'makdoshlik singari ko'plab sifatlarni o'zida mujassamlashtirish, eng muhimi, ona yurti himoyasida, harbiy jamoada alohida o'rni bor ekanligini chuqur idrok etish maqsadida tashkil etib boriladi.

Harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiya yo'nalishidagi tadbirlar quyida keltirilgan tizimda tashkil etib boriladi:

- ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik;
- tezkor axborot;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlar (madaniy-ma'rifiy ishlar);
- ma'naviyat soatlari (harbiy qism yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkiloti yo'nalishlari bo'yicha sektorlar faoliyati, kitob mutolaasi, harbiy-vatanparvarlik soati);
- jamoaviy tarzda badiiy va hujjatli filmlar namoyishi;
- yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar;
- vzvod shaxsiy tarkibining jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligi, qo'shinlar xizmati va harbiy intizom holati bo'yicha haftalik yakuni;
- fanlar yo'nalishi (5 ta fangacha) bo'yicha mashg'ulotlar.

Harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy shakllari etib ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, axborot berish, munozara (disput), ma'naviy-ma'rifiy bilimlar yagona kuni, huquqiy

bilimlar yagona kuni, savol-javob kechalari, harbiy intizom, qo‘shinlar xizmati va o‘quv jarayonining yakunlari tahlili, jamoaviy tarzda badiiy va hujjatli filmlar namoyishi, o‘quv-amaliy anjumanlar, viktorinalar, radioro‘znomalar, devoriy va jangovar varaqalar chiqarish, “Axborot”, “Davr” va boshqa dasturlar ko‘rish, lektoriyalar va huquqiy axborot belgilangan.

Harbiy-vatanparvarlik va ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy uslublari - ishontirish, rag‘batlantirish, namuna, musobaqa, tanqid va o‘z-o‘zini tanqid qilish, mashq va majburlashdir.

Ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari – harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilarida yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, vatanparvarlik va mamlakat taqdiriga daxldorlik hissini kamol toptirish, ularning ongi va qalbiga milliy g‘oya va mafkurani chuqur singdirish, sog‘lom dunyoqarash va faol hayotiy pozitsiyani hamda harbiy xizmat majburiyatlarini ongli ravishda, yuksak mas‘uliyat bilan bajarish ko‘nikmasini shakllantirish kabi maqsadlarda tashkil etiladi.

Ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarlik harbiy-vatanparvarlik va ma‘naviy-axloqiy tarbiya ishlarining asosiy shakli hamda qo‘shinlar tayyorgarligining asosiy fani hisoblanib, Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan tematik rejaga asosan hamda boshqaruv hujjatlarda belgilangan hajmda va kunlarda o‘tkaziladi.

Tezkor axborot – bu harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilarga dunyoda va mintaqamizdagi harbiy-siyosiy vaziyatlar haqida ma‘lumot berish, jahonda va yon atrofimizda sodir bo‘layotgan hodisalarga nisbatan ongli munosabatlarini shakllantirish hamda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotidagi muhim voqea va hodisalarni o‘z vaqtida yetkazish maqsadida o‘tkaziladi.

Diniy ekstremizm va fundamentalizm g‘oyalarini harbiy jamoalarga kirib kelishini oldini olish ishlarini tashkillashtirish.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida diniy ekstremizm va aqidaparastlik g‘oyalariga qarshi kurash borasidagi ishlar me‘yoriy hujjatlar talablariga muvofiq tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Harbiy xizmatchi va ularning oila a‘zolari, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilarda diniy ekstremizm, aqidaparastlik g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularda diniy ekstremistik

oqimlarga qarshi qat'iy, murosasiz munosabatini shakllantirish ushbu yo'nalishdagi ishlarning *asosiy maqsadi deb hisoblanadi.*

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni (madaniy-ma'rifiy ishlar)ni tashkillashtirish.

Qo'shinlarda madaniy-ma'rifiy ishlar – shaxsiy tarkibning ruhiy-emotsional va axloqiy-ruhiy holatini yuqori darajaga ko'tarish, harbiy xizmatchilarni yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga safarbar etish maqsadida tashkil etiladi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining sifatli madaniy hordiq chiqarishlari va maroqli dam olishlarini ta'minlash – ***madaniy-ma'rifiy ishlarining asosiy vazifasidir.***

Madaniy-ma'rifiy ishlar – qo'shinlarda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

U – komandirlar tarkibi, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi xodimlarining harbiy xizmatchilar ongida milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga nisbatan ehtirom hislarini oshirish, shaxsiy tarkibni madaniyat va san'at orqali tarbiyalash hamda madaniy hordiq chiqarishi bo'yicha tashkil etiladigan faoliyati hisoblanadi.

Madaniy-ma'rifiy ishlar harbiy madaniyat muassasalari (Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat markazi, gornizon ofitserlar uyi, Qurolli Kuchlar davlat muzeyi, klublar, harbiy orkestrlar, kutubxonalar) faoliyatiga rahbarlik qilishni, estetik tarbiyani tashkil etishni, ommaviy madaniy tadbirlar o'tkazishni, harbiy xizmatchilarni muzey, teatr va konsertlarga ***tashriflarini uyushtirishni o'z ichiga oladi.***

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni (madaniy-ma'rifiy ishlar)ni tashkillashtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- madaniy-ma'rifiy ishlar harbiy okrug va brigadalarda oylik rejasiga alohida bo'lim sifatida kiritilib, mazkur bo'lim asosida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarning reja ssenariylari va senariylari hisobot uchun tikib borish yo'lga qo'yiladi;

- mazkur bo'limda turli mavzudagi “Zakovat”, “Zinama-zina”, “Intellektual ring”, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Eng yaxshi kitobxon” kabi tanlovlar o'tkazish, garnizon ofitserlar uylari badiiy havaskorlik jamoasining harbiy qismlardagi konsert dasturini tashkillashtirish, davlat bayramlari, tarixiy sanalar, buyuk ajdodlarimiz va allomalar faoliyatiga oid madaniy-ma'rifiy tadbirlar, shuningdek, harbiy

jamoalarni jipslashtirishga mo'ljallangan "Team building" jamoaviy o'yinlarini o'tkazish tadbirlari rejalashtiriladi;

- madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkillashtirishda gornizon ofitserlar uylari, harbiy qism klubi, kutubxonasi imkoniyatlaridan keng foydalaniladi, ularning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish bo'yicha tegishli choralar ko'riladi;

- madaniy- ma'rifiy tadbirlarini sifatli o'tkazish maqsadida mahalliy madaniyat va san'at muassasalari hamda badiiy uyushmalar bilan uzviy hamkorlik o'rnatiladi;

- har bir guruhda shtatdan tashqari madaniy tadbirlar tashkilotchisi tayinlanadi;

- harbiy qism va muassasalarda tarbiyaviy texnik vositalari hisobini to'g'ri yuritish va ularning mo'ljallangan maqsadga muvofiq ishlatilishi qat'iy nazorat ostiga olinadi, har yili 25-dekabrga qadar inventarizatsiya o'tkazilib, dalolatnoma tuziladi va o'rnatilgan tartibda Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat markaziga yuboriladi.

Ma'naviyat soatlari – harbiy xizmatchilarga milliy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimiz, xalqimiz tarixi, buyuk ajdodlarimiz merosi, milliy istiqloq g'oyasi, mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi, ichki va tashqi siyosati, Qurolli Kuchlar islohoti, vatanparvarlik tuyg'usi harbiy xizmatchilar ong-u tafakkuriga chuqur singdiriladigan tadbirlar majmuasidan iborat.

Harbiy xizmatchilar bilan ma'naviyat soatlari haftaning har kuni (yakshanba kunidan tashqari) kechki soatlarda (18.30 - 19.30) quyidagi tadbirlar doirasida o'tkaziladi:

dushanba kuni - harbiy qism yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkiloti yo'nalishlari bo'yicha sektorlar faoliyati;

seshanba kuni – axloqiy-ruhiy tayyorgarlik kuni tadbirlari;

chorshanba kuni – badiiy kitoblar o'qish;

payshanba kuni – huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni tadbirlari;

juma kuni – "Ma'naviy yuksalish va vatanparvarlik kuni" (PQ-3898);

shanba kuni – badiiy kitoblar o'qish.

Jamoaviy tarzda badiiy va hujjatli filmlar namoyishi – bu harbiy xizmatchilarning madaniy hordig'ini uyushqoqlik bilan tashkillashtirish, ongi va tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatish, qalbiga yetib borish, kayfiyatini ko'tarish, yangi marralar sari ilhomlantirish, turli ko'rinish va shakllardagi axborot xurujlariga, diniy-ekstremistik

tashkilotlar va terroristik guruhlarining ta'siriga qarshi tura olish, ularning ogohlighi va hushyorligini yanada oshirish, yon-atrofimizdagi mamlakatlarda yuz berayotgan ayanchli voqea va hodisalarga nisbatan qat'iy pozitsiyasini shakllantirish maqsadida **haftaning yakshanba kunlari soat 15.00 dan 17.00 ga qadar o'tkaziladi.**

Film namoyishidan so'ng, 10-15 daqiqa davomida uning mazmunidan kelib chiqqan holda muqaddam tuzilgan savollar asosida film muhokamasi tashkil etiladi hamda harbiy xizmatchilarning fikrlari tinglanadi.

Mazkur namoyishlar uchun yuksak badiiy saviyadagi kino (video) mahsulotlar tanlanadi. Filmlarning mazmun mohiyati shaxsiy tarkibni vatanparvarlik ruhida har tomonlama tarbiyalashda omil bo'lishi e'tiborga olinadi.

Bizning qadriyatlarimizga mos kelmaydigan, xalqimiz ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va mafkurasiga yot bo'lgan filmlar namoyish qilinishi **qat'iy taqiqlanadi.**

Yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar – bu qo'mondonliklar, harbiy boshqaruv organlari, komandir va ularning o'rinbosarlari (xizmat boshliqlari) tomonidan o'z qo'l ostidagilarining ruhiy holati, bilim darajasi, oilaviy ahvoli va xulq-atvori, xususiyatlari, harbiy jamoadagi xatti-harakatlari va intizomi, o'ziga xos jihatlarini **chuqur bilish maqsadida o'tkaziladi.**

Jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, qo'shinlar xizmati va harbiy intizom holatining davriylik yakuni – bu komandir va uning o'rinbosarlari (vzvod, batalyon, brigada) tomonidan rejalashtirilgan tadbirlarga umumiy yakun yasash va kelgusi vazifalarni belgilash, yo'nalishlar bo'yicha eng ilg'or bo'linmalar, harbiy xizmatchilarni e'lon qilish, shuningdek, qoloq bo'linmalar va harbiy xizmatchilarning mas'uliyatini oshirish, bo'linmalar komandirlari va shaxsiy tarkibi o'rtasida o'zaro musobaqadoshlikni, sog'lom raqobatni yuzaga keltirish hamda axloqiy-ruhiy barqarorlikni shakllantirish **maqsadida o'tkaziladi.**

Unda komandir va uning o'rinbosarlari tomonidan quyidagi masalalar tahlil qilinib, ilg'or va qoloq bo'linmalar, harbiy xizmatchilar aniqlanadi:

jangovar tayyorgarlik va axloqiy-ruhiy ta'minot;
ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik;

harbiy texnika va qurol-yarog'lardan foydalanish va to'g'ri saqlash;

qo'shinlar xizmati;

harbiy intizom;

ichki tartib.

Jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, qo'shinlar xizmati va harbiy intizom holatining davriylik (**haftalik, oylik, choraklik**) yakuni:

guruhda – har kuni, kunning oxirida (soat 19.50-20.00) 10 daqiqa davomida;

vzvodda – har haftaning juma kuni, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotining 6-soati vaqtida;

batalyonda – har oyning so'nggi haftasidagi seshanba yoki payshanba kunlaridagi mustaqil tayyorgarlik vaqtida;

Fanlar yo'nalishi (5 ta fangacha) bo'yicha mashg'ulotlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11-oktabrdagi

812- son "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy, madaniy saviyasi va bilimlarini muntazam oshirib borish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida **fanlar yo'nalishi (5 ta fangacha) bo'yicha mashg'ulotlar** – yilning may-dekabr oylarida, haftaning dushanba, chorshanba va juma kunlari mashg'ulotlarga tayyorgarlik, mustaqil tayyorgarlikning 1-2 o'quv soatlarida (15.00-17.10) **oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga tayyorgarlik ko'rish uchun** muddatli harbiy xizmatchilar bilan tasdiqlangan umumiy **190 soatli o'quv mashg'ulotlari dasturi asosida o'tkaziladi.**

3.Huquqbuzarliklar profilaktikasi va harbiy intizomni mustahkamlash tadbirlarini tashkillashtirishdan ko'zlangan bosh maqsad – qo'shinlar shaxsiy tarkibi orasida huquqbuzarlik, baxtsiz hodisa va jarohatlanishlar ro'y berishini oldini olish, harbiy qism va bo'linmalarda mustahkam intizom va qat'iy ijrochilik muhitini yaratish hamda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashdir.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va harbiy intizomni mustahkamlash tadbirlarining asosiy shakllari etib ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, axborot berish, munozara (disput), ma'naviy-

ma'rifiy bilimlar yagona kuni, huquqiy bilimlar yagona kuni, savol-javob kechalari, harbiy intizom, qo'shinlar xizmati va o'quv jarayonining yakunlari tahlili, jamoaviy tarzda badiiy va hujjatli filmlar namoyishi, o'quv amaliy anjumanlar, viktorinalar, radioro'znomalar, devoriy va jangovar varaqalar chiqarish, "Axborot", "Davr" va boshqa dasturlar ko'rish, lektoriyalar va huquqiy axborot belgilangan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va harbiy intizomni mustahkamlash tadbirlarining asosiy uslublari - ishontirish, rag'batlantirish, namuna, musobaqa, tanqid va o'z-o'zini tanqid qilish, mashq va majburlashdir.

Harbiy intizom va huquqiy tartibot holatining tahlili, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha ko'rilayotgan choralar samaradorligini baholash:

harbiy okrug (birlashma), harbiy qism va muassasalarda – *har oyda;*

bo'linmalarda – *har hafta juma kuni;*

guruh va seksiya (hisob, ekipaj)larda – har kuni tashkil etiladi.

Davlat va jamoat tashkilotlari hamda yoshlar bilan o'tkaziladigan tadbirlar.

Davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi ishlarni tashkillashtirishdan ko'zlangan bosh maqsad – armiya bilan xalq birdamligini yanada mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid tadbirlar samaradorligiga erishish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yoshlar orasida harbiy xizmatni keng targ'ib qilish hisoblanadi.

Davlat va jamoat tashkilotlari hamda yoshlar bilan o'tkaziladigan tadbirlarining asosiy shakllari etib ommaviy axborot vositalari bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, axborot berish, munozara (disput), savol-javob kechalari, jamoaviy tarzda badiiy va hujjatli filmlar namoyishi, o'quv-amaliy anjumanlar, viktorinalar, radioro'znomalar, "Axborot", "Davr" va boshqa dasturlar ko'rish, lektoriyalar va huquqiy axborot belgilangan.

Davlat va jamoat tashkilotlari hamda yoshlar bilan o'tkaziladigan tadbirlarining asosiy uslublari - ishontirish, rag'batlantirish, namuna, musobaqa.

Qo‘shinlarda hamkorlikda o‘tkaziladigan asosiy tadbirlardan kelib chiqib, ***birinchi navbatda***, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, “Mahalla” xayriya jamoat fondi, “Nuroniy” jamg‘armasi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti, ularning hududiy bo‘limlari bilan ***mustahkam hamkorlik o‘rnatiladi***.

Armiya va xalqning yakdilligini, vazirlik faoliyatining ochiqligini ta’minlash va harbiy xizmat nufuzini oshirish borasida ***Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi***, uning mintaqaviy bo‘linmalari bilan ***samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi***.

Qo‘shinlarda eng yaxshi an’analarni saqlash va yosh avlod vakillariga yetkazib berish hamda ustozlik ruhini, avlodlar almashinuvini qo‘llab-quvvatlash, chaqiruvga qadar bo‘lgan yoshlar va harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ***Mudofaa vazirligi Faxriylar ishlari bo‘yicha kengash va uning harbiy okruglardagi kengashlari imkoniyatlaridan keng foydalaniladi***.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko‘zlangan maqsad – yoshlarda Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo‘lishga undaydigan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy fazilatlarni qaror toptirish, mamlakatimizning barcha sohalari uchun jonkuyar, halol, o‘z kasbiga sadoqatli va yetuk kadrlar zahirasi shakllantirishdan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilangan:

- yoshlarni O‘zbekiston Respublikasi, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat, yuksak vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish;

- yoshlarning faol hayotiy pozitsiyasi va qat’iy e’tiqodini, Vatan taqdiri uchun mas’uliyatini kuchaytirish, ularning turli ko‘rinishdagi axborot-psixologik xurujlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini mustahkamlash;

- yoshlarda Vatan ozodligi yo‘lida jasorat ko‘rsatgan buyuk ajdodlarimiz hamda O‘zbekiston mustaqilligini himoya qilish uchun jon fido etgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish;

- yoshlarga buyuk tariximiz, milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarining hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini chuqur

tushuntirish, ular qalbida milliy gʻurur va iftixor tuygʻularini kuchaytirish;

- yoshlarga Vatanimizning mustaqilligi, yurtimiz barqarorligi va xavfsizligini, xalqimizning tinch va osuda hayotini himoyalashda milliy armiyamizning oʻrni va ahamiyatini, jangovar salohiyatini keng tushuntirish;

- yoshlarning ong-u shuuriga oʻz sohasining yetuk mutaxassisi boʻlishlikni, egallagan kasbiga sadoqati va fidoyiligi bilan Vatan ravnaqi va yurt taraqqiyotiga salmoqli hissa qoʻshish tushunchalarini yetkazish.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari quyidagi yoʻnalishlarda olib boriladi:

- chaqiruvga qadar boʻlgan fuqaro yoshlar yoʻnalishida;
- armiyada xizmat oʻtayotgan harbiy xizmatchi yoshlar yoʻnalishida.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarida Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi, Faxriylar ishlari boʻyicha kengashlar, Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi, Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi, Xotin-qizlar qoʻmitasi, “Nuroni” va “Mahalla” fondlari, Oʻzbekiston mudofaasiga koʻmaklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti va ularning hududiy boʻlimlari ***imkoniyatlaridan keng foydalaniladi.***

Ommaviy axborot vositalari bilan ishlash.

Ommaviy axborot vositalari bilan ishlashning asosiy maqsadi – mamlakat keng jamoatchiligini Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida olib borilayotgan islohotlar va ularning mazmun-mohiyati toʻgʻrisida muntazam xabardor qilish, ularda Vatan himoyachilariga nisbatan ishonchni yanada mustahkamlash, yoshlar qalbida vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirish va ular orasida harbiy kasbni keng targʻib-tashviq qilish maqsadida respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalari hamda teleradiokanallarida koʻrsatuv va radioeshittirishlar, lavha va videoroliklar, maqola, ocherk, etyud va reportajlar tayyorlab borish deb hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida kechayotgan izchil islohotlar jarayoni, oʻquv yilida olib borilayotgan jangovar va maʼnaviy-maʼrifiy tayyorgarlik mashgʻulotlari, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi yoʻlida amalga oshirilayotgan ishlarni teleradiokanallar va matbuot nashrlari orqali yoritish maqsadida Mudofaa vazirligi Matbuot xizmati, Qurolli Kuchlar Media

markazi, «Vatanparvar» Birlashgan tahririyati, O‘zA va Respublika bosma ommaviy axborot vositalari va O‘zbekiston MTRK teleradiokanallarining hududiy teleradiokanallari bilan **hamkorlik o‘rnatiladi.**

Harbiy okrug boshqaruv apparatlarida, oliy harbiy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlarining ommaviy axborot vositalari bilan olib boriladigan ishlarni tashkillashtirishda **quyidagi vazifalar belgilanadi:**

- ommaviy axborot vositalari va teleradiokanallarning mahalliy vakillari bilan uzviy o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, tayyorlangan materiallarni bosish va efirga chiqarishdan avval mualliflar bilan birgalikda muvofiqlashtirish;

- Mudofaa vazirligi Matbuot xizmatidan olingan ko‘rsatmaga muvofiq bo‘ysunuvchi (qo‘l ostidagi) qo‘shilma, qism va muassasalarda, bo‘linmalarda ommaviy axborot vositalari xodimlari tomonidan foto va videotasvirga olish ishlarini bevosita tashkil etish, bosma nashrlarda joylashtirish va televidenie orqali efirga uzatish uchun qo‘shimcha materiallar tayyorlash;

- harbiy qism va muassasalar faoliyati, o‘quv mashg‘ulotlari jarayoni yoki o‘tkaziladigan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish uchun avvaldan tayyorgarlik ishlarini ko‘rish va rejasini ishlab chiqish hamda tasvirga olish ishlarini tashkillashtirish mobaynida mavjud obyektlarning infratuzilmasi, ularda yaratilgan zamonaviy ijtimoiy-maishiy sharoitlar, mebel va boshqa anjomlar bilan ta’minlanganligiga, ishtirok etayotgan shaxsiy tarkibning kiyim-kechagi belgilangan rusumda bo‘lishiga jiddiy e’tibor berish;

- harbiy qism va bo‘linmalarda tasvirga olish va bosma ommaviy axborot vositalariga maqolalar tayyorlashda bevosita ishtirok etadigan yetuk kasbiy tayyorgarlikka ega mutaxassislar tayinlashini qattiq nazoratga olish va ularga harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari, kasbiy faoliyat va jangovar o‘quv, harbiy texnikani namunalni namoyish etish borasida yo‘l-yo‘riqlar berish;

- videomateriallar tasvirga olinishini nazorat qilish, suhbatlashish, suratga olish va videotasvirga olish ishlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy tarkib, shuningdek, jurnalistlarni ish joyiga yetkazish uchun avtotransport ajratilishini tashkil qilish;

- qiziqarli va mazmunli xarakterga ega, shuningdek, milliy armiyada amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risida to‘g‘ri

tasavvurni shakllantirishi lozim bo'lgan video va publisistik materiallar hamda teleko'rsatuvlarga lavhalarning sifatli tayyorlanishi uchun barcha zaruriy choralarni ko'rish.

Tasvirga va suratga olish jarayonida mas'ul ofitserlarga ommaviy axborot vositalari (televidenie, bosma nashr) vakillarini obyektlar bilan ta'minlash, tegishli ma'lumotlarni o'z vaqtida berish va yoritish jarayonini doimiy nazorat qilib borilishi belgilanadi.

Shuningdek, ularga:

- harbiy xizmatchilarning harbiy kiyim boshi va pagoni buyruq talablariga muvofiqligiga, mahorat toifasi ko'krak nishoni (klassnost), oliy ta'lim muassasasi yoki serjantlar tayyorlash maktabini bitirganligi haqidagi nishon (rombik), qo'shin turiga mos belgi (shevron) va boshqalarining taqilishiga, kundalik sharoitda harbiy xizmatchilarning dala kiyimida tasvirga tushmasliklariga qat'iy e'tibor qaratilishi;

- dala o'quv mashg'uloti jarayonida ishtirok etayotgan harbiy xizmatchilarning ustki libosiga, tegishli unvoni, qo'shin turi ko'rsatilgan bo'lishiga, jangovar-taktik o'quv mashg'ulotlarni tasvirga olish vaqtida texnikalarning zamonaviyligiga va sozligiga, shaxsiy tarkibning bronijilet, kimyoviy himoya niqobi (piksel g'ilofli, yirtilmagan) bo'lishiga e'tibor qaratish hamda tegishli xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi;

- videotasvir va fotosuratga olish yoki maqolani tayyorlash jarayonida harbiy qism faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, professional tayyorgarlik, jangovar-o'quv va harbiy texnikani boshqarish mashg'ulotlari talablarga muvofiq to'g'ri olib borilishini nazorat qilinishi;

- jangovar o'quv va qo'shinlarning kundalik faoliyati, harbiy xizmatchilarning fidokorona xizmati, amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonini sifatli va mazmunli ravishda ochib berilishi;

- bevosita intervyu beradigan harbiy xizmatchilar o'tkazilayotgan tadbir yoki jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik o'quv mashg'ulotlari haqida (obyekt nomi, uning joylashuvi, qism va bo'linmaga qo'yilgan tezkor-jangovar vazifa elementlarni ochmasdan, to'g'ridan-to'g'ri qo'mondonlik ko'rsatmalariga urg'u bermasdan) hozirgina erishilgan yuqori natija, yutuq va qobiliyati xususida erkin so'zlab berishlari nazoratga olib borilishi vazifasi yuklatilgan.

Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash ishlari – Harbiy xizmatchilar oilalarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash,

ularda sogʻlom maʼnaviy-axloqiy muhit va turmush tarzini shakllantirish barcha komandir va boshliqlarning ***muhim vazifalari hisoblanadi.***

Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qoʻllab quvvatlash ishlarining asosiy shakllari etib axborot berish, munozara (disput), savol-javob kechalari, jamoaviy tarzda badiiy va hujjatli filmlar namoyishi, anjumanlar, viktorinalar, radioroʻznomalar, “Axborot”, “Davr” va boshqa dasturlar koʻrish, lektoriyalar va huquqiy axborot belgilangan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va harbiy intizomni mustahkamlash tadbirlarining asosiy uslublari - ishontirish, ragʻbatlantirish, namuna, musobaqa.

Boʻysunuvchi harbiy qism va muassasalarda harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlar kundalik xizmat faoliyatining ***dolzarb yoʻnalishlaridan biri sifatida qaraladi.***

Harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlarni tashkillashtirishda quyidagi toifalar bilan ishlarga alohida eʼtibor qaratiladi:

- *harbiy xizmatchilarning farzandlari bilan ishlar;*
- *yangi turmush qurgan oilalar bilan ishlar;*
- *turmushga chiqmagan hamda turmushdan ajrashgan harbiy xizmatchi ayollar bilan ishlar;*
- *uylanmagan harbiy xizmatchilar bilan ishlar.*

Harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlarni tashkillashtirishda:

- *harbiy xizmatchilarning oila aʼzolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, maʼnaviy va intellektual saviyasini yuksaltirish, yot gʻoyalar taʼsiriga tushib qolishlarini oldini olish va oilalarda sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish boʻyicha tadbirlar oʻtkaziladi;*

- *harbiy xizmatchilar va ularning oila aʼzolari bilan Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligidagi oilaviy munosabatlar, xotin-qizlarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oilaviy nizolarning sabab va oqibatlari, farzandlar tarbiyasi uchun otanonaning masʼuliyati kabi yoʻnalishlarda tadbirlar olib boriladi;*

- *har chorakda bir marotaba qoʻmondonliklar tomonidan harbiy xizmatchilarning oila aʼzolari bilan uchrashuvlar oʻtkaziladi;*

- *harbiy boshqaruv organlarining harbiy kengash majlislari, turli konferensiya, seminar va uchrashuvlarda harbiy xizmatchilar oilalari*

bilan olib borilayotgan ishlarning holati, harbiy oilalarni ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash masalalari ko‘rib chiqiladi;

- harbiy xizmatchilar farzandlarini ma‘nan yetuk, intellektual salohiyatli va jismonan sog‘lom va barkamol avlod sifatida tarbiyalash maqsadida ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy-sport tadbirlari va turli tanlovlar o‘tkaziladi;

- harbiy xizmatchilarning oilalari o‘rtasida oila madaniyati va odobi, oilada er-xotinlik munosabatlari, farzand tarbiyasiga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirish, namunali, ibratli oilalarni aniqlab, ularning namunali turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida “Namunali harbiylar oilasi” tanlovi bosqichma-bosqich o‘tkaziladi;

- harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida “Sog‘lom turmush tarzi targ‘iboti”, “OIS – zalolatdan saqlanib”, “Giyohvandlik – salomatlik kushandasi”, “Giyohvand moddalarni inkor etamiz”, mavzularida seminarlar, savol-javob kechalari, ochiq muloqotlar, davra suhbatlari va boshqa profilaktik tadbirlar tashkil etilib, ushbu mavzularda hujjatli filmlar namoyish qilinadi;

- harbiy xizmatchilarning rafiqalarini tikuvchilik, kasanachilik va pazandachilikka yo‘naltirish bo‘yicha tegishli tuman va shaharlarda (gornizonlarda) to‘garaklar va o‘quv kurslari tashkil etiladi;

- har chorakda bir marotaba gornizonlarda harbiy xizmatchilarning rafiqalari uchun bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalari o‘tkaziladi.

Mazkur tadbirlarni samarali o‘tkazishga Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, “Sog‘lom avlod uchun” xalqaro xayriya fondi va ularning hududiy bo‘linmalarining mutaxassisleri keng jalb qilinadi.

Huquqiy tarbiya - bu qonunni yaxshi tushunish, bilish, hayotga tadbir etish, ijrosini ta‘minlash va har bir shaxsni ijtimoiy hayotda faol ishtiroki va bunday faollikni boshqalardan ham talab qilish jarayonidir.

Huquqiy tarbiyani, avvalo, insonning ichki dunyosi, ichki madaniyati, umuminsoniy an‘analarga va huquqiy bilimlarga bo‘lgan munosabatlari belgilaydi. Shaxsning ichki madaniyati uning tashqi odobini ko‘rsatadi.

Huquqiy tarbiyaga ega bo'lgan ofitser qo'mondon talablari va qoidalariga hurmat bilan qaraydi, harbiylarning boshqarishda o'zini malaka va bilimlarini ishga solib faol qatnashadi. Ko'pincha kishilar huquq, qonun, burch, adliya kabi atamalarni yaxshi bilmasliklari tufayli qonunbuzarlikka yo'l qo'yib, javobgarlik holatiga tushib qoladilar.

17.2. Harbiy xizmatchilarning ekologik tarbiyasi

“Ekologiya”- yunoncha so'z bo'lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o'rganadigan fan. “Ekologiya” atamasi 1866-yilda nemis zoolog olimi E.Gekkel tomonidan fanga kiritilgan.

Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammolarini yechish zaruriyati tug'ildi. Shu borada ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish asosiy ishlardan biri bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida yer va yer osti boyliklarini, suv manbalarini, o'simlik va hayvonot dunyosini qo'riqlash, bu boyliklardan ilmiy asosda, oqilona foydalanish, havo va suvni toza saqlash, tabiat boyliklarini uzluksiz ko'paytirib ta'minlash, insonning atrof-muhitni yaxshilash uchun tadbirlar ko'rish zarurligi ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilgan “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun”, “Sog'lom avlod uchun” ordenning ta'sis etilishi, shu nomda Davlat dasturi “Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi” ning ishlab chiqilishi, “Ekosan” jamg'armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga kirishilganligidan dalolat beradi.

Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigiyenik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yo'nalishlari mavjud. Bu yo'nalishlar ichida pedagogik yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ekologik muammolar inson faoliyati natijasida kelib chiqadi.

Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim-tarbiya berish ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim deganda, harbiylarga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.

Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad

ham yosh avlodda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Ekologik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashlarni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi oliy ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi.

Ekologik tarbiya berishni tayyorlashning mazmuni quyidagilarni o'z chiga oladi:

- *Atrof muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri;*
- *Tabiat va uning ahamiyatini saqlash;*
- *Atrof-muhit muhofazasi, bunda harbiylarning vazifalari;*
- *Tabiatga ongli munosabat jarayonida harbiylarning dunyoqarashini kengaytirish;*
- *Harbiylarning ekologik jihatdan tarbiyalashda milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e'tiborni kuchaytirish.*

Agar maktabda o'quvchilarga tabiatni muhofaza qilishga doir bilim, tarbiyani geografiya va boshqa darslarida har bir mavzuga bog'lab berish kerak bo'lsa, oliy o'quv yurtlar va harbiy qismlarda maxsus tarbiya soatlar tashkil qilinadi.

Masalan, Respublikada 1200 ga yaqin sanoat korxonasi borligi, ular havoga bir yarim ming tonnaga yaqin zaharli moddalarni chiqarayotganlari, bunday holat 10-20 yildan keyin shu maromda ketaversa, nimalarga olib kelishi mumkinligi kabi misollar vositasida ekologik falokat oqibatlari yoshlarga tushuntiriladi.

Ekologik yo'nalishdagi ta'limda yoshlar tabiatga zarar yetkazmaslikka, tabiat go'zalliklaridan zavqlanishga, atrof-muhitni sevishtga o'rgatib boriladi.

Mashg'ulotlarda o'tiladigan "Tabiatni e'zozlaylik", "Tabiat va inson", "Ekologiya va inson", "Orol madad so'raydi", "Qushlar bizning do'stimiz" kabi mavzular yoshlarda tabiatga qiziqishni yanada oshiradi. Bag'ritosh, shafqatsiz, tabiatga mensimaslik kayfiyati bilan qaraydigan ayrim yoshlarni hushyorlikka chorlaydi.

Milliy tarbiyamizda to'rt narsa - yer, suv, tuproq va havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlarda suvga e'tiqod qo'yib, yozning eng jazirama kunlarida "Suv sayli" o'tkazgan. Ota-bobolarimiz "Suv-tabiat in'omi, hayot manbai" deb bejiz

aytishmagan. Har tomchi suvni gavhardek qadrlab, bog‘-rog‘lar yaratishgan.

Ajdodlarimiz yoshlar tarbiyasi masalasiga alohida e‘tibor bilan qaraganlar va bu borada ibratli an‘analarni vujudga keltirganlar. Bolalik, go‘daklik chog‘laridanoq axloqiy va mehnat tarbiyasini oilada boshlaganlar. Ularga mehnatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat, obodonlashtirish va ko‘klamazorlashtirish hissi sabot bilan singdirilgan. Masalan, atrofni ifloslantirmaslik uchun axlatlarni alohida chuqurlarga tashlash, hojatxonalarini ariq, soy, buloq suvlaridan uzoqroq joyga kovlash, yong‘in chiqmasligi chorasini ko‘rish, turli ehtiyojlar uchun yashab turgan daraxtdan emas, balki qurib qolganlaridan foydalanish, nihollarni singdirib, payhon qilmaslik, qushlarni uyasini buzmaslik kabi xatti-harakatlar shakllantirilgan.

Oila davrasida farzandlarga *“Suvga tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonvorlar uni ichib bahra oladi”, “Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o‘zing iste‘mol qilasan”* degan nasihatlarini aytishni unutmasligimiz kerak.

Aholining ko‘payib borishi natijasida ekologik muammolar ham ko‘payib bormoqda.

Yuqoridagi omillar asosida ekologik tarbiyalash o‘quvchilarda tabiatni muntazam kuzatib borishga qiziqishni uyg‘otadi, tabiatni himoya qilish uchun kurashishga, uning go‘zalligini asrab-avaylashga olib keladi. Tabiatga muhabbatni va unga ehtiyotkorlik hissini tarbiyalash shaxsda axloqiy belgilarini rivojlantirishga yordam beradi.

Milliy xavfsizlikka yashirin qarshi tahdidlarni ko‘rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni himoya qilish muammosi alohida e‘tiborga molikdir. Ochiq e‘tirof etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski ma‘muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida muammo bilan jiddiy shug‘ullanilmagan. Aniqrog‘i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbai o‘z mamlakatlarning kelajagiga tabiiy boyliklarni saqlanib qolishiga befarq qaramagan, bu haqda qattiq tashvish chekkan, odamlarning esa «qalb nidosi» bo‘lib kelgan.

Asrlar tutash kelgan pallada butun imkoniyat mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo‘lni qovushtirib o‘tirish o‘z-o‘zini mahkum etishga barobardir. Ekologik muammo xavfsizligi allaqachonlar milliy va mintaqaviy

doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi.

Bu qonuniyatlarni buzish anglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi. Inson tabiatning imkoniyatlarini va uni rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olmay jadal yuritilgan xo'jalik faoliyati Rim klubining XXI asr yo'li deb atalmish tadqiqotlaridan birida ko'rsatib o'tilgandek, «Yer yuzida tuproq kurashi» o'rmonlardan mahrum bo'lish, baliqlarning haddan tashqari ko'p ovlanishlari, tuzli yomg'irlar, atmosfera ifloslanishi, azon qatlami buzilishi va hokazolarning ro'y berishiga olib keldi. Mutaxassislarning baholashlariga 2003-yilga kelib o'rmonlar egallab turgan quruqlikning 1G'6 qisminigina tashkil etdi. Holbuki, 50-yillarda ular 1G'4 qismini egallagan edi.

Hozirgi kunda jahon fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi munosabati bilan tabiiy zahiralardan xo'jalik mahsulotlari maqsadida juda ko'p foydalanilmoqda. Buning ustiga dunyo aholisining kundan kunga o'sib borib, ko'proq miqdorda oziq ovqat chiqarish, kiyim-kechak, yoqilg'i ishlab chiqarishi talab qilinmoqda. Bu esa o'rmonlar egallab turgan maydonlarning jur'at sur'atlarida qisqarishiga, cho'l sahrolarining bostirib kelishiga, tuproqning buzilishiga, atmosferaning yuqorida joylashgan azon to'sig'i kamayib ketishiga, yer havosining o'rtacha haroratining ortib borishiga va boshqa holatlarga sabab bo'lmoqda. Beto'xtov davom etayotgan qurollanish poygasi atom kimyoviy qurollari va ommaviy qirg'in qurollarining boshqa turlarini ishlab chiqarish, saqlash va sinash insoniyat yashaydigan muhit uchun juda katta xavfdir.

Ekologiya muammosi yer yuzining hamma burchaklaridan ham dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Faqat uning keskinlik darajasi dunyoning turli mamlakatlarida va mintaqalarida turlichadir. Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik faoliyatning g'oyat xavfli zonalaridan biri vujudga kelganligini alam bilan ochiq aytish mumkin. Vaziyatning murakkabligi shundaki, u bir necha o'n yillar mobaynida ushbu muammoni inkor etish natijasidagina emas, balki mintaqada inson hayot faoliyatining deyarli barcha sohalari ekologik xatar ostida qolganligi natijasida kelib chiqqandir.

Tabiatga qo'pol va takabburlarcha munosabatda bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Biz bu borada achchiq tajribaga egamiz. Bunday

munosabatni tabiat kechirmaydi. Inson tabiatning xo‘jayini, degan soxta sotsial-demokratik mafkuraviy da’vo, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘plab odamlar bir qancha xalqlar va millatlarning hayoti uchun fojiaga aylandi. Ularni qirilib ketish yoqasiga keltirib qo‘ydi.

Afsuski, bu jarayonlar O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. Bu yerda mutaxassislarning fikricha, aytish mumkinki, juda murakkab xavfli vaziyat vujudga kelmoqda. Bunday vaziyat nimadan iborat?

Birinchi dan? yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog‘liqligi to‘xtovsiz ortib bormoqda. Markaziy Osiyo sharoitida yer Olloh Taoloning bebaho in’omidir. U tom ma’noda odamlarni boqadi, kiyintiradi. Bevosita dehqonchilik bilan bog‘langan oilalarnigina emas, balki ma’lum bir tarzda qishloq xo‘jaligiga aloqador barcha tarmoqlar va ularning ne’matlaridan bahramand bo‘layotgan Respublikaning barcha aholisi farovon turmush kechirishi uchun moddiy negizlar yaratdi.

Ikkinchi dan, yer ulkanlik bo‘libgina qolmay, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir. Bu hol O‘zbekistonda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki yerning iqtisodiy va demokratik vazifasi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Tayanch so‘zlar: Ekologiya, tevarak-atrofni, milliy qadriyatlar udumi, xulq-atvorning go‘zalligi, donolik, bag‘rikenglik, odoblilik tushunchalari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ekologiya tushunchasini ta’riflab bering.
2. Harbiy xizmatchilarda ekologik tarbiyani tushuntirib bering.
3. Ekologik og‘ir hududlarimizni aytib bering.
4. Ekologiyaga taaluqli qonun hujjatlaridan qaysilarini bilasiz?

18-MAVZU: TARBIYA METODLARI

Reja:

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-intellektual sifatlarini baholash usullari. Munozara.
2. Harbiy pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.
3. Ofitserning o'zini-o'zi tarbiyalash metodlari.

18.1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-intellektual sifatlarini baholash usullari

Tarbiya metodlari deganda, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning o'zaro bog'liq faoliyati usullari (yo'llari) tushuniladi yoki tarbiya metodlari deganda, shaxsiy sifatlarini shakllantirish jarayonida talabalarni ehtiyoj-motivatsiya doirasini va ongini rivojlantirish, xulq-atvor malakalari va odatlarini tarkib toptirish uchun hamda ularni tuzatish va takomillashtirish maqsadida qo'llaniladigan maxsus tarbiyaviy ish usublari va usullarining majmui tushuniladi. Xulosa qilib aytganda, tarbiya metodlari – bu tarbiyalanuvchilarning ongiga, irodasiga, his-tuyg'ulariga, xulq-atvoriga tarbiya maqsadida ko'zlangan sifatlarini tarkib toptirish maqsadida ta'sir qilish usullaridir.

Tarbiya metodlari shaxsni har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko'pgina tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Ayni vaqtda tarbiya mazmunining ko'p qirraligi va kengligi tufayli tarbiya metodlari ham xilma-xil bo'lib, muayyan sharoitda ularda qaysi birini tanlash va qo'llash o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarga, tarbiyaning qaysi sohasi hal qilinayotganligiga ayni vaqtda vujudga kelgan vaziyatlar bog'liqdir.

Tarbiya metodi ham ta'lim metodi kabi yolg'iz o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyatinigina emas, balki talabalarning aktiv faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Obyektiv dunyoni bilish, nazariyada nimani o'rganish va o'rgatish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqdir.

Pedagogika fani o'z mazmun va mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa jarayonlarini uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari o'rganadi. Ushbu ilmn

ilmiy tadqiqot usullari deganda, yosh avlodni tarbiyalash, bilimlil qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, uslublari va vositalari majmui tushuniladi. Pedagogik jarayonida tarbiya metodlari ularni tashkil qiluvchi elementlarga bo'linib, bunday elementlar tarbiya usullari deb ataladi. Tarbiya metodiga nisbatan tarbiya usuli xususiy, bo'ysunuvchi xususiyatga egadir. Tarbiya metodlari va usullari bir-birlariga uzviy bog'liq, aniq pedagogik vaziyatlarda biri ikkinchisiga o'tishi, bir-birlarining o'rnini bosish mumkin. Bir xil sharoitda metod tarbiyaviy vazifani hal qilishning mustaqil yo'li rolini bajarsa, boshqa holatda u o'z xususiy vazifasiga ega bo'lgan tarbiya usuli sifatida ega bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik, tezkor axborot berish, vatanparvarlik, harbiy va ma'naviy tarbiya yo'nalishlari bo'yicha shaxsiy tarkibni tarbiyalashning qat'iy tizimi yuzaga keldi va hozirda u yanada takomillashtirmoqda. Komandirlar va ularning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlarining ish amaliyotida ma'ruzalar, suhbatlar, ijodiy kechalar, ilg'or harbiy xizmatchilarni sharafdash kechalari, urush faxriylari, fan, madaniyat va hukumatga qarashli bo'lmagan jang'armalar va tashkilotlarning arboblari bilan uchrashuvlar o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

Shu jumladan, boshqa an'anaviy milliy usullar hamda ma'naviy, axloqiy va nafosat jihatdan shakllantirishga qaratilgan uslublarni ijodiy qo'llash jangchilarda zarur xislatlarni o'z mustaqil Vatanga, xalqiga va Prezidentiga sadoqatli vatanparvar jangchi bo'lishdek olijanob tuyg'ulari qaror toptirish imkonini beradi.

Ilg'or mamlakatlar va ularning armiyalari tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim-tarbiyaning yangi tizimga o'tishning muhim boshlang'ich shartlaridan biri sifatida tarbiyaviy ishlar mexanizmini tubdan o'zgartirish, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning o'ziga xos ustuvor yo'nalishlarini belgilash, shaxsiy tarkibga davlat siyosatini, hamda Qurolli Kuchlarni isloh qilishga oid masalalarni aniq va ravshan tushuntirish maqsadga muvofiqdir. O'z oldimizga qurolli Kuchlardagi tarbiyaviy ishlar qo'llamini qaytadan yangilash vazifasini qo'ygan holda, biz butun mafkuraviy, tarbiyaviy manbani jangovar shaylik, jangovar tayyorgarlik va harbiy intizomni mustahkamlashga oid vazifalarni hal qilishga qaratmog'imiz lozim.

Tarbiya metodlari nazariyasida yana holat va vosita tushunchasi ham qo'llanadi. Holat metodga nisbatan xususiy tushuncha bo'lib, metodga bo'ysunadi, xizmat qiladi. Masalan, bolalarda madaniy xulqqa oid odatlarni hosil qilishni o'rgatish, odatlantirish uchun mashqlardan foydalanamiz. Bu metodga turli holatlar xizmat qiladi, ya'ni ko'rsatamiz, o'rganamiz, ta'kidlab, esiga tushirib turamiz yoki leksiya suhbatlar orqali axloq qoidalari va normalarining mazmunini ochib beramiz.

Tarbiyaviy vosita ancha keng tushuncha bo'lib, har qanday tarbiyaviy vazifani hal qilish uchun qo'llanilayotgan metodik yo'lning muvaffaqiyatli chiqishga ko'maklashadi. Tarbiyaviy vosita turli xil predmetlar, faoliyat turlari, tarbiyaviy maqsadda qo'llanilayotgan texnik imkoniyatlar, ko'rsatma qurollar, kitoblar, ommaviy kommunikatsiya vositalarini kiritish mumkin. Lekin shuni esda tutmoq kerakki, tarbiyada qo'llaniladigan predmetlar, faoliyat turlari, voqealar metod bilan qo'shilmasa, foydasi bo'lmaydi, ular yolg'iz, saf holda tarbiyaviy vazifani bajara olmaydi. Faqat biror tarbiya maqsadini hal qilish uchun qo'llangan taqdirdagina tarbiya vositasi bo'la oladi.

Tajribada tarbiya metodlari, holatlari va vositalari o'rtasidagi farq ko'rinmaydi. Chunki tarbiya metodlari dialektik xarakterga ega bo'lib, ularga ham tarbiya jarayonning o'zi kabi harakatchanlik va o'zgaruvchanlik xosdir. Ulardan samarali foydalana olish tarbiyachining mahoratiga bog'liq. Mohir tarbiyachi bolaga tarbiyaviy ta'sir etishda uning yoshi va individual xususiyatlari, tarbiyalanganlik darajasi, o'zi bilan bola o'rtasida vujudga kelgan munosabatning xarakteri, o'quvchi intilishlarning o'sish darajasi, faoliyatda qatnashishdan bola ko'zlangan maqsadi, motivi, aloqalarining o'zgarishiga ta'sir etayotgan vaziyat va sharoitlarini to'la hisobga olgan holda ta'sir etishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan metodni to'g'ri tanlay oladi. Metodlar sistemasining xarakterli xususiyati shundaki, ular o'zaro bog'liq bo'lib, metodning bir turi ikkinchisi bilan qo'shilib ketadi.

Tarbiya metodlarini tarbiya vositalari bilan aralastirmaslik kerak. Ular uzviy bog'langan birgalikda qo'llaniladi, ammo o'z xususiyatlariga ega. Tarbiya hodisalari juda murakkab va qarama-qarshi bo'lib, shu sababli pedagogik ta'sir etish usullarini tasniflashga yagona mantiqiy asos topish juda murakkabdir.

Tarbiya metodlarini tasnifi. Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishning xilma-xil holatlar, vositalar va metodlaridan foydalanadi.

Tarbiyani shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

Shaxs ongini shakllantirish metodlari (bu guruhga suhbatlar, ma'ruzalar, munozaralar va o'rnak metodlari kiradi);

Faoliyatni tashkil qilish va ijtimoiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish metodlari (bu guruhga pedagogik talab, jamoatchilik fikri, o'rgatish, mashq qildirish metodlari kiradi);

Xulq-atvor va faoliyatni rag'batlantirish metodlari (bu guruhga musobaqa, taqdimlash (qiziqtirish) va jazolash metodlari kiradi).

Bundan bir necha yil oldin Sharq mutafakkirimiz Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy bolani tarbiyasi haqida to'rt metodlarni tavsiyalanadi:

- **Pand nasihat yo'li bilan tarbiyalash metodi.** Uni fikriga bolani pand-nasihat yo'li bilan tarbiyalash ota-onadan va tarbiyachilardan katta mas'uliyatni talab qiladi. Chunki bolalarga pand berish uchun har bir ota-ona yoki tarbiyachi tarbiya turlariga doir pandlarni bilish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur. Ammo shuni eslatish lozimki, agar pand-nasihat g'arazdan tashqari bo'lsa bolani tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu haqda "Muntaxabi kulliyot" asarini 185 betida shunday deydi:

Nasihat g'arazdin toshqida qolgan chog'da,

Achchiq doruday bulur, chiyon zahriday.

- **Shaxsiy ibrat metodi.** Bizga ma'lumki, tarbiyachi o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak. Harbiylarga nisbatan har bir ishlatadigan tarbiya tamoyillari tarbiyachining o'z faoliyati talabga javob bera oladigan holatda bo'lishi shart. Harbiylar tarbiyasida ibrat-namuna metodning ahamiyati kattadir. Shaxsiy ibrat yoki namuna metodi harbiylarni taqlidchanlikka asoslanadi. Taqlid boshqalarning xulq-atvorini, yurish-turishini ongli yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlash deb bilamiz.

Odatda, harbiylar o'z yaqinlari, tevarak-atrofdagi kishilarning (ota-onalari, opa-akalari, kattalar, ustozlar va hokazo) xulq-atvorini va xatti-harakatlarini kuzatib boradilar, ularga taqlid qiladilar.

Sa'diy Sheroziy bu holatda shuni ta'kidlaydiki, ta'lim-tarbiyaga berish vaqtda tarbiyasiz kishilarni xatti-harakati ham bolalarga o'rnak bo'lishi mumkin.

Masalan: “Luqmondan so‘radilar - Tarbiyani kimdan o‘rganish mumkin? Luqmon javob berdi: Tarbiyasiz kishilardanki, ularni qilmishlari insoniy fazilatlarga xos kelmasin”.

- **Maqtoʻv-tavsif metodi.** Bu metod bolalarni yosh xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, xususan, kichik yoshdagi bolalarga xosdir. Xususan, kichik maktabgacha va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni bilish darajasini yuqori darajaga ko‘tarib, havasmandlik doirasini shakllantirishda, tarbiyaga doir xatti-harakatlarini, muammo-munosabatlarini o‘zgartirishda katta yordam ko‘rsatadi.

Sa‘diy Sheroziy bu metodni dag‘allik va qo‘pollikdan nisbatan afzalligi, ya‘ni maqtash, ta‘rif-tavsif orqali yoshlarni ruhiyatini ko‘tarish xislatlarni tarbiyalashga qaror qilgan. U tarbiyachilarga murojaat etib, “Bo‘ston” kitobini 258 betida shunday keltiradi:

Ba xurdi darash zahr-u ta‘lim kun

Ba neku badash va‘davu bim kun.

Navomo‘zro madhu tahsinu zeh

Zi tavbihu tahdidi ustod beh...

- **Talab va jazo metodi.** Bu metod oldingi metodlardan farq qiladi. Talab-harbiylarni yaxshi xulqga, ijobiy xatti-harakatga undovchi turtki bo‘lib xizmat qiladi, jazolash esa-nomaqbul harakatlardan tiyib qoladi yoki xulqidagi salbiy tomonlarni yo‘qotishga yordam beradi. Har qanday tarbiya metodini qo‘llaganda konkret pedagogik sharoit, bolaning holati, jamoadagi kayfiyat hisobga olinadi. Aks holda ko‘pgina holatlar sodir bo‘lishi mumkin. O‘tmishlarimizdan ma‘lumki, shaxsni tarbiyasi paydo bo‘lgan chog‘dan talab va jazo metodlar amal qilmoqda. Sa‘diy Sheroziy yoshlarni tarbiyasida muloyimsuxanlik, xushmuomalalik fazilatlarni o‘ziga ravo ko‘rgan. Ammo hayot taqozosiga qarab bolani to‘g‘ri va har tomonlama tarbiya topishda o‘z mavridida jazo metod orqali tarbiyalashni ham lozim tutadi. U bu masalada shunday yozadi: “Har kimki, u ustoz jabrini ko‘rmasa, jafu ko‘rur ro‘zg‘oridin”¹.

Sa‘diy Sheroziy haqiqat yo‘lida tarbiyalash to‘g‘risida shunday yozadi:

Agarda muallim bo‘lsa beozor,

Bolalar sinfni qilishar bozor.

¹ Саъдий Шерозий – «Бўстон». Тошкент-1968 й. 128 бет.

Kumush ul taxtaga zardin bitib yod:

“Ota mehridin afzal-jabri ustod”².

Muallimning soʻziga amal qilmagan shahzodalarga jazo koʻproq berilishi joiz, chunki ularning gapirgan gaplari, qilgan ishlari tillarda doston boʻladi - muallim tili ochiq, badjahl, fosiq, haddan tashqari qattiqqoʻl boʻlmasligi, shuningdek, oʻta sodda, muloyim tabiatli kishi ham boʻlmasligi joiz.

Pedagogika fani oʻz mazmun-mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan oʻrganadi. *Ushbu usullar tavsifiga qarab uch turdagi metodlar shaklida amal qiladi:*

Shaxs ongini shakllantirish metodlari. Bu turdagi tarbiya metodlari harbiylarning ongiga ijtimoiy munosabatlar, ideallar, namunalar, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni kiritishni, ularda qoʻmondon tomonidan harbiy xizmatchilar oldiga qoʻyiladigan talablar, axloqiy va boshqa meʼyorlar, tamoyillar, koʻrsatmalarga oid tushunchalar va fikr-mulohazalarni hosil qilishni koʻzlaydi.

Tarbiyalanuvchilarning anglanilgan va gʻoyaviy jihatdan asoslangan bilimlari asosida, ularda barqaror va yorqin qarashlar hamda eʼtiqodlar tarkib topadi va quyidagi metodlar aks etiladi:

Suhbat metodi turli - tuman va boy gʻoyaviy-tematik mazmunga ega boʻlib, harbiylarning ijtimoiy hayotining voqea-hodisalarini, insonlarning xatti-harakatlarini baholashga jalb etish va uning asosida atrofdagi turmushga, oʻz fuqarolik, axloqiy va siyosiy burchlariga ongli munosabatni shakllantirishni koʻzda tutadi.

Suhbatlar harbiylarning shaxsiy tajribasiga, ishlariga, xatti-harakatlariga tayansa, u holda suhbatning samarasi ancha yuqori boʻladi. Suhbat asosida ijtimoiy hayotning maʼlum tomonlarini ijtimoiy, axloqiy va estetik mazmunini aks ettiruvchi dalillar yotadi. Dalillar harbiylarni ongiga turli xil shaklda yetkazilishi mumkin, ammo ular tarbiyalanuvchini fikrlashga, mulohaza yuritishga, shaxslarning xatti-harakatlarini baholashga yoʻnaltirilishi kerak. Suhbatda mavzuni toʻgʻri tanlash, savollarning pedagog tomonidan asosiy ravishda qoʻyilishi, harbiylarni oʻz fikr-mulohazalarini erkin ifodalashlariga imkon berish, mustaqil holda xulosaga kelishi talab

² Саъдий Шерозий – «Гулистон». Тошкент-1968 й. 146 бет.

qilinadi. Suhbat pedagog-tarbiyachilarning yakunlovchi soʻzi bilan tugaydi va bunda harbiylarni fikrlarini umumlashtiradi.

Maʼruzalar metodi. Bu ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, gʻoyaviy-nafosat mazmundagi u yoki bu muammoning mohiyatini kengaytirilgan va tushunarli shaklda, tashkiliy sistematik ifoda qilish metodi. Leksiyaning mantiqiy markazida ilmiy ong doirasiga taalluqli biron-bir nazariy xulosa yotadi. Mantiqan ishonchli dalillar asosida tashkil qilingan maʼruzalar harbiylarga kuchli gʻoyaviy va ruhiy taʼsir etadi. Bunda harbiylarga katta materialni bermaslik, soʻzlardan nooʻrin foydalanmaslik zarur. Chaqiriqlar va ishoralarni keltiraverish, umumiy va koʻrik jummalardan nari oʻtmaslik harbiylarda zerikish, ishonchsizlik uygʻotadi. Ayniqsa, yuqori guruh talablari pedagogning fikridagi oʻziga xoslik, hodisa voqealarga shaxsiy munosabat, yangilikka qiziqish bilan qaraydilar. Harbiylar tarbiyaviy mazmundagi bilimlarni shunchaki qabul qilmaydilar, balki tanqidiy holda fikrlash orqali oʻzlashtiradilar.

Munozaralar metodi. Bu metod fikrlar, qatʼiy, oʻzgaruvchan bilimlarni shakllantirishni eʼtiborga oladi. Munozara har guruhga oʻziga xos holatda tashkil qilinadi, negaki bu davrlar oʻspirin hayotning mazmunini anglashga intiladi, haqiqatni bilishga, toʻgʻri yoʻl topishga harakat qiladi. Munozara aniq va uzil-kesil xulosalarga kelishni talab etmaydi. Bunda tushunchalar va dalil isbotlarni tahlil qilish boshqa insonlarni ularga ishontirish imkoniyatiga ega boʻladilar. Munozara faqat oʻz fikrini aytish bilan cheklanilmaydi, balki qarama-qarshi mulohazalarning kuchli va kuchsiz tomonlari aniqlanadi. Munozara harbiylarning haqiqat qaror topishi uchun notoʻgʻri nuqtai nazardan voz kechishga oʻrgatadi. Munozara uchun, odatda, dolzarb, harbiylarni bezovita qilayotgan, ularni bahsga chorlovchi mavzular tanlanadi.

Faoliyatni tashkil qilish va ijtimoiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish metodlari. Tarbiyada faoliyat kompleksi qoʻllanishi shart: agar faoliyat harbiy qismda “shaxsiy maʼno” kasb etmasa, yaʼni faoliyat motivi harbiylarning shaxsiy munosabatiga mos kelmasa, u holda faoliyat tarbiyalanuvchi shaxsiga ijobiy taʼsir etmaydi. Harbiylar faoliyatini tashkil qilish, ularni faoliyatga undash, oʻrgatish va mashq qildirish, ularni faoliyatini tarbiyaviy samarasini koʻp jihatdan belgilaydi.

Pedagogik talab. Qurolli Kuchlarni u yoki bu faoliyatini bajarish jarayonida ijro qilish zarur bo'lgan aniq, real vazifa – bu talabdir. Talab harbiylarning faoliyati xulq-atvori va muomalasidagi kamchiliklarni qayd etish va shu orqali uni o'z ustida ishlashga rivojlanishga undashi mumkin. Talab orqali harbiy qo'mondonda tartib-intizom saqlanadi. Pedagogik talab harbiylarning o'ziga nisbatan talabchan bo'lishiga olib keladi. Bunday talablar jamoani tarbiyalashning birinchi bosqichida qo'yiladi, harbiylarda ma'lum darajada aql-idrok, xulq-atvor, motivlar, maqsadlar, e'tiqodlar bo'lishligini nazarda tutadi.

Ijtimoiy fikr. Bu metod tarbiyalovchi jamoaning baholashlari, mulohazalari, irodasini mujassamlagan holda mahoratli pedagog tomonidan tarbiyalanuvchilarga ta'sir qilishning samarali usullari qatoridan o'rin oladi. Jamoa o'z rivojlanishi mobaynida g'oyaviy, aqliy, emotsional-irodaviy va tashkiliy birlikka erishadi, o'z-o'zini boshqarishga qodir bo'ladi. Sog'lom ijtimoiy fikr shakllangan jamoada tarbiyaning subyektiga aylanadi. Pedagog tarbiyalovchi jamoada sog'lom jamoatchilik fikrini hosil qilish uchun tarbiyalanuvchilarni guruh va hayotdagi hodisalar va voqealarni jamoa holda muhokama qilishga jalb etadi, ularga to'g'ri baho berishga o'rgatadi.

O'rgatish (odatlantirish) metodi. Bu metod harbiylar tomonidan ma'lum bir xatti-harakatlarni tashkil qilishdan iborat. Harbiylar odatlarida quriladigan tarbiya mustahkam bo'ladi. Odatlantirish harbiy rivojlanishning ilk davrlarida, ayniqsa, yuqori samara beradi. Uni amalga oshirish bir necha pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish kerak: - nimani odatlantirish zarurligi to'g'risida yaqqol tasavvurga ega bo'lish;

Odatlantirilayotgan harakat obrazi harbiyga mumkin qadar qisqa, ravshan qoida orqali yetkazilishi zarur;

Harbiylarda shu xulq-atvor shakliga ijobiy munosabatni uyg'otish;

Vaqt birligi ichida harbiyga odatlantirayotgan xulq-atvor shaklining bironta bo'lagini uqtirish;

Avval harakatning aniqligi, so'ng esa tezligiga erishish, harakatni bajarishning xususiyatini nazorat qilib borish zarur.

Mashq qilidirish. Harbiylarda zarur xulq-atvor malakalari va odatlarini tarkib toptirish maqsadida ular tomonidan ish-harakatlar va

muomala usullarining ko'p marotaba takrorlanishidir. Bu metod odatlantirish metodiga yaqin, u bilan uzviy bog'liqdir. Bu metodda nafaqat xatti-harakatlar va muomala usullarini takrorlanadi, balki ularni vujudga keltiruvchi ehtiyojlar va motivlar ham qaytalanadi.

Xulq-atvor va faoliyatni rag'batlantirish metodlari. Bu guruhga xos tarbiya metodlari harbiylar shaxsiga u yoki bu omillarning ta'sirini mustahkamlash va kuchaytirish, ularning fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlariga turtki berish maqsadida qo'llaniladi.

Musobaqa metodi. Musobaqaning asosida harbiylarga xos bo'lgan sog'lom raqobatlashuvga, ustuvorlikka, birinchilikka o'zini namoyon qilishga intilish yotadi. Musobaqa harbiylarni o'qishda, ijtimoiy-foydali va mahsuldor mehnatda, jamoat ishlarida, sport bellashuvlarda eng yaxshi natijalarga erishish uchun kurashga chorlaydi.

Rag'batlantirish metodi. Alohida harbiy yoki harbiylar jamoasining xulq-atvori va faoliyatini ijobiy baholash, tan olish metodi - ma'qullashdir. Ma'qullash vositalari bo'lib quyidagi choralar xizmat qiladi:

- *Ofitserning minnatdorchiligi;*
- *Harbiy qo'mondon buyrug'iga binoan minnatdorchilik;*
- *Harbiy mudofaa nishonlari bilan mukofotlash.*

Jazolash metodi. Bunda harbiylarning xulq-atvor me'yorlari va qoidalariga zid keluvchi xatti-harakatlari va qiliqlarini ma'qullamaslik holda salbiy baholash amalga oshiriladi. Qoralash harbiylarni o'z fe'l-atvori va xulq-atvorini chuqur tahlil etishga, o'ylab ko'rishga majbur etadi.

Harbiylarni ma'naviy-intellektual sifatlarini baholash usullari

Harbiylarni mustaqil bilim olishiga o'rgatish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazarda aytish mumkinki, bugungi kunda yoshlarni ma'naviy-intellektual sifatlarini rivojlanishining ahamiyati kattadir. Xususan, faoliyatida ma'naviy intellektualni rivojlantirish asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlarini zamonaviy usullarda aniqlash tarbiyaviy jarayonga samarali o'zgartirishlar kiritadi. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlaridagi yutuq

va kamchiliklarini tuzatish tarbiya mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini yaxshilashga mos tuzatishlar kiritish lozim.

Vatanga munosabat-ya'ni vatanparvarlik, baynalmilal masalalar.

Boshqa insonlarga munosabat-ya'ni jamoamiz va o'zaro o'rtoqlik yordam, xushmuomalalik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, burch va javobgarlik hamda bolalar tarbiyasi to'g'risidagi g'amxo'rlik masalalari.

O'ziga munosabat-o'z ijtimoiy burchini yuksak darajada anglash, halollik, axloqsizlikka nisbatan murosasizlik masalalari.

Ota-onaga munosabat-oilada madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq fazilatlari masalalarini tashkil qilish.

Tarbiya deganda, kimnidir maxsus bir joyga o'tkazib, faqat pand-nasihati berishni emas, balki hayot davomida, uy yumushlari jarayonida, ta'lim va ilm o'rgatish vaqtida hayot va turmush saboqlarini tushuntirish chog'ida, shaxsiy o'rnak ko'rsatish odatini tushunmoq va bilmoq lozim. Shu omillar bir-biri bilan qo'shib olib borilishi kerak.

Harbiylar hayotda, asosan, ikki yo'l bilan axloqiy ruhda tarbiyalanishi mumkin: birovlarining bevosita ta'siri, ya'ni o'rgatishi, donolar fikrlari, o'g'itlari va asarlarini o'qish orqali; qolaversa, o'zining fikrlashi, odamlar xatti-harakatidan, qilgan va qilinayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi; eng qudratlisi-tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkin.

Allomalarimiz "*Agar kishiga hayotning o'zi bera olmasa ta'lim, unga o'rgata olmasa hech bir muallim*" deya nasihat qiladilar, bu inson o'z tafakkuri yordamida odob-axloq normalarini egallashi, o'zi yashayotgan jamiyat, insongarchilik xulq-atvoriga xos ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarni o'zida mujassamlashtirishi lozimligini taqozo etadi.

Demak, tarbiyashunoslik insonni go'dakligidan boshlab to umrining oxirigacha hayot va turmush odobiga o'rgatuvchi va shu narsalarni tahlil hamda tadqiq etuvchi fandır. Bu fan odamlarning butun umri davomidagi xulq-atvori, odob-axloqi, bu boradagi milliy an'analarga sadoqat va shularga tarbiyachi hamda milliy qadriyat, ma'naviyat va ma'rifatga hurmat, imon va vijdon singari go'zal fazilatlar singan.

Bu vazifalarning, asosan, o'quv yurtlarining pedagogik jamoalari, professor-o'qituvchilar hayotda amalda bajaradilar. Shuning uchun

ham davlat hujjatlarida pedagog xodimlar o'z kasblarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishlari; odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, bola, talaba, yoshlar shaxsining qadr-qimmatini hurmatlashlari, ularni mehnatga, qonunlarga, ota-onalar va xotin-qizlarga hurmat, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari; o'zlarining butun faoliyatlari va shaxsiy namunalari bilan umuminsoniy axloq qoidalariga; haqiqat, vatanparvarlik, insonparvarlik, yaxshilik va boshqa xayrli xislatlarga nisbatan hurmatni qaror toptirishlari; o'sib-ulg'ayib kelayotgan avlodni bir-birini tushunish, xalqlar o'rtasida, shuningdek, barcha elatlar, millatlar va diniy guruhlar o'rtasiga tarbiyalashlari lozimligi qayd etilgan.

Bo'lajak ofitserning axloqiy sifatlari kasbiy-ma'naviy fazilat bo'lib, harbiy qo'mondonda amalga oshiriladigan pedagogik jarayonda shakllanadi. Bu jarayonda kasbiy tayyorgarlik bilan tarbiyaning barcha tarkibiy qismlari; axloqiy ta'lim, mehnat, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, ekologik, jismoniy va estetik tarbiya uzviy ravishda bog'langan holda o'sib rivojlanadi. Demak, bo'lajak ofitserlarning hayotiy-axloqiy sifatlari umuminsoniy va milliy tarbiyaning tarkibi qismi sifatida shakllana boradi.

Oliy harbiy yurtlarida axloqiy tarbiya jarayoni harbiylarga hayotiy axloqqa doir bilimlar berish, harbiylarga ofitser odobining tushuncha va qoidalarini o'rgatish, pedagogik axloqiy e'tiqod, axloqiy hislar, ehtiyojlar va ofitserlarga xos hayotiy axloqiy fazilatlarni shakllantirish, xulq-odobga o'rgatish kabilarni o'z ichiga oladi. Bilim yurtlarida beriladigan hayotiy-axloqiy tarbiya harbiylarning ma'naviy jihatdan rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Hayotiy axloqiy tarbiya jarayonini keng ma'noda oladigan bo'lsak, u yoshlarning ma'naviy jihatdan shakllanishida ijtimoiy muhitning ta'siri, ijtimoiy munosabatlarning turmushga tadbiiq etilishidir.

Harbiylarni hayotiy axloqiy masalasi jihatdan rivojlantirishning muhim shartlaridan biri ularni ijtimoiy-gumanitar, psixologik-pedagogik va maxsus fanlarga doir bilimlar, «munozara»lar bilan chuqur va mustahkam qurollantirishdan iborat.

Quyida amaliy mashg'ulotlarni «munozara» shaklidagi tashkil etish va uni o'tkazish usullarini keltiramiz.

Munozara-oliy bilim yurti tizimida nutq o‘stirish, o‘z fikrini mustaqil va asosli bayon qilib, xulosalar chiqarish vositasi sifatida g‘oyat muhim o‘rin egallaydi. Bu bajaralidagan ishning bir turi bo‘lib, o‘zaro tortishning jarayonini keltirib chiqaradi va unga aniqlik kiritadi.

Harbiylar tomonidan «o‘z so‘zi» o‘ziga xos uslubi asosida izchil, savodli fikr yuritiladi. Munozara vaqtida harbiylar o‘zlariga ishongan holda savollarini muhokama qiladilar. Munozara uchun shunday sharoit yaratilishi kerakki, unda harbiylar o‘z fikrlarini ishonch bilan ochiq-oydin, kamchiliklari uchun aybga qo‘ymasliklariga ishongan holda bayon etishlari kerak.

Munozara bitta bir nechta guruh bilan o‘tkazilishi mumkin.

Uni o‘tkazish talablari va qoidalari harbiylarga oldindan aytiladi va quyidagi tartibda olib boriladi:

1. *Mavzu tanlab olinadi.*

2. *Mavzuga oid reja tuziladi.*

3. *Mavzuning qisqacha mazmuni beriladi.*

4. *Ushbu mavzuga oid munozarani o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad belgilanadi.*

5. *Foydalanadigan adabiyotlar va o‘qitishning texnik vositalari tayyorlanadi.*

6. *Hayotdagi va o‘quv tarbiyaviy jarayonlardagi ijobiy ishlar bo‘yicha materiallar tayyorlanadi.*

7. *Mavzuga oid qo‘shimcha savollar ishlab chiqiladi.*

Munozara mavzusini harbiylar o‘zlari tanlab oladilar. Munozara ishtirokchilari o‘z fikrlarini bayon qilganda bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lib, o‘z qarashlarini to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini isbot qilib beradilar. Munozarada hamma ishtirokchilar mavzuga oid o‘z fikrlarini aytishi mumkin. Mashg‘ulot oxirida munozara pedagog tomonidan tahlil qilinadi va talabalar baholanib, hisoboti to‘ldiriladi.

Quyidagi mavzularni munozara uchun tavsiyalash mumkin: **“Ota-onani hurmatlash haqida”, “Suxandonlik bilan martabaga ega bo‘lish”, “Bilim olish va o‘zini yuqori olmaslik haqida”, “qarilik va yigitlik haqida”, “Sharob ichish haqida”, “Urish qilmoq haqida”, “Do‘st tanlash haqida”, “Dushmandan qutilish haqida”, “Jazo berish va avf etish haqida”, “Sipohlarning shartlari va odatlari haqida”** va hokazolar...

Pedagogik axloq-odobning muhim talablaridan biri muallim ham, ota- ona ham, tarbiyachilar ham, atrof-tevarakdagi shaxslar ham o'smir yoshdagi bolalar bilan muomala qilganda pedagogik takti saqlashi, bolani izzat-nafsiga tegmasligidir. Bu sohadagi xato ba'zan fojiaga olib kelgan hollar ham uchrab turadi.

Voqeyiy hikoyat. N. ismli qiz sakkizinchi sinfda o'qirdi. U o'z sinfdoshiga muhabbat izhor qilib, xat yozdi. Xat sinfdoshlardan biriga tushdi va uni sinfda ovoz chiqarib o'qiy boshladi. Bundan xabar topgan muallim xatni bolani qo'lidan tortib olib, baland ovoz chiqarib zaharxanda kulgi bilan butun sinfga o'qib berdi. Direktorning tarbiyaviy ishlar bo'yicha muovini qizni va onasini chaqirib, o'qituvchilar xonasida barcha o'qituvchilar oldida xatni o'qidi. Onasining jahli chiqib, barcha tengdoshlari oldida qizini urishdi, uning sha'niga haqoratli so'zlar aytdi. Kechqurun uyga borgach, oilada ham bu mojaro davom etdi. Tahqirlarga chiday olmagan o'quvchi ertasiga hammadan oldin maktabga keldi, o'zi o'qiydigan xonaga kirib, joniga qasd qildi (o'ziga-o'zi o't qo'ydi).

Bunday hodisa kamdan-kam uchraydi, lekin bu faqat muallim va ota-onalarning pedagogik xatoligi nimalarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi (munozara sifatida ko'rib chiqish mumkin).

18.2. Harbiy pedagogikaning ilmiy – tadqiqot metodlari

Buyuk istiqlol-mustaqillikka oldin borayotgan mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi va ularni ma'rifatli bo'lishi, umumxalq ishi bo'lib qoldi. Mamlakatimizda bevosita ta'lim-tarbiya ishiga da'vat etilgan muassasalar, xususan, harbiy oliy o'quv bilim yurtlari ham ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanadilar. Shunday ekan, harbiylar tarbiyasi, uning qonuniyatlari haqidagi fan-pedagogikani o'rganish, unga aloqador bo'lgan shaxslarning muhim vazifasidir.

Har bir fan predmeti uning metodlari bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir fanning konkret ravishda nimani o'rganishini aniqlash va belgilashgina juda muhim bo'lib qolmasdan, balki real dunyodagi ma'lum narsa va hodisalarni o'rganishning qanday amalga oshirilishini va unga qanday erishilishini, murakkab jarayonlarining qanday yo'llar bilan o'rganilishini aniqlash va belgilash ham g'oyat muhimdir.

Dunyoni bilish nazariyasida uchta asosiy masala: nimani o'rganish, qanday o'rganish va nimani tarbiyalash bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Biz pedagogik tadqiqot metodlari deganimizda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarini tekshirish hamda bilish usullari, holatlari va vositalari majmuini tushunamiz.

Har tomonlama yetuk insonni tarkib toptirishda harbiylarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning ahamiyati juda katta. Ilmiy dunyoqarash shaxsga atrofdagi hayotni to'g'ri qabul qilish va idrok etish, unga obyektiv baho berishga yordam beradi. Dunyoqarash yo'naltiruvchi, axborot aks ettiruvchi va baholovchi funksiyalarni bajaradi. Bu vazifalar shaxsning g'oyaviy-siyosiy, ilmiy, axloqiy-nafosat jihatdan rivojlanishining markazida turadi.

Harbiylarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy fanlarning, aniqrog'i, ularda o'zlashtiriladigan bilimlarning butun hajmi ahamiyatlidir. Dunyoqarashni shakllantirishida, eng avvalo ilmiy bilimlar muhim rol o'ynaydi. Lekin bilimlar o'z-o'zidan dunyoqarashga aylanmaydi.

Harbiylarda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish tavsiya etiladi:

1.O'quv materialini bayon qilish aniq va ishonchli dalillarga tayanilgan holda amalga oshirilishi;

2.O'rganilayotgan hodisalarning sabab-oqibat aloqalarini yoritib berish;

3.Harbiylarda tabiat va jamiyat hodisalarini tushunib yetishga qiziquvchanlikni orttirish;

4.O'qitishga g'oyaviy-siyosiy yo'nalish berish;

5.Dasturiy materiallarni o'zlashtirishda tarixiylik qoidasiga amal qilish;

6.Darslarda va sinfdan tashqari ishlarda harbiylarning bilish faolliklarini va mustaqilligini oshirish;

7.O'rganilayotgan o'quv materialiga nisbatan emotsional-ruhiy munosabat uyg'otish;

8.O'qitishning hayot bilan aloqadorligi, harbiylarni mehnat faoliyatiga jalb etish;

9.Harbiylarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;

10.Yosh va individual xususiyatlarini oshirish.

Harbiylar faoliyatida ilmiy-tadqiqot usullarini qanchalik to'g'ri tanlasa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ilmiy-tadqiqot metodlari tizimi haligacha harbiylar faoliyatida to'la yaratilgan, hal etilgan emas.

Harbiy bilim yurtining asosiy vazifasi ta'lim tizimi uchun yuqori malakali pedagog-ofitserlar tayyorlashdir. O'qituvchi-ofitser inson yaratgan barcha ilm va qadriyatlarni egallagan, ijodkor shaxs hisoblanadi. Ofitserlik qilish uchun mutaxassislikka oid, pedagogik-psixologik bilimlarni chuqur egallashgina kifoya qilmaydi. Balki u ilmiy-tadqiqot ishlariga ham layoqatli, harbiylar ta'lim-tarbiyasi jarayoniga ijodiy yondashish ko'nikma va malakalarini ham egallagan kishi bo'lmog'i lozim. Bunday ofitserni shakllantirish uchun harbiy bilim o'quv yurtlari talabalari faoliyatida ilmiy-tadqiqot elementlarini ham qo'llash lozim.

Harbiylarning ilmiy-tadqiqot ishlari, o'z navbatida, ulardan chuqur, mustahkam bilim egallashni talab qiladi. Mustaqil bilimlarsiz amaliy o'quv-tarbiyaviy ishlarga ijodiy yondashish mumkin emas.

Oliy harbiy bilim yurtlarida talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari, asosan, professional pedagogik, o'quv-tarbiyaviy yo'nalishda amalga oshiriladi. Uning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- *Harbiylarda izlanishga, tadqiqotchilik faoliyatiga, o'quv-tarbiyaviy ishlariga ijodiy yondashishni rivojlantirish;*

- *Mutaxassislikka oid va pedagogik-psixologik fanlarga oid o'quv-tadqiqot ko'nikma va malakalarini shakllantirish;*

- *Adabiyotlar va boshqa ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish qobiliyatlarini o'stirish;*

- *Harbiylar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar, shuningdek, mutaxassislik fanlari sohasidagi muammolarni ko'ra olish va shu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish ko'nikma va malakalarini egallash;*

- *O'z faoliyatini muvafaqqiyatli tashkil qilishda ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanishga o'rgatish.*

Harbiy oliy o'quv yurtlarida harbiylar bajaradigan ilmiy-tadqiqot ishlari ikki yo'nalishda tashkil qilinadi:

Birinchi-o'quv mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqot ishlari, ya'ni o'quv-tadqiqot ishlari;

Ikkinchi-auditoriyadan tashqaridagi ilmiy-tadqiqot ishlari.

O'quv mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqot ishlariga quyidagilar kiradi:

1. Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tishda tadqiqot ishlariga o'rgatish;

2. O'quv predmetlaridan amaliy mashg'ulotlar uchun tajriba va eksperiment materiallarini to'plash;

3. Qo'shimcha adabiyotlarni, ayniqsa, ilmiy tadqiqot metodlari va metodologiyasi masalalari bilan bog'liq bo'lgan adabiyotlarni o'rganish va tanqidiy tahlil qilish;

4. To'plangan tadqiqot materiallari asosida referat va ma'ruzalar yozish;

5. Pedagogik, ishlab chiqarish va dala amaliyotlari davomida, o'quv ekspeditsiyalari vaqtida o'quv topshiriqlari bo'yicha individual yoki jamoaviy tadqiqot ishlari olib borish; harbiylarning qiziqishlari, individual xususiyatlarini o'rganish, jamoada shaxslararo munosabatlar, bir maqsadga qaratilgan ijtimoiy-psixologik va sotsiologik tadqiqotlar, yoshlar e'tiqodi va ideali, o'quv-tarbiyaviy ishlar metodlarini qiyosiy pedagogik-psixologik o'rganish, fenologik va metrologik hodisalarni o'rganish va boshqalar;

6. Kurs ishlari, bitiruv va diplom ishlarini tajriba-tadqiqot yo'nalishda bajarish. Odatda, harbiylarda tadqiqotchilik sifatleri shakllanishining ikkinchi etapi yuqori kurslarda o'qish davomida bo'ladi.

Auditoriyadan tashqaridagi ilmiy-tadqiqot ishlariga quyidagilar kiradi:

- Harbiylarni ilmiy-guruhlardagi ishlari. Bunday guruhlarda talabalar ilmiy bilish metodlarini, tadqiqot usullarini o'rganadilar, adabiyotlar va boshqa ilm manbalari asosida hisobotlar yozadilar, o'zlarining tadqiqot ishlari haqida chiqishlar qiladilar, turli masalalarni muhokama qilishda, munozaralarda qatnashadilar;

- Ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan o'tkaziladigan etnografik va boshqa ekspeditsiyalarda qatnashish;

- O'zining tadqiqot materiallari asosida ma'ruzalar va chiqishlar qilish;

- Konstruktorlik byurolardagi ishlarda shartnoma yoki otaliq asosida olib boriladigan tadqiqot ishlarida qatnashish; asboblarni konstruksiya qilish va ko'rgazmalilik vositalarini yasash, jamoa xo'jaliklarida mehnatni ilmiy tashkil qilishni o'rganish va boshqalar.

Birinchi va ikkinchi kurslarda talabalar kafedra o'qituvchilari rahbariyatida pedagogik-psixologik va o'z mutaxassisligi yuzasidan dastur topshiriqlariga muvofiq o'quv xarakteridagi tadqiqot ishlarini bajaradilar. O'qigan, bilganlarini yozma bayon qilishga o'rganadi, ilmiy tushunchalarni, qoidalarni o'z tushunchasi bilan solishtiradi. Faktlar orasidagi aloqalarni tushunadi va mustaqil fikrlaydi. Referat yozish davomida adabiyotlar bilan ishlash malakasini egallaydi, muhim nazariy masalalarni mustaqil hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ayrim kurslarni oxirida o'tkaziladigan o'quv tadbirlardagi harbiylarni ilmiy-tadqiqot ishlariga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ishning bu shakli referativ ishga bog'lanadi va unga suyanadi. Ma'ruzachilar muammo yuzasidan eng yaxshi referat ishini tanlaydilar. Ularning chiqishlarini boshqalar to'ldiradilar. Har bir ma'ruza muhokama qilinadi. Bunday tadbirlar o'quv yili oxirida o'tkaziladi.

Uchinchi va to'rtinchi kurslar talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlari ikkinchi etapiga kiradi. Bu etapda talabalar laboratoriyada, o'quv va ilmiy ekspeditsiyalarda turli darajadagi tadqiqot ishlarini mustaqil bajaradilar.

Bu etapda talabalar olib borgan tadqiqot ishlari natijasida mavzu tanlay olish, tadqiqot metodikasini tuza olish, tadqiqotni tashkil etish va o'tkazish, tadqiqot natijalarini sifat va son jihatdan tahlil qilish, o'z xulosalarini ayta olish, o'z ishini talabalar ilmiy ishlari konkursi uchun tayyorlay olish qobiliyatini ko'rsatishi kerak.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqotlarda quyidagi talablarga amal qilinadi:

1. Pedagogik hodisa yoki jarayonni yaxlitligicha o'rganish;
2. Ilmiy-tadqiqot metodlari majmuidan foydalanish;
3. Pedagogik hodisa va jarayonlarni obyektiv aks ettirish;
4. Askarlarni o'rganish va tarbiyalashning birligi;
5. Jamoa va shaxsni birgalikda va bir paytda o'rganish;
6. Pedagogik hodisalarni o'zgarish, rivojlanish jarayonida o'rganish;
7. Pedagogik fakt va hodisalarni o'rganishda tarixiylik prinsipiga amal qilish;
8. Ilmiy dalillashni pedagogik tadbirkorlik bilan bog'lay olishi;
9. Pedagogik muammoni chuqur tekshirish;

10. Pedagogik samaradorlikka erishish.

Pedagogik nuqtai nazarda olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarida har bir harbiy xizmatchi quyidagi metodlarga e'tibor berishlari lozim:

- kuzatish metodi;
- anketa va suhbat metodlari;
- reyting (baholash) metodi;
- insholarni o'rganish metodi;
- biografiyalarni o'rganish va tavsiyanomalar tuzish metodi;
- pedagogikada testlar va ularning qo'llanishi;
- pedagogik eksperiment (ilmiy tajriba) va ilmiy-tadqiqot ishini olib borishi kerak.

18.3. Ofitserning o'zini-o'zi tarbiyalash metodlari

Ofitser o'zini-o'zi tarbiyalashda, uning dunyoqarashini ma'naviy-jangovar va boshqa sifatlarini, pedagogik mahoratini shakllantirishga yordam beradi. Komandirning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari o'zini-o'zi tarbiyalashda ruhiy-pedagogik va uslublarini asosini chuqur tushunish uchun chaqirilganligini anglab yetishi, o'z ustida har tomonlama ishlashda maqsadiga erishishda namunali bo'lishi, har kuni qo'l ostidagi ofitserlar o'zini-o'zi tarbiyalashda ta'sir ko'rsata olishi, o'zini-o'zi tarbiyalash jarayonini rivojini ko'rib chiqishida ichki va tashqi kuchlarning ta'siri natijasi murakkab o'tadigan jarayon bo'lib, o'zini-o'zi tarbiyalashni muhim asoslaridan biri shaxsni ma'naviy jarayonini, qonuniyligini, ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatadi.

O'zini-o'zi tarbiyalash odamlarni hayvonlar dunyosidan ajralib tura olishi tufayli paydo bo'lgan, qachonki ular o'zlarini tan olishi va ijtimoiy qoidalarni ko'rsatgichini rivojlanishi, o'zining shaxsiy ma'naviy va jismoniy kuchi, insonlar kuchlarini mukammallashtirishga harakat qilishi va ular shu darajada mukammallashtirishi lozimki, ularni ichki imkoniyatlariga qarab mukammallashtirish va aniq tarkibiy hayotiy faoliyatidagi sharoitidan kelib chiqishi lozim.

Hozirgi zamon pedagogikasi, Sharq mutafakkirlarining uslublariga tayanish, o'zini-o'zi tarbiyalashda insonlar faoliyatida o'zlarida ba'zi bir sifatlarni ishlab chiqishi, jamiyatda ma'lum bir vazifani bajarishini kerakligini tushunishi.

Ofitser birinchi galda himoya qilishga, jamoatchilikni saqlash uchun kerakdir. O'zini ijtimoiy himoyachiligini ongli his qila bilishi va mustaqillikni himoyachisi sifatida, u shunday sifatlarini ishlab chiqishiga harakat qiladiki, u o'zining xizmati va ijtimoiy majburiyatlarini sidqi dildan bajarishida imkon beradi.

Ofitserni o'zini-o'zi tarbiyalash jarayonini shaxsni sifatidagi ijobiy tomonlarini va kamchiliklarini bartaraf etishga, uni oldida turgan jangovar, xizmat jarayonida, o'quv tarbiyaviy va boshqa vazifalarni hal etishda yordam beradi. Mana shuning uchun har tomonlama o'zini-o'zi tarbiyalashda maqsadga muvofiq yo'naltirish har bir ofitserni muhim majburiyatlari hisoblanadi. O'zini-o'zi tarbiyalashni mazmuniga aniq talablarni Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturida, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda, harbiy qasamyod, harbiy Nizomlarda, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik direktivalari, buyruqlarida ko'rsatilgan. Ofitserni o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni bir tomonlama umumiy va tarbiyaviy masalalarni hal qiladi.

O'zini tarbiyalashni ta'siri ostida, doimiy ravishda o'zining ma'naviy-ruhiy, jangovar va boshqa sifatlarini, ko'pchiligi o'zini ma'naviy va kasbiy jihatdan o'sishi, pedagogik mahoratini oshirishi, mukammallashtirishini tan olish lozimdir. Shu bilan birgalikda, ularni o'zini-o'zi tarbiyalash amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, u har xil darajada, har xil natijalar beradi.

U yoki bu ofitserni o'zini-o'zi tarbiyalash ko'rsatgichi xizmat sharoitiga, ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy va ofitserlar jamoasi bilan o'quv-uslubiy ishlarni olib borishiga bog'liqdir.

Ofitserlarni o'zini-o'zi tarbiyalashni asosiy imkoniyatlarini ko'rsatgichlariga quyidagilar kiradi:

1. Hayotiy maqsadi va rejasi, yuqori darajali shaxsiy namunasi;

2. O'ziga ishonchi, o'zini-o'zi obyektiv baholay bilish qobiliyati, o'zini ongini rivojlantirishi;

3. Irodasini ma'lum darajada rivojlantirishi, o'zini nazorat qilish odati va o'zini irodaliligini boshqara bilish ko'rsatgichi;

4. O'zini-o'zi tarbiyalash nazariyasini bilishi, o'z ustida ma'lum darajada tajriba ishini olib borishi;

5. O'zini-o'zi tarbiyalashni har tomonlama vijdonan va ongli ravishda qo'yilganligi.

O'zini-o'zi tarbiyalash namuna muhim ahamiyat kasb etadi, chidamligi, emotsional ko'rinishi, ofitserni haqqoniy ko'rinishini

umumlashtirish, insonligi, harbiy rahbar sifatida shaxsiy g'ururi. Namuna o'zini-o'zi tarbiyalashda oldinga boshlovchi hisoblanadi. Unda ofitser o'zini hayotiy maqsadi va rejasini siyosiy yo'nalishini va o'z ustida ishlashini aniq mazmunini belgilaydi. Ofitserga ma'naviy-axloqiy sifatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ulardan ko'pchiligi o'zini «ideal»ini har tomonlama taraqqiy etganligini, mustaqillikni himoya qilishda va uni qurishda fidoiyligi.

O'zining muhimligi bilan, mazmunining dolzarbligini bilim jarayonini chuqurligi va o'zini-o'zi tarbiyalashni ko'rsatgichini turlarini bir nechtasini ko'rsatish mumkin:

Yuqori darajaliligi (mazmunini dolzarbligini boyligi, jarayonni chuqur bilish, tashabbusligini ko'rinish va uni ijodini rejalashtirilishi, amalga oshishi);

O'rtaligi (mazmunni dolzarbligini asosi, jarayonini hamma vaqt bilmasligi, tashabbusini bo'shligi, uni rejalashtirilishi va amalga oshirilishini pastligi);

Pastligi (mazmunini oddiygina qarama-qarshiligi, noto'g'ri yo'naltirilishi, epizodli, tartibsiz ravishda amalga oshishi);

O'zini-o'zi tarbiyalash - bu ofitser faoliyatidagi faolligi, maqsadga muvofiqligi, o'zida ijodiy sifatlarini bartaraf etishga, shaxsiy dasturni rivojlantirishi va harbiy xizmatni sharoitlarni o'z ichiga oladi.

O'zini-o'zi tarbiyalashni sabalarini turlari:

Ofitserni hayotga harakatchanligi;

Axloq normalariga ehtiyojlari va Nizom talablariga mosligi;

Olgan majburiyatlarini bajarilishi;

Harbiy xizmatni qiyinchiligini yenga olishi;

Ijobiy namunaga amal qilishi;

Idealligi (namunaliligi);

Moddiy va ma'naviy jihatdan qiziquvchanligi.

O'zini-o'zi tarbiyalashni mazmuni yoshiga, yakka ravishdagi xususiyatiga, ofitserni xizmat faoliyatini xarakteriga bog'liqdir.

U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

g'oyaviy-siyosiy bilimni mukammallashtirish;

Harbiy kasbiyligi;

Ma'naviy jangovar va tashkilotchiligi;

Jismoniy va axloqiy sifatleri;

Umumiy, harbiy va pedagogik madaniyatini shakllantirish;

O'zini fe'lini boshqara bilishi;

Ehtiyoblari va his tuyg'ulari.

O'zini-o'zi tarbiyalashni va shu jarayonida tarbiyalash katta ta'sir ko'rsatadi, nafaqat sharoit yaratib beradi, balki shaxsni ijobiy sifatlarini mukammallashtirishga va salbiy jihatlarni to'xtatishga, maqsadini aniqlashga, o'z ustida ishlashni mazmuni va xarakterini faollashtiradi.

O'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni bir qancha bosqichga bo'linadi:

O'zining harbiy-kasbiy faoliyatiga talablarini tushuna bilishi;

O'zini-o'zi tushunishi, xulqiga va faoliyatiga baho berishi;

O'z ustida ishlash uchun ishni rejalantirish, xulq qoidasi to'g'risida dastur ishlab chiqish;

O'z harakatini, xulqini, o'zini-o'zi yo'lga solishi va o'zini baholash, o'zini nazorat qila bilishi.

Ofitserni o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni o'zini ijobiy va salbiy tomonlarini vijdoni talablari asosida tahlil qilish, o'zini baholash, qaysi natijalarga ishonib qaror qabul qilishi, o'zini-o'zi tarbiyalash yo'nalishini aniqlashdan iborat bo'ladi.

Shu qarorni reja (dastur) ko'rinishida va o'zini-o'zi tarbiyalash qoidasi asosida tuziladi. Mana shu dastur quyidagi variantda bo'lishi mumkin:

“O'zini fikrini, yaxshi bilgan, sohasi bo'yicha, qat'iyatligi, o'zini-o'zi qoralay bilishi, o'z qarashlarini faol tasdiqlash, axloqidagi nojo'ya harakati, qo'lostidagilar uchun namuna bo'lishi, ko'nikmalarni mukammallashtirishi, qo'l ostidagilar bilan o'zaro munosabatini yaxshilash, o'zaro tushunishga erishish, o'z-o'zini hurmat qilishdan bosh tortmasligi, egoistik elementlari, yashagan kun uchun o'ziga hisobot berishi, erishgan yutuqlarini hisobga olgan holda keyingi ishlarni rejalantirishdan iboratdir”.

O'zini-o'zi tarbiyalash uslubini mukammal egallash muhimdir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, uslublardan ko'proq samara beradiganiga quyidagilar kiradi:

O'zini-o'zi ishontirish-ofitserlar u yoki bu sifatlarini rivojlantiradi, o'zini ma'lum bir qarashlarini mustahkamlaydi, xulqdagi yuqori darajali axloq normalarini o'rganadi, ma'lum bir qoida va tomonlarga amal qiladi.

O'ziga-o'zi majburiyat olish-o'zini manmanligi talablarini solishtirish, ofitser ma'lum talabni qo'yilishi, o'zini xulqi orasida mos

kelmasligini bilishi va o'ziga majburiyat olishi, bor kamchiliklarni bartaraf qilishga harakat qilishi.

O'zini-o'zi mashq qildirish-ofitserga o'zidagi bor Nizomiy huquqdagi odatlarini ishlab chiqishga yordam beradi, kasbiy faoliyatidagi ko'nikma va malakalarni hosil qiladi, jismoniy va aql idrokidagi qobiliyatini rivojlantiradi.

Boshqalarga namuna bo'lish-ofitserlar obro'li odamlar xulqidan tajriba orttirishi, o'zining faoliyatida uni ijobiy qo'llay bilishi, o'zini ustida ishlash rejasini doimiy ravishda mukammallashtirib borish.

O'zini-o'zi tayyorlash-o'zida ma'lum bir ruhiy holatni mustahkamlashga, salbiy emotsiyalarni yengishga, tinchlik va urush vaqtida og'ir vazifalarni bajarishga o'zini safarbar qilish va boshqarishdan iborat.

O'zini nazorat va tahlil qilish-olgan majburiyatlari va rejasini solishtirish maqsadida o'zini-o'zi tarbiyalashdagi real haqiqiyliги va xulqlari, ularda mos kelmasligini topish va shu holatdan chiqish, agar kerak bo'lsa moslashtirishni yo'naltirishdan iboratdir.

Ofitser o'zini-o'zi tarbiyalashda va mustaqil ta'lim olishning uslublari. O'zini-o'zi tarbiyalash mustaqil ta'lim olish bilan uzliksiz aloqadordir, bunday ishni maqsadga muvofiq yangilash tushuniladi, oldin olgan bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, amaliy ko'nikma va malakalarini mukammallashtirish maqsadida harbiy-kasbiy mahoratni yuqori darajali ko'rsatgichga erishishni mukammallashtirishdan iboratdir.

O'zi mustaqil ta'lim olish-bu ofitserni kasbiy faoliyatidagi majburiy tarkibiy elementi hisoblanadi. Bunda bilimni oshirish kerakligini tushunishi, ko'nikma va malakasini mukammallashtirish, mustaqil ta'lim olishni sabablarini shakllantirish, mustaqil ravishda bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda boshlang'ich holati hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim olishga o'zini maqsadga yo'naltirilganligini bildiradiki, qachonki ofitser o'zini bilimlarini kerakligicha to'ldirganini his qila bilsa, ko'nikma va malakalarini mukammallashtira olsa ko'zlagan narsasiga erishishi mumkin.

Tayanch so'zlar: Rag'batlantirish, ijobiy fazilatlar, olqish, ishonch bildirish, test, hujjatlarni tahlil qilish, ilmiy-tadqiqot, harbiy oliy o'quv yurtlaridagi tadqiqot ishlari, hayotiy maqsad, komponentlar, harbiy-kasbiy mahorat, memuar va badiiy adabiyotlar.

Nazorat uchun savollar:

1. Ofitser o'zini-o'zi tarbiyalash usullarini aytib bering.
2. Ofitserning mustaqil ta'lim olish uslublariga nimalar kiradi?
3. O'ziga-o'zi majburiyat olish metodini aytib bering.
4. O'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni necha bosqichga bo'linadi?

9-MODUL: HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY VA MA'NAVIY – AXLOQIY TAKOMILLASHUVI

19-mavzu: Harbiy xizmatchilar mustaqil ta'limi va tarbiyasi jarayonining mazmuni va maqsadlari

Reja:

1. Mustaqil ta'lim va tarbiya haqida tushuncha.
2. Harbiy xizmatchilarning mustaqil ta'limi va tarbiyasini tashkil etish.

19.1. Mustaqil ta'lim va tarbiya haqida tushuncha

Shaxsiy tarkib faoliyatining samaradorligi, kasbiy mahoratining takomillashuvi har bir harbiy xizmatchining o'z ustida ishlashi, o'z-o'zini rivojlantirishi, takomillashtirib borishi bilan bog'liq bo'ladi. Shaxs o'z ustida ishlashi natijasida o'z bilimi doirasini kengaytiradi, ko'nikma va malakalarini takomillashtiradi, xulqi, fe'l-atvoridagi nuqsonlarni yo'qotishga intiladi.

Ofitser va askarlarning mustaqil rivojlanishi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ikki jarayonda, ya'ni mustaqil tarbiya va mustaqil ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Bu har ikkala jarayon o'ziga xos xususiyatlarga, o'zining mazmuniga, shakl va metodlariga ega bo'lib, doimo bir-birini to'ldirib boradi.

Mustaqil tarbiya – insonning o'zida ijobiy xislatlarni shakllantirish va rivojlantirish hamda salbiy xislatlarni yo'qotish yo'lidagi ongli, faol, maqsadli faoliyatidir. Mustaqil tarbiyaning ichki asosini insonning quyidagi qobiliyatlari tashkil etadi:

- o'zi haqida qayg'ura olishi;
- o'z ishi va kelajagi haqida o'ylashi;
- o'ziga chetdan nazar sola olishi;
- o'z qobiliyati, kuchi va imkoniyatlariga to'g'ri va haqqoniy baho bera olishi;
- o'z kamchiliklarini va nojo'ya xatti-harakatlarini ko'rishi, xulosa chiqarishi va bartaraf eta olishi;
- o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'la olishi;
- o'z harakatlari va turmush tarzi uchun mas'uliyat his etishi;
- oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'lida qat'iyat bilan harakat qilishi.

Mustaqil tarbiya – murakkab aqliy, axloqiy, ma'naviy va irodaviy jarayondir. Bu jarayon davomida shaxsning o'ziga va atrofdagilariga nisbatan ongli, maqsadli va tanqidiy munosabatda

bo'lishi talab qilinadi. Shaxsning o'zgarishi tashqi ta'sirlar, ya'ni tarbiya, atrof muhit, boshqa odamlar ta'sirida ongsiz, stixiyali ravishda bo'ladigan bo'lsa, bunda o'z-o'ziga tarbiya berish haqida gap bo'lishi ham mumkin emas. Mustaqil tarbiya uchun shaxsning ma'lum darajada tarbiyalanganligi, o'zini anglashga, o'z harakatlarini tahlil qilishga va o'ziga baho berishga, o'z xulqi va harakatlarini boshqalarniki bilan solishtirishga va taqqoslashga qodirligi talab qilinadi.

Mustaqil tarbiyaning mazmuni quyidagilardan iborat bo'ladi:

- harbiy-kasbiy;
- ma'naviy-axloqiy;
- estetik;
- jismoniy;
- ruhiy;
- irodaviy va boshqalar.

Mustaqil tarbiyaning metodlari quyidagilardan iborat:

- o'z ustiga majburiyat olish;
- o'z hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil qilish va tartibga solish;
- o'z-o'zini tushunish, anglash;
- o'z xulqi va harakatlarini tahlil qilish;
- o'z-o'ziga hisob berib borish;
- o'z-o'zini ishontirish;
- mashq qilish;
- o'z-o'zini tanqid qilish;
- o'z-o'zini jazolash va boshqalar.

Mustaqil tarbiya jarayonining natijalarini ko'rish, o'zini nazorat qilish maqsadida o'z-o'ziga hisob berib turishi, qilgan ishlariga ma'lum bir vaqt oralig'ida, masalan, har kuni, har haftada, har oyda, har yili yakun yasab turishi yaxshi natijalar beradi. Bunda quyidagicha baho berilishi mumkin:

- o'tgan davrda qanday ishlar bajarildi, bu ishlarning mazmuni, miqdori va sifati, rejaga muvofiqligi;
- qanday yutuqlarni alohida ta'kidlash mumkin;
- qanday kamchiliklarga yo'l qo'yildi;
- o'z xarakterining qirralarini, irodasini va qobiliyatini qayerda va qanday namoyon qildi;
- o'z shaxsida qanday ijobiy o'zgarishlarga erishdi;

- o‘z-o‘zini tarbiyalash bo‘yicha keyingi davrga o‘z oldiga qanday vazifalar qo‘yishi lozim va hokazo.

Askarlarning mustaqil tarbiyasi jarayoni o‘z holiga tashlab qo‘yilmasligi, boshqaruvsiz qolmasligi lozim. Bu jarayon komandirlar, boshliqlar, tarbiyachilar tomonidan doimo boshqarib turilishi lozim.

Mustaqil tarbiya jarayoniga rahbarlik qilish va uni boshqarishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

-askarlarning ongliligini, ma’naviy-axloqiy xislatlarini, fazilatlarini oshirib borish;

-xizmatni harbiy nizomlar talablari asosida tashkil qilish, doimiy ravishda tartib va intizomga rioya qilishga o‘rgatish;

-komandir va tarbiyachilarning shaxsiy ibratliligi, doimiy har sohada o‘rnak bo‘lishi;

-askarlarga mustaqil tarbiyaning mazmuni, maqsadlarini, shakllarini va metodlarini tushuntirib borish;

-zarur xislatlarini o‘zida rivojlantirish uchun sharoit yaratib berish;

-mustaqil tarbiya bo‘yicha shaxsiy ish rejalarini tuzishga ko‘maklashish va boshqalar.

Mustaqil tarbiya bilan birga mustaqil ta’lim jarayoni ham shaxsning rivojiga, kamolotiga yordam beruvchi jarayondir.

Mustaqil ta’lim shaxsning o‘z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mavjud ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish va yangilarini egallash bo‘yicha faol, maqsadli faoliyatidir. Mustaqil bilim olish faoliyati shaxsning ma’naviy, axloqiy xislatlarini va kasbiy mahoratini rivojlantirishga yordam beradi, aqliy salohiyati oshadi, kasbiy mahorati va madaniy saviyasi o‘sadi, dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati kengayadi.

Mustaqil ta’lim har bir harbiy xizmatchining doimiy ishiga, odatiga aylanishi lozim. Bu jarayon, ayniqsa, askarlar, yosh ofitserlar uchun juda muhimdir.

Mustaqil ta’lim jarayonini qanday tashkil etish kerak, degan savolga aniq javob berish, biror ko‘rsatma berish qiyin. Chunki bu jarayon har bir shaxsning qiziqishi, imkoniyati, xohishi, ehtiyojiga bog‘liq. Biroq shunday bo‘lsa-da, ba’zi bir ko‘rsatmalarni berish mumkin:

1. Hozirgi zamon axborot oqimidan to'g'ri va samarali foydalana olish (ommaviy axborot vositalari, internet, adabiyotlar).

2. Mustaqil ta'lim dasturlarini tuzish (ma'lum bir sohalar, yo'nalishlar bo'yicha va aniq toifadagi harbiy xizmatchilar va ishchi-xizmatchilar uchun).

3. Tajribali ofitserlar, o'qituvchilar, instruktorlar bilimidan foydalanish.

4. Vaqtdan unumli foydalanish (reja asosida ish yuritish, natijalarni tahlil qilib borish, o'z-o'ziga hisob berib turish va boshqalar).

5. Ko'proq o'qish (ilmiy, metodik, maxsus, o'quv, badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallar).

6. Ilg'or tajribani o'rganish.

19.2. Harbiy xizmatchilarning mustaqil ta'limi va tarbiyasini tashkil etish

Mustaqil ta'lim olishni tashkil etishda ruhiy-pedagogik jarayonlar ilg'or o'rin egallaydi, ular quyidagilarni egallashga yordam beradi:

- Ruhiy-pedagogik bilimi tizimini egallash;

- O'qitish uslublarini bilish;

- Tarbiyalashni o'rganish;

- Shaxsiy tarkibning ruhiy tayyorgarligini rivojlantirish;

- Mustaqil ta'lim olishni rejalashtirishga yordam berish va uni ilmiy asosini amalga oshirish;

- Ijobiy samara beradigan vosita, uslublar va usullardan foydalanishdan iboratdir.

Bugungi kunda ofitserlarni mustaqil ta'lim olishlariga talablar tinimsiz ortib bormoqda, ularni umumiy madaniyatini oshirishga, badiiy adabiyotlarni doimiy ravishda o'qishga taxmin qilishi, musiqa, suratlar, kino va teatr san'atlari bilan tushuntirishga imkon yaratadi. Undan tashqari, barcha harbiy xizmatchilar radioelektronika, avtomatika, telemexanika, kompyuterlar bilan ishlashga to'g'ri keladi, shuning uchun matematika va fizika fanlarni juda ham chuqur o'rganishi, umumiy ilmiy bilimlarini keng bilishini taqozo etadi. Ofitser shu masalalar bo'yicha juda past tayyorlangan bo'lsa, u o'zining qo'l ostidagilarning ehtiyojlarini va har tomonlama qiziqishini qoniqtira olmaydi, mana shuning uchun mustahkam bilimlar bilan qurollanishi lozimdir.

Mustaqil ta'lim olish sifati va samaradorligi mustaqil ishlash uslublariga va usullariga ham bog'liqdir. Ofitser mustaqil ta'lim olishga shaxsiy o'quv faoliyatidagidek munosabatda bo'lishi muhimdir. Mustaqil ta'lim olishni muhimlaridan biri bu-o'qishdir. Differensial o'qishni ofitser kerakligicha odat qilib olishi lozim.

Ofitser ikkita o'qish uslubidan foydalanadi:

- o'qishning chuqurligi;
- tezlik bilan o'qish.

Shu ikkala turlar bilan ilmiy-texnika taraqqiyotiga erishishi uzoqdir.

Ko'nikmalarni hozirgi zamon "yadro quroli raketasi" quroli va jangovar texnikalar bilan ta'minlash, doimiy ravishda mukammallashtirishni talab qilib kelmoqda va mustaqil ta'lim olish uslublarini, trenajyorda mustaqil ishlash, kompyuterda, o'quv texnikalarida o'zini-o'zi mashq qilishi va o'zini-o'zi shug'ullantirishi, chizmalarni o'qishi, jadvallarni bilishi, amaliy vazifalarni bajarishini mukammallashtirishini talab qilmoqda. Yuqori darajali tashkillashtirish, asosiy uslublarini bilish, mustaqil ta'lim olishdagi tajribalar, ofitserlarga mazmunli, maqsadga muvofiqli yakka ravishdagi dasturni ishlab chiqishda qo'l kelishi, o'z shaxsini rivojlantirishda imkoniyat yaratadi.

Qo'l ostidagilarni mustaqil ta'lim olishiga va o'zini-o'zi tarbiyalashga ofitserni rahbarlik ishidagi asosiy yo'nalishlar. Ofitser o'z faoliyatida qo'l ostidagilarni mustaqil ta'lim olishga va o'zini-o'zi tarbiyalashda to'g'ri rahbarlik qila olishni bilishi kerakdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jangchilar o'zini-o'zi tarbiyalashda va mustaqil ta'lim olish jarayonida qiyinchilikka duch kelishmoqda:

-O'zini baholash va o'zini-o'zi bilish ko'nikmalarini sust darajada egallashi;

-Mustaqil ta'lim olish va o'zini-o'zi tarbiyalash ishini vazifasi va maqsadini aniqlash;

-O'zini ustida ishlashni rejalashtirishining noto'g'riligi.

-Bu shundan dalolat beradiki, qo'l ostidagilarni o'zini-o'zi tarbiyalash va mustaqil ta'lim olishni o'z holiga qo'yimaslikni mumkinligini anglab yetish lozim.

O'zini-o'zi tarbiyalash va mustaqil ta'lim olishga rahbarlik qilish og'ir, ko'p qirrali jarayon bo'lib, o'z oldida o'qitish tuzimini, tarbiyalashni, tadbirlarni tashkillashtirishi, maqsadga muvofiq

yoʻnalishini taʼminlash, oʻzini shaxsini mukammallashtirishda har bir jangchi har tomonlama ishlashi va uni doimiyliigi.

Rahbarlikni asosiy vazifasi shundan iboratki, jangchini oʻz ustida faol ishlashga uygʻotishni maqsadga muvofiqliigi, har tomonlama mukammallashtirishini sabablarini mosligini ularda ishlab chiqishi, mana shuning kerakli sharoitlarini yaratilishi.

Jangchilarni oʻzini-oʻzi tarbiyalashni va mustaqil taʼlim olish jarayoni maʼlum darajada taʼsir koʻrsatadigan holatlar quyidagilar:

Oʻzini-oʻzi tarbiyalash va mustaqil taʼlim olishni, davlat rahbarlarini, qoʻmondonlarni va harbiy boshliqlarni ishlab chiqarishda ilgʻorlarni, qoʻshinlarda malakali mutaxassislarni tayyorlashda tajribalarini targʻibot qilishi;

Hozirgi sharoitda Vatanni himoya qilishda qoʻyilayotgan talablarni har bir jangchini ongiga chuqur singdirishi lozim;

Jangchilar tomonidan oʻzini-oʻzi tarbiyalash va mustaqil taʼlim olish nazariyasini oʻrganishi, oʻz ustida ishlash vositalari va uslublarini egallash;

Jamoatchilikni ijobiy fikrlashini, boʻlinma shaxsiy tarkibini har tomonlama oʻzini-oʻzi tarbiyalash va mustaqil taʼlim olish ishlarini ragʻbatlantirishini shakllantirish;

Har bir jangchini sifati va bilimini obyektiv baholashga yordam berish, xarakterlari xususiyatlari, oʻz ustida ishlash natijalari va oʻzini nazorat qilish jarayonini olib borilishi;

Ishi natijalarini baholash, oʻz vaqtida vazifa va maqsadni moslashtirishga yordam berish.

Oʻzini-oʻzi tarbiyalash va mustaqil taʼlim olish tizimini tadbirlarini tajribasi shuni koʻrsatadiki, oʻz ustida ishlash faoliyatida jangchida namunali yoʻnalishni har birining ongiga singdirishini shakllantirish, uni oʻzini-oʻzi tarbiyalash va mustaqil taʼlim olish usullari va uslublari bilan tanishtirish, doimiy ravishda tizimini mukammallashtirishni ishlab chiqishga harakat qildirish.

Tayanch soʻzlar: ofitser, mustaqil taʼlim, koʻnikma, tarbiya, harbiy amaliyot, mustaqil tarbiya.

Nazorat uchun savollar:

1.Harbiy xizmatchilarning mustaqil taʼlimi va tarbiyasini tashkil etishni tushuntirib bering.

2.Harbiy boʻlinmada mustaqil taʼlimni kim tashkil qiladi?

20-mavzu: Ofitser pedagogik madaniyati, mahorati va mehnatini shakllantirish, takomillashtirish va tashkil etish

Reja:

1. Pedagogik madaniyat va mahorat haqida tushuncha. Ofitserning pedagogik qobiliyatlari.
2. Pedagogik takt. Ofitserning pedagogik axloqi. Pedagogik texnika va uning tarkibiy qismlari.
3. Pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning asosiy yoʻnalishlari.

20.1. Pedagogik madaniyat va mahorat haqida tushuncha. Ofitserning pedagogik qobiliyatlari

Mamlakatni har tomonlama rivojlantirish, yuksaltirish boʻyicha belgilangan masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri xalqning maʼnaviy, maʼrifiy va madaniy saviyasini oʻstirish hisoblanadi. Chunki xalqning, jamiyatning har bir aʼzosining maʼnaviy, maʼrifiy va madaniy saviyasi qancha yuqori boʻlsa, kadrlar salohiyati shuncha baland boʻladi, xalqning turmush darajasi oshadi.

Maʼnaviyat, maʼrifat va madaniyat tushunchalarining har biri alohida chuqur mazmunga ega boʻlishiga qaramasdan, ular oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlib, yagona uzilmas zanjirni tashkil etadi, bir-birini toʻldirib va rivojlantirib boradi.

Madaniyat haqida soʻz yuritilar ekan, uning marakkab va serqirra maʼnaviy-ijtimoiy hodisa ekanligini, jamiyat hayotini, inson turmushi va koʻp tomonlama faoliyatini aks ettirishini taʼkidlash muhimdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, adabiyotlarda madaniyat ikki guruhga, yaʼni moddiy va maʼnaviy madaniyatga boʻlingan va quyidagicha taʼrif berilgan.

Moddiy madaniyat deganda, mehnat qurollarini, mehnat koʻnikmalarini, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va moddiy hayot uchun xizmat qiladigan inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy boyliklar tushuniladi. Moddiy madaniyat bir necha turga boʻlinadi. Masalan, ishlab chiqarish va texnika madaniyati, dehqonchilik madaniyati, mehnatni tashkil etish madaniyati, injenerlik madaniyati, pazandachilik madaniyati va boshqalar.

Maʼnaviy madaniyatga esa, insonning aqliy va maʼnaviy yaratuvchanlik faoliyatlari va ularning natijalari kiradi. Maʼnaviy madaniyat fan, falsafa, sanʼat, adabiyot, axloq, din, huquq, siyosat,

maorif, ma'rifat va hokazolar yig'indisidan tashkil topadigan insonning tashqi va ichki ma'naviyati, ruhiyati olamidir. Ma'naviy madaniyatni yaratish, o'zlashtirish va rivojlantirish jarayonida jamiyat taraqqiy etadi, mehnat unumdorligi ortadi, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanadi, kishilarning ma'naviy qiyofasi shakllanadi, axloq-odobi, did va farosati, estetik zavqi, ijodiy kuchi va qobiliyatlari taraqqiy etadi.

Demak, shaxs madaniyati jamiyat madaniyatining shunchaki aks etishi emas, balki uning (shaxsning) ijtimoiy xislatlari, faoliyati va xulqi mazmunida, shuningdek, ehtiyojlarida namoyon bo'luvchi rivojlanganlik darajasidir.

Pedagogik madaniyat nima? Pedagogik madaniyat pedagogik faoliyat ta'siri ostida yuzaga keladi va bu faoliyatni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Pedagogik madaniyat shaxsning pedagog sifatida qay darajaga erishganligida namoyon bo'ladi.

Psixologik jihatdan *pedagogik madaniyat* – pedagogik tushunchalar va mahorat, pedagogik axloq va kasbiy-pedagogik xislatlar, pedagogning ish uslubi va o'z faoliyatiga munosabati yig'indisidir. Pedagogik madaniyatning namoyon bo'lishi va uning qadriyatga, turmush tarziga aylanishi uchun insondan yuqori kasbiy salohiyat, ma'naviy, ma'rifiy va axloqiy barkamollik talab qilinadi.

Ofitserning pedagogik madaniyatini chuqur harbiy bilimlarsiz ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Hozirgi zamon ofitseri zamonaviy harbiy texnika va qurollarni yaxshi bilishi va samarali qo'llay olishi, umumharbiy nizomlar talablariga kundalik xizmat jarayonida rioya qilishi va buni boshqalardan talab qilishi lozim.

Pedagogik madaniyat murakkab tuzilishga ega bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iboratdir:

- pedagogik yo'naltirilganlik (pedagogik faoliyatga moyillik, qat'iy pedagogik ishonch, bo'ysunuvchilarga hurmat, g'amxo'rlik va shu kabilar);

- keng dunyoqarash;

- yuksak axloqiylik;

- bilimdonlik, zukkolik va ziyolilik;

- pedagogik mahorat;

- ta'lim-tarbiya ishlarini ilmiy izlanishlar bilan uyg'unlashtira olish qobiliyati;

- yuksak muomala madaniyati, soʻzlashish odobi;
- oʻziga nisbatan talabchanlik, izlanuvchanlik, kasbiy mahorati va bilimi saviyasini oshirib borishga doimiy ehtiyoj va hokazo.

Pedagogik madaniyatning sanab oʻtilgan tarkibiy qismlari oʻzaro bogʻliq boʻlib, bir-birini toʻldirib, rivojlantirib boradi va pedagogik faoliyat jarayonida yagona tizimda namoyon boʻladi.

Quyida bu tarkibiy qismlar qanday mazmunga ega ekanligini koʻrib chiqamiz.

Shaxsning **pedagogik yoʻnaltirilganligi** – taʼlim-tarbiya faoliyatiga boʻlgan munosabatlarni anglatuvchi, maqsad, intilish, hissiy jarayonlar, qarashlar tizimi boʻlib, bu faoliyatning mazmuniga va natijalariga taʼsir etuvchi omildir. Mohiyatiga koʻra, pedagogik yoʻnaltirilganlik ofitser shaxsining kasbiy yoʻnaltirilganligi hisoblanadi. Chunki ofitser boʻlinmadagi taʼlim-tarbiya jarayonining tashkilotchisi va amalga oshiruvchisi sanaladi. Shuning uchun ofitser shaxsining umumiy kasbiy yoʻnaltirilganligining muhim tarkibiy qismi sifatida pedagogik yoʻnaltirilganlik uning dunyoqarashi, bilimi, malakasi va koʻnikmalari tizimi, maʼnaviy-axloqiy dunyosi, umumiy maʼrifiy va madaniy saviyasi bilan belgilanadi.

Yuqori madaniyatli pedagoglar pedagogik faoliyatga moyilligi, qiziqishi, oʻz kasbiga muhabbati, oldiga qoʻyilgan vazifalarni bajarishga nisbatan oʻta masʼuliyatli munasabati bilan ajralib turadi. Faqat shundagina ofitser hamkasblari, boshliqlari va boʻysunuvchilari oldida hurmatga sazovor boʻla oladi, oʻz mehnatidan qoniqish hosil qiladi, yangilikka, yangi natijalarga intilib yashaydi.

Keng dunyoqarash yuksak madaniyatli pedagogga xos tushunchadir. Bu tushunchaga lugʻatlarda berilgan taʼriflarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, dunyoqarash kishilarning tabiat va jamiyatga, tevarak-atrofdagi voqelikka, oʻz-oʻzlariga va boshqa odamlarga munosabatiga boʻlgan umumiy qarashlar tizimi hamda ularning shu qarashlar asosida shakllangan eʼtiqodlari, bilish va faoliyat prinsiplaridir. Dunyoqarash qancha keng boʻlsa, inson yuz berayotgan voqea va hodisalarga, kechayotgan jarayonlarga shuncha obyektiv baho berish imkoniyatiga ega boʻladi, maʼnaviy, maʼrifiy va axloqiy jihatdan kamol topa boradi.

Pedagogik madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan yana biri **yuksak axloqiylik** boʻlib, uning mohiyati va asosiy mazmuni ofitserning pedagogik faoliyati uchun zarur hisoblangan axloqiy

sifatlari bilan ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlarining, umumharbiy nizomlar talablarining ofitser tomonidan o‘zlashtirilishi hamda ularning turmush tarziga aylantirilib, so‘zsiz bajarib borilishi, bu borada hamkasblariga va bo‘ysunuvchilariga doimo ibrat bo‘lishi harbiy pedagogga xos xususiyatdir. Professional pedagogik axloq ofitser shaxsining kasbiy takomillashuvi va axloqiy bilimlarni egallashi asosida hosil bo‘ladi.

Ofitserlarning pedagogik madaniyatini doimiy ravishda takomillashtirib borish uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1. Aniq belgilangan tizim asosida ofitserlarning harbiy, psixologik-pedagogik bilimlarini rivojlantirib borish.

2. Ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy mazmunga ega tadbirlarni doimiy ravishda va rejali asosda tashkil etish.

3. Ta’lim-tarbiya jarayonini, xizmat va kundalik turmushni qonunlar va harbiy nizomlar talablariga muvofiq tashkil qilish.

4. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va ommalashtirish.

5. Ofitserlarni harbiy-pedagogik jarayonga keng jalb qilish.

6. Harbiy mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish.

7. Ofitserlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish.

8. Ofitserlarning harbiy, psixologik-pedagogik bilimlarini takomillashtirish, umumiy va pedagogik madaniyati saviyasini oshirish maqsadida o‘z ustida mustaqil ishlashini tashkil qilish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ofitserning pedagogik madaniyati murakkab tuzilishga va mazmunga ega tushuncha bo‘lib, uni shakllantirish va takomillashtirish uzoq kechuvchi, uzluksiz, qator vosita va metodlar yordamida amalga oshiriluvchi jarayondir. Bu jarayonning samaradorligi esa ofitserning o‘z ustida muntazam ishlashi, hohish-irodasi va yetuklikka intilishi bilan bog‘liq.

20.2. Pedagogik takt. Ofitserning pedagogik axloqi. Pedagogik texnika va uning tarkibiy qismlari

Pedagogik takt – bu yuqori insonparvarlik, o‘qituvchining qadr-qimmatini hurmat qilish, bolalar, ota-onalar, ishdagi hamkasblar bilan munosabatlarda adolat, chidamlilik va o‘zini tutishni o‘z ichiga olgan o‘qituvchining xulq-atvori va harakatidagi mutanosiblik hissi. Pedagogik takt – bu pedagogik axloqni amalga oshirish shakllaridan biridir.

Pedagogik axloq-odobning muhim talablaridan biri muallim ham, ota-ona ham, tarbiyachilar ham, atrof-tevarakdagi shaxslar ham o'smir yoshlar bilan muomala qilganda pedagogik takti saqlashi, bolani izzat-nafsiga tegmasligidir.

Pedagogik texnika o'qituvchiga o'quv faoliyatida ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi. Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida o'qituvchining nutq madaniyatini, ya'ni savodli gapirish, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etishi, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini aytib o'tish mumkin.

Pedagogik texnikaning bosh tarkibiy qismi pedagogning mimik va pantomimik ifodaligidir. Anik imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zli tushuntirish yoki e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomala vositalari hisoblanadi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda o'qituvchining o'z hissiy psixik holatini boshqarishi, o'zida eng qulay hissiy (ijodiy) jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatini saqlash, o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahoratida muhim rol o'ynaydi. Bu mahorat, pedagogning kasbiy jihatdan o'z-o'zini nazorat qilishini ta'minlaydi. Ko'p yillar davomida sog'lom asab tizimini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zerikishdan o'zini tiyishga yordam beradi.

Shunday qilib, o'qituvchining pedagogik texnikasi - bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali, ularga o'z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beradi. Bolalar bilan bevosita muomala qilishda, pedagogning xuddi ana shu malakalari yoki ularning yo'qligi, uning xulq atvorida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi, o'qituvchi har bir ishni tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishini bilishi lozim. U o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalanuvchilarga namuna bo'lsin. Pedagogik texnika o'qituvchi malakalarining shunday yig'indisidirki, u o'qituvchining eng yaxshi ijodiy xulq-atvoriga, boshqacha qilib aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarda samarali ta'sir ko'rsatishga yordam beradi. Mukammal pedagogik texnika, pedagogning vaqti va kunlarini ijodiy ish uchun bo'shatib beradi. Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatish jarayonida, bolalar bilan muomala qilishda, zarur so'zni topish yoki

muvaffaqiyatli chiqmagan ohangini tushuntirishga o'z fikrini chalg'itmaslik imkonini beradi.

Pedagogik texnikani egallab olgan o'qituvchi, ovozi bo'g'ilgandan yoki o'zining ish bilan bog'liq bo'lmagan qandaydir kechinmalarini unutishni bilmaslikdan azoblanib yurmaydi. Demak, pedagogik texnikani egallash, o'qituvchining o'z kasb mahoratidan qanoatlantirish darajasini o'sishiga olib kelishi mumkin.

Haqiqiy pedagog ta'sir ko'rsatishda o'qituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir vaqtda namoyon bo'ladi. Nutq, imo-ishora, mimika, harakat bilan birga sodir bo'ladi. Uzluksiz o'zini tuta bilish, ta'sirchan vositalarga berilmaslik imkonini beradi.

Individual pedagogik texnika pedagogning yoshi, mijozi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi, anatomik, fiziologik xususiyatlariga ancha bog'liq bo'ladi.

Pedagogik texnikaning shakllanishi shaxsning sifatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, nutqni ifodali, sof, savodli bo'lishi ustida ishlash, fikrlashning ravon bo'lishiga ta'sir qiladi. Psixik faoliyatni mustaqil tartibga solish usullarini egallash, fe'l-atvor bilan bo'lgan hissiy vazminlikning rivojlanishiga olib keladi. Pedagogik texnika malakalarining shakllanish darajasida, o'qituvchining umumiy madaniyati, imkoniyatlari nomoyon bo'ladi. Agar pedagogning nutqi qashshoq va tartibsiz bo'lsa, bo'lar-bo'lmas sabablar bilan o'z hissiyotlariga erk bersa, tarbiyalanuvchi hissiyotiga salbiy ta'sir qiladi.

Pedagoglarning o'quvchilar bilan bevosita muloqoti, tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayondan ikki tomonlama axborot almashiladi. Ya'ni, pedagog boshqarish subyektidan, obyektga, "o'quvchilar"ga boradi. Va aksincha, obyekt, subyektga boradi. Pedagog bevosita shaxslararo muomaladan o'z tarbiyalanuvchilari, umuman, jamoa, undagi ichki jarayonlar haqida g'oyat xilma-xil axborotga ega bo'ladi va h.k.

Pedagogik muomala vositasi orqali qanday axborot olishni qarab chiqar ekanmiz, o'quvchining shaxsi haqidagi axborotini muhimligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bevosita muomala shaxsning g'oyat xilma xil sharoitlarda va ko'rinishlarda o'rganishga imkon beradi. U faqat shaxsning xulq atvorida namoyon bo'ladigan, erkin va eng ta'sirchan tashqi belgilarigina qayd etish imkonini berib qolmaydi. Pedagog o'quvchilar bilan muomala qilar ekan, juda mayda detallarni ham anglab olishga qodir bo'ladi, bu detallar sirdan qaraganda

unchalik ahamiyatli bo'lmay, shaxsda sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlari bo'yicha bo'lishi ham mumkin. Bu hol, shaxsni chuqur tushunish imkonini beradi, tashqi qatlam ostida boshqa usullar bilan aniqlab bo'lmaydigan narsalarni topish imkonini beradi. Pedagoglik faoliyati, kishini o'zi duch keladigan hodisalarni tahlil etish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi. Bu esa o'z sheriklari ahvolini fahmlab bilib olish va ular haqida hukm yuritish qobiliyatini oshiradi. Nihoyat, pedagogning o'quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning xatti-harakatlarida chuqur ma'no va haqiqiy sababini turli vaziyatlarda payqab oladi. Buning uchun namuna sifatida o'zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning xulq-atvor usullaridan foydalaniladi. Bu narsa pedagogik faoliyatida ayniqsa sezilib turadi. Bu qonuniy bir holdir. Chunki biz kundalik hayotda odamlar bilan muomalada bo'lar ekanmiz, ularning xulq-atvorini bilib olamiz, biz uni go'yoki o'qiganday bo'lamiz, ya'ni xulq-atvorning tashqi ko'rinishlari ahamiyatini tushunib olamiz va shu tariqa kontekstda hosil bo'lgan, o'zining ichki psixologik rejasiga ega bo'lgan tekstni ma'nosini ochib beramiz. Bu o'qish, yo'l-yo'lakay bo'ladi, chunki atrofimizdagilar muomala jarayonida, bizda ularning xulqiga doir ma'lum darajada avtomatik tarzda mavjud bo'lgan psixologik ma'no hosil bo'ladi.

Muloqotda ishontirish, ta'sir etish usullaridan foydalanish

Muomala shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab olgan tushuncha hisoblanadi. Muomala kategoriyasi, keng aloqani mujassamlashtirib, odamlar o'rtasida o'zaro munosabatni aks ettiradi. Muomalaning eng muhim tarkibi, muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi. Muomala, hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib, ko'p qirrali jarayon hisoblanadi.

Muomala quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

1. Kommunikativ (bir tomonlama axborot uzatish).

2. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashinuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri tilga va nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar.

3. Interfaol (ikki tomonlama ta'sir) - muloqotga kirishuvchilarning o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, balki xatti-harakati va xulq-atvori o'zaro ta'sir o'tkazishi tushuniladi.

4. O'zaro bir-birini idrok qilishi, anglashi. Bunda muloqotga kirishuvchilar o'zaro bir-birini idrok qilishi jarayoni namoyon bo'ladi. Ya'ni, ulardan biri ikkinchisining ishonchiga loyiq aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega inson sifatida idrok qilinadi.

Muomalaning tarkibiy qismlarini birgalikda, yaxlit olib qarash, hamkorlik faoliyatida namoyon qiladi. O'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorlik faoliyatiga kirisha olsa, shaxsni shakllantirishning maqsad va vazifalariga o'zaro ta'sir va tushunuvchi yo'lga qo'ya olsa, shundagina pedagogik muomala amalga oshadi.

Pedagogik muomala – bu ofitser-pedagogning talabaga ta'sir o'tkazish, ularning bir-birlari bilan hamkorliklarining faoliyatidir.

Hamkorlik o'zaro axborot almashinuvi, turlicha kommunikativ vositalar yordamida ofitser tomonidan talabalar bilan o'zaro munosabatni tashkil qiladi. Pedagogik faoliyatda muomala muayyan dastur asosida maqsadni amalga oshirish, rejalashtirish va o'tkazish funksiyasini bajaradi.

Muomala:

-O'quv faoliyatini yakka holda bajarishning vositasi;

-Tarbiya jarayonini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik tizimi;

-Ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi, o'qituvchi bilan talabalar o'zaro munosabatining muayyan tizimini tashkil qilishning usuli;

-Talaba individualligini takomillashtirish, iste'dodini qaror toptirish imkonini beruvchi jarayon sifatida xizmat qiladi.

Muallim, pedagogik jarayonda yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o'qituvchiga, uning axloqiy sifatlariga, o'quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida yuksak talablar qo'yiladi. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar, yoshlar bilan muloqotda bo'ladi. Bolalar ta'lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy axloq normalarini o'zlashtiradi. O'quvchi muomala odobini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladi. Pedagoglar jamoasida o'qituvchilar o'rtasidagi muomala-munosabatlar insonparvarlik, ixtiyoriylik tamoyillariga

asoslanadi. Ular, odatda, ikki xil bo'lib, biri - rasmiy, ikkinchisi - norasmiy muomala deyiladi.

Rasmiy muomala-munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunlari, direktiv hujjatlariga asoslanadi. Norasmiy muomala pedagogik etikaning qonuniyatlariga asoslanadi va jamoaning har bir a'zosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. Muomala odobi, psixologik qonuniyatlar, odob normalari, qoidalari, talablari pedagoglar jamoasining fikri asosida bajariladi. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bir kishining ishi emas. Uni pedagoglar jamoasi bajaradi. Ta'lim-tarbiyada ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun o'quv yurti butun jamoasi, hamma o'qituvchilar birlashib harakat qilishlari lozim. Har bir muallimning xatti-harakati, xulqi, muomalasi pedagoglar jamoasining maqsad talablariga mos bo'lmog'i kerak. Jamoaning ayrim o'qituvchiga ta'siri, pedagoglar jamoasida shakllangan muomala odobi munosabatlariga bog'liq.

Muomala jarayonida va hamkorlik faoliyatida ofitserning talabalarga ta'sir o'tkazish natijasida ularda:

- o'z-o'zini va o'zgalarni hurmat qilish;
- o'z-o'zini va boshqalarning faoliyati, xulqini baholash;
- ma'suliyat bilan qarashi, ma'lumotli bo'lishlari hamda boshqalarga nisbatan muayyan etiketga, odob-axloq normalariga rioya qilish shakllanadi.

20.3. Pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning asosiy yo'nalishlari

Ijod, ijodiylik, bunyodkorlik, yaratuvchanlik murakkab, ruhiy jarayon bo'lib, u avvalo, o'qituvchi-pedagoglarning fikrlashi, dunyoqarashi, mustaqil faoliyat ko'rsatishi, xotirasi, diqqati, irodasi bilan chambarchas bog'langan. Sharqning buyuk mutafakkirlari ijodiy tafakkurga shunday ta'rif beradi:

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida yangi ijtimoiy munosabatlarga faol kirisha oladigan, dekmokratik, huquqiy tamoyillarga asoslangan erkin fuqarolik jamiyat qurishda o'zining insonparvarlik burchi va kasb ma'suliyati bilan yashay oladigan yetuk shaxslarni tarbiyalash dolzarb muammo hisoblanadi.

Har qanday mehnatning muvaffaqiyati va samarasi uni tashkil etishga, bu mehnatni uyushtirishga ta'sir etadigan shart-sharoitlarga, faoliyatni amalga oshirish yo'llariga bog'liq.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish deganda, pedagogik jarayonni boshqarish uchun pedagogika-psixologiya fanining eng so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda o'z ishini ijodiy tashkil etib, yangiliklarni yaratish tushuniladi. O'qituvchi mehnati uning vaqti bilan bog'liq bu ishning muvaffaqiyati vaqtdan umumli foydalanish, o'zining imkoniyatlarini to'la hisobga olish, o'quv tarbiya jarayonida o'zini namoyon etish va o'zining kimligini, qanday ekanini, nimalarga qodir ekanligini tasdiqlash bilan bog'liq.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish, birinchi navbatda, o'zining ijodiy imkoniyatlariga ishonish demakdir. O'qituvchi ta'lim jarayonini to'la tasavvur etishi kerak, uning qonuniyatlarini, bolani bilish imkoniyatlarini yaxshi anglashi kerak.

Pedagogik mehnat natijasi o'quvchilarni mustaqil ishlay olishi, isbotlay olishi, tahlil qila olishidir.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda namoyon bo'ladigan 3 ta asosiy belgilar:

1. Vaqtdan imkon qadar samarali foydalanish;

2. Mehnat va dam olish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlardan samarali foydalanish, uni tashkil etish;

3. Barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda mehnat qilishi uchun har tomonlama g'amxo'rlik qilish.

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda o'qituvchining kun tartibi va ish joyi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zi uchun eng optimal yuqori samara beradigan kun tartibini topa olishi kerak.

Pedagogik mehnatning samarasi, maqsadi va faoliyat vazifasiga ko'ra bilishda va aniqlay olishdir. Shundagina shuni ilmiy tashkil etish mumkin bo'ladi. Bu o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning birinchi tamoyilidir.

2-tamoyili faoliyat uslubini belgilash.

3-tamoyili pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda texnikadan vosita sifatida samarali foydalanish tushuniladi. Bu tamoyil ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik texnika va texnik vositalar yig'indisi ko'zda tutiladi.

4-tamoyili ta'lim-tarbiya ishini rejalashtirish hisoblanadi. Reja ta'lim-tarbiya faoliyatini tartibga solish. Uning modelini yaratish. Tayanch sxemalarini topish masalalaridan tashkil topadi. Shular aniqlansa, o'qishda rivojlanish, tarbiyalash jarayoni yengillashadi.

Tayanch soʻzlar: Mehnatni ilmiy tashkil etish, tamoyillar, oʻqituvchi shaxsiy ijodiy faoliyatini rejalashtirish.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogik mehnat nimadan iborat?
2. Pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning yoʻnalishlarini aytib bering.
3. Pedagogik mehnatni rejalashtirishni tushuntiring.

GLOSSARIY – IZOHLI SOʻZLAR LUGʻATI

HPP – harbiy pedagogika psixologiya.

PP- pedagogika psixologiya

ChHT – chaqiriqqa qadar harbiy tayyorgarlik

ChQBT – chaqiriqqa qadar boshlangʻich tayyorgarlik

QK – qurolli kuchlar

MD – mudofaa doktrinasi

OQQ – ommaviy qirgʻin qurollari

YaTTMI - yakka tartibdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar

KAHX – kontrakt asosidagi harbiy xizmatchi

MMT – maʼnaviy maʼrifiy tayyorgarlik

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston”. Toshkent-2019 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-sonli Qarori// Xalq so‘zi, 2018-yil 6-avgust.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996-y.
5. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” //T.: ”O‘zbekiston”, 2017-y.
6. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – uengilmas kuch”. // T.: Ma’naviyat, 2008-y.
6. Karimov I.A. “Ma’naviy yuksalish yo‘lida” //T.: O‘zbekiston, 1998-y.
7. Abdullaeva SH.A. Pedagogik diagnostika.-Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2010.
8. Abdullaeva SH.A. Hamkorlik pedagogikasi.-Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2017.
9. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya.-T.: “Universitet”, 2002.
10. Асмолов А.Г. Психология личности. – М.: МГУ, 1990.
11. Военная психология. Учебник. А.Г.Маклаков. – Санкт-Петербург: Питер, 2005 г.
12. Naydarov F., N. Xalilova. Umumiy psixologiya.-T.
13. Караяни А.Г., Сыромятников И.В. Прикладная военная психология. - СПб: Питер, 2006 г.
14. Uzoqov A.M. Talabalarda vatanparvarlik darajasi ko‘rsatkichlarini pedagogik tahlil qilish va baholash. Uslubiy qo‘llanma. B. “Durdona”, -2020.
15. Чаповаленко И.В. Возрастная психология (Психология развития и возрастная психология). – М.: Гардарики, 2006г.

16. Оганесян Н.Т. Педагогическая психология. Система разноуровневых контрольных заданий: Учебное пособие. / Н.Т.Оганесян. – М.: КНОРУС, 2006.
17. Милорадова Н.Г. Психология и педагогика: Учебник. – М.: Гардарики, 2005.
18. Психология и педагогика. Под.ред. А.А.Радугина. – М., 2003.
19. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. Toshkent-1999.
20. A.Satib-Aldiev, A. Karimjonov Harbiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2004.
21. Ch.R.Nasriddinov. Harbiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan”, 2004-y.
22. Munavvarov A.K.-«Oila pedagogikasi». Toshkent, «O‘qituvchi»-1994 y.
23. Abdulla Avloniy – “Turkiy guliston yoxud axloq”. “O‘qituvchi”, Toshkent-1967 yil.
24. Uzoqov A.M. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining vatanparvarlik darajasini rivojlantirish // Uzluksiz ta’lim, 2019, №1,- B.14-17.

Uzoqov Asliddin Mexritdinovich

**HARBIY TA'LIM FAKULTETI
HARBIY PSIXALOGIYA VA PEDAGOGIKA**

O'quv qo'llanma

**Muharrir: Ya.Olimov
Tex.muharrir: F.Raximov
Musahhih: M.Shodiyeva
Badiiy rahbar: M.Sattorov**

Nashriyot litsenziyasi № 022853. 04.03.2022.

Original maketdan bosishga ruxsat etildi: 20.04.2022. Bichimi 60x84.

Kegli 16 shponli. "Times New Roman" garnitura 1/16.

Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog'ozi.

Bosma tabog'i 22,8. Adadi 50. Buyurtma №8.

"BUXORO DETERMINANTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Buxoro shahar Namozgoh ko'chasi 24 uy

Tel.: +998 98 778 47 27